O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2025-12/3
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2025

Bosh muharrir:
Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d.,prof.	*Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.	*Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent*
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d.,prof.	*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d.,prof.	*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.*
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.	*Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.*
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.	*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.	*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,	*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.*
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.	*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.	*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.	*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD*
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.	*Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.*
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.	*Salayev San’atbek Komilovich, i.f.d., prof.*
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.	*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.	*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.	*Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dos.*
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.d., dos.	*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.	*Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.	*Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.*
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.	*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.	*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.	*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.	*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.*
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc	*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.	*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.	*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.	*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.	*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.	*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.	*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.	*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.	*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD	*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№12/3 (133), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2025 y. – 324 b. – Bosma nashrning elektron varianti - https://www.mamun.uz/bulletin

ISSN 2091-573 X
Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

© Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2025

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Abduraupov O.A. Qirg‘izlarning oilaviy urf-odat va marosimlari 6
Alimov O.S. Ikkinchi jahon urushi yillarida qashqadaryolik xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligi 10
Aliyeva F. O’zbekistonda xotin-qizlar salomatligini saqlash bo’yicha tashkil etilgan yo’nalishlar 12
Azodov A.O., Sadullayev B.P. Kat qal’a yodgorligining o'rganilish tarixi va sopollari klassifikatsiyasi 15
Bazarbayeva N.A. Jizzax vohasi hunarmandchiligida usta-shogird an'anasi: meros va davomiylik 17
Bekmuradov S.T., Muxtorova G.A. Mahmud Yalavoch va uning Movarounnahr tarixida tutgan o‘rni 20
Biykuziyev A.A. Mauriylar davlatining parchalanishi va Shimoliy Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixi 24
Elmurodova B. O‘rta asr Qashqadaryo shaharlari shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari 27
Ergashbayev Sh.Sh. Mahallalarda yoshlarning tadbirkorlik faoliyatining tarixiy shakllanishi va zamonaviy transformatsiyasi 30
Eshonqulova X.N. “Hujum” harakatining tashkil etilish sabablari va uning ijtimoiy oqibatlari 32
Hamidova M.S. Jadidchilik harakati vakili - Muhammad Zohir Bekievning hayoti va faoliyatiga nazar 35
Jo‘rayev X.T. Mustamlaka davrida Turkistonda maorif tizimining tashkil etilishi 40
Jumaniyazov S.M. Shayboniylar davrida Xorazmda madaniy hayot va ilm-fan yutuqlari 43
Jumaniyazova F.J., Sobirov S.U. Miniatyuralarda tasvirlangan marosimlarda aks ettirilgan kiyimlar va ularning tasnifi 45
Kamolov A.A. Ikkinchi jahon urushidan keyin soliq siyosati strategiyasining shakllantirilishi tarixi 48
Kenjayev J.O. Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashabbuslari va faoliyati 51
Kenjayeva G. Buxoro xonligi va Hinddiston o’rtasida elchilik va savdo-iqtisodiy munosabatlari yo’lga qo’yilishi 57
Komolov D.P., Rizvonov Sh.M. O‘zbekiston Respublikasida soliq idoralarining shakllanishi va rivojlanishi tarixi 60
Luhmonov Sh.S. Turkistonda vaqtinchalik mahalliy banknotlarning chiqarilishi va undagi muammolar tarixshunosligi 64
Mahmudova L. O’zbekistonda sog’liqni saqlash sohasidagi yangilanish davri 66
Mamatov B.T. XVII asrda Buxoro xonligida Yalangto'sh Bahodir olib borgan diplomatik munosabatlar 68
Matyakubova M.M. Xiva xonligida shaharlarning iqtisodiy, madaniy va ma’naviy markaz sifatidagi o‘rni 71
Nasriddinova N.X. Surxondaryoda baxshichilik san’atining shakllanish jarayoni 76
Nazarov S.B. Xorazmda matbuot vujudga kelishining tarixiy asoslari 78
Normatova F.A. Markaziy Osiyo xalqlarining yozuv tizimida mifologik tasavvurlarning aks etishi va ularning madaniy merosdagi o‘rni 81
O‘ralov G‘.A. Qashqadaryo viloyatining tarixiy madaniy yodgorliklari tadqiqi xususida 84
Omonov D., Abduraximov S. Qarshi vohasida olib borilgan so’ngi arxeologik qidiruv tadqiqotlari natijalari 86
Parnomov A.B. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda evakuatsiya va mehnat safarbarligi 91
Qambarova O.K. XIX-asr II yarmi-XX asr boshida Turkistonning chegaradosh davlatlar bilan savdo-munosabatlari tarixi 94
Qarshiboyeva Sh. “Zarafshon” gazetasining tarixi va uning matbuotchilikda tutgan o‘rni 96
Rajabova N. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasidagi bekliklarda maorif tizimi: madrasa va maktablar tarixidan lavhalar 99
Rajabova Z.K. Xorazmda sovet hokimiyati davrida pochta tizimi 102
Rashidov Sh.X. O‘zbekistonda internet jurnalistikasining institutsional rivoji: siyosat, amaliyot va dolzarb muammolar 104
Raximova Sh.Sh. O’zbekiston hududida shaharlar vujudga kelishining geografik va iqtisodiy omillari 108
Rustamova D.A. Pul va pulning rivojlanishi tarixidan 111
Saidov S. O’rta Osiyoda bronza davri shaharlarini shakllanish jarayonlari 113
Shodiyeva F.I. Shaharlardagi urbanizatsiya jarayonlari 116
Shukurov S. O‘zbekiston va Turkmaniston: strategik tashqi iqtisodiy hamkorlikning tarixi 119
Toshov K., Bo‘ronqulova M.A. Urush yillarida Surxondaryo vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o‘ziga xos jihatlari 122

To'xtamisheva F.M., Fayzullayeva M.Z. Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik rivojida zargarlik sohasining tutgan o'rni va ahamiyati 125
Turg'unboyev A. O'zbekistonda xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar va ularning huquqlarining himoya qilinishi tarixi 128
Turopova M.A., Shadmonova S.B., Yusupov S.Q. Davlat nashriyotlarining tashkil topishi 131
Urunov X.R. Pak Chon Xi (Samuel Undong) hokimiyatga kelishi arafasida Koreya Respublikasining ijtimoiy-siyosiy ahvoli 134
Vaxidov S.O. O'zbekiston ziyoratgohlari: qadimgi tarix, yangicha mazmun 136
Xakimov A. Mustamlaka boshqaruvi sharoitida kadrlar siyosati: XIX asr oxiri –XX asr boshlari 139
Xasanov B. Ikkinchi jahon urushi davrida front ortidagi tibbiy yordam tizimi 141
Xidirova D.N. Saljuqiylar va Vizantiya munosabatlari tarixida Miriokefalon jangining ahamiyati xususida 144
Xo'jayorov A.O. XVIII–XIX asrlarda Qashqadaryo vohasida adabiy jarayonlar va adiblar faoliyati 147
Xushmatova S. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti 150
Yuldosheva Z.E. Buxoroning Buyuk ipak yo'lidagi o'rni va savdo madaniyati 152
Yusupov Z.U. Mustaqillikdan keyingi O'zbekiston tarixida siyosiy modernizatsiya 155
Аметов А.Н. Қорақалпоқларнинг кундаликли турмуш ҳаётида отларнинг тутган ўрни ҳақида маълумотлар 157
Ғанжаров С.Ҳ. Умар Қурбоний меросининг тарихий аҳамияти 161
Қултўраев И.Р. Қарши чўлини ўзлаштириш жараёнида демографик ўзгаришлар ва аҳоли миграцияси 164
Матякубов Ш.С. Қўнғирот сулоласига мансуб Хива хонларининг кундалик одатий машғулотлари 167
Мирзалиева Г.Р. Комплексный зооархеологический анализ остеологических материалов, полученных при раскопках памятника Бибиона–Чуст в пределах Ферганской долины 170
Наврузов С. "Шарқона муьжизалар кашфиётчи"си 173
Раҳманов Ҳ.Ў. Марказий Суғд қишлоқ маконларини суғорма деҳқончилик воҳалари бўйича жойлашув динамикасига доир айрим мулоҳазалар 178
Торениязов Ж.Е., Тайрова Б.П. Жанубий Орол бўйи шаҳарлари тарихшунослиги 184
Юсупов А.Э. Искусство книжного оформления в эпоху Темуридов 189
Юсупов А.А. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистон маҳаллий сармоядорларнинг мустамлакачилик тузумига муносабати 193
Янгибаева Д.У. Трансформация научно-культурной жизни Бухары в конце XIX – начале XX века: от традиции к модернизации 195

PEDAGOGIKA FANLARI

Abbasova Z.X. Investigation of the effect of generative AI, Chat GPT, on the writing development of secondary school students 199
Abdieva D.K. Kreativ fikrlashning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri 201
Abdunazarova Z.I. Implementation of the information technology "miro" in the development of students' speech competence 204
Abduraxmonov V.A. The importance of artificial intelligence in learning a foreign language: positive and negative aspects 207
Azizova I. Enhancing english language acquisition through total physical response (TPR) 209
Bayxanov M.B. Kommunikativ strategiyalar — ta'lim boshqaruvining samarali vositasi 212
Bazarova D.B. Tarqatma materiallardan foydalanish orqali rus guruhlarida o'zbek tilini o'qitish 215
Bekchanov X.O'.,Isayeva Z.B. "Tabiiy fanlarning shakllanishi va rivojlanishi" mavzusini keys-stadi texnologiyasi asosida tushuntirish 218
Bekkulova H.Z. Til o'qitishda so'z boyligini mustahkamlashning innovatsion usullari 221
Bekmuradova G.O'. Ta'lim - tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning muhim omillari 224
Boysariyeva F. Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish: lingvokultural yondashuvning ahamiyati, usullari va amaliy qo'llanilishi 227
Daniyarova N.D. Video materials as a tool for improving speaking competence in multilingual efl settings 229
Djumaniyozova E.Q. Advantages of using artificial intelligence capabilities in teaching english 231
Ernazarov A.B. Sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati 234
Ibroximova L.I. Chet tili o'qitishda real hayotiy vaziyatga asoslangan kommunikativ yondashuv 237
Jabborov Sh.D. Xalq og'zaki ijodining pedagogika fani taraqqiyotiga ta'siri 240
Jurayeva B.N., Mustafayeva S.U. The effectiveness of interactive teaching methods in enhancing student engagement in modern education 243
Jurayeva Z.Sh., Vahobova S. Psychological barriersto effective speech skills development 246
Kambarova D.Y. The implementation of the collaborative learning approach in ESP history course 249

Karimova Sh.B., Yo'ldoshalieva M.B. Features of implementing cooperative learning in uzbek EFL classrooms: opportunities and challenges 251
Khushbokova G. Designing effective lesson plans for mixed-ability english classes 253
Kuvandikova S. Cognitive and emotional factors of foreign language anxiety in non-linguistic students 256
Madaminova N. Abu Homid G'azzoliy ma'naviy merosida diniy bag'rikenglik masalalari 259
Masharipova Yo.R. Til va adabiyot ta'limidagi Is'hoqxon Ibrat asarlarining ahamiyati 263
Matkarimova N.M. Ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma'naviy - axloqiy kamolotini ta'minlashga qaratilgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 265
Maxmudova U.M. O'quvchilarni milliy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalashda hikoyalarning ahamiyati 269
Mirqodirova N.Kh. Modern educational methods applied in teaching english as a structured system for individuals pursuing studies or careers in economics 271
Mirzabayev X.R. Talabalarda jismoniy faollik va akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik bog'liqlik 274
Muratova Sh.I. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga montessori metodikasini o'rgatishning ahamiyati 276
Nurmuratov A.Ya. Chet til pedagoglarining grant loyihalari bilan ishlashning nazariy va amaliy jihatlari 278
Qayumova O.B. O'quvchilar lug'at boyligini rivojlantirishning fiziologik asoslari 281
Qudratov O'.G'. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda g'oyaviy ta'limning roli 285
Saparov B.B. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish 287
Saydullayeva X.U. Talabalarning thinking va problem-solving ko'nikmalarini ta'lim texnologiyalari orqali rivojlantirish 289
Sobirova Z.M., Jurayeva Sh.E. How metaphors influence public opinion in news and social media 291
Sotvoldiyev Q.R. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ijtimoiy faollik va liderlik qobiliyatlariga ta'siri 294
Temirova S. Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish 296
Usmonova D.S., Mo'minova S.S. Professional ingliz tilini o'rgatishda vazifaga asoslangan o'qitish (task-based learning) ning samaradorligi 299
Vaisov A.X. Yangi O'zbekiston sharoitida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash va ularning ijtimoiy maqomini oshirish mexanizmlari 301
Xoliqova M.A. Exploring the Effectiveness of AI-Powered Speaking Tools in Improving Pronunciation and Fluency 304
Xonbabayev Sh.D. Bo'lajak o'qituvchilarni milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 307
Yakubova N. Developing philology students' sociocultural competence in higher education 309
Yo'ldosheva M.V. Talabalarga sotsiolingvistik birliklarni tarjima qilishni o'qitish metodikasi 312
Айтжанова У.С., Хасанов Х.Х. Мактабгача таълим ташкилоти ўрта гурух болаларини халқ амалий безак санати орқали нафосат рухда тарбиялаш 315
Жўраев Х.Н., Хасанов Х.Х. Мактабгача талим ташкилоти ёшидаги болаларни лой ёки пластилин билан ишлаш ва ижодкорлигини ошириш методикаси 318
Курбанова З.А. Игровые технологии в преподавании русского языка как иностранного: от механики до мотивации 320
Кучкаров Ф., Муртазаева У. Влияние мультимедийных технологий на мотивацию и активность студентов в учебном процессе 323
Рахматуллаева Г.А. Лексическая компетенция как основа обучения чтению студентов-нефилологов 326

UO'K 39(575.2)

QIRG'IZLARNING OILAVIY URF-ODAT VA MAROSIMLARI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

O.A.Abduraupov, katta o'qituvchi, Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekiston hududida yashagan qirg'izlarning oilaviy urf-odat va marosimlari etnografik manbalar hamda dala yozuvlari asosida tahlil etilgan. Maqolada patriarxal oilalar tuzilishi, nikoh shakllari (endogam, egzogam, levirat, sororat), "qalin" to'lov tizimi, "qiz olib qochish", "beshik kerti", "qalliq o'yin" kabi qadimiy udumlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, o'zbek, qoraqalpoq va boshqa etnoslar bilan madaniy ta'sir natijasida qirg'izlar urf-odatlarida yuz bergan o'zgarishlar ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *qirg'izlar, patriarxal oila, urf-odat, marosim, nikoh, qalin, levirat, sororat, "beshik kerti", "qiz olib qochish", etnologiya.*

Аннотация. *В статье рассматриваются семейные обычаи и обрядность кыргызов, проживавших на территории современного Узбекистана в конце XIX – начале XX веков. На основе этнографических источников и полевых записей в статье анализируется структура патриархальной семьи, формы брака (эндогамия, экзогамия, левират, сорорат), а также традиции «калым», «похищение невесты», «бешик керти», «игра жениха», раскрывающие их социально-экономическое содержание. Особое внимание уделено влиянию культурных взаимодействий с узбеками и каракалпаками на трансформацию кыргызских обычаев.*

Ключевые слова: *кыргызы, патриархальная семья, обычай, обряд, брак, калым, левират, сорорат, этнология, обычаи.*

Abstract. *This article examines the family customs and rituals of the Kyrgyz people living in the territory of present-day Uzbekistan during the late 19th and early 20th centuries. Based on ethnographic sources and field data, the study analyzes the structure of patriarchal families, various forms of marriage (endogamy, exogamy, levirate, sororate), and traditional practices such as bride price (qalin), bride kidnapping, cradle betrothal (beshik kerti), and the so-called "groom's play", revealing their socio-economic meanings. It also highlights the influence of cultural interactions with neighboring Uzbek and Karakalpak communities on the transformation of Kyrgyz customs.*

Keywords: *Kyrgyz, patriarchal family, custom, ritual, marriage, bride price, levirate, sororate, cradle betrothal, ethnology.*

Kirish. Bugungi O'zbekiston hududlarida qadimdan turli etnik guruhlar, millatlar va elatlar birga yashab kelgan. Tarixiy taraqqiyot davomida ular har biri o'zining milliy qadriyatlarini – tili, madaniyati, urf-odat va an'analarini shakllantirgan. Ushbu qadriyatlar muayyan etnik guruhlarning alohida millat ekanini belgilaydigan asosiy xususiyatga aylangan. O'zbekiston hududlarida yashovchi tub joy xalqlari orasida qirg'izlar alohida o'rin tutadi. Qirg'izlar bugungi kunda respublika aholisining sezilarli qismini tashkil etadi va ular, keyingi o'rta asrlardagi tarixiy jarayonlar natijasida ko'chmanchi hayotdan o'troq turmush tarziga o'tgan, bu esa ularning hayot shakli va madaniyatida aniq o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbekiston qirg'izlarining hayot tarzida katta o'zgarishlar sodir bo'lgan va bu o'zgarishlar mazkur davrdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq.

Dunyodagi barcha xalqlar kabi qirg'izlarning ham asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan urf-odat va marosimlari mavjud. Tadqiqotchilar tomonidan "urf-odat va marosimlar" tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan. Xususan, etnolog A. A. Ashirov ushbu tushunchaga shunday ta'rif beradi: *"Urf-odat"* deyilganda, kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddat takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan hulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Demak, ushbu marosim va urf-odatga berilgan qisqacha ta'riflardan ko'rinib turibdiki, urf-odat tushunchasi inson hayotining barcha sohasini o'z ichiga qamrab oladi, marosim tushunchasi

esa ijtimoiy hayotning talab va ehtiyoji bilan yuzaga keladigan hodisadir. Bir vaqtning o‘zida bir shaxs yoki bo‘lmasa ko‘pchilik tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan qoida urf-odat bo‘lsa, marosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan xatti-harakatdir” [1, 147]. Demak, aytish mumkinki, maishiy turmush va oila hayotiga tegishli bo‘lgan urf-odat va marosimlar ijtimoiy hodisadir. Jamiyatning har bir a’zosi o‘z hayoti davomida ko‘plab oilaviy urf-odat va marosimlar qatnashchisi bo‘ladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarida oilaning ikki asosiy shakli mavjud bo‘lgan: *katta patriarxal oilalar* va *kichik* yoki *oddiy oilalar*. Har ikkala oila tuzilishi ham o‘sha davrning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini aks ettirgan.

Barcha ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi xalqlarda xususan, qirg‘izlarda ham XX asr boshlariga qadar mazkur patriarxal oilalar bo‘lgan [2], [3], [4], [5]. Katta patriarxal oilalar uchun xarakterli jihat shundaki, unda oilaviy munosabatlar patriarxal tartiblar asosida qurilgan. Katta oilalar odatda bir necha nikohlangan kichik oilalarni birlashtirgan. Ya’ni, er-xotin, uni uylangan bir nechta o‘g‘il va nabiralari o‘z farzandlari bilan katta patriarxal oilalarda birga yashaydilar.

Katta patriarxal oilalarda ota figurasining avtoritar mavqei an’anaviy tuzilmalar va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Bunday tuzilmada ota oila boshlig‘i sifatida, nafaqat oila iqtisodiyoti va ta’minoti uchun javobgar bo‘lgan, balki oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni ham tartibga solish vazifasini o‘tagan. Odatda, patriarxal oilalarda oila a’zolarining soni bir necha o‘n nafarni tashkil qilgan. Masalan, tadqiqotchi A. Jumagulov qirg‘izlardagi patriarxal oila a’zolarining soni 30–40 tadan ortiq bo‘lganligi va bu kabi katta oilalar, asosan, o‘ziga to‘q boylarda uchrashini ko‘rsatib o‘tadi [5, 16].

Tadqiqotchilar patriarxal oilalarning saqlanib qolishiga sabab sifatida oila boshlig‘ining katta xo‘jalikni yuritish, mulkka egalik qilish va ishchi kuchini yo‘qotmaslik ehtiyojidan kelib chiqqan, deb hisoblaydilar. Katta patriarxal oilalar ham dehqonchilik, ham chorvachilik xo‘jaligini yuritgan aholida uchraydi. Er-xotin Nalivkinlar ham katta oilalar o‘zbek boylarida ko‘proq uchrashini yozganlar [7, 214]. M. A. Bikjanovaning tahlillari vodiyning shimoliy qismida joylashgan chekka qishloqlardagi katta patriarxal oila a’zolarining yashaganligini ko‘rsatib beradi. Bunday katta oilalarda 60–70, hatto 100 nafargacha a’zolar bo‘lgan [7, 23].

Natija va tahlillar. O’tkazilgan dala-etnografik tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, O‘zbekistondagi qirg‘izlarda ham o‘tmishda katta patriarxal oilalar bo‘lib, oila a’zolari soni 20–30 nafarni tashkil qilgan. Masalan, hozirgi Andijon viloyati Marhamat tumani Qushchi qishlog‘ida yashovchi Muhammadjon Abdurahmonovning aytishicha, ushbu qishloqda yashagan Abduqahhor boyning bir nechta xotini va ko‘plab bolalaridan iborat katta oilasi bo‘lgan. U uch nafar xotini, to‘rt nafar uylangan o‘g‘li va nabiralari bilan birga yashagan, bir qozondan 40 dan ko‘p kishi ovqatlangan [13].

Shuningdek, Jizzax viloyati Zomin tumani Yettikechuv qishlog‘ida yashovchi, qirg‘iz millatiga mansub Temirboy Qarshiyevning aytishicha, ushbu qishloqda XX asrning 20–30-yillarida ham ko‘plab katta oilalarni uchratish mumkin edi. Masalan, shu davrda yashagan Saparov Yo‘ldoshboyning 5ta xotini bo‘lib, ulardan 23 nafar farzand ko‘rgan, ularning hammasi bitta katta oilani tashkil etgan [14].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qirg‘izlarda ham nikohning bir necha turi saqlanib qolgan, ular urf-odatlar va an’analarga asoslangan. Ushbu nikoh shakllari barcha xalqlardagi kabi qirg‘izlar orasida ham mavjud bo‘lgan. *Endogam* (yaqin qarindosh urug‘lar o‘rtasidagi ichki nikoh): bunday nikoh turi yaqin qarindosh- urug‘lar orasidagi ichki nikohlarni ifoda etadi. Bunday nikohlar urug‘lararo aloqalarni mustahkamlash va oilaviy aloqalarni kuchaytirish maqsadida amalga oshirilgan. *Egzogam* (o‘zga urug‘ elatlar bilan bo‘ladigan tashqi nikoh): qirg‘izlarda ichki nikohlarga qarshi, o‘zga urug‘lar yoki etnik guruhlar bilan nikoh tutish. Bu o‘zga urug‘lar orasida aloqalarni rag‘batlantirish va yangi hamkorlar tashkil etish uchun muhim hisoblangan.

Levirat (beva qolgan aka yoki ukaning xotiniga uylanish). Ushbu nikoh turi, beva qolgan xotinning yaqin qarindoshi, jumladan aka yoki ukasi bilan nikohlashishni ifoda etadi. Bunday xotinni oilada qoldirish va uning huquqlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilgan.

Sororat (vafot etgan xotinning singlisiga uylanish): bu holatda erkak o‘z xotini vafot etganidan keyin uning singlisiga uylanadi, bu ham oilaviy aloqalarni mustahkamlash va xotinning oilasi bilan munosabatlarni saqlash maqsadida amalga oshirilgan. Bunday nikoh turlari qirg‘izlarning urf-odatlar va an’analarini aks ettirib, ularning ijtimoiy tuzilmalari va oilaviy hayotida muhim rol o‘ynagan. Ushbu nikohlar mahalliy urf-odatlar, oilaviy aloqalar va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan.

“Endogam” nikohga nisbatan yarimko‘chmanchi va yarimo‘troq etnik jamoalarda turlicha munosabat shakllangan. Qozoq va turkman jamoalarida ichki nikohni cheklash, asosan, genetik xilma-xillikni saqlash va irsiy kasalliklarning oldini olish kabi sabablarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Aksincha, qirg‘izlarda ona tomonidan qarindoshlarga uylanish mumkin bo‘lganligi, bu jamoada boshqacha ijtimoiy tuzilmalar va an’analar mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday holatda oila orasidagi mustahkam aloqalarni saqlash va oila merosini bir joyda ushlab turish mumkin bo‘lgan.

Qirg‘izlarning urf-odatlariga ko‘ra, ota tomon qarindoshlaridan biriga uylanish uchun etti avlod o‘tgan bo‘lishi shart hisoblangan. Bunday cheklovlar qirg‘izlar orasida endogam nikohlarni kamaytirish va jamoatning genetik xilma-xilligini saqlashga yordam bergan. Biroq, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qirg‘izlarda endogam nikohlarga qo‘yilgan cheklov asta-sekin yo‘qola boshladi. Natijada, o‘troq o‘zbeklar va boshqa etnik guruhlar ta’sirida qirg‘izlarning oilaviy urf-odatlari va an’analariga o‘zgarishlar kirgan, bu ularning nikoh an’analariga ham ta’sir ko’rsatgan [8, 51].

Tadqiqotlarda *“levirat”* ya’ni aka yoki ukaning beva qolgan xotiniga uylanish urf-odatining qoldiqlari ko‘plab etnoslardagi kabi qirg‘izlarda ham saqlanib qolganligi ta’kidlab o‘tiladi [5, 32]. Masalan, Jizzax viloyati Baxmal tumani Abay qishlog‘ida yashovchi qirg‘iz millatiga mansub Tayrbekov G‘ozibek otaning eslashicha, ularning qishlog‘ida vafot etgan akaning bevasiga ukasi uylanish urf-odati XX asr 50-yillarda ham kuzatilgan [14].

Beva qolgan ayolni erining yaqinlariga qayta nikohlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad, iqtisodiy masalalar bilan bog‘liq edi. Bunday holat qirg‘izlarning patriarxal oilaviy tartiblari va iqtisodiy an’analari bilan bog‘liq. Beva ayol uchun to‘langan qalin va mahr qaytarish zarurligi iqtisodiy yuk bo‘lib, uning oiladan tashqariga chiqib keta olmasligiga sabab bo‘lgan. Levirat udumiga muvofiq, beva ayol erining yaqin qarindoshlaridan biri turmushga chiqadi. Bu, avvalo, beva ayol va uning bolalarining kelajagini iqtisodiy jihatdan ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan. Patriarxal oila tartiblari bilan bog‘liq ravishda, beva ayolning oiladan ketishi maqsadga muvofiq hisoblanmagan. Bu nafaqat iqtisodiy sabablar, balki oilaviy farovonlik va jamoatchilikning barqarorligini saqlash uchun ham muhim hisoblangan. Beva ayolning oila orasida qayta nikohlanishi oilaviy barqarorlikni saqlash, uning yordamida bolalarning tarbiyasi va kelajagini ta’minlashga yordam beradi [9, 147]. O‘z navbatida, ushbu masala jamoaviy tartibda hal etilgan.

Patriarxal oila tartiblariga ko‘ra *“sororat”* –vafot etgan xotinining singlisiga uylanish odatining qoldiqlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bir qator etnoslarda saqlanib qolgan edi [2, 13]. Bundan ko‘zlangan maqsad nafaqat mulk, balki marhumning etim bolalariga g‘amxo‘rlik qilish bilan ham bog‘liq bo‘lgan.

Etnograf L. S. Tolstova o‘zining “Farg‘ona vodiysi qoraqalpoqlari” nomli asarida ushbu odat haqida to‘xtalib, eri vafot etgan kelin uning aka-ukalaridan biriga, agar marhumning aka-ukasi bo‘lmasa, yaqin qarindoshlaridan biriga nikohlangan. Bunday an’ana *“jesiremezdi boshqag‘a bermaymiz”* (yetimimizni ya’ni etim qolgan bolani boshqa yot odamga berishni xohlamagan) tartibiga amal qilinganligini bilan izohlangan [10, 112].

Yuqorida ko‘rsatilgan odatlardan tashqari, O‘rta Osiyoning ko‘plab xalqlarida nikoh bilan bog‘liq yana *“bel quda”* va *“chaqaloqlar nikohi”* kabi udumlar bo‘lgan. Ilmiy adabiyotlarda bu kabi udumlar haqida yaxshi ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, bir qator tadqiqotchilar o‘z ishlarida bunday udumlarni qirg‘izlarda ham bo‘lganligi va uni amalga oshirilish tartiblari haqida yozib qoldirganlar [5, 236], [4, 238], [8, 52]. “Bel quda” va “beshik quda” udumlari Markaziy Osiyo madaniyatlarida keng tarqalgan bo‘lib, bular kelajakda oila aloqalarini mustahkamlash va jamoa orasida ijtimoiy hamkorlikni oshirish uchun muhim sanalgan. Bunday udumlar orqali ikki oila o‘rtasidagi aloqalar rivojlanib, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni birlashtirishga xizmat qilgan. Jizzax viloyati Baxmal tumani Sutlibuloq qishlog‘ida yashovchi Nazira Yigitova bu haqida shunday deydi: “Oldinlari bizda *“beshik kerti”* degan udum bo‘lgan, hozirda ham uchrab turadi. *“Beshik kerti”*

beshikda yotgan qizaloqqa munchoq yoki sirg‘a taqib, meniki deb qo‘yishlik. *“Beshik kerti”* qilingan qizga har doim hayitlik, bayramlik (boylar yilqi, sigir) berib turgan” [15].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mintaqaning barcha xalqlari, shu jumladan, qirg‘izlarda ham kelinning ota-onasiga qalin to‘lash odati mavjud bo‘lgan. Bugungi kunda tadqiqotchilar qalinning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, uning kelib chiqishi va rivojlanishi, turli davrlardagi ko‘rinishi, miqdori, shuningdek, boshqa jihatlari haqida turli fikr-mulohazalarni bildirganlar.

Qalinning turi va miqdori turli etnik jamoalarda farq qilgan. Qalin to‘lash turini tanlash etnik guruhning xo‘jalik shakli, ya’ni qanday mahsulot ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Chorvachilik bilan shug‘ullanadigan jamoalar qalinni, asosan, chorva bilan to‘lashgan. Dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan jamoalar esa qalinni asosan, pul yoki dehqonchilik mahsulotlari bilan to‘laganlar, uning miqdori ham mavjud shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan. Chorvador xalqlar, jumladan, qirg‘izlarda qalin asosan, chorva bilan to‘lanib, uning miqdori o‘troq o‘zbeklarnikiga nisbatan ko‘p bo‘lgan.

Qalin (kelin uchun) to‘lash sharti va uning miqdorining kattaligi hamda ota-onalarning ushbu nikohga qarshiligi qirg‘izlar orasida *“kiz ala kachuu” (“qiz olib qochish”)* odatining paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Tadqiqotchi E. Jumanazarov namanganlik qirg‘izlarda ushbu urf-odat to‘g‘risida quyidagilarni yozadi: “...Yigit bunday nikohga odatda, sovchi jo‘natish orqali qizning ota-onasini rozi qila olmagan holda qo‘l urgan. Ba’zi hollarda esa yigitning ota-onasi u uylanmoqchi bo‘lgan qizni kelin qilishga qarshilik ko‘rsatganlarida, o‘zi xohlagan qizni olib qochib ketgan. Bunda endi yigit qallig‘ini o‘z ota-onasinikiga emas, balki akalari yoki amakilaridan birinikiga olib kelgan. Ota-onani boshqalar o‘rtaga olib rozi qilganlaridan keyingina kelin qaynota-qaynonasinikiga kelgan” [8, 52].

O‘tmishda chorvador xalqlarda “qalliq o‘yin” odati qalin bilan bog‘liq holda paydo bo‘lib, ushbu odat qirg‘izlarda *“kyuyyoyolyoyo”* yoki *“kyuyyoyolyop baruu”* deb atalgan. Tarixiy ildiziga ko‘ra *“qalliq o‘yin”* odati matriarxat aloqalar hukmron bo‘lgan davrga borib taqaladi.

A. D. Grebenkin Zarafshon vohasi yarimo‘troq o‘zbeklarida XIX asrning 70-yillariga oid *“qalliq o‘yin”* odati haqida quyidagi ma’lumotlarni ko‘rsatadi: “... Qalinning bir qismi to‘langandan keyin kuyov kelin bilan tez-tez nikoh munosabatlariga kirishadi, kelinning ota-onasi esa o‘zlarini buni go‘yoki sezmayotgandek qilib ko‘rsatadilar” [11, 66]. Demak, *“qalliq o‘yin”*ning kelib chiqishi va mohiyati jihatidan yoshlar orasida er-xotinlik munosabatlari boshlanganligini anglatadi. Biroq, belgilangan qalin to‘la to‘lanmagunga qadar kuyov kelinni o‘z uyiga olib ketishga va rasman nikohini e’lon qilishga haqqi bo‘lmagan. Aksariyat holatlarda kuyovning moliyaviy holati qalinni to‘la to‘lash imkoniyatini bermaganligi sabab, *“qalliq o‘yin”* bir necha yil davom etgan. O‘zbeklarning qarluq qabilasida “qalliq o‘yin” davrida kelin homilador bo‘lmasa, jamiyat tomonidan tanqid qilingan [12, 145].

Etnograf L. S. Tolstova Farg‘ona vodiysidagi qoraqalpoqlar haqida yozganida, ushbu davrda tug‘ilgan bolalarni "ong jaqta tush", ya’ni "u tomonda tug‘ilgan bola" deb atashganini qayd etgan. Qalin to‘liq to‘langandan so‘ng, kelin erining uyiga ko‘chib o‘tgan va chaqaloqni beshigi bilan ota uyiga olib kelgan [10, 119]. O‘zining tarixiy ildizi bilan qadimgi jamiyatga borib taqaladigan *“qalliq o‘yin”* udumi XX asr boshlariga kelib etnos turmush tarzidan asta-sekin yo‘qolib ketadi.

Xullas, qirg‘izlarning oilaviy turmush tarzida matriarxat va patriarxat jamoalariga xos bir-biriga zid bo‘lgan tamoyillarni o‘z ichiga olgan ko‘plab arxaik tartiblar saqlanib qolgan. Bunday qadimiy davrga xos tartiblar qirg‘izlarning oilaviy urf-odat va marosimlarida ham namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘laroq shuni aytish kerakki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qirg‘iz xalqining oilaviy urf-odatlari, marosimlari va nikoh tizimi ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Birinchidan, patriarxal oila modeli jamiyatning iqtisodiy barqarorligini, ishlab chiqarishning oilaviy mehnat asosida tashkil etilishini ta’minlagan. Bu hol, ayniqsa, yarim ko‘chmanchi chorvador jamoalarda yaqqol ko‘rinadi. Ikkinchidan, nikoh turlarining (endogam, egzogam, levirat, sororat) xilma-xilligi urug‘-aymoq aloqalarini mustahkamlab, oila va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy bog‘liqlikni kuchaytirgan. Uchinchi jihat, “qalin”, “qiz olib qochish”, “beshik kerti”, “qalliq o‘yin” kabi udumlar iqtisodiy va axloqiy me’yorlarni tartibga soluvchi ijtimoiy institut vazifasini bajargan. To‘rtinchidan,

o‘zbek, qoraqalpoq va boshqa qo‘shni etnoslar bilan madaniy aloqalar natijasida qirg‘iz oilaviy urf-odatlarida sintez jarayoni kuzatilgan, bu esa madaniy o‘zaro boyishning muhim shaklini yaratgan.

Bugungi kunda bu urf-odatlarning ayrim qoldiqlari ramziy va modern shakllarda yashab kelmoqda. Masalan, “qalin” to‘lovining rasmiy emas, lekin timsoliy ko‘rinishlari, “beshik kerti”ning o‘zaro tanishuv yoki qarindoshlik ramzi sifatidagi talqinlari, to‘y marosimlaridagi qadimiy unsurlarning zamonaviy formalar bilan uyg‘unlashuvi shular jumlasidandir. Shunday qilib, qirg‘izlarning oilaviy marosimlari nafaqat tarixiy meros, balki bugungi etnomadaniy o‘zlikning uzviy qismi sifatida ham qadrlanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аширов А., Атаджанов Ш. *Этнология (ўқув қўлланма).* – Тошкент: 2007. – Б. 147.
2. Дыренкова Н. П. *Брак, термины родства и психические запреты у киргизов.* // Сб. этногр. матер. – Ленинград, 1927. – №2.
3. Годенков Н. И. *Киргизы и каракиргизи Сырдаринской области.* Т. I. – Ташкент, 1889.
4. Абрамзон С. М. *К вопросу патриархальной семьи у кочевников Средней Азии.* – М.: КСИЭ, 1958. – Вып. XXVIII. – С. 19–21.
5. Джумагулов А. *Семья и брак у киргизов Чуйской долины.* – Фрунзе: Илим, 1960. – 236 с.
6. Наливкин В., Наливкина М. *Очеркы быта женщины оседлого туземного населения Ферганы.* – Казань, 1886. – С. 214.
7. Бикжанова М. А. *Семья в колхозах Узбекистана.* – Ташкент: Академия наук, 1959. – С. 23–24.
8. Жуманазаров Э. *Қирғиз ва ўзбекларнинг никоҳ удумлари тарихидан (XIX аср охири – XX аср бошлари).* // Ўзбекистон тарихи, №3, 1990. – Б. 51–52.
9. Абдуллаев У. С. *Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX–XX аср бошлари).* – Тошкент: Янги авлод, 2005. – Б. 147.
10. Толстова Л. С. *Каракалпаки Ферганской долины (Историко-этнографический очерк).* – Нукус: 1959. – С. 112–119.
11. Гребенкин А. Д. *Узбеки.* // СРТ. – М., 1972. – Вып. II. – С. 66.
12. Шаниязов К. Ш. *Узбеки-карлуки.* – Т.: Фан, 1964. – С. 145.
13. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Marhamat tumani Qushchi qishlog‘i (2018);
14. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Zomin tumani Yettikechuv qishlog‘i (2023);
15. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Baxmal tumani Abay va Sutlibuloq qishloqlari (2023).

UDK 94(575.1):305-055.2

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA QASHQADARYOLIK XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY HAYOTDAGI FAOLLIGI (1941-1945 YILLARDA)

O.S. Alimov, o’qituvchi, Turon universiteti, Qarshi

Annotatsiya*. Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Qashqadaryo viloyatidagi xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi ya’ni sanoat va qishloq xo’jaligidagi ishlab chiqarish hajmini oshirishda asosiy kuch ekanligi ochib berilgan.*

Kalit so’zlari. *Ikkinchi jahon urushi, mehnat safarbarligi, artellar, paxtachilik, chorvachilik, kadrlar muammosi.*

Аннотация. *В статье раскрывается социальная активность женщин Кашкадарьинской области в годы Второй мировой войны, подчёркивается их роль как основной силы в увеличении объёмов промышленного и сельскохозяйственного производства.*

Ключевые слова: *Вторая мировая война, трудовая мобилизация, артели, хлопководство, животноводство, кадровый дефицит.*

Abstract. *The article reveals the social activism of women in the Kashkadarya region during the Second World War, emphasizing that they became the main driving force in increasing in dustrial and agricultural production.*

Key words: *Second World War, labor mobilization, artels, cotton growing, livestock breeding, workforce shortage.*

Ikkinchi jahon urushi yillarida o’zbek xalqining front ortidagi fidokorona mehnatini, g’alabaga qo’shgan hissani haqida ko’plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, E.A. Voskoboynikov xalqimizning front ortidagi qahramonliklarini, X. G’ulomov urush yillarida aholining turli jabhalardahi hayotini tadqiq etadi. N.R. Ibragimova shaharlik aholini qishloq xo’jaligi uchun zarur

bo’lgan texnikalarning ehtiyot qismlarini yetkazib berishi, sanoat korxonalaridagi fidokorona mehnatlarini yorib bergan.

Qashqadaryo viloyati aholisining urush yillarida front ortidagi hayoti haqida S. Turdiyev va N. Irkayeva tadqiqotlar olib boradi. Ushbu tadqiqotlarda viloyat aholisini ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, qishloq xo’jaligini izga solinishida ayollarning o’rni, evakuatsiya jarayonlarini tahlil qilinadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Qashqadaryolik xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligi 1941-1945 yillarga oid nashr etilgan maqolalar, ilmiy ishlarni statistic usullardan va tarixiy-qiyosiy metodlardan foydalangan holda tahlil qilindi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida sanoat korxonalarida ish vaqtini va sur’atini tashkil qilishga asosiy e’tibor qaratildi. Urushga safarbar etilganlarning asosiy qismi 18-55 yoshlardagi erkaklar bo‘lib, ular urushgacha ishchi kuchining asosini tashkil etgan edi. Umumiy hisobda, Sobiq Ittifoqda armiyaga safarbar etilganlar jami soni 5 mln.dan 11,3 mln. kishigacha ko‘paydi.[1] Yuqori malakali kadrlarning tanqisligi, texnikaning frontga jo‘natilishi, yoqilg‘i, dastgohlar, asbob-uskunalar yetishmasligi mehnat unumdorligining pasayishiga olib keldi. Kadrlar sonining kamayishi va ularning malakaviy sifatining tushishi urush yillarida O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun tezlikda mehnat resurslarini topish masalasini kun tartibidagi asosiy masala qilib qo‘ydi. Ishlab chiqarish jarayoniga avval jalb qilinmagan, ammo mehnatga layoqatli aholi guruhlari ishlab chiqarishga jalb qilindi. Ayollar,o‘smirlar va qariyalar mazkur guruhlarni tashkil etdi. Qolaversa, ishchi, kolxozchi va xizmatchilar kunlik ish soatlari yoki yillik mehnat kunlari uzaytirildi.

1941 yil 26 iyundagi Oliy Kengash Prezidiumining qarori bilan sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi va savdo korxonalari rahbarlariga ishchi xizmatchilarni asosiy ish vaqtidan tashqari 1-3 soatlik majburiy qo‘shimcha ishlarlarga jalb qilishga ruxsat berildi. 16 yoshga etmagan ishchi xodimlar uchun 2 soatgacha majburiy ortiqcha mehnat belgilandi. SHuningdek, mehnat ta’tili bekor qilindi.[5]

Qaror bilan belgilangan 11 soatlik ish kuni, aslida 12-14 soatgacha cho‘zildi. Bunday tadbir ishchi va xizmatchilar sonini oshirmasdan, ishlab chiqarish quvvatini taxminan 30%ga ko‘tarish imkonini berdi. Qarorga muvofiq harbiy korxonalarning barcha xodimlari safarbar qilingan deb hisoblanib, korxonalarga biriktirib qo‘yildi. Mehnat intizomini buzganlar uchun jazo choralari ko‘rildi. Ish joyidan o‘zboshimchalikbilan ketib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddatda qamoq jazosiga hukm qilindi.[2]

Bu tadbirlar natijasida O‘zbekistonda safarbar etilgan ishchilar soni tiklandi. 1941-1942 yillarda O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida band xodimlar soni 142.6 mingdan 148,7 mingacha, sanoat ishchilari soni esa 102,5 mingdan 102,9 mingga etdi.[7] Umuman, urush yillarida Ittifoq bo‘yicha 12 mln.ga yaqin kishi mehnatga safarbar etildi.[8]

O‘zbekiston hukumatining 1941 yil iyulda “Korxonalarda ishlash uchun xotin-qizlardan kadrlar tayyorlash haqida”gi qarori e’lon qilindi. Hukumat qaroridan kelib chiqib, sanoat korxonalarida ishchi xotin-qizlar ulushi ortib bordi. Masalan, statistik ma’lumotlarda keltirilishicha, 1942 yilning oxiriga borib, sanoat ishchilarining 63,5 foizi, qishloq xo‘jaligi vakillarining 65 foizi xotin-qizlardan iborat edi. Vaholanki, 1940 yilda, ya’ni urushdan oldin respublika bo‘yicha sanoat sohasida band ayollar jami ishchilarning 43%ini tashkil etgan edi.[9]

Qarshi shahridagi “Uchqun” arteli viloyat sanoat tizimida yetakchi o‘rinlardan birini egallab keldi. Mazkur korxona faoliyatini ham harbiy izga solish tadbirlari olib borildi. Korxonada kadrlar tayyorlash, ishlab chiqarish topshiriqlarini oshirib bajarish va mehnat unumdorligini oshirish borasida katta ishlarni amalga oshirildi. 1941 yilning ikkinchi yarmida artelda 72 kishi rejani 150-200 foiz va undan oshirib bajardi. Zaripova, Nuriddinova, G‘ulomova, Amirqulova, Bo‘ronova kabi o‘nlab ishchilar jamoa o‘rtasida etakchilik qildi. Har bir artellar qoshida ishchilarni tayyorlash bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari ochildi. Xususan, “Uchqun” arteli qoshida ham tayyorlov jarayoni amalga oshirilib, unda 70 dan ortiq kadr tayyorlandi.Bu kabi tadbirlar o‘z o‘rnida korxonaning ishlab chiqarish ko‘lamining oshishiga xizmat qildi. Masalan, “Uchqun” artelida 1944 yili harakatdagi armiya uchun 21351 ta harbiy ko‘ylak, 20933 ta qo‘lqop tayyorlandi.[3] Qolaversa, korxona maxsulotlarining turlari ham ko‘payib borib, ular soni yuzdan oshib ketdi.

Siyosiy targ‘ibot va tashviqot ishlarining kuchaytirilishi tufayli aholining faolligi ortdi. Masalan, SHahrisabz tumanidagi Stalin nomli artel 1941 yilning birinchi noyabridayoq davlat rejasini 103,3 foiz, Qarshi shahridagi “Uchqun” arteli 114 foizga bajardi. Umuman, Qarshi shahar mahalliy sanoat korxonalari rejani 102,1 foizga bajardi.[4] Korxonalarning rejani ortig‘i bilan bajrishlari o‘z o‘rnida ortiqcha maxsulot ishlab chiqarilishiga xizmat qildi. Masalan, Qamashi tumani “Guliston” arteli rejadan tashqari 19042 so‘mlik mahsulot ishlab chiqardi.[10] Bizga ma’lumki, bu davrda O‘zbekistonning aksariyat viloyatlari sanoati,asosan, mayda hunarmandchilik artellari hisobiga to‘g‘ri keldi. 1940 yili O‘zbekistonda engil sanoat korxonalari soni 85 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1944 yilga kelib ularning soni 174 taga etdi. Qarshi shahridagi sanoat korxonalari asosan hunarmandchilik artellaridan iborat bo‘ldi. Artel ishchilari orasida mehnat faoliyatiga siyosiy tus berish tendensiyasi kuchaytirildi, korxonalarda doimiy ravishda ko‘p ming kishilik mitinglar tashkil etib turildi. Masalan, Toshkentdagi to‘qimachilik kombinatida ham ko‘p ming kishilik miting bo‘lib o‘tdi. Ishchi M.Nosirova mitingda so‘zgachiqib shunday deydi “Biz o‘zbek xotin-qizlari urushda o‘rnimiz qaerda bo‘lishini yaxshi bilamiz, har bir vatanparvarning o‘rni ishlab chiqarishda bo‘lishi kerak. Biz front manfaati uchun, g‘alaba uchun rejani ortig‘i bilan bajarishga doim tayyormiz”. Bu da’vat xotin-qizlarni, o‘smirlarni, keksalarni ommaviy ravishda ishlab chiqarishga kelib, erkaklar o‘rnini egallashga undadi.

Xulosa. Ikkinchi jahon urushi yillarida Qashqadaryo viloyatidagi sanoat va qishloq xo’jaligi tarmoqlarida xotin-qizlar mehnat resruslarining asosiy qismini tashkil etadi. Asosiy ishchi kuchi bo’lgan erkaklarning frontga safarbar etilishi, ishchi kuchiga bo’lgan talabning oshishi natijasida hukumatning tegishli qarori bilan ayollar mehnatidan foydalaniladi. Natijada sanoat artellarida mehnat unumdorligi jadal sur’atlarda o’sadi. Qishloq xo’jaligida paxtachilik bilan birga chorvachilik sohasida ham ayollarining fidokorona mehnatlari orqali hosildorlik yaxshi bo’lib, davlat ehtiyojlari o’z vaqtida ta’minlanadi. Ayollarining mehnat jarayonlari qiyin va o’g’ir bo’lishiga qaramasdan urush yillarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi omil bo’lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Мурманцева В. Советские женщины в Великой Отечественной войне. – Москва: Мысль, 1974. – С. 17.
2. Мурманцева В. Советские женщины в Великой Отечественной войне. – Москва: Мысл, 1974. – С. 25.
3. Экономическая жизнь СССР (хроника событей и фактов). Книга первая. – Москва: Советская энциклопедия, 1984. – С. 331.
4. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi, 361-fond, 1-ro‘yxat, 6-ish, 82-84-varaq.
5. Qashqadaryo haqiqati, 1941 y. 28 dekabr, 1942 yil 2 yanvar.
6. O‘zbekistonningyangitarixi. K.2. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent, 2000. – B. 440.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA), R 837-fond, 32-ro‘yxat, 3318-ish, 17-varaq.
8. Ubaydullaeva M., Qashqadaryo xotin-qizlari shijoati // O‘zbekiston Respublikasi 1941-1945 urush yillarida. Ilmiy to‘plam.– Qarshi, 1995.– B. 38-39.
9. Tog‘aeva A.Z. Ikkinchi jahon urushi yillarida: front ortidagi o‘zbekistonlik ayollar // “Ikkinchi jahon urushi: xalq jasorati va tarix saboqlari”xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari, 2020 yil 27 may, - B. 37.

UO’K 614.2:618(575.1-17)

O’ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR SALOMATLIGINI SAQLASH BO’YICHA TASHKIL ETILGAN YO’NALISHLAR
(Janubiy viloyatlar misolida)

F.Aliyeva, magistrant, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mamlakatimizda Prezidentimiz rahnamoligida aholi salomatligini mustahkamlash, aholi salomatligini muhofaza qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Pirovardida respublikamizning eng olis hududlarida ham zamonaviy shart-sharoitlar asosida tibbiyot muassasalari bunyod etilib, ular zarur asbob-uskunalar bilan jihozlandi*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, Xotin-qizlar, Sog‘lom avlod, onalik va bolalik, Xalqaro xayriya jamg‘armasi, reproduktiv salomatlik, Perinatal Markaz, «Sog‘lom ayol», rekonstruksiya*

Аннотация*. В нашей стране под руководством Президента вопросы укрепления здоровья населения, охраны здоровья населения и воспитания здорового поколения определены как одно из приоритетных направлений государственной политики. В результате, даже в*

самых отдаленных регионах республики медицинские учреждения построены на основе современных условий и оснащены необходимым оборудованием.

***Ключевые слова**: Узбекистан, Женщины, Здоровое поколение, Материнство и детство, Международный благотворительный фонд, Репродуктивное здоровье, Перинатальный центр, «Здоровая женщина», реконструкция*

***Abstract**. In our country, under the leadership of our President, the issue of strengthening the health of the population, protecting the health of the population, and raising a healthy generation has been identified as one of the priority areas of state policy. As a result, even in the most remote regions of our republic, medical institutions have been built on the basis of modern conditions and equipped with the necessary equipment.*

***Key words:** Uzbekistan, Women, Healthy Generation, Motherhood and Childhood, International Charity Fund, Reproductive Health, Perinatal Center, "Healthy Woman", reconstruction.*

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish hamda uning moddiy – texnik bazasini kengaytirish davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan tizimni yanada takomillashtirish, davolashning zamonaviy texnologiya va usullarini amaliyotga izchil joriy etish, tibbiyot xodimlari malakasini oshirish, ularning mehnatini rag‘batlantirish yuzasidan keng ko‘lamli amaliy ishlar olib borilmoqda. O‘zbekistonda onalik va bolalikni himoya qilishda moddiy-texnik bazani mustahkamlash borasidagi amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar o‘z samarasini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni asosida:

- yuqori samarali hammabop birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tashkil etildi;
- samarali shoshilinch tibbiy yordam tizimi yaratildi;
- moliyaviy tizim takomillashtirildi;
- sog‘liqni saqlashning barqaror va raqobatbardosh nodavlat tarmog‘i yaratildi;
- onalar va bolalar uchun tibbiy xizmatlar yaxshilandi.

Birgina «Sog‘lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya jamg‘armasining faoliyatiga nazar soladigan bo‘lsak, 1996 yil mobaynida jami 79.964.969.74 so‘mlik dori-darmon, 466.549,20 so‘mlik tibbiy apparatlar uchun extiyot qismlar va texnika, jamg‘arma dorixonalar tarmog‘i orqali sotildi.

Tug‘ruqxona va bolalar muassasalari moddiy texnik asosini mustaxkamlash dasturida qatnashib jamg‘arma budjetidan tashqari mablag‘lardan va xomiylardan, jamg‘armaning chet ellik qatnashchilarining moliyaviy yordamidan keng foydalanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 28 noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorini qabul qilinishi bu boradagi ishlarni yanada yuksak bosqichga ko‘tarilishiga asos bo‘ldi. 2012-2016 yillar davomida 593 ta muassasada qurilish va rekonstruksiya tadbirlari shuningdek, aholi yashash hududlardan uzoqda joylashgan qishloqlarda 102 ta QVP yangidan qurish ishlarini olib borish rejalashtirilib, 1 trln 376 mlrd. so‘mlik budjet mablag‘larlari jalb qilinishi ko‘zda tutildi. 2012-2016 yillar davomida sog‘liqni saqlash obyektlarida 48 ta yangi qurilish, 304 ta obyektda rekonstruksiya va 241 ta obyektda kapital ta’mirlash amalga oshirish rejalashtirilgan.[4]

Prezidentimizning 2012 yil 21 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi 1855-qaroriga asosan Sog‘liqni saqlash tizimi bo‘yicha 143 ta obyekt dasturga kiritildi. Tibbiyot muassasalari moddiy-texnik negizini modernizatsiya qilishga 300,3 milliard so‘m mablag‘, shu jumladan 42 ta yangi qurilish uchun 43,9 milliard so‘m yo‘naltirildi. Dastur bo‘yicha Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi, onkologiya dispanserlari, Surxondaryo viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, barcha viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari, tuman va shahar tibbiyot birlashmalari, shahar poliklinikalarini zamonaviy tashhislash va

davolash asbob-uskunalari bilan jihozlash maqsadida deyarli 25 million dollarga teng beshta investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidentining 2008 yildagi "2008-2012 yillarga mo‘ljallangan "Bolalikdan nogironlikning oldini olish borasida tug‘ma va irsiy kasalliklarni erta aniqlash Davlat dasturi to‘g‘risida"gi 897-sonli Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 14 ta skrining markazida 183 mingdan ortiq nasliy va tug‘ma kasalliklarga chalinish xavfli guruhiga kirayotgan homiladorlar tibbiy genetik tekshiruvlardan o‘tkazildi. Bolalar orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirish maqsadida emlash ishlari ijobiy yakunlandi. Bolalarda gelmintoz tarqalishiga qarshi kurash bo‘yicha strategik dastur ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Markaz mutaxassislari Vrachlar assosiatsiyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Ko‘kdumaloq koni, Zevarda koni, Janubiy va Shimoliy kon, Qorovul bozor konlarida UZI apparati va nevropotolog vrachi bilan 4200 nafar ishchi-xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tgazgan. Viloyatning tog‘, cho‘l va borish qiyin bo‘lgan hududlariga Viloyat xotin-qizlar qo‘mitasi, Respublika Salomatlik instituti Qashqadaryo filiali, AGITIKF, Reproduktiv Salomatlik hamda «Ona va bola skrining» markazi mutaxassislari, teleradiokompaniya, Ommaviy axborot vositalari, mahalla diniy maslahatchilari, «Sog‘lom avlod uchun» Xalqaro xayriya jamg‘armasi va boshqa nodavlat tashkilotlari «Sog‘lom oila» loyihasi bilan hamkorlikda 2006 yil 23000, 2007 yil 24400, 2008 yil 11900, 2009 yil 1 chorakning o‘zida 6250 nafar aholini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, aniqlangan kasalliklari bo‘yicha sog‘lomlashtirish ishlari amalga oshirildi. Tumanlardagi 138 ta QVP larda 22530 nafar aholini UTT apparati orqali tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, 2006 yilda 12600, 2007 yilda 16500, 2008 yilda 10250 ta davra suxbatlari, ma’ruzalar qilingan.

2013 yili Surxondaryo viloyati perinatal markaziga Yaponiyaning grant loyihasi doirasida shifoxona 114 ming 900 AQSH dollari qiymatidagi homila va chaqaloqlar uchun dopplerli zamonaviy UZI apparati, ixcham rentgen va homi-la kardiotokograf uskunalari o‘rnatildi. Denov tumani tibbiyot birlashmasi tasarrufida tashkil etilgan perinatal bo‘lim 160 o‘ringa mo‘ljallandi. Bu yerda yaratilgan sharoitlarga tayangan holda 60 nafar shifokor reproduktiv salomatlikni, jumladan, onalar va bolalar sog‘ligini mustahkamlashga xizmat qildi.

“Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi doirasida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, sog‘liqni saqlash tizimi moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash tadbirlarini amalga oshirish davom ettirildi. Ushbu maqsadlar uchun barcha manba hisobidan 7 trillion 480 milliard so‘m va 190 million AQSH dollaridan ziyod mablag‘ yo‘naltirildi.

2013 yilda yurtimizda mutlaqo sog‘lom bolalar tug‘ilishi 63 foizdan oshdi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida bu ko‘rsatkich 70-72 foizni tashkil etishini inobatga olsak, yurtimizda bu borada yuksak o‘sish sur’atlariga erishilayotganligiga amin bo‘lamiz. Yana bir muhim natija shundan iboratki, bolalarning irsiy xastaliklar va nuqsonli tug‘ilish xavfi 2000 yildagiga nisbatan 2013 yilda 14 foiz kamayganligida namoyon bo‘ldi. Yoki hozirgi vaqtda 92 foiz o‘g‘il-qizlarimizning vazni va bo‘yiga doir ko‘rsatkichlari Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti standartlariga to‘liq mos keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018 yil 7 dekabrdagi PF-5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 5 maydagi PF-6221-sonli “Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2016 yil 2 noyabrdagi PQ-2650-sonli “2016-2020 yillarda O‘zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 noyabrdagi PQ-4513-sonli “Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirish to‘g‘risida”gi qarorlari va soha faoliyatini takomillashtirishga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

2018 yil 11 iyunda Sog‘liqni saqlash vazirining "O‘zbekiston Respublikasida ayollar, bolalar va o‘smirlarga samarali akusher-ginekologik xizmatini tashkillashtirish hamda ko‘rsatilayotgan

tibbiy yordam sifatini yanada oshirish to‘g‘risida"gi 386-sonli buyrug‘iga muvofiq hududlarda xotin-qizlar “Sog‘lom ayol oyligi" doirasida tibbiy ko’rikdan o‘tkazildi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkin-ki, Respublikamizda epidemik barqarorlikni ta’minlash hamda xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish maqsadida amalga oshirilayotgan muhim tadbirlar natijasida o‘tgan yillar davomida aholi o‘rtasida poliomiyelit, difteriya, qoqshol kasalliklari ro‘yxatga olinmadi. Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar bo‘yicha epidemiologik barqarorlik ham doim meyorida saqlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. 2017 yil 14 yanvar.Toshkent.:O‘zbekiston.-2017.-B.18.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy Texnikaviy va Tibbiy hujjatlar Markaziy Davlat arxivi (keyingi sahifalarda O‘zR ITTHMDA tarzda beriladi), M-233-fond, 1-ro‘yxat, 2-varaq.

3. O‘zR ITTHMDA, M-372-Fond, 1-Ruyhat, 40-varaq.

4. O‘zR ITTHMDA. M-372-Fond, 1-Ruyhat, 41-varaq.

5. F.Sharipov. Mustaqillik dastxati//O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2013yil 25 yanvar № 4(921), -B.3.

6. O‘zR ITTHMDA. M-372-Fond, 1-Ruyhat, 41-varaq.

7. F.Sharipov. Mustaqillik dastxati//O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2013yil 25 yanvar № 4(921) -B.3.

8. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2013yil 8 fevral № 6(923)

9. O‘zR ITTHMDA. M-372-Fond, 1-Ruyhat, 95-varaq.

UO’K 930.25(555.3):902.3(555.3)

KAT QAL’A YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI VA SOPOLLARI KLASSIFIKATSIYASI

A.O.Azodov, kichik ilmiy xodim, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Xiva
Orcid ID: ***https://orcid.org/0009-0000-8837***
B.P.Sadullayev, katta ilmiy xodim, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Xiva

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek davlatchiligi tarixi, uning qadim buyukligidan so‘zlovchi qal’a va qo‘rg’onlari, moddiy topilmalarining bugungi yurtimiz iqtisodiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan turizm sohasi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi, Xorazm viloyati hududidagi chap qirg’oq Kat qal’a arxeologik obyektidagi tadqiqotlar va topilmalarning o‘rganilishi hamda restavratsiya jarayonlari va materiallarning muzeylarda saqlanishi, turizm sohasi uchun xizmat qilishi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Turizm, qal’a, qo‘rg’on, arxeologik yodgorliklar, Kat qal’a, sopol qozonlar*

Аннотация. *В данной статье рассматривается история узбекской государственности, значение ее крепостей и городищ, материальных находок, свидетельствующих о ее древнем величии, для сферы туризма, которая сегодня является одним из основных направлений экономики нашей страны, изучение исследований и находок на археологическом памятнике Кат-Кала на левобережье в Хорезмской области, а также процессы реставрации и сохранения материалов в музеях, и их обслуживание для сферы туризма.*

Ключевые слова: *Туризм, кала, крепость, археологические памятники, Кат-Кала, керамические горшки.*

Abstract. *This article discusses the history of Uzbek statehood, the importance of its fortresses and forts, material finds that speak of its ancient greatness, for the tourism sector, which is one of the main directions of our country's economy today, the study of research and findings at the archaeological site of Kat Qala on the left bank in the Khorezm region, as well as the restoration processes and preservation of materials in museums, and their service for the tourism sector.*

Key words: *Tourism, castle, archaeological monuments, Kat castle, ceramic pots.*

Asosiy qism: Prezidentimizning 2018-yil 15-iyun kuni O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi quriladigan hududga tashrif buyurib, bu yerdagi ko‘rgazmalar zalida O‘zbekiston tarixi

davrlar bo‘yicha, har bir asr, har bir allomaga oid manbalar va ashyolar asosida namoyish etilishi zarurligini ta’kidladi.

“Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam tariximiz haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lishi, katta ma’naviyat olib ketishi zarur” - dedi Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbek davlatchiligi tarixi 3-ming yilliklarga borib taqaladi bu davr mobaynida yurtimiz hududida sharq-u g’arbni bog’lab turuvchi qal’alar va karvonsaroylar qurilgan va madaniyatlar almashinuvida ona yurtimiz ko‘prik vazifasini bajargan. Bunday buyuk tarixga qiziquvchilar jahonda minglab topiladi. Qadim ajdodlarimizning merosidan to‘g’ri foydalansak, mahalliy va chet ellik sayyohlarni yurtimizga jalb qilib turizm ortidan davlatimiz iqtisodiyotiga hissamizni qo‘shamiz.

Bugungi kunda Xorazm viloyati hududidagi arxeologik yodgorliklarni o‘rganish jarayonida ham sopol buyumlar ko‘plab topilmoqda. Xususan keyingi yillarda Xorazm Ma’mun akademiyasi arxeologlari tadqiqot o‘tkazib kelayotgan Qiyot (Kat qal’a) shaharchasi arxeologik yodgorligidan ham Xorazm davlatchiligini davrlashtirish uchun kerakli bo‘lgan topilmalar ko‘plab aniqlanmoqda. Arxeologik yodgorlik rejalashtirilishiga ko‘ra, trapetsiya shakliga ega bo‘lib, u kuchli nuragan devorlarning konturidan yaqqol seziladi. Shahar shimoliy devorining uzunligi 290 m, janubiy – 285 m, sharqiy – 270 m va g‘arbiy qismi – 310 m ni tashkil etadi, shaharning umumiy maydoni esa 9,5 ga [Алимуҳаммедов.Р.С, С.66-67].

Yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar:

G.P.Snesarev, Ye.E.Nerazik va M.G.Vorobyeva [Снесарев Г.П, С.128],

M.Mambetullaev [Мамбетуллаев М., Юсупов Н.1973 г], D.Chunixin [Чунихин Д. 1987 г], Q.Sobirov va R.Abdirimov [Сабиров.К, С. 52-53.], Sh.Matrasulov, N.Yusupov, B.Sadullaevlar [Матрасулов Ш., Садуллаев Б. С. 98-100], B.Sadullaev [Садуллаев Б.П., Рахимов Ш.Б. С. 287-292] boshchiligida yodgorlikda tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqillik davridagi tadqiqotlar yodgorlikda mil.av. VI-V asrlarda va mil. II-IV asrlarda ham hayot mavjud bo‘lganligini isbotladi va uning antik davrdagi topografik qiyofasiga aloqador yangi malumotlarni taqdim qildi. Natijada shaharda 6 ta tarixiy davrni o‘z ichiga olgan hayot bosqichi aniqlandi va 6 ta sopol majmualari ajratilib, ishlab chiqildi:

1) Arxaik davr (mil.av. VI – V asrlar);
2) Ilk antik davr (mil.av. IV asr – mil. I asr);
3) So‘nggi antik davr (mil. I – IV asrlar);
4) Ilk o‘rta asrlar (V – VIII asrlar);
5) Rivojlangan o‘rta asrlar (IX – XIII asrlar);
6) So‘nggi o‘rta asrlar (XVII – XIX asrlar).

Bunday topilmalar orasidan arxaik davrga tegishli kulolchilik charxida yasalgan xum, xumcha, tog’oralarni, antik davrga tegishli xum, xurmacha va xumchalar bilan birgalikda ulardan ajralib turuvchi o‘choqboshi idishlari, suvdonlar Qo‘yqirilganqal’a, Qalaliqir 2, Xumbuztepa yodgorliklaridan ham aniqlangan.

Shahar hududida olib borilgan qazishmalarda aniqlangan sopol idishlarning salmog’i jihatdan antik davrning ilk bosqichiga oid sopollar katta o‘rinni egallaydi [Садуллаев Б… С.46]. Bu davrga oid idishlarning aksariyati xum, xumchalar bo‘lib ularning ustki qismida qizil angobdan turli xil tasvirlar ham chizilgan. Ayrimlari uchi o‘tkir toyoq yordamida tirnab naqshlar berilgan.

So‘nggi antik davrga oid sopollar orasida xum, xumcha, ko‘za, xurma yoki qozon va kosa bo‘laklari mavjud. Idishlardan xurma yoki qozon, shokosa va kosalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shuningdek, bu davrda tegishli qo‘lda yasalgan sopol buyumlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shahardan ilk o‘rta asrlarga oid idishlar esa oldingi davrlarga qaraganda kamroq o‘rganilgan. Bu davr sopollari aniqlangan umumiy sopollarning atiga 2%ini tashkil qiladi [Садуллаев Б… С.77]. Sopollarning asosiy qismi yirik idishlar, oshxona va o‘choqboshi idishlari hisoblanadi. Rivojlangan o‘rta asrlarga ya’ni IX-XI asrlarga tegishli bo‘lgan sopol idishlar asosan sirlanmagan idishlardan iborat. Ular orasida maishiy ahamiyatga ega idishlar ustunlik qiladi. Idishlarning aksar qismi kulolchilik charxida yasalgan. Sopollar orasidagi o‘choqboshi idishlari ko‘p sonli yupqa devorli

qozonlar bilan ifodalangan, ba'zan esa ular murakkab jimjimador profilga ham ega. Qozonlar loyi o'tga chidamli, kulrang, ko'p miqdorda mayda tosh qo'shilgan.

Metall idishlarga taqlid qilib ishlangan bunday qozonlar Xorazmda X -XII asrlarga xosdir[Вактурская Н.Н, С. 34-36]. Sirlanmagan idishlar bilan birgalikda sirlangan o'ta nozik bezaklar va ranglar uyg'unligidan foydalanib bodomsimon va geometrik naqshlar berilgan oshxona idishlari ham topib o'rganilgan. Ayrim idishlarda kufiy yozuvida yozilgan turli xil matnlar ham uchraydi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerak-ki, Xorazm diyori ko'plab arxeologik yodgorliklarga boy o'lkalardan hisoblanadi. Bu yodgorliklar esa bizga davlatchilik tariximizdan so'zlovchi arxeologik manbalarni taqdim qilishi bilan muhimdir. Kat qal'a yodgorligi ham shunday arxeologik topilmalarga va qadim tarixga ega yodgorliklardan sanaladi. Kat-qal'adagi tadqiqotlar jarayonida moddiy madaniyat namunalarining asosiy qismini sopol buyumlar tashkil etdi va turli tarixiy bosqichlarga oid kulolchilik mahsulotlarining qoldiqlari shahar tarixining iqtisodiy ravnaqi va inqirozi bilan bog'liq jarayonlarni o'zida mujassam etadi. Topilgan sopol buyumlar qoldiqlari Xorazm vohasi tarixidan balki yurtimiz tarixini o'zida aks ettirgan holda sayyohlar oqimini ko'paytirmoqda.

Arxeologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu qal'a doimo Xorazm vohasining muhim shahar markazlaridan sanalib kelingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Вактурская Н. Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX–XVII вв.) // ТХАЭЭ.Том. IV.М.,1959. С.261–342.

2. Топографик съемка "Маданий ёдгорликларни консервация ва реставрация қилиш илмий тадқиқот ва илмий лойиҳалаштириш институти" катта топографи томонидан амалга оширилган [Қаранг:Чунихин Д. Отчёт по археологическим(работы по первому этапу). Шифр – Ф/1, О/1, Д/53. – С. 4-5]. Алимуҳаммедов.Р.С, С.66-67

3. Снесарев Г.П. Хорезмские легенды... – С. 128.

4. Мамбетуллаев М., Юсупов Н. Отчет об археолого-топографических изысканиях на территории Хорезмской области в 1973 году. – Нукус, 1973. – С. 35-39. Архив Агентства культурного наследия. А 3611/М22;

5. Чунихин Д. Отчёт по археологическим исследованиям городища Кят-кала в Шаватском районе Хорезмской области в 1987 г. 46 стр.

6. Сабиров К. Хорезмийская фортификация... – С. 52-53.

7. Матрасулов Ш., Садуллаев Б. Археологические раскопки...– С. 98-100; Садуллаев Б. Серебряная монета.– С. 36-39; Матрасулов Ш. Хоразм вилояти археологик... Шифр – Ф/1, О/1, Д/107. 54 стр. Матрасулов Ш. и др. Заключительнқй. отчет...– Швифр – Ф/1, О/1, Д/122;

8. Садуллаев Б.П., Рахимов Ш.Б. Археологические исследования...– С. 287-292; Садуллаев Б.П. ва б. Чап қирғоқ Кат-қалъада... - 49 б; Садуллаев Б.П. ва б. 2022 йилда Чап қирғоқ Кат-қалъа...221-226.

9. Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация... – С. 310; Вишневская Н.Ю. Ремесленные изделия... –С. 34-36, рис.19/1-7.

10. Садуллаев Б.П. Чап қирғоқ Кат-қалъа Хоразмнинг қадимги ва ўрта асрлар шаҳри

11. https://president.uz/

UO'K 394.3(576.2):316.42

JIZZAX VOHASI HUNARMANDCHILIGIDA USTA-SHOGIRD AN'ANASI: MEROS VA DAVOMIYLIK

N.A.Bazarbayeva, o'qituvchi, O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Jizzax akademik litseyi, Jizzax

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Jizzax vohasi hunarmandchiligida usta–shogird an'anasining tarixiy shakllanishi, madaniy meros sifatidagi ahamiyati va zamonaviy davomiylik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida hunarmandchilikning hududiy o'ziga xosliklari, ustaxonalar faoliyati hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarning avloddan-avlodga uzatilish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, usta–shogird tizimining tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati ochib berilib, uni zamonaviy sharoitda saqlash va rivojlantirish masalalari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari nomoddiy madaniy merosni asrash va milliy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Jizzax vohasi, hunarmandchilik, usta–shogird an'anasi, nomoddiy madaniy meros, davomiylik.*

Аннотация. *В статье анализируются историческое формирование, культурное значение и современные формы продолжения традиции «мастер–ученик» в ремесленничестве Джизакского оазиса. В ходе исследования раскрываются региональные особенности народных ремёсел, деятельность мастерских, а также механизмы передачи профессиональных знаний и навыков от поколения к поколению. Особое внимание уделяется воспитательной и социальной роли системы «мастер–ученик», а также вопросам её сохранения и развития в современных условиях. Результаты исследования способствуют сохранению нематериального культурного наследия и поддержке национального ремесленничества.*

Ключевые слова: *Джизакский оазис, ремесленничество, традиция мастер–ученик, нематериальное культурное наследие, преемственность.*

Abstract. *This article examines the historical formation, cultural significance, and contemporary continuity of the master–apprentice tradition in the handicrafts of the Jizzakh oasis. The study highlights regional characteristics of traditional crafts, the role of workshops, and the mechanisms of transmitting professional knowledge and skills across generations. Particular attention is paid to the educational and social functions of the master–apprentice system and to the challenges of preserving and developing this tradition under modern conditions. The findings contribute to the safeguarding of intangible cultural heritage and the promotion of national handicrafts.*

Keywords: *Jizzakh oasis, handicrafts, master–apprentice tradition, intangible cultural heritage, continuity.*

Kirish. Xalq hunarmandchiligi milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda asrlar davomida shakllangan ijtimoiy tajriba, estetik qarashlar va kasbiy bilimlar mujassamlashgan. O‘zbekiston hududida hunarmandchilik an’analari nafaqat moddiy ishlab chiqarish shakli, balki ma’naviy merosni avloddan-avlodga uzatishning o‘ziga xos mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda usta–shogird an’anasi hunarmandchilik madaniyatining uzviy davomiyligini ta’minlovchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi.

Jizzax vohasi tarixan savdo yo‘llari kesishgan, turli madaniyatlar tutashgan hudud sifatida hunarmandchilikning boy va rang-barang turlariga ega bo‘lgan. Mazkur hududda kulolchilik, temirchilik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, to‘qimachilik kabi hunar turlari usta–shogird an’anasi asosida rivojlanib, mahalliy hunarmandlik maktablarining shakllanishiga zamin yaratgan. Bu an’ana orqali nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki kasbiy axloq, mehnat madaniyati va estetik did ham shogirdlarga singdirilgan.

Usta–shogird tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra an’anaviy ta’limning amaliy shakli bo‘lib, unda bilim va tajriba bevosita faoliyat jarayonida, shaxsiy muloqot va kuzatuv asosida uzatiladi. Jizzax vohasida ushbu tizim hunarmandchilikning barqaror rivojlanishini ta’minlash bilan birga, milliy qadriyatlar va mahalliy xususiyatlarning saqlanib qolishiga xizmat qilgan. Shu jihatdan usta–shogird an’anasini tarixiy-madaniy meros sifatida ilmiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv va sanoatlashtirish sharoitida an’anaviy hunarmandchilik va usta–shogird munosabatlarining transformatsiyaga uchrashi kuzatilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, ommaviy ishlab chiqarish va ta’limning institutsional shakllari ushbu an’anaga yangi mazmun bag‘ishlamoqda. Shunday sharoitda Jizzax vohasi hunarmandchiligida usta–shogird an’anasining tarixiy ildizlari, meros sifatidagi ahamiyati va zamonaviy davomiylik shakllarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur maqolada Jizzax vohasi hunarmandchiligida usta–shogird an’anasining shakllanishi, uning madaniy-tarixiy mohiyati hamda bugungi kundagi davomiylik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari milliy hunarmandchilikni asrash, yosh avlodni kasb-hunarga yo‘naltirish va nomoddiy madaniy merosni saqlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Usta–shogird an’anasi Sharq xalqlari hunarmandchilik madaniyatining muhim instituti sifatida ko‘plab tarixiy, etnografik va madaniyatshunoslik

tadqiqotlarida yoritilgan. Mazkur masala, avvalo, xalq hunarmandchiligining kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari hamda kasbiy bilimlarning avloddan-avlodga uzatilish mexanizmlarini o‘rganish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ilmiy adabiyotlarda usta–shogird tizimi ko‘pincha an’anaviy ta’lim modeli, ijtimoiylashuv shakli va nomoddiy madaniy merosning asosiy uzatuvchi kanali sifatida talqin qilinadi.

O‘zbekiston hunarmandchiligi va usta–shogird an’analariga oid dastlabki ilmiy qarashlar XX asrning o‘rtalarida shakllangan bo‘lib, ular asosan tarixiy-etnografik yo‘nalishda olib borilgan. A. Vamberi, V.V. Bartold, S.P. Tolstov kabi sharqshunos va tarixchi olimlar Markaziy Osiyoda hunarmandchilikning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ustaxonalar faoliyati va kasb egalari mavqeini yoritganlar. Ushbu tadqiqotlarda usta–shogird munosabatlari hunarmandchilik ishlab chiqarishining barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida qayd etiladi.

Hunarmandchilik va ta’lim o‘rtasidagi aloqalar pedagogik tadqiqotlarda ham o‘z aksini topgan. Xususan, an’anaviy kasb-hunar o‘rgatish tizimining tarbiyaviy imkoniyatlari, shaxs kamolotiga ta’siri pedagog olimlar tomonidan tahlil qilingan. Usta–shogird an’anasining shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli sifatidagi ahamiyati, unda kuzatuv, taqlid va amaliy faoliyatning yetakchi o‘rin tutishi qayd etiladi. Biroq bu tadqiqotlarda ko‘proq umumiy yondashuv ustun bo‘lib, hududiy xususiyatlar, jumladan Jizzax vohasi misolida maxsus tahlillar kam uchraydi.

Jizzax vohasi hunarmandchiligi bo‘yicha mavjud adabiyotlar asosan lokal-tarixiy va etnografik tavsiflar bilan cheklanadi. Ayrim maqola va risolalarda vohada rivojlangan hunar turlari, mahalliy ustalar faoliyati haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lsa-da, usta–shogird an’anasining meros va davomiylik nuqtai nazaridan kompleks ilmiy tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan. Bu esa mavzuning ilmiy jihatdan dolzarbligini yanada oshiradi.

Shuningdek, YUNESKO tomonidan ilgari surilgan nomoddiy madaniy meros konsepsiyasi doirasida usta–shogird an’anasi madaniy uzluksizlikning muhim shakli sifatida baholanmoqda. Xalq hunarmandchiligi va kasbiy an’analarni asrash masalalari zamonaviy madaniyatshunoslik va ijtimoiy tadqiqotlarda global kontekstda ko‘rib chiqilmoqda. Bu yondashuv Jizzax vohasi hunarmandchiligini ham milliy va umuminsoniy merosning tarkibiy qismi sifatida o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi.Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar usta–shogird an’anasining tarixiy va madaniy ahamiyatini yoritishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, Jizzax vohasi hunarmandchiligi misolida ushbu an’ananing meros va zamonaviy davomiylik jihatlarini kompleks, tizimli tahlil qilish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur holat ushbu maqolada tanlangan mavzuning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida Jizzax vohasi hunarmandchiligida usta–shogird an’anasining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy, etnografik hamda ijtimoiy tahlil asosida o‘rganildi. Manbalar va dala materiallari tahlili shuni ko‘rsatdiki, usta–shogird tizimi mazkur hududda hunarmandchilikning barqaror rivojlanishini ta’minlagan asosiy ijtimoiy mexanizmlardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Usta nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni uzatuvchi shaxs, balki axloqiy mezonlar, mehnat madaniyati va estetik qarashlarni shakllantiruvchi yetakchi sifatida ham namoyon bo‘lgan.Tahlillar natijasida Jizzax vohasida rivojlangan hunar turlari — kulolchilik, temirchilik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi va to‘qimachilik — usta–shogird an’anasi orqali avloddan-avlodga uzluksiz tarzda o‘tib kelgani aniqlandi. Har bir hunar turi doirasida ustaxonalar nafaqat ishlab chiqarish maydoni, balki norasmiy ta’lim makoni sifatida faoliyat yuritgan. Ushbu muhitda shogird hunar sirlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirgan, jarayon esa kuzatish, taqlid va amaliy faoliyat orqali amalga oshirilgan.

Zamonaviy davr tahlili Jizzax vohasida usta–shogird an’anasining ma’lum darajada transformatsiyaga uchrayotganini ko‘rsatdi. Rasmiy kasb-hunar ta’limi muassasalari, qisqa muddatli o‘quv kurslari va texnologik yangiliklar an’anaviy ustaxonalar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq ayrim hududlarda, xususan, oilaviy hunarmandchilik shakllarida usta–shogird tizimi o‘zining an’anaviy mohiyatini saqlab qolgan holda faoliyat yuritayotgani aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, usta–shogird an’anasi Jizzax vohasi hunarmandchiligida nomoddiy madaniy merosning uzluksizligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu tizim hunar turlarining saqlanishi, yosh avlodni kasb-hunarga yo‘naltirish va milliy madaniy identifikatsiyani mustahkamlashda muhim rol

o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari usta–shogird an’anasini zamonaviy sharoitda qo‘llab-quvvatlash, uni ta’lim va madaniyat siyosati bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlil Jizzax vohasi hunarmandchiligida usta–shogird an’anasining tarixiy meros sifatidagi ahamiyatini va uning zamonaviy davomiylik imkoniyatlarini ilmiy asosda tasdiqladi. Olingan natijalar milliy hunarmandchilikni asrash, hududiy hunarmandlik maktablarini rivojlantirish hamda nomoddiy madaniy merosni saqlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Jizzax vohasi hunarmandchiligida usta–shogird an’anasi nomoddiy madaniy merosning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning saqlanishi va rivojlantirilishi milliy madaniy identifikatsiyani mustahkamlash, yosh avlodni kasb-hunarga yo‘naltirish hamda hududiy hunarmandlik maktablarini tiklash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari mazkur an’anani ilmiy asosda qo‘llab-quvvatlash va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha keyingi izlanishlar uchun metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Шониёзов К. Ўзбек халқининг этник тарихи. — Тошкент: Фан, 1990. — 208 б.
2. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон халқ ҳунармандчилиги тарихи. — Тошкент: Ўқитувчи, 1986. — 176 б.
3. Асқаров А. Ўзбек халқининг қадимги маданияти ва маънавий мероси. — Тошкент: Фан, 2004.-312 б.
4. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. — М.: Изд-во АН СССР, 1962. — 352 с.
5. Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. Работы по истории Средней Азии. — М.: Наука, 1963. — 540 с.

UO’K 94(587)

MAHMUD YALAVOCH VA UNING MOVAROUNNAHR TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

S.T.Bekmuradov, katta o‘qituvchi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent
G.A.Muxtorova, talaba, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *XIII asrda Markaziy Osiyo tarixining siyosiy-ijtimoiy tarixiy jarayonlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Mahmud Yalavoch obrazi murakkab va baxsli shaxslardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda hukmronlik qilgan bir qator davlatlar jumladan, Qoraxitoylar, Xorazmshohlar va mo‘g‘ullarning (xususan Chig‘atoy ulusi) xizmatida bo‘libgina qolmay, siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda hal qiluvchi kishilardan biri bo‘lgan. Uning shaxsiyati, xizmat faoliyati va tarixiy merosi hozirgi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Afsuski, u haqidagi ma’lumotlarni aks ettiruvchi manbalar hozirga qadar juda oz. Shu boisdan zamonaviy tadqiqotlarda ham uning haqidagi baxsli ma’lumotlar o‘z yechimini to‘liq topmagan. Bugungi kunda ushbu tarixiy obrazning Movarounnahr tarixidagi o‘rni masalasi hali hanuz dolzarbligicha qolmoqda.*

Ushbu maqolada Mahmud Yalavochning hayoti, uning hizmat faoliyati mo‘g‘ullar imperiyasidagi va Markaziy osiyo tarixidagi ta’siri, o‘rni tarixiy manbalar, ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Qoraxitoylar, Mo‘g‘ul davlati, Chig‘atoy ulusi, Mahmud Yalavoch, Yorkent, Alibek, Ma’sudbek, Mahmud Toy, Tayangu, Munke, O‘qtoy.*

Аннотация. *В XIII веке Махмуд Ялавач, занимавший важное место в политико-социальных процессах истории Центральной Азии, считается одним из самых сложных и противоречивых личностей. В этот период он был одним из самых влиятельных деятелей в политических и социальных процессах ряда государств, включая Каракитайское ханство, Хорезмшахи и монголов (особенно Чагатайское ханство). Его личность, деятельность и историческое наследие и сегодня имеют большое значение для научных исследований. К сожалению, источники, отражающие информацию о нем, до сих пор очень скудны. По этой причине в современных исследованиях достоверная информация о нем не нашла своего полного отражения. На сегодняшний день вопрос о месте этого исторического образа в истории Мовароуннахра остается открытым.*

В данной статье на основе исторических источников и научных исследований проанализированы жизнь Махмуда Ялавача, его деятельность в империи монголов и его влияние на историю Центральной Азии.

Ключевые слова: *Каракитайское ханство, Монгольское государство, Чагатайский улус, Махмуд Ялавач, Яркент, Алибек, Маъсудбек, Махмуд Тай, Таянгу, Мунке, Угедей.*

Abstract. *In the 13th century, Mahmud Yalavach, who played an important role in the political and social processes of Central Asian history, is considered one of the most complex and controversial figures. During this period, he was one of the most influential figures in the political and social processes of a number of states, including the Kara-Khitai Khanate, the Khorezm Shahs, and the Mongols (especially the Chagatai Khanate). His personality, activities, and historical legacy are still of great importance for scientific research today. Unfortunately, sources reflecting information about him are still very scarce. For this reason, reliable information about him has not been fully reflected in modern research. To date, the question of the place of this historical figure in the history of Mawarannahr remains open.*

This article analyzes the life of Mahmud Yalavach, his activities in the Mongol Empire, and his influence on the history of Central Asia based on historical sources and scientific research.

Keywords: *Kara-Khitai Khanate, Mongol State, Chagatai Ulus, Mahmud Yalavach, Yarkent, Alibek, Masudbek, Mahmud Tai, Tayangu, Munke, Ugedei.*

Kirish. XII-XIV asrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy ijtimoiy jarayonlarda, jumladan, Qoraxitoylar so‘ngra Xorazmshohlar bilan Mo‘g‘ullar xususan Chig‘atoy ulusining ijtimoiy boshqaruv hayotida o‘chmas iz qoldirgan kishilardan biri bu Mahmud Yalavoch va uning avlodi hisoblanadi. Afsuski, u haqidagi ma’lumotlarni aks ettiruvchi manbalar hozirga qadar juda oz. Shu boisdan zamonaviy tadqiqotlarda ham uning haqidagi baxsli ma’lumotlar o‘z yechimini to‘liq topmagan. Bugungi kunda ushbu tarixiy obrazning Movarounnahr tarixidagi o‘rni masalasi hali hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Zero, hozirga qadar Mahmud Yalavochga bir guruh tarixchilar ijobiy baho berishsa, yana boshqalari asosan salbiy obraz sifatida talqin etilgan tadqiqotlarda ma’lum darajada yoritilgan.

Yurtimizda mustaqillik yillarida milliy davlatchilik masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish ustuvor vazifa etib belgilandi va unda eng kam o‘rganilgan muammolarni ochib berishga, “milliy o‘zlikni anglash, Vatanimizning qadimiy hamda boy tarixiy o‘tmishimizni o‘rganish va bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash”ga alohida urg‘u berib kelinmoqda[27]. Shu jihatdan Mahmud Yalavoch obrazini kompleks o‘rganish va XIII-XIV asrlarda Movarounnahr tarixidagi o‘rnini aniqlash mazkur davrning qator muammoli masalalariga oydinlik kiritadi.

Eng avvalo yuqorida aytilgandek, Mahmud Yalavoch haqida xabar beruvchi manbalar sanoqli. U haqidagi muxtasar ma’lumotlarni o‘z davri manbalari hisoblangan Jamol al-Qarshiy[13], Rashid ad-Din[17], Alouddin Atomalik Juvayniy [7], Shihob ad-Din Muhammad an-Nasaviy[21] kabi asarlarda uchratamiz.

Zamonaviy tadqiqotlarga kelsak, J.A.Boyle [4], M.Biran [3], Ch.Dalay [12], B.Shpuler [31], G.Lemb [16] va boshaqlar, shuningdek, rus tilidagi tadqiqotlardan V.V.Bartold [9], O.D.Chexovich [20], N.A.Aristov [8], R.Y.Pochekayev [16], O‘rta osiyolik tadqiqotchilardan O.Koraev [14], A.Xo‘jayev [19] shu kabi xorijiy olimlarning Mahmud Yalavoch haqida katta va kichik ma’lumotlarini olishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda g‘arb va sharq tadqiqotchilari shuningdek, mahalliy tarixchilarimiz tomonidan o‘rganilgan Mahmud Yalavoch haqidagi ma’lumotlar yetarli emas. Faqat uning xizmat faoliyati haqida, dastavval savdogar, so‘ngra 1218-yil Xorazmshohlar diyoriga elchi sifatida tashrif buyurganligi, keyinchalik Chig‘atoy ulusining noibi sifatida navbatchi talqinlardan bo‘lak ma’lumotlar berilmaydi. U haqdagi ma’lumotlarning o‘rganilishi O‘rta asrlarda hukmronlik qilgan davlatlarning ijtimoiy moliyaviy, va davlat boshqaruv tizimining ochib berilishida muhim hisoblanadi.

Mahmud Yalavoch XII-XIV asrlarda Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan davlatlar jumladan, dastlab Qoraxitoylar keyinchalik Mo‘g‘ul davlati va Chig‘atoy ulusida o‘z faoliyatini olib borgan. Ushbu davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, diplomatik jarayonlarida muhim ro‘l o‘ynaganligi uning tarixiy shaxsiyati katta ahamiyatga ega. Uning to‘liq ismi va nasl-nasabi to‘g‘risidagi ma’lumotlar aniq

emas. Yuqorida keltirilgan davlatlarning ijtimoiy boshqaruvidagi ta'sir doirasi keng ekanligiga qaramasdan u haqidagi ma'lumotlar mavhumligicha qolmoqda. Qolaversa, uning aynan savdogar bo'lgani ham keltirilgan ba'zi ma'lumotlar uchun shubxali. Mahmud Yalavochning ushbu davrda Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar maydoniga qanday kirib kelgani ham noma'lum.

Shu bois, u va avlodining hizmat faoliyatini ochib berish Muhammad Xorazmshohning Go'rxon va Chingizxon bilan bo'lgan siyosiy va diplomatik munosabatlarini ochib berishda va O'qtoy va Chig'atoy uluslarining davlat boshqaruvidagi ijtimoiy tizimi kengroq yoritilishiga xizmat qiladi. Bizga ushbu davr haqida qimmatli ma'lumotlarni beruvchi asosiy manbalar hisoblangan. Ushbu davrni o'rganishda qimmatli bo'lgan, Arab tilidagi birlamchi manbalar sirasiga kiruvchi va arab tilida ijod etgan mualliflar bir qancha.

Shular jumlasida; Jamol al-Qarshiyning *"Al-Mulhaqat bi-s-Surah" ("Suroh lug'atiga ilovalar") asarida,* uning to'liq ismi *Mahmud Yalavoch ibn Muhammad al-Xorazmiy* deb beriladi [13, 127]. Zero unga nima uchun *Xorazmiy* nisbasi berilishi ochiqlanmagan. Jamol al-Qarshiyning yozishicha Mahmud Yalavoch Chingizxon davridan to Mankuxon davrigacha Jayxun Xurosondan Xitoy davlatigacha bo'lgan hududlarning vaziri sifatida idora etganligini ta'kidlaydi.

Uning qayerda tavallud topganligi, avlodi haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Faqat vafot etgan joyi Xonbaliq 1252-1254-yillar oralig'i deb keltirilgan [13, 127]. Shu bilan birga Chig'atoy ulusi davrida hukmronlik qilgan Yalavochlar sulolasidan oltitasini sanab o'tadi. *Ya'ni 1) Mahmud Yalavoch ibn Muhammad al-Xorazmiy 652/1252-1254. 2) Alibek /128 [19, 232], 3) Ma'sud ibn Mahmud al-Xorazmiy /1289, 4) G'iyos ad-Dunya va-d-Diyn Ma'sud II-Abu Bakr ibn Ma'sud ibn Mahmud xukmronlik davri 689/1290, vafot etgan 697/1298-yil may-iyun oylarida. 5) al-Amir Sotilmish-bek, Ma'sud III hukmronli davri 702/1302-1303, 6) Fahr al-Mulk Suyinch ibn Ma'sud ibn Mahmud al-Xorazmiy, Ma'sud IV [13, 130]* larni keltirib o'tadi.

Muhokama. Zamonaviy tadqiqotchilardan sharqshunos olim Xitoyshunos A.Xo'jayev u haqda ma'lumot beruvchi yagona Xitoy manbasi *"Yuan shi" (Yuanchao bishi) Yuan sulolasining mahfiy tarixi* ni keltiradi [19, 226]. Unga ko'ra, Mahmud Yalavochning ismi *Maxama, Maxama Yalavochi, Yalavashi, Ma-he-mo-te Hua-la-shi-mi, Mahamud-Yalavochi* ya'ni Xorazmlik Mahmudligini aytadi [19, 227].

Uning tug'ilgan yili haqida hech qanday ma'lumot bermaydi. Zero tug'ilgan yili noaniqligicha qolayotgan bo'lsada Yuan sulolasi tarixi *(Yuan shi)*ning *"G'ayri avlodlar shajarasi" ("Sizubyao")* qismida Mahmud Yalavochning Sharqiy Turkistonning *Yorkent[19,227]* shahrida tug'ilganligi haqidagi ma'lumot keltirilgan.

Aytish joiz, Mahmud Yalavoch *Yorkentda* tug'ilgan bo'lishiga qaramasdan ma'lum bir muddat Xorazmda yashaganligi uchun manbalarda unga al-Xorazmiy nomi berilgan. A.Xo'jayevning ma'lumotlariga ko'ra, unga yana Xitoy ensiklopedik lug'atlarida Mahmud Yalavoch Xorazmlik savdogar sifatida keltirilganligini aytib o'tadi [19, 227].

Bu jarayonga V.V.Bartoldning fikri quyidagicha ya'ni Mahmud Yalavoch Chingizxon bilan uchrashguniga qadar bo'lgan davrda u Qoraxitoylar davatining vaziri lavozimida faoliyat yuritgan degan fikrni ilgari suradi [9, 261].

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozim, arab va fors manbalarida Mahmud Yalavochning asosan diplomatik va davlat boshqaruv vazifalaridagi faoliyati ochib beriladi. Uning savdogar sifatidagi faoliyati manbalarda ko'rsatilmagan.

Yalavoch ismmi yoki nisba, yoki nima maqsadda Yalavoch nomini o'ziga olganligi ham tadqiqotchilar tomonidan turlicha baholanadi. V.V.Bartoldning fikriga ko'ra, Chingizxon tomonidan 1218-yil Xorazmshohlar diyoriga elchi sifatida yuborilishi munosabati bilan unga Yalavoch nomi berilgan, Yalavoch so'zi turkchada elchi degan manoni anglatgani haqida ta'kidlaydi [6, 261].

Yana bir nemis olimi G.Vamberining izlanishlariga ko'ra, Yalavoch iborasi aksincha turkmanlarning shu nomli urug'i bilan bog'liq deb aytadi[6, 399]. N.A.Aristov esa G.Vamberiga [8, 184] asoslanib turkmanlarni quyidagi yetti guruhga bo'lib bog'laydi. Ya'ni, *chandurlar va imraylilar, iomutlar, geklenlar, tekkelar, sariklar, salor yoki salurlar, ersarilar [8, 184]* hisoblanib, biz uchun aynan oltinchi guruh *salor yoki salur* turkmanlari ahamiyatlidir. Ular turkman qabilalarining eng qadimiylari bo'lib qisman *tekkelar* qisman *sariklar* bilan Eron, Buxoro va Afg'oniston chegaralarida

yashaganligini aytib ularni yana uch qismga ya'ni *Yalavoch, Karmana, Anabeleg [8, 184* urug'lariga bo'ladi.

Mahmud shu kunga qadar manbalarda va tadqiqotchilar tomonidan yashagan joy nomlariga qarab nisba bilan tilga olinib kelingan. Shu boisdan, u tarixda faqat elchi yoki savdogar sifatida ta'kidlanib kelinmoqda.

Mahmud Yalavoch dastavval *Mahmud Toy [7, 322]* nomi ostida Qoraxitoylar davlatining vaziri bo'lgan. Juvayniy Mahmud-Toyning Gurxon xizmatida bo'lgan 1209-1212-yillar davridagi faoliyati, va Xorazmshohlar davlati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni yoritadi. U Qoraxitoylar xoni Gurxonning [7, 322] xizmatida bo'lgan davrda *Mahmud Toy* nomi bilan Chingizxon xizmatida bo'lgan davrda *Yalavoch* nomi bilan ish olib borgan. Juvayniy Mahmud Toyni 1209-yil Xorazmshohlar diyoriga soliq yig'ish uchun elchi sifatida kelganligini aytib o'tgan [3, 111]. Bu tashrif haqida M.Biran shunday deydi. Bu missiyaning vazifasi aslida Xorazmshohlar davlatidan mahfiy ma'lumotlarni yig'ish bo'lgan deb yozadi [3, 111]. Fikrimizcha Mahmud Toy Xorazmshohlar davlatining parokanda bo'lishiga olib kelgan Turkon Xotun va Muhammad Xorazmshoh o'rtasidagi ziddiyatdan aynan ushbu uchrashuvda voqif bo'lgan bo'lishi kerak [2, 112].

Shu o'rinda M.Biranning[3, 111] Qoraxitoylar davlati haqidagi bergan ma'lumotlari quyidagicha, u Juzjoniyning manbasiga asoslanib Qoraxitoylar davlatidagi yuqori lavozimlari haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi. Bunda Gurxon davlatining muhim lavozimlaridan biri vazir *Tayangu* deb nomlangan. Uning ma'lumotiga ko'ra Tayangu asosan *vazir* unvoni bo'lib u bir vaqtning o'zida qo'mondon, moliya, soliq va o'lponlarni yig'ish, maoshlarni to'lash va aholini ro'yhatga olish vazifalarini o'z ichiga olganlini aytadi. Bu lavozimning eng muhim sohiblari faqat unvonlari bilan tanilganligini aytadi. Jumladan vazirlarning eng asosiy uchtasiga to'xtalib o'tadi. Birinchisi Qoraxitoylar davlati xonadonidan bo'lgan *Hamid Pur,* u Xorazmshohlar va Gurxonning Qarluqlarga nisbatan amalga oshirgan siyosatida o'z tasirini ko'rsatganligini aytadi. Ikkinchisi *Shomur Tayangu,* ya'ni *Talaslik Tayangu* haqida ma'lumot berib o'tadi. Shu bilan birga *Mahmud Toy (Mahmud Yalavoch)* haqida to'xtaladi. Ularni faqatgina idora ishlari bilan cheklanib qolmaganligi, janglarda ham muhim ro'l o'ynaganligini aytib, Moliyaviy ishlarda soliq yig'ish, o'lpon yig'ish, ish xaqlarini taqsimlash va aholini ro'yhatga olish kabi vazifalarni bajarganligi hamda, diplomatik ishlarda ham muhim ro'l o'ynaganligini aytadi. Qoraxitoylar davlatida bosh vazir bir vaqtning o'zida, fuqarolik hamda harbiy ishlarni o'z zimmasiga olganligi bilan farqlangan. Garchi ularning vazifalari, xizmat faoliyati ochiq ko'rsatilmagan va sir tutilganligi bilan farqlangan.

Juvayniy ham Mahmud-Toyni dastavval 1209-yil Xorazmshohlar diyoriga kelgan Gurxonning soliq to'plovchi elchisi sifatida tilga olgan. Undan keyingi jarayonlarda uni Chingizxonning elchisi sifatida keltirib o'tadi[7, 210]. Fikrimizcha 1212-yil Gurxon va Kuchlukning o'rtasida bo'lib o'tgan jangdan so'ng u Kuchlukning itoatida 1215-yilga qadar bo'lgan. Chingizxon Kuchlukni o'ldirgandan so'ng bevosita uning itoatiga o'tgan bo'lishi kerak. Juvayniy 1215-yil Xitoyga yurishi chog'ida Mahmud Yalavoch Chingizxonning yonida birga bo'lganligini aytadi [7, 211]. A.Xo'jayev, Mahmud Yalavoch Chingizxon saroyida moliya ishlari bo'yicha katta mansabda bo'lganligini aytib o'tadi [19, 257]. Zero, aksariyat manbalar va adabiyotlarda uning Xorazmshohlar davlatiga tashrifi haqida faqatgina 1218-yil Chingizxonning elchisi sifatida kelganligi tilga olinadi xolos.

Mahmud Yalavochning 1224-yildan keyingi faoliyati Chig'atoy ulusi bilan bog'liq. U bu hududlarda xoqonning *noibi* sifatida faoliyat olib borgan. Mahmud Yalavoch va Chig'atoy o'rtasidagi ziddiyatlarga diniy hamda hududiy boshqaruv tizimining o'zaro mutanosibligi bilan bog'liq. Mahmud Yalavoch Munkexon davrigacha bo'lgan vaqt davomida dastlab Movarounnahr keyinchalik Xitoy hududlarida o'z faoliyatini olib borgan.

Mo'g'ullar hukmronligi davrida quyidagi xoqonlar ya'ni, Chingizxon (1206-1227), O'qtoyxon (1229-1241), Turakina xotun (1242-1246), Guyukxon (1246-1248), Munkexon (1251-1259) lar hizmatida bo'lgan.

O'qtoyxon davrida Movarounnahr hududlarini Xo'janddagi qarorgohida turib idora etgan, toki 1238-yil Buxoroda Mahmud Tarobiy tomonidan qo'zg'olon ko'tarilishiga qadar. U bu qo'zg'olonda aybdor deb topilib Chig'atoy tomonidan xizmat lavozimidan ozod etilib Movarounnahrdan Qoraqurumga olib ketiladi. 1241-yil O'qtoy xoqon farmoniga ko'ra unga Xitoy aholisining ma'muriy

ishlarini boshqarish vazifasi yuklatiladi. B.D.Nikola O‘qtoy davri mo‘g‘ullar xukmronligining eng gullab yashnagan davri bo‘lgan deb aytadi [5, 79].

Turakina Xotun hokimiyat tepasiga kelgandan so‘ng Mahmud Yalavoch o‘z lavozimidan chetlashtirilgan. Turakina Xotunning hukmronlik davri uning qochqinlikda bo‘lgan davri hisoblanadi. Bunga sabab sifatida A.Xo‘jayev [19, 230] Chingizxon va O‘qtoy davridagi amaldorlarni hokimiyatdan chetlashtirib o‘z tarafdorlarini hokimiyat tepasiga olib kelish bo‘lganligini aytadi. 1264-yil Guyuk xoqon bo‘lgandan so’ng uni qaytadan o’z lavozimiga qaytaradi. Ammo Guyukning hukmronligi uzoqqa cho’zilmaydi. Munke xoqon davriga kelib *Yanjin (Pekin)*da bir qancha hokimiyat mahkamasi quriladi. Ularga rahbarlik qilish vazifasi Mahmud Yalavochga topshiriladi. U aynan Munkexon davriga kelib Pekinga hokim etib tayinlangan.

Mahmud Yalavochning Xitoydagi xizmat faoliyati haqidagi ma’lumotlar yetarli emas. U 1254-yil Pekin shahrida vafot etgan. Uning o’limi sabablari sirliligicha qolmoqda. Shu o’rinda uning Pekindagi faoliyati haqida ma’lumot beruvchi rasmiy adabiyotlarda ham unga yirik amaldor sifatida alohida joy ajratilmagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Mahmud Yalavoch Turkmanlarning Yalavoch urug’iga mansub. Uning siyosat maydonida gavdalanishi, ismi borasidagi fikrlarda arab va forsiy tarixiy manbalarda javob keltirilmagan. Biroq uning bir nechta davlatarning ichki va tashqi boshqaruv tizimida o’z o’rniga ega bo’lgani aniq. Ammo ma’lum sabablarga ko’ra, uning ko’p jihatli hizmat faoliyati aksariyat xollarda sir saqlangan. Arab va fors manbalariga asoslangan holda uni moliya vaziri, diplomatik elchi, harbiy qo’mondon deb aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bekmuradov S.T. “Al-Mulhakat Bi-S-Surah” and Translations with Notes of the Chapter about History of Mongols // International Journal of Central Asian Studies Volume 22. 2018. – P. 171-192.

2. Bekmuradov Sandjar Tursunmamatovich, Muxtorova Gulhayo Alisher qiz, Chingizxon va sulton xorazmshox munosabatlari tarixidan // Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 2, ISSUE 12. – 2023. – P. 134-143.

3. Biran M. The Empire of the Qara Khitai in Eurasian History: Between China and the hlamic World. – Cambridge, 2005. – 279 p.

4. Boyle J.A. The Successors of Genghis Khan. – New York: Columbia Univ. Press, 1971. – 372 p.

5. De Nicola B. *Women in Mongol Iran: The Khatuns,* 1206-1335. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2017. – P. 79.

6. Vambery H. Das Turkenvolk in seiner ethnologischen und ethnographischen Beziehung: Mit 2 Tafeln und mehrern Holzschnitten / Geschildert von Hermann Vambery: F.A.Brockhaus, 1885. – 638 c.

7. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотиҳи тарихи)/ Алоуддин Атомалик Жувайний; масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. – 504 б.

8. Аристов Н. А. Труды по истории и этническому составу тюркских племен / Отв. ред. акад. В.М. Плоских. - Бишкек: Илим, 2003. 460 с.

9. Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии. Работы по истории кавказа и Восточной Европы. Сочинения Т. II. Часть I. – Москва: Издательство Восточной литературы, 1963. – 1024 с.

10. Гарольд Лэмб. Чингисхан. Властелин мира //ПереводЛ.А.Игоревского. – Москва: Центрполиграф, 2007. –168 с.

11. Далай Ч. Монголия в XIII-XIV веках / Отв. редактор Б.П.Гуревич. – Москва: Наука, 1983. – 232 с.

12. Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-сурах / Отв. ред. А.К.Муминов. Ведение, перевод с арабского-персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х.Вохидова, Б.Б.Аминова.–Алматы: “Дайк-Пресс”, 2005.–416 с.

13. Караев О. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. – Бишкек, 1995. – 160 с.

14. Мифы о правительницах тюрко-монгольских государств XIII-XIX вв. – СПб.: Евразия, 2017. – 384 с.

15. Почекаев, Р. Ю. Легитимация власти, узурпаторство и са мозванство в государствах Евразии: Тюрко-монгольский мир XIII – начала XX в. [Текст] / Р. Ю. Почекаев; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М.: Изд. дом Высшей школы эконо мики, 2017. – 366 с.

UDK: 94.5

MAURIYLAR DAVLATINING PARCHALANISHI VA SHIMOLIY HINDISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR TARIXI

A.A.Biykuziyev, dots., PhD, O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mauriylar imperiyasining parchalanishiga olib kelgan siyosiy, iqtisodiy va ma’muriy omillar hamda uning oqibatida Shimoliy Hindistonda yuzaga kelgan ijtimoiy-*

siyosiy jarayonlar ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot mintaqadagi davlat boshqaruvi, ijtimoiy tuzilma va hududiy integratsiyaning o'zgarish jarayonlarini tarixiy manbalar asosida kompleks yoritadi.

Kalit so'zlar: *Mauriylar davlati, parchalanish, Shimoliy Hindiston, siyosiy jarayonlar, ijtimoiy tuzilma, markazlashuv, hududiy integratsiya, tarixiy tahlil.*

Аннотация. *В данной статье научно анализируются политические, экономические и административные факторы, приведшие к распаду империи Маурьев, а также социально-политические процессы, возникшие в результате этого в Северной Индии. Исследование комплексно освещает на основе исторических источников изменения в государственном управлении, социальной структуре и территориальной интеграции региона.*

Ключевые слова: *государство Маурьев, распад, Северная Индия, политические процессы, социальная структура, централизация, территориальная интеграция, исторический анализ.*

Abstract. *This article provides a scholarly analysis of the political, economic, and administrative factors that led to the decline of the Mauryan Empire, as well as the socio-political processes that emerged in Northern India as a result. The study offers a comprehensive examination, based on historical sources, of the transformations in state governance, social structures, and territorial integration in the region.*

Keywords: *Mauryan Empire, fragmentation, Northern India, political processes, social structure, centralization, territorial integration, historical analysis.*

Qadimgi Hindiston tarixida yuksalish davri mil.av. III asrda yuqori cho'qqiga yetgan edi. Butun mamlakatni birlashtirgan Mauriyalar sulolasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni Hindistonda ta'minlay oldi. Mauriyalar imperiyasi poytaxti Pataliputra edi. Ashoka farmonlaridan to'rtta yirik viloyat markazlarining nomlari ma'lum: Sharqda Tosali, g'arbda Ujayn, janubda Suvarnagiri va shimolda Taksila. Viloyat ma'muriyatining boshlig'i Kumara (imperiya shahzodasi) bo'lib, u podshoning vakili sifatida boshqargan. Qumaraga maxamatlar va vazirlar kengashi yordam bergan. Ushbu tashkiliy tuzilma "Mantriparishad" - vazirlar kengashi deb nomlangan. Imperiyadagi byurokratiya "Artashastra" da o'z aksini topgan. Shu bilan birga keng qamrovli josuslik tizimi ichki va tashqi xavfsizlik uchun ma'lumotlar to'plar edi. Maurya imperiyasida o'sha zamon uchun katta armiya ham to'langan edi. Ammo Ko'p o'tmay mil.av. 232-yil Mauriya davlati podshosi Ashoka vafot etadi[1]. Ichki nizolar natijasida mamlakat ikkiga Sharqiy va G'arbiy Mauryalar davlatiga bo'linib ketadi. Sharqiy imperiyanining poytaxti Pataliputra, G'arbiy imperiyaning markazi Udjayn bo'lib qoladi. Rasman imperiyani boshqaruvi Suyasasa(Ashokaning o'g'li)ning farzandi Dasharatxani qo'l ostiga o'tadi. Sharqiy Maurya davlati markaziy hokimiyatni saqlab qolishga urinib ko'radi. Ashokaning boshqa nabirasi Samprati G'arbiy imperiyani o'z nazoratiga oladi. Ammo ko'p o'tmay bu ikki davlatlar ham kichik rojaliklarga parchalana boshlaydi[2]. Birinchi bo'lib G'arbiy Maurya davlatidan Kashmir viloyatini, podshoning tog'asi Djalauka ajratib oladi. Uning ortidan Shimoldagi Gadxarani shahzoda Virasena boshchiligida imperiya tarkibidan ajralib chiqadi. Dasharatxaning qo'l ostida Magatxa mulklari qoladi holos. Janubiy Hindistondagi Satavaxanalar davlati Maurya imperiyasining vassallari podsho Ashokani vafotidan keyin amalda Pataliputradagi hukumatga bo'ysunmay qo'ygan edi.

Milloddan avvalgi 185-yilda kelib chiqishi braxmanlarning Bxardvadj Gotra mas'habidan bo'lgan Pushyamitra Shunga (mil.avv. 185-148 yy) so'ngi Maurya hukumdori Brixadratxani jangda yengadi. Shu tariqa Mauriyalar sulolasi tugatiladi. Oqibatta Mauryalar davlatining parchalanishi kuchayayib ketadi. Ayniqsa bu jarayon G'arbiy Maurya podsholigida kuchayib, mamlakat mayda rojaliklarga bo'linib ketadi[3].

Shimoliy Hindistondagi geosiyosiy vaziyat keskinlashadi. Natijada mil.av. 180-yil qulay vaziyattan foydalangan Yunon-Baqtriya podshosi Demetriy I (mil.av. 199-170 y) sobiq G'arbiy Maurya konfederatsiyasi rojaliklari hududiga bostirib kiradi. Yunon-Baqtriya davlati Araxoziya va Panjob yerlarini bosib oladi. Tarixchi Mark Yunian Yustinning ma'lumotlariga ko'ra Demetriy I endi hindlar podshosi sifatida tilga olinib, uning qo'shinini 60 ming kishidan iboratligi ta'kidlanadi. Hukumronligining dastlabki yillarida Demetriy I butun Baqtriya bo'ylab ta'siri kuchliy bo'lgan edi.

Ammo uning Hindiston yerlariga kirib borishi davrida metropoliya bilan aloqalar uzoqloshadi. Ayniqsa Shimoliy Baqtriya yerlarida podsho Demetriy I ning hokimyati sust bo‘lgan[4]. Bunga numizmatik ma’lumotlar guvohlik beradi. Shungalar sulolasi Shimoli G‘arbiy Hindistonni yavan(yunon-baqtriya xalqi)larga boy berishgach, bu yerda buddaviylikni yangi shakli “yunon-buddizmi” kurtak otadi. Gandxaradagi yavanlar buddaviylikda haykaltaroshlik san’atiga katta e’tibor beradilar. Uning mafkuraviy mohiyatini qayta jonlashtiradi. Ayrim yunonlar asta-sekin buddaviylik ta’limotiga ergashadi. Hindiston yerlari hukumdori sifatida Demetriy I dubulg‘asini fil tasvirida o‘z tangalarida zarb ettirgan.

Milloddan avvalgi 172-yil Baqtriyada strateg Yevkratid markaziy hokimiyatga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Bu payt Demetriy I asosiy qo‘shin bilan Shimoliy Hindistonda edi. Shimoldan ko‘chmanchi sak va dax qabilalarining kuchayishi oqibatida Baqtriya havf ostida qoldi. Natijada Yunon-Baqtriya podsholigi janubga bo‘lgan ekspansiyadan voz kechishga majbur bo‘ladi. Hind olimi Avad Kishor Narayn ham shu fikrni targ‘ib etadi. Shu bilan birga G‘arbdan Salafkiylar davlati hujum qilib qolishi havfi ham edi.

Hindistonga yurishning platsdarmi bo‘lgan Baqtriya, noib Yevkratid boshchiligida alohida davlat sifatida ajrab chiqadi. Shimoliy Hindistonni zabt etishga ketgan yunon-batriyaliklar qo‘shini esa podsho Demetriy I boshchiligida Yunon-hind davlatini tuzishadi. Baqtriyaliklarga boshchilik qilgan yunon elitasi Gandxara (Shimoliy Hindiston) hududida buddaviylikka katta e’tibor beradi. Kasta tizimini asosi bo‘lgan induizm, buddaviylik jamiyatiga raqobatchi hisoblangan. Ammo mahalliy xalqni boshqarish uchun siyosatda har ikkovi mafkuraviy vosita sifatida hukumron elita tomonidan foydalanilgan. Shu tariqa Yunon-Baqtriyalik(yavan)lar Hindiston sivilizatsiyasini yangi bosqichga olib chiqishda muhim o‘rin egalladi.

So‘ngra mil.av. 140-yil Baqtriya hududi sak qabilalari tomonidan hujumga uchradi. Shimoliy Xitoydan kirib kelgan yuye-chji qabilalari Shimoliy Batriyani bosib oldilar. Miloddan avvalgi 130-yil Parfiya podshosi Fraat II sak askarlarini o‘z xizmatiga yolladi va ko‘p o‘tmay Turonlik ko‘chmanchilar oqimi, Eronning sharqiy viloyatlariga yetib bordi. Yunon-Baqtriya podsholigining qoldiqlari Markaziy Osiyodan kelgan nomadlar tomonidan tugatildi. Yuye-chjilar tomonidan siquvga uchragan saklarga qarshi kurashga parfiyaliklar butun harbiy kuchlarini tashladilar. Parfiyaning ikki podshosi Fraat II (mil.av. 137 - 128 yy) va uning vorisi Artaban II (mil.av. 128-125 yy) saklarga qarshi janglarda halok bo‘lganligi ular bilan kurashning ahamiyati naqadar muhum bo‘lganligidan dalolat beradi. Hozirgi Eronning Janubi-Sharqiy yerlari saklar ta’sirdoirasiga kirib qoladi. Garchand Parfiyani boshqarayotgan Arshakiylar sulolasi ham kelib chiqishi Markaziy Osiyodan bo‘lsada, ular Eron hududlarida o‘troqlashishiga ulgirgan edilar[5]. Shimoliy Baqtriya (asosan Amudaryoning o‘ng sohili) yuye-chjilar nazoratida qoldi. Saklarni Parfiyada podsho Mitridat II (qadimgi parfiyacha “Mixrdat” Mitra tomonidan in’om etilgan)to‘htatadi. Parfiyaning yangi podshosi birinchi bo‘lib, ko‘chmanchi saklar bilan sulh tuzishga erishadi. Bu uchun parfiyaliklar ularga vaqtincha o‘lpon to‘lashga ham tayyor ekanligini namoyon etildi[6]. Ko‘chmanchi saklarning otliq qo‘shinlariga qarshi jang qilish uchun u og‘ir qurollangan suvoriy lashkarlarni qayta tuzdi. Endi og‘ir qurollangan piyodalar davri Parfiyaning sharqida ahamiyati kamaygan edi. Taniqli arxeolog R. Suleymanov Baqtriyani qadimgi xitoy solnomalaridagi “Daxya” yoki “Dasya” sifatida tilga olinishini ko‘chmanchi daxlar bilan bog‘laydi. Demak xitoylik sayyox Chjan Syan ko‘hna Baqtriyani Shimoliga kelganda bu mamlakat Daxlar nomini olgan edi. Shunisi aniqki sak qabilaridan biri bo‘lgan “qang‘”lar Sug‘d (Kan) va Choch yerlaridagi hokimiyatni o‘z qo‘llarida saqlab qolishgan edi. Qolgan saklar yuqorida ta’kidlangandek dastlab Parfiyaga, ularning ayrimlari esa Janubiy Baqtriya orqali Shimoliy Hindistonga o‘tib ketishgan[7].

Da yue-chjilar Oks(Amudaryo)ni o‘ng sohili(Shimoliy Baqtriya)da yana ellik yildan ko‘roq ushlanib qolishadi. Bu orada sak (yunon manbalarida skif)lar Hindiston tomon siljishadi. Ko‘p o‘tmay Sakistonda saklarning mustaqil podsholigi yuzaga keldi. Markaziy Osiyolik nomadlar o‘z hokimiyatlarini Eronning janubi-sharqiy va Hindistonning shimoli-g‘arbiy hududlariga yoyishga ham erishdilar. Baqtriyani hududi dastlab o‘ziga hos platsdarm vazifasini bajardi.

Miloddan avvalgi 81-yilda saklarning sardori Maues (yoki May) boshchiligidagi qo‘shinlar Shimoliy Hindistonda Yunon-hind davlati podshosi Apolodot II qo‘shinini tor-mor qildilar. So‘ngra

hozirgi Pokiston hududida joylashgan Taksilani egallaydilar. Oradan 20-yil o'tib ko'chmanchi saklar Matxura shahrini ham zabt etishadi. Shu tariqa saklar Shimoliy Hindistonda Hind-sak davlatiga asos solishadi. Saklar haqida ko'pgina hind manbalarida Bxavishya-purana, Yyuga-Purana, Markandeya-Purana, "Ramayana", Maxabxorat", "Maxabxashya"(mil.av. II asr), "Man-u-smiriti", "Brixat-Samxit"(mil.av. VI asr), "Brixat-Kata-Manyar", "Kavyamimasa","Kata-Sarisagar", "Xarivashma", "Ayurveda", "Maxamayyur", "Devi Chandra Gupta", " Atxarvavede", "Sakanda", "Prashasti" kabi dostonlarida ko'chmanchi saklar haqida ma'lumotlar uchraydi. Mashhur "Ramayana" va "Purana"larda shak(sak)larga nisbatan salbiy obrazlar gavdalangan. Shimollik ko'chmanchilar hindlarning dushmani sifatida tasvirlab o'tilgan edi. O'z navbatida "shaka" etnik atamasi Shimoli-g'arbiy Hindistondagi urushqoq ko'chmanchi chorvador halqlarga nisbatan qo'llanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rachel Mairs. Graeco-Bactrian and Indo-Greek world. –New York. 2021.
2. Ртвеладзе. Э.В. Пидаев Ш. Р. Каталог древних монет Южного Узбекистана. Изд. Фан. – Ташкент. 1981.
3. Зеймаль Е.В. Древние монеты Таджикистана.– Душанбе. 1983.
4. Попов. А.А. Греко-Бактрийское царство. – Санкт-Петербург. 2008.
5. Сулейманов Р. Следы дахо–сарматского культурного наследия в Древнем Туране и Руси. // Археология, этнография и антропология Евразии. Том 49 №3. Новосибирск. 2021.
6. Вайнберг И.В. Этногеография Турана в древности VII в. до.н.э.–VIII в. н.э. – Москва, 1999.
7. Антонова К.А., Бонгард-Левин Г.М, Котовский Г.Г. История Индии. 2-е изд., испр. и доп.- М., 1979

UO'K 908

O'RTA ASR QASHQADARYO SHAHARLARI SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

B.Elmurodova, talaba, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muallif O'zbekiston ilk o'rta asrlardagi shaharsozligi va me'morchiligining yuksalishiu, jumladan Janubiy O'zbekiston shaharlari – Qashqadaryo shsharlarining shakllanishining o'ziga xos jihatlarini, iqtisodiy va siyosiy mavqei jihatidan Kesh shahri ilk o'rta asrlarda Janubiy Sug'd viloyatidagi markaziy shaharlar orasida Naxshabdan keyingi ikkinchi o'rinda turganligini, shuningdek, numizmatik materiallar va boshqa manbalarga ko'ra Keshning mavqei haqida yanada ko'plab ma'lumotlar olish mumkinligini ilmiy manbalar orqali dalillab bergan.*

Kalit so'zlar: *tarixiy-madaniy markazlar, antik davr, qishloq qal'alari-qo'rg'onlar, harbiy harakat, Kesh shahri, Nasaf shahri, shahar va qishloqlar inqirozi, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, qadimgi shahar o'rni, savdo-sotiq, tovar ayirboshlash, tipologik umumiy qonuniyatlar.*

Аннотация. *В данной статье автор рассматривает развитие градостроительства и архитектуры Узбекистана в раннем средневековье, в том числе особенности формирования городов Южного Узбекистана - городов Кашкадарьи, и утверждает, что по своему экономическому и политическому статусу город Кеш занимал второе место после Нахшаба среди центральных городов Южной Согдийской области в раннем средневековье, а также утверждает, что более подробную информацию о статусе Кеша можно получить из нумизматических материалов и других источников.*

Ключевые слова: *историко-культурные центры, древность, сельские крепости-крепости, военные действия, город Кеш, город Насаф, кризис городов и деревень, социально-экономические изменения, местоположение древнего города, торговля, товарообмен, общие типологические закономерности.*

Abstract. *In this article, the author presents the development of urban planning and architecture in Uzbekistan in the early Middle Ages, including the specific aspects of the formation of the cities of Southern Uzbekistan - Kashkadarya cities, and argues that in terms of economic and political status, the city of Kesh was in second place after Nakhshab among the central cities of the Southern Sughd region in the early Middle Ages, and also argues that more information about the status of Kesh can be obtained from numismatic materials and other sources.*

Keywords: *historical and cultural centers, antiquity, village fortresses-fortresses, military action, the city of Kesh, the city of Nasaf, the crisis of cities and villages, socio-economic changes, the location of the ancient city, trade, exchange of goods, general typological patterns.*

Kirish. Sug‘d – O‘zbekistonning eng qadimgi tarixiy-madaniy markazlaridan biri bo‘lib, undagi ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar uzoq vaqtgacha, xususan, ilk o‘rta asr davrida boshqa mintaqalardagi madaniyatlar rivojiga ta’sir ko‘rsatgan. III-IV asrlarda antik davrdagi katta davlatlarning tanazzulga yuz tutishi tufayli yirik shaharlardagi ijtimoiy hayot markazlari ularning istehkomlangan qishloq qal’alari-qo‘rg‘onlarga ko‘chib o‘ta boshlagan. V asr oxiri-VI asr boshlariga kelib, O‘zbekiston hududida mahalliy hukmdorlar boshqaradigan muxtor podsholik mulklari vujudga kelgan. V asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari tarixida yangi siyosiy kuch paydo bo‘lgan. Bu siyosiy kuch tarixda eftaliylar va sosoniylar Eroni o‘rtasidagi harbiy harakat Baqtriya shahar va qishloqlarining hayotiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, ayrim shahar va qishloqlar inqirozga uchragan.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaharlar aholisining ko‘pchiligi yangi yerlarni o‘zlashtirib, qishloqlarga ko‘chib ketadilar. VIII asr boshlari va ikkinchi yarmidan e’tiboran shaharlar taraqqiyotida arab istilosi ta’siri yaqqol sezilgan. VIII-IX asrlarda arablarga tobe bo‘lgan ko‘plab hududlarda yer egaligi munosabatlari rivojlanishi tezlashgan. O‘rta Osiyo shaharlari uchun bir ta’kidlanarli joyi bor. Bir oz vaqt o‘tishi bilan shaharlardagi hayot shahristonlarga ko‘chadi, hatto, ba’zilarida rabotlar maydoni ham shahristonlarga qo‘shib olingan.

M.YE. Masson ilk shaharlar uchun zarur bo‘lgan belgi xususiyatlarni quyidagicha izohlagan: 1. Aholi soni 5000 nafardan kam bo‘lmasligi lozim; 2. Mahobatli me’morchilik binolari bo‘lishi zarur. 3. Hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi markaz bo‘lishi shart[1:23-28].

A.Asqarov va T.Shirinovlarning xulosalariga ko‘ra qadimgi shaharlarning belgi xususiyatlari sifatida quyidagilar: 1. Yuqori tabaqa vakillari, hokim yashaydigan saroy tizimlari; 2. Toat-ibodat qilinadigan joylar-ibodatxona, topinish va sig‘inish bilan bog‘liq uylar; 3. Hukmdor va uni yaqinlari yashaydigan joy arkni mavjud bo‘lishi, uni mustahkam devorlar bilan o‘ralganligi; 4. Ishlab chiqarish hisobga olgan holda turar joylarni dahalarga bo‘linishi. 5. Alohida joylashgan va rivojlangan hunarmandchilik sohalarini borligi ko‘rsatib o‘tilgan[1:29].

Qiyosiy tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘rta asr shaharlarining belgi xususiyatlari sifatida esa 3 qismli tuzilishdan tashkil topganligini aytib o‘tish lozim . Bular; 1. Ark yoki kuhandiz; 2. Shahriston yoki arabcha madina; 3. Rabod, shaharni yaqin atrofi, ya’ni asosiy hunarmandlar yashab mehnat qiladigan joy. Bundan tashqari o‘rta asr shaharlarning belgi xususiyatlariniqadimgi davrga nisbatan shahar maydoning kengayishi, mukammal mudofaa tizimi va arkka ega (keyinroq hokim o‘rdasi), atrofdagi dehqonchilik hududlari va qishloqlar uchun o‘ziga xos markazni bajarishi, hunarmandchilik markazi bo‘lishi bilan birga savdo-sotiq, tovar ayirboshlash markazi sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Shaharlardagi ko‘plab uylar shahriston va rabot qismida joylashgan edi.

Natijalar va muhokama. O‘zbekiston ilk o‘rta asrlardagi shaharsozligi va me’morchiligining kompozitsiyaviy – rejaviy sifati va qurilish texnikasining darajasi o‘ziga xos mintaqaviy maktabning g‘arbiy (Xorazm), Sharqiy (Buxoro, Sug‘d, Choch) va Janubiy(Toxariston) xususiyatlarini aniq belgilab beradi[2:23].

Iqtisodiy va siyosiy mavqei jihatidan Kesh shahri ilk o‘rta asrlarda Janubiy Sug‘d viloyatidagi markaziy shaharlar orasida Naxshabdan keyingi ikkinchi o‘rinda turgan. Agarda numizmatik materiallar manbalariga suyanadigan bo‘lsak, Keshning mavqei haqida yanada ko‘plab ma’lumotlar olish mumkin bo‘ladi. Bu davrda Kesh yanada qudratli bo‘lib, Sug‘dning poytaxt darajasiga ko‘tariladi[3:39]. Shishpir davrida zarb etilgan tangalarda “Kesh podshosi” jumlasi zikr etilgan. Ilk o‘rta asrlarda Sug‘dning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida Kesh muhim o‘rin tutgan. Kesh bozorlari gavjum bo‘lib, keshlik savdogarlar Sug‘dning sharqiy koloniyalarida faol ishtirok etgan. Shahrisabz Buyuk ipak yo‘lining asosiy yo‘nalishlaridan biri ustida-dovon oshuvi oldida joylashgan muhim manzil bo‘lib kelgan[4:54].

Naxshab arablar tomonidan to‘liq ishg‘ol etilguniga qadar bu shahar bir necha bor ozod etilgan va bir necha marotaba qayta bosib olingan. Arablar istilosi davrida Naxshab shahri arablarga qarshi

ko‘tarilgan qarshilik harakatlarining eng asosiy markazlaridan biriga aylanib qolgan. Sug‘d ixshidi Gurakning halokatidan so‘ng uning o‘rniga taxtga o‘tirgan o‘g‘li Turxor davrida ma’lum vaqt Sug‘dning markazi Naxshabga ko‘chishi hamda Turk hoqonligi va Sug‘d ittifoqchi qo‘shinlarining aynan shu shaharda to‘planishi ham Naxshabning o‘sha davrdagi siyosiy maydondagi o‘rnini ko‘rsatib bergan. Bu davrga kelib esa, Naxshab nomi Nasaf nomi bilan atala boshlandi. Shu tariqa Nasaf o‘rta asrlarda uch qismli shahar sifatida ark (ko‘handiz), shahriston (madina) va rabotdan iborat bo‘ladi.

Yirik shaharlarda esa, ichki va tashqi shahristonlar bo‘lgan. Natijada, ichki shahar (shahri darun) va tashqi shahar (shahri birun) atamalari kelib chiqqan. Bu arabcha “madina doxil”, “madina xarij” atamalariga mos keladi[5:44].

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo o‘ziga xos siyosiy tarqoqlikni boshdan kechirib, o‘ndan ortiq mayda davlatchalarga bo‘linib ketgan edi[6:8]. Yozma manbalar Sug‘dda muayyan mulklarning shakllanganligini tasdiqlaydi, jumladan, Xitoy yilnomalarida Sug‘d hududida Kan, Shi, Mi, Xe, Nashebo, An kabi kichik mulk (hokimlik)lar mavjudligi hamda ularning boshqaruvidagi ma’lum bir o‘ziga xosliklar tilga olinadi[7:322-332]. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra Qashqadaryo hududida o‘troqlashuv jarayonining kuchayishi tufayli aholi manzilgohlarining bir necha guruhlari – markaziy shaharlar, muayyan mulkning ijtimoiy-iqtisodiy markazlari (nisbatan kichik shaharlar)[8:21], qishloq manzilgohlari, himoyalangan qal’a-qo‘rg‘onlar, kichik qal’a-qo‘rg‘onlar[9:23] ҳамда тоғ ёнбағри ҳимояланган[10:51-53].

Markaziy shaharlar – Kesh, Naxshab, Termiz oralig‘ida, shuningdek, Amudaryo kechuvlarida joylashgan Forob, Karki, Kalifga qadar hamda Ustrushona chegaralaridan Temir darvozagacha bo‘lgan hudularda ilk o‘rta asr hunarmandchilik va savdo markazlari, qo‘rg‘on va qishloq manzilgohlari tarmog‘i shakllanadi[11:52].

Yerqo‘rg‘onning tashqi mudofaa devori va ichki mudofaa devori orasida ham alohida turuvchi tepalar bilan bir qatorda ancha zich joylashgan va butun boshli hunarmandchilik mahallalari yoki yashash uchun qurilgan uylarning xarobalarini ko‘rish mumkin. Yerqo‘rg‘on xarobalarida qazishma ishlarini olib borgan R.Sulaymonov tadqiqotlariga ko‘ra, temirchilar mahallasini kesib o‘tgan yo‘lda solingan stratigrafik shurfning eng quyi qatlamlaridan yuqori qatlamlarigacha bo‘lgan davrda hunarmandlar temirchilik bilan shug‘ullanganlar[12:129].

Naxshab vohasi arxeologiyasi bilan shug‘illangan mutaxassislar Bobokenttepa o‘rnidagi shahar hukmdorlari va aholisining katta qismi Naxshab vohasining janubiy chegaralarini, Pazdava shahri aholisi vohaning janubi-g‘arbiy chegaralari, Kasbi aholisi esa g‘arbiy chegaralarini qo‘riqlaganligini ta’kidlaydilar.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ilk o‘rta asr shaharlarining xususiyatlaridan biri sifatida jome masjidlarini aytib o‘tish lozim. Movarounnahrning o‘rta asrlar shaharlari kabi Qashqadaryo vohasi shaharlarida ham shahar qurilishining asosiy bo‘g‘ini shahar mahallalari hisoblangan. Tadqiq etilayotgan davr yozma manbalari tahliliga ko‘ra, shaharlar mahallalariga ularni oralab o‘tgan ko‘chalariga berilgan ta’riflardan o‘rta asr shaharlari asosan mahallalardan tashkil topganligi ma’lum. Shunday bo‘lsada bitta mahalla nechta xonadondan tashkil topganligi va bitta mahallaning maydoni qancha bo‘lganligini ma’lum emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. Т.,1973. С-23-28.

2. Ҳакимов З. Тоҳаристон меъморчилиги// Мозийдан садо. 2013 й, №2, Б-23.

3. Отахўжаев А. Суғд конфедерациясида Кешнинг ўрни. // Шаҳрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий конференцияси маърузалари тезислари.Тошкент.,“ Фан” нашриёти.2002 йил.Б-39.

4. Абдуллаев Б,, Мансуров Ў Шаҳрисабзнинг ўзбек давлатчилиги тарихидаги маъмурий-сиёсий мавқеига доир. // Шаҳрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий конференцияси маърузалари тезислари.Тошкент,, “Фан” нашриёти.2002, Б-54.

5. Аҳмедов М. Ўзбекистонда шаҳарсозлик санъатининг шаклланиши.//Мозийдан садо.2013 йил № 4, Б. 44.

6. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам (IX-начала XIIIв.в.). - Ташкент: Узбекистан, 1996.-С. 8.

7. Бичурин Н.Я(Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших Средней Азии в древние времена. - Алма-аты: Ылым, 1998. Ч.II. -С.280-285, 291-298, 322-332.

8. Адылов Ш.Т. Становление и развитие городской культуры Бухарского Согда по материалам стратиграфических исследований (IV в. до н.э.-VIII в.н.э.): Автореф.дисс…канд.ист.наук. -Самарканд,1987.-21 с.

9. Раимкулов А.А. Культура сельских поселений Нахшеба в эпоху раннего феодализма: Автореф.дисс…канд.ист.наук. - Самарканд, 1992. – с.23.

10. Якубов Ю. О типологии сельских поселений горного Согда V-VIIIвв // Раннесредневековая культура Средней Азии и Казахстана. -Душанбе,1977.-С.51-53

11. Сагдуллаев А, Мавлонов Ў, Маҳкамова Д. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо сотиқ тизими.Т., Академия, 2012. Б.52.

12. Сулейманов Р.Х. Древный Нахшаб. Т.: Фан, 2000-С.129.

UO'K 331.108.5:930.85:334.012.24

MAHALLALARDA YOSHLARNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYASI

Sh.Sh.Ergashbayev, bosh mutaxassis, O'zR VM huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Namangan viloyati hududiy filiali, tadqiqotchi, Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqola mahalla institutining tarixiy-ilmiy genezisi doirasida yoshlar tadbirkorlik faolligining shakllanish mexanizmlarini, ularning ijtimoiy-madaniy determinatsiyasini hamda XXI asrda kuzatilayotgan transformatsion jarayonlarni kompleks tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *Mahalla, yoshlar tadbirkorligi, tarixiy genezis, institutsional transformatsiya, ijtimoiy kapital, iqtisodiy ijtimoiylashuv, bozor iqtisodiyoti, an'anaviy boshqaruv, ijtimoiy-madaniy omillar, raqamli tadbirkorlik, modernizatsiya, davlat siyosati.*

Аннотация. *Данная статья комплексно анализирует механизмы формирования предпринимательской активности молодёжи в рамках историко-научной генезы института махаллы, их социально-культурные детерминанты, а также трансформационные процессы, наблюдаемые в XXI веке.*

Ключевые слова: *махалля, предпринимательство молодёжи, историческая генеза, институциональная трансформация, социальный капитал, экономическая социализация, рыночная экономика, традиционное управление, социально-культурные факторы, цифровое предпринимательство, модернизация, государственная политика.*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the mechanisms of youth entrepreneurial activity formation within the framework of the historical-scientific genesis of the mahalla institution, its socio-cultural determinants, and the transformational processes observed in the 21st century.*

Keywords: *mahalla, youth entrepreneurship, historical genesis, institutional transformation, social capital, economic socialization, market economy, traditional governance, socio-cultural factors, digital entrepreneurship, modernization, state policy.*

Kirish: Mahalla instituti jamiyatning ijtimoiy-madaniy arxitekturasida asrlar davomida shakllangan, o'zining murakkab funksional tabiatiga ega bo'lgan va ko'p qatlamli evolyutsion jarayonlarni mujassamlashtirgan fenomen sifatida nafaqat ma'naviy, balki iqtisodiy jarayonlar tizimida ham muhim sotsiologik maydon vazifasini bajaradi[1]. Ayniqsa, yoshlarning tadbirkorlik faoliyati rivojida mahalla tizimining tutgan o'rni tarixiy kontekstlarda o'zgarmagan holda emas, balki u bilan chambarchas bog'liq holda, dinamik tarzda shakllanib kelgan. Chunki mahalla — bu shunchaki hududiy birlik yoki qo'shnichilik tizimi emas; u iqtisodiy kooperatsiya, ijtimoiy birdamlik, kasbiy meros, mehnat qadriyatlari va jamiyatning mikro darajadagi boshqaruv modeli sifatida namoyon bo'ladigan murakkab sotsial makondir[2]. Mahallaning mazkur tabiatini tushunmay turib, yoshlarning tadbirkorlik faolligi, iqtisodiy tashabbuskorlik madaniyati, mehnat psixologiyasi va innovatsion dunyoqarashining shakllanish mexanizmlarini izohlash ilmiy jihatdan to'liq bo'lmaydi[3]. Tarixiy manbalarga murojaat qilganda, iqtisodiy faoliyatning mahalla makonida shakllangan an'anaviy ko'rinishlari hunarmandchilik, oila xo'jaligi modeli, chorvachilik, dehqonchilik, mahalliy ustalar tizimi va savdo-ayirboshlash munosabatlari — yoshlarning iqtisodiy tarbiya jarayonida uchlamchi emas, balki yetakchi rol o'ynaganini ko'ramiz. Avloddan avlodga o'tgan kasbiy tajriba, mehnatning qadriy jihatlari, ustoz-shogird tizimi, qo'shnichilik ko'magi va jamoaviy mehnat madaniyati yoshlarning iqtisodiy tafakkurini shakllantiruvchi ijtimoiy

mexanizmlarni yaratgan[4]. Aynan mana shu model mahalla institutining ichki xarakteriga chuqur singib ketgan va hozirgi kunda ham yoshlar tadbirkorligi evolyutsiyasini tushunishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi[5].

Adabiyotlar tahlili: *Mahallalarda yoshlarning tadbirkorlik faoliyati tarixiy shakllanishi va uning zamonaviy transformatsiyasi masalasi xalqaro ilmiy maydonda ham bir qator olimlarning konseptual izlanishlarini talab qiladigan ko‘p qatlamli sotsiologik va iqtisodiy fenomen sifatida ko‘riladi. Xususan, jamoaviy boshqaruv tizimlari, mahalliy hamjamiyatlarning iqtisodiy imkoniyatlarni safarbar etishdagi roli, yoshlar tadbirkorligining mikrosotsial determinantlari hamda ijtimoiy kapitalning iqtisodiy modernizatsiyadagi funksiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar orasida ikki taniqli olim — Elinor Ostrom va Robert D. Putnamning ilmiy yondashuvlari mazkur mavzuning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ularning ishlari Google Scholar ilmiy bazasida keng e’tirof etilgan bo‘lib, mahalla instituti va yoshlar iqtisodiy faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishda metodologik platforma yaratadi. Elinor Ostrom o‘zining jamoaviy boshqaruv tizimlari, o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi hamjamiyatlar va resurslarni boshqarishning institutsional modellari haqidagi tadqiqotlarida mahalliy birliklarning iqtisodiy faoliyatni optimallashtirishdagi rolini chuqur yoritadi[6]. Uning “Governing the Commons” kabi fundamental ishlari jamoaviy tashkilotlarning davlat va bozor mexanizmlaridan mustaqil tarzda barqaror boshqaruvni yaratish qobiliyatini asoslaydi. Ostromning konsepsiyasiga ko‘ra, mahalla tipidagi hamjamiyatlar tarixan o‘z ichki “qoidalar majmui” orqali iqtisodiy intizomni yaratgan, resurslardan foydalanishda mas’uliyatni taqsimlagan, mehnatni kooperatsiya qilgan va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlagan[7]. Ostromning bu ilmiy g‘oyalari mahallaning iqtisodiy determinatsiyasini tushunishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [8].*

Metodologik qism: *Ushbu maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida tarixiy-tahliliy yondashuv, komparativ tahlil, sotsiologik kuzatuv va eksplanator metodlar integratsiyasi qo‘llanildi. Tarixiy-tahliliy yondashuv mahallalarda yoshlarning tadbirkorlik faoliyatining shakllanish bosqichlarini rekonstruksiya qilish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy determinantlarini aniqlash imkonini berdi. Komparativ tahlil orqali turli davrlardagi mahalla institutining yoshlar tadbirkorligidagi roli solishtirildi, zamonaviy transformatsiya jarayonlari va an’anaviy iqtisodiy faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritildi.*

Natijalar: *Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mahallalarda yoshlarning tadbirkorlik faoliyati tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, an’anaviy iqtisodiy subkulturalar, hunarmandchilik tizimlari va avloddan-avlodga uzatilgan kasbiy tajriba zamonaviy transformatsiya jarayonining fundamentini tashkil etadi. Mahalla institutining ichki tuzilmasida shakllangan ijtimoiy kapital, qo‘shnichilik yordam tizimi va jamoaviy maslahat mexanizmlari yoshlarning iqtisodiy tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.*

Muxokama: Mahallalarda yoshlarning tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va zamonaviy transformatsiyasini tahlil qilishda Elinor Ostrom va Robert D. Putnam nazariyalari o‘rtasidagi ilmiy diskussiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ostromning jamoaviy boshqaruv va resurslarni o‘zini-o‘zi tartibga solish haqidagi konsepsiyasi mahalla institutining iqtisodiy resurslarni boshqarishdagi mustaqil funksiyasini ko‘rsatadi[9]. U mahalla ichidagi yoshlar tadbirkorligini ijtimoiy intizom va o‘zaro mas’uliyat orqali shakllantiruvchi institutsional mexanizm sifatida talqin qiladi. Ostrom nazariyasiga ko‘ra, mahalla yoshlar uchun iqtisodiy faoliyatni tajriba asosida o‘rganish, xatolardan saboq olish va jamoaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Boshqa tomondan, Putnamning ijtimoiy kapital konsepsiyasi mahalla va yoshlar tadbirkorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni jamiyatning ishonch tarmoqlari, ijtimoiy faollik va fuqarolik ishtiroki orqali tushuntiradi[10].

Xulosa: Ushbu maqola mahallalarda yoshlarning tadbirkorlik faoliyatining tarixiy shakllanishi va zamonaviy transformatsiyasini tizimli tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mahalla

institutining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalari yoshlarning iqtisodiy tashabbuskorligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sadullayev U. Zamonaviy o'zbek mahallalarida ijtimoiy o'zgarishlar //Medicine, pedagogy and technology: theory and practice. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 284-294.

2. Xolmurodovna B. J., Faridovna Z. L. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida yoshlarning kasbiy layoqatlarini shakllantirish //qo ‘qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – T. 9. – C. 17-20.

3. Norov S., Turatosheva S. O‘zbekiston yoshlar siyosatining ijtimoiy, madaniy va ta'limiy sohalardagi falsafiy asoslari va uning ma'naviy yetuk yoshlarni shakllantirishdagi roli //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – T. 5. – №. 6. – C. 32-38.

4. Mirdjalolovna M. S. O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlash orqali daromadliligini oshirish //" YURT FAXRI". – 2025. – T. 1. – №. 1.

5. Abdusattarovna A. O. Uyushmagan yoshlar o‘rtasida olib borilayotgan islohotlar va xorij tajribalari //ACTIVE RESEARCHER. – 2025. – T. 2. – №. 4. – C. 32-38.

6. Mamanov J. Xususiy tadbirkorlik va ishbilarmonlik yoshlar ma'naviy madaniyati o ‘zgaruvchanligining ijtimoiy mohiyati //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2023. – №. 7 (19). – C. 15-21.

7. Nazarova Z. B. Q. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishdagi islohotlar va ularning ahamiyati //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 294-302.

8. Hamdamov S. Mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash va kambag ‘allikni qisqartirish //qo ‘qon universiteti xabarnomasi. – 2024. – T. 13. – C. 83-85.

9. Madiyeva S. O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlash orqali daromadliligini oshirish //Академические исследования в современной науке. – 2025. – T. 4. – №. 25. – C. 85-94.

10. Xaydaraliyeva A. D. Ayollar va yoshlarni biznesga jalb qilishning amaliy strategiyalari //Oriental Conferences. – OOO «SupportScience», 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 376-382.

UDK 930.1

“HUJUM” HARAKATINING TASHKIL ETILISH SABABLARI VA UNING IJTIMOIY OQIBATLARI

X.N. Eshonqulova, mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqola 1927–1929-yillarda O‘rta Osiyoda sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan “Hujum” harakatining shakllanish sabablari va uning qisqa hamda uzoq muddatli ijtimoiy oqibatlarini chuqur tarixiy-madaniy tahlil qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Hujum, sovet modernizatsiyasi, gender siyosati, mustamlakachilik, mahalla, paranji, ayollar tarixi, O‘rta Osiyo.*

Аннотация. *Данная научная статья представляет собой глубокий историко-культурный анализ причин формирования движения «Худжум», осуществлённого советской властью в Центральной Азии в 1927–1929 годах, а также его краткосрочных и долгосрочных социальных последствий.*

Ключевые слова: *Худжум, советская модернизация, гендерная политика, колониализм, махалля, паранджа, история женщин, Центральная Азия.*

Abstract. *This scholarly article provides an in-depth historical and cultural analysis of the factors behind the emergence of the “Hujum” campaign implemented by Soviet authorities in Central Asia between 1927 and 1929, as well as its short-term and long-term social consequences.*

Key words: *Hujum, Soviet modernization, gender policy, colonialism, mahalla, paranja, women's history, Central Asia.*

Kirish. XX asr boshlarida sobiq Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmon xalqlar uchun tub o‘zgarishlar davri boshlandi. 1917-yilgi Bolsheviklar inqilobi va fuqarolar urushi jarayonlari tugashi bilan sovet hokimiyati mintaqani modernizatsiya qilish va uni so‘zsiz sotsialistik jamiyat qurilishi sari yo‘naltirishga kirishdi [6]. Bu jarayonning eng keskin ko‘rinishlaridan biri ayollar hayoti, oilaviy tuzum, mahalla tizimi va diniy institutlarni tubdan o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan “Hujum” harakatidir [9; 11]. Bu maqolaning dolzarbligi shundaki, “Hujum” harakati O‘zbekiston tarixi, gender jarayonlari, mustamlakachilik tajribasi va sovet modernizatsiyasining mohiyatini anglash uchun muhim ilmiy obyektdir [6; 10].

Metodologiya. Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlarga asoslandi:

Tahlil quyidagi manbalar asosida olib borildi: SSSR Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasining qarorlari va O‘rta Osiyo byurosi tomonidan chiqarilgan farmoyishlar [1]; Turkkomissiya hujjatlari hamda “Jenotdel” (Ayollar bo‘limi)ning yillik hisobotlari [2]; 1927–1929-yillarga oid matbuot materiallari (“Qizil O‘zbekiston”, “Bezbojnik”, “Pravda”) [3; 5]; mahalliy arxiv hujjatlari (fojeaviy qotilliklar, norozilik aksiyalari, militsiya ma’lumotlari) [1; 2].

Bu hujjatlar kampaniyaning real ko‘lamini tiklash va sovet siyosatining aniq repressiv va tashkiliy mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi [6; 9].

O‘rta Osiyodagi “Hujum” kampaniyasi Kavkaz, Tatariston, Boshqirdiston va Yaqin Sharqdagi isloh harakatlari bilan solishtirildi [7; 15]. Bu yondashuv “Hujum”ning o‘ziga xos — faqat mintaqaga xos sovet mustamlakachilik modeli sifatida shakllanganini ochib berishga yordam berdi [14; 19].

Gayatri Spivakning “Can the Subaltern Speak?” [13], Frants Fanonning mustamlaka fiziologiyasiga oid qarashlari va H. Carrère d’Encausse hamda boshqa tadqiqotchilarning asarlari asosida sovet siyosatining “ozod etish” diskursi tahlil qilindi [13; 14; 19]

Patriarxiya va sovet modernizatsiyasining gender tizimini qayta shakllantirishdagi o‘rni, ayol–erkak ijtimoiy rollarining o‘zaro o‘zgarishi, gender konfliktlar va psixologik oqibatlar tahlil qilindi [10; 16; 17].

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sovet hokimiyati “Hujum”ni uch asosiy maqsadda, biroq turli bosqichlarda boshlagan: siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ideologik maqsadlar kompleks tarzda birlashgan [6; 9; 11].

Birinchidan, mintaqani tezkor sovetlashtirish strategik maqsad edi. Ayollar mavzusi orqali mahalliy jamiyatga kirish sovet ideologiyasi uchun strategik qulay yo‘l bo‘lgan, chunki u eng nozik soha — shaxsiy hayot, oila va jinsiy-axloqiy me’yorlar maydonini qamrab olgan [6; 11; 19]. Bu, aslida, sotsialistik madaniyatni “yuqoridan” va “shaxsiy maydon”ga majburan kiritish edi.

Ikkinchidan, mahalliy diniy va an’anaviy elita ta’sirini kamaytirish maqsad qilindi. Paranji — mahalliy mustahkam diniy-madaniy identitet ramzi bo‘lgan [12; 18]. Uni yo‘q qilish diniy institutlarni zaiflashtirishga va mahalliy ulamolarning ijtimoiy avtoritetini sindirishga xizmat qildi [14; 18].

Uchinchidan, yangi siyosiy identitet — “sovet ayoli”ni yaratish zarur deb topildi. Bu obraz sovet jamiyatining “modern”, “ma’rifatli” va “ideologik tayyorlangan” fuqarosi sifatida targ‘ib etildi [11; 15].

1920-yillar oxirida SSSR industrializatsiya dasturini e’lon qildi. Bu jarayon uchun ko‘p sonli, arzon va siyosiy jihatdan itoatkor ishchi kuchi zarur edi [6; 9]. Ayollar aynan shunday resurslardan biri sifatida ko‘rildi. O‘rta Osiyo ayollarining mehnatga jalb qilinishi (paxta yetishtirish, yengil sanoat, to‘qimachilik) sovet iqtisodiy tizimini mustahkamlashga xizmat qilgan [8; 9; 20].

Paranji va chachvon sovet mafkurasida “qoloqlikning asosiy ramzi” sifatida talqin qilindi [12; 18]. Bu hol sinfiy kurash va madaniy kurashning keskinlashuviga olib keldi, bu yerda sovet ateizmi va emansipatsiya g‘oyalari yagona haqiqat sifatida taqdim etildi [4; 5]. “Hujum” shu ma’noda “madaniy inqilob”ning ramziy cho‘qqisi sifatida talqin qilindi [6; 14].

“Hujum” jarayonining amaliy bosqichlari

Kengaytirilgan tahlil asosida kampaniya quyidagi bosqichlar orqali amalga oshirilgan [1; 2; 3; 19]:

Preparativ bosqich (1926–1927) - bu davrda agitatorlar tayyorlandi, “Jenotdel” bo‘limlari soni ko‘paytirildi, ayollar tashkilotlari va kurslari ochildi [2; 8]. Matbuotda paranjiga qarshi keskin targ‘ibot kuchaytirildi, diniy ruhoniylar va mahalliy “qoloq an’ana tarafdorlari” tanqid qilindi [3; 5; 18].

Massoviy bosqich (1927-yil 8 martdan so‘ng)-1927-yil 8-mart sanasi O‘rta Osiyoda “Hujum”ning ommaviy boshlanishi sifatida e’lon qilindi [3; 6]. Bu davr tarixda eng keskin bosqich sifatida qayd etiladi:

– ommaviy paranji yoqish marosimlari tashkil etildi;

– bir kunda minglab ayollarning paranji tashlashi uyushtirildi;

– bu aksiyalar propaganda efekti uchun fotosuratga olinib, gazeta va jurnallarda keng yoritildi [3; 5; 19];

– teatr va san’at vositalari orqali paranji va an’anaviy diniy qadriyatlar ustidan kulish, masxara qilish keng tarqaldi [5; 18].

Qarshilik va repressiya bosqichi (1928–1929)

Tahlil natijalariga ko‘ra, paranji sini tashlagan ayollarga qarshi “qasos qotilliklari” sodir etilganini ko‘rsatuvchi ko‘plab hujjatlar mavjud [1; 2; 16; 19]. Rasmiy ma’lumotlar va zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, 1928–1929-yillarda 300–400 nafar ayol va ayollarga homiylik qilgan faol (ayollar bo‘limi xodimlari, komsomolchi qizlar) o‘ldirilgan [16; 19; 20]. Bu holatlar mahalliy qarshilikning naqadar keskin bo‘lganini ko‘rsatadi.

“Hujum”ning ijtimoiy oqibatlari

Ijobiy oqibatlar — modernizatsiya jarayonining tezlashuvi

“Hujum”ning murakkab va fojeali ko‘rinishlariga qaramay, uning natijasida ayrim modernizatsion ijobiy o‘zgarishlar ham kuzatildi. Eng avvalo, ayollar savodxonligi keskin ko‘tarildi: 1927-yilda O‘zbekistonda ayollar savodxonligi 6 % atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 1939-yilga kelib bu ko‘rsatkich 60 % dan yuqoriga ko‘tarildi [6; 8].

Ayollar ishchi kuchi sifatida fabrika, zavod, paxtachilik, to‘qimachilik sanoatiga jalb qilindi, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida ayol mutaxassislar soni ortdi [8; 9; 20].

Salbiy oqibatlar — madaniy uzilish va zo‘ravonlik

Biroq ushbu modernizatsiya jarayoni ko‘pincha zo‘ravonlik, majburlash va davlatning shaxsiy hayotga bostirib kirishi bilan kechganligi sababli, uning salbiy oqibatlari ham chuqur bo‘ldi.

Oila institutida generatsion uzilish yuz berdi: ota-onalar va bolalar, ayniqsa, qizini “sovetlashgan” deb ko‘rgan oilalar o‘rtasida munosabatlar buzildi [16; 20].

Diniy qatlam obro‘sining pasayishi, ruhoniylar va diniy institutlarning jamiyatdagi nazorat mexanizmi sifatidagi mavqeini yo‘qotishi ham qayd etildi [14; 18].

Ayollar bir tomondan savod olish, ishga chiqish, jamoat hayotida ishtirok etish orqali nisbiy ozodlik elementlarini his etgan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, o‘z xavfsizligidan mahrumlik, yaqinlarining ta’qibi, jismoniy tahdid va ijtimoiy bo‘hton bilan yuzma-yuz keldilar [11; 12; 16]. Ular yangi ijtimoiy rolga ko‘pincha majburan o‘tishga majbur bo‘lishdi.

Muhokama. Tarixiy tahlil “Hujum”ni ikki bir-biriga qarama-qarshi jarayonning birlashuvi sifatida talqin etish imkonini beradi:

1. modernizatsiya — ayollar savodxonligi, ijtimoiy faolligi oshdi;
2. mustamlakachilik — Moskva markazi tomonidan mahalliy madaniy asosni buzish, mahalliy xalqni “ortda qolgan” deb tamg‘alash va majburiy madaniy assimilyatsiyaga urinish [11; 12; 14; 19].

Bu ikki qarama-qarshi element “Hujum”ni murakkab ijtimoiy hodisaga aylantirdi. Sovet hokimiyati G‘arbiy-Yevropa modeli asosida shakllangan gender tasavvurlarini mahalliy sharoitga tatbiq qilish orqali mintaqani mafkuraviy jihatdan zabt etishga intildi [11; 15].

Sovet mafkurasi ayolni quyidagi siyosiy timsollarga bo‘ldi [11; 12]:

– “ozod qilinishi kerak bo‘lgan qurbon”: bu obraz “Jenotdel” va boshqa tashkilotlarga ayollarga aralashishga ma’naviy va siyosiy huquq bergan;

– “eski dunyoning ramzi”: paranjili ayol obrazi jaholat, feodalizm va diniy qoloqlik bilan tenglashtirilgan;

– “yangi sotsialistik jamiyat quruvchisi”: paranjisiz, ishchi va faollashgan ayol esa “baxtli va ozod” sovet fuqarosi sifatida targ‘ib qilingan [4; 6; 11].

Mahalla — an’anaviy ijtimoiy tartibning tayanch instituti — “Hujum”dan jiddiy zarba oldi. Ayolning jamoat hayotiga chiqishi mahallaning “ijtimoiy nazorat” funksiyasini zaiflashtirdi, mahalladagi “uyat”, “or”, “nomus” kabi ijtimoiy konstruktlar qayta talqin qilindi; bu esa an’anaviy me’yorlarning buzilishiga va yangi, ikkilamchi axloqiy me’yorlarning shakllanishiga olib keldi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, “Hujum” harakati sovet modernizatsiyasining O‘rta Osiyoda joriy etilgan keskin, majburiy va repressiv shakllaridan biri bo‘lib, uning tashkil etilish

sabablari siyosiy (nazorat o‘rnatish), iqtisodiy (ishchi kuchi safarbarligi) va madaniy-ideologik (g‘oyaviy ustunlik) omillar kompleksidan iboratdir [6; 9; 11].

"Hujum" bugungi kunda nafaqat tarixiy jarayon, balki o‘zbek jamiyatining gender tizimi, madaniy ongi va milliy o‘zini anglash jarayonida chuqur iz qoldirgan fenomen sifatida xolisona qayta baholanishi zarur [6; 10; 20]. Uning tarixiy tajribasi zamonaviy modernizatsiya va gender siyosatini ishlab chiqishda, ayniqsa, "yuqoridan pastga" qaratilgan keskin ijtimoiy loyihalarning oqibatlarini baholashda muhim saboq vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi (O‘zR MDA). F. 58, r. 12, y. 185. O‘rta Osiyo Byurosi ning "Hujum" harakatiga oid qarorlari va hisobotlari. (1927–1929).

2. O‘zR MDA. F. 45, r. 1, y. 203. O‘zbekiston SSR Jenotdelining (Ayollar bo‘limi) hisobotlari va faoliyat doirasiga oid ma'lumotlar. (1926–1930).

3. "Qizil O‘zbekiston" gazetasi ning 1927 yil 8 mart va undan keyingi sonlari.

4. Lenin V.I. "Kommunizm va ayollar" to‘plami. Moskva: Partizdat, 1930.

5. "Bezbojnik" jurnalining 1928–1930 yillardagi sonlari.

6. Abdullayev R.M. O‘zbekiston tarixi (1917–1938): Sovet modernizatsiyasi va milliy mustaqillik kurashi. Toshkent: Sharq, 2018.

7. Massalski A.M. Turkestanskiy kray. (Rus tilida) Sankt-Peterburg: Tipografiya A. S. Suvorina, 1913.

UO'K 929:94(586.5)

JADIDCHILIK HARAKATI VAKILI - MUHAMMAD ZOHIR BEKIEVNING HAYOTI VA FAOLIYATIGA NAZAR

M.S.Hamidova, prof., t.f.d., O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

Annotasiya. *Mazkur maqola tataristonlik jadidchi olim, sayyoh va tarixchi Muhammad Zohir Bekievning hayoti va faoliyati tarixini yoritib berishga bag‘ishlangan. Maqolada o‘z davrining hur fikrli, ziyoli va zabardast olimi, yangilikka intiluvchi bir qator shogirdlar ustozi bo‘lgan Muhammad Zohirning suronli hayot yo‘li haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirib o‘tilgan. Muallif asarlarining aksariyat qismi chop ettirilmay qolgan bo‘lib, maqolada ushbu asarlarga qisqacha tavsivlar berib o‘tilgan. Shuningdek, bunda Muhammad Zohir Afandining O‘rta Osiyoga qilgan sayohati asosida yozilgan "Movarounnahrda sayohat. Transaksoniyaga safar" asarining tarixiy ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Rastov Don, Qozon, Istanbul, Movarounnahr, Transaksoniya, O‘rta Osiyo tarixiy shaharlari, Samarqand, Buxoro, Turkiston, jadidchilik harakati, ma'rifatparvar olim, madrasa ta'limi, yoshlar tarbiyasi, ustoz-shogird munosabatlari, talabalar ahvoli, ayollarga munosabat, turkiy xalqlar madaniyati.*

Аннотация. *Данная статья посвящена освещению жизни и деятельности татарского учёного, представителя движения джадидизм, путешественника и историка Мухаммада Захира Бекиева. В статье представлены интересные сведения о насыщенном и бурном жизненном пути Мухаммада Захира, который был свободомыслящим, просвещённым и выдающимся учёным своего времени, а также наставником целого ряда стремившихся к новшествам учеников. Значительная часть трудов автора не была опубликована, и в статье приводятся краткие описания этих произведений. Кроме того, раскрывается историческое значение его труда «Путешествие по Мавераннахру. Поездка в Трансаксонию», написанного по итогам его поездки в Среднюю Азию.*

Ключевые слова: *Ростов-на-Дону, Казань, Стамбул, Мавераннахр, Трансаксония, исторические города Средней Азии, Самарканд, Бухара, Туркестан, движение джадидизм, просветитель-учёный, медресинское образование, воспитание молодёжи, отношения наставник–ученик, положение студентов медресе, отношение к женщинам, культура тюркских народов.*

Abstract. *This article is devoted to exploring the life and activities of the Tatarstan-born Jadid scholar, traveler, and historian Muhammad Zohir Bekiev. The article presents fascinating information about the eventful and turbulent life of Muhammad Zohir, a free-thinking, enlightened, and prominent scholar of his era, who also served as a mentor to many students striving for*

innovation. A considerable part of the author's works remained unpublished, and the article provides brief descriptions of these manuscripts. Furthermore, the historical significance of his work "A Journey through Mawarannahr: A Trip to Transoxiana", written on the basis of his travels to Central Asia, is examined.

Keywords: *Rostov-on-Don, Kazan, Istanbul, Mawarannahr, Transoxiana, historical cities of Central Asia, Samarkand, Bukhara, Turkestan, Jadid movement, enlightenment scholar, madrasa education, youth upbringing, mentor–student relations, students' conditions, attitudes toward women, culture of Turkic peoples.*

Kirish. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab to XX asrning o'rtalarigacha davom etgan jadidchilik harakati dastlab Tataristonda shakllangan bo'lib, Tatariston, Kavkaz, O'rta Osiyo xalqlari hayotida o'ziga xos uyg'onish davrini yuzaga keltirgan. Dunyoga yangicha nazar bilan qarash, ilg'or fikrlarni ilgari surish va Rossiya imperiyasi mustamlaka hukumatining mahalliy xalqlarga nisbatan qo'llanilgan tartib-qoidalarida mavjud nohaqliklarga qarshi oshkora kurashgan jadidchilik harakati vakillari markaziy hukumat hamda eskilik tarafdorlari bo'lgan mahalliy ma'murlar tomonidan tazyiqqa uchragan. Shunga qaramay, yangi tuzum ortidan kirib kelgan nohaqliklar, evropa madaniyatiga taqlid qilishning ayanchli oqibatlarini bartaraf etish borasida jon kuydirgan ushbu harakat vakillaridan biri tataristonlik ziyoli, tarixchi va adabiyotshunos olim Muhammad Zohir Bekievdir.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili. Muhammad Zohir Afandi hayoti va faoliyati, shu jumladan, uning ilmiy va adabiy merosi xususida ma'lumot beruvchi yagona ilmiy asar muallifning O'rta Osiyoga qilgan sayohati asosida turkiy tilda yozilgan "Movarounnahrda sayohat. Transaksoniyaga safar" asari va unda keltirilgan so'zboshidir[1.2-6]. Ushbu asar 1897 yilda tadqiqotchining O'rta Osiyoga qilgan safari asosida yaratilgan. Asar turk tilida yozilgan va Qozonda 1908-yilda chop qilingan. Mazkur asar tadqiqotchining O'rta Osiyo qigan sayohati davomida bevosita ko'rgan-kechirganlarini bayon etishi natijasida yaratilgan bo'lib, sodda bayon uslubi bilan e'tiborga molikdir. Asarda asosiy voqealar O'rta Osiyo mahalliy xalqlari madaniy hayoti va moddiy-madaniy merosi, o'lkada hukmron bo 'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holatni o'rganishga qaratilgan ko'plab qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Ushbu muallifning O'rta Osiyo xalqlari bilan dini bir va hayot tarzi o'xshash bo'lsa-da, mahalliy xalqlarning o'ziga xos urf-odatlari, madaniy hayoti haqidagi o'ziga xos fikrlari taajubga to'la jumlalarda bayon etilgan. Shu bilan birga, asar 1908 yilda chop etilgan nusxasining dastlabki betlarida, olimning ukase Muso Bekiev tomonidan yozilgan so'zboshida muallif haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Unnda Zohir Afandining tabiati, tarbiyasi, ma'lumoti, qiziqishlari, hayot yo'li va vafoti tafsilotlari berilgan. So'zboshida, shuningdek, muallif tomonidan turli mavzularga bag'ishlab yozilgan va aksariyat qismi nashr etilmagan badiiy asarlari haqida ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, M.S.Xamidova tomonidan Muhammad Zohir Bekievning "Movarounnahrda sayohat. Transaksoniyaga safar" nomli asarining ilmiy ahamiyatini ochib berishga bag'ishlab chop ettirilgan ilmiy maqolasi ham mavzuni yoritishga xizmat qiladi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Muhammad Zohir Bekievning hayoti va faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar tahlilga tortilgan bo'lib, o'rganilgan materiallarning ahamiyatini ochib berishda xolis ilmiy uslubdan foydalainilgan. Maqolada mavzuga doir faktik ma'lumotlarni sharhlash, izohlash va ularning qiyosiy tahlili berilgan. Xususan, muallif sayohat qilgan hududlar, sharq mamlakatlari, tarixiy shaharlar nomi, ushbu mamlakatlar mahalliy aholisi, ularning milliy madaniyati, urf-odatlari va hayot tarziga oid tarixiy ma'lumotlarni ilmiy nuqta-i nazardan qiyosiy tahlil etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilgan Volgabo'yi, Tatariston, Kaspiy bo'yi va O'rta Osiyo xalqlarining XIX asr ikkinchi yarmidagi hayot tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati to'g'risida qiziqarli ma'lumotlarni yozib qoldirgan Muhammad Zohir Afandi Bekiev 1870-1902 yillarda yashab, ijod etgan. U XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan tatar yozuvchi, ma'rifatparvar va diniy islohotchi mutafakkir hisoblanadi. Muhammad Zohir mashhur mufti Salim Geroy hazratlarining shogirdi, Abdulkarim Bekievning 25 nafar farzandidan biri bo'lib, diniy-axloqiy ta'limot asosida tarbiya olgan. Muhammad Zohir Bekiev yoshligidan ilmga mehr qo'yib, turk, arab,

fors va rus tillarini chuqur o‘rganadi. U o‘z faoliyatini madrasada o‘qituvchilikdan boshlagan bo‘lsa-da, keyinchalik ijod yo‘liga kiradi.

Zohir Afandining ukasi Muso Bekievning yozishicha, u "…yosh bola ekan ruscha o‘quv, yozuv o‘rganib, so‘ngra volidasi Fotima xonum binti Domullo Habibulloh hazratlarining tarbiyasinda eski madrasalarning birinda ko‘p yillar qolub, eski usul uzarinda ulumi diniya, ulumi arabiya o‘qimushdir. Shu sanalar asnosinda yalniz kendusining sayi ila mashhur ruslarning asarlarini mutoala qila kelmishdir" [1.3].

Muhammad Zohir Bekiev Rastov Don shahrida yashagan vaqtlarida Imom Jaloliddin Abdulkarim Bekiev ya'ni otasining kutubxonasidan foydalangan holda ijod qilgan. U umrining ko‘p qismini ilm olish va kitob yozish bilan o‘tkazgan. Doimo rus, fors, arab tillaridagi manbalarni o‘qib, ularni o‘rganishga harakat qilgan. Shu sababli u o‘z davrida Rossiya musulmonlari orasida katta ta'sirga ega bo‘lgan ilm ahlidan biri sifatida tanilgan. Ukasi Muso Bekievning ta'kidlab o‘tishicha, uning bilimga bo‘lgan ishtiyoqi cheksiz bo‘lib, har doim o‘z ustida ishlashdan charchamagan. Bekievlar oilasining ayol a'zolari orasida ham ziyoli, ma'rifatli ayollar bor edi. Ulardan biri - Maryam xonim, Ismoilbek G‘aspiralining singlisi bo‘lib, u ham ayollar ta'limi va huquqlarini himoya qilish borasida faol bo‘lgan. Zohir Afandi Maryam xonim bilan ayollar masalasi, ta'lim va ijtimoiy tenglik haqida ko‘p bora suhbatlar qilgan. Bir kuni Maryam xonim unga shunday degan: "Janob Zohir Afandi, sizning yozgan asarlaringiz diniy, lekin ular roman shaklida yozilgan. Siz buni qanday tushunasiz? Axir, diniy asarni roman shaklida yozish to‘g‘rimi?" Zohir Afandi bunga quyidagicha javob bergan: "Har bir asarning o‘z ifoda vositasi bo‘ladi. Agar bir kitob xalqni yaxshilikka chorlay olsa, u diniy asar hisoblanadi. Men roman shaklidan xalqni hur fikrlashga o‘rgatish, islohga chaqirish uchun foydalanaman"[1.3-4]. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘ta tahlikali bir zamonda yashagan olim, o‘z goy ava fikrlarini konkret tarixiy shaxslar misolida bildirishdan chekinib, to‘qima obrazlar misolida millati vakillariga tushuntitishga, ularni haq yo‘l sari boshlashga harakat qilgan. Bunday uslub keyinchalik O‘rta Osiyo xalqlari tarixida unutilmas iz qoldirgan bir qator jadidchi olimlar faoliyatida ham kuzatilgan. Xususan, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa jadidchi olimlar yozib qoldirgan betakror badiiy asarlar fikrimizga dalil bo‘ladi.

Shunday qilib, ma'rifatparvar olim Muhammad Zohir Bekievning hayot yo‘liga chuqurror nazar tashlar ekansiz, unning yoshlik chog‘laridayoq qalam xizmatiga rahbati katta bo‘lgani e'tiboringizni tortadi. Yuqorida ta'kidlab o‘tganimizdek, u rus, arab, fors va turkiy manbalarni, badiiy asarlarni mutoola etish bilan birgalikda "Пагон за миллионами" nomli ruscha asarga taqlidan, o‘zining "Go‘zal qiz Hadija" nomidagi asarini yozadi. Bu asar Qozon shevasida yozilgan roman bo‘lib, asarlarining eng dastlabkisidir. Uning fikriga ko‘ra, "Shogirdlarga bir qator yozuv yozish ayb hisoblanmish bir zamonda yozilgan" ushbu asar Qozon xalqi, Qozon madrasalari talabalari orasida miskin Zohir Afandiyni mashhur etgan va unga nisbatan hurmatini oshirgan asaridir. Zohir Afandi shu asarini chop ettirmoq maqsadida Qozona kelib, Qozon madrasalarida biror narsa o‘rganish maqsadida jami madrasalarda dars o‘qish umidi bilan bir muddat qolib ketadi. U vaqtda Qozondagi madrasalar talabalar, xususan, unga hurmati baland bo‘lgan shogirdlarning ahvoliga qiziqib, "Gunohi kabir" nomida shogirdlar holidan xabar beruvchi romanini yozadi. Bu roman badiiy asar janrida yozilgan bo‘lsada, o‘sha vaqtda Qozon madrasalarida o‘qigan ilm-i toliblar hayot tarsi, ilm olish jarayoni, madrasalarning o‘qitish usullari va ta'lim tizimidagi muammolarni obrazli tarzda yoritib berishga bag‘ishlangani bilan e'tiborga molikdir.

Muhammad Zohir Afandi Maryam xonim bilan suhbatlardan ta'sirlanib, o‘z asarlarini kengroq ko‘lamda yozishni boshlaydi. Uning "Bahs va g‘iybat", "Imon asrori", "Gunohi kabir" va "Taqdir" kabi asarlari o‘quvchilar orasida katta qiziqish uyg‘otgan. Bu asarlar, ayniqsa, musulmonlarning hulq-atvori, ustoz-shogirdlarning ahvoli, ayollarning jamiyatdagi o‘rni, erkinlik va ma'rifat masalalarini ko‘tarib chiqqani bilan muhimdir. Muallif keyinchalik, Amir Habibulloh hazratlariga bag‘ishlab yozgan diniy-falsafiy risolasida ham bu masalalarga alohida e'tibor qaratgan[1.3-4].

Muso Bekievning yozishicha, shundan so‘ng, akasi "Muhammad Zohir Rastov Don shahriga qaytub, imomlik maqomiga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, umrining nihoyasiga qadar volidasining tarbiyasida qolgani, kissasida bir pora, bo‘lmasa-da bir kitob bo‘ishini ma'qul ko‘rib, Rastov

shahrining kutubxona imomiyasiga borib, doimo rus asarlarini mutoala qilgan. Shu asnoda shogirdlar holindan, eski madrasalarning Rusiya musulmonlari saviya ta'siridan xabar beruvchi "Murtad" nomli bir asar yozgani, lekin naqadar harakat qilmasin bu asarini nasr qildira olmagan" [1.3-5].

Muhammad Zohir e'tibor qaratgan eng o'g'riqli va nozik masalalardan yabna biri bu - Rosiyada xotun-qizlarga bo'lgan munosabat masalasi edi. Olimning asarlarida o'z davrida ayollar mazlumiyati va tarbiyasizliklarini ko'rsatib, "Qotila" nomida bir asar yozgan. Zamondoshlarining ta'rifiga ko'ra, "Bu asar bilmam nasil g'oyat buyuk bir mahoratla yozilmishdir-ki, asarlari orasinda eng ta'sirlisidir. Ban avval "Qotila"da Maryam xonum ila qizi Asmoning odam ko'ngli tahmil etmaz darajada dahshatlarini ko'rub, so'ngra "Sag'illara" asarida Fontina ila qizi Kuzita daxshatlarini o'qudim. Shu ikki kitob orasida g'oyat katta bir munosabat topdim. Bilmadim: Zohir Afandi va Viktor Huvg'u janoblarining "Qozon romani" asosida yozmishmi? Yoxud o'zining quvva sha'riasi ila shu kitobni maydonga chiqarmishmi? O'yla o'lmasada, bo'yla o'lmasada, bahri taqdir ila ul kitob Zohir Afandi nomina har vaqt faxr o'lajak bir kitobdir". Afsuski, muallifning bu kitobi ham bir qancha sabablarga ko'ra, chop ettirilmagan va sanoqli o'quvchilari tomonidan nashriga ruxsat berilishiga umid qilib qolingan, xalos.

Yozuvchining "Bahs va g'iybat", "Imon asrori" kabi diniy va ijtimoiy mazmundagi asarlarida ham millat va dinning islohoti, insonning ma'naviy yuksalishi, ayollarning jamiyatdagi o'rni, jaholat va bid'atlarga qarshi kurash masalalari ko'tarilgan. Ularda zamonaviy musulmon jamiyatini ma'rifat, ilm va erkin fikr asosida yangilash g'oyasi ilgari surilgan[1.3].

Muhammad Zohir Bekiev o'z davrida jadidchilik harakatining barcha vakillari singari ikki tomonlama (Rossiya mustamlaka hukumati va eskilik tarafdori bo'lgan mahalliy ma'murlar tomonidan) qattiq tanqid va tazyiqlarga uchragan bo'lishiga qaramay, adabiyot va ma'rifat yo'lidan chekinmagan. Uning tarixiy-ilmiy va diniy asarlari singari badiiy janrdagi romanlari ham turkiy xalqlar musulmon madaniyati tarixini o'rganishda birdek muhim o'rin egallaydi. Chunki ularda Rossiya musulmonlari (Volgabo'yi, Kaspiybo'yi xalqlari) va O'rta Osiyo mahalliy aholisining hayot tarsi, dunyoqarashlari, diniy e'tiqodi, tafakkuri, ularning milliy uyg'onish, ma'naviy poklanish borasidagi harakatlari va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini ko'rsatib berish masalasi ilgari surilgan.

Ayniqsa, Muhammad Zohir Afandining O'rta Osiyoga qilgan sayohati tavsilotlari yoritilgan "Movarounnahrda sayohat. Transaksoniyaga safar" asari O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining turli jabhalarini yorutib bergani bilan e'tiborga molikdir. Unda Toshkent, Buxoro, Samarqand va umuman Mavorounnahr ahlining urf-odatlari, moddiy-ma'naviy madaniyati, mahalliy ziyolilarning dunyoqarashlari haqida qiziqarli ma'lumotlar jamlangan. Asarning qimmatliligi shundaki, muallif O'rta Osiyoning markaziy shaharlarida istiqomat qilgan mahalliy aholining turli tabaqaga oid vakillari bilan shaxsan muloqotda bo'lib, ularning diniy va dunyoviy fikrlarini tahlil qilgan. O'z ko'zi bilan ko'rgan voqealarni to'g'ridan to'g'ri qog'ozga tushurgan. Muallifning o'zi ham ajnabiy ammo musulmon diniga mansub, e'tiqodli inson bo'lishiga qaramay, O'rta Osiyoga sayohat qilish uchun kesib o'tgan bir qator musulmon mamlakatlari aholisining hulq-atvori, diniy ibodati va marosimlari, turmush-tarzini kuzatib, ko'rgan kechirganlarini hayrat va hayajonla tariflagan. Xususan, O'rta Osiyoning turli shaharlari aholisining muomala madaniyati, diniy e'tiqodi, ibodat va ijtimoiy-madaniy hayoti haqidagi fikrlari beixtiyor o'quvchining e'tiborini o'ziga tortadi[6-113]. Muallif tomonidan mamlakatimiz aholisi to'g'risida bir asr avval yozib qoldirilgan ma'lumotlarni o'qir ekansiz, o'sha davrga xos voqealar girdobiga shung'ib, hozirgi kun bilan qiyos qilishga kirishasiz. Olim tominidan batafsil tarif berilgan voqeyliklar kitobxonga yuz yil avval yashab o'tgan ajdodlarimiz turmush tarzi, yashash sharoitlari va ularning qiziqishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Muallifning yozishicha, u 1893-yil 11-aprel yakshanba kuni Istanbulni (Rüşdüfundun shahrini) tark etgan va Buxoroga safar qilishni niyat qilgan. U o'sha paytda Buxoroni ziyorat qilish, u yerdagi mashhur allomalar yurti bo'lgan bir qator shaharlar: Marv, Naxshab, Samarqand va Termizni kesib o'tib, Buxoroga boorish va Markaziy Osiyo madaniy muhitini o'rganishni rejalashtirgan. Zohir Afandi safarini 1311-hijriy yil 15-muharram (bu milodiy 1893-yilga to'g'ri keladi) sanasidan boshlagan[1.6]. Uning yozishicha, o'sha paytda Buxoro amirligi (Amir Abdulahadxon davri) xorijiy

sayyohlar va kirish-chiqishlarga qarshi qattiq nazorat ostida bo‘lgani bois, Buxoro shahriga bevosita kirish qiyin edi. Qat'iy maqsadda bo‘lgan tadqiqotchi Buxoroga kirish uchun Turkiston orqali o‘tish yo‘llarini izlagan. Lekin bu ham oson kechmagan. Shundan so‘ng, u safarini Toshkent va Samarqand orqali davom ettirishga qaror qilgan[1.3]

Muhammad Zohir Afandi Movarounnahr tarixidan ham xabardor bo‘lgan va ushbu sirli o‘lkani o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, sayohat sarguzashlari asosida bir asar yozishni maqsad qilgan. Yozilajak tarixiy asari benihoya qiziqarli bo‘lishiga oldindan ishongan tadqiqotchining o‘ziga bo‘lgan sobit ishonchi kitobning ilk sahifasida keltirilgan ushbu jumlalarda yaqqol namoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin:

Cela ne vous plait pas?

Ne lisez pas!

(Tarjimasi: Bu asarni yoqtirmasang, o‘qima!)

Tadqiqonchi Buxoroga safar naqadar tahlikali ekanini bilgan ammo o‘z fikridan qaytmagan va bni ham asarning ilk sahifasida quyidagi so‘zlar bilan izohlagan:

Buxoro miravi! Divonai!

Loyiqi zanjiri zindonxonai!

(Tarjimasi: Buxoroga boryapsan! Devonasan!

Zindonxona zanjiriga loyiqsan![2.6.]

Mazkur asar muallifning Boxoro sari bosib o‘tgan yo‘li bo‘ylab joylashgan mamlakatlar va shaharlar, diqqatga sazovor maskanlar, tarixiy-me'moriy yodgorliklar tarifi, unga yo‘ldosh bo‘lgan yo‘lovchilar haqida ma'lumot berish bilan boshlangan. O‘rta Osiyoga etib kelgach esa, dastlab Movarounnahr tarixida muhim o‘rin tutgan hukmron sulolalar, ularning asoschilariga ta'rif bergan.

Dastlab paroxodda boshlangan sayohat sarguzashlari, keyin O‘rta Osiyoga kelgach, markaziy shaharlar bo‘ylab temir yol va ot-ulov, aravada qilgan sayohati tavsilotlari batafsil yozib qoldirilgan.

Asarning tarixiy ahamiyati shundaki, unda tadiqotchi nazaridan kechgan har bir masala batafsil qog‘ozga tushurilgan va muallif o‘z nuqtai-nazari bilan ularni sharhlab ketgan. Xususan, yuqorida ta'kidlab o‘tganimizdek, muallif O‘rta Osiyoning bir qator tarixiy shaharlari: Toshkent, Samarqand, Buxoro aholisining xulq-atvori, ularning kundalik mashg‘ulotlari, oilaviy ahvoli, diniy qarashlari va hatto jinoyat va jazo masalari, jamiyatda ayollarning mavqei, ularga bo‘lgan munosabat masalalarini batafsil yozib qoldirgan. Shuningdek, asarda mahalliy xalqlar tomonidan asrlar davomida yaratilgan moddiy-ma'naviy merosga bo‘lgan e'tibor masalasiga alohida ahamiyat berilganini ko‘rish mumkin [1.6-113].

Muhammad Zohir Afandi musulmon diniga mansub, e'tiqodli va ziyoli inson bo‘lgani bois, har bir shaharda bunyod etilgan madrasa, masjid, ziyoratgoh va maqbaralar, saroylar va boshqa inshootlarni ta'riflab, ularda o‘tkazilgan tadbirlar, diniy marosimlar va hatto o‘zi guvoh bo‘lgan jazolash masalalarining amalga oshirilish jarayonlari haqida ishonchli ma'lumotlarni yozib qoldirgan[1.68-70].

Umuman olganda, Muhammad Zohir Afandining barcha asarlarida bayon etilgan masalalar diniy me'yorlar, musulmonning hulq-atvori, islomiy jamiyat ahlining o‘zaro munosabatlarini qay ahvolda ekanligi va qanday bo‘lishi zarurligi ta'kidlab o‘tilganini ko‘rish mumkin. Muallif tomonidan yozilgan barcha (tarixiy va badiiy) asarlarining o‘ziga xos sodda va tushunarli bayon tili o‘quvchiga o‘sha vaqtda bo‘lib o‘tgan tarixiy jarayonlarni aniq tasavvur qilish imkonini berishi bilan e'tiborga molikdir. Ular ma'lum tarixiy voqeylik va yoki tarixiy shaxslar xususida bo‘lsin yoinki ma'lum badiiy to‘qima obrazlarda bolishidan qatiiy nazar inqilobiy o‘zgarishlar oldida turgan musulmon dunyosi haqida birdek faktik ma'lumotlarni taqdim etishi bilan ahamiyatlidir.

Muhammad Zohir Afandi zamonasining hur fikrli, ziyoli, jasur va aqilli vakili bo‘lib, o‘z fikr-mulohazalari, g‘oyalarini hech bir to‘siq va qarshiliklardan cho‘chimagan holda dadil bayon eta olgan. Shu bois u mustamlaka hukumati tomonidan jiddiy tazyiqqa uchragan va 1902 yilda qatl ettirilgan [1.5].

Muallifning aksariyat asarlarini chop etishga nafaqat Rossiya mustamlakachiligi davrida balki sovet davrida ham ta'qiq qo‘yilgan, ayrimlari esa yo‘q qilib yuborilgan. Shunga qaramay, olimning “Movarounnahrda sayohat. Transaksoniyaga safar” asari uning ukasi Muso Bekiev va do‘sti

Abdurahmon Afandi tomonidan 1908-yilda, Qozonda bir necha yuz nisxada turkiy tilda nashr ettirilgan va hozirgi kungacha ushbu nashrning ba'zi nodir nusxalari saqlab qolingan.

Xulosa va takliflar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan va ko'plab hur fikrli shogirdlarga murabbiylik qilgan, ularning holidan doimo xabardor bo'lgan e'tiborli ustoz Muhammad Zohir Afandining hayoti va faoliyatini o'rganishda muallifning o'z asarlariga e'tibor qaratish zarur. Chunki boshqa manbalarda ushbu olim to'g'risida ma'lumotlar deyarli yoq. Muallif asarlarida o'zi yashagan davrga xos e'tiborli jihatlar: zamonasining muammolari, millatdoshlari, dindoshlari xulq-atvori, oilaviy munosabatlar, jamiyatda ayollarning o'rni, yoshlar tarbiyasi, ustoz-shogird masalalari xususidagi ma'lumotlarni hatto to'qima obrazlarda ham aniq-tiniq ko'rsatib bera olgan. Shu sababli ular adabiyotshunos, tarixchi, manbashunos, tarixshunos va sharqshunos olimlarni o'ziga birdek jalb qila olishi shubhasizdir. Shuningdek, Muhammad Zohir Afandi qalamiga mansub asarlarda qo'llanilgan badiiy va ilmiy uslublar ham o'ziga xosdir. Soha mutaxassislari tomonidan hozirda ham katta qiziqish bilan tadqiq etilayotgan ushbu fanlararo yondashuvlar va tarixiy tadqiqot usullari O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid tarixiy-badiiy manbalarni qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. محمد ظاهر بيگييف. ماوراءالنهرده سياحت. تراناوكسانيهيه سفر. - قازان: "كتاب" نشرياتى، ١٩٠٨

2. Muhammad Zohir Bekiev. Movarounnahrda sayohat. Transoksonoyaya safar. - Kazanь: Tipo-litografiya I.V.Ermalaevoy. preemi Klyuchkova, 1908. - 112 c.

3. Hamidova M.S. Muhammad Zohir Bekeevning "Movarounnahrda sayohat" asari tarixiy ahamiyati. // Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal Volume 6 Issue 3 | October 2025 | 9 ISSN - B. 478-483.

UO'K: 94 (575.1)

MUSTAMLAKA DAVRIDA TURKISTONDA MAORIF TIZIMINING TASHKIL ETILISHI

X.T. Jo'rayev, katta o'qituvchi, Namangan davlat texnika universiteti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Farg'onada musulmon hayotida katta o'rin egallagan* ta'lim tizimini yoritib berishga harakat qilingan. Turkiston istilosidan so'ng, *Rus ma'muriy hukumati o'lkada rus maktablari, bolalar va qizlar uchun progimnaziyalar, rus-tuzem maktablari ochishga muvaffaq bo'ldilar. Bu sohada hattoki imperiya hukumatining dasturi ham ishlab chiqildi. Imperiya rahbariyatining tub joy aholisiga bo'lgan munosabati masalasida asosiy e'tibor ularni ilm-ma'rifatdan chetda ushlab turishga qaratilgan edi.*

Kalit so'zlar: *Turkiston, rus-tuzem maktablari, eski maktab, general-gubernatorligi, siyosiy hayot.*

Аннотация. *В данной статье предпринята попытка осветить систему образования, игравшую значительную роль в жизни мусульман Ферганы. После завоевания Туркестана российское административное управление добилось открытия в регионе русских школ, прогимназий для мальчиков и девочек, а также школ русского образца. В этой области была даже разработана программа царского правительства. Основное внимание в отношении царского руководства к коренному населению было сосредоточено на том, чтобы оградить его от науки и образования.*

Ключевые слова: *Туркестан, школы русско-туземца, старая школа, генерал-губернаторство, политическая жизнь.*

Abstract. *This article attempts to shed light on the educational system, which played a significant role in Muslim life in Fergana. After the conquest of Turkestan, the Russian administrative authorities managed to open Russian schools, progymnasiums for boys and girls, and Russian-style schools in the region. Even a program of the imperial government was developed in this area. The main attention in the attitude of the imperial leadership towards the indigenous population was focused on keeping them away from science and education.*

Key words: *Turkestan, Russian-system schools, old school, governor general, political life.*

Turkistonda musulmon hayotida katta o‘rin egallagan ta’lim tizimi va uning Turkiston o‘lkasida o‘qish bo‘limi va xalq maorifi qurilishining natijasida 1876 yilda o‘lka o‘quv yurtlari boshqarmasi tashkil etildi. Natijada Turkistonda rus maktablari, shuningdek, mahalliy aholi uchun rus-tuzem maktablari ochish huquqiga ega bo‘ladi[1].

O‘lkada tashkil etilgan rus-tuzem maktablarini mustamlakachi ma’muriyat tashkil etishdan ko‘zlagan maqsadlari bor edi. Bu birinchi galda, o‘lkada ruslashtirish siyosatini amalga oshirish bo‘lsa, yana bir jihati mahalliy aholi orasidan o‘ziga sadoqatli kishilarni tarbiyalashdan iborat bo‘lgan.

Mustamlaka ma’murlari rus-tuzem maktablarini ravnaqi uchun imkon qadar harakat qilganlar. Davriy nbashrlarda mahalliy axolini bu maktablarga qiziqtirish maqsadida maktabdagi shart-sharoitlar, ovqatlanish tashkil etilganligi, yotoqxonalarda krovatlar, o‘quv xonalarining kengligi, sinf xonalarida stol-stullar, bolalarning ham musulmoncha, ham ruscha o‘qish va yozishni o‘rganish imkoniyatlari mavjudligiga urg‘u berilgan[2].

Hukumat, Farg‘ona viloyatida rus amaldorlarining bolalari uchun birinchi boshlang‘ich rus maktabini ochishga muvaffaq bo‘lganlar.

O‘tgan asrning 20-yillaridagi ba’zi sovet davri mualliflari ham mana shu maktablarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri talqin qila olgan edilar: «...Rus-tuzem maktablarining asosiy maqsadi, o‘lka mahalliy aholisining ma’rifiylik darajasini rivojlantirish bo‘lmay, aksincha, ularni ruslashtirishdangina iborat edi...»[3].

O‘lkadagi rus maktablari 1876 yilga qadar Toshkentda qiz bolalar bo‘limi va hunarmandchilik sinflari; Chimkentda qiz bolalar bo‘limi; Kazalinskda qiz bolalar uchun yakshanba darslari bo‘lgan; Perovsk va Samarqandda rus bolalar; Samarqandda g‘ayrita’ba bolalar uchun; Kattaqo‘rg‘on va Petro-Aleksandrovskda boshlang‘ich o‘quv yurtlari tashkil etilgan. Dastlab, Toshkentda 1866 yilda Juykova xususiy maktabi tashkil etildi.

Rossiya imperiyasi bosqinining dastlabki paytlaridanoq, rus aholisini Turkiston hududiga ko‘chirish siyosati bilan ayni bir paytda o‘lkada rus maktablari ham tashkil etiladi. 1869 yili Toshkentda Turkiston o‘lkasi “badavlat ota-onalar bolalari”ni gimnaziyaga kirish uchun tayyorlaydigan xususiy pansioni, 1871 yili Toshkentda o‘g‘il va qiz bolalar uchun hunarmandchilik sinflari bo‘lgan uch sinfli xalq maktabi va I sinfli boshlang‘ich ayollar maktabi tashkil etildi. Ushbu maktablarning barchasi shahardagi rus aholisi farzandlarini o‘qitishga mo‘ljallangan edi. Lekin, ushbu bilim yurtlarida kam sonli bo‘lsada mahalliy aholi vakillarining farzandlari ham o‘qir edilar. 1876 yil O‘quv ishlari bosh boshqarmasi tashkil etilgan paytdan boshlab o‘lkada Xalq maorifi vazirligi nizomlari asosida maktablar tashkil etila boshlandi. Toshkentda tayyorlov sinflari bo‘lgan erkaklar va ayollar to‘liqsiz o‘rta o‘quv yurtlari tashkil etildi. Keyinchalik, tez orada ular to‘liq umumiy ta’lim o‘quv yurti sifatida qayta tashkil qilindi. 1876 yili Toshkentda ochilgan xalq maktabi 1878 yil 1 yanvarida II sinfli, 1879 yil 1 iyulda esa IV sinfli shahar maktabiga aylantirilib, uning qoshida katta yoshli tub aholi vakillari uchun kechki rus tili kurslari va hunarmandchilik sinflari ham ochilgan.

O‘lkada boshlang‘ich bilim yurtlari O‘quv muassasalari bosh boshqarmasi nazoratiga olinib, qonunda belgilangan ta’lim muassasalarining mavjud turlari tartibida qayta tashkil etildi. Turkiston bo‘ylab xalq maorifi sohasida o‘zgarishlar amalga amalga oshirib borildi.

Toshkentda o‘lka boshqaruv idoralarining joylashganligi, rus aholisining ko‘pligi natijasida Toshkentning “yangi shahar” qismi Turkistonning eng yirik sanoat va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Shu munosabat bilan shaharda o‘quv yurtlari tarmog‘i rivojlandi. 1879 yili o‘lkaga ko‘chirib keltirilgan rus aholisining ehtiyojlariga muvofiq, Turkiston O‘qituvchilar seminariyasi tashkil etildi[4].

1886 yilda Toshkentda imperiya Xalq Maorifi Vazirligiga tegishli 9 ta, 1889 yilda 14 ta ta’lim muassasalari faoliyat yuritardi. Bu albatta, bir necha omillar bilan bog‘liq holda sodir bo‘ldi. Birinchidan, o‘lkada rus ma’murchiligining ko‘chayishi, imperiya hokimiyatining keng tarmoq otib mustahkamlanib borishi, mahalliy xalq vakillari orasida rus tilini bilishga intilish, ikkinchidan, rus ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarning ilgari surilishi sabab bo‘ldi. Uchinchidan, o‘lkada barpo etilgan ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik mansablarda ishlovchi

malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi Turkistonda nafaqat xalq bilim yurtlari, balki kasb-hunarga yo‘naltirilgan o‘quv yurtlarini tashkil etilishiga olib keldi. Xususan, 1878 yili imperiya Xalq Maorifi Vazirligi tomonidan qabul qilingan sanoat bilim yurtlarini tashkil etish to‘g‘risidagi qonunning ishlab chiqilishi va uni 1881 yil noyabrida tasdiqlanishi hamda 1888 yili 7 martda sanoat bilim yurtlari haqidagi Nizomning tasdiqlanishi natijasida, nafaqat Turkistonda, balki butun imperiya bo‘ylab davlat va xususiy sarmoyalar hisobidan sanoat bilim yurtlari, hunarmandchilik maktablari, shahar maktablari huzurida qo‘l mehnati sinflari tashkil etildi. 1887 yildayoq Toshkentda texnika bilim yurtini tashkil etish loyihasi ilgari surilgan edi. 1896 yilga kelib Toshkentda paxta tozalash va boshqa sanoat korxonalar uskunalarini tuzatuvchi malakali duradgor, tokar, temirchilarni tayyorlovchi hunarmandchilik maktabi tashkil etildi. 1902 yili Toshkentda qishloq xo‘jaligi sohasida ham mutaxassislarni tayyorlovchi Qishloq xo‘jalik gidrotexnika maktabi tashkil etildi. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad, “o‘quvchilarga sug‘orish texnikasini va inshootlarini barpo etishni o‘rgatish bilan qishloq xo‘jaligi va uning alohida sohalarini to‘g‘ri yuritish” edi. Turkistonda temir yo‘llarining qurilishi va ularning o‘lka iqtisodiy, siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etib borishi natijasida 1898 yili 25 sentyabrda Toshkent texnika temir yo‘l bilim yurti 1904 yili Orenburg – Toshkent temir yo‘li liniyasini ochilishidan oldin tashkil etilgan edi. Kasbiy ta’lim XX asr boshlaridan keng miqyosda rivojlandi. Birgina Toshkent shahrining o‘zida ko‘plab turdagi mutaxassisliklarni tayyorlovchi bilim yurtlari, xususiy ta’lim kurslari tashkil etildi.

XX asr dastlabki yillarida xususiy ta’lim muassasalari tizimlari yaxshi rivojlandi. Masalan, Turkiston pochta-telegraf okrugi Boshqarmasi huzurida aloqa xodimlarini tayyorlash bo‘yicha kurs tashkil etildi.

Imperiya ta’lim muassasalaridagi ta’lim dasturlari O‘rta Osiyoda dunyoviy ta’limning ilk ko‘rinishlari edi. Dunyoviy ta’limning keng tarmoq otgan tizimini yaratish, ijobiy mazmunga ega bo‘ldi. Turkistonda tashkil etilgan rus ta’limi muassasalari faoliyati natijasida o‘lkada yashovchi rus va mahalliy aholi vakillarini ma’lumoti oshirib borildi, kasbiy malakaga o‘rgatildi hamda imperiya ma’muriyati istamasada, mahalliy aholi vakillarining ham bu boradagi tushunchalarining ortishiga sabab bo‘ldi.

Mahmudho‘ja Behbudiy Turkiston jadidlarining rahnamosi sifatida rus-tuzem maktablarini tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadlarni o‘z vaqtida to‘g‘ri anglab yetib, bunga o‘z munosabatini ham bildirgan edi. Masalan, u, “Ehtiyoji millat” nomli maqolasida rus-tuzem maktablarini bitirganlarning boshqalardan afzalliklari faqatgina rus tilini bilishligida ekanligini, ularda milliylik yo‘qligiga alohida urg‘u beradi. Shu bois, Behbudiy: “...Russkiy tuzemniy maktablarida o‘qiganlar ziyoliy tugul - xiyoliy ham hisoblanmaydurlar. Alar faqat ruscha chalasavod kishilardur. Ziyoli qatorida kirmoq uchun boshqa alohida tahsil olish lozimdur. Ruscha tahsil qilgan ilm va fanni va ham dinlarig‘acha aytib bermoqg‘a kifoya qiladurgon milliy til va qalam sohibi bo‘lmoq kerakdur”[5]. Ya’ni, Behbudiyning fikricha, ta’lim dargohini tamomlagan shaxs o‘z bilimini milliy ruhda va milliy tilda og‘zaki hamda yozma shaklda millat ahllariga yetkaza oladigan bo‘lishi kerak edi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ma’lum bo‘lishicha, rus-tuzem maktablariga davlat siyosatiga mos firklovchi va uni tashviq qiluvchi muallimlarga dars berishiga ruxsat berilgan. Ushbu maktabda Mulla Sarimsoq Mallaboy o‘g‘li, Mulla Hoja Mirzo Ahmadbeklar muallimlikka tayinlanadi. Bu haqda Farg‘ona viloyati ta’lim nazoratchisining 1904 yilning 25 yanvarida 79-raqamli buyrug‘i ham e’lon qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Акромов В. XIX аср охири ва XX аср бошларида Ўзбекистонда халқ маорифи //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1972.-№6.-Б.53.

2. Тўракўрғон мактабхонаси /Русско-туземная школа в Тюря кургане //Туркистон вилоятининг газити, 1915 йил, 8 февраль.

3. Алексеенков П. Кокандская Автономия /Революция в Средней Азии.-Тошкент: Изд. Правда Востока, 1928.- №1.-С.21.

4. Ўзбекистон Миллий Архиви., И-47 фонд, 1-рўйхат, 72 – иш, 137 “Б” бет.

5. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Эҳтиёжи миллат //Туркистон вилоятининг газити, 1909 йил, 2 октябрь.

UO’K 94(555.2) + 930(555.2)

SHAYBONIYLAR DAVRIDA XORAZMDA MADANIY HAYOT VA ILM-FAN YUTUQLARI

S.M. Jumaniyazov, magistrant, Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shayboniylar davrida Xorazmda madaniy hayot va ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar tahlil qilingan. Xususan, adabiyot, me’morchilik, kitobat san’ati hamda ilmiy maktablarning shakllanishi va rivoji haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, hukmdorlarning ilm-fanga homiylik faoliyati ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Shayboniylar, Xorazm, madaniy hayot, ilm-fan-me’morchilik, adabiyot, tarix.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются достижения Хорезма в области культуры и науки в период правления Шайбанидов. Освещаются развитие литературы, архитектуры, искусства книгописания и формирование научных школ. Также отмечается покровительство науки со стороны правителей.*

Ключевые слова: *Шейбаниды, Хорезм, культурная жизнь, наука-архитектура, литература, история.*

Abstract. *This article analyzes the achievements of Khorezm in the fields of culture and science during the Shaybanid period. It highlights the development of literature, architecture, calligraphy, and the formation of scientific schools. The patronage of science by rulers is also discussed.*

Key words: *Shaybanids, Khorezm, culture, science, literature, heritage.*

Kirish. Shayboniylar davri Xorazm tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xorazm hududlarida markazlashgan davlat barpo etilishi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, Xorazm qadimdan ilm-fan va madaniyat markazi sifatida tanilgan bo‘lib, Shayboniylar davrida bu an’ana yanada rivoj topdi. Mazkur davrda Xorazmda madaniy hayotning asosiy yo‘nalishlari — adabiyot, me’morchilik, kitobat san’ati va ilmiy maktablar sezilarli darajada taraqqiy etdi. Shu bilan birga, hukmdorlarning ilm-fanga va madaniyatga homiylik qilishi ushbu jarayonning samaradorligini oshirdi. Ushbu davr olimlari, shoirlar va hunarmandlar nafaqat hudud ichida, balki qo‘shni mintaqalarda ham mashhur bo‘lib, ularning ijodi Xorazm madaniyatining boy merosini tashkil etdi.

Xorazm ilmiy markazlari diniy va dunyoviy fanlarni birlashtirgan holda rivojlandi. Madrasa va ilmiy maskanlarda tarix, falsafa, mantiq, fiqh, matematika, astronomiya va tibbiyot kabi fanlar o‘qitildi. Shu davr olimlari o‘z asarlarida Sharq va G‘arb ilmiy an’analarini uyg‘unlashtirishga intildilar. Shayboniylar davrida yaratilgan ilmiy asarlar nafaqat o‘sha davr uchun, balki keyingi avlod olimlari uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Bu esa Xorazm ilmiy-ma’rifiy muhitining yangi bosqichi sifatida tarixda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lishini ta’minladi.

Shayboniylar davri (XVI asr boshlaridan) Xorazm tarixida muhim bosqichlardan biri bo‘lib, Movarounnahr va Xorazm hududlarida markazlashgan davlat barpo etilishi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi [2]. Bu davrda Xorazm qadimdan ilm-fan va madaniyat markazi sifatida tanilgan bo‘lib, Shayboniylar davrida madaniy an’ana yanada rivoj topdi [3]. Siyosiy barqarorlik, hukmdorlarning faol boshqaruvi va mahalliy olimlar bilan hamkorlik madaniy va ilmiy hayotning rivojlanishi uchun muhim shart bo‘ldi [4]. Madaniy hayot sohasida Shayboniylar davrida Xorazmda yangi madrasalar, masjidlar, xonaqohlar va karvonsaroylar barpo etilib, ularning barchasi ilmiy va madaniy faoliyatga xizmat qildi [5]. Shayboniylar hukmdorlari adabiyot, me’morchilik, kitobat va miniatyura san’atiga homiylik qilganlar. Shu davrda masjidlar, madrasalar va karvonsaroylar barpo etilgan, shuningdek, shoirlar va yozuvchilar faoliyati qo‘llab-quvvatlangan [18]. Mashrabiy, Abdurahmon Jomiy va boshqa shoirlarning asarlari xalqning kundalik hayoti va ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirgan [19]. Kitobat san’ati va xattotlik an’analari keng yoyildi, miniatyura va bezakli qo‘lyozmalar yaratish rivojlandi [6]. Shu davr adabiyotida shoirlar va yozuvchilar o‘z asarlarida xalqning kundalik hayoti, ijtimoiy-siyosiy voqealar va davlat arboblarining faoliyatini aks ettirdilar [7]. Masalan, Mashrabiy va boshqa Xorazmlik shoirlar o‘z ijodida tarixiy voqealarni badiiy tasvirlash bilan birga, davrning madaniy rivojini ham yoritganlar [8]. Ilm-fan

sohasida Xorazm ilmiy maktablari diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirgan holda rivojlandi. Madrasa va ilmiy markazlarda tarix, falsafa, mantiq, fiqh, matematika, astronomiya va tibbiyot fanlari o‘qitildi [9]. Shu davr olimlari Sharq va G‘arb ilmiy an’analarini o‘rganib, yangi usullar va izlanishlar bilan tanishdilar [10]. Masalan, Muhammad al-Xorazmiy va uning shogirdlari matematik va astronomik tadqiqotlar bilan mashhur bo‘lishgan [11]. Bu ilmiy meros keyingi avlod olimlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi [12]. Shayboniy hukmdorlari ilm-fan va madaniyatni qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratdilar. Ular ko‘plab madrasalar va kutubxonalar barpo etib, olimlar va shoirlarga homiylik qilganlar [13]. Bu siyosat natijasida Xorazm ilmiy markazlar faoliyatini kengaytirib, yangi ilmiy asarlar yaratildi va madaniy hayotning rivoji ta’minlandi [14]. Shu bilan birga, Xorazm ilm-fan va madaniyat sohasida nafaqat hudud ichida, balki qo‘shni mintaqalarda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi [15].

Shayboniylar hukmdorlari Urganch, Xo‘jand va Qo‘ng‘irot kabi shaharlarda madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar barpo etib, olimlar va shoirlarga homiylik qilganlar [3]. Shu bilan birga, bu ilmiy markazlar nafaqat diniy bilimlar, balki dunyoviy fanlarni ham o‘rgatgan. Madrasalarda tarix, fiqh, falsafa, mantiq, matematika, astronomiya va tibbiyot fanlari rivojlantirilgan [4].

Shayboniylar hukmdorlari matematika va astronomiyani rivojlantirishga ham e’tibor qaratganlar. Shu davrda Xorazm madrasalarida matematika va astronomiya bo‘yicha darslar o‘tilgan, olimlar yangi jadval va hisoblash usullarini ishlab chiqqan [11]. Masalan, Urganch va Xo‘jand shaharlaridagi ilmiy markazlarda astronomik kuzatishlar olib borilgan va yil hisobini aniq belgilash uchun kalendar tizimi takomillashtirilgan [12].

Bu davrda aniq fanlar bilan bir qatorda tibbiyot sohasi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, o‘sha davrda davrda ko‘plab shifoxonalar va ilmiy tibbiy maktablar tashkil etilgan, unda Abu Ali ibn Sino an’analarini o‘rganish va qo‘llash davom ettirilgan [13]. Shuningdek, turli dori-darmonlar va davolash usullari bo‘yicha qo‘llanmalar yaratilgan, bu esa hudud aholisi sog‘lig‘ini yaxshilashga yordam bergan [14].

Shayboniylar davrida tarixshunoslik ham rivojlandi. “Shayboniynoma” (Kamoliddin Binoiy), “Tavorixi guzide” va boshqa tarixiy asarlar Xorazm va qo‘shni hududlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganishda muhim manba bo‘lgan [5]. Shu davr tarixshunoslari voqealarni tizimli yozish, tarixiy manbalarni tahlil qilish va hukmdorlar faoliyatini yoritish kabi yangi usullarni joriy qilganlar [6]. Shayboniylar davrida tarixshunoslik ham rivojlangan, tarixiy voqealar tizimli ravishda yozilgan. Shu davrning mashhur tarixchilari orasida Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, Mirzo Muhammad Haydar kabi olimlar mavjud [15]. Ularning asarlari nafaqat siyosiy voqealarni, balki xalq hayoti, iqtisodiy, madaniy va ilmiy jarayonlarni ham yoritgan [16]. Bu manbalar keyingi tarixiy tadqiqotlar uchun asosiy ma’lumotlarni taqdim etgan [17].

Shayboniylar davrida ilm-fan va madaniyat nafaqat hudud ichida, balki qo‘shni davlatlarda ham rivojlangan. Xorazm olimlari va madaniy markazlari boshqa Markaziy Osiyo shaharlaridagi ilmiy markazlar bilan aloqada bo‘lgan, ilmiy va adabiy asarlar almashilgan [9].

Shayboniylar davrida Xorazm ilmiy markazlari qo‘shni mintaqalardagi markazlar bilan faol aloqada bo‘lgan. Olti asrlar davomida Xorazm olimlari Samarqand, Buxoro va boshqa hududlarda ilmiy konferensiyalar, darslar va adabiy uchrashuvlarda ishtirok etgan [20]. Shu bilan birga, ularning ilmiy ishlari turk, fors va arab tillarida yozilgan bo‘lib, butun Markaziy Osiyo ilmiy merosiga ta’sir ko‘rsatgan [21].

Shayboniylar sulolasi hukmdorlari ilm-fanni faqat diniy bilimlar bilan cheklamagan, balki tarix, falsafa, matematika, tibbiyot va adabiyot sohalarini ham rivojlantirganlar. Shu bilan ular Xorazm va qo‘shni hududlarda madaniyat va ilm-fan markazi barpo etilishiga katta hissa qo‘shganlar [10]. Ularning homiylik siyosati keyingi avlod olimlari va ijodkorlari uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Shayboniylar davri ilm-fan va madaniyat sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni olib keldi. Ularning homiyligi va siyosiy barqarorligi Xorazm hududida ilmiy markazlar barpo etilishi, tarixshunoslik, adabiyot, matematika, astronomiya va tibbiyot sohalarining rivojlanishini ta’minladi. Shu bilan Shayboniylar sulolasi nafaqat o‘z davrining, balki keyingi asrlarning ilmiy va madaniy rivojiga ham katta hissa qo‘shdi. Shayboniylar davrining ilmiy va madaniy merosi nafaqat o‘z davrida, balki

keyingi avlodlar uchun ham ilhom manbai bo‘ldi. Shu davrda barpo etilgan ilmiy maktablar, tarixiy asarlar, adabiyot va san’at namunalarining rivoji keyingi asrlar Xorazm madaniyatini boyitdi va Markaziy Osiyo ilm-fani tarixida muhim o‘rin egalladi [6]. Umuman olganda, Shayboniylar hukmdorlari ilm-fanni rivojlantirish va madaniyatni qo‘llab-quvvatlash orqali Xorazm hududida barqaror ilmiy va madaniy muhit yaratdilar. Ularning homiyligi va siyosiy faoliyati, tarixiy va madaniy yutuqlari, bugungi kunda ham ilmiy va madaniy meros sifatida qadrlanadi [7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rashidov, A. Shayboniylar davri Xorazm tarixi, T.: 2018.
2. Bartold, V. Turkestan v XIX veke, Moskva: 1963.
3. Ziyo, M. Xorazm madaniyati va ilmiy merosi, Urganch: 2021.
4. Karimov, S. O‘zbek xalqi tarixi, T.: 2015.
5. Abdurahmonov, R. O‘rta Osiyo ilm-fani va madaniyati, Samarkand: 2010.
6. Browne, E. Islamic Architecture in Central Asia, London: 1924.
7. Rashidov, A., Karimov, S. Xorazm san’ati, T.: 2018.
8. Ziyo, M. Adabiyot tarixi, Urganch: 2021.
9. Abdurahmonov, R. Madrasa va ilmiy markazlar, Samarkand: 2010.
10. Karimov, S. Sharq va G‘arb ilmiy an’analari, T.: 2015.
11. Browne, E. Islamic Science, London: 1924.
12. Rashidov, A. Xorazm ilmiy merosi, T.: 2018.
13. Ziyo, M. Hukmdorlar homiyligi, Urganch: 2021.
14. Karimov, S. Madaniy hayot va ilm-fan, T.: 2015.
15. Abdurahmonov, R. Markaziy Osiyoda madaniy rivojlanish, Samarkand: 2010.

UO’K 75.051:39(555.1)

MINIATYURALARDA TASVIRLANGAN MAROSIMLARDA AKS ETTIRILGAN KIYIMLAR VA ULARNING TASNIFI

F.J.Jumaniyazova, katta ilmiy xodim, PhD, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Xiva
ORCID:0009-0009-4929-3143
S.U.Sobirov, kichik ilmiy xodim, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Xiva

Annotasiya. *Ushbu maqolada miniatyuralarda keltirilgan o‘zbek xalq marosimlari va ularda tasvirlangan ust-bosh va oyoq kiyimlari to‘g‘risida ma’lumot yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *miniatyura, bayram, to‘y, motam marosimi, bosh kiyim, ust kiyim, oyoq kiyim.*

Аннотация. *В статье представлена информация об узбекских народных обрядах, запечатлённых в миниатюрах, а также об изображённых на них головных уборах и обуви.*

Ключевые слова: *миниатюра, праздник, свадьба, траурный обряд, головной убор, обувь.*

Abstract. *This article presents information about Uzbek folk rituals depicted in miniatures, as well as the headdresses and footwear depicted in them.*

Keywords: *miniature, holiday, wedding, mourning ceremony, headdress, footwear.*

Miniatyuralarga faqat san’at namunasi, go‘zallik ramzi sifatida qarash bir tomonlama bo‘lar edi, albatta. Aslida miniatyuralar o‘zida ijtimoiy - siyosiy voqealarni, jamiyatning ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi manba hamdir.

Miniatyura san’ati XIV - XVI asrlarda o‘z rivojining cho‘qqisiga erishgan bo‘lib, shu davrdan boshlab musavvirlar miniatyuralarda tarixiy voqealap hamda tarixiy shaxslarni, ov manzaralari, janglar, bazmlar, turli xil marosimlar, milliy o‘yinlarni tasvirlay boshlaganlar.

Marosim - bu ko‘pincha an’ana va urf-odatlarning tarkibiy bo‘lagi bo‘lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadigan, o‘zining umum qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo‘lgan hayotiy tadbir. Masalan: ism qo‘yish marosimi, nikohdan o‘tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi, upyg‘ qadash marosimi, o‘rimga kirishish marosimi va hokazo.

Bizga yaxshi ma’lumki marosim inson hayotida muhim xodisalar sodir bo‘lganda vujudga keladi. Marosimning avloddan-avlodga o‘tadigan, ramziy va rasmiy harakatlari, qoidalari mavjud. Marosimga, bo‘layotgan voqeaga “guvoh” sifatida odamlar chaqiriladi, ular dardga yoki quvonchga

sherik bo‘lishib, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning umum qabul qilingan tuzilishi bo‘ladi.

Miniatyuralar orasida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan va ijtimoiy hayotning bir qismi bo‘lgan marosimlar alohida ajralib turadi.

XIV acp oxirlarida Temuriylar davlati poytaxti bo‘lgan Samarqandda va uning atrofidagi shohona saroy va bog‘larda tantanali marosimlar - to‘ylar, sayllar va shohona mehmondorchiliklar o‘tkazilgan. Ayniqsa, shahar atrofidagi bog‘larda tashkil etilgan izdihom va sayllar nihoyatda gavjum bo‘lib, ularda Samarqand aholisining deyarli hamma tabaqa vakillari ishtirok etranlap. Bazmlar, sayllarda barcha tabaqa vakillari a’yonlarning to‘yona liboslarigacha ahamiyat berganlap.

Alisher Navoiy “Xamsa”siga ishlangan miniatyuralarda ham shunday marosimlar aks ettirilgan bo‘lib, ular orqali Temuriylar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Masalan, “Xamsa”dagi 129 – 131 miniatyuralarda A.Temurning nabiralariga atab qurdirgan bog‘laridan birida uyushtirilgan tantanali marosim tasvirlangan[5, b.129-131].

Saroyda o‘tkazilgan marosim va bazmlarda saroy xodimlari boshiga shokokilli bo‘rk, egniga oltin uqa bilan bezatilgan uzun qizil qabo kiyar edilar. Qaboning yoqasi bo‘yinni qisib turadigan, yengsiz bo‘lib, orqa etagi juda uzunligidan uni mahsus joriyalar ko‘tarib yurgan. Ularning soni ba’zan 15 kishiga ham yetgan. Joriyalar yuzlariga xijob tutganlar. Ular qizil movutdan dubulg‘aga o‘xshash uchli qalpoq usti qizil yoqut, zabarjad durlar bilan bezatilgan bo‘lgan. Bu bazmlarda ishtirok etadigan ayollar Kichik Osiyoning javohirlari, Isfahon, Mo‘lton, Ganja, Damashq, Brussa, Venesiya zargarlarining nafis zeb - ziynatlari bilan o‘zlariga oro berganlar. Erkaklar noyob toshlar bilan bezatilgan qurollar va kamarlar taqib yurganlar.

Rasmiy marosimlarda, majlislarda, bayramlarda, Temur va temuriylar davrida, turli mansab egalari saltanat saroyida quyidagicha holatda joylashganlar: Amir Temurning o‘g‘illari, nabiralari va qavm – qarindoshlari o‘z daraja va martabalariga yarasha huddi oy qo‘rg‘onlaridek, saltanat taxtini o‘rab o‘tirganlar. Sayyidlar, qozilar, ulamo, fuzalo, shayxlar va oliy tabaqaga mansub kishilar o‘ng tomonda. Amir ul-umaro, beklarbegi, amirlar, no‘yonlar, ulus, tumanlar va qo‘shinlarning sardorlari hamda amirlari, mingboshilar, yuzboshilar, o‘nboshilar o‘z martabalariga yarasha, chap tomonda o‘tirganlar.

Devonbegi va vazirlar taxt qarshisida, turli mamlakatlap, el -uluslarning kalontarlari va katxudolari esa, vazirlar orqasida saf bo‘lib o‘tirishgan. Bahodir degan fahrli nomga ega mard yigitlar, qilich chopib tanilgan o‘g‘lonlar, saltanat taxtining orqasidan, o‘ng tarafdan, qoravulbegilar taxtining orqasidan chap tarafida o‘tirganlar. Kichik lavozimdagi saroy xizmatchilari, xususiy yasovul katta chodir eshigi oldida tik turgan. Dodxoxlar o‘ng va chap tomonda tik turganlar[2, b.91].

Qolgan sipohiylar, xizmatchi va hashamlar har qaysilari o‘z martabalariga yarasha saf tortib, o‘z joylarini bilib tik turganlar.

O‘rin olish qoidalarini bajarilishini nazorat qiluvchi to‘rt amirga, majlisga hozir bo‘lganlarni o‘z tartibi bilan taxtning o‘ng va chap, oldi va orqasiga joylashtirish buyurilgan.

Majlisga yig‘ilganlar o‘z joylarini egallab bo‘lganlaridan so‘ng, ming tovoq osh, ming dona non keltirilib, ommaga shoxona ziyofat berganlar. Ming tovoq oshni mumtoz va xos kishilar bazmga olib kelib, shundan besh yuz tavog‘ini ulus amirlariga, sarkardalarga, oqsaqollarga, har qaysisining nomiga atab, tarqatganlar.

Temur va temuriylar davrida o‘tkazilgan bunday marosim, majlis va bayramlar chet ellik elchilarning ham diqqat e’tiborini tortgan. Bunga misol tariqasida Klavixoning o‘z estaliklariga yozib qoldirgan xotiralarini eslashimiz mumkin.

Ispaniya elchisi Klavixoni Konigil mavzeida bo‘lib o‘tgan shoxona marosim, ayniqsa, hayratda qoldirgan. Konigilda 10000 yoki 15000 chodir o‘rnatilib, marosimda saroy ahli vazirlardan tashqari, aholining turli tabaqa vakillari qatnashigan. Klavixo chodirgohda mansabdor shaxslarning lavozimi bo‘yicha joylashtirilish tarkibi, jihozi, bezaklari hamda ularning turlari haqida yozadi. Uning ta’riflashicha, bu yerda oddiy doirasimon kichik o‘tovlardan tortib, arabiy va ibrohimiy chodirlari, eroniy sarpardalar o‘rnatilgan. Chodirlarning ayrimlari nihoyatda katta, to‘rtburchak shaklda bo‘lib, eni yuz qadam, balandligi uch nayza bo‘yi, 12 dona oltin ustida tutib turilgan.

Podshoh harami xotin - qizlari uchun ham alohida chodirlar tikilgan. Ular sariq rangda, ipak bilan chatilgan oltin naqshli bo‘lgan, eshik va derazalar ipak tizimchalar bilan tortib qo‘yilgan. Chodirgoh bazmida qiziqchilar, darbozlar bilan birga kashmiriy ko‘zboylagichlar ham qatnashganlar. Qizig‘i shundaki, marosimda xonimlar hijobsiz ishtirok etganlar[1, 77-rasm]. Malikalar ommaga puhsat etilgan bazmlar uyushtirib, ularga izdihomchilarni chorlaganlar. Unda erkaklar, hattoki nasroniy elchilar ham qatnashganligi manbalarda aytib o‘tilgan.

Arab miniatyuralarida ham marosimlar alohida o‘rin tutgan. Masalan: Al-Haririyning “Maqom” asarida qabul marosimlari o‘zgacha uslubda tasvirlangan.

Tantanali marosimlardan tashqari yana miniatyuralarda dafn marosimlari ham tasvirlangan. Dafn marocimi ommaviy marocim hisoblanadi. O‘zbek xalqining qadimiy odati bu marhumlarga hurmat-ehtirom ko‘rsatishdir. Dafn marosimida erkaku-ayol barobar qatnashadi. Erkaklar chopon kiyib beliga belbog‘ bog‘lab marhumni xurmatlab so‘ngi yo‘lgacha kuzatish uchun kelganlarni kutib olib turishsa, ayollar hovliga yig‘ilib ovoz chiqarib, aza ochishgan. Hamma birga marhumni izzat xurmatini joyiga qo‘yib so‘nggi manzilga kuzatishgan.

Bu marosim bizga dunyo abadiy emas, balki o‘tkinchi ekanligi, har bir inson hayotligida yaxshi ishlarni qilib, o‘zidan keyingi avlodlarga o‘rnak bo‘lishga harakat qilishi kerakligini eslatadi.

Dafn marosimi ilk o‘rta asr devoriy suratlarida va miniatyuralarda ham o‘ziga xos ko‘rinishda tasvirlangan. Panjikent devoriy suratlarida Siyovushning o‘limi bilan bog‘lik motam marosimi tasvirlangan[3, b.12]. By marosimda Siyovushning tobuti atrofida aza ochib yig‘lab o‘tirgan ayollar tasviri aks ettirilgan.

Miniatyuralarda tasvirlangan aza marosimlaridan yuqorida biz ko‘rib o‘tgan devoriy suratlarda aks etgan marosim keskin farq qiladi. Chynki Siyovushning o‘limi bilan bog‘liq aza morosimida faqat ayollar ishtirok etayotgani tasvirlangan.

Miniatyuralarda aza marosimi quyidagicha ko‘rinishda tasvir-langan. Masalan: “Iskandarga motam” deb nomlangan miniatyurada tasvirlangan aza marosimida ayol va erkaklar qatnashayotgani aks ettirilgan[4, b.90]. Bundan tashqari bu miniatyura orqali biz dafn marosimlarida ayollar qora va moviy rangli matodan kuylaklar kiyishgani va ro‘mollar o‘rashganini, erkaklar moviy va qora matodan tikilgan kuylak va choponlar, boshlariga salla kiyganlarini ko‘rishimiz mumkin.

Z.M.Boburning “Boburnoma” asariga ishlangan miniatyuralarda “Lashkar ko‘rigi marosimi” tasvirlangan. Bu marosimda Bobur o‘z askarlarini ko‘rikdan o‘tkazayotgani tasvirlangan. Typli xil tantanali marosimlar, dafn marosimlardan tashqari yana xalqimizda ism qo‘yish, nikohdan o‘tish, xotirlash va ekishga kirishish marosimlari mavjud.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, miniatyuralarda qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha hayotimizda alohida o‘rin egallab, avloddan-avlodga o‘tib saqlanib kelayotgan dafn marosimi, to‘y marosimi, ism qo‘yish marosimi, ekin ekish marosimi va turli xil tantanali marosimlar tasvirlangan bo‘lib, ularda tasvirlangan kiyimlar ham turli xil bo‘lgan. O‘tkaziladigan marosim turiga qarab kiyimlar rangi, tuzilishi, bezagi o‘zgartirilgan. Ya’ni marosimga qarab kiyim tanlashgan. Mitti bo‘lishiga qaramay o‘zida bir qancha ma’lumotlarni jamlagan miniatyuralar bizga faqat o‘tmishdagi marosimlar yoki bayram, xalq o‘yinlari to‘g‘risida ma’lumot beribgina qolmay, balki ular o‘zbek xalqining asrlar davomida ayrim o‘zgarishlarga uchrab shu kungacha saqlanib kelayotgan ust, bosh va oyoq kiyimlari to‘g‘risida ma’lumotlarni ham berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Amir Xusrav Dexlaviy asarlariga ishlangan miniatyuralar. Tuzuvchi va so‘zboshi muallifi X.Sulaymon.- T.: Фан, 1983, 77-pacm.

2. Axmedov B. Temur tuzuklari. – T.: Nashriyot matbaa birlashmasi. 1991. 91-bet.

3. Binafsha Nodir. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand ayollarining an’anaviy liboslari // San’at. 2004. №3-4. 12-bet.

4. Polyakova Ye.A, Raximova Z.I. Sharq miniatyurasi va adabiyoti. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1980. – B. 90.

5. Sulaymonov H. A.Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar XV-XIX asrlar. – T.: “Fan”. 1982. 129-131-rasmlar.

UO’K 94(100)"1939/1945"

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASINING SHAKLLANTIRILISHI TARIXI

A.A.Kamolov, bo’lim boshlig’i, Kasbi tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi, Kasbi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Sovet davlatining soliq siyosati va uning strategik yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Urushdan keyingi iqtisodiy tiklanish, agrar sohada soliq yukining oshishi, kollektiv xo‘jaliklarni mustahkamlash hamda shaxsiy dehqon xo‘jaliklariga nisbatan cheklovlarning kuchaytirilishi jarayonlari tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, 1953 yildagi soliq islohotining mazmun-mohiyati va uning dehqonlar iqtisodiy hayotiga ta’siri ham keng muhokama etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ikkinchi jahon urushi, soliq siyosati, agrar soha, kollektiv xo‘jalik, iqtisodiy tiklanish, 1953 yil islohoti, Sovet davlati, qishloq xo‘jaligi.*

Аннотация. *В статье рассматривается налоговая политика Советского государства в послевоенный период и основные направления её стратегического формирования. Анализируется восстановление экономики после Второй мировой войны, усиление налогового бремени в аграрной сфере, укрепление колхозной системы и ограничительные меры в отношении индивидуальных хозяйств. Особое внимание уделено налоговой реформе 1953 года, её содержанию и влиянию на экономическую жизнь крестьян.*

Ключевые слова. *Вторая мировая война, налоговая политика, аграрный сектор, коллективное хозяйство, экономическое восстановление, реформа 1953 года, Советское государство, сельское хозяйство.*

Abstract. *This article explores the formation of the Soviet Union’s tax policy strategies in the post–World War II period. It analyzes the process of economic recovery, the intensification of the tax burden in the agricultural sector, the strengthening of collective farms, and the restrictive measures imposed on individual peasant households. Special emphasis is placed on the 1953 tax reform, its core principles, and its impact on the economic conditions of rural populations.*

Keywords. *World War II, tax policy, agricultural sector, collective farming, economic recovery, 1953 reform, Soviet state, rural economy.*

Kirish: Ikkinchi jahon urushi nafaqat dunyo mamlakatlarini, balki Rossiya va unga qaram bo‘lgan ittifoq respublikalarini ham og‘ir iqtisodiy va ijtimoiy talafotlarga duchor qildi. Urush tugagach, vayron bo‘lgan xo‘jalik tarmoqlarini tiklash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu jarayonda soliq-moliya tizimining strategiyasi ham qayta ko‘rib chiqilib, iqtisodiy tiklanishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qayta shakllantirildi.

1945–1953 yillarda soliq siyosati urushdan keyingi iqtisodiy tiklanish va davlatning qishloq xo‘jaligi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadlariga bo‘ysundirildi. Bu davrda soliq tizimining rivojlanishi ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ldi:

1. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini davlat ehtiyojlari uchun majburiy ravishda ta’minlash;
2. Dehqon xo‘jaliklarini kollektiv xo‘jalik (kolxoz va sovxozlar) tizimiga yanada chuqurroq jalb etish[1].

Asosiy qism: Normativ-huquqiy asos sifatida SSSR Oliy Soveti Prezidiumi farmonlari, shuningdek ittifoq va respublika hukumatlari tomonidan qabul qilingan qarorlar xizmat qildi. Amaliyotda soliqlar nafaqat pul shaklida, balki natural yig‘imlar ko‘rinishida ham undirilgan. Shaxsiy tomorqa yerlari va u yerdan olinadigan hosil, shuningdek dehqonlarning chorvachilikdan oladigan daromadlari ham soliqqa tortildi. Bu jarayon natijasida qishloq aholisi uchun soliq yukining og‘irlashuvi ularning iqtisodiy imkoniyatlarini sezilarli darajada qisqartirdi hamda kolxoz tizimiga to‘liq bog‘lanishga olib keldi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda qishloq xo‘jaligi sohasida jiddiy islohotlar amalga oshirilmadi va davlat bilan dehqonlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlik avvalgi holicha saqlanib qoldi. 1946-yilgi qurg‘oqchilik hamda 1946–1947 yillardagi ocharchilik davrida ham markaziy hokimiyat soliq siyosatini yengillashtirish o‘rniga, qishloq hududlaridan majburiy ravishda byudjet tushumlarini

oshirishga intildi. 1947-yil dekabrida o‘tkazilgan pul islohoti esa mavjud muammolarni yanada chuqurlashtirdi. Natijada qishloq aholisi oz miqdordagi jamg‘armalarini yo‘qotdi va ularning iqtisodiy ahvoli og‘irlashdi. Bu davrda qishloq joylarda aholining turmush darajasi juda past bo‘lib qoldi: tug‘ilish ko‘rsatkichlari keskin kamaydi, o‘lim darajasi ortdi, ko‘plab dehqonlar qashshoqlikdan qutulish umidida shaharlarga ko‘chishga majbur bo‘ldi.

Soliq tizimining huquqiy asoslari urushdan keyin ham asosan avvalgi normativ hujjatlarga tayanishda davom etdi. Xususan, dehqon xo‘jaliklariga soliq solishning asosiy hujjati sifatida 1939-yil 1-sentyabrda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligi solig‘i to‘g‘risida”gi SSSR Qonuni 1945-yildan keyin ham amal qilgan. Mazkur qonunga binoan, kolxozchi va yakka tartibdagi dehqon xo‘jaliklari daromadlari progressiv stavkalar asosida soliqqa tortildi. Bu stavkalar ekin maydonlaridan olingan hosil, chorva mollari soni, asalarichilik kabi daromad manbalarini qamrab olgan.

Faqatgina 1953-yilda rahbariyat almashinuvi ortidan soliq siyosatida tub burilish yuz berdi. Shu yili 8-avgustda qabul qilingan yangi “Qishloq xo‘jaligi solig‘i to‘g‘risida”gi Qonun bilan qishloq aholisi uchun soliq yukini kamaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar boshlandi. Ushbu hujjat orqali agrar sohada iqtisodiy yengilliklar yaratilishi “erkin nafas” davrining boshlanishi sifatida talqin qilinadi.

1948-yil 13-iyulda qabul qilingan SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Farmoniga binoan, ilgari amalda bo‘lgan ayrim soliq imtiyozlari bekor qilindi va soliq stavkalari yanada oshirildi. Mazkur qaror natijasida ko‘plab kolxozchi oilalari soliq majburiyatlarini ado eta olmay qoldi, chunki yangi belgilangan soliq yukining hajmi ularning real daromadidan yuqori bo‘lib chiqdi. Oqibatda, iqtisodiy qiyinchilikka duch kelgan dehqonlar soliqlardan qochish maqsadida chorva mollarini majburan so‘yishga, ekin maydonlarini qisqartirishga yoki bog‘laridagi mevali daraxtlarni kesib tashlashga majbur bo‘ldilar. Bu jarayon esa keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi solig‘idan olinadigan daromadni yanada pasaytirib yubordi[2].

1948-yil sentabr oyida markaziy hukumat soliq rejalari bajarilmayotganidan tashvishlanib, “Qishloq xo‘jaligi solig‘ini undirishni kuchaytirish choralari to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qildi. Mazkur qarorga muvofiq, joylardagi partiya qo‘mitalariga soliq yig‘imlarini ta’minlash uchun favqulodda choralar ko‘rish huquqi berildi.

Natija va muhokamalar: Keyingi yillarda ham soliq bosimi susaytirilmadi. Jumladan, 1950-yil 7-avgustda qabul qilingan yangi Farmon asosida ekin turlari bo‘yicha daromad normalari qayta ko‘rib chiqildi va soliq stavkalari yana oshirildi. Shu tariqa, 1947–1950-yillar mobaynida dehqon xo‘jaliklarining o‘rtacha soliq yuki 2,5 barobar ortdi. Shunga qaramay, haddan tashqari yuqori soliq bosimi sababli davlat belgilagan rejalar to‘liq bajarilmadi. Masalan, 1950-yilda qishloq xo‘jaligi solig‘i bo‘yicha rejalashtirilgan tushumlarning atigi 76,3 foizi undirildi, holbuki 1947-yilda bu ko‘rsatkich 87 foizni tashkil etgan edi.

1951–1952 yillarda Sovet moliya tizimi qishloq xo‘jaligida soliq yukini yanada og‘irlashtiruvchi choralarga qo‘l urdi. Xususan, 1952 yil 7 maydagi Farmon bilan birinchi bor kolxozchilarning kolxozdagi mehnat kunlari (trudodni) evaziga olgan daromadlari ham qishloq xo‘jaligi solig‘i doirasiga kiritildi. Bu chora hatto Ikkinchi jahon urushi yillarida ham qo‘llanilmagan bo‘lib, o‘zining keskinligi bilan ajralib turardi. Natijada, 1952 yil davomida qishloq xo‘jaligi solig‘i bo‘yicha belgilangan reja avvalgi yil ko‘rsatkichlariga nisbatan qariyb 1,5–2 baravar ortdi.

Shu tariqa, 1953 yil avgustiga qadar bo‘lgan davr dehqon xo‘jaliklari uchun og‘ir soliq bosimi davri sifatida tarixda qoldi. Vaziyat faqatgina 1953 yil 8 avgustda qabul qilingan yangi qonun bilan yumshatildi. Mazkur islohot natijasida progressiv stavkalar o‘rniga qat’iy me’yor joriy etilib, har yuz qism (sotix) yer maydoniga belgilangan bir xil stavka bo‘yicha soliq undiriladigan tizim shakllantirildi. Bu o‘zgarish natijasida dehqonlarning moliyaviy yuklari sezilarli darajada kamaydi va ularning xo‘jalik faoliyatida iqtisodiy rag‘bat sezilarli darajada oshdi.

Biroq, yangi tizim intizomni mustahkamlash maqsadida ayrim majburlovchi mexanizmlarni ham o‘zida saqlab qoldi. Masalan, kolxozchi oilasida mehnatga qobiliyatli shaxs belgilangan minimal mehnat kunini uzrsiz sabablarga ko‘ra bajarmasa, bunday xo‘jalik uchun soliq miqdori 50 foizga oshirilishi belgilandi. Aynan yuqoridagi murakkab sharoit va keskin soliq bosimi tufayli Stalin vafotidan keyin davlat rahbariyati soliq siyosatini qayta ko‘rib chiqish zaruratini kun tartibiga olib

chiqdi. 1953 yilgi islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligi soliqlarining miqdori keskin kamaytirildi, qarzdor xo‘jaliklarning katta qismi hisobdan chiqarildi.

Islohotlarning dastlabki samaralari tez orada sezila boshladi. Xususan, 1954 yil kuziga kelib, butun SSSR bo‘yicha xususiy sektorda chorva mollari soni sezilarli darajada ortdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu davrda yirik shoxli qoramol soni 1 million boshga ko‘paygan bo‘lsa (shundan sigirlar 300 ming boshni tashkil etgan), qo‘y va echkilarning soni 3,7 millionga, cho‘chqalarniki esa 1,3 million boshga oshdi. Bunday o‘sish chorvachilik mahsulotlarining hajmini kengaytirib, aholining oziq-ovqat ta’minotida muayyan barqarorlikni yuzaga keltirdi[3].

Sovet davlatining moliya-soliq siyosatida asosiy rol markaziy hokimiyatga tegishli bo‘lib, soliqlar turlari, stavkalari, imtiyozlari va jazolar haqidagi barcha hujjatlar Moskva tomonidan qabul qilinar edi. Mahalliy hokimiyatlar esa ushbu qarorlarni faqat ijro etish bilan shug‘ullanishdi. 1945–1953 yillar oralig‘ida respublika va viloyat darajasidagi organlarning soliq siyosatini mustaqil belgilash imkoniyatlari juda cheklangan bo‘lib, ular asosan markaz tomonidan belgilangan topshiriqlarni ado etishga majbur bo‘lishgan.

Markaziy hokimiyat o‘z soliq siyosatini qat’iy rejalashtirilgan shaklda hududlarga yuborar edi. Har bir yil uchun tumanlar bo‘yicha aniq soliq yig‘imlari belgilab qo‘yilib, viloyat hamda tuman moliya bo‘limlari ushbu topshiriqlarni bajarish maqsadida butun soliq apparatini safarbar etishardi. 1940-yillarning oxiriga kelib qishloqlarda soliq yig‘ish maxsus tayinlangan soliq agentlari zimmasiga yuklangan bo‘lib, ular tuman moliya bo‘limlariga bo‘ysungan va ma’lum qishloq kengashlari hududida faoliyat yuritgan.

Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, masalan, Kursk viloyatida 1947 yilda 47 tumanda 145 marotaba soliq agentlari tomonidan davlatga topshirilishi kerak bo‘lgan mablag‘larning o‘zlashtirilishi aniqlangan. Ular aholiden yig‘ilgan soliqlardan ma’lum qismini yashirish uchun kvitansiyalarni soxtalashtirish amaliyotidan foydalangan. Shu sababli, 1950 yilda soliq yig‘imida yuzaga kelgan sustkashlik va noqonuniy xatti-harakatlar sababli viloyat moliya bo‘limi rahbari ham lavozimidan chetlatilgan.

Faqat Stalin vafotidan keyin, 1953 yilgi soliq islohotlari doirasida markaz va mahalliy organlar o‘rtasidagi munosabatlarda muayyan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu davrdan boshlab markaziy hokimiyat qishloq soliq siyosatini yumshatishga majbur bo‘ldi va mahalliy tashabbuslarning iqtisodiy boshqaruvdagi o‘rni asta-sekin oshib bordi.

Stalin vafotidan keyin davlatning soliq siyosatini qayta ko‘rib chiqish va uni yumshatish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shu munosabat bilan 1953 yil 8 avgustda SSSR Oliy Soveti tomonidan yangi “Qishloq xo‘jaligi solig‘i to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Ushbu hujjat agrar sohadagi soliq tizimini qayta tartibga solishni, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni rag‘batlantirishni va dehqonlarning iqtisodiy yukini kamaytirishni ko‘zda tutdi. Qonunning ijrosini ta’minlash maqsadida ittifoq respublikalari darajasida ham qator qo‘shimcha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, RSFSR Ministrlar Sovetining 1953 yil 1 sentabrdagi №1003-sonli qarori bu borada muhim o‘rin tutdi.

Stalin vafotidan keyin davlatning soliq siyosatini qayta ko‘rib chiqish va uni yumshatish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shu munosabat bilan 1953 yil 8 avgustda SSSR Oliy Soveti tomonidan yangi “Qishloq xo‘jaligi solig‘i to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Ushbu hujjat agrar sohadagi soliq tizimini qayta tartibga solishni, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni rag‘batlantirishni va dehqonlarning iqtisodiy yukini kamaytirishni ko‘zda tutdi. Qonunning ijrosini ta’minlash maqsadida ittifoq respublikalari darajasida ham qator qo‘shimcha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, RSFSR Ministrlar Sovetining 1953 yil 1 sentabrdagi №1003-sonli qarori bu borada muhim o‘rin tutdi.

Xulosa: Umuman olganda, 1945–1953 yillar davrida Sovet qishloq soliq tizimining rivojlanishi davlat bilan dehqonlar o‘rtasidagi murakkab va keskin qarama-qarshiliklarni yaqqol namoyon qildi. Qattiq markazlashtirilgan boshqaruv va haddan tashqari og‘ir soliq yukining qo‘llanishi natijasida qishloq xo‘jaligi rivojida turg‘unlik yuzaga keldi, qishloq aholisi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zaiflashdi va yakka tartibdagi dehqon xo‘jaliklari deyarli barham topdi.

Shunga qaramay, davr oxirida amalga oshirilgan soliq islohoti muhim saboq bo‘ldi: soliqlarni real iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini rag‘batlantirish va ularning manfaatlarini hisobga olish orqali agrar sohada sezilarli o‘sishga erishish mumkinligi tasdiqlandi. Mazkur islohot Sovet agrar siyosatining keyingi bosqichlari uchun asos yaratdi va qishloq xo‘jaligi tizimida muvozanatni tiklashga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Iso G‘oyibnazarov. O‘zbekistonda sovet hokimiyati davrida soliq tizimi (1917-1945 yillar)

2. Президиум Верховного Совета СССР. Указ от 15 июля 1948 г. "Об изменении статьи 10 Закона о сельскохозяйственном налоге" // Ведомости Верховного Совета СССР. — 1948. — № 37. — Ст. 408.

3. Torubarov Yu.S. “Nalogooblozhenie naseleniya sovetskoy derevni v 1945–1953 gg.” avtoreferati (Kursk, 2012)

4. Постановление Совета Министров РСФСР от 1 сентября 1953 г. № 1003 «О сельскохозяйственном налоге» // *Собрание постановлений Совета Министров РСФСР*. – 1953. – № 14. – Ст. 79.

UO‘K 342.7:061.2

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING TASHABBUSLARI VA FAOLIYATI

J.O.Kenjayev, dots., O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyati shakllanishini nazarga tutuvchi, insonlarning sha’ni, qadr-qimmati va manfaatlarini birlamchi vazifa sifatida ko’radigan ijtimoiy birlashma sifatidagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari tahlilga tortilgan.*

Kalit so’zlar: *nodavlat notijorat tashkilot, inson manfaatlati, inson huquqlari, nohukumat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati*

Аннотация. *В данной статье анализируются социально-политические и правовые основы неправительственных некоммерческих организаций как общественного объединения, учитывающего формирование гражданского общества и считающего честь, достоинство и интересы людей первоочередной задачей.*

Ключевые слова: *неправительственная некоммерческая организация, интересы человека, права человека, неправительственные организации, гражданское общество.*

Abstract. *This article analyzes the socio-political and legal foundations of non-governmental non-profit organizations as a social association that takes into account the formation of civil society and considers the honor, dignity and interests of people as a primary task.*

Key words: *non-governmental non-profit organization, human interest, human rights, non-governmental organizations, civil society.*

Kirish. Inson huquqlari bo‘yicha hukumatga qarashli bo’lmagan organlar tizimida asosiy o‘rinni egallab turgan, bugun dunyo hamjamiyati, siyosiy doiralarda qizg’iz o’rganilayotgan fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida nodavlat notijorat tashkilotlarini ko’rsatib o’tishimiz mumkin.

Hamma davrlarda ham nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi va uning rivojlanishining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida qonun ustuvorligini mustahkamlash, demokratik boshqaruvni takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilish hamda fuqarolarning siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirish, ularning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish o‘ziga xos dolzarblik kasb etib bormoqda [1].

Shuni ta’kidlash o’rinliki, jamoat birlashmalari davlatdan mustaqil bo‘lgan, alohida faoliyat yuritadigan va, ayni vaqtda, davlat institutlariga ta’sir o‘tkaza oladigan, davlatning ijtimoiy hayotga, shuningdek, fuqarolaming shaxsiy hayotiga asossiz aralashuvidan muhofaza qilishga yo'naltirilgan tashkilotlar bo‘lib, ularning davlatga nisbatan mustaqilligi quyidagilarda ko‘rinadi:

birinchidan, ular o‘z ichki va tafkibiy tuzilishi hamda faoliyatining yo‘nalishlarini mustaqil belgilaydilar;

ikkinchidan, o‘z irodalarini o‘zlari ifoda etadilar va bu normativ iroda tashkilot a'zolariga majburiy bo‘ladi;

uchinchidan, mazkur ijtimoiy tuzilmalar o‘z ustavlari vositasida tashkilot a'zolarining huquq va burchlarini mustaqil belgilaydilar;

to‘rtinchidan, o‘z mulki va mablag‘lariga ega bo'lib, ularni o‘z ixliyori va ehtiyojiga qarab tasarruf etadilar [2]. Bundan tashkilotlar o‘z a'zolarining huquq va burchlarini munosib himoya qilish barobarida o‘z faoliyat mezonlarini ham mustaqil idora etishga harakat qilib keladi.

Tahlil va natijalar. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, hayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi [3].

Bizning fikrimizcha, nodavlat tashkilotlar davlat institutidan faoliyat mezoni va maqsadi bilan farq qiluvchi, ma’lum shaxshlar – jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tashkil topadigan tashkilot bo’lib, ular foyda olishni emas, aksincha, fuqarolik jamiyati shakllanishini nazarga tutuvchi, fuqarolarning sha’ni, qadr-qimmati va manfaatlarini birlamchi vazifa sifatida ko’radigan ijtimoiy birlashmalar, deyish mumkin.

Shuni ham alohida ta’lidlash lozimki, zamonaviy dunyoda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan ko'plab nodavlat tashkilotlar va harakatlar mavjud. Nodavlat notijorat tashkilotlarining keng qamrovli tizimining shakllangani fuqarolik jamiyati rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi, uning manfaatlari xilma-xilligi va tuzilishining dalilidir.

Nodavlat sektori avval-boshda XX asrning o’rtalaridan boshlab ko’plab tadqiqotchilar e’tiborini torta boshlagan edi, bunda asosan, iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va madaniy aktor sifatida maydonga chiqqan edi. Vaqt o’tishi bilan ular jamiyatlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy va huquqiy faoliyat sohalarida yorqin namoyon bo’la boshlaydi, qolaversa, ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada tizimlashtirishga harakat kuchayadi.

Tadqiqot doirasidan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki, nodavlat notijorat tashkilotlarining asosiy vazifasi o‘z a’zolarining manfaatlarini himoya qilishdan iboratligini ham ta’kidlash lozim. Bundan tashqari, fuqarolar faoliyatini to’g’ri yo’naltirish va amalga oshirish, ular manfaatalarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatga ixtisoslashgan, deyish mumkin.

Inson huquqlari bo'yicha notijorat tashkilotlarining faoliyati barcha sohalarni qamrab oladi. Xususan, jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalar va “rivojlangan fuqarolik jamiyatidagi odamlar o'rtasidagi gorizontal ijtimoiy aloqalarni aks ettiradi". Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati inson huquqlari tashkilotlari birdamlik, amaliy tamoyillarga asoslanadi hamda huquqlarning universalligi va ajratilmasili, barcha uchun birdek amal qilishini ham inobatga olishi kerak [4].

Ayrim manbalarda, Nodavlat notijorat tashkilotlarining institutsional rivojlanishi XX asrning 40-yillari ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi, o‘shanda ularning davlat va fuqarolar o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqani ta’minlovchi funktsional institut sifatidagi faoliyati BMT tomonidan e’tirof etilgan [5].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jamoatchilik axboroti departamenti ta'rifiga ko'ra, "nodavlat tashkilot - bu mahalliy, shtat yoki xalqaro tashkilotlarda tashkil etilgan fuqarolarning har qanday ixtiyoriy notijorat birlashmasi (asl "notijorat ko'ngillilar guruhi")". Muayyan natijalarga erishishga yo'naltirilgan va umumiy manfaatlar bilan birlashgan odamlar boshchiligidagi nodavlat tashkilotlar turli xil muammolarni hal qiladilar va ko'plab insonparvarlik funksiyalarini bajaradilar" [6].

Bugun inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlarning qanday naf keltirmoqda ular qaysilar degan savolga quyidagi ba'zilarini sanab o'tish lozim:

- inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar bunday hollarda yaxshiroq yordam ko'rsatadilar davlat huquqni qo'llash mexanizmi o'z maqsadini oqlamaydi;

- huquqni himoya qilish tashkilotlaridan yordam ko'rsatish tartibi, kamroq tomonidan amalga oshirilayotgan huquq va erkinliklarni himoya qilish jarayoniga nisbatan byurokratik davlat organlariga murojaat qiladi;

- inson huquqlari bo'yicha notijorat tashkilotlari yangi sifatida ishlaydi inson huquqlarini himoya qilishda davlat hokimiyatidan farqli o'laroq, mexanizm huquqlarni himoya qilishning ustuvor

masalalarini hal etishda jamoatchilikning keng ishtiroki [7]. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlar inson huquqlari buzilishi bo’yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy qadamlar tashlaydi va ba’zida kerakli amaliy choralarni ko’rish ishlari bo’yicha tashabbuskorlik ko’rsatishadi.

V.A.Konovalovning so'zlariga ko'ra, inson huquqlari nodavlat notijorat tashkilotlarining asosiy vazifasi bo’lib, shuningdek, inson huquqlariga rioya qilish sohasidagi hukumat faoliyatini nazorat qilishdir [8].

Mahalliy soha vakili D.Salayevning fikricha, fuqarolik jamiyati rivojlanar ekan, uning institutsional asoslari ham shakllanib, taraqqiy etib boradi. Jamiyatdagi ko‘plab ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va ma’rifiy muammolarni hal qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki yanada kuchayadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy davlat shakllanishidagi roli ham alohida ahamiyatga ega. Ular bu jarayonni «quyidan», omma ichidan turib kuchaytiradi, ijtimoiy munosabatlarga o‘zini o‘zi boshqarishning yangicha elementlarini olib kiradi, huquqiy qadriyatlar ustuvorligini qaror toptiradi, fuqarolarda jamiyat manfaatlarini himoya qilish borasida hokimiyatga ta’sir ko‘rsatishga qodir ekanliklariga ishonch uyg‘otadi [9]. Fuqarolarning bu tipdagi tashkilotlarga ishonchining ortish ham shunday faoliyatda oshib boradi va nodavlat tashkilotlarning yashovchanligi va jtimoiy-siyosiy tizimga egaligi namoyon bo’ladi.

Zero, bizning jamiyatda **nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini qimoya qilishning muhim omiliga, ijtimoiy tayanchiga aylanmoqda.**

Nodavlat notijorat tashkilotlari respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarni o‘z a’zolari ishtirokida tashkil qilishlari va ularga nisbatan o‘z fikrlarini bildirishlari, islohotlar natijasida o‘z oldilarida turgan vazifalarni aniqlab olishlari va jamiyatning barcha a’zolarini ulami bajarishga jalb etishlari lozim. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatdagi barcha kuchlarni yagona maqsad – vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi va yurt tinchligi yo‘lida birlashtiradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatlari kengayib va faoliyati rivojlanib borishi, o’z navbatida, inson manfaatlari, huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning o’ziga xos modeli – institutlashgan tizimi sifatida yanada takomillashib borayotgaligni bugun kuzatish mumkin.

Soha olimi, akademik A.Saidov quyidagi fikrni ilgari suradi, nodavlat sektorning asosiy vazifalaridan biri – fuqarolarda mas’uliyat hissini uyg‘otish, o‘zgalarga yordam ko‘rsatish, millat, ayniqsa, yoshlar kelajagi haqida qayg‘urishga o‘rgatishsir. Ma’lum bo‘lishicha, ko‘plab fuqarolarning nodavlat sektorida ishtirok etishi natijasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqiladigan hamda qabul qilinadigan qarorlar, qonunlarga muayyan o‘zgartirishlar kiritilishiga zamin yaratadi [10].

Bu o’rinda akademik fikriga qo’shimcha qilgan holda shuni ta’kidlash lozimki, nodavlat sektorning asosiy vazifalari endi o’z a’zolarini manffatlari va istaklarini ro’yobga chiqarish bilan chegaralanib qolmasdan, bundan tashqari, yangi ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini jamiyat a’zolarini undashi va kerak bo’lsa tashabbuskoriga aylanishi kerak.

Shu o‘rinda xorijlik olima Ye.V.Shakleinaning fikrini ham keltirib o‘tish lozim: “Notijorat tashkilotlarni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – tom ma’noda umumjamiyat manfaatlari uchun foydali, ishtirokchilariiig mulkiy manfaatlari bo‘lmagan, faoliyati asosan uchinchi shaxslarning ma’naviy, madaniy, ma’rifiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liqligidir” [11]. Olimning bu fikiriga qo‘shilgan holda bizning jamiyatda ham mazkur turdagi tashkilotlarning asosiy faoliyati jamiyat a’zolarining ma’naviy, madaniy, ma’rifiy va ijtimoiy manfaatlari, ularning munosib yashash tarzini o‘rganish va shu asosda davlat tashkilotlariga ma’lum bir hissasini qo‘shib borish maqsadi bilan uyg‘unlashgan.

Siyosatshunos olim D.Ernazarovning fikricha, NNTlarning asosiy vazifalaridan biri bu fuqarolarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashdan iborat. Fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidaga faol ishtiroki – davlat ijtimoiy-siyosiy hayotining sog‘lomligidan dalolat beradi. Fuqarolar faolligi har bir insonda kompetentlikni shakllantiradi. O‘z navbatida, barcha insonlarda hayot falsafasi, fuqarolik pozitsiyasi, ichki axloqiy-siyosiy normalari, qarashlarini shakllantiradi.

Xalqaro va mahalliy NNTlari jamiyatning ijtimoiy qatlamlari va davlat hokimiyati organlari o‘rtasida vositachi rolini o‘ynaydi. Davlat siyosatidagi o‘zgarishlarni jadallashtirish hamda

muhtojlarga yordam ko‘rsatishda, umumiy manfaatlarni ko‘zlash, ilgari surish va himoya qilish xilma-xil faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi. Xalqaro va mahalliy NNTlarning ko‘pligi va rang-barangligi jamiyat a’zolarining huquq va erkinliklari ta’minlanishi, davlatning demokratik tamoyillar asosida rivojlanishini ta’minlaydi [12]. Nodavlat tashkilotlarining bugungi kunga kelib son jihatidan emas, balki sifat jihatidan qarashlari, tashabbuslari va maqsadlari kengayib borishi jamiyat a’zolarining fuqarolik jamiyati institutlariga bo’lgan ishonchini ortishiga katta hissa bo’lib qo’shiladi.

Zotan, bu tashkilotlar asosan fuqarolik jamiyati institutlaridan eng muhimi hisoblanadi, chunki ular jamiyatdagi muammoarni tizimli hal qilishga harakat qilib kelishadi. Aslida ularning asosiy maqsadi ham, jamiyat va unda istiqomat qiluvchi ma’lum bir toifadagi, kerak bo’lsa barcha fuqarolarning ijtimoiy, madaniy va huquqiy muammolarini bartaraf etib borish bulan belgilanadi. Shu jihati bilan ularni ijtimoiy va siyosiy institutlar deyish mumkin bo’ladi.

L.Tangriyevning fikricha, nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlari fuqarolarga eng yaqin, ularning qiziqish va manfaatlarini to‘liq ifoda eta oladigan ixtiyoriy birlashmalardir. Aynan shu nuqtai nazardan, ular davlat hokimiyati bilan xalq o‘rtasidagi vositachi institut sifatida qaraladi [13].

Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati va qonun ustuvorligi tizimidagi o‘rni va roli ko‘p jihatdan ularning vazifalari bilan belgilanadi. NNTlarning eng muhim vazifasi boshqa siyosiy institutlar bilan munosabatlarda o‘z a’zolarining manfaatlarini ifodalash va himoya qilishdir. Jamoat birlashmalari nafaqat o'z a'zolarining o'ziga xos ehtiyojlari va manfaatlarini anglash va ifodalashga hissa qo'shadi, balki guruh talablarini davlat organlari va siyosiy elita e'tiboriga etkazish majburiyatini oladi.

NNTlar yordamida fuqarolik jamiyati bosqichma-bosqich aniq tuzilmaga ega bo‘lmoqda. Tashkilot a'zolarini ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishga jalb qilish orqali NNT faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga, fuqarolarning siyosiy bilimi va madaniyatini oshirishga hissa qo'shadi va shu orqali fuqarolarni ijtimoiylashtirish funktsiyasini bajaradi.

Har qanday nodavlat tashkilotlari o‘z a’zolarining o‘ziga xos ehtiyoj va manfaatlarini anglashi va ifoda etishiga hissa qo‘shibgina qolmay, balki aholining ma’lum bir qismi talablarini davlat organlari va siyosiy tuzilmalar e’tiboriga yetkazish mas’uliyatini ham o‘z zimmasiga oladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari yordamida fuqarolik jamiyati bosqichma-bosqich o‘ziga xos tuzilmaga ega bo‘lib boradi. Nodavlat notijorat tashkilotlari o’z a’zolarining ijtimoiy muammolarni hal etishga harakatini kuchaytirish orqali jamiyat a’zolarida faol fuqarolik pozitsiyasini qaror topishi hamda siyosiy-huquqiy bilimlari va siyosiy ongi oshishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayoni bevosita jamoatchilikning undagi ishtiroki darajasiga, fuqarolarning huquqiy ongi darajasiga va ularning insonning asosiy huquqlaridan biri – birlashish, jamoat birlashmalari tuzish va ularga qo'shilish huquqini amalga oshirish qobiliyatiga bog'liq bo’ladi.

Vaholanki, jamoat birlashmalari davlat huquqiy sohasining to'la huquqli sub'ektlari hisoblanadi, ammo ularning huquqiy va tashkiliy shakllariga qarab ularni huquqiy tartibga solish xususiyatlari mavjud. Shu bilan birga, ular maxsus huquqiy layoqatga ega, ya'ni ular faqat o'z ustavida ko'rsatilgan jamoat faoliyati turlarini amalga oshirish huquqiga ega.

Jahon tarixi nafaqat davlatning ichki va tashqi siyosatiga, balki umuman xalqaro munosabatlarga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi jamoat birlashmalarining ahamiyati ortib borayotganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ko'pgina xalqaro huquqiy hujjatlarda jamoat birlashmalarining inson huquqlarini himoya qilishda, milliy, mintaqaviy va xalqaro darajadagi insonparvarlik faoliyatida muhim roli belgilangan va shu orqali e'tirof etilgan hamda hukumatlar va jamoat birlashmalari o'rtasidagi hamkorlik muhimligi ta'kidlangan.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, notijorat tashkilotlari inson huquqlari faoliyati bilan shug‘ullanuvchi nodavlat sektordir. Negaki, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, ular faoliyatining jamiyat manfaatlari bilan uyg’unligini ta’minlashi, jamiyatda ularnng himoya qilinishiga erishish va kerakli amalish choralarni ko’rib borishi muhim hisonlanadi.

E.V.Nelyubinaning qayd etishicha, nodavlat tashkilotlarning asosiy vazifasi davlat tomonidan va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy sohalariga jalb qilingan ishtirokchilari tomonidan inson huquqlariga rioya qilinishi uchun fuqaro nazoratini ta’minlashdan

iborat [14].

NNT fuqarolarning ko‘ngilli uyushmasi sifatida aholining hayot tarzi, intilishlari, qiziqishlari, muammolari bilan yetarli darajada xabardor bo‘lib, o‘z faoliyati davomida ularni amalga oshirish uchun ko‘mak beradi.

NNT o‘z a’zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish huquqlariga egadirlar.

Demak, NNT xalq bilan davlat o‘rtasidagi vosita, aholi xohishirodasini inobatga olib, ularni himoya qilib faoliyat yurituvchi tashkilot ekanligi bilan ahamiyatga egadir. NNTni rivojlantirishdan maqsad – jamiyat a’zolarining manfaatlari muvozanatini ta’minlash va himoya qilish. Siyosiy va ijtimoiy sohada esa davlat tizimlariga muqobil kuch sifatida ular adolat tarozini hayotda hukmronlik qilishiga hissa qo‘shishlari lozim [15].

Barcha nodavlat notijorat tashkilotlarini insonning asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarini amalga oshirish bo'yicha jamoat institutlari bo'lib, demokratiyaning asosiy tashkiliy shakllaridan biri sifatida faoliyat yuritishi birlashtiradi [16]. Ya’ni, nodavlat notijorat tashkilotlarining muhim va asosiy vazifasi shundan iborat bo‘lishi kerakki, ular ijtimoiy qatlamlar manfaatlari va haq-huquqlarini, ijtimoiy ehtiyojlarini artikulyatsiya (o‘zaro birlashtiradi) maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Agar yaqin o‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mazkur tashkilotlar bor imkoniyat va faoliyat mezonlarini inson manfaatlarini ta’minlashga qaratishga harakatni boshlagan. Xususan, 1991-yilning 15-fevralida qabul qilingan dastlabki O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunining [17] 3-moddasida jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklami ro‘yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolaming faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish, kasbukor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish, aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faohyatida qatnashish, madaniy-ma’rifiy, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport ishlarini o‘tkazish, tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi, respublikalararo va xalqaro aloqalami kengaytirish, xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlash, qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadlarida tuzilishi ko‘rsatib o‘tilgan [18].

Qolaversa, O‘zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlar doirasida fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun qonunchihk, tashkiliy, moddiy shart-sharoitlami yaratib berishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qabul qilindi. Kuchli fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishga oid chora-tadbirlami ko‘zda tutuvchi, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish va modemizatsiyalashning maqsadlari va vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha dastur amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, 2007-yil 3-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-76-son qonunida esa, Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati, ularni qo‘llab-quvvatlash kafolatlari hamda Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari o‘z ahamiyatini topadi [19].

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun zarur institutsional baza yaratildi.

Bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan 9 200 dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilishda, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynamoqda.

Shu jihatlardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 mayda “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5430-son Farmoni qvbul qabul qilinadi. Farmon asosida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashga doir masalalarni tizimli hal etib borish bog‘liq vazifalar

belgilab berilishi bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi tuzildi [20].

Eng muhimi, 2023-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham nodavlat notijorat tashkilotlari institutining huquqiy maqomi konstitutsiya darajasida belgilandi. Konstitutsiyaning XIII bobi “Fuqarolik jamiyati institutlari” [21] deb nomlanib, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga oid davlatning majburiyatlari belgilandi. Yangi konstitutsiyaviy qoidalar asosida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solishga oid qonunchilik tizimini modernizatsiya qilish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Umuman olganda, inson huquqlarini himoya qilish NNTning mudom tashabbuskorligi, ijtimoiy-siyoisy moslashuvchanligi va harakatchanligining asosiy mezoniga aylanib bormoqda, bu jihat o’z navbatida, mazkur turdagi tashkilotlarning ma’lum bir guruh, keng jamoa va umumna jamiyat a’zolari huquqlarini qanday ta'minlash mumkinligini tushunish imkonini beradi.

Keng qamrovli demokratik o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida inson huquqlari, manfaatlari va erkinliklini, uning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun qulay sharoitlar ta’minlangan kuchli va ochiq fuqarolik jamiyatini qurish belgilandi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekistonda aholining keng qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan fuqarolik jamiyati institutlari, mustaqil, barqaror NNT tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Zotan, «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasi doirasida bugun jamiyat amalga oshirilayotgan keng ko’lamdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma’rifiy islohotlarda fuqarolik institutlari, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlarining o’rni muhim bo’lib, bu jarayonlar mazkur nokumat tashkilotlarning fuqarolar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o’z vakolatlarini kengaytirishi bilan bog’liq holda kechayotganligni ham ta’kidlash lozim.

Inson huquq va erkinliklariga amal qilinishini ta’minlash, har bir shaxsning qadr-qimmatini e’zozlash biz barpo etayotgan ochiq, erkin va adolatli jamiyatning ajralmas xususiyatidir [22]. Jamiyatlar o’z oldiga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va siyosiy-huquqiy jihatdan modernzatsiyalashuvchi maqsad qilib olar ekan, bunda sharoitda NNTlarning ijtimoiy faolligi va ijtimoiy mobilliga muhim ahamiyat kasb etadi va bu masala doim o’z dolzarbliligini saqlab qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Салаев Д.Ж. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида фуқаролик жамияти институтлари фаолиятини ислоҳ қилиш масалалари (ННТ мисолида). Сиёс.фан.бўй.фалс.док. (PhD) дисс.автореф. -Т.: 2022. -Б. 5.

2. Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. –T.: Sharq, 2002. –B. 175-176.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонунининг 2-моддаси. www.lex.uz.

4. Збаражский Н.В. Виды и классификация правозащитных организаций применительно к защите прав человека./ Пробелы в российском законодательстве. 2012. -№ 1. -С. 13-16.

5. United Nations Charter, Chapter 10: The Economic and Social Council, Article 61-72 // http://www.un-documents.net/ch-10.htm.

6. The Department of Public Information // http://www.un.org/en/hq/dpi/.

7. Шитова Т.В., Шарифуллина Н.Р. Участие в правозащитной деятельности некоммерческих организаций в защите прав и свобод граждан. Международный научно-практический журнал "Эпоха науки". -№ 20, 2019. -С. 346.

8. Коновалов В.А. Неправительственные правозащитные организации в становлении и развитии гражданского общества Российской Федерации // Труды Оренбургского института (филиала) Московской государственной юридической академии. 2019. -№ 39. -С. 27.

9. Салаев Д.Ж. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида фуқаролик жамияти институтлари фаолиятини ислоҳ қилиш масалалари (ННТ мисолида). Сиёс.фан.бўй.фалс.док. (PhD) ...дисс.автореф. -Т.: 2022. -Б. 15.

10. Саидов С. Ижтимоий капитал - фуқаролик жамиятинипг мухим мезони [Матн]: монография. – Т.: *Kafolat print company*, 2019. –Б. 75.

1 1. Толибов И.И. Нодавлат нотижорат ташкилотларининг хуқукий асосларини такомиллаштириш. Монография. –Т.. 2023, “TOP IMAGE MEDIA” босмахонаси. -Б. 14.

1 2. Эрназаров Д.З. Ўзбекистонда давлат ижтимоий сиёсати самарадорлигини оширишда нодавлат нотижорат ташкилотларининг роли. / Сиёс.фан.бўй.фалс.докт. (PhD) ...дисс.автореф. -Т.: 2018. –Б. 11.

13. Тангриев Л. Мустақиллик ва жамоат ташкилотлари. -Т.: Янги аср авлоди, 2000. –18 бет.

1 4. Нариманов Б.А. Нодавлат нотижорат ташкилотларининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш масалалари [Матн]: монография./ Б.А.Нариманов. -Т.: ТДЮУ, 2023. –Б. 9.

15. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда // Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-Жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –В. 23.

16. Хатаев И.Е., Марзоева Т.Х. Неправительственные организации как субъекты гражданского общества // Современные научные исследования и инновации. 2015. -№12. https://web.snauka.ru/issues/2015/12/61891.

17. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonu- ni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, 4-son, 76-modda; 1992-yil, 9-son, 363-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 4-5-son, 126-modda; 1998-yil, 3-son, 38-modda; 2004-yil, 1-2-son, 18-modda, 5-son, 90-modda, 3-dekabr).

18. Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида"ги Қонуни. Манба: https://lex.uz/docs/111825.

19. Qarang: https://lex.uz/uz/docs/1101278.

20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 майда ПФ-5430-сон Фармони. https://lex.uz/uz/docs/3721649.

21. https://lex.uz/docs/6445145/.

22. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан –миллий юксалиш сари.–Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020.–Б. 115.

UO'K 908

BUXORO XONLIGI VA HINDDISTON O'RTASIDA ELCHILIK VA SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLARI YO'LGA QO'YILISHI

G. Kenjayeva, magistrant, Qarshi davlat unversiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Buxoro xonligi va Hinddiston o'rtasida elchilik va savdo-iqtisodiy munosabatlari yo'lga qo'yilishi tarixi tahlil qilib berilgan.*

Kalit so'zlar. *Buyuk Ipak yo'li, elchi, rupiya, Hirot, Balx, qilich, qalqon, o'qdon, Xuroson, "Ost-Indiya", Kobul, Qandahor, Boburiylar imperiyasi.*

Аннотация. *В статье анализируется история становления дипломатических и торгово-экономических отношений между Бухарским ханством и Индией. Рассматриваются основные направления посольских миссий, торговых связей и их роль в развитии межгосударственных контактов, а также значение этих отношений в контексте международных экономических и политических процессов своего времени.*

Ключевые слова: *Великий шёлковый путь, посол, рупия, Герат, Балх, меч, щит, колчан, Хорасан, «Ост-Индия», Кабул, Кандагар, Империя Бабуридов.*

Abstract. *This article analyzes the history of establishing diplomatic and trade-economic relations between the Bukhara Khanate and India. It examines the main directions of diplomatic missions and trade ties, as well as their role in the development of interstate relations and their significance within the broader context of international economic and political processes of the period.*

Key words: *Great Silk Road, envoy, rupee, Herat, Balkh, sword, shield, quiver, Khorasan, "East India", Kabul, Kandahar, Mughal Empire.*

O'rta Osiyo va Hindiston xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Moziyga nazar tashlar ekanmiz, har qanday mamlakatning biror bir davlat bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yishda avvalo savdo-sotiq va iqtisodiy munosabatlardan manfaatdor ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ana shu jumladan Buxoro va Hindiston xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ham ko'p asrlik tarixni o'z ichiga oladi. Bu aloqalar bir necha asrlik tarixga ega bo'lib, Buyuk Ipak yo'li paydo bo'lgan davrlardayoq ikki o'rtada savdo aloqalari mavjud edi.

Tarixiy ma'lumotlar bu munosabatlarning temuriylar davridan boshlab rasmiy va muntazam tus olganligidan dalolat beradi. Tarixchisi Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohrux Mirzo hukumronligi davrida Hirotga Hindistondan bir necha bor (1411; 1416 va 1421 yillari) elchilar kelgan. O'z navbatida Shohrux Mirzoni buyrug'i bilan Abdurazzoq Samarqandiy boshliq elchilari 1442-yili Hindistonning janubida joylashgan Kalikutta port shahri va Bijonagar (Vidjayanagar) ga yuborilgan; elchilar o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarib, ikki yildan so'ng Hirotga qaytib keladilar.

Abdurazzoq Samarqandiy elchiligiga yuklangan asosiy vazifalardan biri temuriylar davlati bilan Hindiston o'rtasida olib borilayotgan savdoni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish edi.[1]

Masalan, Hindistonga kelgan Imomqulixon elchisi Abdurahimxo'ja turli sovg'a-salomlar bilan birga Jahongirshohga bir yirik la'l "tuhfa" qiladi.

Shohjahon elchisi Hakim Hoziq o'zi bilan birga Imomqulixonga "tortiq" sifatida turli qimmatbaho toshlar bilan ziynatlanib, oltin suvi yugurtirilgan idishlar, jundan tikilgan, olmos va yoqut toshlar qadalgan shohona chodir, baliq tishi, oltin va nuqralar qadalgan ko'ylaklar va boshqa buyumlar olib kelgan.

Hind manbalarida aytilishicha, Hakim Hoziq elchiligining keltirgan "hadya va tuhfalari" ning qimmati bir yarim lak rupiyani yoki 3700 Iroq (Eron) tumaniga teng bo'lgan.[2]

Balx hokimi Nadr Muhammadxon Shoh Xo'ja elchiligi orqali Jahongirshohga 50 ming rupiyalik ot, turk qullari, va boshqa buyumlar yuborgan. Bularning evaziga Boburiy hukmdor mazkur elchi orqali Nadr Muhammadxonga 40 ming rupiya pul va hind nafis mollaridan "hadya" qaytargan.

Subhonqulixon ham Balx hokimi bo'lib turgan vaqtida Hindistonga bir qancha elchilar yuborib, ular orqali hind imperatoriga "tuhfa — hadyalar" tortiq qilgan. Hind podshohi ham o'z navbatida bularga lozim bo'lgan tarzda javob qaytargan. Masalan, u Subhonqulixonga uning elchisi Shodmonxo'ja orqali (hijriy 1080 – 1669-yili) 25 ming rupiya pul, bir fil (nuqradan yasalgan egari bilan), 150 to'p shol, "jomavar", "chire", gujorat "fo'tasi" matolaridan berib yuboradi.

Yana Abdulazizxon tomonidan "tuhfa" qilib yuborilgan, qimmati 40 ming rupiyalik la'l evaziga Avrangzeb Buxoro xoniga har birining bahosi 20 ming rupiyalik ikkita xanjar "tortiq" qiladi.

Shuningdek, hind elchisi Mustafoxon Abdulazizxon saroyiga bir lakx va ellik ming rupiya qimmatiga barobar - oltin suvi yuritilgan egar-jabduq, jamdar quroli, qimmatbaho qilich, qalqon, o'qdon, bir fil va turli matolar keltiradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta Osiyo mevalarining Hindistonda noyob va qimmatligi haqida aytib o'tadi. Jumladan, Kandibodomning (Konibodom) bodomi nihoyatda a'lo navli ekanligini aytib, "Xurmuz va Hindustong'a tamom muning bodomi borur…", deb ko'rsatadi[3].

Bundan tashqari Buxoro va Hindiston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda Kobul va Qandahor shaharlarining ahamiyati ham katta. Zahiriddin Muhammad Bobur bu masalada quyidagilarni yozadi: "Hindistoniy g'ayri Hindistonni Xuroson der. Nechukkim arab g'ayri arabni Ajam der. Hindiston bilan Xuroson orasida xushki yo'ldin ikki bandardur, biri Kobul va yana biri Qandahor. Qoshg'ar va Farg'ona va Turkiston va Samarqand va Buxoro va Balx va Hisor va Badaxshondin karvon Kobulg'a kelurlar. Xurosondin karvon Qandahorga kelur. Har yili yetti-sakkiz-o'n ming ot Kobulg'a kelur. Quyi Hindistondan o'n, o'n besh-yigirma ming uyluk karvon Kobulg'a kelur. Hindistondin oq raxt va qand va nabot va shakar va aqoqir keltirurlar… Xuroson va Iroq va Rum va Chin matoi Kobulda topilur. Hindistonning xud bandaridur."[4]

XVI asrning II-yarmidan boshlab Hindiston bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda Qobulning ahamiyati yanada oshadi. Buning sababi Xo'rmuz va boshqa bir qator hind portlarining Yevropaliklar tomonidan egallanishidir. Buning oqibatida Boburiylar imperiyasining dengiz orqali savdo qilish imkoniyatlari cheklanib qoladi va Buxoro xonligi bilan karvon yo'llarida iqtisodiy munosabatlar hajmi yanada oshadi. "Ost-Indiya" kompaniyasi agenti Stillning aniqlashicha, XVI asr davomida quruqlikdagi karvon yo'li orqali yiliga avvallari yuborilgan 3 ming tuya mol o'rniga 14 ming tuya mol jo'natib turilgan[5].

Buxoro va Hindiston o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida Qozon (1553) va Astraxanning (1557) Rossiya tomonidan bosib olinishi ham muhim rol o'ynaydi. Chunki O'rta Osiyo, jumladan buxorolik savdogarlar hind mollarini Rossiya bozorlariga yetkazib berishda va O'rta Osiyoga kelgan hind va afg'on savdogarlarini rus mollari bilan ta'minlash ishlarida vositachi rolini egallab oladilar. Natijada Buxoro xonligi ham Hindiston, ham Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarni anchagina rivojlantirib oladi.

Masalan, Abdullaxon II tomonidan 1585-yili Astraxanga sotish uchun yuborilgan mollar orasida (bu mollarning qiymati o'sha davrdagi 2- 2,5 ming so'mni tashkil qilar edi) 40 puddan ortiq bo'yoq bo'lgan. Ma'lumki, bo'yoq Buxoroga, asosan, Hindistondan keltirilar edi. Shuningdek, shu yili Abdullaxon II o'z elchisi Muhammad Alini tortiq va hadyalar bilan rus podshosi Fyodor

Ivanovich (1584 - 1598) huzuriga jo'natadi. Uning tortiq va hadyalari orasida qimmatbaho hind chodiri ham bor edi.

Savdogarlar, asosan, xalq ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mollar bilan savdo qilardilar. Ular XVI—XVIII asrlarda Hindistondan Buxoro bozorlariga turli hind matolari (jomavar, chire, gujorat "fo'ta"si), kashmir sholi, sukurlat - jun, nil va boshqa xil bo'yoqlar, lak, dorivorlar, choy, doka keltirar va O'rta Osiyodan Hindistonga ho'l va quruq mevalar (Abulfazlning ko'rsatishicha, Samarqand tarvuzi, nashvoti, olmalar, mayiz, bodom, mag'iz va boshqalar), ot, tuya, ipak matolar, sukno, qunduz terisi, suvsar, har xil chinnilar, zig'irpoyadan to'qilgan rus matosi va boshqalar olib borar edilar[6].

XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan Antoni Jenkinson Buxoro, Balx shahrida har yili Hindiston, Rossiya va boshqa davlatlardan katta-katta karvonlar bilan keluvchi savdogarlarning qurultoyi tez-tez bo'lib turadi, deb yozadi. Buxoroning dunyodagi savdo markazlaridan biri ekanligini tan olgan ingliz sayyohi bu shahardagi chet el savdogarlari, shu jumladan, hind savdogarlari tomonidan olib boriladigan savdoning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltiradi. U bu savdogarlarning faqirlarcha kiyinganliklarini, ularning juda kam mol keltirishlariga qaramay, bu mollarning 2-3 yillab sotilmay yotishini alohida eslatib o'tadi. Jenkinson yana hind savdogarlari Buxoroga na oltin, kumush, na qimmatbaho toshlar va na ziravor dorivorlar keltirib sotmasliklarini qayd etgan[7].

Hujjatlar XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida xususiy savdogarlar orasida ham boj to'lamay savdo qilish huquqiga ega bo'lganlar borligidan dalolat beradi. Bu xil savdogarlarga, hatto maxsus farmon bilan muayyan o'lkalar o'rtasidagi mavjud savdoda ayrim mollarni xarid qilish va sotish huquqi ham berilgan. Balxlik Oxunxo'ja Avaz va uning sheriklari boburiy Avrangzeb tomonidan berilgan tarxonnomaga ko'ra, Hindistonga saroy ehtiyojlari uchun turli quruq va ho'l mevalar, otlar va tuyalarni olib kelish hamda Balxga Hindiston matolari va buyumlaridan keltirib sotish huquqiga ega bo'lgan. Imperator o'z farmonida Qobuldan to Shohjahonobod (Dehli)ga qadar o'lka va viloyatlardagi hokimlar, jogirdorlar va shohlikning boshqa mutasaddilariga Oxunxo'ja Avaz va uning sheriklaridan chihilyak (qirqdan bir), zakot va rohdori (yo'l uchun olinadigan mablag'), tamg'a va boshqa ishlar yuzasidan zahmat yetkazmaslikni va ushlab qolmaslikni ta'kidlaydi[8].

"Matlabut-tolibin" asarida jo'ybariy shayxlar va hind podsholarining o'zaro bir-birlariga "tuhfa va hadyalar" yuborib turganliklari haqida misollar keltiriladi. Asarda ko'rsatilishicha, Jahongirshoh Shayxulislom Tojiddinga ikki marta "hadyalar" yuborgan va shayx ham bu qilingan "marhamat va iltifotlarga" o'z navbatida javob qaytargan. Hind podshosining har gal 50 ming xoniy qimmatiga ega bo'lgan matolari (kimxob, zarbop) va nodir buyumlari evaziga Shayxulislom ham Hindistonga umumiy qimmati 40 ming xoniydan ortiq qimmatga ega bo'lgan qunduz po'stinlar, morj tishi, chinni asboblar, qipchoq otlari, tezyurar tuyalar, ov qushlari (tuyg'un, qarchig'ay, shunqor) va behla (charmdan yasalgan, ov qushlarini tutuvchi qo'lga kiygiziladigan qo'lqop)lardan 9 sidradan ikki martaba tuhfa qilib yuborgan[9].

Shu narsa diqqatga sazovorki, har ikki tomonning hadyalari garchi turli xil mato va buyumlardan iborat bo'lsa ham, ularning umumiy qimmatlari qariyb barobar kelardi. Bu esa tuhfa va hadyalarning haqiqatda mol almashish asosida olib boriladigan savdo tovarlaridan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan faktlar shundan dalolat beradi-ki, XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr mobaynida Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasi o'rtasidagi elchilik munosabatlarining rivojlanishida shu mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy (savdo) munosabatlari ham muhim o'rin tutgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Низомиддинов Н., Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари, Тошкент, Уздавнашр, 1961, 5—43, 100—108-бетлар.

2. Шарма Р. Бобурийлар салтанати (Инглиз тилидан Ғ.Сотимов тарж.). -Т., 1999.

3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур - Бобурнома. Т., "Юлдузча", 1990. Б-7

4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур - Бобурнома. Т., "Юлдузча", 1990. Б-117, 118

5. Низомиддинов И.Ғ - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан" 1966. Б-15

6. Расул-Заде П., Из истории индо - среднеазиатских политических взаимоотношений во второй половине XIX в., в сб. «Взаимоотношения народов Средней Азии с сопредельными странами Востока», Ташкент, Изд-во АН УзССР, 1963, стр. 173—194.

7. Низомиддинов И.Ғ - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966

8. Рустамов У. А., К истории изучения экономических, политических и культурных связей между народами Индии и Средней Азии. Труды Института Востоковедения АН УзССР, вып. 4, Ташкент, 1956.
9. Низомиддинов И.Ғ - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966

UO'K 930.1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ IDORALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI (1991-2000 YILLAR MISOLIDA)

D.P. Komolov, DSc, prof., Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi
https://orcid.org/0009-0000-6812-4577
Sh.M. Rizvonov, magistrant, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida 1991–2000 yillar davomida soliq idoralari, soliq tizimining shakllanishi va rivojlanishi tarixi tahlil etilgan. Maqolada soliq islohotlarining bosqichlari, soliqlarni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, shuningdek 1998–1999-yillarda soliqlarni ixchamlashtirish hamda soddalashtirish jarayonlari tahlil qilingan. Soliq qonunchiligi, Davlat soliq qo'mitasining tashkil etilishi masalalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, soliq tizimi, soliq islohotlari, Davlat soliq qo'mitasi, Soliq Kodeksi, yer solig'i, daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, ixchamlashtirilgan soliq, kichik va o'rta biznes, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy rag'batlantirish.*

Аннотация. *В статье анализируется история формирования и развития налоговых органов и налоговой системы в Республике Узбекистан в период 1991–2000 годов. Рассматриваются этапы налоговых реформ, адаптация налогов к требованиям рыночной экономики, а также процессы оптимизации и упрощения налоговой системы в 1998–1999 годах. Освещаются вопросы налогового законодательства и создания Государственного налогового комитета.*

Ключевые слова: *Узбекистан, налоговая система, налоговые реформы, Государственный налоговый комитет, Налоговый кодекс, земельный налог, подоходный налог, налог на добавленную стоимость, акцизный налог, упрощённый налог, малый и средний бизнес, сельское хозяйство, экономическое стимулирование.*

Abstract. *This article analyzes the history of the formation and development of tax authorities and the tax system in the Republic of Uzbekistan during the period from 1991 to 2000. The study examines the stages of tax reforms, the adaptation of taxes to the requirements of a market economy, as well as the processes of optimization and simplification of the tax system in 1998–1999. Issues related to tax legislation and the establishment of the State Tax Committee are also discussed.*

Key words: *Uzbekistan, tax system, tax reforms, State Tax Committee, Tax Code, land tax, income tax, value-added tax, excise tax, simplified tax, small and medium-sized enterprises, agriculture, economic incentives.*

Ma'lumki, har bir mustaqil davlatning nufuzi va qudrati avvalo soliqlar asosida shakllantiriladigan davlat budjeti, xususan uning moliya tizimi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarda bo'lganidek, soliq tizimi sohasida ham izchil va bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyoti sharoitida aholiga munosib turmush darajasini yaratish, davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash orqali budjet tizimi mexanizmini takomillashtirish, xususiy tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat edi.

Zero, har qanday mamlakatning soliq siyosati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Chunki davlatning investitsiya salohiyati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, jamiyat farovonligi va tadbirkorlik muhitining jozibadorligi ko'p jihatdan unda joriy etilgan soliq yukining miqdori va samaradorligiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonning soliq siyosati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanini e'tirof etish lozim. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Soliq tizimining eng muhim vazifasi — ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan hamda to'plangan mol-

mulkdan samarali foydalanishga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishdan iborat” [1,-B.59]. Shu sababli respublikamizda mustaqillikning ilk yillaridayoq soliq tizimini isloh qilishga iqtisodiy islohotlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida katta e’tibor qaratildi.

1990-yillarning bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishdagi roli tobora kuchayib, belgilangan strategik maqsad va vazifalarni samarali bajarishda soliq siyosati muhim vosita bo‘lib xizmat qildi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvining boshqa mexanizmlari bilan uzviy holda faoliyat yuritib, mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov qayd etganidek: “Soliq siyosatining vazifasi — bir tomondan budjet daromadlarining barqaror shakllanishini ta’minlash, ikkinchi tomondan esa korxonalarni respublika uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga rag‘batlantirishdan iborat” [1,-B.52]. Shubhasiz, faqat iqtisodiy o‘sishga erishilgandagina ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash mumkin bo‘lar edi. Shu sababli soliq tizimini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, doimiy ravishda takomillashtirib borilishi zarur edi.

Soliq siyosatining samarali yuritilishi ko‘p jihatdan uning huquqiy bazasining mustahkamligiga bog‘liq edi. Bunda soliq qonunchiligi markaziy ahamiyat kasb etardi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida quyidagi hujjatlarni ko‘rsatish mumkin edi: 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonun, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi Qonun (1991 yil 15 fevral), “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning daromad solig‘i to‘g‘risida”gi Qonun (1991 yil 15 fevral), “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi Qonun (1993 yil 7 may). 1997 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi hamda “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonun mazkur hujjatlarning huquqiy bazasini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash majburiyati belgilangan edi. Jumladan 51-moddada shunday deyilgan: “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar” [2]. Shuningdek, respublika hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uning belgilash vakolatlari Oliy Majlisga tegishli ekani ko‘rsatilgan[2].

1991–1994-yillar O‘zbekistonning mustaqil soliq tizimini tashkil etish va soliqlarning xazinaviy ahamiyatini oshirish davri sifatida tarixga kirdi. O‘zbekiston Respublikasida soliq idoralarining mustaqil faoliyati 1990 yil 17 dekabrdagi 383-sonli qaror bilan Vazirlar Mahkamasi qoshida Moliya vazirligi tarkibida Davlat moliya-soliq bosh boshqarmasini tashkil etish orqali yo‘lga qo‘yila boshlandi. Shundan so‘ng, 1991 yil 14 iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to‘g‘risida”gi Nizomi va 1991 yil 12 avgustdagi Vazirlar Mahkamasining 217-sonli qarori qabul qilindi. Bu hujjatlar davlat nazorati va boshqaruvining alohida tuzilmasi sifatida soliq idoralarining mustaqil faoliyat yuritishiga asos soldi.

Respublika davlat boshqaruvining mazkur tuzilmasi 1994 yilga qadar, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qoshida Davlat bosh soliq boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirilgunga qadar faoliyat ko‘rsatdi.

Respublikamizning mustaqil soliq tizimini shakllanishida 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan “Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risidagi” Qonun dastlabki asosiy huquqiy hujjat sifatida e’tirof etildi. Unga ko‘ra birinchi marta soliq tizimining tuzilishi va faoliyat yuritishining umumiy asoslari belgilab berildi, soliqlarni hisoblash va undirish tartiblari o‘rnatildi.

1992 yil 9 dekabrda esa “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risidagi” Qonun qabul qilindi[3]. Ushbu qonunga binoan soliq obekti kengaytirildi va ilgari daromad solig‘ini jamoa xo‘jaliklari orqali to‘lab yurgan fuqarolarga, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlari to‘lash tartibi joriy etildi.

Shuningdek, 1992 yil 1 yanvardan boshlab korxonalardan undiriladigan daromad solig‘i va bir qator boshqa soliqlar bekor qilindi. Shu bilan birga, ayni sanadan boshlab korxonalardan qo‘shilgan qiymat solig‘i, daromad (foyda) solig‘i, aksiz solig‘i, mol-mulk solig‘i, shuningdek respublikadan tashqariga chiqariladigan mahsulotlar va xomashyo resurslariga soliq joriy etildi.

1993–1994-yillarda soliq islohotlari davlat budjeti taqchilligini kamaytirish va daromad qismini mustahkamlashga qaratildi. Shu maqsadda resurs to‘lovlari va amortizatsiya solig‘i joriy etildi. 1993 yil 7 mayda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi[4]. Ushbu qonunga binoan jismoniy shaxslarning mulk solig‘i, yer solig‘i, reklama solig‘i, avtomobil vositalarini qayta sotish solig‘i, transport vositalari egalaridan undiriladigan soliqlar va turli yig‘imlar kiritildi.

Amaldagi soliq tizimini takomillashtirish zaruriyati tufayli 1994 yildan boshlab quyidagi o‘zgarishlar amalga oshirildi: qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20% ga pasaytirildi, moddiy xarajatlarga nisbatan 6% stavkali to‘lov bekor qilindi, mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliqka tortish obekti qisqartirilib, asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatidan olinadigan darajaga keltirildi, qishloq korxonalari uchun daromad solig‘i joriy qilindi, ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lov joriy etildi. Shu islohotlar natijasida soliq tizimining fiskal yo‘nalishi saqlanib qoldi va davlat budjeti taqchilligi 4,1% ni tashkil etdi[5, -B.91-95].

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolat doirasi va faoliyatining tashkiliy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 18 yanvardagi Farmoni bilan tashkil etildi. Ushbu farmonga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat soliq bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirildi[6].

Davlat soliq qo‘mitasining faoliyat yo‘nalishlari 1994 yil 18 martda Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq belgilandi. Ushbu Nizomga ko‘ra, Davlat soliq qo‘mitasi soliq va bojxona siyosatini amalga oshirish, shuningdek, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasida davlat nazorati organi sifatida faoliyat yuritdi.

1995–1997-yillarda soliqlarni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish va korxonalar ishlab chiqarishlarini rag‘batlantirishga qaratilgan davr sifatida tarixga kirgan. Ushbu davrda soliq siyosatining asosiy vazifasi mamlakatda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘lib, yuridik va jismoniy shaxslarga turli imtiyozlar berildi. Xususan, 1995 yildan boshlab korxonalar mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirganlari uchun foyda solig‘i stavkasi 0,3 foizgacha kamaytirildi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va tarkibiy jihatdan qayta qurish soliq tizimini isloh qilishni talab qilardi. Shu yo‘nalishda ko‘plab korxonalar va tashkilotlarning foyda solig‘idan daromad solig‘iga o‘tilishi amalga oshirildi, uning o‘rtacha stavkasi 37% qilib belgilandi. Islohotlar natijasida soliq to‘lovchilar uchun zarur imtiyozlar joriy etildi. Qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun foyda solig‘i stavkasi rentabellik darajasiga qarab tabaqalashtirildi: rentabellik darajasi 40% gacha bo‘lgan korxonalar uchun 3%, rentabellik darajasi 40% dan yuqori korxonalar uchun 20% stavkada soliq undirilgan.

Shuningdek, 1995 yilda resurs soliqlari rolini oshirish maqsadida yer osti foydali qazilmalardan foydalanish solig‘i va qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalaniladigan yerlarga yer solig‘i joriy qilindi. Ushbu soliqlar har yili inflyatsiya darajasiga qarab qayta ko‘rib chiqiladigan tartibga keltirildi.

1995–1997-yillardagi soliq islohotlari davomida soliq tizimi ixchamlashtirildi va bir qator kam samarali soliqlar bekor qilindi. Xususan, respublika tashqarisiga olib chiqiladigan xom ashyo resurslari uchun soliq, hisoblab yozilgan amortizatsiyadan budjetga 30% ajratma va boshqa shunga o‘xshash soliqlar bekor qilindi. Shu bilan birga, jamoa xo‘jaligi a’zolari va iqtisodiyotning boshqa sohalarida ishlayotganlar uchun soliqqa tortishning yagona tartibi joriy qilindi. Fuqarolar daromadiga solinadigan soliqlar shkalasi ham qayta belgilandi.

Bozor munosabatlari sharoitida kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlar va sarmoyadorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida, xorijiy sarmoyadorlar ishtirokidagi korxonalarga soliq imtiyozlari berildi. Xususan, 1996 yil 1 yanvargacha ro‘yxatdan o‘tkazilgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarga daromad yoki foydani soliqqa tortishni tanlash huquqi berildi, boshqa barcha xo‘jalik yurituvchi subektlar uchun esa daromad solig‘i to‘lash joriy etildi.

1996 yil 1 oktabrdan respublikada ishlab chiqariladigan va chetdan olib kelinadigan alkogol hamda tamaki mahsulotlariga aksiz markasi joriy qilindi[7]. Shuningdek, 1997 yildan boshlab ekologiya solig‘i joriy qilindi (ushbu soliq 2006 yildan bekor qilingan).

1997 yil 24 aprelda O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi qabul qilindi. Soliq kodeksining qabul qilinishi soliq qonunchiligini huquqiy jihatdan mustahkamlabgina qolmay, soliq tizimini isloh qilishda muhim voqea bo‘ldi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to‘g‘risida"gi Qonuni (1997 yil 29 avgust) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida"gi Qarori (1998 yil 12 yanvar)ga muvofiq, soliq organlarining asosiy funksiyalari va vazifalari belgilab berildi[8].

1998 yildan soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish bosqichi muhim davr boshlanayotganidan darak berardi. Ushbu bosqichda soliq to‘lovchi yuridik shaxslarga imkon qadar soddalashtirilgan, ixchamlashtirilgan soliq to‘lash tizimi joriy qilindi. Shu bilan birga, ularning soliq hisobotlari va soliq to‘lash muddatlari soddalashtirildi.

1998 yil 10 oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida"gi PF-2086-sonli Farmoniga binoan, 1999 yildan boshlab qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘i joriy qilindi.

Shuningdek, 1998 yil 15 apreldagi 159-son qarorga asosan, kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimi joriy etilib, ular uchun yagona soliq to‘lash tartibi belgilandi.

1998 yil 10 aprelda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1153-sonli Farmoni bilan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromaddan soliq va mol-mulk solig‘ini to‘lash tizimiga o‘tdi. Ushbu soliq tizimidagi islohotlar soliq xodimlari, davlat soliq idoralari va bank xodimlarining vaqtini tejashga imkon yaratdi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan soliq islohotlari o‘z samarasini bera boshladi. Kichik va o‘rta biznes korxonalarining mamlakat yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishidagi o‘rni va salmog‘i ortib bordi. Bu esa soliq tizimini yanada isloh qilish va takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi.

1997 yil 24 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi soliq tizimini isloh qilishning muhim bosqichini tashkil etdi. Soliq kodeksi kuchga kirishi bilan soliqqa tortishning barcha meyoriy hujjatlari qonuniy tartibga solindi, soliq imtiyozlari tizimga keltirildi, foyda solig‘i, mol-mulk va qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobga olindi hamda soliqqa tortishning xalqaro tizimini joriy etish imkoniyati yaratildi.

Ushbu bosqichda yuridik shaxslarga, ayniqsa kichik biznes korxonalariga, soliqqa tortish, hisobga olish va hisobotlarni yuritishning soddalashtirilgan tizimi joriy qilindi. Kichik tadbirkorlik subektlari ixtiyoriy asosda umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash imkoniga ega bo‘ldi. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-sonli qarori bilan kichik korxonalar uchun soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimini qo‘llash tartibi tasdiqlandi.

Ilgari aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar soddalashtirilgan soliq tizimiga kirmagan bo‘lsa, 1999 yil 1 oktabrdan ularga aksiz solig‘ini to‘lash sharti bilan mazkur tizimdan foydalanish imkoniyati yaratildi. Mazkur yilning boshidan boshlab, qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkatlari), fermer xo‘jaliklari, agrofirmalar va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi boshqa korxonalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrdagi 539-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan budjet bilan hisob-kitob mexanizmiga ko‘ra, yagona yer solig‘i to‘lovchilariga aylantirildilar.

Xulosa qilib aytganda, 1991–2000 yillarda O‘zbekiston soliq tizimining shakllanishi bosqichma-bosqich institutsional, tashkiliy va huquqiy asosda amalga oshdi. Bu jarayonda soliq organlarining mustaqil tuzilma sifatida shakllanishi, soliq qonunchiligining izchil takomillashuvi va soliqlarni bozor iqtisodiyoti talablari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim o‘rin tutdi. Xususan, Davlat soliq qo‘mitasining tashkil etilishi, Soliq kodeksining qabul qilinishi, resurs to‘lovlari, yagona yer solig‘i, soddalashtirilgan soliq tizimining joriy etilishi mamlakatda samarali soliq boshqaruvini yaratish uchun zarur normativ asos bo‘lib xizmat qildi.

Mazkur davrda amalga oshirilgan islohotlar iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlariga mos ravishda soliq mexanizmlarini moslashtirdi, davlat budjetining barqaror shakllanishiga erishildi hamda tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay soliq muhiti yaratildi. Soliq yukining kamaytirilishi, imtiyozlarning tartibga solinishi, soliq ma'murchiligining soddalashtirilishi iqtisodiy faollikning oshishiga, ayniqsa kichik va o‘rta biznesning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. Shu tariqa 1990-yillar O‘zbekistonda zamonaviy soliq tizimining shakllanishi va uning institutsional mustahkamlanishida hal qiluvchi davr bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: O‘zbekiston, 1998.

2.https://lex.uz/docs/20596. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

3.https://lex.uz/ru/docs/-143318?ONDATE=01.01.1993. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining ““O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risidagi” qonunni amalga kiritish tartibi xususida, 09.12.1992 yildagi 739a-XII-son.

4.https://lex.uz/ru/docs/98065. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 07.05.1993 yildagi 843-XII-son.

5.Toshmatov Sh. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli. Toshkent: Fan, 2008. -B. 91-95.

6.https://lex.uz/docs/-195755. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq bosh boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida”gi farmoni, 18.01.1994 yildagi pf-744-son.

7.https://lex.uz/docs/-461869. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlariga va spirtli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi qarori, 14.08.1996 yildagi 285-son.

8.https://www.lex.uz/uz/docs/-48762?ONDATE=19.09.1997. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish haqida”gi qarori, 29.08.1997 yildagi 475-I-son.

UO'K 94(555.1):336.74(47)

TURKISTONDA VAQTINCHALIK MAHALLIY BANKNOTLARNING CHIQARILISHI VA UNDAGI MUAMMOLAR TARIXSHUNOSLIGI

Sh.S.Luhmonov, o‘qituvchi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada RSFSR hududida fuqarolar urushi hamda harbiy kommmunizm siyosati davrida Turkiston hududining markazdan nafaqat siyosiy , balki iqtisodiy jabhada ham uzilib qolishi natijasida joriy qilingan mahalliy pullarning chiqarilishini arxiv manbalari asosida tadqiq etilgan. Ushbu maqola shu paytgacha qilingan tadqiqotlarga qo‘shimcha manba sifatida xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Turkbon, Yettisuv bonlari, Andijon bonlari, Ashxabod bonlari, Emissiya, Fuqarolar urushi, Dutov tiqini*

Аннотация. *В данной статье на основе архивных источников рассматривается вопрос о введении местных денег в РСФСР в период гражданской войны и политики военного коммунизма в связи с отменой Туркестанского края от центра не только в политическом, но и в экономическом отношении. Статья может служить дополнительным источником к проведённым исследованиям.*

Ключевые слова: *Туркестанские облигации, Семипалатинские облигации, Андижанские облигации, Ашхабадские облигации, Эмиссия, Гражданская война, Дутовская пробка.*

Abstract. *This article studies the issue of local money introduced in the RSFSR during the civil war and the policy of military communism, based on archival sources, as a result of the separation of the Turkestan region from the center not only politically but also economically. This article can serve as an additional source to the research carried out so far.*

Key words : *Turkbon, Semipalatinsk currency, Andijan currency, Ashgabad currency Emission, Civil war, Dutov traffic jam.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan moliyaviy islohotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakat tarixida qilingan iqtisodiy xatolarni takrorlanmasligi uchun qilinayotgan chora-tadbirlardan borat. Biz ish olib borgan mavzu ham o‘tgan asrning 20-yillarida Sovet Rossiyasi

tarkibidagi ichki va tashqi nizolar sabab Turkiston o'lkasida iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etish maqsadida muomalaga chiqarilgan mustaqil emissiya haqida so'z boradi. Bundan tashqari joriy qilingan vaqtinchalik kredit biletlardagi hududiy kotirovka masalalarining cheklanganligi, ularni hal etishdagi hukumat qarorlari va amaliyot natijalari ochib berilganligi bilan dolzarbligi xarakterlanadi.

Adabiyotlar tahlil va metodologik asoslari. Turkiston ASSRda amalga oshirilgan mahalliy pul belgilarining o'lkaga joriy qilinishi, moliyaviy jabhada keltirgan oqibatlari xususida bir qancha olimlar ish olib borishgan. Jumladan, XX asrning 20-yillarida Z.V.Atlas, G.Y.Sokolnikov, D.V.Kuzovkov, M.B.Xodyakov, V.G.Groman, A.S. Sokolov kabi olimlar RSFSR o'lkalarida fuqarolar urushida mustaqil chiqarilgan emissiya haqida izlanishlar olib borishgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Milliy arxivi R fondi 8, 9, 17, 18, 20, 25, 37 –jamg'armalarida hamda davriy nashrlardan "Наша газета", "Туркистон" gazetalari "Народное хозяйство Туркестана" jurnallarida o'lka budjet tanqisligi, mustaqil chiqarilgan bonlarning o'lka iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'siri, undagi muammolar xususida ma'lumotlar keltiririlgan.

Maqola tarixiylik, tizimlilik, xolislik tamoyillari hamda muammoga sivilizatsion yondashuv, qiyosiy va muammoviy-xronologik tahlil usullaridan foydalanilgan holda yozilgan

Tahli va natijalar. 1917-yilgi oktabr to'ntarishi hamda hukumatning almashinuvi Turkistonda ham shu yilning noyabr oyida Turksiton Xalq Komissarlari Sovetini tuzilishi bilan siyosiy o'zgarishlarga olib kelgan. Bundan tashqaari 1917-yilning qishining sovuq kelishi, mamlakatda g'allaga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida siyosiy depressiya ortidan iqtisodiy tanqislik yuzaga kelgan. Sovet Rossiyasi olib borgan harbiy kommunizm davrida joriy qilingan "oziq-ovqat taqsimoti" Turkiston o'lkasini oziq-ovqat bilan ta'minlashni yanada qiyin ahvolga solgan. "Oziq ovqat direktoriyasi" to'g'risidagi Nizom esa yerning hajmiga qarab yer egasiga ma'lum g'alla majburiyatini yuklagan.

RSFSRning 1919-yilgi kirim ro'yxati				1919-yil uchun Turkiston budjeti		
	1-yarim yillik	%	2-yarim yillik	%	Yil davomida daromad	%
Davlat mol-mukidan daromad (ishlab chiqarish va sotish operatsiyalari)	15.947.502.808	80	40.587.900.000	83	173.431.054.84	88
Davlat soliq yig'imidan daromad	4.402.125.080	20	7.731.800.000	17	26.314.035.42	12
	20.349.627.888	100	48.318.700.000	100	199.745.090.20	100

Jadvaldan ko'rish mumkinki, 1919-yilda Turkiston bo'yicha davlatga tegishli mol-mulklardan daromad - 173.431.054. rubl. 84 kopeekni tashkil etib, shundan sotuv operatsiyalaridan 129.540.057r. 28k, sanoatni milliylashtirishdan 43.890.997r. 56k. tashkil etgan.

"Народное хозяйство Туркестана" jurnalining 1919-yil 36-sonida Turkistonda komissarliklarning pulga bo'lgan ehtiyoji bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilib, unga ko'ra 11 ta komissarliklarning 60 % ehtiyoji qoplangan deb qayd etilgan. Qiziq tomoni shundaki, undagi eng ko'p mablag' ajratilgan komissarlik harbiy vazirlik, eng kam mablag' taqsimlangani esa maorif sohasi bo'lgan.5)

Bu davrga oid arxiv hujjatlarida Turkiston Iqtisodiy Kengashi fondi ma'lumotlariga tayanib Toshkent bozorlarida narx navo 78 baravar ortganligi, vaqtinchalik chiqarilgan turkbon esa yigirma besh marta oshganligi tahlil shuni ko'rsatadiki pulning miqdori bilan mahsulot hajmi bir biriga nisbatan nomutanosib deb baholasak bo'ladi. 6)

Turkiston SSR tarkibiga kiruvchi Yettisuv viloyatida ham keskin pul tanqisligi, oziq-ovat muammolar moliyaviy ahvolning yaxshilashga doir chora tadbir tashkil qilishga undagan. "Наша газета" 1919-yil fevraldagi sonida xabar berishicha, Semipalatinsk (Yettisuv) viloyati pul bozorini to'ldirish uchun Turkiston MIQ respublika budjetidan 100 mln rubllik bonlarni chiqarishga ruxsat berganligi aytiladi.7) Verniy rubllar faqat Yettisuv viloyatida chiqqanligi qayd qilingan. Lekin ularning qiymati Turkiston bonlariga nisbatan ham pastligi, sifatsiz ekanligi muomalada ularni kam foydalanilishiga olib kelgan. Arxiv manbalarida 235 mlndan ortiq Verniy rubllari chiqqan deb ko'rsatilgan.

Turkistonning boshqa hududlarida ham pul valyutasi muammosini mustaqil hal etish uchun harakatlar amalga oshirilgan. "Народное хозяйство Туркестана" jurnalida ma'lum qilinishicha

Andijon ishchilar jamoasi Ijroiy komiteti 1919-yil aprel oylarida 1 000 000 000 rubl miqdorida o‘zlarining Andijon bonlarini chiqazishgan deb xabar berilgan.8) Ammo yuqoridagi keltirilgan bonlar 1919-yilning oxirida borib Turkiston hukumati tomonidan chiqarilishi to‘xtatilgan hamda ularni Turkiston bonlari va sovet belgilariga almashtirilgan.

Turkiston Respublikasi iqtisodiyoti og‘ir inqirozni boshidan kechirayotgan edi. O'sha davrda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi urushdan oldingi darajaning atigi 1/3 qismini tashkil etdi, milliylashtirilgan sanoat butunlay tanazzulga yuz tutdi, yarim hunarmandchilik va hunarmandchilik korxonalari Sovet hokimiyati nazoratiga o'tkazildi. Muddatli harbiy xizmat joriy etildi. Respublikaning tub aholisi ekinlari kamayib borayotgan chorvachilik va paxtachilik bilan shug'ullangan.

N.B. Xotamov keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra Mahalliy ishlab chiqarilgan non yetishmas edi. 1919-yil iyun oyida oziq-ovqat bilan bog‘liq og‘ir vaziyat munosabati bilan Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi g‘alla monopoliyasi to‘g‘risida dekret qabul qildi. 1920-yilda dehqonlarga yer taqsimlash boshlandi, urug‘lik va qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalari bilan davlat yordami ko‘paydi. Biroq, umuman olganda, mintaqada oziq-ovqat bilan bog‘liq vaziyat og‘irligicha qoldi. 1919-1920-yillar davomida Turkistonda haqiqatda emissiya iqtisodiyoti amalga oshirildi. 1919-yil davomida soliqlar, milliylashtirilgan sanoatni sotish va oziq-ovqat operatsiyalaridan olingan daromadlarning umumiy miqdori 200 million rublni tashkil etdi, bu umumiy byudjetning 2 foizini tashkil etdi. 9)

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, RSFSR bilan Turkiston o‘rtasida 1918-yildan boshlangan siyosiy va iqtisodiy uzilishlar natijasida o‘lka hukumati tomonidan o‘zining vaqtinchalik mustaqil banknotlar chiqarilishiga olib kelgan. Budjet tanqisligi qoplash, pul bozorini stabillashtirish, narx-navoni muvozanatlash maqsadida chora-tadbirlar ko‘rilgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan aholining pulga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq qoplay olinmaganligi arxiv hujjatlarida o‘lkaning daromad va xarajatlar bo‘yicha statistikalarida ma’lum qilingan. Turkiston bonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarixchi olimlar tomonidan ma’lum bo‘lsada, yangi topilgan arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, xotiralar bu muammoga yangicha qarash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Наша газета” 27-28 января 1918г.,№ 8
2. Сокольников Г.Я. Финансовая политика революции . М. : О-во купцов и промышленников России, Т. 1. 2006.
3. ЎзМА, 25 – фонд, 1 – рўйхат, 20 – иш
4. Юровский Л.Н. Денежная политика Советской власти (1917–1927) : избр. ст. М. : Экономика, 2008.
5. “Народное хозяйство Туркестана”.- №36., 1919г
6. O‘zMA, 18 – fond, 2 – ro‘yxat, 49 – ish
7. “Наша газета” - 9 февраля 1919г
8. Народное хозяйство Туркестана №36 за 1919г.
9. Хотамов Н.Б. Роль банковского капитала в социально-экономическом развитии Средней Азии(начало90-хгг. XIXв. –1917 г.) Душанбе: Дониш, 1990.

UO’K 614.2(575.1)

O’ZBEKISTONDA SOG’LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI YANGILANISH DAVRI

L.Mahmudova, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan. Davlat siyosatida sog‘liqni saqlash sohasini modernizatsiya qilish, tibbiy xizmatlarning sifati va qulayligini oshirish, shuningdek, aholining salomatligini ta’minlashga doir kompleks chora-tadbirlar muhim o‘rin tutayotgani yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sog‘liqni saqlash, islohotlar, tibbiy xizmat, xususiy tibbiyot, malakali kadrlar, sog‘lom turmush tarzi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются реформы, проводимые в системе здравоохранения Республики Узбекистан, и их социальное значение. Отмечено, что модернизация здравоохранения, повышение качества и доступности медицинских услуг, а*

также обеспечение здоровья населения стали приоритетными направлениями государственной политики.

Ключевые слова: *здравоохранение, реформы, медицинские услуги, частная медицина, квалифицированные кадры, здоровый образ жизни.*

Abstract. *This article examines the ongoing reforms in the healthcare system of the Republic of Uzbekistan and their social significance. It highlights how the modernization of healthcare, improvement of the quality and accessibility of medical services, and safeguarding public health have become priorities in state policy.*

Keywords: *healthcare, reforms, medical services, private medicine, qualified personnel, healthy lifestyle.*

Yurtimizda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish borasida oxirgi yillarda muhim o‘zgarishlar yuz bermoqda. Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish, ularning qulayligini ta’minlash, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Mustaqillikning ilk yillaridanoq, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom go‘dak tug‘ilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, yetuk avlodni voyaga yetkazish masalalariga alohida e’tibor berildi.

1998 yil apreldagi “Ona va bola skriningi”, 2000 yil fevraldagi «Sog‘lom avlod», 2001 yil fevraldagi «Ona va bola» Davlat dasturlari hamda 2002 yil fevraldagi «Ayollar va o‘sib kelayotgan avlod salomatligini mustahkamlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tabdirlar to‘g‘risida» , 2002 yil iyuldagi «Sog‘lom avlod tug‘ilishi va tarbiyasi, ayollar salomatligini mustahkamlash, oilada tibbiy madaniyatni oshirishga doir birlamchi yo‘nalishlarni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Qarorlar onalik va bolalikni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Yurtimizda 2016 – 2018-yillarda Prezidentning sohaga oid 50 ta farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 70 dan ziyod qaror va farmoyishlari qabul qilindi. 6 ta yangi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, ular soni 16 taga yetdi. Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida hududlarda ularning 10 ta filiali ish boshladi. Tuman va shahar shifoxonalarida 306 ta yangi ixtisoslashgan bo‘lim, 1 ming 200 ta tez tibbiy yordam shoxobchasi ochildi. Bundan ko’rinib turibdiki tibbiyot soxasiga bo’lgan e’tibor yildan yilga ortib bormoqda.

Shu bilan bir qatorda Prezidentning qabul qilingan "Davlat tibbiyot muassasalari va sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori sohadagi yana bir ijobiy yangilik bo‘ldi. Unga muvofiq, tibbiyot xodimlarining oylik maoshi 2018-yil 1 dekabrdan 20 foizga, 2019-yil 1-apreldan yana 15 foizga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydagi “Sirdaryo viloyatida sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirishning yangi modeli – Guliston tibbiyot klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 318-son qarori qabul qilindi.Ushbu tizimni to‘g‘ri tashkil etish va targ‘ibot tadbirlarini kuchaytirish maqsadida Sog‘liqni saqlash vazirligining 2021 yil 10 iyuldagi “Oilaviy shifokorlik punkti, oilaviy poliklinika va ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami to‘g‘risida”gi 165-sonli buyrug‘i tasdiqlanib, Sirdaryo viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasiga qarashli tuman tibbiyot birlashmasi, shahar tibbiyot birlashmasi boshliqlarining davolash va ambulatoriya xizmati bo‘yicha mas’ullariga Davlat tibbiy sug‘arta jamg‘armasi xodimlari tomonidan o‘quv seminarlari o‘tkazildi.

2021 yili "Qishloq shifokori" dasturi joriy qilindi. Shifokorlar olis va chekka hududlarda joylashgan oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalariga ishga qabul qilinganda ularga kamida 3 yil ishlab berish sharti bilan 30 million so‘m miqdorida bir martalik pul mablag‘lari, uy-joyi bo‘lmaganlarga esa 3 yil davomida xizmat uy-joylari berilishi belgilandi. Bundan tashqari bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik ijara to‘lovlari Davlat budjetidan kompensatsiya qilinishi qayd etildi.

2022 yil 25 aprelda O‘Z R Prezidentining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Qarorga muvofiq birlamchi tibbiy-sanitariya yordami

muassasalaridan uzoqda joylashgan hududlarda 2022 yil 1 maydan boshlab mahalla tibbiyot punktlari tashkil etish, aholining profilaktik tibbiy ko‘riklari, skrining dasturlar va patronaj xizmati faqat Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq amalga oshirilishi va bunga boshqa tashkilotlarning aralashuviga yo‘l qo‘yilmasligi, tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarida davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmat bilan birga pullik xizmatga ham ruxsat berilishi, pullik xizmatlardan kelib tushgan mablag‘larning 75 foizgacha bo‘lgan qismi tuman va shahar ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarining tibbiyot xodimlarini rag‘batlantirishga yo‘naltirilishi belgilab beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Oliy Majlisiga Murojaatida malakali va sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish ishlari davom ettirish, 520 ta olis va chekka mahallada ixcham tibbiyot punktlari tashkil etish xususida fikrlar bildiriladi.

Xullas, mustaqillikning ilk yillarida boshlab yurtimiz aholisini salomatligini mustahkamlash, ularga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, sohaning moddiy – texnik bazasini mustag‘kamlash bo‘yicha huquqiy asoslar yaratilib, so‘nggi yillarda bu tadbirlar yangi bosqichga ko‘tarildi.

Yangilanishlar jarayonida profilaktika, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu esa kasalliklarni erta aniqlash, ularning oldini olish va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar inson kapitali sifatini oshirish, aholi farovonligini ta’minlash va mamlakatning barqaror taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 249-250.

2. Istiqlol bergan imkoniyat // O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash. Здравоохранение Узбекистана, 2006 yil 29 avgust. – № 35. – B.4..

3. O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy Texnikaviy va Tibbiy hujjatlar Markaziy Davlat arxivi (keyingi sahifalarda O‘zR ITTHMDA tarzda beriladi), M-233-fond, 1-ro‘yxat, 2-varaq.

4. O‘zR ITTHMDA, M-372-Fond, 1-Ruyhat, 40-varaq.

5. O‘zR ITTHMDA. M-372-Fond, 1-Ruyhat, 41-varaq.

6. F.Sharipov. Mustaqillik dastxati//O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2013yil 25 yanvar № 4(921), -B.3.

UO’K 908

XVII ASRDA BUXORO XONLIGIDA YALANGTO'SH BAHODIR OLIB BORGAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

B.T.Mamatov, o’qituvchi, Kattaqo’rg’on davlat pedogogika instituti, Kattaqo’rg’on
https//orcid.org/.0009-0006-9471-9471

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Bahodir Yalangto`shning qozoq xonliklari, Eron safaviylari, Hindistonda Boburiylar sulolasi bilan bo`lgan munosabatlarda yuritgan siyosati, harbiy yurishlariga to`xtalib o`tiladi va mavjud ma`lumotlar tahlil qilinadi.*

***Kalit so`zlar:*** *Bahodir Yalangto`sh, Eron, safaviylar, Hindiston, Shohjahon, qozoq xonlari, Rossiya, Balx, Turkiston, Toshkent, diplomatiya, ashtarxoniylar, elchi.*

Аннотация. *В данной статье основное внимание уделяется политике и военным походам Бахадура Ялангтуша в отношениях с казахскими ханствами, иранскими Сефевидами, династией Бабура в Индии, анализируется имеющаяся информация.*

Ключевые слова: *Бахадур Ялангтуш, Сефевиды Ирана,Шах Аббас, Индия, Шаджахан, казахские ханы, Россия, Балх, Туркестан, Ташкент, дипломатия, Аштарханиды, посол.*

Abstract. *The study of this issue together with the activities of Yalangtushbi will help to understand the existing situation in that period more fully, and to analyze the external relations during the Ashtarkhanid period in depth.This article focuses on Bakhadir Yalangtush `s policy and military campaigns in relations with the kazakh khanates, the Iranians, the Baburi dynasty in India and analyzes the available information.*

Key words: *Bakhadir Yalangtush, Safavids of Iran, Shah Abbas, India, Shahjakhan, Kazakh khans, Russia, Balkh, Turkestan, Tashkent, diplomacy, ashtarkhanids, ambassador.*

Kirish. XVI asr oxiri –XVII asr boshlarida Buxoro xonligida vujudga kelgan vaziyat tashqi dushmanlarni xonlik hududidagi shaharlarni egallab olish imkoniyatini vujudga keltirdi. Xususan, shayboniylardan Abdullaxon II dan so`ng mamalakt mudofasini yaxshi ta`minlay olmaydigan hukmdorning bo`lmaganligi, ma`lum bir hududlarni Eron va Hindiston tomonga o`tib ketishiga sabab bo`ladi.Ayniqsa, Xirot va Xuroson masalasida yaqqol ustunlik shayboniylar tarafda bo`lgan bo`lsa, Abdullaxon II ning o`g`li Abdulmo`min davrida bu hududlar yana safaviylar tasarrufiga o`tib ketadi.Eron ham bu bilan cheklanib qolmasdan, Balx va Buxoro shaharlarini egallashga harakat qilgan. Chunki, Eron tomonidan 1602,1605,1606,1607- yillarda amalga oshirilgan harbiy yurishlar mag`lubiyatga uchraganligini ko`rishimiz mumkin. Buxoro xonligida hokimyat almashib, ashtarxoniylar boshqaruvni qo`lga olganidan so`ng, ular ham shayboniylar kabi Eron munosabatlarda faolroq bo`lishga harakat qildilar. Lekin, bu harakatlar sust bo`lganligini to`plangan ma`lumotlar asosida tahlil qilishimiz mumkin. Yalangto`shbiy-otaliq tomonidan amalga oshirilgan harbiy yurishlar, Eron qo`shinlarini mamalakatdan quvib yuborilishi, ma`lum vaqt davomida ustunlikni ashtarxoniylar tomoniga o`tishiga sabab bo`lgan[10;215-b].

Hindiston bilan bo`lgan tashqi aloqalarda ashtarxoniylar ,asosan, barqarorlikni saqlab qolishga harakat qilganlar. Boshqa hukmdorlardan farqli o`laroq, Imomqulixon davrida (1611-1642) davrida Hindiston bilan munosabatlar qayta tiklandi.1614-yilda u o`z elchilarini qimmatbaho sovg`alar bilan hind shohi Jaxongir saroyiga yuboradi.1625-yilda esa Jaxongir ham Imomqulixon huzuriga Hakim Hoziq boshchiligidagi elchilarni javob tariqasida yuboradi**.** Lekin, Nodir Muhammad hukmronligi (1642-1645) davriga kelib bu munosabatlar yomonlashganini ko`rishimiz mumkin. Ayni shu vaziyatda, Nodir Muhammad taxtdan tushgach, ukasi Abdulazizxon hokimyatni qo`lga olganligidan foydalangan hindlar Balxni qo`lga oladi. Bunda Bahodir Yalangto`sh boshchiligidagi amalga oshirilgan mohirona diplomatiya orqali Buxoro xonligining g`alabasi ta`minlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Quyida tadqiq qilinayotgan mavzu bo`yicha o`sha davr uchun muhim bo`lgan ma`lumotlarni Mahmud ibn Valining " Bahr ul-asror" (Sirlar dengizi) kitobidan olishimiz mumkin. Unda amir Yalangto`shbiy 'jasur no`yon, ish bilgan amir" sifatida ta`riflanadi [1;228-b]. Undan tashqari Muhammad yusuf Munshiyning "Muqimxon tarixi" asarida ham Buxoroning Eron bilan bo`lgan munosabatlari haqida zarur ma`lumotlar berilgan bo`lib, Vali Muhammadning taxtni qaytarib olish uchun Shoh Abbos huzuriga borganligi haqida, Buxoro hukmdorlarining Eron, Hindiston bilan munosabatlari haqida tarixiy voqealar bayoni yoritilgan. Bunda Imomqulixon davrida Hindiston bilan olib borilgan elchilik aloqalariga batafsil to`xtalib o`tilgan.Yuqoridagi manbaalarga qo`shimcha ravishda Bo`riboy Ahmedovning "История Балха" (XVI –первая половина XVIII в) , "Тарихдан сабоқлар" kitoblarida ham Bahodir Yalangto`shning tashqi aloqalarga bag`ishlangan ma`lumotlar, tarixiy faktlar mavjud hisoblanadi. So`ngi yillardagi izlanishlarga to`xtaladigan bo`lsak, 2019-yil sentabr oyida Samarqandda "Bahodir Yalangto`shning Markaziy Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xayotida tutgan o`rni" mavzusi bo`yicha o`tkazilgan xalqaro konferensiya materillarida ham bu boradigi muhim ma`lumotlarni olishimiz mumkin. Unda Bahodir Yalangto`shning siyosiy faoliyati , tashqi siyosatda yuritgan diplomatik munosabatlari bo`yicha bir qator tarixchi olimlar o`z maqola va tadqiqot ishlari bilan qatnashdilar. Bularga misol sifatida, G.Taniyevaning "Ялангтўш Баҳодирнинг Бухоро хонлиги сиёсий барқарорлигини таъминлашдаги ўрни", D.Sangirovaning "Ялангтўш Баҳодурнинг Марказий Осиё ижтимоий сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни" , T.Omarbekovning "Ялантуш-Бахадур – крупный политический деятель средневекового Мауереннахра", Z.Muqimovning "Ялангтўшбий Баҳодирнинг давлат фаолиятини ўрганилишига доир" singari tadqiqot ishlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Tarixan bir davrda mavjud yirik davlatlarning o`zaro manfaatlari ma`lum bir hududda to`qnash kelishi tarixda yuz bergan ko`plab urushlar va jiddiy mojorolarga sabab bo`lgan. Bunday vaziyatda har bir davlat boshlig`i ustunlikni o`z tomoniga og`dirishga harakat qiladi va faol diplomatik munosabatlar olib boradi. Azaldan ma`lumki, Buxoro xonligi va Eron manfaatlari

to`qnashgan nuqta bu Xuroson edi. Bunga sabab sifatida Xurosonning harbiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy muhim ahamiyatga ega ekanligini keltirish mumkin. Xususan,Xuroson hududi Buxoroning ichki va tashqi siyosatida ahamiyati katta bo`lgan shaharlardan bo`lib, u Eron va Hindiston yo`nalishi bo`yicha o`ziga xos darvoza vazifasini bajarganligi ko`plab tarixiy manbalarda keltirib o`tilgan va tashqi savdoda olib boriladigan muhim tayanch vazifani bajargan. Bu hududni nazorat qilish borasida dastlab shayboniylar va safaviylar o`rtasida bir qancha janglar bo`lib o`tgan.Ayniqsa, bu borada ustunlik Muhamamd Shayboniyxon (1500-1510), Ubaydullaxon (1533-1540), Abdullaxon II (1583-1598) lar davrida Buxoro xonligi tomonda bo`lib, uni nazorat qilish shayboniylar tasarrufida bo`lgan.Xattoki, Abdullaxon II Xuroson va unga tutash bo`lgan hudularni o`z mulkini kengayshtirish maqsadida bosib oladi va yaqqol ustunlikni hokimyatdan ketguniga qadar ushlab turadi.1589-yilda Mashhadning to`rt oylik qamaldan so`ng egallanishi bunga misoldir[10;165-b]. Abdullaxonning o`gli Abdulmo`min hukmronligi davrida (1598) bu hududlar ustidan nazoratni yana Eron safaviylari o`z qo`liga oladi.

XVII asr boshlarida yana ashtarxoniy hukmdorlar o`rtasida hokimyat uchun kurash kuchayadi. Bunga Boqi Muhammaddan so`ng taxtga o`tirgan Vali Muhamamddan mahaliy amir va beklarning norozi bo`lishi, ichki kurashlar avj olib ketishi sabab bo`ldi. Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror " asarida bu vaziyat to`liqroq muhokama qilinadi.Unga ko`ra , 1611-yilda amrlardan Nodirbek, Bek o`g`li, Muhammad Boqi qalmoq hamda Hoja Hoshimlar qatorida Yalangto`sh Bahodir ham o`z harbiy qo`shini bilan Imomqulixon tomonga o`tadi [8. 3-b]**.** Katta harbiy kuchga ega bo`lgan amrlarning Imomqulixon tomonga o`tishi, uning bu kurashda g`alabasini ta`minlagan asosiy omillardan biri bo`lib hisoblanadi.Natijada, mag`lubiyatga uchragan Vali Muhamamd Eron shohi Abbos I huzuriga qochib ketadi va undan hokimyatni qaytarib olish uchun yordam so`raydi.Ko`plab hollarda Buxoroning taxtdan qulagan hukmdorlari Eron shohlaridan yordam olgan, bu esa muxolif tomonlarning safaviylar bilan yashirincha yaxshi aloqada bo`lganligidan dalolat berishi mumkin. Shunda yuqorida aytib o`tilgan Eron uchun qulay vaziyat vujudga keladi. Bundan unumli foydalangan Abbos I o`zining harbiylaridan 80 ming askarini Imomqulixonga qarshi yuboradi. Bundan xabar topgan topgan Imomqulixon mag`lubiyatga uchrashini sezib, Balxga qochish uchun Qarshi shahriga borib o`rnashadi. Shunda, vaziyatni yaxshi tushungan Yalangto`shbiy nazoratni qo`lga oladi va xalqni birlashtirish choralarini ko`ra boshlaydi. Shukurbiy saroy bilan birgalikda Yalangto`shbiy barcha ulamo va amirlarni Imomqulixonni qo`llab-quvvalashga va Eron safaviylariga qarshi birgalikda kurashga da`vat etadi. Ular birgalikda harbiy harakatlarni amalga oshirish uchun Qarshida turgan Imomqulixonni Samarqandga olib kelishadi[2; c107]. Bundan ko`rinadiki, ular birgalikda harakat qilish uchun hukmdorning asosiy safda bo`lishini nazarda tutishgan lekin shunday bo`lsa ham, bunda asosiy harakatlantiruvchi kuch Yalangto`sh Bahodir bo`lib qolaveradi.

Xulosa. Yuqoridagi misollardan tushunish mumkinki, Buxoro xonligining XVII asrning birinchi yarmidagi ichki va tashqi siyosati Bahodir Yalangto`sh faoliyati bilan tilga olinadi. Shu sababli ham, bu tarixiy shaxs faoliyatini personografik jixatdan to`liq yoritib, mazkur davrdagi Buxoro tarixi bilan birgalikda tadqiq qilinishi bugungi kun tarixchilari uchun zarur bo`lgan xulosalarni berishi mumkin.Bunday tarixiy shaxslar siymosini batafsil o`rganib, bugungi kun yoshlariga o`rnak sifatida ko`rsatish, ularga o`zgacha o`z ajdodlaridan faxrlanish tuyg`usini berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар.- Тошкент: "Ўқитувчи",1994.

2. Ахмедов Б. История Балха.(XVI- первая половина XVIII в).-Ташкент: "Фан",1982.

3. Азамат Зиё. Ялангтўш Баҳодир – илм-фан ва маданият ҳомийси// Янги Ўзбекистон. 2021 йил , 3-март.44-сон.

4. Каттаев К. Амир Ялангтўш Баҳодир. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий хаётида тутган ўрни" мавзусидаги халқаро конференция материаллари, Самарқанд,2019.

5. Мукимов З. Баҳодир Ялангтўшнинг давлвт фаолиятининг ўрганилишига доир. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий хаётида тутган ўрни" мавзусидаги халқаро конференция материаллари, Самарқанд,2019.

UO'K 9(575.1)02(575.1.) (09)

XIVA XONLIGIDA SHAHARLARNING IQTISODIY, MADANIY VA MA'NAVIY MARKAZ SIFATIDAGI O'RNI

M.M.Matyakubova, t.f.n., dots., Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Xiva xonligi shaharlari qadimdan iqtisodiy, madaniy va madaniy markaz hisoblangan. Ayniqsa, Xiva shahri yuzaga kelganidan beri uning tarixi muhim siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hodisalarga boy butun Xorazm tarixi bilan chambarchas bog'liq. Uning me'moriy obidalari, minoralari davlat qudratidan, madrasalari ilm rivojidan dalil bo'lgan, avliyolar, minglagan shayxlar, so'fiy – donishmandlar, polvonlar, hukmdorlaru sayidlarning vatani, tarixdan guvoh, ko'hna shahardir. Ushbu maqolada Xiva xonligida shaharlarning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy markaz sifatidagi o'rni tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Xiva xonligi, iqtisodiy hayot, madaniy markaz, bozorlar, ichki va tashqi savdo, ma'naviy markaz.*

Аннотация. *Города Хивинского ханства издавна считались экономическими, культурными и культурными центрами. Особенно со времени возникновения города Хива, его история тесно связана с историей всего Хорезма, богатой важными политическими, социально-экономическими и культурными событиями. Его архитектурные памятники, минареты свидетельствуют о могуществе государства, его медресе - о развитии науки, это родина святых, тысяч шейхов, суфиев - мудрецов, борцов, правителей и сейидов, свидетель истории, древний город. В этой статье анализируется роль городов Хивинского ханства как экономических, культурных и духовных центров.*

Ключевые слова: *Хивинское ханство, экономическая жизнь, культурный центр, рынки, внутренняя и внешняя торговля, духовный центр.*

Abstract. *The cities of the Khiva Khanate have long been considered economic, cultural and cultural centers. Especially since the emergence of the city of Khiva, its history is closely connected with the history of the entire Khorezm, rich in important political, socio-economic and cultural events. Its architectural monuments, minarets are evidence of the power of the state, its madrasas are evidence of the development of science, it is the homeland of saints, thousands of sheikhs, Sufi - wise men, wrestlers, rulers and sayids, a witness to history, an ancient city. This article analyzes the role of cities in the Khiva Khanate as economic, cultural and spiritual centers.*

Keywords: *Khiva Khanate, economic life, cultural center, markets, internal and external trade, spiritual center.*

1.Dolzarbligi. Markaziy Osiyodagi eng diqqatga sazovor shaharlardan biri Xiva Amudaryoning chap sohilida, O'zbekistonning hozirgi Xorazm viloyatining janubida joylashgan. Bu mintaqada butunligicha saqlanib qolgan yagona nodir obida shahardir. Xiva shahrida bo'lgan garmaniyalik sayyoh Georg Btsman shunday deb yozib qoldirgan: "Dunyodagi ko'p mamlakatlarda bo'ldim. Ammo, Xivaday shahri azimni ilk bora ko'rib, tomosha qilib, hayratimni yashira olmay turibman. Qarang, bir shaharda ikki qal'a – Ichonqal'a, Deshonqal'a. Ulardagi asriy obidalar salobati, ko'rki, chiroyi xotiramizda bir umr muhrlanib qoladi" [1].

Tarixan XVI asr ikkinchi yarmidan Xiva Xorazmning poytaxtiga aylandi. Natijada shahar yanada rivoj topib, XVII asr boshlariga kelib shahar hayoti tomonlama jonlandi. Shahar obodonlashtirildi, savdo-sotiq rivoj topdi. Ammo, tarix silsilasi sabab, 1740 yil Nodirshoh Xorazmga yurish qildi va Xiva qamal qilinib, shahar xarobaga aylandi. Lekin poytaxt yana o'zini qayta tiklab olishga muvaffaq bo'ldi. XVIII - XIX asrlarda madaniyat va san'at yuksak darajada taraqqiy etdi. Bu davr qudrati va go'zalligi muhtasham inshootlarda, saroylarda, machit madrasa binolarida, ularga chizilgan naqshlarda, ganchkorlikda o'z aksini topdi [2] .

2.Tahlillar va natijalar: Xonlikda asosiy shahar poytaxt Xiva hisoblanadi. XVIII asrda Nazimov tomonidan chizilgan Xiva shahrining xaritasi Xiva shahri tarixi va arxitekturasini o'rganishda ahamiyatlidir[3]. K.Xudoyberganov Nazimovning xaritasi O'rta Osiyo shaharlarining shu bugungacha topilgan xaritalar ichida eng qadimgisi sanaladi va Xiva shahrining arxitektura,

qurilish tarixini o‘rganishda muhim manbadir, deb ko‘rsatadi[1]. Nazimov xaritasida ko‘rsatilishicha, qal’a tashqi tomondan suvli xandaq bilan o‘rab olingan. Sharqiy tomondagi yagona maxsus ko‘tarma ko‘prik va darvoza bo‘lib, Muhammad Amin inoq, Eltuzarxon va Olloqulixon davrida qayta ta’mirlangan. Hukmdorning qarorgohi shaharning g‘arbiy chekkasida joylashgan. 1766-1767 yillarda shaharning yiqilib xarob bo‘lgan qal’asi Muhammad Amin inoq tomonidan qayta tiklanishi bilan bir vaqtda darvozalar soni ham to‘rttaga yetgan. Bu davrda sharqiy darvozadan tashqari, yana shimoliy va g‘arbiy darvozalar quriladi. .....

Ichon Qal’a shaharning o‘ziga xos, yaxlit me’morchilik inshooti bo‘lib, baland paxsa devor bilan o‘rab olingan. Unda to‘rtta : Ota darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza va Bog‘cha darvoza bo‘lib, to‘rt tomonga qarab qurilgan. Dishan qal’a Ichan qal’a atrofida vujudga kelgan. Bu yerda kambag‘allar, hunarmandlar va mayda savdogarlar yashagan. Muhammad Rahimxon qo‘shni hududlarda markaziy Xiva hokimiyatini tan oldirish hisobiga barcha chegara hududlarni, Olloqulixon esa 1842–1843 yillarda poytaxtni mudofaa devori va darvozalari bilan mustahkamlaydi. 1858 yillarda Amudaryoning bir nechta o‘tish yo‘llari baland to‘siqlar bilan to‘siladi. Bundan tashqari, aholi hududlarining deyarli barchasi o‘z mudofaa inshootlariga ega bo‘ladi[4]. Ogahiy ta’kidlaganidek, ko‘pgina bunyodkorlik ishlari sababchisi Olloqulixonning yana bir ulug‘ ishlardan biri 1842 yili Xiva shahri atrofini devor bilan o‘rab olingani bo‘ldi[5]. Bu qal’a avvalgi qal’ani tashqaridan o‘rab olgani uchun eski qal’a ichkarida qoladi va xivaliklar tili bilan “Ichon - Qal’a” nomini oladi. Ikki qal’a devori o‘rtasidagi shahar esa “Deshon Qal’a” (tashqari qal’a) nomi bilan ataladi [1]. Qal’a qurilishi arafasida Olloqulixon uch yillik begor e’lon qiladi. Bu begor mahalliy shevada “Beshilla” deb nomlanadi va aniq hisobga ko‘ra 36 kunga teng keladi[1]. Deshan qal’a devoriga ishlatilgan loy shahardan 2 kiolmetr shimol tomonida joylashgan hozirdi “G‘ovuk ko‘l” deb ataladigan maydondan olingan[6]. Chunki bu yerning tuprog‘i sifatliligi, qattiqligi bilan mashhur bo‘lib, hatto, kulollar ham xom ashyoni shu yerdan olishgani to‘g‘risida ma’lumotlar bor.

Deshan qal’aning 10 ta darvozasi bo‘lib, ular quyidagi nomlar bilan atalgan: 1. Hazorasp darvozasi, 2. Pishkanik darvozasi, 3. Angariq darvozasi, 4. Shixlar darvozasi, 5. Tozabog‘ darvozasi, 6. Shohimardon darvozasi, 7. Dashoyoq darvozasi, 8. Qo‘sha darvoza, 9. Gadoylar darvozasi, 10. Gandimiyon darvozasi. Ichon qal’ada 33 mahalla, Dishan qal’ada 34 mahalla mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘z nomiga ega edi. Mahalla nomlari shu yerda yashovchi aholining asosiy mashg‘ulotidan kelib chiqib nomlangan. Xivada XIX asr o‘rtalarida 20 000 kishi yashagan. Biroq ruslar istilosidan so‘ng, aholi ko‘chib ketganligi uchun 1924 yilga kelib 18145 kishiga tushib qolgan[7].

Xiva shahridan tashqari xonlikda yigirmadan ortiq shaharlar mavjud edi. G.I.Danilevskiy xonlikning Anbar, Bog‘ot, Bo‘ldimsiz, Gurlan, Chig‘atoy, Ilyali, Iglan (O‘g‘lon), G‘azovot, qipchoq, Xitoy, Qilich Niyozboy, Qo‘shko‘pir, Qo‘ng‘irot, Qo‘hna Urganch, Kat, Mang‘it, Yangi Urganch, pitnak, Porsu, Tashhovuz, Xiva, Xonqa, Xo‘ja eli, Shohobod, Hazorsp kabi 25 ta shaharlari to‘g‘risida yozadi[2]. Ularning poytaxt Xivadan qaysi tomonda qancha masofada joylashgani, shaharda qancha rasta do‘konlariyu, xunarmandchilik ustaxonalari mavjud ekanligi, aholisining soni va kasbi kori, shahar hokimining ismi sharifi to‘g‘risida aniq ma’lumot beradi. Shuningdek 60 ta katta qishloqlar haqida ham ma’lumotlar keltiradi [5].

Xiva xonligi shaharlari siyosiy, iqtisodiy, balki jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari vakillari – oliy hukmdor – xon, hukmron sulola namoyandalari, turli toifadagi amaldorlar, harbiylar, yer egalari va ruhoniylar, hunarmandlar va savdo ahli, shahar kambag‘allari, qullar va boshqalar istiqomat qilgan va faoliyat ko‘rsatgan markazlar edi. Xonlik ijtimoiy tuzumi ruhoniylar (ikki toifa: birinchi toifa – davlat xizmatida faoliyat ko‘rsatuvchi ruhoniylar, ya’ni shayx ul-islom, qozi, rais, mufti, mutavali, mudarris, imom; ikkinchi toifa – diniy ruhoniylar, ya’ni darvesh, shayx, eshon va boshq.), hunarmandlar yirik, o‘rta va kichik yer egalari (dehqonlar); chorvadorlar va ijarachi yersiz dehqon (bevatan, batrak, koranda, chorikor, vaqfchi yoki vaqfkor)lardan tashkil topgan.

Shahar o‘z navbatida siyosiy markaz ham edi. Shahar ichkarisida bir necha ma’muriy binolar – Ko‘hna Ark, Jomye masjidi, Muhammad Amin madrasalari qad ko‘tardi. Xonning saroyi, qal’a, qo‘shin qismlari, qurol-aslaha, o‘q-dori omborlari Arkda joylashgan. Xon arki shaharning eng qadimiy qismi bo‘lib, XVII asrda Ichon qal’aning butun g‘arbiy devorini o‘ragan. Bu yerda xon devonxonasi, ko‘rinishxona, xon harami, yozgi va qishki masjidlar hamda zarbxona joylashgan edi

[2]. Shahar boshqaruvida shaharni hokimning noibi, yuzboshi va katxudo idora qilardi. Qishloqlarda barcha ishlar mirob va imomlar qo‘lida bo‘lib, viloyatlarning hokimlari to‘la huquqli hukmdorlik huquqidan foydalanardilar.

Oliy tabaqa vakillari va hukmron doiraga mansub shaxslarning uylari, odatda shaharning markaziy qismida joylashar edi. Aholining katta qismi savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi - savdogarlardan iborat edi. Ularning shahar hayoti va iqtisodiyotida o‘ziga xos o‘rni bo‘lgan.

Oliy tabaqa yoki “oliynasab” guruhlar, ruhoniylar, savdogarlar va boshqa qatlamlar jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lgan[14]. Ruhoniylar tabaqasining ijtimoiy-siyosiy, diniy-ahloqiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotda tutgan muhim o‘rniga muvofiq, hukumat tomonidan bu tabaqaga keng ijtimoiy huquq, imtiyoz va yengilliklar berilgan. Bularning jumlasiga turli xil vaqf mulklaridan tushgan daromad hamda alohida naqd va natura hisobidagi moddiy ta’minotlar kirgan [8]. Xonlikda diniy tashkilotlarning asosiy vazifasi mamlakatda shariat normalarini ishlab chiqish va u orqali huquqiy munosabatlarni tartibga solish bo‘lgan. Huquq normalarini amalga oshirish va qo‘llashda musulmon huquqi manbalari, ya’ni Qur’on, sunna, ijmo va qiyosga tayangan.

XVI - XIX asrlarda savdoning ichki tranzit va tashqi shakllari turli markazlari ya’ni shaharlar iqtisodiy hayotda muhim ahamiyatga ega. Savdoning rivojlanishi natijasida ayrim shaharlar Sharq tijorat dunyosining yirik markazlariga aylandi va ularning iqtisodiy imkoniyatlari kengayib bordi.

Ichki savdoning rivoji sabab, Xiva, Yangi Urganch, Vazir shaharlarining mavqei oshib bordi. Ko‘pgina manbalarda Xiva xonligida yirik ichki, tashqi va tranzit savdo markazlari sifatida Xiva, Xonqa, Hazorasp, Yangi Urganch, Gurlan kabi shaharlarning nomlari keltiriladi[9].

XVIII asr mualliflari Xiva xonligining “Besh qal’a mamlakati” deb nomlaydilar[10]. Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat va Shohobod shaharlari umumiy nom bilan “Besh shahar” deb atalgan. Bu beshta shahar xonlikning eng katta va muhim iqtisodiy - madaniy markaz bo‘lsada, xonlikning boshqa shaharlari Qiyot, Gurlan, Vazir va G‘oziobod shaharlari ham yirik iqtisodiyot markazlari sifatida mashhur bo‘lgan[11]. Mamlakat hududida Hazorasp, Xiva Gurlan, Yangi Urganch, Shohobod kabi yirik markazlar bilan bir qatorda kichik shaharlar ham mavjud edi. G.I.Danilevskiy xonlikdagi hunarmandchilik va savdo markazlaridan 29 ta shaharni sanab o‘tgan[7]. O.Mutalov monografiyasida G.I.Danilevskiy xonlikdagi 25 ta shahar to‘g‘risida ma’lumot bergani to‘g‘risida eslatib o‘tadi. A.Vamberi shaharlarning soni 32 ta deb ko‘rsatadi.

O.Mutalovning “Riyoz ud-davla” qo‘lyozma asari asosida yozilgan Olloqulixon tarixiga bag‘ishlangan tadqiqot ishida Xiva xonligi va qo‘shni mamlakatlar hududidagi shahar-qal’alardan 80 tasini alfavit bo‘yicha tartib qiladi[5]. Shahar nomlari: Abdolobod, Astrabod, Balx, Bovard, Bog‘isangon, Bujnurd qo‘rg‘oni, Buxoro shahri, Bo‘ldimsoz, Galgan, Guryon qo‘rg‘oni, Darangar qo‘rg‘oni, Darigiz qo‘rg‘oni, Dastgir, Dehnav, Doyaxotun raboti, Kanafas hisori, Kanaqush, Ko‘hna Urganch, Lutfobod, Marv,hmudobod, Moruchoq, Muzdaron, Munirobod, Muhayyin, Nishobur, Omuv, Oriz, Oqdarband hisori, Ohal, Peterburg, Rubah shahri, Ro‘zaobod, Sadvar, Sayyod, Saraxs yurti, Tabriz, Tajan yurti, Tehron, Tiflis, Toshqal’a, Toshhovuz, Turbat, Tus shahri, Ulang, Umg‘on, O‘rinburg, Farhod, Pitnak, Xivaq, Xisrav, Xo‘jand yurti, Xo‘jaeli, Xo‘tan, chekas, Chilg‘on, Chin shahri, Choltut, Chorjo‘y, Shahrinav, Shibirg‘on, Shohobod, Eljik, Kandahor, Qizilrabot, Qobul, Qorako‘l, Qorri, Hiri, Hiroj, Hirot, Hojakanafsi, Hojaniyozbiy, Hoja. Shahar hunarmandlari va savdogarlari boshqa mamlakatlardan o‘zlari olib borgan mahsulotni, ko‘p hollarda qo‘y, sigir, ot kabi hayvonlarga, teriga, dag‘al jun matolar, namat kabilarga almashtirganlar yoki ularni sotib olganlar. Bunday qishloq xo‘jaligi va hunarmandlar mahsulotlarining tovar aylanmasi xonlikning barcha hududlarida aholi iqtisodiy turmush tarzining rivojiga olib kelgan va hunarmandchilik mahsulotlarining xonlikning barcha hududi bo‘ylab tarqalishini ta’minlagan[11]. Shahardagi ichki savdoda shahar va uning atrofidagi axoli, qishloqlar va boshqa shaharlar axli bilan birga ko‘chmanchi axoli savdogarlari xam faol ishtirok etganlar. Xiva bozorlarida qoraqalpoq, turkman, qozoq va qirg‘izlarning chorvachilik maxsulotlari bilan savdo qilayotganligini ko‘rish mumkin edi. O‘troq axoli o‘zi yetishtirgan qishloq ho‘jalik va hunarmandchilik maxsulotlarini chorvachilik maxsulotlariga ayriboshlashardi.

Ichki savdo bilan aholining katta qismi shug‘ullangan. Shaharda hunarmandchilik va savdoning taraqqiy etishi badavlat kishilarni, shahar amaldorlarining ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa tashqi

savdo aloqalarida boy savdogarlar, davlat amaldorlari ko‘proq shug‘ullanganlar. Shahar savdogarlarini faoliyatiga ko‘ra tujjorlar, ular asosan karvon savdosi bilan shug‘ullanuvchilar, shahar savdo ahli orasida ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi boy savdogarlar “savdogarlar” deb atalgan toifalarga bo‘lingan. Bu toifadagi savdogarlar odatda, katta shaharlarda yashaganlar [12]. Boy savdogarlar chakana savdo bilan shug‘ullanmaganlar. Ular shahar karvonsaroylarida turib mollarni katta qismlarda sotganlar. L.Kostenkoning yozishicha, Xiva xonligining Yangi Urganch shahrida “xonlikning Rossiya, Eron va Buxoro bilan ulgurji savdo olib boruvchi boy savdogarlari” yashagan. Ba’zida hukmron tabaqa vakillari boy savdogarlardan qarz ham olib turganlar, shuning uchun savdogarlar pullarini sir tutar edilar.

Xiva xonligida savdo va iqtisodiy munosabatlar chuqur islomiy tamoyillarga asoslangan. Savdo-sotiq jarayonida narx navo va tosh tarozilarning islomiy qoidalarga to‘g‘ri kelishi va iqtisodiy adolatni ta’minlashga xizmat qilishi lozim edi. Islomda to‘g‘ri o‘lchash, adolatli narx belgilash va savdoda shafqatsiz yoki firibgarlikdan saqlanish ta’minlangan. Qur’onda va Hadislarda tovar sotishda aldovdan, soxta o‘lchovlardan, firibgarlikdan va zulmdan saqlanish lozimligi ta’kidlangan. Savdo-sotiqda halollik va adolatni saqlash, islomiy iqtisodiyotning asosiy tamoyili bo‘lib, bu tamoyil Xiva xonligida ham mustahkam o‘rnatilgan edi. Qur’onning Al-Baqara surasi 282- oyatida shunday deyiladi: “O‘lchovda va o‘lchovda adolatni ta’minlang”. Bu oyat, savdo-sotiqda to‘g‘ri o‘lchovlardan foydalanish, xiyonat qilishdan saqlanish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Sahih hadislarda “Kimki o‘z narxini noto‘g‘ri belgilasa yoki o‘lchovda aldov qilsa, u odam Allohning rahmatidan mahrum bo‘ladi” – deb yozilgan. Bu hadisda savdo jarayonidagi adolatli narx belgilash va to‘g‘ri o‘lchov usullaridan foydalanishning ahamiyati ta’kidlangan.

Shahar aholisining katta qismini asosiy ishlab chiqaruvchi kuch hunarmandlar tashkil etgan. Hunarmandlar tomonidan turli - tuman mahsulotlar – kundalik turmushda ishlatiladigan buyumlardan tortib, qimmatbaho mahsulotlar va uzoq yurtlarga olib ketiladigan mollargacha ishlab chiqarilar edi [12]. Shaharlarning madaniy hayotida ham ular faol ishtirok qilganlar. Xivaning iqtisodiy turmushida to‘qimachilik, pillachilik, gilamdo‘zlik muhim o‘rin tutgan. Bu yerda ipak va nimshoyi gazlamalar ham to‘qilardi. Gilamdo‘zlik g‘oyat rivojlangan. Mahalliy ustalarning yuqori sifatli gilami va ayniqsa Xivaga keltirilgan turkman gilamdo‘zlarining mahsulotlari boshqa yurtlarga olib borib sotilar, ko‘p joylarda ma’qul va manzur bo‘lardi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Xivada qo‘l hunari ya’ni, mayda hunarmandchilik taraqqiy etdi. Ayniqsa, misgarlik, ganch va yog‘och o‘ymakorligi, binokorlik, po‘stindo‘zlik, gilamchilik, cho‘girmado‘zlik san’ati rivojlana boshladi [13].

Shahar aholisining katta qismini kambag‘allar, faqirlar, miskinlar va gadoylar deb ataluvchi kishilar tashkil qilgan. Shaharlarda hech nimasi yo‘q, sadaqa bilan kun ko‘ruvchi kishilar - gadoylar ham bo‘lib, Abulg‘ozi “gadoylik, saqolik” bilan shug‘ullangan kimsalarni o‘z asarida eslatib o‘tadi. Shariat hukmiga ko‘ra, urushda o‘lja olingan jamiki narsalarning beshdan to‘rt hissasi jangchilarga, beshdan bir hissasi Alloh taoloning nomiga bag‘ishlanib, parvardigorning Yerdagi noibi bo‘lmish Janob Rasulullohning avlodlari va qarindosh - urug‘i, keyin din yo‘lida madadkor bo‘lgan hesh-aqrobalariga, keyin yetimlarga, keyin miskinlarga, so‘ng musofirlarga taqsim qilingan. Qullar ham shahar hayotida o‘ziga xos o‘rin tutgan. Shahar xo‘jaligida og‘ir ishlarni bajarishda ular mehnatidan foydalanilgan.

Shaharlar nafaqat iqtisodiy balki, madaniy hayot rivojida muhim ahamiyatga ega edi. XVI-XIX asrlarda turli tarixiy voqeliklar bo‘lishiga qaramasdan shaharlarda madaniy va ma’naviy hayot rivojlanishda davom etdi, shaharlar ilm fan, ma’rifat markazi sifatida ahamiyatini saqlab qoldi.

Xivada faoliyat yuritgan ilm o‘choqlari, maktab, madrasalar ilm marifat tarqatishda davom etdi. Maktablarda ta’lim oluvchilar o‘qish, yozish va Qur’on asoslaridan saboq olgan. Xiva shahridan tashqari xonlikning boshqa shaharlarida ham ta’lim jarayoniga e’tibor katta bo‘lgan. Jumladan, Gurlanda 2 maktab, Shohobodda 2 maktab, Hazoraspda 8 maktab va boshqa shaharlarida ham shunday maktablar mavjud edi [7]

XIX asrda Xorazm hududida 1500 ga yaqin boshlang‘ich maktab va 103 ta madrasa mavjud bo‘lganligi diniy tashkilotlarning ma’naviy sohalarda ham e’tiborsiz bo‘lmaganligidan dalolat beradi. Xiva shahrining o‘zida 22 ta madrasa bor edi [11]. 1909 yilda Xiva shahrida 1500 maktab bo‘lib, ularda 45 000 bola tahsil olgan [2]. Maktabga bolalar 7-8 yoshilarida, yilning istalgan faslida qabul

qilingan. Yangi kelgan bola suhbatdan o'tkazilib, so'ng nazorat qilish va tahsil olish uchun xalfalarga topshirilgan. Maktablar o'ziga xos dastur asosida ish olib borgan. Maktabni tugatgach, madrasada shaharliklar, qishloq aholisi ham kelib o'qishgan. Shaharning ilm-fan va ma'rifat markazi sifatidagi ahamiyati shaharlarda bino etilgan madrasa va masjidlarning ko'pligidan ham anglash mumkin. Xiva xonligi shaharlarida madrasalar, masjidlar qurilish ishiga jamiyatning turli ijtimoiy qatlam vakillari - hukmron sulola namoyandalari, amaldorlar, ruhoniylar, savdogarlar va boshqalar katta hissa qo'shganlar. Madrasalarda dunyoviy bilimlar deyarli o'qitilmagan bo'lsa-da unda aniq fanlardan riyoziyot, tabiiy fanlardan nujum ilmi, geografiya, ijtimoiy fanlardan tarix, falsafa, mantiq ilmlari, gumanitar fanlardan arab tili, bayon o'tilgan. Bundan tashqari she'r va husnixatdan ta'lim berilgan, Sa'diy, Hofiz, Bedil, Jaloliddin Rumiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq ma'naviyatining ilg'or vakillarining asarlari o'rgatilgan. Aholining diniy-ma'rifiy qiyofasini belgilash va shakllantirishda masjidlar qurilishi va ularning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shaharlarda eng ko'p odam tashrif buyuradigan joy masjidlar hisoblangan. Xivada yuzdan ortiq masjidlar bo'lgan va va ularda besh vaqt namoz o'qilgan. Shulardan o'ttiztasi katta masjid hisoblanib, ularda juma namozlari o'qilgan.

Shahar aholisi hayotida madaniy hordik chiqarish uchun jamoat joylari mavjud edi. Yirik madaniyat markazlari bo'lgan shaharlarda bayram, muhim tantanlar, hayit bayramlari katta tayyorgarlik va ko'tarinki ruhda o'tgan. Ayniqsa Ramazon hayiti va Qurbon hayitiga aholi katta tayyorgarlik ko'rishgan.

Xulosa: Xiva xonligi shaharlarida turli madaniyat sohalari, madaniy turmush tarzi va shahar ichki madaniyati mavjud bo'lgan yirik markazlar bo'lib, ularning taraqqiyotiga shahar jamiyatining turli ijtimoiy qatlamlari vakillari baholi qudrat hissa qo'shganlar. Shahar aholisi madaniy hayotning turli sohalari bo'yicha, ilgarigi davrlarda bo'lgani kabi, Sharqning yirik madaniyat markazi sifatidagi shuhratini saqlab qoliga muvaffaq bo'ldilar va uni har tomonilama mustahkamladilar.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Xudoyberganov K. Xiva dunyodagi eng ko'hna qal'a. - Toshkent, 2012. -B. 6.

2.Abdurasulov A. Xiva (tarixiy – etnografik ocherklar). – Toshkent: O'zbekiston, 1997. -B.11.

3.Ханыков Я. В. Поездки Орека в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 годах Гладишевиым и Муравинным. СПБ. 1851, -Б.1.

4.Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент, 1990. –Б. 155–156; Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. 5-жилд. –Б. 12–201; Камалов С. К. Каракалпаки в XVIII–XIX веках. Ташкент: Фан, 1968. – С. 161; Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 305; Описание действий Туркестанского отряда в Хивинскую экспедицию 1873 года. – Т., 1882. – С. 192; Бобожонов П., Отаев А. Хива тарихига бир назар. – Урганч: Хоразм, 1997. – Б.13.

5.Mutalov O. Xiva xonligi Olloqulixon davrida (1825-1842). Tarix. fan. nom. diss. Toshkent, 2003. -B.60.

6.Hozirgi kunda Prezident topshirig'iga ko'ra, G'ovuk ko'l atrofi obodonlashtirilib, qadimiy shahar qiyofasini eslatuvchi "Arda Xiva" majmuasi bunyod etildi.

7. Данилевский Г. Описанне Хивннского ханства. // Записки русского географического обшества. -М. 1851. Кн. V.

8.История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.). – Ташкент: Фан, 2012. – С. 188.

9.Allayeva N.Xiva xonligining diplomatiyasi va savdo aloqalari (XVI-XIX asrlar). - Toshkent: Akademnashr, 2019. -B.357.

10.Munis va Ogahiy muallifligida yozilgan "Firdavs ul-iqbol" asarida Xiva xonligini "Besh qal'a mamlakati" nomi bilan 1743 yildan qayd etiladi.

11.To'rayeva S. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning 70-yillarida Xiva xonligi hunarmandchilik tarixi. - Toshkent: Yangi nashr, 2018. -B.45.

12.Agzamova G. O'zbekiston shaharlari (XVI-XIX asr o'rtalarida). - Toshkent, 2017. -B. 181.

13.Rahim D. va Matrasul Sh. Feruz shoh va shoir qismati. – Тошкент: Adabiyot va san'at, 1991.- B.94.

14.Xudoyqulov T. D. Markaziy Osiyo davlatlarining boshqaruv tarixi (Markaziy, mahalliy, harbiy, diniy hokimiyat XVIII -XX asr boshlari). - Toshkent: O'zkitobsavdonashriyoti, 2023, -B.140

UO'K 94(575.1)

SURXONDARYODA BAXSHICHILIK SAN'ATINING SHAKLLANISH JARAYONI

N.X.Nasriddinova, o'qituvchi, PhD, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Surxondaryoda baxshichilik san'atining shakllanishi hamda sovet davrida ushbu san'atning ahvoli, baxshi shoirlarning sohani rivojlantirishdagi faoliyati hamda voha baxshilarining repertuarlari xususida aniq manbalar asosida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Voha, baxshi, do'mbira, san'at, terma, doston, ustoz, shogird, maktab, an'ana.*

Аннотация. *В статье представлены достоверные сведения о формировании искусства бахши в Сурхандарье и состоянии этого искусства в советский период, о деятельности поэтов-бахши в развитии данного направления, а также о репертуарах бахши оазиса.*

Ключевые слова: *оазис, бахши, барабан, искусство, собрание, эпос, учитель, студент, школа, традиция.*

Abstract. *This article provides information based on accurate sources about the formation of the art of bakhshi in Surkhandarya and the state of this art during the Soviet period, the activities of bakhshi poets in the development of the field, and the repertoires of oasis bakhshi.*

Keywords: *Oasis, bakhshi, drum, art, collection, epic, teacher, student, school, tradition.*

Qadim Turon zamini azaldan xalq og'zaki ijodi yuksak darajada ravnaq topgan makonlardan biri sanaladi. Baxshichilik xalqimizning liro-epik janrdagi eng qadimiy san'at turlaridan biri sanaladi. O'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Nurota, Narpay, Qamay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Chiroqchi kabi dostonchilik markazlari baxshichilik maktablari sifatida e'tirof etiladi [1]. Ana shu dostonchilik maktablari orasida Sherobod dostonchilik maktabining o'ziga xos o'rni bor.

Sherobod dostonchilik maktabining ilk asoslari qachon bunyod etilganligi hanuzga qadar bahsli masalalardan biri sanaladi. Chunki, vohaning baxshi shoirlari haqida birorta tarixiy manbada ma'lumot qayd etilmagan. Biroq, baxshichilikning ilk ildizlari qariyib ming yillardan ko'proq davrni o'z ichiga oladi. Fikrimizning isboti sifatida aytish mumkinki, baxshi atamasi mo'g'ulcha so'z bo'lib, ma'rifatchi, ustoz degan ma'nolarni beradi, bundan tashqari qadimgi sanskrit tilida *bhikshu* so'zi qalandar yoki darveshlarga nisbatan qo'llanilganligini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu san'at turining shakllanish tarixi yanada qadimiylashib boradi [2]. Har holda Sherobod dostonchilik maktabi tarixi ham bir necha yuz yillarni qamrab oladi. Hozirgi kunga qadar yetib kelgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Sherobod dostonchilik maktabining shakllanishini Sherna baxshi, ya'ni Shernazar Berdinazar o'g'lining nomi bilan bog'lanishini bilib olamiz.

Ammo Sherna baxshining ustozi Qosim ko'r baxshi haqida nihoyatda kam ma'lumotga egamiz. Qolaversa Qosim ko'r baxshi Bobo baxshidan ta'lim olgan. Sherobod dostonchilik maktabi o'z repertuari, baxshilarning ijro uslubi, dostonlarining turlari, doston syujetlarining xilma-xilligi bilan yurtimizdagi boshqa dostonchilik maktablaridan tub farq qiladi. Sherobod dostonchilik maktabining ijro uslubi bo'g'iq ovozga asoslangan bo'lib, bu uslub boshqa dostonchilik maktablarida ko'zga tashlanmaydi. Sherobod dostonchilik maktabining geografik diapozoni ancha keng bo'lib, mazkur maktab Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining bir necha tumanlarini bundan tashqari Janubiy Tojikiston va Janubi-g'arbiy Turkmaniston hududlari, shuningdek Shimoliy Afg'onistonning o'zbeklar yashaydigan tumanlarini o'z ichiga oladi. [3]

Sherobod dostonchilik maktabida uchraydigan dostonlardan "Oltin qovoq", "Malla savdogar", "Zayidqul", "Ollonazar Olchinbek", "Oychinor", "Kelinoy", "Xubrsana", "Toshbosar" kabi dostonlar boshqa dostonchilik maktablarining repetuarida ko'zga tashlanmaydi [4] Sherobod dostonchilik maktabiga birlashga baxshi shoirlar: "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Hasanxon", "Avazxon", "Nurali", "Yunuspari", "Misqol pari" kabi dostonlarni o'ziga xos uslubda kuylagan.

Surxon vohasidagi dostonchilik an'analari haqidagi ilk ma'lumotlar rus oriyentalisti Ye.F.Kalning kundaliklarida qayd etilgan. U 1890 yilda Termiz yaqinidagi Solihobod qishlog'iga kelib to'xtaganda qo'ng'irot urug'ining oyinli dahasiga mansub bo'lgan Omonnazar baxshi unga to'xtovsiz uch soat davomida do'mbira jo'rligida doston kuylab bergan. Keyinchalik Ye.F.Kalning

kundaliklarini o‘rgangan folklorshunos olim Hodi Zarif Omonnazar baxshi kuylagan doston “Alpmish” dostoni bo‘lishi mumkin deb qayd etgan[5].

Sherobod dostonchilik maktabidan Sherna baxshi, Mardonoqul Avliyoqul o‘g‘li, Umir Safar o‘g‘li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o‘g‘li, Xoliyor baxshi, Mamarayim baxshi, Yusuf O‘tagan o‘g‘li, Eshqobil baxshi, Bo‘riboy Ahmad o‘g‘li, Ermamat baxshi Badal o‘g‘li, Ulash baxshi G‘ozi o‘g‘li, Boyqul baxshi, Boymurot baxshi, Nazar baxshi, Eson baxshi, Jo‘ra baxshi va boshqa yana o‘nlab zabardast baxshi o‘shoirlar yetishib chiqqan.

Shernazar (Sherna) baxshi Sherobod dostonchilik maktabining asoschilaridan biri sanaladi. Sherna Qosim yuz boshi, Alim yuzboshi, Xolmurod Qosim o‘g‘li kabi baxshilar bilan bir paytda ijod qilgan. Sherna 17 yoshida Sherobod begining nomdor baxshisi Niyozali jebachi bilan aytishuvda g‘olib chiqqan [6]. Sherna baxshi G‘uzor, Boysun, Sherobod, Denov va Hisor bekliklarida ancha nom qozongan. Sherna baxshining nomi bilan bog‘liq ellikdan ortiq dostonlar mavjud bo‘lib shundan 20 dan ortiq doston yozib olingan. Shoto‘ra yuzboshi (1887-1947) ham Sherobod dostonchilik maktabining tipik vakillaridan biri sanaladi.

Shoto‘ra baxshi baxshichilik sirlarini otasi Boyqul baxshidan o‘rgangan. Boyqul baxshi ham o‘z davrining nomdor baxshilaridan biri bo‘lib, hatto amir Muzaffar huzurida ham bir necha marta doston kuylab baxshichilikka vasiqa olgan [7].

Shoto‘ra baxshi “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub qirqqa yaqin dostonlarni alohida mahorat bilan kuylagan. Bundan tashqari “Yodgor”, “Shodmonbek”, “Savdogar” dostonlari aynan Shoto‘ra baxshiga tegishli ekanligi folklorshunos olimlar tomonidan tan olingan. Sherobod dostonchilik maktabining yetuk baxshilaridan yana biri Umir baxshi Safar o‘g‘lidir. Umir baxshi qariyib 20 dan ziyod doston yuzdan ziyod termalarni yoddan bilgan. “Suluvxon” va “Oyparcha”dostonlari Umir baxshiga tegishli dostonlar sifatida e’tirof etiladi [8]Sherobod dostonchilik maktabida unutilmas iz qoldirgan va ushbu maktabning yangi o‘zanini yarata olgan baxshilardan biri Mardonoqul baxshi Avliyoqul o‘g‘lidir (1889-1975) Mardonoqul baxshi Sherna baxshining ham kuyovi ham shogirdi. Mardonoqul baxshi “Alpomish” dostonini yangi syujetlar bilan boyitgan. Jumladan, Alpomishning qolmoq shohining qizi Tovkaoyim bilan bog‘liq munosabatlari aynan Mardonoqul baxshi repertuarida jamlanganligi bilan xarakterlanadi.

Mardonoqul baxshi ko‘plab shogirdlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan ustoz baxshilardan sanaladi. Masalan, denovlik Toshmurod To‘ra o‘g‘li, Eshmurod Sherdon o‘g‘li, angorlik Rahim baxshi, Qiyom baxshi Chori o‘g‘li, boysunlik Ulash baxshi G‘ozi o‘g‘li, sherobodlik Saidali Hayitnazar o‘g‘li, Bo‘ri baxshi Ahmad o‘g‘illari Mardonoqul baxshining shogirdlari sanaladi [9]. Sherobod dostonchilik maktabining yana bir zabardast vakili boysunlik Ermamat baxshi Badal o‘g‘lidir. Ermamat baxshi asli Robot qishlog‘idan bo‘lib qo‘ng‘irot urug‘ining qorabo‘yin dahasiga mansub. Ermamat baxshi do‘mbira chalish sirlarini otasi Badal bobodan va qaynotasi Mergan ovchidan o‘rgangan. Ermamat baxshi arab va fors tillaridan ham bir muncha xabardor, qolaversa, diniy ilm yuzasidan ham saboq olganligi bois xalq orasida mullo Ermamat baxshi sifatida nom chiqargan. Ermamat baxshi ijodidan yigirmadan ortiq dostonlar o‘rin olgan. Jumladan, “Alpomish”, “Avazxon”, “Dallijon”, “Kuntug‘mish”, “Misqol pari”, “Balogardon”, “Bazurg‘on”, “Qunduz va Yulduz” dostonlarini o‘ziga xos uslubda kuylagan.

1938-yilda gazalik Xudoyqul Turdialiyev Ermamat baxshidan termalar yozib olgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda folklorshunos olimlar Muzayana Alaviya va Hodi Zariflar Boysunga kelib Ermamat baxshi bilan uchrashgan va ko‘plab termalar va ayrim dostonlarni yozib olgan [10]. Sherobod dostonchilik maktabining a’zolaridan doston va termalarni yozib olish ishlari XX asrning 20-yillarining oxirlarida boshlab yuborilgan. O‘zbekiston ilmiy tekshirish instituti folklor ekspedisiyasi tarkibida 1929-yilning 17-iyul kuni Boysunning Padang qishlog‘iga tashrif buyurgan etnograf L.P.Patapov, tilshunos G‘.O.Yunusov va folklorshunos H.Zarifovlar shu yerlik baxshilar “Qo‘ng‘irot botiri Alpomish” haqida doston kuylashligini eshitganligini qayd etishgan. Yana bir misol 1929-yilda folklorshunos Hodi Zarif boysunlik Abdunazar baxshidan “Amir qochdi” dostonini va bir qancha termalarni yozib olgan. 1945-yilda folklorshunoslar H.Zarifov va Q.Muhammedovlar Sherobodning Chig‘atoy qishlog‘ida yashagan Mardonoqul Avliyoqul o‘g‘lidan “Alpomish” dostonining Surxondaryo variantini yozib olgan. Shuningdek, 1956-yilda Umir baxshi Safar o‘g‘lidan

1958 yilda Mamarayim yuzboshidan, 1966-yilda esa sherobodlik Bo‘ri baxshi Ahmad o‘g‘lidan “Alpomish” dostonining Surxoncha variantlari yozib olingan.

1945-yilda etnolingvistik ekspedisiya tarkibida Surxon vohasiga tashrif buyirgan folklorshunos olim M.Afzalov o‘zining “O‘zbek xalq shoirlari” maqolasida ushbu ekspedisiyada to‘plangan ma’lumotlar haqida axborot berish bilan birga Sherobod dostonchilik maktabining ustoz-shogirdlik an’analariga ham to‘xtalib o‘tgan.

Biroq, kommunistik mafkura va sovet hukumati hukmronlik qilgan davrda ko‘plab milliy qadriyatlarimiz qatorida o‘zbek xalqi og‘zaki ijodi ham qattiq nazorat ostiga olindi. Iloji boricha xalqni milliy o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishi markazning nazorat organlari tomonidan muntazam cheklab kelindi. Misol uchun VKP (b) Markaziy Qo‘mitasining bevosita topshirig‘i asosida 1952-yil 21-22-fevral kunlari O‘zbekiston Kompartiyasining X Plenumi bo‘lib o‘tdi. Ushbu plenumda “Respublikada mafkuraviy ishlarning ahvoli va uni yaxshilash choralari” degan masala ko‘rib chiqildi.

Plenum qarorlarida folklor asarilar, ayniqsa, “Alpomish” dostoni tabiatan zararli, xalqqa qarshi, chunki o‘tmishni “ideallashtiradi” deb ko‘rsatildi [11]. Plenum va unda qabul qilingan qarorlar O‘zbekistonning ma’naviy hayotiga kuchli zarba bo‘lib tushdi. Markaz ko‘rsatmalariga labbay deb javob berishga o‘rganib qolgan Til va adabiyot instituti hamda Respublika Yozuvchilar uyushmasi rahbarlarining tashabbusi bilan 1952-yil 26-mart kuni “Alpomish” dostonining muhokamasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur muhokamada “Pravda Vostoka” gazetasi orqali “Alpomish” qahramonlik eposini qoralab chiqqan mualliflardan biri Abdulla Abdunabiyev so‘zga chiqib “Alpomish” dostonini tadqiq va nashr qilgan olim va shoirlar sha’niga haqorat va tuhmat so‘zlarni yog‘dirdi[12]. Shundan so‘ng o‘zbek xalqining xalq og‘zaki ijodi yana ta’qib ostiga olindi. Baxshi shoirlar ijodiga e’tibor berilmadi.

Xullas, sovet mafkurasi o‘zbek xalqining ko‘plab milliy qadriyatlaridan shu jumladan qahramonlik eposi sanalgan “Alpomish” dostoni va uni kuylovchi baxshi shoirlardan ham qo‘rqardi. Chunki, bu dostonda xalqningg milliy o‘zligi, shijoati jamlangan bo‘lib, ushbu eposni kuylovchi baxshi shoirlar esa xalqni birlikka, yakdillikka chorlab, zulmga bo‘ysunmaslikka chaqirardi. Kommunistik mafkuraga esa bunday chaqiriqlar yoqmas edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: “Fan”, 1979. – B. 32.
2. Moziydan sado. 2013. №3. – B 14-18.
3. Mualliflar jamoasi O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) Ikkinchi kitob.–Toshkent: “O`zbekiston”, 2019.–B 94.
4. Mualliflar jamoasi O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yy) – Toshkent: “Sharq”, 2004. – B 285-286.
5. Razzoqov H Mirzayev T, Sobirov O, Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent, 1980. – B. 72.
6. Surxon tongi gazetasi 1999-yil 16-aprel
7. Surxon tongi gazetasi 1999-yil 26-avgust.
8. Tursunov S., Pardayev T., Tursunov A., Tog‘ayeva M. O‘zbekistonning janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi. – Toshkent: “Muharrir”, 2012. – B. 83.
9. Tursunov S., Pardayev T., Tursunov N., Murtozoyev B. O‘zbekistonda baxshichilik san’atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. – Toshkent: “Tafakkur”, 2015. – B. 23.
10. Tursunov S., Qobilov E., Murtozoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi.– Toshkent: “Sharq”, 2004. – B 435.
11. Tursunov S., Rashidov Q., Boysun. – Toshkent: “Akademnashr”, 2011. – B 343.
12. Зарифов Х.Т. К изучению узбекского народного эпоса // Вопросы изучения эпоса народов. – Москва, 1958. – С. 110.

UO’K 070.4(574.3)

XORAZMDA MATBUOT VUJUDGA KELISHINING TARIXIY ASOSLARI

S.B.Nazarov, o‘qituvchi, Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi, Xiva

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asrning 20-30 yillarida Xorazm matbuoti haqida so’z yuritiladi. O‘zbek, rus, turkman, qoraqalpoq tillarida chop etilgan gazeta va jurnallar tahlil etilgan.*

Kalit so’zlar: *Xorazm, matbuot, gazeta, jurnal, “Inqilob quyoshi”, “Mushtum”, “Yangi yo’l”, “Qizil O‘zbekiston”, g’oya, mafkura, partiya, ishchi, dehqon, alifbo.*

Аннотация. *В статье рассматривается хорезмская пресса 20–30-х годов XX века. Анализируются газеты и журналы, издававшиеся на узбекском, русском, туркменском и каракалпакском языках.*

Ключевые слова: *Хорезм, пресса, газета, журнал, «Солнце революции», «Муштум», «Новый путь», «Красный Узбекистан», идея, идеология, партия, рабочий, крестьянин, алфавит.*

Abstract. *This article discusses the Khorezm press in the 20s-30s of the 20th century. Newspapers and magazines published in Uzbek, Russian, Turkmen, and Karakalpak languages are*

Keywords: *Khorezm, press, newspaper, magazine, "Sun of the Revolution", "Mushtum", "New Path", "Red Uzbekistan", idea, ideology, party, worker, peasant, alphabet.*

Kirish: XX asrning birinchi yarmida Sovet hokimiyatining O‘rta Osiyoda, jumladan, Xorazm vohasida ijtimoiy-siyosiy tizimni o‘zgartirishga qaratilgan siyosati ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishiga olib keldi. Matbuot davlat mafkurasining asosiy targ‘ibot vositasi sifatida shakllantirilib, aholining siyosiy faolligi va dunyoqarashini sovet ideologiyasiga mos yo‘naltirish vazifasini bajardi. Shu bois XX asrning 20–30-yillarida Xorazm matbuoti nafaqat bosma nashrlar tizimining kengayishi, balki madaniy-ma'rifiy muhitning transformatsiya qilinishining muhim bosqichi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur davrda "Inqilob quyoshi" kabi gazeta va jurnallarning tashkil topishi mahalliy matbuot tarixining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu nashrlar orqali vohada amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholiga yetkazilib, ishchi va dehqon ommasini sovet tuzumi maqsadlariga safarbar qilishga intilgan. Shu bilan birga, matbuot kadrlarini tayyorlash, muxbirlik harakatini shakllantirish, devoriy gazetalar va adabiy to‘garaklarning yuzaga kelishi mahalliy jurnalistikaning institusional asoslarini barpo etishda muhim o‘rin tutdi.

Xorazmda o‘sha yillarda o‘zbek, rus, turkman va qaraqalpoq tillarida nashr etilgan bosma nashrlar mintaqa xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirish, savodxonlik darajasini oshirish va yangi alifbo islohotlarini joriy etish jarayonlarida muhim omil bo‘lgan. Matbuotning partiya siyosatiga bog‘langan holda faoliyat yuritgani, nashrlar tirajining yil sayin ortgani, majburiy obuna amaliyotining yo‘lga qo‘yilgani sovet mafkurasiga asoslangan axborot maydonining shakllanishidan dalolat beradi.

Ushbu maqolada 20–30-yillarda Xorazmda matbuotning vujudga kelishi, uning rivojlanish bosqichlari, gazeta va jurnallarning mavqei hamda mazkur nashrlar orqali amalga oshirilgan mafkuraviy siyosat tarixi manbalar asosida tahlil etiladi.

XX asrning 20-30 yillarida Sovet hokimiyati Xorazm vohasida o‘z mafkurasini targ‘ib qiluvchi mahalliy matbuotning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. 'Inqilob quyoshi" gazetasi Xorazmdagi birinchi mahalliy gazeta bo‘lib, muvaqqat inqilobiy hukumat tuzilgandan keyin 1920 yil 8 martdan chop etila boshlangan. "Inqilob quyoshi" gazetasida Quyi Amudaryo havzasi xalqlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy hayotida sodir bo‘layotgan voqeliklar yoritib borilgan. Muxbirlar K.Boltayev, Q.Beregin, X.Eshmuratov, O.Safayeva, U.Qurboniy, M.Ismoiliy, E.Devonov singari O.Safayeva singari partiya xodimlari va qishloq xo‘jaligi muxbirlari Faqiriy, Xorazmiy, Mutrib, Partav, Chokar, Mug‘anniy, Soib Nazariy kabi yozuvchi, shoirlar gazeta faoliyatida ishtirok etishgan. 1925 yilga kelib "Inqilob quyoshi" gazetasi bir oyda 25 marta chiqa boshlaydi, oyiga 8600 nushaga ko‘paytirildi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan 1925 yilda bo‘lib o‘tgan ikkinchi butun O‘zbekiston quriltoyida O‘zbekistondagi gazeta va jurnallar faoliyati keskin tanqid qilindi.

Quriltoyda "Gazeta idoralarining yo‘lga solinmaganligi, tajribali muhbir, ishchilarning kamligi, firqa qo‘mitalari tomonidan bu masalaga ahamiyat berilmaganligi, O‘zbekistonda dehqon muhbirlari va devoriy gazetalarning shul kunga bo‘lgan holga sababchidir" deyildi.

1927 yil fevralida "Inqilob quyoshi" gazetasi Qurbon Ollaberganov (Beregin) redaktor qilib tayinlangan. U muharrirlik faoliyatini 1929 yilning may oyigacha davom ettiradi [1].

Ana shu davrda "Inqilob quyoshi" gazetasi redaksiyasida M. Olloyorov, I. Habibiy, U.Qurboniy va boshqa qalami o‘tkir jurnalistlar faoliyat olib borishgan. Aynan ular faoliyatining samarasi natijasida "Inqilob quyoshi" gazetasining joylardagi muhbirlari (qishloq va ishchi muhbirlar) soni keskin ravishda oshgan [2].

XX asrning 20-30 yillarida "Inqilob quyoshi" gazetasida faoliyat olib borgan B. Rahmonov, A.Tagirov, K.Boltayev, J.Qalandarov, Q.Beregin, Sh.Bulatov, R.Majidiy, S.O'rozov kabi muharrirlarning faoliyati e'tiborga molik.

1927 yil Qurbon Beregin (Xorazm okrug partiya qo'mitasi bo'lim mudiri) tashabbusi bilan bir necha bor konferensiyalar o'tkazildi. O'tkazilgan konferensiyalar Xorazmda matbuot ishi maqsad va vazifalarini belgilab berdi. Partiya va davlat rahbarlari Xorazmda milliy tilda chiqadigan gazeta va jurnallarni voha ishchi, dehqonlari bilan o'zaro muloqot minbari deb hisoblashgan. Xorazm vohasidagi birinchi gazeta "Inqilob quyoshi" gazetasi chop qilinganligining 8 yilligi munosabati bilan aholi uchun va jurnallarni ovoz chiqarib o'quvchilar guruhlari tashkil etiladi.

1928-1931 yillar oralig'ida Xorazm okrugida dastlabki tuman gazetalari paydo bo'la boshladi.

1931 yilga kelib O'zbekistonda nashr qilinayotgan gazetalar soni 2500 dan ziyod edi [3].

O'sha davrda Xivada "Qommunachi", Xonqada "Qurilish", Gurlanda "Kolxoz yo'li", Shovotda "Shovot haqiqati" gazetalari chop etila boshlandi [4].

XX asrning 30-yillarida Xorazm vohasida Sho'ro mafkurasining mustahkamlanishida "Inqilob quyoshi" gazetasi alohida ahamiyat kasb etdi. Gazeta 400 dan ortiq qishloq muhbirlarini o'z atrofida birlashtirdi. Agar 20-yillarda gazeta muhbirlari orasida ayollar kamchilikni tashkil qilgan bo'lsa, 30-yillar boshida ularning soni 50 nafarga yetgan [5]. Chunki sho'rolar tomonidan ayollarning "Inqilob quyoshi" gazetasiga muhbirlikka jalb qilish ishlari kuchaytirilgan. Xorazmda 1931 yilda 2 ta kitob, gazeta sotish va tarqatishga mo'ljallangan kitob do'koni tashkil etildi [6].

Ovullarda adabiyot va gazetalarning keng tarqalish va muhbirlar sonining ko'payishi adabiyot va muhbirlik to'garaklarining yaratilishi uchun sharoitni yuzaga keltirdi. Bunday to'garaklar ko'pincha devoriy gazetalar qoshida tashkil qilingan. 1929 yilda Xivada tashkil qilingan "Yosh kuch" devoriy gazetasi qoshida 1931 yilgacha 30 dan ziyod muhbirlar tayyorlangan [7].

Vohada chop qilingan gazeta va jurnallar sho'rolar mafkurasini tashviqot - targ'ibot qilish vositasi sifatida yildan yilga ko'payib, soni oshirilib borildi. Masalan, 1931 yilga kelib "Inqilob quyoshi" gazetasiga Xiva tumanidan 1500 dona o'rniga 3000 dona, Xonqa tumanida 1500 dona o'rniga 2000 dona, Urganch tumanida 17000 donaga talab bildirilgan. Maqsad gazetani g'oyaviy kurash vositasiga aylantirish edi.

Xorazmda yangi gazetalarning tashkil etilishi nushalarining ko'paytirilishi, ajratilishi kerak bo'lgan mablag'larni o'sishini ta'minladi.

Okrugda 1932 yilga kelib gazeta va jurnallarning o'sish qiymati 118000 rublga yetgan bo'lsa, 1933 yilda 170000, 1934 yilda 308000 rublni tashkil etdi. 1932 yilga kelib Xorazmda chop qilingan gazetalar tiraji 3.377 tani tashkil qilgan bo'lsa, 1934 yilga kelib 30930 taga yetgan [8].

1930 yilgacha "Inqilob quyoshi" gazetasi isloh qilingan eski o'zbek yozuvi va lotin alifbosida aralash holda chop qilinganligini gazetaning may oyidagi

sonlaridan bilishimiz mumkin. "Inqilob quyoshi" gazetasi 1931 yilga kelib toliq lotin alifbosidagi o'zbek yozuviga o'tgan [9].

Xorazmda sho'ro mafkurasining g'oyaviy asosini mustahkamlash maqsadida gazeta va jurnallarga majburiy obuna qildirish ishlari 1933 yilga kelib yanada kuchaytirilgan bo'lib, "Qizil O'zbekiston", "Kolxo'z yo'li", "Yosh Leninchi", gazetalari, "Mushtum", "Yangi yo'l", "Kommunist" jurnallari shular jumlasidandir.

1934 yildan Xorazmda yyangi gazeta "Bo'l tayyor" chop etila boshlandi. Ushbu gazetani chop qilishdan maqsad, yoshlarni sho'ro mafkurasiga sadoqat ruhida tarbiyalash edi. 1936 yilga kelib Yangiariq tumanida "Lenin yo'li" gazetasi chiqa boshlagan. Bu paytda vohada bitta viloyat va yettita tuman gazetalari chop qilingan, muhbirlar soni 2500 kishiga yetgan edi [10].

1938 yil 28 sentabrda matbuot hodimlari va muhbirlarining Xorazm viloyat kengashi bo'lib o'tadi. Kengashda tumanlarda faoliyat olib borayotgan muhbirlar faoliyatidagi kamchiliklar muhokama qilinadi. "Lenin yo'li", "Stalin yo'li", "Stalinchi", "Kommunachi" gazetalaridagi muhbirlar faoliyati tanqidga uchrashining sababi, ularning siyosiy dunyoqarashi, g'oyalari, sho'ro mafkurasi talablariga mos kelmasligida edi. Inqilob quyoshi" gazetasi 1939 yil avgust oyidan yangi nom bilan "Xorazm haqiqati" deb atala boshlandi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari XX asrning 20–30-yillarida Xorazmda matbuot tizimi sho‘ro hokimiyatining mafkuraviy siyosatini amalga oshirishning asosiy instrumentlaridan biri sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. “Inqilob quyoshi”ning tashkil topishi mahalliy ommaviy axborot vositalarining markazlashuvi va ideologik yo‘naltirilishini ta’minlagan bo‘lsa, keyingi yillarda tuman gazetalarining paydo bo‘lishi matbuotning hududiy tarmoqlanishiga olib keldi.

Tahlil etilgan manbalar matbuot kadrlari yetishmasligiga qaramasdan, muhbirlik harakatining kengayishi, devoriy gazetalar va adabiy to‘garaklar faoliyati orqali jurnalistik amaliyotning bosqichma-bosqich shakllanib borganini ko‘rsatadi. Gazeta va jurnallar nusxalarining yil sayin ko‘payishi, ularning lotin alifbosiga o‘tkazilishi hamda majburiy obuna mexanizmlarining joriy etilishi sho‘ro mafkurasini keng ommaga singdirishda matbuotning markaziy o‘rin tutganidan dalolat beradi.

Shu tariqa, Xorazmdagi matbuot tizimi nafaqat siyosiy-ideologik vazifalarni amalga oshirgan, balki mahalliy jurnalistikaning institusional asoslarini shakllantirib, voha jamoatchilik hayotining madaniy-ma’rifiy tarmoqlarini rivojlantirishda muhim omilga aylangan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov N, Qurbon Beregin qismati-T, 2006-b.20
2. Xorazm haqiqati.1970 yil 30 aprel soni.
3. Митяев О. Культурно-просветительная работа в годы первой пятилетки.-Москва, 1964,-С.41
4. “Inqilob quyoshi” 1929 yil 29 may
5. “Inqilob quyoshi” 1929 yil 29 may
6. Собиров А. Развитие советской культуры народов низовьев Амударьи 1928-1940. -Нукус: Каракалпакстан, 1984. -С.-97.
7. O‘sha asar.98 b.
8. Xorazm viloyat davlat arxivi, 631-fond, 2-ro‘yxat, 23-ish, 14 varaq.
9. Xorazm viloyat xokimiyat arxivi, 2-fond, 4-ro‘yxat, 1-ish, 5-varaq.
10. Xorazm haqiqati. 1970 yil 3 aprel.

UO’K 94(5-012):2-525:008

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING YOZUV TIZIMIDA MIFOLOGIK TASAVVURLARNING AKS ETISHI VA ULARNING MADANIY MEROSDAGI O‘RNI

F.A.Normatova, tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Insoniyat tarixida yozuv ixtirosi madaniy taraqqiyotning eng muhim bosqichlaridan hisoblanib, u faqat aloqa vositasi emas, balki jamiyatning dunyoqarashi, e’tiqodi va tafakkurini ifoda etuvchi ramziy tizim sifatida shakllangan. Dastlabki yozuv shakllari piktografiyalar, ideografiya va simvollar insonning atrof-muhitni anglash, tabiat hodisalarini tushuntirish va ilohiy kuchlar bilan muloqotga kirishish ehtiyojidan kelib chiqqan.*

Kalit so‘zlar: *Qadimgi Turon, kosmologik dunyoqarash, piktografiya, ideografiya, Sopollitepa, Jarqo‘ton, Tillabuloq, Kattabuloq, mifologik ong, ilohiy kuch.*

Аннотация. *Изобретение письма в истории человечества считается одним из важнейших этапов культурного прогресса. Оно сформировалось не только как средство коммуникации, но и как символическая система, выражающая мировоззрение, верования и мышление общества. Первоначальные формы письма пиктограммы, идеограммы и символы возникли из стремления человека осмыслить окружающую среду, объяснить природные явления и установить контакт с божественными силами.*

Ключевые слова: *Древний Туран, космологическое мировоззрение, пиктография, идеография, Сапаллитепа, Жаркутан, Тиллабулок, Каттабулок, мифологическое сознание, божественная сила.*

Abstract. *The invention of writing is regarded as one of the most significant milestones in the cultural development of humanity. It evolved not only as a means of communication but also as a symbolic system that embodied the worldview, beliefs, and intellectual framework of society. The earliest forms of writing pictographs, ideograms, and symbols emerged from the human need to comprehend the surrounding environment, interpret natural phenomena, and establish communication with divine forces.*

Keywords: *Ancient Turan, cosmological worldview, pictography, ideography, Sopollitepa, Jarkutan, Tillabulok, Kattabulok, mythological consciousness, divine power.*

Markaziy Osiyo xalqlari qadim zamonlardan boshlab o‘ziga xos yozuv tizimlari va ruhiy-ma’naviy qadriyatlari bilan ajralib turgan. Ushbu xalqlarning yozma manbalarida nafaqat kundalik hayot, balki ularning dunyoqarashi, e’tiqodi va mifologik qarashlari ham o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, turli yozuv tizimlarida uchraydigan mifologik obrazlar: ajdodlarga sig‘inish, osmon, suv va yer ilohlari, afsonaviy qahramonlar xalq ongida shakllangan qadimiy dunyoqarashning yozma in’ikosidir. Mazkur mavzuning o‘rganilishi nafaqat tarixiy va madaniy jarayonlarni chuqurroq anglashga, balki yozuv orqali mifologiyaning madaniy merosdagi o‘rnini ochib berishga xizmat qiladi. Shu boisdan, ushbu tadqiqotda yozuv tizimi va mifologik tafakkur uyg‘unligining turli shakllari tahlil qilinadi.

Qadimgi Turon xalqlari eng qadimiy yozuvga ega bo‘lgan jahon xalqlaridan biri bo‘lgani haqidagi masala tarixchi va arxeologlar o‘rtasida yaqin davrgacha qizg‘in bahslarga sabab bo‘lib keldi. O‘z navbatida, XX asrning 90-yillarida A.P. Frankfor quyidagicha fikrni ta’kidlab o‘tgani haqida eslab o‘tish lozim: “Baqtriya-Marg‘iyona arxeologik kompleksini “Oks sivilizatsiyasi” deya haqqoniy sivilizatsiya sifatida atalishi uchun yetishmay kelayotgan yagona narsa bu uning yozuvidir”. O‘tgan asrning oxiridan boshlab Turon xalqlari yozuvi borasida fandagi muammoni yechimi bilan bog‘liq vaziyatda sezilarli o‘zgarish sodir bo‘lgan edi [2].

XX asrning 60-80-yillarida Turon hududidagi bronza davri yodgorliklari bo‘lgan Namozgoh VI davri yodgorliklari, Sopollitepa, Jarqo‘ton, Dashli va Gonur kabi yodgorliklarda, so‘nggi yillarda Bo‘ston-4, Ko‘hitangtog‘ etagida joylashgan Tillabuloq va Kattabuloq yodgorligida keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlarning o‘tkazilishi natijasida Turon xalqlarining qadimiy yozuvga ega bo‘lgani haqidagi fikrlarni tasdiqlovchi daliliy ashyolar qo‘lga kiritilgan edi [3].

Olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Oltintepa va Hovuztepa kabi Namozgoh VI davri yodgorliklarida o‘sha davr uchun noma’lum belgilar bitilgan haykalchalar, shuningdek, Sopollitepa, Gonur va Jarqo‘ton kabi yodgorliklarda esa ko‘plab oshxona va xo‘jalik idishlari parchalarida hali ma’lum bo‘lmagan turli-xil belgilar qayd etilgan, ammo, hali ular tadqiqot obyektiga aylanib ulgurmagan edi.

Sopolli madaniyati aholisi tomonidan ishlatilgan xatlardan dastlabkisi bu mitti buyumlardan iborat bo‘lgan ashyoviy xat hisoblangan. Mazkur maqolada ashyoviy xatlar hamda piktografik yozuvlar bilan bog‘liq ilmiy asoslar A. A. Asqarov, V. I. Ionesov, N. Avanesova, Sh. B. Shaydullayev, A. Sh. Shaydullayev va A. Boqiyev kabi olimlarning tadqiqot ishlari bilan tahlil qilingan va keltirib o‘tilgan.

Turon xalqlarining eng qadimgi yozuvini ilk marotaba asosli ravishda o‘rganish shubhasiz akademik A. Asqarov va professor Sh. Shaydullayev nomlari bilan bog‘liq. 1969-1973-yillarda akademik A. Asqarov tomonidan Sopollitepa yodgorligida olib borilgan tadqiqot ishlari davomida xo‘jalik idishlari hisoblangan xum, xumcha, katta ko‘zalar va choynaklar yuza qismida 29 ta turli qadimiy belgilarni aniqlab, ularni shakliga qarab 8 guruhga ajratgan edi [5].

Bu turdagi belgilarning ayrimlarida aniq ijtimoiy mehnat munosabatlarini ifoda etuvchi mazmun shakllansa, ayrim belgilarda esa olam haqidagi mifologik dunyoqarash aks ettirilgan. Masalan ettinchi guruh belgilari ko‘rinishi jihatidan birinchi guruh belgilariga o‘xshash, ya’ni yarim oy shaklida bo‘lib, nisbatan ko‘proq bukilgan holatda tasvirlanadi, yarim oy ko‘rinishining turli shakllarda ifodalanishi Sopollitepa aholining kosmologik qarashlari, mifologik e’tiqodlari bilan bog‘liq muhim belgilar hisoblanadi.Yarim oy ilohasi insoniyat tafakkurida tabiat, vaqt, hosildorlik va ilohiy kuchlar yani tungi osmonga sig‘inish haqidagi qarashlarni ifoda etgan. Sakkizinchi guruh belgilari ilon shaklini eslatuvchi belgilardan iborat bo‘lib, ularning ba’zilari o‘ralgan holatda tasvirlanadi.

Ilon ifoda belgisining sopollarda muhrlanishidan qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasida hamda dastlabki diniy tasavvurlarida ham ijobiy ham salbiy ma’no timsoli sifatida tushuniladi. Jumladan hosildorlik,yer osti olami hukmdori, yangilanish (bunga asos ilonning har yili terisini tashlash jarayoni tushunilgan desak to‘g‘ri bo‘ladi), donishmandlik (olamning sirli

kuchlaridan voqif bo‘lish), salbiy mazmunda talqin etilsa: ilon tasviri yovuz kuchlar,o‘lim, xavf- xatar timsolida ham talqin etilib ramziy mifologik dunyoqarashni shakllantirganini ko‘rishimiz mumkin.

A.Asqarovning dastlabki chiqargan xulosalariga ko‘ra bu belgilar Sopollitepa yodgorligida mavjud bo‘lgan 8 ta patriarxal oilaning alohida belgilari bo‘lgani ehtimoldan holi emas. Ammo, keyinchalik, ushbu belgilar uning tomonidan piktografik yozuv tizimi bo‘lgani haqida ta’kidlab o‘tiladi [6]. O‘z navbatida Sopollitepa piktografik belgilarning takomillashish jarayoni boshdan kechirganligini yana bir madaniy meros obyekti hisoblangan Jarqo‘ton majmuasida kuzatishimiz mumkin. Jarqo‘ton bosqichiga kelib, belgi guruhlarining soni 34 taga va piktografik belgilarning o‘zi esa 83 taga etadi. Bu esa O‘zbekiston hududida piktografik belgi-yozuvlarning ikkinchi bosqichi ekanligini kuzatamiz.

Jarqo‘ton yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ochilgan qabrlarda ko‘plab mitti buyumlar topib o‘rganilgan [7]. Ushbu kichik buyumlarning Sopolli madaniyati aholisi hayotida tarqalishi Jarqo‘ton bosqichining oxirilari va Ko‘zali bosqichi davriga va jamiyatda aholi tomonidan keng ko‘lamda qabul qilinishi Mo‘lali bosqichi davriga to‘g‘ri keladi.

Ushbu kichik motiv buyumlarning paydo bo‘lish sabablari va ularning qanday maqsadda ishlatilgani haqida V. I. Ionesovning tadqiqot ishida to‘xtalib o‘tiladi [9]. Olimning fikriga ko‘ra, Sopolli madaniyatining Ko‘zali bosqichiga kelib aholining dafn marosimlarida marhumning qabriga bronzadan yasalgan kichik motiv buyumlarning mayyit bilan birga dafn qilingan. Bunga esa eng avvalo ushbu davrda Turon xalqlari jamiyat ijtimoiy-madaniy muhitida aslzodalar qatlamining alohida o‘ringa ega bo‘lishi bilan bog‘liq ijtimoiy jarayonning sodir bo‘lishi bevosita sharoit yaratib bergan edi.

V. I. Ionesovning fikriga ko‘ra aloqaning belgili vositasi sifatida Jarqo‘ton yodgorligida ko‘plab topib o‘rganilgan kichik motiv buyumlar eski jamiyat urf va an’analariga qarshi shakllanayotgan turli oqimlarni yashirin kuch sifatida harakat qilishini ta’minlagan o‘ziga xos qurol vazifasini o‘tagani ehtimoldan holi emas. Bu mitti buyumlar o‘zida kishilar o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘zaro munosabatlar, kundalik hayotdagi diniy va ijtimoiy munosabatlarni yaqqol aks etadigan razmlar hisoblangan deyish mumkin [4]. Qadimgi Turon xalqlarining ashyoviy yozuv tizimini o‘rganishda olima N. Avanesovani tadqiqot ishlarini ham alohida e’tirof etish lozim. Professorning fikriga ko‘ra Sopolli madaniyatida mitti buyumli xat tizimining paydo bo‘lishi Andronovo madaniyati aholisining O‘rta Osiyoga ko‘chish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Turon hududida bronza davrida aholi ma’lumotlarni o‘zaro almashish maqsadida qadimdan mavjud bo‘lgan an’anaviy ma’lumot etkazish uslubi, ya’ni ashyoviy xatlardan uzoq vaqt davomida keng foydalanganlar [1].Olimaning fikriga ko‘ra Sopolli madaniyati aholisining qabrlarida uchraydigan konussimon mitti buyumlar Turon xalqlari jamiyatida sodir bo‘lgan yangi ijtimoiy tartiblarning vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lib, so‘nggi bronza davri aholisining diniy-mifologik g‘oyalarini o‘zida bevosita ifodalagan bo‘lishi mumkin [1].

Ushbu konussimon buyumlar ma’no jihatidan uch qismli olamni o‘zida aks etib, jamiyatda o‘ziga xos aloqa vositasi vazifasini o‘tagan. Malumki konussimon mitti buyumlar arxeologiya fanida marosimiy va hisob-kitob maqsadlarida ishlatilgan buyumlar sifatida talqin etiladi. Masalan muqaddas marosimlarda: qurbonlik, duo qilish, yoki yer unimdorligini oshirish maqsadida qilingan urf-odatlarda qo‘llanilgan, yana bir qarash muayyan mahsulotlar va hisob kitoblarni tashkil etishda foydalanilgan. Shuningdek totemistik ramziy ahamiyatni anglatishi, osmon va yer o‘rtasidagi bog‘liklikni ifodalashi bilan uyg‘undir. Umumiy qilib aytganda, Sopolli madaniyatiga tegishli yodgorliklarda konussimon mitti buyumlar hisob ilmi, diniy marosim va ramziy timsollar doirasida mifologik tafakkurni shakllantirgan.

Sopollitepa va Sopolli madaniyatiga oid yodgorliklarida, Jarqo‘ton, G‘oz, Tillabuloq, Kattabuloq yodgorliklari O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo tarixida beqiyos madaniy meros yodgorliklari hisoblanadi. Ularning bugungi kundagi ahamiyati jahon tamaddunida vatanimiz tarixini yan bir bor sivilizatsiyalar tarixida ilg‘or ekanligini asoslaydi. Bu madaniy meroslarning tarixiy-ilmiy ahamiyati bronza va ilk temir davri jamiyati haqida ilmiy bilimlar beradi, arxeologik topilmalar orqali esa turmush tarzi, diniy va mifologik qarashlarini, ijtimoiy munosabatlarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Avanesova N. A. Spatbronzezeitliche kulturkontakte in der baktrischen flusoase nach den befunden der

necropole Bustan 6// AMIT. Vol. 29. 1997. – PP. 147-178.

2. Boqiyev A., Shaydullayev A., Yo'ldosheva Z. Oks Sivilizatsiyasi. "Yangi nashr".–Toshkent.2015. – B.131-133.

3. Francfort H.P. La civilization de l'Oxus: une zone marginale des civilizations du Proche-Orient?// Encyclopaedia Universalis. – Paris. 1993. – P. 112-113.

4. Аванесова Н. А. О группе глиняных поделок, связанных с культово-обрядовой рактикой Сапаллинской культуры // Бактрия-Тохаристон кадимда ва урта асрларда. УзФА археология институти.–Самарканд.1993.–С. 16.

5. Аскаров А. А. Была ли пиктографическая письменность в культуре Сапалли// Согдийский сборник. Вып. 1. Саарбрюккен. 2013. – С. 43-58.

6. Аскаров А. А., Абдуллаев Б. Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). – Ташкент. 1983. – С. 24.

7. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юг Узбекистана.– Ташкент. 1977. – С. 67-68.

8. Аскаров А. Сапаллитепа. – Ташкент. 1973. – С. 76-78.

9. Ионесов В. И. Становление и развитие раннеклассовых отношений в оседлоземледельческом обществе Северной Бактрии. Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Самарканд. 1990. – С. 21.

UO'K 908

QASHQADARYO VILOYATINING TARIXIY MADANIY YODGORLIKLARI TADQIQI XUSUSIDA

G'.A.O'ralov, PhD, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya*. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida joylashgan madaniy meros obyektlarining geografik hududiy joylashuvi, ularning tasnifi hamda tarixiy-madaniy ahamiyati tahlil etiladi. Xususan, Shahrisabz, Kitob, Qarshi va boshqa hududlardagi arxeologik va me'moriy yodgorliklarning turizm salohiyatini oshirish masalalari yoritiladi.*

Kalit so'zlar*: Qashqadaryo viloyati, madaniy meros, arxeologik yodgorliklar, Shahrisabz, Siypantosh qoyatosh rasmlari, arxeopark, muzeylashtirish, madaniy turizm.*

Аннотация*. В статье рассматривается географическое размещение объектов культурного наследия Кашкадарьинской области, их классификация и историко-культурное значение. Особое внимание уделяется археологическим и архитектурным памятникам Шахрисабза, Китаба и Карши, а также вопросам развития культурного и международного туризма.*

Ключевые слова*: Кашкадарьинская область, культурное наследие, археологические памятники, Шахрисабз, наскальные рисунки Сийпантош, археопарк, музеефикация, культурный туризм.*

Abstract. *This article analyzes the geographical distribution, classification, and historical-cultural significance of cultural heritage sites in the Kashkadarya region. Special attention is paid to archaeological and architectural monuments located in Shahrisabz, Kitab, and Karshi, as well as their role in the development of cultural and international tourism.*

Keywords*: Kashkadarya region, cultural heritage, archaeological sites, Shahrisabz, Siyphantosh rock paintings, archaeological park, museumification, cultural tourism.*

Qashqadaryo viloyati bo'yicha madaniy meros obyektlarining geografik joylashuviga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1197 ta arxeologiya, 208 ta arxitektura, 35 ta haykallar, 28 ta diqqatga sazovor joylar jami 1468 ta madaniy meros obyektlari mavjud [1].

Qashqadaryo viloyatidagi madaniy meros obyektlarini geografik hududiy joylashuvi jihatidan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) Qarshi shahri, Qarshi tumani va Koson tumanlaridagi qadimiy inshootlar;

2) Shahrisabz shahri, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob tumanlari hududida joylashgan ko'hna imoratlar;

3) Chiroqchi va Qamashi tumanlaridagi tarixiy obidalar;

4) Nishon, G'uzor, Dehqonobod tumanlarida joylashgan tarixiy yodgorliklar;

5) Kasbi, Muborak, Mirishkor tumanlaridagi tarixiy-me'moriy obyektlar.

Qashqadaryo viloyatining asosiy shaharlarini Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Koson, Yakkabog' tashkil etib, har bir hududning o'z toponimikasi, tarixi, geografiyasi, afsona va diniy qarashlari bilan bog'liq tarixiy va madaniy manzilgohlari bo'lgan. Ular o'zida alloma va avliyolarning shaxsi, nasabi,

ular yashagan davr bilan bog‘liq tarix, islom olamida yoki umuman ilm-fan yo‘lida ulamolar qoldirgan merosni jamlab, xalqimiz milliy va ma’naviy qadriyatlarining muhim elementi sifatida asrab kelinmoqda.

Kesh (Shahrisabz) vohasining tarixiy madaniy taraqqiyoti nuqtai nazaridan bu hududda xalqaro va madaniy turizm yo‘nalishlarini ishlab chiqishda Kitob tumanidagi Uzunqir, Podayoqtepa va Sangirtepa yodgorliklaridan foydalanish maqsadga muvofiq. P. Ravshanov va N. Xushvaqovlar ushbu hudud yo‘nalishlarini shartli ravishda 3 ta marshrutga ajratib o‘tishgan.

1-marshrutga kiradigan yodgorliklar Shahrisabzdan 15-16 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, sayyohlarga asosiy transport turi avtobus yoki yengil mashinalar xizmat qilishi mumkin. Turistik yo‘nalish Podayoqtepadan boshlanadi, so‘ngra Uzunqir va Sangirtepa yodgorligiga boriladi.

2-marshrut esa Kitob shahridan antik davr yodgorliklari va Xo‘ja Imkanagiy tarixiy me’morchilik majmuasi 1000 yillik chinorlar va qishloq manzaralari namoyish etiladi.

3-marshrut Shahrisabz shahrining tarixiy qismida joylashgan me’morchilik yodgorliklari va “Shahrisabz” davlat muzey qo‘riqxonasi hisoblanadi [2].

Shahrisabz turizm tizimini yanada takomillashtirish, xalqimizning tarixiy madaniy me’morchilik yodgorliklari va muzeylarda saqlanayotgan boy tarixini, Amir Temur va Temuriylar davri tarixiy-me’moriy yodgorliklarini asrash, o‘rganish, jahonga tanitish va targ‘ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g‘urur va iftixor, istiqlol va vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish, xalqaro turizm infratuzilmasini rivojlantirishda dastur-ul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Qadimgi ibtidoiy san’at yodgorligi Siypantosh qoyatosh rasmlari Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi tog‘li Quruqsoy qishlog‘ining o‘ng tomonida joylashgan. Ushbu yodgorlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 19-dekabrdagi PQ–4068-son qarori ijrosi yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi 443-sonli qarori bilan “Shahrisabz” davlat muzey qo‘riqxonasi tarkibiga kiritilgan [3].

Siypantosh qoyatosh rasmlari dastlab 2000-yilda R.X. Sulaymonov tomonidan aniqlangan. Siypantosh qoyatosh rasmlari to‘g‘risida M. Xo‘janazarov, A.Y. Rogojinskiy, N.O. Xushvaqov, Ye.A. Gordeyeva, X.G. Oynazarovlar [4] ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Jahonning ilg‘or davlatlarida arxeologiya va muzeyshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlarni samarali amaliy ahamiyatini ko‘rsatishda yodgorliklardagi rasmlarni 3D formatda o‘tkazish yetakchi uslub hisoblanadi. Biroq mamlakatimizda muzey ekspozitsiyalarida qoyatosh rasmlarini ilmiy asoslangan 3D formatda namoyish etish ishlari amalga oshirilmagan.

O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid 2022–2025-yillarda yangi tashkil etiladigan ekspozitsiyalarning manzilli rejasiga ko‘ra, Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati muzeyida Yerqo‘rg‘on, Uzunqir, Sangirtepa, “Shahrisabz” davlat muzey qo‘riqxonasida Oqsaroy, Dor ut-Tilovat, Dor-us-Siyodat, Ko‘k gumbaz va boshqa ekspozitsilar tashkil etish belgilangan edi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ–261-son qarori 5-ilovasiga ko‘ra Muzeylar sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish rejasiga ko‘ra Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi “Sulaymon-Too” tarixiy-arxeologik kompleksi (Qirg‘iziston), “Shahrisabz” davlat muzey qo‘riqxonasi Ejulgi Taraz yeskert-kishteri tarixiy madaniy muzey qo‘riqxonasi (Qozog‘iston) bilan xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish belgilangan.

2023–2026-yillarda muzeylashtiriladigan arxeologiya yodgorliklarining manzilli rejasiga ko‘ra Yerqo‘rg‘on shahar xarobasi ham kiritilgan.

Siypantoshdagi 840 dan ziyod rasmlarni jonli tarzda namoyish etish va qadimgi qabilalarni xo‘jalik madaniyatini jonli tarzdi tiklash borasida “Shahrisabz” davlat muzey qo‘riqxonasi Fransiyaning “Arxeologiya Solsberi” va “Dualest” firmalarining tajribali kompyuter dasturchilari bilan halqaro hamkorlikda yirik loyiha tayyorlangan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, Siypantosh yodgorligi Homo sapiens (aqlli odam) tomonidan yaratilgan dastlabki rangli san’at tasvirlari aks etgan arxeologik yodgorlik sanaladi. Shuni hisobga olgan holda ushbu yodgorlikda xalqaro va mahalliy turizmga moslashtirib arxeopark-arxeologik qo‘riqxona tashkil etish muhim masaladir va bu orqali ham turistik salohiyat yanada oshadi. Shuningdek, yodgorlikni konservatsiya qilish,

yetarlicha muzey shtati ajratish, yo‘l infrastrukturasini yaratish, turistlar uchun “Vizit sentr”, muhofaza hududida “Muzey-kafe” tashkil etib, muhofaza chegarasi tabiiy tarixiy muhitni asragan holda arxeopark tashkil etish lozim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги 846 сон қарори.

2. Равшанов П., Хушвақов Н. Қашқадарё тарихига саёҳат. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020. – Б. 26-27.

3. Сийпантош ёдгорлигидаги қоятош расмлари таҳлили, ёдгорликни музейлаштириш масалалари ва уни 3D шаклга айлантириш истиқболлари // Марказий Осиё маданияти тарихи ва тарихшунослиги масалалари. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, тарих фанлари доктори, профессор Рустам Ҳамидович Сулаймоновнинг 85 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Тошкент, 2024. – Б. 136.

4. Хушвақов Н.О. Кеш тарихи ва маданияти (Шаҳрисабз давлат музей-қўриқхонасида материаллари асосида). Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2023. – Б. 22; Oynazarov Janubiy O‘zbekiston qoyatosh rasmlari texnika-tipologiyasi va qiyosiy tahlili. 07.00.06 – Arxeologiya (tarix fanlari) tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – B. 7.

UO’K 930.25(586.4)

QARSHI VOHASIDA OLIB BORILGAN SO’NGI ARXEOLOGIK QIDIRUV TADQIQOTLARI NATIJALARI

D.Omonov, kchik ilmiy xodim, O‘zR Madaniy Meros agentligi Samarqand arxeologiya instituti, Samarqand

S.Abduraximov, tayanch doktorant, O‘zR Madaniy Meros agentligi Samarqand arxeologiya instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqola O’zbekiston hududida eng arxeologik yodgorliklarga boy bo’lgan Qashqadaryo zaminining Qarshi vohasida olib borlilgan so’ngi arxeologik qidiruv tadqiqotlari natijalariga bag’ishlangan. Arxeologik qidiruv tadqiqotlari Qarshi vohasida joylashgan Qarshi shahri, Qarshi, Koson, Kasbi, Mirishkor, Muborak va Nishon tumanlari hududlarida olib borildi. Ushbu tadqiqotga qadar Muborak va Nishon tumanlarida arxeologik qidiruv tadqiqotlari umuman amalga oshirilmagan bo’lsa, qolgan nomlari sanab o’tilgan tumanlarda o’tgan asrning 80-yillarida qidiruv tadqiqotlari amalga oshirilgan. Biroq zamonasi darajasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda qo’lga kiritilgan ma’lumotlarni bugungi zamonaviy texnalogiyalar asosida qayta qidiruv tadqiqotlarini amalga oshirib, boyitish zarurati mavjud edi. Bundan tashqari Sobiq ittifoq davridagi mamuriy-hududiy birlik (“Sabxo’z” va “Kalxo’z”) larning tugatilishi natijasida yodgorliklarning joylashgan o’rni masalasida ham aniqlik kiritish kerak edi. Qarshi vohasida olib borlilgan so’ngi arxeologik qidiruv tadqiqotlari yuqoridagi muammolarini bartaraf etishga imkon berdi.*

Kalit so’zlar: *Qashqadaryo, Qarshi, Kasbi, Koson, Mirishkor, Nishon, Muborak, arxeologik, qidiruv, tadqiqot.*

Аннотация. *Статья посвящена результатам новейших археологических разведывательных исследований, проведенных в Каршинском оазисе Кашкадарьинской земли, который является самым богатым археологическими памятниками в Узбекистане. Археологические разведывательные исследования проводились на территориях города Карши, Каршинского, Косонского, Касбийского, Миришкорского, Мубаракского и Нишонского районов, расположенных в Каршинском оазисе. До этого исследования археологические разведывательные исследования вообще не проводились в Мубаракском и Нишонском районах, в то время как разведывательные исследования проводились в остальных районах, перечисленных в 80-х годах прошлого века. Однако возникла необходимость обогатить информацию, полученную в ходе исследований, проведенных на уровне своего времени, путем проведения повторных разведывательных исследований на основе современных технологий. Кроме того, в результате ликвидации административно-территориальных единиц («Сабхоз» и «Калхоз») в бывший советский период, необходимо было уточнить местоположение памятников. Недавние археологические исследования, проведенные в Каршинском оазисе, позволили устранить вышеуказанные проблемы.*

Ключевые слова: *Кашкадарья, Карши, Касби, Касон, Миришкор, Нишон, Мубарак, археологический, поиск, исследование.*

Abstract. *This article is devoted to the results of the latest archaeological exploration studies conducted in the Karshi oasis of the Kashkadarya land, which is the richest in archaeological monuments in Uzbekistan. Archaeological exploration studies were carried out in the territories of the city of Karshi, Karshi, Koson, Kasbi, Mirishkor, Muborak and Nishon districts located in the Karshi oasis. Until this study, archaeological exploration studies were not carried out at all in the Muborak and Nishon districts, while exploration studies were carried out in the remaining districts listed in the 80s of the last century. However, there was a need to enrich the information obtained during the studies conducted at the level of their time by conducting re-exploration studies based on modern technologies. In addition, as a result of the liquidation of the administrative-territorial units ("Sabkhoz" and "Kalkhoz") during the former Soviet period, it was necessary to clarify the location of the monuments. Recent archaeological research conducted in the Karshi oasis has made it possible to eliminate the above problems.*

Keywords: *Kashkadarya, Karshi, Kasbi, Kason, Mirishkor, Nishon, Mubarak, archaeological, search, research.*

Qashqadaryo vohasi qadim-qadimdan ikki tarixiy mintaqaga bo'lingan bo'lib, bular Nasaf (Naxshab) va Kesh hududlarini tashkil qiladi [5, 65-67 c.]. 565-yilda Sosoniylar va Turk xoqonligining birlashgan qo'shinlari Eftaliylar davlati poytaxti Naxshab (Yerqo'rg'on) ni vayroq qilgandan so'ng markaz Nasaf (Shulluktepa) ga ko'chgan [16, 42 c.]. Arablar istilosi davridan boshlab Naxshab atamasi Nasafga o'zgargan. Mintaqa uzuq yillar davomida vohaing markaziy shahri nomi bilan atalib kelingan [17, 47 c.]. Mo'g'illarning Movarounnahrga istilosi davrida Nasaf shahri ham vayronaga aylanadi [10]. Bu hududlari mo'g'ullar tomonidan istilo qilingandan so'ng, o'lkada Chig'atoy ulusi tashkil etiladi [4, 539 c.]. XIV asrdan boshlab Nasaf vohasi Qarshi deya atala boshlagan. Bunga sabab esa Kebekxon tomonidan Nasaf shahri yaqinida saroy qurdirganligi va ulus markazini aynan shu saroyga ko'chirganligi bo'lgan. Keyinchalik hozirgi Qarshi shahri ham shu saroy atrofida shakllangan. Fosix Xavofiyning ma'lumotlariga ko'ra "Qarshi" so'zi mo'g'ulcha "Saroy" degan ma'noni anglatadi [20, 437 c.]. Hofizi Abro'ning 1414-1420-yillarda yozilgan "Geografiya" asarida aytilishicha, — "Naxshab, uni Nasaf ham deydilar, hozir Qarshi nomi bilan mashhur. Bu qadimiy shahar, tekislikda joylashgan. Buxorodan Samarqandga o'tayotgan yo'l o'sha yerdan o'tgan" [21, 74 c.]. Mana shu davrdan boshlab "Qarshi" atamasi butun vohaga nisbatan qo'llanila boshlaydi.

Qarshi vohasini tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib ilmiy adabiyotlarda ikki xil nomlashadi. Bazi manbalarda Qarshi vohasi deb keltirilsa, bazi manbalarda Qarshi cho'li ham deb keltiriladi. Bizning fikrimizcha tabiati mutlaqo cho'l xususiyatlariga to'g'ri kelsada ulkan bir mintaqaning markazidan Qashqadaryoning oqib o'tishi bu mintaqaning ko'proq Qarshi vohasi deb tariflash tog'ri bo'lishini ko'rsatadi. Lekin hududning daryodan uzoqroq bo'lgan qismini Qarshi cho'li ham deb tariflash mumkun. Qashqadaryoga G'uzor daryoning qo'shilish nuqtasidan Qarshi vohasi boshlanib daryoning eng quyi oqimlariga qadar cho'zilgan [22, 200 c.]. Bugungi kunda Qarshi vohasi hududiga Qashqadaryo viloyatining Muborak, Mirishkor, Kasbi, Koson, Nishon, Ko'kdala, Chiroqchi tumanining bir qismi, Qarshi tumanlari hamda Qarshi shahri tog'ri keladi.

Qarshi vohasining qadimgi aholi manzilgohlarining tashkil topishida Qashqadaryoning o'rni beqiyos. Qashqadaryoning umumiy uzunligi 300 km bo'lib, G'uzordaryoning qo'shilish nuqtasidan Qarshi vohasi boshlanadi [22, 200 c.]. Jumladan ilk temir davridayoq Qarshi vohasi hududidan oqib o'tgan Qashqadaryoning o'rta oqimlarida qadimgi dehqonchilik manzilgohlari yuzaga kela boshlagan [19]. Antik davrdan boshlab yashash uchun qulay bo'lgan daryobo'yi insoniyat tomonidan yanada keng o'zlashtirila boshlagan. Milodiy IV asr boshlarida "Jettiosor" madaniyatining parchalanishi natijasida O'zbekistonning qadimiy aholi yashashi uchun qulay bo'lgan mintaqalarida shahar va qisloqlar keskin darajada ko'payadi. Bu holat Qarshi vohasida ham sodir bo'lgan, hattoki eftaliylar davrida Naxshab (Yerqo'rg'on) mamlakat poytaxti darajasiga qadar ko'tarilgan. Bu davrda shimoldan kirib kelgan chorvador ko'chmanchi turkiy aholi mahalliy xalq bilan qorishib yangi o'troq

dehqonchilik madaniyatlarini yuzaga keltirgan. Qarshi vohasining tekis relfga ega bo‘lgan keng dalalari hududidan Qashqadaryo daryosining oqib o‘tishi qadimgi aholi manzilgohlarini yuzaga kelishida muhum ahamiyat kasb etgan [19].

Qashqadaryo vohasida XII asr oxiri XIII asr boshlarida qishloq va shaharlar nihoyatta ko‘p bo‘lgan. Vohada urbanistik jarayonlar kuchayib markaziy shaharlardan kattaroq bo‘lgan qishloqlar ham yuzaga kela boshlagan [5, 67 c.]. S.B. Luninaning fikirlariga ko‘ra mo‘g‘illar bosqini arafasida ko‘plab qishloqlarning qiyofasi shaharlarning ko‘rinishiga yaqinlashib qolgan edi, biroq mo‘g‘ul bosqini urbanistik jarayonlarni butkul to‘xtatti [12, 47 c.].

XIII asr boshlarida O‘rta Osiyo hududlariga mo‘g‘ul bosqinchilarining kirib kelishi natijasida ko‘plab aholi punktlari, shahar va qishloqlar o‘z faoliyatini to‘xtatgan. Bosqinchilar tomonidan mahalliy xalqning juda katta qismi qirib yuborilgan bo‘lsa, ma’lum bir qismi o‘zga yurtlarga bosh olib ketgan, juda kam qismi tub yerda qolib mo‘g‘il istibdodida yashashga mahkum etilgan [3]. Manashu sabab bilan Qashqadaryo vohasida ham ko‘plab arxeologik yodgorliklar XIII asr boshlarida o‘z faoliyatini yakunlagan. XIV-XV asrlarda aholining katta qismi ko‘chmanchilik turmush tarziga ega bo‘lganligi tufayli bu davrga oid yodgorliklar juda kam. Shunday bo‘lishiga qaramasdan Qashqadaryo vohasi Chig‘atoy ulusi markazlaridan biri bo‘lganligi sababli O‘zbekiston hududida faqatgina manashu o‘lkada chig‘atoylar davriga taalluqli arxeologik yodgorliklarni uchratish mumkun [18, 75 c.]. Amir Temur va temuriylar hamda xonliklar davriga oid aholi manzilgohlarining ko‘pchiligi ustida hamon uzluksiz hayot davom etib kelayotganligi sababli bu davrlarga taalluqli arxeologik yodgorliklarni uchratish qiyin.

Yuqorida sanab o‘tilgan davrlarga taalluqli arxeologik yodgorliklarda ko‘plab keng ko‘lamli arxeologik qazishmalar amalga oshirilgan. Jumladan Yerqo‘rg‘onda amalga oshirilgan tadqiqotlar Qarshi vohasida shahar madaniyati mil.avv. VIII asrda paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi [19]. B.D. Kochnev tomonidan Shulluktepada olib borilgan tadqiqotlar uni Yerqo‘rg‘on o‘rnida mavjud bo‘lgan Naxshabning davomchisi Nasaf ekanligini oydinlashtirdi [10]. M.Y. Masson tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida Nasafdan so‘ng, XIV asrdan boshlab vohaning markaziga aylangan Qarshi qal’asining Kebekxon davridagi topografik tarxi yaratiladi [13, 72 c.]. Zanjir Saroyda olib borilgan tadqiqotlar yodgorlikni yozma manbalarda keltirilgan, shu nom bilan nomlanuvchi, ma’lum bir muddat ulus poytaxti maqomini ham olgan mo‘g‘ullar davri shahri ekanligini ko‘rsatti, shaharning to‘liq tarixiy topografik ko‘rinishi tiklandi [17]. S.K. Kabanov [6] va A.A. Raimqulovlar [14] tomonidan Qarshi vohasidagi ilk o‘rta asrlar davriga oid bir nechta qishloq makonlari o‘rganilishi natijasida, bu davr qishloqlarining topografik ko‘rinishi, turar joylari va moddiy madaniyati ochib berilgan.

Qarshi vohasida keng ko‘lamli arxeologik qazuv tadqiqotlaridan tashqari vohadagi Mirishkor, Kasbi, Koson, Qarshi tumanlari va Qarshi shahrida qidiruv-kuzatuv tadqiqotlari ham amalga oshirilgan. Voha bo‘ylab dastlabki qidiruv kuzatuv tadqiqotlari 1980-yilda B.D. Kochnev [11] tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, keying tadqiqotlar R.H. Sulaymonov tomonidan davom ettirilgan [19]. Ushbu tadqiqotlar jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan tumanlar bo‘ylab 290 ta yodgorlikda dastlabki qidiruv-kuzatuv ishlarini amalga oshirib, ularni ro‘yxatga olgan. Zomon nuqtayi-nazaridan yodgorliklarning kordinatalari olinmagan. Arxeologik obyektning manzillarini ko‘rsatishda asosan Sobiq ittifoq davridagi “Savxo‘z” va “Kalxo‘z”lar nomidan foydalangan (1-rasm). Mustaqillik yillarida “Savxo‘z” va “Kalxo‘z”larning tugatilishi munosabati bilan hisobotlarda keltirilgan manzillar nomlari bugungi kunda mavjud emas. Tadqiqotchilar tomonidan asosan yirik shahar tipidagi yodgorliklarning topologik tarxi yaratilgan xolos. Bundan tashqari vohaning Muborak va Nishon tumanlarida hanuzgacha qidiruv-kuzatuv tadqiqotlari amalga oshirilmagan edi. Manashu omillar sabab Qarshi vohasida yana bir bor qidiruv-kuzatuv tadqiqotlarini amalga oshirish zaruriyati mavjud edi.



1-rasm. Qarshi vohasining arxeologik yodgorliklari xaritasi (Р.Х. Сулейманов, 2000)

2025-yilning aprel-may oylarida Qarshi vohasi bo‘ylab qayta qidiruv-kuzatuv tadqiqotlarini amalga oshirdik. Tadqiqotimiz davomida Mirishkor, Kasbi, Koson, Qarshi tumanlari va Qarshi shahrida qidiruv-kuzatuv tadqiqotlarini qayta amalga oshirgan bo‘lsak, Muborak va Nishon tumanlarida ilk bor qidiruv-kuzatuv tadqiqotlari biz tomonimizdan olib borildi. Avvalgi tadqiqotlarda ro‘yxatga olingan 290 ta arxeologik obyektning kordinatalari olinib xomaki chizmalari yaratildi, yodgorliklarning bugungi kundagi holati tog‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi. Bundan tashqari ushbu tumanlarda 25 ta yangi yodgorliklar qayd etilib ularning ham kordinatalari va xomaki chizmalari olindi, ko‘tarma materiallar asosisda dastlabki davriy xulosalarga kelindi. Jumaladan Qarshi tumanida To‘qmang‘ittepa II, Laganditepa, Chamantepa II, Qushtepa, Yertepa, Chovqaytepa II, Dashtepa, Shoyxo‘jatepa; Kasbi tumanida Qultepa, Zarqo‘noqtepa II, Hudyontepa II, Qarchig‘aytepa II, Denovtepa I; Koson tumanida Rahmonboybobotepa II, Sobirtepa, G‘ishmontepa, Boyteraktepa, Xo‘jaqo‘rg‘ontepa kabi yangi yodgorliklar qayd etildi.

Muborak tumanida “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxati”ga 2 ta arxeologik yodgorlik kiritilgan edi, o‘rganishlarimiz natijasida Ishonbog‘tepa nomi bilan keltirilgan nuqtada arxeologik yodgorlik mavjud emasligi aniqlandi. Tumandagi Xo‘ja Rushnoyi arxeologik yodgorligida biz tomonimizdan 2023-2024-yillarda keng ko‘lamli arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirilgan edi, ushbu yilgi qidiruv-kuzatuv tadqiqotlari jarayonida Xo‘ja Rushnoyini ham tumandagi arxeologik yodgorliklar safiga kiritdik (D.S. Omonov 2024). Tuman bo‘ylab olib brogan qidiruvlarimiz davomida Zanjir Dumaloq, O‘tror I va O‘tror II kabi yangi arxeologik obyektlarni aniqladik. Ushbu yodgorliklarning deyarli barchasi XIV-XV asrlarga taalluqli bo‘lib, shu davrga oid Qashqadaryo viloyatida joylashgan arxeologik yodgorliklar xaritasi yaratildi (2-rasm).



2-rasm. Qashqadaryo viloyatidagi XIV-XV asrlarga oyid arxeologik yodgorliklar xaritasi

“Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxati”ga Nishon tumanida 3 ta arxeologik yodgorlik kiritilgan. Ushbu yodgorliklar joyiga borib o‘rganilganda arxeologik obyekt emasligi oydinlashdi. Bunday holatning yuzaga kelishiga sabab bizga qadar tuman hududida arxeologik qidiruv-kuzatuv tadqiqotlari amalga oshirilmaganligida. Qidiruv ishlari davomida 1 ta yangi obyekt aniqlanib, yangi yodgorlik yaqinidagi qishloq nomidan kelib chiqqan holda Oltinsoytepa deb nomlandi. Yodgorlikning kordinatalari olinib, xomaki chizmasi yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Omonov D.S. Amir Temur va temuriylar davri yodgorliklarini arxeologik o‘rganilish tarixi // Akademik Bo‘riboy Ahmedov tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Temuriylar tarixi davlat muzeyi (Toshkent, 18-oktabr 2024-yil). – Toshkent, 2024.

2. Omonov D.S. Xoja Rushnoi yodgorligidan topilgan bosma naqishli sopol buyumlar // O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, [1/11/1] ISSN 2181-7324., — Toshkent, 2023.

3. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо. Тошкент, 2015.

4. Бартольд В.В. Сочинения том I. - Москва, 1963.

5. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. – Тошкент, 2011.

6. Кабанов С.К. Культура селъских поселений Южного Согда III—VI вв. – Ташкент, 1981.

7. Кабанов С.К. Культура селъских поселений Южного Согда III—VI вв. – Ташкент, 1981.

8. Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековъя (III-VII)., – Ташкент, 1977.

9. Кочнев Б. Д. Исследования средневекового Несефа // Археологические открытия 1974 года. - Москва, 1975.

10. Кочнев Б. Д. Отчет о работах городища Шуллуктепа за 1976 г. Архив Института археологии АН РУз, Ф. 3. О.1. Д. 38.

11. Кочнев Б. Д. Свод паметников археологии Узбекистана. Вздел: Каршинский оазис. Самарканд, 1980. Ф. 3. О. 1. Д. 44.

12. Лунина С.Б. Древние города в долине Кашнадарьи. — Ташкент, 1988.

13. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. Издательство «ФАН». – Ташкент, 1973.

14. Раимкулов А.А. Культура сельских поселений Нахшаба в эпоху раннего феодализма // Автореферат канд. дисс. — Самарканд, 1992.

15. Раимкулов А.А. Раннесредневековое поселение Кунджутлитепа в Нахшабе // История и археология Турана. №5., - Ташкент, 2020.

16. Раимкулов А.А., Султонова Д. Города и селения монгольского и тимуридского времени в долине Кашкадарьи (археологическое изучение, интерпретация, локализация) // Материалы международного симпозиума «Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии»., Самарканд – Бишкек, 2005.

17. Раимкулов А. А. Занжир Сарой — Чиғатой улуси маркази // Города на Великом Шелковом пути. Маърузалар матни., Самарканд, 1994.
18. Раимкулов А.А. Жанубий Суғднинг VIII-XIV асрлар даври тарихий топографияси // Тарих фанлари доктори диссертацияси., — Самарқанд, 2018.
19. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб: проблемы цивилизатsiи Узбекистана VII в. до н. э. – VII в. н. э. – Самарканд-Ташкент, 2000.
20. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи. - Ташкент, 1980.
21. Ҳофизи Абру. География. «Шарқ»., - Тошкент 1997.
22. Шульц В. Л., Машарипов Р. Ўрта Осиё гидрографияси., - Тошкент, 1969.

UO’K 940.53/.54:355.244.2(045)

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA EVAKUATSIYA VA MEHNAT SAFARBARLIGI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

A.B. Parnomov, mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda, xususan Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan evakuatsiya va mehnat safarbarligi jarayonlari tahlil etilgan. Urush yillarida evakuatsiya qilingan aholi va sanoat korxonalarining viloyatga joylashtirilishi, mahalliy aholining mehnat frontidagi ishtiroki hamda ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi va sanoatdagi safarbarlik ishlari, milliy hamjihatlik va ijtimoiy muhofaza masalalari keng ko‘rib chiqilgan. Qashqadaryoliklarning front va orqa chiziqdagi hissasi alohida yoritilib, ijtimoiy siyosatning insonparvarlik qirralari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: Ikkinchi jahon urushi, evakuatsiya, mehnat safarbarligi, ijtimoiy siyosat, Qashqadaryo viloyati, qishloq xo‘jaligi, sanoat, milliy hamjihatlik, ijtimoiy muhofaza, front.*

Аннотация. *В статье анализируется научно-просветительская среда, сформировавшаяся в начале XX века в кишлаке Варганза Китабского района Кашкадарьинской области, а также значение религиозного образования и устного народного творчества. Особое внимание уделено мечетям и медресе, грамотности, национальным обычаям и ремесленным традициям. Исследуется образовательное наследие Абдували Эшона, его ученики и его роль в народной медицине. Также освещены духовные изменения в период Советской власти, открытие школ и ограничения религиозных традиций. Кроме того, раскрыто влияние образованного поколения, сформировавшегося в кишлаке, на общественную жизнь.*

Ключевые слова: *Кашкадарья, Китабский район, кишлак Варганза, культура начала XX века, религиозное образование, Абдували Каримзода, эшон, мударрис, устное народное творчество, советская политика, грамотность.*

Abstract. *The article analyzes the scientific and educational environment that emerged in the early 20th century in the village of Varganza, located in the Kitab district of the Qashqadaryo region. It also explores the significance of religious education and oral folk traditions. Special attention is given to mosques and madrasas, literacy, national customs, and craft traditions. The educational legacy of Abduvali Eshon, his disciples, and his role in folk medicine are examined. The article also highlights spiritual changes during the Soviet era, the establishment of schools, and the restriction of religious traditions. Additionally, it reveals the influence of the educated generation formed in the village on public life.*

Keywords*: Qashqadaryo, Kitab district, Varganza village, early 20th-century culture, religious education, Abduvali Karimzoda, Eshon, Mudarris, oral folk creativity, Soviet policy, literacy.*

1941–1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushi faqat frontda emas, balki mamlakatning ichki hayotida ham keng qamrovli sinov va murakkab muammolarni yuzaga keltirdi. Fashistik Germaniyaga qarshi kurashda harbiy kuchlar bilan bir qatorda, mehnat frontidagi fuqarolarning umumiy sa’y-harakatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bu davrda aholini ijtimoiy himoya qilish, evakuatsiya qilingan fuqarolarni joylashtirish va ish bilan ta’minlash, urushda qatnashganlar hamda

ularning oilalariga moddiy va ma'naviy yordam ko‘rsatish, bolalarni davlat muassasalarida tarbiyalash kabi masalalar davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Bu holat partiya va davlat siyosatida ijtimoiy himoyaning harbiy harakatlar bilan barobar ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy siyosat front va front ortida bir vaqtning o‘zida amalga oshirilgan kompleks harakat sifatida namoyon bo‘ldi.

O‘zbekiston, jumladan Qashqadaryo viloyati, front ortidagi strategik hudud sifatida millionlab evakuatsiya qilingan fuqarolarni va ko‘chirilgan sanoat korxonalarini qabul qildi. Bu holat mahalliy ijtimoiy tuzilmalarga jiddiy ta'sir ko‘rsatdi va davlat tomonidan keng qamrovli ijtimoiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etdi. Urush yillarida mobilizatsiya va evakuatsiya masalasi davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etdi. Asosiy maqsad front ehtiyojlarini ta'minlash bo‘lgani sababli, SSSRning g‘arbiy hududlaridan millionlab fuqarolar va sanoat korxonalari O‘zbekistonga, jumladan Qashqadaryo viloyatiga ko‘chirildi.

Evakuatsiya jarayonlari mahalliy resurslarni qayta taqsimlash, aholini joylashtirish va ishga jalb etishda davlatning markazlashgan siyosatini kuchaytirdi. Bu orqali Qashqadaryo viloyatining strategik ahamiyati yanada ortdi.

1941–1945 yillarda 1 milliondan ortiq aholi O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan bo‘lsa, 2020 yilda bu ko‘rsatkich 1,5 million nafarga yetgani aniqlangan. Bolalar soni ham avval 200 ming deb hisoblangan bo‘lsa[1; 13], so‘nggi ma'lumotlarga ko‘ra 250[2; 35] ming nafarni tashkil etgan.

Sovet Ittifoqi xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlikning yorqin namoyonlaridan biri — O‘zbekiston mehnatkashlarining fashistlar tomonidan vaqtincha bosib olingan hududlardan evakuatsiya qilingan o‘n minglab sovet fuqarosiga ko‘rsatgan yordami bo‘ldi. Evakuatsiya qilingan aholi uy-joy, tibbiy xizmat va ish joyi bilan ta'minlandi.

Bu raqamlar O‘zbekistondagi ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishi aholini qabul qilish va ijtimoiy integratsiya qilish bo‘lganini ko‘rsatadi. Bolalar uylariga alohida e'tibor qaratilgani davlat siyosatining insoniy qirrasini ochib beradi.

Qashqadaryo viloyatiga ham ko‘p sonli evakuatsiya qilingan fuqarolar joylashtirildi. Jabhadagi ulkan yo‘qotishlar ortidan evakuatsiya qilingan aholi, ayniqsa mutaxassis va harbiy xizmatchilar orqali ichki frontdagi mehnat va mudofaa salohiyati qoplandi. Bu holat 1941–1945 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyatida mudofaa imkoniyatlarining tez sur'atda rivojlanishi uchun muhim omil bo‘ldi.

Evakuatsiya qilingan turli millat va elat vakillari Qashqadaryoda milliy hamjihatlik muhitini kuchaytirdi. Bu jarayon partiya va davlat siyosatining millatlararo munosabatlar yo‘nalishida ham samarali amalga oshganini ko‘rsatdi. Evakuatsiya qilinganlar orasida polyaklar, koreyslar, mesxeti-turklar va boshqa millatlar ham bor edi. 2019 yilgacha bo‘lgan ma'lumotlarda ularning soni 200 ming nafar deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2020 yilgi ma'lumotlarga ko‘ra bu raqam 597 925 nafarga yetgan[3; 35]. Ahamiyatlisi, Qashqadaryo viloyatining G‘uzor, Shahrisabz, Kitob va Qarshi tumanlarida urush yillarida evakuatsiya qilingan ko‘plab polyak harbiylari vafot etgan, bugungi kunda ularning qabrlari mavjud.

Evakuatsiya qilingan aholi asosan mahalliy aholi xonadonlariga joylashtirildi. Masalan, Kitob tumanida yashagan Chulponay Sultanova xotiralarida shunday deydi: “Otam frontga ketishidan avval bir polyak oilasini uyimizga joylashtirdi. Bu oila tarkibida Polyak Bart ismli kishi, uning onasi, qizi va o‘g‘li Adas bor edi. Polyak Bart harbiy vrach bo‘lib, nafaqat bizning, balki butun qishlog‘imiz aholisi uchun mehribon tabib bo‘lgan. O‘sha yillarda ko‘plab qishloqlarga begzak tarqab ketdi. Bart o‘z asbob-uskunalari yordamida nafaqat bizning, balki qo‘shni qishloqdagi bemorlarni ham davoladi. U tikish ustasi sifatida bolalar uchun kiyim tikib bergan. Jumladan, 6 yoshli ukama harbiy shinel va kubanka tikib bergani haligacha yodimda[4;]”.

Xotiralar materialning faqat raqam va statistika emas, balki ijtimoiy hayot va insonparvarlik misollari orqali ham namoyon bo‘lishini ta'minlaydi. Bu ilmiy tadqiqotda "inson omili"ning ahamiyatini kuchaytiradi.

O‘zbekiston SSR urush yillarida strategik hudud sifatida xizmat qilgan. Shu sababli frontga yaqin hududlardan bu yerga sanoat korxonalari, ta'lim, fan va madaniyat muassasalari evakuatsiya qilingan. Urushning dastlabki oylarida respublika hududiga 100 ga yaqin yirik sanoat korxonalari

joylashtirildi[5;]. Ushbu ma’lumot 2020 yilda yangilanib, O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari soni 151 ta, shuningdek, O‘zbekistonda faoliyat yuritgan korxonalar soni 300 ta ekanligi qayd etildi[6; 36].

Iqtisodiy safarbarlik ijtimoiy siyosatning muhim qismi sifatida namoyon bo‘ldi. Bu nafaqat ish o‘rinlari, balki aholi turmush tarzidagi keskin o‘zgarishlarni ham belgilab berdi. Ko‘plab sanoat korxonalari harbiy sohaga moslashtirildi va front ehtiyojlari uchun safarbar etildi. 1941 yil dekabr oyidan respublikada jami 230 ta tashkilot mudofaa mahsulotlari bera boshlagan bo‘lsa, shundan 63 ta korxona Toshkent shahrida bo‘lgan. 2019 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra urush yillari O‘zbekistondagi 300 ga yaqin korxonada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Shu davrda front hududlaridan O‘zbekistonga 151 ta zavod ko‘chirib kelingan[7;431]. Toshkent qishloq mashinasozligi zavodida ham urushning dastlabki davridanoq harbiy mahsulotlar ishlab chiqarila boshlab, 1941 yilning ohirlariga borib, zavod belgilangan rejani 240 foizga bajardi.

O‘zbekiston frontga 2 mingdan ortiq samolyot, 17 mingdan ziyod aviamotor, 17 mingdan ortiq minomyot, 560 ming snaryad, 300 mingdan ortiq parashyut, 1 mln granata, 2 yarim millionga yaqin aviabomba, 22 millionta mina va boshqa harbiy anjomlar, front uchun mablag‘, oziq-ovqat va issiq kiyimlar yetkazib berdi[8;13].

Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonning Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaga hissasi nafaqat iqtisodiy, balki strategik jihatdan ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Mehnat safarbarligi haqida so‘z borganda, mehnatga layoqatli aholining barcha qismi ishlab chiqarishga jalb qilindi, ayniqsa qishloq xo‘jaligi hamda sanoat korxonalarida, bu korxonalar urush ehtiyojlari uchun qayta ixtisoslashtirildi. Frontga ketgan erkaklarni ayollar va o‘smirlar faol ravishda almashtirishdi.

1941–1945 yillar davomida fashistlar bosqiniga qarshi kurashda Qashqadaryo viloyati aholisi ham frontda, ham orqa chiziqda faol ishtirok etdi. Urush boshlangan ilk kunlardanoq viloyatdagi butun ijtimoiy hayot «Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!» shiori ostida safarbar etildi.

Yigitlar armiya saflariga jo‘nab ketar ekan, orqada qolgan ayollar, keksalar va o‘smirlar jismoniy mehnat bilan frontni oziq-ovqat, kiyim-kechak, paxta, go‘sht va boshqa zarur mahsulotlar bilan ta’minlashda ishtirok etdilar.

Urush yillarida Sovet O‘zbekistonining qishloq xo‘jaligi mehnatkashlari mamlakatga 4148 ming tonna paxta xomashyosi, 54 ming tonna ipak pilla, 57 ming tonna yangi meva, 1581 ming tsentner go‘sht, 213 ming sentner slanets va boshqa ko‘plab mahsulotlar berdi[9; 6].

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari nafaqat frontni ta’minladi, balki urushdan keyingi tiklanish jarayoni uchun ham strategik ahamiyat kasb etdi. Qashqadaryoliklar tomonidan oziq-ovqat, kiyim-kechak va moddiy yordam jamg‘arib, frontga jo‘natildi. Viloyat 1941–1945 yillarda 158650 tonna paxta, 17661 ming pula galla, 15563,4 tonna go‘sht, 13104 tonna uzum, 820,4 tonna jun, 63595 tonna sut, 220 ming bosh qoramol, 132 metr balandlikdagi cho‘l nasosi qurilmalari va boshqa turli ehtiyojlar uchun katta miqdordagi mahsulotlar yetkazib berdi. Shuningdek, viloyatda bir necha harbiy qismlar, gospitalar va bolalar uylari joylashtirildi. Qashqadaryo viloyatining hissasi butun O‘zbekistonning umumiy sa’y-harakatlari tarkibida alohida o‘rin tutdi. Bu viloyatning urush yillaridagi ijtimoiy siyosatdagi ahamiyatini yorqin namoyon qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 1941–1945 yillarda Qashqadaryo viloyati misolida O‘zbekistonda amalga oshirilgan evakuatsiya va mehnat safarbarligi ijtimoiy siyosatning markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Evakuatsiya jarayonlari millionlab aholi va yuzlab sanoat korxonalarini qabul qilish, ularni joylashtirish va ishga jalb etish orqali mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy hayotda chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Viloyat aholisi mehnat frontida, ayniqsa qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida, ulkan fidoyilik ko‘rsatib, frontni oziq-ovqat va mudofaa mahsulotlari bilan ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

Millatlararo do‘stlik, evakuatsiya qilingan bolalar va aholini qabul qilish, shuningdek, frontoviklar va nogironlarga ko‘rsatilgan davlat g‘amxo‘rligi ijtimoiy siyosatning insonparvarlik qirrasini namoyon etdi.

Shu tariqa, Qashqadaryo viloyatida urush yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy chora-tadbirlar nafaqat front ehtiyojlarini qondirish, balki aholi ijtimoiy muhofazasi va milliy birdamlikni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси. 1941-1945 йиллар. Китоб альбом. -Тошкент: Ўзбекистон, 2020, -Б.13

2. Саидов Акмал .Ғалаба боғи фалсафаси.-Тошкент: "ТАСВИР", 2021. -Б. 35.

3. Чулпонай Султонова билан шахсий мулоқот, 2008 йил март

4. Партархив института Истории при ЦК КПУз, ф 58, оп.131, д 10, лист 228.

5. Саидов Акмал. Ғалаба боғи фалсафаси.-Тошкент: "ТАСВИР", 2021. -Б. 36.

6. Мирзиёнв Ш.М. Буюк Ғалабанинг 75 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимда нутқи/ Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари: расмий нашр. 4-жилд.-Тошкент:"Ўзбекистон", 2020.-Б. 431.

7. Ўзбекистон халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси. 1941-1945 йиллар. Китоб альбом. -Тошкент: Ўзбекистон, 2020, -Б.13

8. Казакова А.С., Салямов Д.А. Узбекистан в годы великой отечественной войны Советского союз.а. (1941-1945 гг.) Ижтимоий фанлар журнали, 1961 йил, 6-сон. -Б.6.

UO'K 908

XIX-ASR II YARMI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONNING CHEGARADOSH DAVLATLAR BILAN SAVDO-MUNOSABATLARI TARIXI

O.K.Qambarova, magistrant, Iqtisodiyot Va Pedagogika Universiteti Samarqand kampusi, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasi, Xitoy, Eron va Afg'oniston bilan olib borilgan savdo aloqalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, transport yo'llari, bojxona tizimi, savdo markazlari va eksport-import mahsulotlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Turkiston, savdo munosabatlari, chegaradosh davlatlar, Rossiya imperiyasi, Xitoy, Eron, Afg'oniston, eksport, import, Buyuk Ipak yo'li, iqtisodiy tarix.*

Аннотация. *В статье рассматривается история торгово-экономических отношений Туркестана с сопредельными государствами во второй половине XIX – начале XX веков. Анализируются процессы формирования и развития торговых связей с Российской империей, Китаем, Ираном и Афганистаном, а также их влияние на социально-экономическое развитие региона. Особое внимание уделяется торговым путям, таможенной системе, торговым центрам и специфике экспортно-импортных операций.*

Ключевые слова: *Туркестан, торговые отношения, сопредельные государства, Российская империя, Китай, Иран, Афганистан, экспорт, импорт, Великий шелковый путь, экономическая история.*

Abstract. *This article analyzes the history of trade and economic relations between Turkestan and neighboring states in the second half of the 19th century and the early 20th century. The study examines the formation and development of trade relations with the Russian Empire, China, Iran, and Afghanistan, as well as their impact on the socio-economic life of the region. Particular attention is paid to trade routes, customs systems, commercial centers, and the characteristics of export-import activities.*

Keywords: *Turkestan, trade relations, neighboring states, Russian Empire, China, Iran, Afghanistan, export, import, Great Silk Road, economic history.*

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasi Markaziy Osiyoning muhim geoiqtisodiy va geosiyosiy hududi sifatida yirik savdo yo'llari chorrahasida joylashgan bo'lib, uning chegaradosh davlatlar bilan olib borgan savdo-munosabatlari mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin egallagan. Mazkur davrda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik

siyosati, xalqaro savdo aloqalarining kengayishi, transport-kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi Turkistonning tashqi savdo tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Turkiston hududi tarixan Xitoy, Eron, Afg‘oniston, Hindiston hamda Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalar olib borgan bo‘lib, bu munosabatlar Buyuk Ipak yo‘li an’analari asosida shakllangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ushbu savdo aloqalari yangi iqtisodiy sharoitlarda qayta tashkil etilib, xomashyo eksportiga yo‘naltirilgan mustamlakachilik modeliga moslashtirildi. Ayniqsa, paxta, ipak, jun, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda hunarmandchilik buyumlari savdosi Turkiston iqtisodiy hayotining asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylandi.

Mazkur davr savdo-munosabatlarini o‘rganish orqali Turkistonning iqtisodiy integratsiya jarayonlari, mintaqaning xalqaro bozorlar tizimidagi o‘rni, shuningdek, savdo siyosatining mahalliy aholi turmush tarziga ko‘rsatgan ta’sirini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, chegaradosh davlatlar bilan savdo aloqalari siyosiy munosabatlar, diplomatik aloqalar va madaniy almashinuv jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanganini ko‘rsatadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Turkiston tarixida iqtisodiy munosabatlar, xususan tashqi savdoning jadal o‘zgarishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda Turkistonning Rossiya imperiyasi tarkibiga kirishi, shu bilan birga, Xitoy, Eron, Afg‘oniston va Hindiston bilan an’anaviy savdo aloqalarining saqlanib qolishi masalasi tarixchilar orasida turlicha baholanadi.

Xitoy va Afg‘oniston bilan savdo munosabatlari masalasida ham olimlar o‘rtasida muayyan fikriy farqlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar (R.G. Landa, M. Qodirov) Farg‘ona va Qashg‘ar yo‘nalishidagi savdo aloqalari mintaqada iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolganini ta’kidlasalar, boshqalar bu munosabatlarni mahdud hajmdagi, mahalliy ahamiyatga ega savdo shakli sifatida baholaydilar.

Hindiston bilan savdo masalasida esa Buyuk Ipak yo‘li an’analarining so‘nggi davomchisi sifatida Buxoro va Xiva orqali olib borilgan savdo aloqalariga alohida e’tibor qaratiladi. Ayrim olimlar bu munosabatlarni madaniy-iqtisodiy muloqotning muhim shakli deb hisoblasalar, boshqalar XIX asr oxiriga kelib bu yo‘nalish Rossiya–Yevropa savdo tizimi ta’sirida ikkinchi darajali ahamiyat kasb etganini qayd etadilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasi Yevroosiyo iqtisodiy makonida muhim geoiqtisodiy hudud sifatida shakllangan. Bu davrda mintaqaning chegaradosh davlatlar — Rossiya imperiyasi, Xitoy (Sin imperiyasi), Eron, Afg‘oniston hamda Hindiston bilan savdo-iqtisodiy aloqalari murakkab transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirgan. Tarixshunoslikda mazkur jarayonlar turli metodologik yondashuvlar asosida talqin qilinadi.

Qator tadqiqotchilar (V. V. Bartold, A. P. Fyodorov, S. Bekjanov) ta’kidlashicha, Turkistonning savdo-iqtisodiy faolligi uning tranzit funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u asrlar davomida Sharq va G‘arbni bog‘lovchi yo‘l sifatida xizmat qilgan. XIX asrga kelib, Buyuk Ipak yo‘lining an’anaviy tarmoqlari o‘z ahamiyatini qisman yo‘qotgan bo‘lsa-da, mintaqaning chegaradosh davlatlar bilan tovar ayirboshlash salohiyati saqlanib qolgan.

Ayrim olimlar (R. G. Landa, X. Ziyoyev) ushbu davrda savdo munosabatlarining shakllanishi tabiiy-geografik omillardan ko‘ra ko‘proq siyosiy-ma’muriy boshqaruv mexanizmlari bilan belgilanganini qayd etadilar. Xususan, Rossiya imperiyasining Turkistondagi iqtisodiy siyosati mahalliy bozorlarni metropoliya ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan.

Rossiya–Turkiston savdo munosabatlari masalasida tarixchilar o‘rtasida bahsli qarashlar mavjud. Bir guruh olimlar (M. A. Terentyev, A. N. Kuropatkin) bu aloqalarni iqtisodiy integratsiya jarayoni sifatida baholab, temir yo‘llar qurilishi, bojxona tizimining joriy etilishi va sanoat mahsulotlari aylanmasining o‘sishini ijobiy omil sifatida ko‘rsatadilar.

Biroq mustamlakachilik nazariyasi tarafdorlari (Z. Kastell, Sh. Mirziyoyev, N. Abdullayev) Rossiya bilan savdo munosabatlari Turkiston iqtisodiyotini xomashyo manbai darajasiga tushirib qo‘yganini ta’kidlaydilar. Ayniqsa, paxta yakkahokimligi (monokultura) siyosati mahalliy xo‘jalik tizimining diversifikatsiyasini cheklab, oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Turkistonning Xitoy bilan savdo munosabatlari asosan Qashg‘ar, Xotan va Iliy vodiysi orqali amalga oshirilgan. Olimlar (K. A. Abaza, B. G‘. G‘afurov) bu aloqalarni an’anaviy tovar ayirboshlash

— ipak, choy, ziravorlar, ot-ulov va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari asosida rivojlangan deb baholaydilar.

Eron va Afg‘oniston bilan savdo esa ko‘proq madaniy-iqtisodiy uzviylikka tayangan. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, bu munosabatlar Turkistonda ichki bozor barqarorligini saqlashga xizmat qilgan, chunki ular Rossiyaga qaram savdo kanallariga muqobil yo‘nalish vazifasini o‘tagan.

Ilmiy adabiyotlarda savdo munosabatlarining mahalliy jamiyatga ta’siri masalasi ham turlicha baholanadi. Bir tomondan, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi shaharlar (Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Buxoro)da savdogarlik qatlamining shakllanishiga, bozor infratuzilmasining kengayishiga olib kelgan.

Ikkinchi tomondan esa, iqtisodiy asimmetriya, soliq yukining ortishi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshlik darajasining pasayishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirgan. Bu holatni ayrim olimlar “iqtisodiy modernizatsiyaning ziddiyatli xarakteri” deb baholaydilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasining chegaradosh давлатлар билан savdo-munosabatlari mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin egalladi. Ushbu davrda savdo aloqalari nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki siyosiy, geosiyosiy va madaniy omillar bilan ham chambarchas bog‘liq holda rivojlandi. Turkistonning Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilishi mintaqaning tashqi savdo tizimini tubdan o‘zgartirib, savdo yo‘nalishlari va bozorlarida yangi muvozanatni shakllantirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkistonning Xitoy, Eron, Afg‘oniston va Hindiston kabi qo‘shni hududlar bilan olib borgan savdo aloqalari asosan an’anaviy ipak yo‘llari, chegara bozorlari va karvon savdosi orqali amalga oshirilgan. Paxta, ipak, jun, teri, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilinib, o‘rniga sanoat buyumlari, metall mahsulotlar va kundalik iste’mol tovarlari import qilingan. Bu jarayon mahalliy ishlab chiqarish tizimining xomashyo yo‘nalishiga moslashuviga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr II yarmi – XX asr boshlarida Turkistonning chegaradosh davlatlar bilan savdo-munosabatlari mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, u bir tomondan iqtisodiy integratsiyani kuchaytirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mustamlakachilik sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarning chuqurlashishiga sabab bo‘ldi. Mazkur tarixiy tajriba Turkiston mintaqasining keyingi iqtisodiy taraqqiyot yo‘nalishlarini anglashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Абдурахманов Х.А. Туркистонда савдо-иқтисодий муносабатлар тарихи (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари): монография. – Тошкент: Fan, 2008. – 256 б.

2. Бобоев Ҳ.Б. Россия империясининг Туркистондаги иқтисодий сиёсати. – Тошкент: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2012. – 198 б.

3. Кадырова Д.М. Туркистон ва қўшни давлатлар ўртасидаги савдо алоқалари (XIX – XX аср бошлари) // Ўзбекистон тарихи. – 2016. – №2. – Б. 45–56.

4. Morrison A.Russian Rule in Samarkand 1868–1910: A Comparison with British India. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 368 p.

5. Becker S. Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. – London: Routledge, 2004. – 312 p.

UO’K 070:94(575.1).

“ZARAFSHON” GAZETASINING TARIXI VA UNING MATBUOTCHILIKDA TUTGAN O‘RNI

Sh.Qarshiboyeva, magistrant, O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Zarafshon” gazetasining vujudga kelish tarixi, uning o‘tgan asrdagi faoliyati hamda o‘zbek matbuotchiligi taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. “Zarafshon”ning mahalliy ijtimoiy-madaniy hayotni yoritishdagi xususiyatlari, o‘zbek matbuotchiligini shakllanishiga qo‘shgan hissasi hamda boshqa zamonaviy nashrlardan farqli jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqola natijalari gazetaning XX asr boshlaridagi adabiy jarayon va matbuot tarixida muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *“Zarafshon” gazetasi, jadidlar, matbuot, adabiyot, ma’rifat, milliy uyg‘onish.*

Аннотация. *В данной статье анализируются история появления газеты "Зарафшон", её деятельность в прошлом столетии, а также её роль в развитии узбекской журналистики. На научной основе изучаются особенности "Зарафшона" в освещении местной социально-культурной жизни, его вклад в формирование узбекской прессы и отличительные черты по сравнению с другими современными изданиями. Результаты исследования показывают, что газета занимала важное место в литературном процессе и в истории прессы начала XX века.*

Ключевые слова: *газета "Зарафшон", джадиды, пресса, литература, просвещение, национальное возрождение.*

Abstract. *In this article, the history of the emergence of the newspaper Zarafshon, its activities in the last century, and its role in the development of Uzbek journalism are analyzed. The peculiarities of Zarafshon in covering local socio-cultural life, its contribution to the formation of Uzbek press, and its distinctive features compared to other contemporary publications are examined on a scholarly basis. The results of the study show that the newspaper played an important role in the literary processes and press history of the early 20th century.*

Keywords: *"Zarafshon" newspaper, Jadids, press, literature, enlightenment, national awakening.*

XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida matbuotning jadallik bilan rivojlanishi ijtimoiy-madaniy hayotda muhim burilish yasadi. Jadidchilik harakati, ma'rifatparvarlik g'oyalari, milliy uyg'onish jarayoni ta'siri ostida yuzaga kelgan yangi gazeta va jurnallar jamiyat tafakkurining shakllanishida beqiyos rol o'ynadi. Ana shunday nashrlar qatorida "Zarafshon" gazetasi o'zining mahalliy xususiyati, adabiy-badiiy ruhdagi materiallari va ma'rifiy yo'nalishi bilan alohida ahamiyat kasb etdi.

"Zarafshon" gazetasi O'zbekiston matbuot tarixida muhim o'rin tutadigan, jadidchilik va ma'rifatparvarlik ruhida shakllangan nashrlardan biridir. Uning ildizlari XX asr boshidagi Turkiston hududidagi milliy matbuot jonlanishi bilan chambarchas bog'liq. Gazetaning shakllanish tarixi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi.

"Zarafshon" gazetasining bevosita ildizi 1913-yilda Samarqand shahrida Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirligida nashr etilgan "Samarqand" gazetasiga borib taqaladi. Ayni paytda bu gazeta:

ma'rifat,
xalq og'zaki ijodi,
adabiyot va til masalalari,
milliy uyg'onish g'oyalari

singari mavzularni yoritish bilan o'sha davr jadid matbuoti uchun kuchli asos yaratgan edi. "Samarqand" gazetasining keyinchalik "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi" kabi turli nomlar bilan chiqib turishi uning siyosiy sharoitlarga mos ravishda taraqqiy etganini ko'rsatadi.

"O'zbek matbuoti va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan gazetaning ilk soni Samarqand jadidlarining to'ng'ich gazetasi sifatida "Samarqand" nomi bilan 1913-yil 15-aprelda Mahmudxo'ja Behbudiy mas'ul muharrirligida chiqa boshlaydi. Haftada ikki marta ikki betlik bo'lib chiqqan ushbu gazetaning shakllanishida ma'rifatparvar insonlar — Said Rizo Alizoda, Hoji Muin, Fitrat, Rojiy, Siddiqiy-Ajziy, Nurmuhammad Bek o'g'li, Kamiy faol qatnashganlar" [1].

Gazetaning tashkilotchilari sifatida alohida bir shaxs emas, balki viloyat Kengashi, mahalliy ma'muriy idoralar va tahririyat jamoasining tashabbusi ko'rsatiladi. Ammo xalq ma'rifatining ilg'or ziyolilari ham ushbu gazeta yaratilishi uchun jam bo'lgan edi.

"1918-yil 11-iyundan e'tiboran "Hurriyat" gazetasi "Kambag'allar tovushi" nomi bilan chiqa boshladi. Oradan ikki yil o'tgach, 14-oktyabrda "Kambag'allar tovushi"ni "Mehnatkashlar tovushi" davom ettirdi. 1922-yil may oyiga kelib, gazeta "Zarafshon" nomi bilan chiqa boshladi. 1922-yil oktyabr oyida gazeta "Zarafshon" nomi bilan rasmiy nashr sifatida qayta tashkil etildi." [2] Bu davrda gazeta:Turkiston ASSR siyosiy-ma'rifiy siyosatini targ'ib qilar, xalq maorifi, savodxonlikni oshirish, yangi o'zbek adabiy tilini shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy hayotdan xabar berish vazifalarini bajardi. "1922- yil o'rtalarida "Qizil bayroq" gazetasida "Kambag'allar tovushi" gazetasining og'ir holida

qolg'onidan, 2-3 daf'a maqolalar yozildi. Bularni nazari e'tiborga olib Turkiston jumhuriyatining markaziy firqa qo‘mitasi Samarqandda "Zarafshon" o'tliq muntazam bir gazeta chiqarish uchun o'rtoq G'ozi Yunusni tayinladi. G‘ozi o‘rtoq Toshkanddan bir necha pud yangi harf, 150 pudcha yaxshi oq kog'oz va ikkita hurufchin kelib chiqadi (22-yil o'ktabrida) "Zarafshon"sini gazeta chiqara oladi. G‘ozi o‘rtoq bu gazetani har issiq yaxshig‘ina yo‘lg‘a qo‘yg‘ondan so‘ng o‘zi (1923-yil boshlarida) Toshkandga ketdi." [3]

1924–1925-yillar "Zarafshon"ning ayniqsa adabiy-badiiy yo‘nalishi kuchaygan davri bo‘lib, bu yillarda gazeta sahifalarida: Vadud Mahmud, Cho‘lpon,

Fitrat, mahalliy shoirlar va o‘qituvchilar, adabiy tanqid bilan shug‘ullanuvchi ziyolilar ning maqola va she'rlari bosilgan. Bu nashr Markaziy Osiyoda shakllanayotgan yangi adabiy tilda yozilgan maqolalar uchun ham muhim platforma bo‘lgan. "1928-yil noyabr oyida Toshkentda chop etilayotgan "Qizil O‘zbekiston" gazetasi tahririyati Samarqandga ko‘chirilgach, "Zarafshon" faoliyatini vaqtincha to‘xtatadi. 1930-yil 7-noyabrda gazeta "Lenin yo‘li" nomi bilan yana chop etila boshlanadi. 1931-yildan e'tiboran kundalik nashrga aylanadi.1991-yildan gazeta o‘zining eski – "Zarafshon" nomi bilan chiqa boshlaydi. 2011-yil dekabrda "Zarafshon" va "Samarkandskiy vestnik" gazetalari birlashgan tahririyati tashkil etildi" [4].

Sovet davri boshida gazeta: ma'rifiy targ‘ibot, xalq savodxonligini oshirish,

teatr va adabiyot yangiliklarini yoritish, folklor va xalq ijodiga e'tibor, yangi jamiyatni qurish g‘oyalarini tarqatish kabi vazifalarni bajargan.

Shu bilan birga, gazeta jadidchilik an'analaridan ham butunlay uzilib qolmagan, bunga o‘tgan asrdagi xalq adabiyotiga murojaat, til islohoti masalalari, o‘qituvchilar faoliyatiga oid maqolalarning ham yaratilganini dalil sifatida keltirishimiz mumkin.

"Zarafshon" gazetasi O‘zbekiston matbuot tarixida mahalliy ijtimoiy hayotni yorituvchi, ma'rifiy fikrni shakllantiruvchi nashrlar qatorida muhim o‘rin tutadi. Gazeta 1917–1918-yillarda jadid ziyolilari tashabbusi bilan Samarqandda chiqishni boshlagan bo‘lsa-da, uning muntazam faoliyati 1924-yildan keyin, milliy-hududiy chegaralarning qayta belgilanishi va Samarqand viloyatining tashkil topish davrida mustahkamlandi. Ayniqsa, 1924–1925-yillar gazetaning to‘laqonli mahalliy nashr sifatida shakllangan, siyosiy-iqtisodiy mavzular bilan bir qatorda adabiy-badiiy sahifalar kengaygan davri bo‘ldi. Gazetaning maqsadi mintaqa aholisi o‘rtasida savodxonlikni oshirish, ma'rifatni targ‘ib qilish, ijtimoiy yangiliklarni qishloq va shahar aholisiga yetkazish hamda adabiyot orqali jamiyat madaniy hayotini yaxshilashdan iborat edi. Shu bois "Zarafshon"ning ilk sonlarida siyosiy maqolalar bilan bir qatorda hikoya, she'r, tarjima, adabiy tanqid, folklor namunalariga keng o‘rin berildi. Gazetaga Turkiston jadidchilik maktabi vakillari, keyinchalik sovet davri matbuoti shakllanishida faol bo‘lgan ziyolilar asos solgan. Tahririyat tarkibida o‘sha yillarda Samarqandda faoliyat yuritgan ma'rifatparvar muallimlar, yosh jurnalistlar, tarjimonlar, adabiyot yaxshi bilgan ijodkorlar faol ishlagan.

"1924–1925-yillar "Zarafshon"ning faoliyatida ikki muhim jarayon kuzatiladi:

1) Gazetaning adabiy-badiiy yo‘nalishining kuchayishi. Bu davrda gazeta sahifalarida yosh shoirlar, o‘quvchilar, ziyolilar tomonidan yuborilgan she'rlar, kichik hikoyalar, jamiyat hayotini aks ettiruvchi realistik tasvirlar ko‘paydi. Adabiy tanqidning ilk unsurlari, yangi she'riyat talqinlari ham aynan shu yillarda kuzatiladi.

2) Mahalliy muhitga yo‘naltirilgan jurnalistika shakllanishi. Gazeta faqat markaziy siyosatni yoritish bilan cheklanmay, Zarafshon vodiysi, Samarqand vohasi, qishloq xo‘jaligi, o‘qituvchilar faoliyati, madaniyat bo‘yicha maxsus ruknlar ochdi. Bu jihat uni boshqa respublika miqyosidagi nashrlardan ajratib turardi.

Gazeta o‘z faoliyati davomida ko‘plab ijodkorlar va yosh qalamkashlar uchun maktab bo‘ldi. Keyinchalik o‘zbek adabiyoti va matbuotida tanilgan bir qancha jurnalist va yozuvchilar ilk bor aynan "Zarafshon" sahifalarida adabiy sinovdan o‘tgan" [5].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, "Zarafshon" gazetasi o‘zbek matbuot tarixida mahalliy ijtimoiy hayotni aks ettirgan, ma'rifiy fikrni targ‘ib qilgan va adabiy jarayonning shakllanishida muhim o‘rin tutgan nashrlardan biridir. Ushbu gazeta sonlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, gazeta nafaqat siyosiy va iqtisodiy mavzularni, balki adabiyot, til, xalq og‘zaki ijodi kabi sohalarni ham chop etilgan. Bu

yillarda gazeta sahifalarida Cho‘lpon, Hoji Muin, Fitrat kabi taniqli ijodkorlarning fikrlari, shuningdek mahalliy qalamkashlarning asarlari chop etilib, adabiy ong va badiiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilgan. Gazetaning boshqa matbuot nashrlaridan farqli jihati: uning mintaqaviy adabiy muhitni shakllantirish, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash va o‘zbek adabiy tilining soddalashuviga hissa qo‘shganidadir. Shuningdek, folklor namunalarining muntazam berib borilishi gazetaning ma’naviy merosni saqlash va targ‘ib qilishdagi rolini kuchaytirib bergan. Umuman olganda, “Zarafshon” gazetasi o‘zbek milliy matbuotchiligi tarixida o‘ziga xos maktab yaratgan, adabiy jarayonning rivojiga sezilarli ta’sir o‘tkazgan muhim nashr sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Samarqand (jadidlar gazetasi)” sahifasi, uzpedia.uz, https://uzpedia.uz/pedia/samarqand_jadidlar_gazetasi?utm_
2. “Zarafshon” tarixi — rasmiy sayt, zarnews.uz, https://www.zarnews.uz/uz/page/redaksiya?utm_source=chatgpt.com
3. Maqola: “Zarafshon gazetasi bilan 23-minginchi uchrashuv”, uzhurriyat.uz, https://uzhurriyat.uz/2018/04/17/zarafshon-gazetasi-bilan-23-minginchi-uchrashuv/?utm_
4. Hoji Muin — “Samarqandda matbuot ahvoli (1923)”, n.ziyouz.com, https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/hoji-muin-samarqandda-matbuot-ahvoli-1923?utm_
5. Onlayn maqola: “Zamon bilan hamnafas nashr”, uza.uz, https://uza.uz/oz/posts/zamon-bilan-hamnafas-nashr-01-11-2019
6. Rasmiy viloyat sayti — “Zarafshon” tarixi, samarkand.uz, https://samarkand.uz/uz/about_region/massmedia/zarafshon?utm_source=chatgpt.com

UO’K 389.1(555.2):94(47)

XORAZMDA SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA POCHTA TIZIMI

Z.K.Rajabova, doktorant, Urganch Davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sovet hokimiyati davrida pochta tizimining tashkil etilishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. XX asrning 20–30-yillarida aloqa tarmoqlarini markazlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, pochta tizimi iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy-ma’rifiy hayotda muhim rol o‘ynagan. Arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyotlar va tarixiy manbalar asosida Xorazm viloyatida pochta bo‘limlari faoliyatining qayta yo‘lga qo‘yilishi, moddiy-texnik ta’minot, xodimlar tanqisligi va tashkilotchilikdagi muammolar yoritiladi. Shuningdek, pochta xizmatining xalq xo‘jaligi va aholining ijtimoiy hayotidagi o‘rni, siyosiy targ‘ibot va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari Sovet davrida pochta tizimi nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki davlat boshqaruvi va iqtisodiy islohotlarning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Sovet hokimiyati, pochta tizimi, telegraf, aloqa, Xorazm, arxiv hujjatlari, iqtisodiy hayot, madaniy-ma’rifiy faoliyat.*

Аннотация. *В статье анализируются процессы организации и развития почтовой системы в период Советской власти. В 1920–1930-е годы централизация коммуникационных сетей стала одним из приоритетных направлений государственной политики, и почтовая система играла важную роль в экономической, политической и культурно-просветительской жизни. На основе архивных документов, научной литературы и исторических источников рассматривается возобновление деятельности почтовых отделений в Хорезмской области, материально-техническое обеспечение, кадровый дефицит и организационные проблемы. Кроме того, подчеркивается значение почтовой службы в народном хозяйстве и социальной жизни населения, а также в политической пропаганде и культурно-просветительской деятельности. Результаты исследования показывают, что в советский период почтовая система была не только средством обмена информацией, но и важной частью государственного управления и экономических реформ.*

Ключевые слова: *Советская власть, почтовая система, телеграф, связь, Хорезм, архивные документы, экономическая жизнь, культурно-просветительская деятельность.*

Abstract. *This article analyzes the organization and development of the postal system during the Soviet period. In the 1920s–1930s, the centralization of communication networks became one of the main directions of state policy, and the postal system played an important role in economic,*

political, and cultural-educational life. Based on archival documents, scholarly literature, and historical sources, the article examines the restoration of postal offices in the Khorezm region, material and technical support, staff shortages, and organizational issues. Furthermore, it highlights the role of the postal service in the national economy and social life, as well as in political propaganda and cultural-educational activities. The results of the study demonstrate that during the Soviet era, the postal system was not only a means of communication but also an integral part of state governance and economic reforms.

Keywords: *Soviet power, postal system, telegraph, communication, Khorezm, archival documents, economic life, cultural-educational activity.*

Kirish. XX asr boshlarida Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi nafaqat siyosiy va iqtisodiy tizimlarda, balki jamiyatning kundalik turmushida ham tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu davrda davlat boshqaruvi markazlashuvi bilan bir qatorda aloqa tizimining qayta tashkil etilishi dolzarb masalalardan biri bo‘ldi. Chunki pochta tizimi davlat farmonlari, qarorlari va turli xil hujjatlarni markazdan joylarga yetkazish, iqtisodiy va xo‘jalik aloqalarini muvofiqlashtirish hamda aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi.

Sovet hokimiyati davrida pochta tizimining qayta tashkil etilishi ikki yo‘nalishda olib borildi: birinchidan, mahalliy pochta bo‘limlarini qayta tiklash va ularni moddiy-texnik jihatdan ta’minlash; ikkinchidan, pochta xizmatini davlat siyosati va mafkurasiga bo‘ysundirish. Bu jarayon o‘z navbatida iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishi, aholining ijtimoiy-ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatishi hamda madaniy-ma’rifiy jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, XX asrning 20–30-yillarida Xorazm va butun O‘zbekiston hududida pochta tizimining shakllanishi, uning davlat boshqaruvidagi roli, moddiy-texnik muammolari va ijtimoiy ahamiyatini o‘rganish bugungi tarixshunoslik uchun muhimdir. Ayniqsa, arxiv hujjatlari va ilmiy manbalar asosida pochta tizimining siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy jarayonlardagi o‘rni chuqur tahlil qilinishi Sovet davri tarixi bo‘yicha yangi ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Sovet hokimiyati davrida pochta tizimining qayta tashkil etilishi masalasi bo‘yicha mahalliy va xorijiy tarixshunoslikda bir qator tadqiqotlar mavjud. Xususan, Sh. Saidovning *“Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashqi munosabatlari va savdo aloqalari (1920–1924 yy.)”* asarida XXSR davrida pochta va telegraf tizimining markaziy boshqaruvga o‘tkazilishi, davlat shartnomalari orqali aloqa tarmoqlarining rivojlanishi haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. I. Yusupovning dissertatsiyasida esa Xorazm hududida pochta tizimining bosqichma-bosqich shakllanishi, uning tashkiliy muammolari va davlat boshqaruvidagi roli yoritilgan.

Bundan tashqari, K. R. Rahimovning *“Почтовая связь, распространение печати”* nomli kitobida pochta xizmatining nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki madaniy-ma’rifiy jarayonlardagi ahamiyati ham ko‘rsatib berilgan. Ushbu manba pochta tizimining davlat siyosati va targ‘ibot ishlarida qanchalik muhim bo‘lganini ilmiy asosda yoritib beradi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining (Ф.246, Оп.1, Д.243) hujjatlarida 1920–1930-yillarda Xorazm viloyatida yangi pochta bo‘limlari ochilishi, ularning moddiy-texnik ta’minoti, xodimlar tanqisligi va tashkiliy muammolar haqida aniq dalillar uchraydi.

Mazkur adabiyotlar va hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Sovet hokimiyati davrida pochta tizimining qayta tashkil etilishi masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, u iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-ma’naviy jihatlarni o‘z ichiga olgan.

Muhokama va natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalari Sovet hokimiyati davrida pochta tizimining qayta tashkil etilishi jarayonida tub o‘zgarishlar amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar nafaqat tashkiliy va moddiy-texnik ta’minotda, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy jarayonlarda ham yaqqol sezildi.

1920-yillardan boshlab pochta tizimi davlatning markaziy boshqaruviga o‘tkazildi. 1925-yil 20-avgustdagi hujjatlarda Gurlan va Xo‘zaraspda yangi pochta bo‘limlarini ochish, ularni zarur moddiy vositalar bilan ta’minlash, xodimlarni tayinlash masalalari ko‘tarilgan [1]. Shartnomada har bir bo‘lim uchun binolar ajratish, stollar, stullar, kantselyariya jihozlari va pul saqlash sandig‘i bilan

ta’minlash qat’iy belgilangan edi. Bu hujjatlar pochta tizimining huquqiy asoslari shakllanganidan dalolat beradi.

Pochta tizimi samarali ishlashi uchun moddiy-texnik ta’minot muhim ahamiyat kasb etdi. Arxiv hujjatlarida yangi ochilgan bo‘limlarda ko‘plab qiyinchiliklar kuzatilgani qayd etiladi: blankalar, hisob-kitob daftarlarining yetishmasligi, xodimlar uchun yashash joylarining mavjud emasligi kabi muammolar keng tarqalgan edi[2]. Shunga qaramay, markaziy idoralar tomonidan muntazam ravishda zarur jihozlar va mablag‘lar ajratilib, tizim asta-sekin mustahkamlandi.

Sovet hokimiyati pochta tizimidan mafkuraviy targ‘ibot vositasi sifatida ham keng foydalandi. K. R. Rahimovning ta’kidlashicha, pochta orqali gazeta va jurnallarning muntazam tarqatilishi keng xalq ommasini kommunistik mafkura bilan tanishtirish va ularning ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan[3]. Shu tariqa pochta tizimi siyosiy axborotning asosiy tashuvchisiga aylangan. Ayniqsa, qishloq hududlarida aholining dunyoqarashini o‘zgartirishda pochta orqali tarqatilgan matbuot nashrlari katta ta’sir ko‘rsatgan.

Pochta tizimi iqtisodiy jarayonlarning uzluksizligini ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Aloqa kanallari orqali xo‘jalik hujjatlari, moliyaviy hisob-kitoblar va pul o‘tkazmalari tezkor yetkazildi. Bu holat sanoat va qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda xalq xo‘jaligi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildi[4]. Shuningdek, pochta orqali tezkor moliyaviy axborot almashinuvi o‘z davrida iqtisodiy islohotlarning jadallashtirilishiga yordam berdi. Shu bilan birga, pochta tizimining faoliyatida jiddiy muammolar ham saqlanib qoldi. Arxiv manbalarida ta’kidlanishicha, aholining ehtiyojlari to‘liq qondirilmagan, xizmat sifatidan kelib chiqadigan shikoyatlar soni kamaymagan. Xodimlarning qo‘pol muomalasi, rahbarlarning rasmiyatchilikka berilishi va aholining murojaatlariga e’tiborsizligi tizim samaradorligini pasaytirgan. Xatlar manzilga kech yetib borgani, gazeta va jurnallarning o‘z vaqtida tarqatilmaganligi va pul o‘tkazmalarida xavfsizlikka rioya qilinmagani xizmat sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan

Pochta tizimi madaniy-ma’rifiy jarayonlarning ham ajralmas qismi bo‘ldi. Xatlar almashinuvi orqali oilaviy va shaxsiy muloqot kuchaydi, aholining savodxonlik darajasi oshdi, madaniy-ma’rifiy adabiyotlarning keng tarqalishiga imkon yaratildi. Bu jarayon ijtimoiy ongning shakllanishida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning xalq ongiga singdirilishida muhim rol o‘ynadi.

Sovet davrida pochta tizimining qayta tashkil etilishi ikki asosiy yo‘nalishda olib borilganini ko‘rish mumkin:

Tashkiliy va moddiy-texnik rivojlanish — yangi bo‘limlarning ochilishi, jihozlanishi va muntazam qatnov tizimining yo‘lga qo‘yilishi.

Siyosiy-mafkuraviy funksiyalar — pochta tizimi targ‘ibot vositasiga aylantirilgan va matbuot tarqatish orqali aholining ongini shakllantirishda faol ishlatilgan.

Saidov Shavkatning tadqiqotida ta’kidlanishicha, Sovet hokimiyati pochta tizimini tashqi savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirishda ham ishlatgan, bu esa Xorazm va O‘zbekistonning markaz bilan bog‘liqligini mustahkamlashga xizmat qilgan[5]. Yusupovning dissertatsiyasida esa Xorazmda pochta tizimi 1920–1940-yillarda bosqichma-bosqich shakllanib, dastlabki iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, mustahkam asos yaratilgani ta’kidlangan[6].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sovet hokimiyati davrida pochta tizimining qayta tashkil etilishi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida strategik ahamiyat kasb etgan. Pochta tizimi faqatgina xatlar, posilkalar va pul o‘tkazmalarini tashish vositasi bo‘lib qolmagan, balki:

Davlat boshqaruvi – hukumat qarorlarini tezkor yetkazish, markaz va hududlar o‘rtasida uzluksiz aloqani ta’minlashda muhim rol o‘ynagan.

Iqtisodiy jarayonlar – xo‘jalik hujjatlari va moliyaviy hisob-kitoblarning pochta orqali tezkor almashuvi sanoat va qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirgan.

Siyosiy-mafkuraviy vazifa – gazeta va jurnallarni keng tarqatish orqali kommunistik mafkuraning targ‘iboti, jamiyat ongini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lgan.

Madaniy-ma’rifiy jarayonlar – xatlar va matbuot almashinuvi orqali aholining savodxonligi, madaniy dunyoqarashi kengaygan.

Xorazm viloyati misolida ko‘rilgandek, 1920–1930-yillarda pochta tizimi bosqichma-bosqich shakllangan, dastlab moddiy-texnik qiyinchiliklarga duch kelingan bo‘lsa-da, markaziy idoralar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, barqaror faoliyat ko‘rsatishga erishilgan.

Shunday qilib, Sovet hokimiyati davrida pochta tizimi davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida rivojlanib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida beqiyos o‘rin egallagan. Bugungi kunda ushbu tarixiy tajriba nafaqat o‘tmishni o‘rganishda, balki zamonaviy aloqa tizimlarini rivojlantirish jarayonida ham ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi. Ф.246, Оп.1, Д.243, Л.15.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi. Ф.246, Оп.1, Д.243, Л.16.
3. Рахимов К. Р. *Почтовая связь, распространение печати.* – Ташкент: Общество «Знание» УзССР, 1975. – Б. 12.
4. Rahimov K. R. *Pochtovaya svyaz i rasprostranenie pechati.* – Tashkent, 1975.
5. Saidov Sh. *Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashqi munosabatlari va savdo aloqalari (1920–1924 yy.).* – Toshkent: Sharq, 2007.
6. Yusupov I. *Xorazmda pochta tizimining shakllanishi (1920–1940 yy.).* – Dissertatsiya. Toshkent, 2019.

UDK 908

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA QASHQADARYO VOHASIDAGI BEKLIKLARDA MAORIF TIZIMI: MADRASA VA MAKTABLAR TARIXIDAN LAVHALAR

N. Rajabova, t.f.n., dots., Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasidagi bekliklar (Qarshi, G‘uzor, Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz) madrasa va maktablarining tizimiy tahliliga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *Qashqadaryo vohasi, Buxoro amirligi, beklig, madrasa, maktab, vaqf, mudarris, maktabdor, ta’lim tizimi.*

Аннотация. *Данная статья посвящена системному анализу медресе и школ бекств (Карши, Гузар, Чиракчи, Китоб, Шахрисабз) Кашкадарьинской долины в конце XIX — начале XX веков. В работе рассматриваются особенности функционирования образовательных учреждений в условиях Бухарского эмирата, их организационная структура, источники финансирования и роль в формировании традиционной системы образования.*

Ключевые слова: *Кашкадарьинская долина, Бухарский эмират, бекство, медресе, школа, вакф, мударрис, мактабдор, система образования.*

Abstract. *This article is devoted to a systematic analysis of madrasas and schools in the beklik territories (Karshi, Guzar, Chirakchi, Kitab, Shahrisabz) of the Kashkadarya oasis in the late nineteenth and early twentieth centuries. The study examines the functioning of educational institutions within the Bukhara Emirate, their organizational structure, sources of funding, and their role in shaping the traditional education system.*

Key words: *Kashkadarya oasis, Bukhara Emirate, beklik, madrasa, school, waqf, mudarris, maktabdor, education system.*

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr bosgi Buxoro amirligi maorif tizimini o‘rganishda uning tarkibidagi hududiy bo‘linmalar – bekliklarning madaniy darajasi alohida ahamiyatga ega. Qashqadaryo vohasi bekliklari (Qarshi, G‘uzor, Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz) nafaqat siyosiy, balki madaniy-maorif markazlari sifatida ham shakllangan. Voha bekliklarida oliy va boshlang‘ich ta’lim muassasalari – madrasa va maktablar faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari, moliyaviy manbalari va o‘quv jarayonlari hali yetarlicha qiyosiy o‘rganilmagan. Maorif sohasidagi bu muassasalar har bir bekliging o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy sharoitida shakllanganligi sababli, ularni kompleks tahlil qilish mintaqa madaniyat tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Qashqadaryo vohasidagi asosiy bekliklarda faoliyat yuritgan madrasa va maktablarning tizimiy qiyosiy tahlilini amalga oshirish, ularning vaqf tizimi asosida moliyalashuvi, o‘qituvchilar va o‘quvchilar tarkibi, o‘quv dasturlari va ta’limning ijtimoiy natijalarini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi savolga javob topishga harakat qilinadi:

Qashqadaryo vohasi bekliklaridagi maorif tizimi qanday umumiy va mahalliy xususiyatlarga ega bo‘lgan va u qaysi omillar ta’sirida shakllangan?

Metodologiya. Tadqiqotning manbaviy bazasini Buxoro amirligi markaziy hukumatining hujjatlari, mahalliy hokimlar (Hakimbek va boshqalar) xatlari, vaqf hujjatlari, shuningdek, mintaqa arxivlaridagi materiallar tashkil etadi. Ushbu hujjatlarning qiyosiy-tarixiy tahlil metodidan foydalangan holda o‘rganilgan.

Natijalar. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni aniqlashga imkon berdi:

1. Huquqiy va moliyaviy asos

Qashqadaryo vohasidagi barcha bekliklarda madrasa va maktablar asosan vaqf mulklari hisobiga moliyalashtirilgan. Vaqf hujjatlari shariat qonunlari asosida qozi tomonidan tasdiqlangan. Vaqf mulklari orasida tokzorlar, tegirmonlar, moyjuvozlar va turli imoratlar bo‘lgan.

2. Ta’lim muassasalarining mintaqaviy tuzilmasi

Qarshi bekligi:

10 dan ortiq yirik madrasalar (Xoja Abdulaziz, Bekmir, Qozikalon madrasalari)

Rivojlangan maktabdorlar maktablari.

Har bir masjid yonida machit maktablari.

Savdo yo‘llari chorrahasida joylashganligi tufayli yirik madrasalar Markazi.

G‘uzor bekligi:

Savdo yo‘llari ustida joylashganligi tufayli nisbatan rivojlangan madrasa va maktabdorlar maktablariga ega.

Madrasalarda ko‘p sonli tolibi ilmlar ta’lim olgan.

XIX asr boshlarida ham oliy darajadagi madrasalar mavjud bo‘lgan.

Shahrisabz bekligi:

An’anaviy madaniy markaz sifatida yirik madrasalar va kutubxonalarga ega.

Madrasalar binolari hashamatli qurilgan.

Badiiy adabiyot va she’riyat markazi.

Chiroqchi bekligi:

Asosan qishloq maktablariga ustunlik bergan.

Domla-imomlar tomonidan boshqariladigan oddiy boshlang‘ich maktablar ko‘p bo‘lgan.

Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanish ta’siri.

Kitob bekligi:

Qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik bilan shug‘ullanganligi sababli an’anaviy maktablar ustun.

Amaliy kasb-hunar ta’limiga e’tibor.

3. O‘quv jarayoni va ta’lim dasturi

Barcha bekliklarda o‘quv dasturiga quyidagi fanlar kirgan:

Diniy fanlar:

Tafsir, hadis, fiqh (islom huquqshunosligi).

Shariat asoslari.

Dunyoviy fanlar:

Arab grammatikasi va mantiq

Matematika va hisob

Falakiyot va tibbiyot (asosan Qarshi va Shahrisabzda)

Amaliy ko‘nikmalar:

Xattotlik

She’riyat va adabiyot

Arab va fors tillari

4. Pedagogik kadrlar va talabalar

Mudarrislar:

Oliy ma’lumotli, arab va fors tillarini bilgan olimlar.

Ko‘p hollarda Hijoz, Misr va Hindistonda tahsil olgan.

Mahalliy forsiy adabiyot va she’riyatni yaxshi bilgan.

Talabalar:

Asosan mahalliy aholi farzandlari.

Qo‘shni bekliklardan kelgan talabalar.

Badavlat oilalar farzandlari maktabdorlar maktablarida, kambag‘allar machit maktablarida.

5. Ijtimoiy ta’sir va natijalar

Ta’limni tugatgach, shogirdlarning:

Bir qismi savdo, kosibchilik bilan shug‘ullangan.

Boshqalari madrasaga o‘qishga kirgan.

Ayrimlari xattotlikni kasb qilgan.

Madrasani bitirganlar qozilik, imomlik, hisobdorlik kabi lavozimlarda ishlagan.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo vohasi bekliklaridagi maorif tizimi Buxoro amirligining an’anaviy diniy ta’lim modeliga mos keladi, biroq har bir bekliging o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy sharoitiga ko‘ra mahalliy xususiyatlarga ega bo‘lgan.

Qarshi va Shahrisabz bekliklarining savdo yo‘llari ustida joylashganligi bu hududlarda yirik madrasalar va nisbatan rivojlangan maktablar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Chiroqchi va Kitob bekliklarida esa qishloq xo‘jaligining ustunligi an’anaviy qishloq maktablarining keng tarqalishiga olib kelgan.

Qarshi bekligi alohida o‘rinni egallaydi, chunki u nafaqat ma’muriy markaz, balki butun janubiy Buxoro uchun kadrlar tayyorlash markazi bo‘lgan. Qarshi madrasalari Buxoro va Samarqand madrasalariga nisbatan amaliy fanlar (tibbiyot, falakiyot)ga ko‘proq e’tibor bergan.

Vaqf tizimi nafaqat madrasa va maktablarni, balki ularga qarashli kutubxona kabi madaniy muassasalarni ham qo‘llab-quvvatlash imkonini bergan, bu esa vohani madaniy markazga aylantirishga xizmat qilgan.

Ta’limning ijtimoiy tabaqalashuvni mustahkamlovchi roli aniq ko‘rinadi: badavlat oilalar farzandlari yaxshi ta’lim olgan bo‘lsa, kambag‘al oilalar farzandlari moddiy qiyinchiliklar tufayli erta maktabdan olib qo‘yilgan.

Xulosa. XIX asr oxiri – XX asr bosgi Qashqadaryo vohasi bekliklaridagi maorif tizimi murakkab ierarxik tuzilmaga ega bo‘lib, u diniy an’analar, mahalliy iqtisodiy ehtiyojlar va ijtimoiy munosabatlar uyg‘unligi natijasida shakllangan.

Har bir bekliging maorif tizimi uning iqtisodiy tuzilishiga mos ravishda shakllangan: savdo bilan shug‘ullanadigan bekliklarda (Qarshi, G‘uzor, Shahrisabz) yirik madrasalar rivojlangan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadigan bekliklarda (Chiroqchi, Kitob) an’anaviy maktablar ustun bo‘lgan. Ushbu tizim mintaqaning madaniy-maorif darajasini belgilab bergan va Buxoro amirligining madaniy sahnasida Qashqadaryo vohasining muhim o‘rin tutishiga sabab bo‘lgan. Qashqadaryo vohasi bekliklaridagi madrasa va maktablar nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarni ham tarqatish, mintaqaning madaniy hayotini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abduraxmonov, M. (2018). Buxoro amirligida maorif tizimi. Toshkent: Fan nashriyoti.

2. Bobojonov, S. (2020). Buxoro amirligida maorif tizimi: Madrasalar va maktablar. O‘zbekiston Tarixi Jurnali, 45(3), 56-67.

3. Jo‘rayev, I. (2021). Buxoro amirligining janubiy bekliklari. Toshkent: Sharq nashriyoti.

4. Qosimova, M. (2019). Buxoro amirligi bekliklarida ta’lim muassasalari: G‘uzor misolida. Tarix va Arxeologiya: Ilmiy-Tadqiqot Maqolalari, 7(4), 112-125.

5. Qosimova, M. (2020). "Qarshi madrasalari tarixidan". O'zbekiston Tarixi jurnali, 4(2), 45-56.

6. Saidov, T. (2019). Qashqadaryo vohasi madrasa va maktablari. Qarshi: Nasaf nashriyoti.

UO’K 070.4(575)

O‘ZBEKISTONDA INTERNET JURNALISTIKASINING INSTITUTSIONAL RIVOJI: SIYOSAT, AMALIYOT VA DOLZARB MUAMMOLAR

Sh.X.Rashidov, o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

https://orcid.org/0009-0008-9747-7185

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda internet jurnalistikasining shakllanishi va institutsional rivoji qisqa tahlil qilinadi. Raqamli media platformalarining kengayishi, nodavlat OAVning*

faollashuvi va jurnalistlarning raqamli muhitga moslashuvi asosiy yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, internet jurnalistikasining davlat ochiqligi, jamoatchilik nazorati va samarali muloqotni ta'minlashdagi o'rni yoritiladi. Soha rivojiga ta'sir qilayotgan dolzarb muammolar hamda uning kelajakdagi istiqbollari qisqa tarzda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: *Internet jurnalistikasi, media siyosati, davlat ochiqligi, raqamli kommunikatsiya, nodavlat OAV, jamoatchilik nazorati, axborot makoni, raqamlashtirish, jurnalistika funksiyalari, media islohotlar.*

Аннотация. *В статье кратко анализируются формирование и институциональное развитие интернет-журналистики в Узбекистане. Рассматриваются расширение цифровых медиаплатформ, активизация негосударственных СМИ и адаптация журналистов к цифровой среде как основные направления развития. Подчёркивается роль интернет-журналистики в обеспечении открытости государства, усилении общественного контроля и повышении эффективности коммуникации. Также кратко освещаются актуальные проблемы, влияющие на развитие отрасли, и её будущие перспективы.*

Ключевые слова: *интернет-журналистика, медиа-политика, открытость государства, цифровая коммуникация, негосударственные СМИ, общественный контроль, информационное пространство, цифровизация, функции журналистики, медиа-реформы.*

Abstract. *The article provides a concise analysis of the formation and institutional development of internet journalism in Uzbekistan. It examines the expansion of digital media platforms, the growing activity of non-state media outlets, and the adaptation of journalists to the digital environment as key directions of development. The study also highlights the role of internet journalism in ensuring state transparency, strengthening public oversight, and enhancing effective communication. Additionally, it briefly outlines the main challenges affecting the sector and discusses its future prospects.*

Keywords: *Internet journalism, media policy, state transparency, digital communication, non-state media, public oversight, information space, digitalization, journalistic functions, media reforms*

Axborot asrida eng asosiy va muhim tovar — bu axborotdir. Ayniqsa, uning eng yangi va qimmatli ko'rinishiga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. 1990-yillardan boshlab kitoblarning ham internet orqali sotilishi jahon axborot bozorida yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, 1995-yilda o'z faoliyatini boshlagan **Amazon.com** yirik onlayn savdo platformasi qisqa vaqt ichida minglab kitoblarni global miqyosda xaridorlarga yetkazib beruvchi eng qudratli tarmoqlardan biriga aylandi. Bugungi kunda esa dunyo aholisi kundalik turmush faoliyatida tobora ko'proq raqamli texnologiyalar, xususan, internet xizmatlariga tayanmoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi deyarli barcha tashkilotlar o'z faoliyatini virtual tizimda olib borishi va global axborot makonida o'z "hududi"ga ega bo'lishi ushbu jarayonning tabiiy oqibati hisoblanadi.

Qaysi mamlakat bo'lmasin, taraqqiyotga erishish uchun o'ziga xos o'tish davrini boshidan kechirishi shart. Mamlakatimiz xalqi ham o'tgan chorak asr davomida milliy istiqlol g'oyasi ostida birlashib, mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, milliy, ma'naviy va mafkuraviy jihatdan oyoqqa turib olishida yelkadosh bo'ldi. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining o'rni, vazifasi, roli, mavqei alohida o'ringa ega bo'ldi.

O'zbekiston davlati o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ydi. Barcha sohalarda O'zbekiston Respublikasini 2017- 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida g'oyat aniq va lo'nda ta'rif berilganidek, "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodla- rimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz".

Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, barcha sohalar qatori ommaviy axborot vositalari rivoji,

media-tuzilmalarda faoliyat yuritayotgan jurnalistlarning bilim va malakasi, o‘z ishiga mas’uliyati va fidoyiligiga ham bog‘liq, albatta.

O‘zbekistonda yildan-yilga ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish kuchayib bormoqda. Bu davlat va nodavlat OAV tarkibida nodavlat tarmoqlari ko‘payib borayotganida ham namoyon bo‘lmoqda. 2017-yilda 1500 dan ziyod OAV faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi, gazeta va jurnallarning 60 foizidan ziyodi nodavlat ommaviy axborot vositalaridan iborat bo‘ldi.

Eng tezkor axborot vositasi Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotir. 2017–yilda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko‘rsatgani, ushbu yo‘nalishda yangi ijodiy avlod Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e’tiborga sazovordir.

O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi 2017-yilda o‘z faoliyatini 2016-yil 29-dekabrdagi navbatdan tashqari konferensiyada belgilanganidek, Uyushma ustavini qayta ko‘rib chiqish, unga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishdan boshladi. Malakali mutaxassislar va huquqshunoslar ishtirokida tashkilot Ustavi yangi tahrirda ishlab chiqildi va 2017-yilning 27-fevralda 579 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Alohida ta’kidlash lozimki, 2017-yil barcha ijodiy tashkilotlar qatori O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi faoliyatida tub burilish yili bo‘ldi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan 2017-yil 3-avgust kuni Toshkent shahrida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” deb nomlangan ma’ruzasida ilgari surilgan takliflar va g‘oyalar ijodiy tashkilotlar tarixida yangi davrni boshlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-avgustdagi “O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 15-avgustdagi “Madaniyat va san’at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mexnatini rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari milliy mediamuxitda, chinakam ma’noda, katta voqea bo‘ldi.

O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan xalqaro aloqalarni rivojlantirishga ham katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, 2017-yilning 2-mart kuni O‘zbekiston Milliy matbuot markazida Xitoy Xalq Respublikasining mamlakatimizdagi elchixonasi vakillari – Elchi o‘rinbosari, maslahatchi Chjan Venchuan va elchixonaning siyosiy bo‘limi birinchi kotibi Fep Xayman bilan O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda ikki mamlakat ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish, jurnalistlarning o‘zaro tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishib olindi. Kelishuv natijasida 2017-yilning 25-avgust 1-sentyabr kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga mediatur tashkil etildi. Bir xaftalik mediatur davomida o‘zbek jurnalistlari Xitoyning Pekin, Nankin va Jinan shaharlarida bo‘lib, mahalliy va mamlakat ahamiyatiga molik nashrlar tahririyatlari, telekompaniya va internet saytlari faoliyati bilan yaqindan tanishdilar va xitoylik hamkasblari bilan o‘zaro tajriba almashdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Jurnalistlari Ijodiy Uyushmasi Qoshidagi Kengashlar Nizomi tasdiqlandi [1].

Yurtimizda ommaviy axborot vositalariga berilayotgan yuksak e’tibor natijasida so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Jumladan, 2016 yil bilan taqqoslaganda, mavjud media vositalari soni qariyb 30 foizga ortib, 1962 taga yetgani e’tiborga molik ko‘rsatkichdir.

Shuningdek, televideniye va internet tarmog‘ining o‘zaro integratsiyasini ta’minlash maqsadida zamonaviy internet platformasi hamda uning mobil ilovasi ishga tushirilgani milliy axborot makonining yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, internet nashrlari soni ham so‘nggi olti yil davomida qariyb ikki barobar ko‘payib, 677 taga yetgani kuzatilmoqda [2].

2019-yil 27-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Ushbu hujjat ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, davlat va jamiyat o‘rtasida samarali hamda sifatli muloqotni yo‘lga qo‘yish, aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to‘liq axborot yetkazishni ta’minlashga qaratilgan [3].

Dunyo ommaviy axborot vositalari tipologiyasiga ko‘ra, ommaviy axborot vositalarining 5 ta asosiy turini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular: matbuot (gazetalar, jurnallar va boshйa janrlar), televideniye, radio, axborot agentliklari, shuningdek, internet saytlaridir. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda uzida matbuot, radio va televideniye xususiyatlari xamda imkoniyatlarini mujassamlashtirgan, axborot yetkazib berish dara- jasi buyicha tezkorlik va ko‘lamdorlikda mu- kammal bo‘lgan internet ayniksa ommalashib bormoqda.

Shu o‘rinda Prezidentimizning “Fidokor” gazetasi muxbirlarining savollariga bergan javoblarida “Ommaviy axborot vositalari siyosatdan xoli, beg‘araz bo‘lib ko‘rinadi, lekin yoshlarning ongida axloqsizlik g‘oyalarini yoyishda juda katta ta’sir kuchiga egadir”, degan edi [4].

1993-yildan buyon har yili *27-iyun* O‘zbekistonda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu munosabat bilan har yili O‘zbekistonda OAV xodimlari uchun ko‘rik tanlovlar bo‘lib o‘tadi. 2024 – yilgi “Yilning eng faol jurnalisti” tanlovining viloyat bosqichi g‘oliblari orasida internet jurnalistikasi yo‘nalishida www.jizzaxmews.uz sayti, matbuot yo‘nalishida “Jizzax haqiqati” gazetasi bo‘lim muharriri Asad Mustafoyev, radio yo‘nalishida “Jizzax” radiokanali muharriri Sayyora Bo‘ranova, televideniye bo‘yicha “O‘zbekiston” kanalining viloyat muxbiri Dilmurod Abdurahimovlar g‘olib bo‘ldilar. 2024-yilgi tanlovda 52 nafar ishtirokchining ijodiy ishlari ko‘rib chiqilgan. O‘gan yillardagiga nisbatan 2024-yili internet jurnalistikasi bo‘yicha talabgorlar soni sezilarli darajada ortgan va yangi nomlar yuzaga chiqqan [5].

Jizzax viloyatining eng ommabop rasmiy va axborot saytlari:

№	Sayt nomi	Domen (URL)	Asosiy yo‘nalish / mazmuni
1	Jizzax viloyati hokimligi	jizzax.uz	Viloyat hokimligi yangiliklari, rahbariyat, qabul va murojaatlar
2	Jizzax shahar hokimiyati	gov.uz/jizzaxcity	Shahar hokimligi faoliyati, murojaatlar, aloqa, hujjatlar
3	Jizzax viloyat statistika boshqarmasi	jizzaxstat.uz	Demografiya, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, rasmiy statistik ma’lumotlar
4	Jizzax hududiy saylov komissiyasi	jizzaxstat.uz	Uchastka xaritalari, TEC qarorlari, murojaatlar
5	AOKA Jizzax viloyati boshqarmasi	jizzaxaokb.uz	Matbuot xabarlari, rasmiy axborot va tadbirlar
6	Jizzax haqiqati (viloyat gazetasi)	jizzaxnews.uz	Yangiliklar, jamiyat, iqtisod, madaniyat maqolalari.
7	Jizzax viloyat teleradiokompaniyasi	MTRK hududiy sahifasi,YouTube	Yangiliklar, reportajlar, efir dasturlari

Xulosa. O‘zbekistonda internet jurnalistikasi so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar rivoji, nodavlat OAVning ko‘payishi va davlat ochiqligi siyosatining kuchayishi natijasida jadal rivojlanmoqda. Onlayn axborot platformalarining kengayishi jurnalistlar faoliyatini tezkor, shaffof va jamoatchilikka yaqinlashtirdi. Internet jurnalistikasi bugun davlat organlari ustidan jamoatchilik nazorati, samarali muloqot va ochiq boshqaruvni ta’minlashda muhim vositaga aylandi.

Shu bilan birga, sohada malaka yetishmasligi, raqamli savodxonlik darajasi pastligi va axborotni tekshirish madaniyatining to‘liq shakllanmagani kabi muammolar mavjud. Kelgusida media siyosatini takomillashtirish, jurnalistlarning raqamli ko‘nikmalarini kuchaytirish va internet nashrlarining professional standartlarga mos ishlashini ta’minlash sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “Fidokor” gazetasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning muxbirlarga bergan intervyusi.

2. O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

3. Xitoy Xalq Respublikasining Jenmin Jibao (People’s Daily) gazetasi rasmiy veb-sayti.

4. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi (2017).
5. O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi Nizomi va ustavdagi o‘zgarishlar. (2017).
6. “Xitoy Xalq Respublikasi elchixonasi bilan uchrashuv” – O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi va XXR elchixonasi o‘rtasidagi uchrashuv tafsilotlari (2017-yil 2-mart).
7. Jizzax haqiqati. - 2018.-26-may, № 43 (5879).

UO'K 911.2:332.14(575)

O'ZBEKISTON HUDUDIDA SHAHARLAR VUJUDGA KELISHINING GEOGRAFIK VA IQTISODIY OMILLARI

Sh.Sh.Raximova, magistrant, Osiyo Xalqaro Universiteti Xorazm filiali, Urganch

Annotatsiya. *O'zbekiston hududi qadimdan Markaziy Osiyoning eng muhim madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Shaharsozlik tizimining an'anaviy shakllanish yo'llari, tuzilishi, joylashuvi va rivojlanish tamoyillarini o'rganish, ularning nazariy asoslarini yaratish bugunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Maqolada O'zbekiston hududida shaharlar vujudga kelishining geografik va iqtisodiy omillari haqida batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Shaharsozlik, hudud, omil, sharoit, e'tiqod, madaniy, karvon yo 'li, manzilgohlar.*

Аннотация. *Территория Узбекистана издавна была одним из важнейших культурных и экономических центров Центральной Азии. Изучение традиционных путей формирования, структуры, расположения и принципов развития систем градостроительства, а также создание их теоретических основ является актуальной задачей сегодняшнего дня. В статье подробно описаны географические и экономические факторы создания городов на территории Узбекистана.*

Ключевые слова: *Градостроительство, территория, фактор, условия, верования, культурный, караванный путь, населенные пункты.*

Abstract. *The territory of Uzbekistan has long been one of the most important cultural and economic centers of Central Asia. Studying the traditional ways of formation, structure, location, and development principles of urban planning systems, and creating their theoretical foundations, are among today's pressing tasks. The article describes in detail the geographical and economic factors of the creation of cities in the territory of Uzbekistan.*

Keywords: *Urban planning, territory, factor, conditions, beliefs, cultural, caravan route, settlements.*

Kirish. O'zbekiston hududida shaharlar vujudga kelishining asosiy omillari geografik (tabiiy) va iqtisodiydir. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar ham shaharlar belgilari uchun asosiy hisoblanadi. Undan tashqari shaharsozlik uchun tabiiy - geografik omillar ham muhim ahamiyatga ega. Geografik omillarga sug'oriladigan yerlar, tabiiy resurslar va transport yo'llari joylashganligi kirsa, iqtisodiy omillarga savdo markazlarining rivojlanishi, hunarmandchilikning taraqqiyoti va sanoat markazlarining shakllanishi kiradi. Shaharlarning ko'pchiligi avvalida qarorgohlar, manzilgohlar bo'lgan. Qadimda katta qarorgohlar yoki shahar qarorgohlar ham vujudga kelgan. Chunonchi, shaharning geografik joylashuvi hududi, suv bilan ta'minlanganligi, qazilma boyliklari mavjudligi, savdo - madaniy aloqalari karvon yo'llari, diniy inshootlar ham muhimdir. Demak, ko'pchilik tadqiqotchilar «shahar» deb e'tirof etadigan yirik aholi yashash makonida barcha shart-sharoitlar, ya'ni shu hududda aholining uyushib yashashi uchun kerak bo'ladigan barcha dunyoviy, diniy va iqtisodiy uyushmalarning bir butun, yaxlit tashkiloti karor topgan.

Shaharlar paydo bo'lishining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari diniy, harbiy-strategik va tabiiy-geografik omillar ham nihoyatda muhimdir.

Ular quyidagilar:

- e'tiqod, diniy-mafkuraviy qarashlarning taraqqiy etishi natijasida ibodat inshootlarining shahar markazlarida qad ko'tarishi (shaharlar diniy markaz sifatida);

- qal'alarning paydo bo'lishi va ularda mustahkamlangan manzilgohlarning qo'rg'onlar hamda shaharlarning muhim belgisi sifatida shakllanishi;

- o'z davridagi harbiy-siyosiy vaziyat (atrof ko'chmanchilarning va o'zaro urushlar) tufayli qal'alarning qo'rg'onlarga aylanishi va himoya inshootlari bilan o'rab olinishi;

- sharoitlar (dastlabki shaharlarning yashash uchun qulay bo'lgan daryo vohalari va tog' oldi hududlarida paydo bo'lishi) mavjudligi;

Shaharlar taraqqiyotining keyingi bosqichlarida shaharlarning ayrim tuzilishi belgilari turlicha o'zgarishiga qaramay shaharsozlik ko'rinishning asosiy mohiyati hisoblangan hamda o'zida ijtimoiy va madaniy-maishiy belgilarni mujassamlashtirgan uch qismlik yani qal'a - hokim maskani; shaharning hunarmandchilik ishlab chiqaruvchi qismi, savdo-sotiq hamda turar-joylar mavjud bo'lgan qismi, shahar oldi - diniy ko'mish marosimlariga oid va ishlab chiqaruvchi qismlaridan iborat bo'lgan.

O'rta Osiyoning keng dehqonchilik vohalari hududlarida aholining alohida joylashuvi tizimi shakllanadi. Bu jarayon o'z navbatida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi aholi manzilgohlarining paydo bo'lishi va keyingi rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Asosiy qism. O'zbekiston antik davri shaharsozlik tarixini quyidagi uch bosqichga ajratishgan. Bular:

1. Ilk antik davr (Avesto davri) – miloddan avvalgi IX – VI asrlar.

Bu davr Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" tilga olgan eng qadimgi jamiyat bosqichiga to'g'ri keladi. Bu vaqtga kelib hali to'liq shakllangan shaharlardan ko'ra qal'asimon qishloqlar, yirik manzilgohlar, ilk sug'orish tizimlari paydo bo'lgan. Xorazm, Baqtriya va Marg'iyona hududlarida dehqonchilikka asoslangan ilk doimiy yashash maskanlari shakllangan.

2. O'rta antik davr (Baqtriya – So'g'diyona shaharsozligi) – miloddan avvalgi IV – II asrlar [1].

Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan so'ng bu hududlarga ellinistik (yunoncha) shaharsozlik madaniyati kirib keladi. Bu davrda Baqtriya va So'g'diyonada: Ay-Xanum, Qadimgi Samarqand, Tarmiz atrofidagi shahar va yirik markazlar rivojlangan. Shaharlarda to'g'ri ko'chalar, maydonlar, ma'muriy binolar, mustahkam devorlar shakllangan.

3. Kechki antik davr (Kushonlar davri) – miloddan avvalgi I – milodiy IV asrlar.

Kushonlar davri Markaziy Osiyo tarixida siyosiy va madaniy yuksalish davri hisoblanadi. Bu davrda: Qoratepa, Fayztepa,Tarmiz, Panjikent kabi shaharlar yirik diniy va savdo markazlariga aylangan. Buddaviylik ta'sirida ibodatxonalar, supalar, hunarmandchilik mahallalari qurilgan. Me'morchilikda mahalliy, ellinistik va buddaviy uslublar uyg'unlashgan.

Xorazm Amudaryoning chap qirg'og'ida miloddan avvalgi V-IV asrlarda Qal'aliqir istehkomi (shahari) vujudga kelgan. Shaharchani Charmanyob arig'i suvbilan ta'minlab turgan. Toshkent shaharsozligining ikkinchi davri Salor arig'i bo'yida milodiy I-II asrlarda paydo bo'lib, ilk o'rta asrlarga kelib, poytaxt shaharga aylangan Ming O'rik (Afrosiyob)da kechadi.

Ohangaron daryosi bo'yida mustahkam Kang'xa shahari quriladi, ushbu imkoniyatlar quyidagi asosiy ijtimoiy - iqtisodiy omillar bilan boglik edi:

- o'troq dehqonchilikning paydo bo'lishi natijasida aholining ma'lum hududlarga tuplanishi hamda bu hududlarda boshka hududlarga nisbatan zich joylashuvi;

- mehnatning ikkinchi yirik ijtimoiy taqsimoti, ya'ni hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chikishi natijasida ayrim aholi manzilgohlarida ixtisoslashgan xo'jaliklarining paydo bo'lishi;

- ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarining chuqurlashuvi hamda mavjud jamiyatdagi boshqaruv tizimining yanada murakkablashuvi (aholi yirik manzilgohlarida boshqaruv tizimi shakllanadi va markazlashadi);

- eng qadimgi yo'llarning rivojlanishi natijasida hududlar o'rtasida madaniy va iqtisodiy munosabatlar, xususan, savdo - sotiq aloqalarining taraqqiy etishi (mil. avv. IV-III ming yilliklardayoq Janubiy Turkmaniston hududlarida dastlabki loydan yasalgan g'ildiraklar paydo bo'lgan bo'lsa, mil.avv. III ming yillik o'rtalariga kelib esa tuyaga, ba'zan, xo'kizga ko'shib ishlatadigan aravalar paydo bo'ladi). Transport vositalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ham qishloq xujaligi hududlarining markazi hamda kundalik zaruriy va qo'shimcha maxsulotni taqsimlovchi markaz vazifasini bajarish imkonini yaratadi. Arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlariga tayangan A.Sagdullaev "O'rta Osiyoning janubidagi aholi joylashuvi rayonlarini quyidagi guruxlarga ajratadi: [2]

- Daryo-soylar sohillarida markazlashgan tor oldi rayonlarining ko'p sonli manzilgohlari.

- Soy (yoki kanal) yoki bevosita yirik daryolar bo'yida joylashgan tog' oldi hududlari tumanlarining bitta-ikkita manzilgohlari.

- Murg'ob, Zarafshon, Balxash daryolari yetaklari va irmoqlari havzalaridagi manzilgohlarning zich joylashuv rayonlari.

O'rta Zarafshon va Kashqadaryoning o'rta oqimi xududlaridagi geografik jihatdan qulay bo'lgan (baland adirlar, qum sahrolari bo'lmagan) tekisliklari rayonlari. Ularning barchasida o'zlashtirilgan maydonlar va sug'orish tartibidan tashqari turar-joylar va manzilgohlar, o'zlashtirilmagan yerlar va yaylovlar mavjud bo'lib, eng muhimi bu yerlarda aholi faoliyat kursatgan. Ushbu joylashuv rayonlarini belgilovchi belgilar birinchi navbatda, tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'liq edi. Bu omillarni lnsoniyat taraqqiyotiga qay darajada ta'sir etishini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, tabiiy - geografik nuqtai nazardan aholi markazlashgan rayon-hudud doimo aholi joylashuvi hamda odamlar jamoalari yashashi uchun moddiy shart-sharoitlar yaratilgan geografik kenglik sifatida shakllanadi. Ushbu geografik kenglikda inson turmush tarzi uchun o'ta zarur bo'lgan shart- sharoitlar suv manbalari, yaylovlar, qurilish xom ashyosi, qurilish uchun qulay joylar kabilar mavjud bo'ladi. Bir hududda uzoq yashash natijasida odamlar o'zlari uchun moddiy va ma'naviy sharoit yaratish bilan birga hududlarga ta'sir yetkazib uning tabiiy - geografik sharoitlarini mumkin qadar o'zlariga moslab oladilar. Geografik muxit odamlarning turmush tarzi, madaniyati hamda ishlab chiqarish faoliyatiga kuchli ta'sir kursatsada, ijtimoiy - siyosiy taraqqiyotga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuktai nazardan aholi rayonlashuvi jarayonlari shunda kuzatiladiki, bu jarayonda markaz-rayon hududi mehnat va ishlab chiqarish ob'ekta, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish maxsulotlari markazlashgan joy, xo'jalik, madaniy hamda boshka ijtimoiy munosabatlar markazi hisoblanadi. Rayon-markazlashuvning madaniy omillari nuktai nazaridan taxlil etsak, bu jarayonda xar bir uziga xos rayon hududda mavjud bo'lgan manzilgohlar va turli ko'rinishdagi turar-joylar, diniy va hunarmandchilik inshootlari, ishlab chiqarish va turmushda ishlatiladigan buyumlar-mehnat qurollari, jangovar qurollar, takinchoklar, sopol idishlar mavjudligi hamda turmush tarzining yuqori darajasi va mavkuraviy tasavvurlarning rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning janubida, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi hududlarida esa ilk temir davrida shakllanib rivojlandi [3]. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari kichik sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, o'rta, quyi) irmoqlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar Misr (Nil) va Mesopotainiya (Dajla va Frot) misolida hum kuzatish mumkin.

Xulosa. Demak, O'rta Osiyo shaharsozligining o'ziga xos taraqqiyot yo'li va rivojlanish bosqichlari hamda davrlari mavjud. Ushbu jarayonni davrlashtirishda asosan arxeologik ma'lumotlarga tayanganimiz tufayli u og'ir kechadi hamda ko'p hollarda mukammal emas. Binobarin, bu masala hali to'liq yechimini topgan emas va hali yana ko'plab tadqiqototlar talab etiladigan masala hisoblanadi. Mamlakatlararo aloqalar rivojlanishi Buyuk Ipak yo'li nomi bilan ataladigan xalqaro karvon yo'li shakllanishiga olib keldi. Uning muhim tarmoqlari Yevropa, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan o'zaro boglagan. Bu yo'l orqali l-mingyillikning o'rtalaridan milodiy XV asrgacha Sharq va G'arb o'rtasida aloqa o'rnatildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ilk shaharlarning paydo bo'lishida ko'plab ijtimoiy-madaniy hususiyatdagi omillar sabab bo'lishiga qaramay turli sharoitlarda u yoki bu guruh sabablar nisbatan ustunlik qiladi. Undan tashqari ilk shahar sivilizatsiyasining muhim ko'rinishlaridan biri turli shakldagi aholi punktlarining paydo bo'lishi va ularning o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Aynan turli shart-sharoitlar, turli shakldagi aholi punktlari, ko'chmanchi aholi yashash hududlari, o'troq aholi bilan ular o'rtasidagi chegaraviy hududlar - bularning barchasi aholi hududiy rayonlashuvining (ma'lum hududlarda ma'lum turmush tarzi yuritgan aholi joylashuvi) asosi

hisoblanadi. Shuningdek, aholining ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan dehqonchilik, hunarmandchilik faoliyati ham belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ. 1962. – С. 136 - 137.
2. Сагдуллаев А.С. Культура юга Средней Азии VII вв до н.э. (Бактрия, Маргиана, Согд) – Ташкент, 1987. – С. 49.
3. Murtazayeva.R.X. O'zbekiston tarixi. – Toshkent. 2025.
4. Баратов П., Маматқулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Т.: "Ўқитувчи". 2002. – Б.23.
5. Сагдуллаев А. С. Заметки о раннежелезном веке Средней Азии // СА.–М.: 1982. № 2.–С. 229 - 234.
6. Панахристу О. А. Ранние находки из железа в Средней Азии. // Марказий Осиё тарихи ва археологияси: анъаналар, инновациялар ва истиқболлар. –Тошкент - 2021. – С. 26 – 27.

UO'K 930.2

PUL VA PULNING RIVOJLANISHI TARIXIDAN

D.A.Rustamova, talaba, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pul va uning kelib chiqishi, qadim zamonlardan o`rta asrlargacha bo'lgan pul birliklari va ularning rivojlanish jarayoni tarixiy adabiyotlar yordamida tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: pul, tanga, so'm, rubl, kumush, bronza, tilla, iqtisod, davlat, islohot, ayirboshlash.

Аннотация. *В данной статье с помощью исторической литературы анализируются деньги и их происхождение, денежные единицы с древнейших времен до средневековья и процесс их развития.*

Ключевые слова: *деньги, монета, сумма, рубль, серебро, бронза, золото, экономика, государство, реформа, обмен.*

Abstract. *This article uses historical literature to analyze money and its origin, monetary units from ancient times to the Middle Ages and the process of their development.*

Keywords: *money, coin, amount, ruble, silver, bronze, gold, economy, state, reform, exchange.*

Pul ixtiro qilinishidan oldin insoniyat o'zaro ayirboshlash munosabatidan foydalangan. Ibtidoiy davrlarda chig'anoq, tuz, qoramol, tuya, ot, qo'y, echki kabilar "tirik pul" hisoblangan. Pul-qiymati ko'rsatilgan turli rangli qog'oz pullar (banknotlar)dan iboratdir. Manbalarga ko'ra pulning paydo bo'lganligiga ham uch ming yil to'lgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida qayd etilganidek: "Pul – pul, aqcha. 1. Oldi-sotdi yoki to'lov muomalalarida narx, baho, qiymat, o'lchov bo'lgan metall yoki qog'oz belgi, aqcha. Qog'oz pul, tanga pul, naqt pul. 2. Sarmoya mablag'. 3. Ish haqi, mayona kabi[1].

O'zbeklarda pul bilan bog'liq kitobdagi maqol, iboralar ibratli: "Pul bo'lsa, changalda sho'rva", "Pul bo'ldi-kul bo'ldi", "Pul to'plasang-kul bo'lur, somon sotsang pul bo'lur", "Pul belga quvvat, boshga toj", "Pul – qarchig'ay", "Pullik bozor, pulsiz esa mozor", "Chamanda gul, otasi pul", "Pul topguncha amal top", "Pul pulni topadi", "Bir miri – xayon, uch miri — ziyon", "Lo'lining eshagini sug'or, pulini ol", "Molini quritaman degan pul qilar", "Donini quritaman degan un qilar", "Naqd pul – qarchig'ay", "Oq tangani qora kuningga asra", "Pulni topish oson, ishlatish qiyin", "Pul tilni biyron, dastni daroz qiladi", "Puli ko'pning ko'zi ko'r", "Pul jigardan bunyod bo'ladi", "Pul dardi – kabob", "Pul – kul", "Pul – qo'lning kiri", "Pul pulni chaqiradi", "Pul topguncha hisob top", "Hisobli do'st ayrilmas", "Puli kuygan qalampri chaynar", "Hammasi bir pul", "Bir tiyinga ham qimmat"[2].

Pul – fors-tojik tilidan olingan bo`lib, O'rta Osiyo xonliklari va Yaqin Sharqdagi ayrim davlatlarda qo'llanilgan mis chaqa pulga nisbatan ishlatilgan[3].

Qadim-qadim zamonlarda odamlar o'zlari qo'lga kiritgan yoxud dehqonchilik va hunarmandchilik, ovchilik mahsuli bo'lgan ashyolar oziq-ovqat va boshqalarni almashtira-almashtira charchashgan va nihoyat mantiqiy bir to'xtamga kelishgan. Shunday bir narsa bo'lsinki, u donaday bo'lsin va qadr-qimmatga ega bo'lsin yana ushbu narsaga boshqa narsalar almashtirib olinsin. Oxir oqibat esa pulga nisbatan ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Pul paydo bo'lishi bilan esa, savdo-sotiq tobora rivojlanib, uzoq va yaqin mamlakatlar o'rtasida karvonlar muttasil qatnay boshlagan, shu

tariqa pul taraqqiyot uchun katta xizmat ko'rsata boshladi. Dastlabki davrda o'lkamizda tanga pullar muomalasi paydo bo'lmagan, ammo ayrim hududlarda ayirboshlash asosiy tizimi mavjud edi. Masalan, chorva mollar, ipak, don, tuz va boshqalar pul vazifasini bajargan. Vaqt o'tishi bilan tubdan o'zgarishlar yuz berib mil. avv. IV-asrda Xorazm ahamoniylardan mustaqil bo'lgan bo'lsa, mil.avv. III-II asr bo'sag'asida Sug'dda Antiox I va Evtidem tangalariga taqlidan tangalar zarb etgan alohida mulklar shakllanadi.

Ko'plab diniy e'tiqodlarga sig'ingan xalqlarni birlashtirgan Kushon davlatining hukmdorlari Kanishka va Xuvishka tangalar zarb etganlarida ko'p sonli diniy e'tiqodlarga nisbatan o'zlarining diniy ba'g'ri kengliklarini ifoda etishgan. Ularning tangalarida ko'plab Zardushtiylik va ko'plab xudolar (Atesh, Oxsho, Mixr, Max, Nana, Ardoxsho)ning tasvirlari hamda ayrim hind xudolarining siymolari tushurilgan.

V-VI asrlar O'rta Osiyoning pul muomalasida sezilarli o'zgarish bo'lib o'tadi. Bu o'zgarishlar tangalar zarb etishning markazlashuvi hamda mintaqaning turli hududlarida zarbxonalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Ushbu davrning boshlarida E.Rtveladzening tadqiqotlariga ko'ra, shimoliy Toxaristonda kushon tangalari va ularga taqlid qilib zarb etilgan tangalar muomalada bo'lgan. Butun V-asr davomida Termizda mahalliy hukmdor tasviri tushirilgan mis tangalar zarb etilgan. Chag'aniyonda shahanshoh Pero'z (459-484) davridan boshlab juda ko'plab sosoniylarning kumush tangalari kirib keladi. Shu jumladan aytish mumkin-ki, Buxoro Sug'dida o'ng tomonida soqoldor hukmdorlar tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zarb etilgan bo'lsa, Samarqand Sug'dida V-VI asrlarda ters tomonidan tik turgan kamonchi tasviri tushirilgan kumush tangalar zarb qilingan.

VI-VIII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasi va bir necha hududlardagi eng qudratli davlatlardan biri Turk xoqonligiga doir ma'lumotlar Urxun-Yenisey bitiktoshlari, Xitoy yilnomalari, yunon (Vizantiya), arman, suryoniy, sug'd, arab, fors, tibet va baqtriya manabalarida saqlanib qolgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi, professor, doktor G'aybulla Babayarov sug'd yozuvidagi "Turk xoqon" yozuvini aniqladi. Ushbu ajoyib topilma atamaning ilgari ma'lum bo'lgan ishlatilishidan taxminan 150 yil oldin paydo bo'lgan. "Turk xoqon atamasi haqida birinchi VIII-asr boshlarida O'rxun bitiklariga to'g'ri keladi" deb tushuntirdi professor Bobayarov TRT Haber telekanaliga bergan intervyusida. "Ushbu tanga o'sha tarixiy belgini VI-asr oxiri VII-asr boshlariga, xususan, 580-610-yillarga qaytaradi. Bu "turk" nomining tarixi 1400-1500 yilga cho'zilganini bildiradi" deya o'z fikrini yoritadi. Biroq "Turk-qo'qon" yozuvi tushirilgan ushbu tanga, shuningdek Toshkent viloyatidan topilgan 20 dan ortiq turli tipdagi tangalar to'plami – ularning ba'zilarida "jabg'u", "chabg'u-qo'qon" va "qo'qon" kabi turkiy unvonlar bitilgan – bu an'anaviy qarashni shubha ostiga qo'yadi[4]. G'arbiy Turk xoqonligi tangalari haqida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot yo'q, ammo uning vorisi bo'lgan Turkash xoqonligi o'z tangalarini zarb qilgan. Turkash xoqonligi o'z tangalarini zarb qilgan.

Sharqiy Turk davlati (682-744) Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan qadimiy turk davlatlaridan biri. Bu davlat Elterish Qutlug' xoqon tomonidan tashkil etilgan bo'lib, Orxon vodiysi (hozirgi Mo'g'uliston hududi) uning siyosiy markazi hisoblangan. Ushbu davlatni tangalari topilgan hududlar orasida Orxon va Selenga vodiylari, Yettisuv, Sharqiy Turkiston (Turfon, Beshbaliq), Talas vodiysi hamda Farg'ona vodiysi atrofidagi joylar bor. Tangalar yuzasidagi tasvirlarning ayrimlarida hukmdorning bosh surati, ba'zilarida esa otliq jangchi, tamg'a (sulola belgisi), quyosh yoki yulduz tasviri keltirilgan. Otliq tasvirlar turklarning harbiy hayotini, tamg'alar esa ularning sulolaviy ramzlarini ifoda etgan. Tangalarda bitilgan yozuvlar sug'diy, turk runik (Orxon-Enasoy) yoki xitoycha tilda bitilgan. Ayrim tangalarda "Turk Xoqon", "Elterish Xoqon", "Bilga Xoqon" kabi yozuvlar uchraydi. Shuningdek, ba'zi tangalarda diniy mazmundagi "Tengri yarliqadi" ("Tangri buyurdi") iborasi yozilgan bo'lib, bu Tangriga e'tiqod turk davlatchiligi mafkurasida muhim o'rin tutgani ko'rsatadi.

Somoniylar sulolasida ham o'z tanga pullari mavjud bo'lgan, xususan, IX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar sulolasi yuzaga keldi. Bu sulolaga Somon qishlog'i (manbalarda – Balx yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos solishadi. Yirik yer egasi bo'lgan Somonxudot al-Ma'mun Xuroson noibi bo'lgan davrda uning xizmati o'tib, tez orada e'tiborga tushadi. Somonxudotning o'g'li Asad hamda nevaralari ham Ma'mun saroyida

xizmat qilishgan. Asadning o'g'illari 819-yilda turli viloyatlarga noib etib tayinlanadi. Xususan, Nuh Samarqandni, Ahmad Farg'onani, Yahyo Shosh va Usturshonani, Ilyos Hirotni boshqargan. Dastavval, Asadning katta o'g'li Nuh ukalarini birlashtirib, xalifalikdan mustaqil davlat barpo etish harakatini boshladi. Shu asnoda, Nuhning nomidan tanga pullar zarb ettirishadi.

XI-asrning 40-yillarga kelib Xurosondagi G'aznaviylar davlati Saljuqiylar tomonidan yo'q qilindi. Movarounnahrni esa Qoraxoniylar o'z qo'llarida saqlab qoladilar va bu yerda Ibrohim ibn Nasrning siyosiy faoliyati boshlanadi. Ya'ni Ibrohim Movarounnahr hokimi Yusuf ibn Ali bilan kurashib, tez orada Samarqand, Kesh, Buxoroni qo'lga oladi. Numizmatik materiallariga ko'ra 1040-yillardayoq uning nomidan Kesh va Samarqandda tangalar zarb etilganligini ko'rish mumkin. Arslonxon davrida uch hududda Samarqand, Buxoro va Farg'onada tangalar zarb qilingan. Farg'onadagi zarbxona o'sh davrda viloyatning markaziy shahri hisoblangan va Qoraxoniylar davlatining poytaxti O'zganda joylashgan. Farg'onaning mis fulslari Muhammad ibn Sulaymon tomonidan zarb qilingan dastlabki tangalar sirasiga kirgan[5].

XIII-asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda yirik markazlashgan davlat – xorazmshohlar saltanati qaror topdi. Xorazmshohlar davlati o'zga yurtlar hisobiga kengayib borgani sari o'sha hokimlik yohud viloyatda shohlar nomiga xutba o'qitilib, tanga zarb ettirila boshlaydi. Chunonchi, 1195-yili Karmanada Takash nomiga pul chiqariladi. Umuman, xorazmshohlar davlatining hududlari kengayib borgani sari ular chiqargan oltin va kumush tangalarning soni ham, muomala doirasi ham ortib boravergan edi.

XIII-asrning 50-yillarida Sharqiy qoraxoniylar davlatida mutlaqo kumushsiz mis-qo'rg'oshin qotishmali dirhamlar zarb etishgan. XII-XIII asrlarda esa G'arbiy qoraxoniylar davlatida ustida yupqa kumush qoplamli mis dirhamlar paydo bo'ladi. Shunisi diqqatga sazovorki, XII-asr o'rtalariga qadar Movarounnahrda oltin tangalar zarb etilmagan, savdo-sotiq muomalalari bronza dirhamlar va qoraxoniy tangalari asosida yuritilgan. Faqatgina XII-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Samarqand va Buxoroda oltin tangalar zarb etila boshlanadi va muomalaga kiritiladi.

Xullas, qadimgi va o`rta asrlarda o`lkamizda o`ziga xos pul tizimi yo`lga qo`yilgan edi. Chunki har bir davlatning iqtisodiy asosini tashkil etuvchi pul muomalasi davlat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. Т., 2002.Б. 320-321.

2. Ш. Шомансуров., Ш. Шераҳмедов. Маънолар махзани. –Т.: 2001. –Б.27.

3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. – Т.: 2011. –Б.437.

4. Arkeonews. (s.y.). The 6th-Century "Türk-Kagan" Coin Discovery in Uzbekistan Could Rewrite History. Arkeonews. https://arkeonews.net

5. Sarimsokov A. O'rta Osiyo numizmatikasi. O'quv qo'llanma. – Namangan: "Iste'dod ziyo press" nashriyoti, 2023-yil.

UO'K 930.2

O'RTA OSIYODA BRONZA DAVRI SHAHARLARINI SHAKLLANISH JARAYONLARI

S. Saidov, magistrant, Qarshi davlat unversiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'rta Osiyoda dastlabki metallning paydo bo'lishi va yoyilishi va bronza davri shaharlarni shakillanish jarayonlari tahlil qilib berilgan.*

Kalit so'zlar. *Mypg'ob vohasi, Shimoliy Afg'onicton, Gonur, Copolli, Japqo'ton, Namozgoh, Jaytun, Anov, Bronza davri, Oltintepa.*

Аннотация. *В данной статье анализируются процессы возникновения и распространения первых металлов в Центральной Азии, а также формирование городских центров в эпоху бронзы. Рассматриваются археологические памятники и культурные комплексы, сыгравшие важную роль в развитии ранних металлургических традиций и урбанистических процессов региона.*

Ключевые слова: *Мургабская долина, Северный Афганистан, Гонур, Сапалли, Джаркутан, Намазга, Джейтун, Анов, эпоха бронзы, Алтынтепе.*

Abstract. *This article analyzes the emergence and spread of early metallurgy in Central Asia as well as the processes of urban formation during the Bronze Age. Special attention is given to*

archaeological sites and cultural complexes that played a significant role in the development of early metallurgical traditions and urbanization processes in the region.

Key words: *Murghab oasis, Northern Afghanistan, Gonur, Sapalli, Jarkutan, Namazga, Jeitun, Anau, Bronze Age, Altyn Tepe.*

O'rta Osiyo hududlarida dastlabki metallning paydo bo'lishi va yoyilishi, bronza davri madaniyati xususida turli yillarda S.T. Tolstov, B.A. Kuftien, B.A. Litvinskiy, V.M. Masson, V.I. Sarmanidi, I.N. Xlopin, A.A. Asqarov, T.Sh.Shirinov, L.B. Kirko hamda qator xorijlik olimlar tadqiqot ishlari olib borgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar natijasida mil. avv. III–I ming yillik boshlaridagi tarixiy-madaniy jarayonlarga ko'plab aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo'ldi[1].

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'rta Osiyoda dastlabki metallning paydo bo'lishi Janubiy Turkmaniston hududlari bilan bog'liqligi aniqlandi. Bu hududlarda mil. avv. IV–III ming yilliklarga oid arxeologik yodgorliklar ko'p bo'lib, ushbu arxeologik yodgorliklarning xronologiyasi neolit – eneolit – bronza davriga oidligi aniqlandi.

Janubiy Turkmanistonda R.Pampelli Anovda, 1949–50 yillarda B.A.Litvinskiy Namozgohtepa, 1952 yilda B.A. Kuftin Kopetdog'tog' oldi hududlarida tadqiqot ishlari olib borganlar. Ushbu tadqiqotlar natijasida ketma-ket keluvchi quyidagi majmualar Namozgoh I–VI hamda Anov I–IV manzilgohlarining xronologiyasi aniqlandi. 1956 yilda V.M. Masson ushbu majmualar topilmalarini qo'shni Erondagi topilmalar bilan qiyosiy tahlil asosida quyidagi xronolgiyasi taklif etadi. Jaytun va Anov I mil. avv. V ming yillik, Namozgoh I, II mil. avv. IV ming yillik, Namozgoh III–IV mil. avv. III ming yillik, Namozgoh V mil. avv. II ming yillikning birinchi yarmi, Namozgoh VI mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmiga oiddir[2].

O'rta Osiyoning ko'pgina hududlarida bo'lgani kabi Turkmanistonda ham bronza davri (mil. avv. III–II ming yillik) dehqonchilik, chorvachillik va hunarmandchilikning jadallik bilan rivojlanishi orqali izohlanadi. Shuningdek, bu davrda jamiyatning ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari ham rivojlanadi.

Tadqiqotchilar fikricha O'rta Osiyoning janubiy-g'arbidagi bronza davri ilk dehqonchilik qabilalari taraqqiyotining birinchi davri Namozgoh IV, va Namozgoh V (mil. avv. III–II ming yillikning birinchi yarmi) davrlariga to'g'ri keladi. Birinchi davrda bronza davri o'troq dehqonchilik madaniyati yodgorliklari o'zlashtirilgan hududlarda markazlashgan bo'lsa, ikkinchi davrda qadimgi ziroatchilarning Sharqqa Murg'ob vohasi va Baqtriyani keng hududlariga borib joylashadi. Ilk shahar sivilizatsiyasi sohiblari bo'lgan ayrim qabila guruhlari esa mil. avv. II ming yillik o'rtalarida Zarafshon vohasiga kirib keldilar.

Birinchi guruh manzilgohlariga Oltintepa, Namozgohtepa, Ulug'tepa, Qoratepa, Xovuztepalar kiradi.

Bronza davri ilk dehqonchilik qabilalari madaniyatini o'rganish borasida O'zbekistonning janubidagi ko'p sonli yodgorliklarda tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ushbu hududlardagi ilk ziroatchilarning moddiy madaniyati dastlabki topilgan Sopollitepa madaniyatidir. Sopollitepa yodgorligida uzoq yillar tadqiqot ishlari olib borgan arxeologik olim A.Asqarov ushbu manzilgoh topilmalarini yaqin va O'rta Sharqdagi shu davr yodgorliklari bilan qiyosiy solishtirish va tahlil asosida Sopollitepani mil.avv. 1700–1500 yillarga oid degan xulosaga keladi[3].

Mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmiga kelib Jarqo'ton Shimoliy Baqtriya jamoalarining tayanch nuqtasiga aylanadi. Tadqiqotchilar fikricha, Hisor tog' oldi va Tojikistonning janubiy hududlarida keyingi ko'chishlar asosan Jarqo'ton orqali o'tgan. Ushbu jarayonning kuchayib borishi esa, mil. avv. II ming yillikda o'ng qirg'oq Amurdaryo o'troq dehqonchiligi manzilgohlarida aholi sonining o'sishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarining yanada rivojlanishiga imkon yaratdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yozma manbalarning yo'qligi tufayli bu hududlardagi bronza davri siyosiy-ma'muriy tuzum va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar haqida to'liq ma'lumot olinmagan. Shu sababli bu borada tadqiqotchilarning fikrlari ko'p sohalarda taxminlardan iborat. A.Asqarov va B.Abdullaevlar Sopolli madaniyatining Jarqo'ton bosqichini ibtidoiy jamoa munosabatlari emirilishi davri bilan Ko'zali va Molali bosqichlarini esa mulkiy munosabatlar shakllana boshlagan davr bilan

izohlaydilar. V.I.Sarianidining fikricha esa, mil. avv. II ming yillikning oxiri –I ming yillik boshlarida Baqtriya davlatchiligi shakllanish bo’sag’asida edi[4].

Bronza davriga kelib, O’rta Osiyoning keng hududlarida ishlab chiqaruvchi kuchlarning o’sishi hamda mehnat unumdoriligi oshishi natijasida kishilik jamiyati tarixiy-madaniy taraqqiyotida o’zgarishlar sodir bo’lib, ushbu o’zgarishlar keyingi taraqqiyot uchun zamin yaratdi. Aynan mana shu davrda O’rta Osiyoning ko’pgina hududlarida murakkab istehkomlar va rivojlangan hunarmandchilikka ega bo’lgan ko’p sonli o’troq manzilgohlar paydo bo’ldi-ki, ular ushbu hududlarda ilk shaharlarning shakllanib taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ilk shaharsozlik madaniyatlari Janubiy Turkmaniston, Janubiy O’zbekiston va Farg’ona vodiysida shakllandi. Xo’jallikning jadallik bilan rivojlanishi, hunarmandchilikning ajralib chiqishi, ko’p sonli aholining bir hududda zich joylashuvi hamda ijtimoiy tabaqalanishning kuchayuvi natijasida yirik markazlar o’z atrofidagi qishloq xo‘jalik hududlarida hal qiluvchi iqtisodiy, ma’muriy-siyosiy hamda mafkuraviy ahamiyatga ega bo’la boshladi.

Bronza davrining yirik ilk shahar markazlaridan biri hisoblangan Oltintepa xarobalari Janubiy Turkmanistonda joylashgan. Ushbu yodgorlikda 1965 yildan 80 – yillarning oxirlariga qadar muntazam qazishma ishlari olib borilgan. Qazishmalar natijasida manzilgoh maydoni 25 gektarligi aniqlangan. Oltintepadan 500 ga yaqin terrakota haykalchalar, 150 ta qadimgi muhrlar, 550 ta dafn inshootlari, ko’plab turar joy qoldiqlari va boshqa moddiy madaniyat buyumlari topib o’rganilgan[5]. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, Oltintepa faqat oddiy turar-joy va xo‘jalik xonalaridan iborat bo’libgina qolmay, balki o’ziga xos murakkab ichki tuzilishini xam aks ettiradi. Oltintepada hunarmandchilikning metalni qayta ishlash sohasi ancha rivojlangan. Buyumlarning katta qismi misdan tayyorlangan. Shuningdek, qalay va qo’rg’oshin aralashtirib ishlangan buyumlar ham uchraydi. Undan tashqari, temir pichoq va xanjarlar, o’q uchlari va boshqa buyumlar ham topilgan. Metall buyumlar orasida kumush buyum topilmalari ham ko’pchilikni tashkil etadi. Aynan kumush buyumlar shaharliklarning asosiy boyligi hisoblangan.

O’rta Osiyo qadimgi xalqlari iqtisodiy va madaniy aloqalarini Oltintepadan ochilgan san’at yodgorliklarida aniq kuzatish mumkin. Mesopotamiya an’analari bilan aloqalar, dastavval me’morchilikda ko’zga tashlanadi. Qurilish uslublaridan tashqari, terrakota haykallari ishlanishi uslublari jihatidan ham o’xshashliklarni kuzatish mumkin. Bu o’rinda, Oltintepaning hind madaniyatini bilan aloqalari ko’p hollarda aniqroq ko’rinadi. Xususan, Oltintepada fil suyagidan ishlangan buyumlar ko’plab uchraydi. Bu buyumlarning turli qatlamlardan topilishi ular o’rtasida uzoq vatq doimiy aloqalar bo’lganidan dalolat beradi. Undan tashqari ayrim sopol va metall buyumlarda ham aynan Xarappa madaniyatining ta’sirini kuzatish mumkin.

Janubiy O’zbekiston hududlarida ilk dehqonchilikning paydo bo’lishi va rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari hamda ilk davlatchilik masalalari, madaniy va iqtisodiy aloqalar, hunarmandchilikning taraqqiy etishi masalalari bo’yicha A.Asqarov, E.Rtveladze, B.Abdullaev, A.Sadullaev, T.Shirinov, U.Raxmonov, E.Sayko, Sh.Shaydullaev kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar.

Amudaryoning o’rta va yuqori oqimi shimoli hamda janubida joylashgan yerlar “Avesto”da Baxdi, fors podsholari mixxatlarida “Baqtirish”, yunon-rim tarixchilari ma’lumotlarida Baqtriya yoki Baqriyona, hind manbalarida Baxlika, milodning boshlariga oid xitoy manbalarida Daxya yoki To-xo-lo o’lkasi sifatida eslatib o’tiladi[6]. Sopolitepa O’zbekiston hududlarida hozirgi kunga qadar aniq bo’lgan eng qadimgi o’troq dehqonchilik manzilgohi bo’lib, tadqiqotchilar fikricha ushbu madaniyat quyidagi to’rtta asosiy bosqichga bo’linadi:

1. Sopolli – (mil. avv. 1700–1500 yy.)
2. Jarqo’ton – (mil. avv. 1500–1350 yy.)
3. Molali – (mil. avv. 1350–1000 yy.)
4. Ko’zoli – (mil. avv. XIII asrlar)

Ushbu bosqichlarning sanalari tadqiqotchilar tomonidan maxsus tahlil etilib, ilmiy jihatdan asoslangan[7].

Sopollitepada tadqiqotlar olib borgan A.Asqarovning fikricha, manzilgoh mustahkam asosda qad ko‘targan bo’lib, quyidagi ajralib turuvchi belgilarga ega: ichki qismi tuzilishi – mustahkam

markaziy qism va uning atrofida mustahkamlangan manzilgoh, unga katta bo'lmagan maydon, asosiy qismning aniq rejali tuzilishi, beshta ko'p xonali turar joylar qismlarining markazlashuvi va ularning yo'laklar bilan ajralib turishi, bo'lmalari bo'lgan himoya devorlaridan iborat[8].

Sopollitepa aholisining asosiy mashg'uloti sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikdan iborat bo'lgan. Qazishmalar paytida katta xum ko'rinishdagi idishlardan va omborxona vazifasini bajaruvchi xonalar sathidan topilgan arpa, bug'doy, tariq hamda butun sopollitepa majmuida ko'plab uchraydigan don yangich, kelisop, ketmon, o'roqlar aynan dehqonchilik xo'jaligidan dalolat beradi. Sopollitepa manzilgohi aholisining yana bir muhim xo'jalik tarmog'i chorvachilik ham bo'lgan.

Amudaryoning o'ng qirg'og'ida shakllangan Sopollitepa – bronza davridagi dastlabki o'troq dehqonchilik manzilgohi bo'lib, daryodan kechuv yo'lini himoya qiluvchi mustahkam istehkom sifatida paydo bo'lgan.

Jarqo'ton yodgorligi Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Sherobod daryosining Ko'hna o'zani Bo'stonsoy yoqasida joylashgan. Ushbu yodgorlikda 1973 yildan boshlab uzluksiz olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida bu hududlarda ro'y bergan urbanizatsiya jarayonlariga ko'plab aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo'ldi. Jarqo'tondagi 100 gektardan kam bo'lmagan hududda ark, shahriston va ulkan ibodatxona qoldiqlari, metal erituvchi pechlar, 20 gektarli qabriston, ko'plab moddiy madaniyat buyumlari topib o'rganildi[9].

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Jarqo'tondagi qadimgi shahar hayoti uch bosqichga, ya'ni Jarqo'ton (mil. avv. 1500-1350 yy) Ko'zali (mil. avv. 1350–1200 yy.) va Molali (mil. avv.1200–1000 yy) bosqichlarga bo'linadi.

Bronza davri shaharlari haqida gap ketar ekan. Shuni ta'kidlash joizki, bu davr yodgorliklari faqat arxeologik tadqiqotlar orqaligina o'rganilib, bu davrdagi siyosiy- ma'muriy tuzilmalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar esa yozma manbalarsiz qiyosiy taqqoslash asosida o'rganiladi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, Dalvarzintepada yashaydigan aholi uni uch qismdan iborat qilib qurgan. Dalvarzintepa hududning 18 gektari turar joylar, 5 gektari xavf bo'lganda aholi jon saqlaydigan boshpana qism, 2 gektar maxsus hukmdor yashaydigan qism bo'lgan. Dalvarzintepa puxta o'ylangan reja asosida qurilgan manzilgoh bo'lib, ushbu yodgorlikda ilk shaharsozlikning deyarli barcha belgilari aniqlangan.

Xulosa qilganda Markaziy Osiyodagi bronza davriga oid ilk shaharsozlik madaniyatlari tavsifi qisqacha tahlil qilindi. Bular misolida Turkmanistondagi Anov, Namozgoh, Oltintepa ilk shaharsozlik madaniyatlari, O'zbekiston janubidagi Sopollitepa, Jarqo'ton, Dalvarzintepa shaharsozlik madaniyatlari ko'rib chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Массон В.М.Средня Азия и Древний Восток. М. 1964 г.ст,56
2. Асқаров А, Ширинов Т. Рання городская культура эпохи бронзы на юге Узбекистана – Т. 1977 г. ст, 37
3. Eshonov B. So'g'diyona tarixidan lavhalar. T. 2004 y.b,69–72
4. Асқаров А.А. Абдуллаев Б. Жарқўтон – Т. 1989. 32-бет
5. Эшов Б. Цивилизация тизимидаги илк шаҳарлар. – Т. 2004 й. б, 17
6. Шайдуллаев Ш. Северная Бақтрия в эпоху раннего жилезногт века. – Т. 2000 й. б,87
7. Асқаров А., Ширинов Т. Раняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии, - Самарканд 1993 й. . б,19
8. Асқаров А. Сополлитепа. – Т. 1973. б ,25.
9. Асқаров А.А. Абдуллаев Б. Жарқўтон. – Т. 1989 й.б,59-63

UO'K 908

SHAHARLARDAGI URBANIZATSIYA JARAYONLARI
(Qashqadaryo viloyati shaharlari misolida)

F.I.Shodiyeva, mustaqil izlanuvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qashqadaryo shaharlarining rivojlanishining tarixiy bosqichlari, ko'hna shaharlar xarobalari, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, boshqaruv tizimi va tartiblari, shaharchalarning miqdori, shaharlar aholisi, shaharlar kategoriyasi, aholi punktlari maqomi, tumanlarning tashkil etilishi, katta bunyodkorlik ishlari olib borilishi bilan bog'liq jarayonlar ilmiy asosda yondashilib tahlil etilgan.*

Kalit so’zlar: *ko‘hna shaharlar, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, boshqaruv tizimi, shaharchalarning miqdori, shaharlar aholisi, shaharlar kategoriyasi, aholi punktlari maqomi, tumanlari tashkil etilishi, katta bunyodkorlik ishlari.*

Аннотация. *В статье на научной основе анализируются исторические этапы развития городов Кашкадарьи, руины древних городов, социально-экономическое развитие городов, система и порядок управления, количество городов, численность населения городов, категория городов, статус поселений, организация районов, а также процессы, связанные с масштабными созидательными работами.*

Ключевые слова: *древние города, социально-экономическое развитие городов, система управления, количество городов, численность населения городов, категория городов, статус поселений, организация районов, масштабные созидательные работы.*

Abstract. *This article analyzes the historical stages of the development of Kashkadarya cities, ruins of ancient cities, socio-economic development of cities, management system and procedures, number of towns, population of cities, category of cities, status of settlements, organization of districts, and processes related to large-scale creative works on a scientific basis.*

Keywords: *ancient cities, socio-economic development of cities, management system, number of towns, population of cities, category of cities, status of settlements, organization of districts, large-scale creative works.*

Kirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarixiy nomi olib tashlangan 30 ga yaqin shaharlarning ko‘hna nomlari qayta tiklandi[1:139]. Ammo viloyat shaharlarining nomlarida o‘zgarishlar bo‘lgani yo‘q. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston shaharlarini har tomonlama rivojlanishida muayyan tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Bunday tadbirlar doirasida shaharlarning rivojlanishiga alohida e’tibor qaratib kelindi. Mustaqillik yillarida dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan tarixiy shaharlarning yubiley to‘ylari Xalqaro tashkilot – YUNESKO ishtirokida amalga oshirildi.

Xususan, 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 2002 yilda Termiz shahrining 2500 yilligi, 2007 yilda Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi, 2008 yilda Samarqand shahrining 2750 yilligi, 2009-yilda Toshkent shahrining 2200 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatidagi ko‘hna shaharlarning yubiley tantanalari ham mazkur xalqaro tashkilot shafeligida keng nishonlandi. 2002-yil 1-noyabrda Shahrisabz shahrining 2700 yilligi va 2006 yil 27-oktabrda Qarshi shahrining 2700 yillik tantanalari bo‘lib o‘tdi.

Shu munosabat bilan ko‘hna kentlarda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, shaharlar qiyofasi tubdan o‘zgardi. Masalan, Qarshi shahri yubileyining nishonlanishi munosabati bilan shahardagi O‘zbekiston va Mustaqillik ko‘chalarida rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Aylanma yo‘lning Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Termiz yo‘nalishlari bo‘ylab 4 ta yangi avtostansiyalar qurildi[2:19]. 1996 yilda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi respublikada va butun jahonda keng nishonlandi. Sana munosabati bilan Toshkent (1993 y.), Samarqand va Shahrisabz (1996 y.) shaharlarida Amir Temur haykallari bunyod etildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mustaqillik yillarida respublika shaharlarining ma’muriy-boshqaruv tizimida islohotlar amalga oshirildi. Tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga rahbarlikni takomillashtirish, korxonalar va xo‘jaliklarning aloqalarini yaxshilash hamda boshqaruv apparatini qisqartirib, budjet xarajatlarini kamaytirish maqsadida bir nechta meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 2-sentabrda «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonuni[3:183], Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentabrda «Shaharlar va tumanlar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarori[4:14], 2004-yil 30-martda Vazirlar Mahkamasining «Hududiy davlat hokimiyati organlari boshqaruv tizimini takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori[5:58] qabul qilindi. Mazkur meyoriy-huquqiy hujjatlarga ko‘ra, 1993 yilda Qashqadaryo viloyatining ayrim (Beshkent, Talimarjon, Chiroqchi, Yakkabog‘, Yangi Nishon, Qamashi, G‘uzor) shaharlari boshqaruvi o‘zlari bo‘ysunadigan tuman hokimliklari bilan birlashtirildi. 1994 yilga kelib viloyatga bo‘ysunuvchi Kitob, Koson va

Muborak shaharlari tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar turkumiga o‘tkazildi[3:183]. Shahrisabz shahrining boshqaruv tizimida ham o‘zgarishlar bo‘lib, 1997 yildan shahar hokimi – Shahrisabz tuman hokimining birinchi o‘rinbosari deb yuritildi[6:25-27].

Natijalar va muhokama. Xalqimiz turmush tarzini yanada yaxshilash, aholi punktlarini rejali qurish va shaharsozlik sohasini xalqaro darajaga ko‘tarish maqsadida 2005 yil 30-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori[4:14] qabul qilindi. Natijada 2005-2017 yillarda respublikadagi 96 ta shaharning bosh rejalari ishlab chiqildi. Qashqadaryo viloyatidagi shaharlarning, xususan, 2006-yilda Kitob, 2010-yilda Muborak, 2012-yilda G‘uzor, 2013-yilda Qarshi va Qamashi shaharlari, 2015-yilda Koson va Yakkabog‘ shaharlarining Bosh rejalari ishlab chiqilib[7], tasdiqlandi.

Respublikadagi shaharchalarning miqdorida ham o‘sish kuzatilib, ayniqsa, mustaqillik yillarida keskin ko‘paydi. 2020-yilda respublika bo‘yicha 120 ta shahar va 1067 ta shaharcha, Qashqadaryo viloyatida 12 ta shahar va 117 ta shaharcha vujudga keldi. O‘zbekistonda 2009-yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e’lon qilindi. Respublika aholisining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilishi, qishloq aholisining turmush sharoitini yanada yaxshilash, qishloqlarga shahar madaniyatini olib kirish, shahar va qishloq o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martda 68-sonli «O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma’muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori[8:7-8] qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, respublikadagi 965 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berildi. Bu urbanizatsiya jarayonining «ikkinchi to‘lqini» davri bo‘ldi. Respublika miqyosida yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona (196 ta), Qashqadaryo (118 ta), Namangan (109 ta) va Surxandaryo (107 ta) viloyatlarida bo‘lib, ko‘plab shaharchalar tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 shaharlar rolining ortib borishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq ekanligi ma’lum. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi shaharlarning o‘sishi va shahar aholisining shakllanishi, shahar aholisining tabiiy o‘sishi, shahar atrofi hududlarining ma’muriy jihatdan shaharga qo‘shilib borishi, qishloq aholi manzilgohlarining shahar maqomini olishi bilan bog‘liqdir. 2022 yil 24 apreldagi Qaroriga ko‘ra Qashqadaryo viloyatida Ko‘kdala tumani tashkil etildi. Yettitom shaharchasi tuman markazi sifatida e’tirof etildi.

O‘zbekiston aholisining shahar joydagi ulushi yuqorilab, urbanizatsiya darajasi ko‘tarilib bormoqda. Respublikada urbanizatsiya ko‘rsatkichi yuqorilab ketdi. 2008 yilda O‘zbekiston Respublikasida urbanizatsiya darajasi 35,8 foizdan 2009 yilda 51,7 foizga oshib ketdi. Viloyatda esa 24,6 foizdan 43,3 foizga ko‘tarildi[9:7]. Ayni paytda (2022 y.) respublikada urbanizatsiya darajasi 50,7 foizni, viloyatda esa 42,8 foizni tashkil etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyati shaharlarida yashovchi rusiyzabon aholi soni salmoqli bo‘lib, Ittifoq parchalangach, ularning ko‘pchiligi tarixiy vatanlariga ko‘chib ketdilar, natijada shaharlar aholisida kamayish kuzatildi. Masalan, 1990 yilda G‘uzor shahri aholisi 21.0 ming kishi bo‘lsa, 1995 yilda 19.2 ming kishiga, Tallimarjon shahri aholisi esa 10.0 ming kishidan 6.8 ming kishiga tushib qoldi. Bu holatni respublikaning Olmaliq, Angren, Chirchiq, Navoiy kabi shaharlarida ham kuzatish mumkin[10:207].

Sovet davrining so‘nggi yillarida shaharlar aholisi soniga ko‘ra besh turkumga bo‘linib, ularda aholi soni quyidagicha belgilangan:

1) eng yirik shaharlar – aholisi 500 mingdan ortiq bo‘lgan;
2) yirik shaharlar – aholisi 250-500 ming kishigacha;
3) katta shaharlar – aholisi 100-250 ming kishigacha;
4) o‘rta shaharlar – aholisi 50 ming kishidan 100 ming kishigacha;
5) kichik shaharlar – aholisi 50 ming kishigacha bo‘lgan shaharlar[11:15].

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida (2016 y.) 119 ta shahar bo‘lib, ulardan mayda shaharlar 3 ta, kichik shaharlar 28 ta, «yarim o‘rta» shaharlar 50 ta, o‘rta shaharlar 20 ta, katta shaharlar 10 ta, yirik shaharlar 6 ta, eng yirik shahar 1 ta (Namangan) va millioner shahar 1 ta

(Toshkent) dir[12:55]. Mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyatidagi shaharlar klassifikatsiyasi o‘ziga xos ko‘rinishda bo‘ldi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qashqadaryo vohasidagi shaharlarning tashkil topishida bir qator omillar yetakchi rol o‘ynadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston shaharlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqilib, ularning amaliyoti ta’minlab borildi. Istiqlol yillarida tarixiy shaharlarimizning yubiley to‘ylari jahon miqyosida keng nishonlandi va katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Qashqadaryo viloyatidagi shaharlarda ham muhim tadbirlar amalga oshirildi. Istiqlolning dastlabki yillarida shahar hokimliklari tugatilib, o‘zlari bo‘ysunadigan tuman hokimligi bilan birlashtirildi. Talimarjon shahrida esa shahar hokimligi – tuman hokimining birinchi o‘rinbosari lavozimi joriy qilindi. Viloyat shaharlarining bosh rejalari ishlab chiqildi. 2009 yilda respublikadagi 965 ta, viloyatda esa 118 ta aholi maskanlari shaharcha maqomini oldi. Bu respublikada urbanizatsiya darajasining yuqorilab ketishiga olib keldi. O‘zbekiston aholisining shahar joydagi ulushi yuqorilab, urbanizatsiya darajasi ko‘tarildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. To‘htaboyeva D. Farg‘ona vodiysidagi urbanizatsiya jarayonlari. – Toshkent, TURON-IQBOL, 2018. –B. 139.
2. Eshtemirov J. XX – XXI asr boshlarida Qarshi shahar madaniyati. Tar.fan. bo‘yicha fal.dok. (PhD) diss. Avtoref. –Toshkent, 2018. –B. 19.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonuni // Xalq so‘zi, 1993 yil 18 sentabr. №183(678).
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Shaharlar va tumanlar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarori //https://www.lex.uz/ru/docs/995232?otherlang=1 /2020.03.14
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Hududiy davlat hokimiyati organlari boshqaruv tizimini takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. –Toshkent: Adolat, 2004. №13. –B. 11. 58 QVHA, 829-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 87-ish, 58-varaq.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagi PQ-3124-son Qaroriga ko‘ra Shahrisabz shahar hokimligi tashkil etilib, u viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorazm viloyatining Xiva shahri va Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahri hokimliklarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. –Toshkent, Adolat, 2017. – №28. –B. 25-27.
7. Qashqadaryo viloyat Qurilish bosh boshqarmasi joriy arxivining ma’lumotlar papkasi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma’muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. –Toshkent: Adolat, 2009. – №12. –B. 7-8.
9. Tosheva M. Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya jarayonlari (tarixiy nazar: 1991–2010). –Qarshi – Nasaf, 2010. –B. 7.
10. Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida, – Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002. –B. 207.
11. Tog‘ayeva A. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar madaniyati muammolari (1950-1990). – Toshkent, Yangi nashr, 2017. –B. 15.
12. To‘htaboyeva D. Farg‘ona vodiysidagi urbanizatsiya jarayonlari. – Toshkent, TURON-IQBOL, 2018. –B. 55.

UO’K 339.7:930(586.5:587)

O‘ZBEKISTON VA TURKMANISTON: STRATEGIK TASHQI IQTISODIY HAMKORLIKNING TARIXI

S.Shukurov, katta o‘qituvchi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi strategik tashqi iqtisodiy hamkorlikning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va istiqbollari tahlil qilingan. Ikkala davlat o‘rtasidagi savdo aloqalarining hajmi, asosiy eksport va import mahsulotlari, sarmoya kiritish loyihalari va transport-logistika tarmoqlari sohasidagi hamkorlik masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, Turkmaniston, tashqi iqtisodiy aloqalar, strategik hamkorlik, savdo-iqtisodiy munosabatlar, investitsiyalar, transport-logistika, energetika.*

Аннотация. *В данной статье анализируются формирование, этапы развития и перспективы стратегического внешнеэкономического сотрудничества между Узбекистаном и Туркменистаном. Объем торговых отношений между двумя государствами, основные экспортные и импортные товары, инвестиционные проекты и вопросы сотрудничества в области транспортно-логистических сетей освещены.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Туркменистан, внешнеэкономические связи, стратегическое партнерство, торгово-экономические отношения, инвестиции, транспортно-логистические услуги, энергетика.*

Abstract. *This article analyzes the formation, stages of development, and prospects of strategic foreign economic cooperation between Uzbekistan and Turkmenistan. The volume of trade relations between the two states, main export and import goods, investment projects, and issues of cooperation in the field of transport and logistics networks are highlighted.*

Keywords: *Uzbekistan, Turkmenistan, foreign economic relations, strategic partnership, trade and economic relations, investments, transport and logistics services, energy.*

Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalar tobora ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro yaqin tarixiy, madaniy va iqtisodiy rishtalarga ega bo‘lgan davlatlar, jumladan O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi strategik hamkorlik alohida e’tiborni tortadi. Ikkala davlat ham mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z tashqi siyosatida o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat bera boshladi. O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik, avvalo, o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillariga asoslangan holda shakllangan. Tabiiy resurslar, geografik qulaylik va transport-logistika imkoniyatlari ikki davlatni nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro savdo maydonida ham faol hamkorlik qilishga undadi.

O‘zbekiston va Turkmaniston o‘zining bir qismidagi iqtisodiy hamkorlik masalalari bo‘yicha borilgan adabiyotlar tahlili mavzuni keng va chuqur o‘rganishga imkon beradi. Adabiyotlar ushbu sohadagi ilmiy ishlanmalarni tashkil etadi. Bu ikki mamlakat o‘rtasida mustaqilllik yillaridan so‘ng iqtisodiy-siyosiy munosabatlar faol tarzda o‘rganila boshlandi. Bu borada bir qancha asarlar va ilmiy maqolalar yaratildi shuningdek Z. Kuldasheva, G‘. Mirzayev, A. Razzoqov, Sh. Toshmatov va boshqa olimlarning qilgan ilmiy ishlari muhimdir. Shuningdek Sh.X.Tashmatov, X.S. Asatullaev, Z.G.Allaberganov larning qilgan “iqtisodiy ta’limotlar tarixi” o‘quv qo‘llanmalarida ilmiy islohotchilik konsepsiyalarning shakllanishi haqida ilmiy ishlari mavjud. O’zbekiston respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining o‘ziga xos xususiyatlarining masalalari haqida G‘.R. Mirzayev lar hamda, boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Ushbu maqolani tayyorlashda tarixiy-tahliliy, tizimli yondashuv va taqqosloviy tahlil metodlari qo‘llanildi. Maqolada O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi tashqi iqtisodiy hamkorlikning shakllanish jarayoni, uning asosiy bosqichlari va rivojlanish dinamikasi tarixiy manbalar hamda zamonaviy statistik ma’lumotlar asosida o‘rganildi. Tadqiqot davomida ikki davlat o‘rtasida imzolangan shartnomalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ma’lumotlari, hukumatlararo bitimlar va rasmiy bayonotlar tahlil qilindi.

Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari va global iqtisodiy tendensiyalar kontekstida O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning o‘rni va ahamiyatiga baho berildi. Tahlil jarayonida tarixiy rivojlanishning uzviyligi, iqtisodiy omillar va siyosiy qarorlarning o‘zaro bog‘liqligi tamoyillariga tayangan holda, ikki davlat o‘rtasidagi strategik tashqi iqtisodiy hamkorlikning asosiy xususiyatlari va istiqbollari aniqlab berildi.

1991-yilda O‘zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolangan. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996-yil yanvarda amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo‘ldi. Chorjo‘y shahrida S.Niyozov bilan I.Karimov o‘rtasida va ikki mamlakat delegatsiyalari o‘rtasida muzokaralar bo‘ldi. Prezidentlar O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnomani, O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasida davlat chegarasini qo‘riqlashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha qator bitimlarni imzolashdi [1].

1991-yildan 2016-yilga qadar ikki mamlakat rahbarlarining 11 marta oliy darajadagi tashriflari amalga oshirildi. O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi keng ko‘lamli hamkorlikka oid dolzarb yo‘nalishlarni qamrab olgan davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajada imzolangan 150 dan ortiq xalqaro shartnomalar ikki mamlakat munosabatlarining mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat

qilmoqda. Yurtimizda 2001-yilda tashkil etilgan Respublika turkman madaniyat markazi faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston hududida turkman millatiga mansub qariyb 170 ming aholi yashab, 44 ta maktabda turkman tilida ta’lim olib borilmoqda [2].

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi strategik hamkorlikning huquqiy asosi sifatida qator tarixiy hujjatlar imzolandi. Do‘stona munosabatlarni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish, o‘zaro yordamni ayamaslik mazmunidagi 1996-yil 16-yanvar, 2004-yil 19-noyabr va 2007- yil 18-oktyabrdagi kelishuv hujjatlari – shartnomalar shular jumlasidan. Bundan tashqari, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning 2014-yil may oyida mamlakatimizga rasmiy tashrifi chog‘ida O‘zbekiston–Turkmaniston hamkorligini yanada rivojlantirish masalasida qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi [3].

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 6–7 mart kunlari Turkmanistonga ilk davlat tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik sohasida tub burilish yasadi. Tashrifning asosiy tadbirlari 6 mart kuni bo‘lib o‘tdi. Davlat rahbarlari avval yakkama-yakka, keyin ikki mamlakatning kengaytirilgan tarkibdagi rasmiy delegatsiyalari ishtirokida muzokara o‘tkazdilar. Muzokaralarda savdo-iqtisodiyot, neft-kimyo, transport kommunikatsiyalari, qishloq xo‘jaligi, madaniyat, turizm va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Muzokaralar yakunida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhammedov Qo‘shma bayonotni, ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomani imzolashdi. Ikki mamlakat vazirlik va idoralari o‘rtasida iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi va kimyo sanoati, temir yo‘l transporti, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni, hududlararo aloqalarni rivojlantirishga doir qator hujjatlar imzolandi. Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhammedov Turkmanobod shahriga borishdi. Bu shahar yaqinida Amudaryoda qurilgan Turkmanobod-Farob avtomobil va temir yo‘l ko‘priklarining tantanali ochilish marosimi bo‘ldi. Avtomobil ko‘prigining uzunligi - 1600, temir yo‘l ko‘prigining uzunligi - 1750 metr. Ularni qurishda turkmanistonlik va ukrainalik quruvchilar ishtirok etgan, Germaniya, Norvegiya texnologiyalaridan foydalanilgan. Prezidentlar ko‘priklar oldidagi maydonda tashkil etilgan o‘zbek va turkman amaliy san’ati namunalari, hunarmandchilik mahsulotlari ko‘rgazmasini ko‘zdan kechirdilar [4].

O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 24-avgustdagi, 2019-yil 10-oktyabrdagi, 2021-yil 29-apreldagi Turkmanistonga amaliy tashriflari davomida ham O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ko‘p qirrali hamkorlik va mintaqaviy sheriklikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, Turkmaniston Prezidentining 2018 yil 23–24 aprel kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi ham do‘stlik munosabatlari va strategik sheriklikni rivojlantirishda muhim voqea bo‘ldi. Tashrif davomida Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuxamedovning Qo‘shma bayonoti imzolandi [5].

Transport kommunikatsiyalari iqtisodiy hamkorlik borasidagi yana bir muhim yo‘nalishdir. “O‘zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon” yangi xalqaro transportkommunikatsiya yo‘lagini tashkil etish bo‘yicha imzolangan ko‘p tomonlama shartnomaning hayotga tadbiq etilishi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratadi, tranzit yuklar oqimini ko‘paytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Madaniy-gumanitar hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning muhim omilidir. O‘zbekiston va Turkmanistonning madaniyat va 51 san’at namoyandalari ikki mamlakatda tashkil etiladigan festival, ko‘rgazma va forumlarda muntazam ishtirok etib kelmoqda [6].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning inauguratsiyasi va O‘zbekiston Respublikasida “ochiq eshiklar” siyosati e’lon qilinganidan beri mamlakatda aholi turmush darajasining barqaror o‘sishi va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar boshlandi, misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar yuz berdi va bu davom etmoqda. Ma’lumki, mamlakat tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasi, birinchi navbatda, qo‘shni davlatlar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shuni ta’kidlashni istardimki, Turkmaniston va O‘zbekiston asrlar davomida do‘stona qo‘shnichilik munosabatlarini saqlab kelmoqda. Bugungi kunda zamonaviy haqiqatlarni hisobga olgan holda, Turkmaniston – O‘zbekiston munosabatlari eng maqbul davrni boshdan kechirmoqda. Va biz ko‘plab sohalarda keng ko‘lamli hamkorlikning guvohi bo‘lishimiz mumkin. O‘zaro manfaatli

hamkorlikda yanada yuqori cho‘qqilarga erishish Turkmaniston va O‘zbekiston hukumatlari, vazirliklari va idoralari o‘rtasida erishilgan kelishuvlarning o‘z vaqtida, sifatli bajarilishiga bog‘liqdir. Mamlakatlarimizning energetika, transport, mashinasozlik, qishloq va suv xo‘jaligi kabi sohalarda hamda boshqa qator muhim sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorligining keng doirasi mamlakatlarimiz munosabatlarining mustahkamligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi strategik tashqi iqtisodiy hamkorlikning tarixi mustaqillik davridan boshlab mintaqaviy va global sharoitlarda shakllangan murakkab jarayonlar majmuasidir. Ikkala davlat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki siyosiy ishonch, madaniy yaqinlik va geografik jihatlar bilan ham mustahkamlangan. Bu hamkorlik Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta’minlash va integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi strategik tashqi iqtisodiy hamkorlik tarixiy tajribaga asoslangan va mintaqaviy hamda global iqtisodiy jarayonlarda raqobatbardosh pozitsiyalarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan kompleks jarayondir. Bu hamkorlikning kelajakdagi rivojlanishi nafaqat ikki davlat manfaatlariga, balki Markaziy Osiyo mintaqasining barqarorligi va iqtisodiy farovonligiga xizmat qiladi. Shu boisdan, mamlakatlar o‘rtasida mavjud hamkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish va yangi istiqbolli yo‘nalishlarni izlash strategik vazifa bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Sayfullayev B. O‘zbekiston respublikasi madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi” DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent. 2020. – 48 b.

2. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xadjibakiyeva Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Baktria press, 2015.

3. Mirzayev G‘.R. O’zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi. – Toshkent: Fan, 2023.

4. To‘xsanov M. N. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va O‘zbekiston hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari. Carjis. 2022. – B. 43-48.

5. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N., Xoshimov P., Egamberdiyev F. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. – Toshkent. 2011. – 218 b.

6. Qirg‘izboev A. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. – Toshkent: “Fan”, 2004.

UO’K 94(586.5):338.1(470)

URUSH YILLARIDA SURXONDARYO VOHASIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

K.Toshov, PhD, dots., Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz
M.A.Bo‘ronqulova, talaba, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillari (1941–1945) davomida Surxondaryo vohasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada ayollar va o‘smirlarning ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rni, front ortidagi safarbarlik ishlari hamda mahalliy xo‘jaliklarning iqtisodiy yuklamalarni bajarish mexanizmlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Surxondaryo vohasi, Ikkinchi jahon urushi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, front orti, safarbarlik, taqsimot tizimi, oziq-ovqat tanqisligi, mehnat resurslari, ayollar mehnati, majburiy yetkazib berish, paxta yetishtirish, moddiy turmush, tarixiy jarayonlar.*

Аннотация. *В статье на основе исторических источников, архивных документов и научных исследований анализируются социально-экономические процессы, происходившие в Сурхандарьинском оазисе в годы Второй мировой войны (1941–1945 гг.). В статье рассматривается роль женщин и подростков в производственном процессе, мобилизационной работе в тылу, механизмы выполнения хозяйственных повинностей местными фермерскими хозяйствами.*

Ключевые слова: *Сурхандарьинский оазис, Вторая мировая война, социально-экономическая жизнь, тыл, мобилизация, система распределения, нехватка продовольствия,*

трудовые ресурсы, женский труд, принудительные роды, выращивание хлопка, материальная жизнь, исторические процессы.

Abstract. *This article analyzes the socio-economic processes that occurred in the Surkhandarya oasis during the Second World War (1941–1945) based on historical sources, archival documents, and scientific research. The article discusses the role of women and adolescents in the production process, mobilization work behind the front, and the mechanisms for fulfilling economic burdens by local farms.*

Key words: *Surkhandarya oasis, World War II, socio-economic life, rear, mobilization, distribution system, food shortage, labor resources, women's labor, forced delivery, cotton cultivation, material life, historical processes.*

Urushning boshlanishi, butun O‘zbekistonda bo‘lgani kabi, Surxon vohasi aholisining moddiy turmushiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Mavjud vaziyat aholining kundalik hayot tarzini keskin o‘zgartirdi: daromadlar kamaydi, oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlashda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Odamlar oldida og‘ir urush sharoitida yashab qolish masalasi keskin turib qoldi. Urush yillarida Surxondaryo aholisi og‘ir moddiy tanqislikka duch keldi. Oziq-ovqat yetishmovchiligi, kiyim-kechak va kundalik ehtiyoj mollari taqchilligi, mehnat yuklamasining keskin ortishi natijasida aholining turmush darajasi ancha pasaydi. Ko‘plab oilalar oddiy tirikchilikni ta’minlash uchun qattiq mehnat qilishga majbur bo‘ldilar.

Bundan keyingi hayotni urush davri qonuniyatlari asosida qayta qurish lozim edi. Oldinlari haftaning juma kuni bozor kuni bo‘lgan, sovetcha turmush tarzi, ayniqsa boshlanib ketgan urush, bozorga chiqishni ancha qiyinlashtirib qo‘ygan edi. Ana shundan kelib chiqib, O‘z SSR XKS aholining iltimoslarini qondirib, 1941-yil 23-iyun kuni O‘zbekiston SSR hududida bozor kunini jumadan yakshanbaga ko‘chirish haqidagi 679-sonli qarorni qabul qildi. Navbatdagi bozor kuni 1941-yil 27-iyun-juma kunidan 29-iyun yakshanbaga kuniga ko‘chirildi[1].

Fashistlar urushning ilk kunlaridayoq g‘alla va ko‘mirga boy bo‘lgan Ukrainani zabt etishi mamlakatda yoqilg‘i va oziq-ovqat taqchilligini keltirib chiqardi. Iyul oyidayoq aholiga tarqatilayotgan g‘alla miqdorini 10-20 foizga qadar qisqartirishga to‘g‘ri keldi[2]. Ammo urush cho‘zilib ketgach, mamlakat aholisini g‘alla bilan ta’minlash yanada og‘irlashdi. Ko‘pgina chorvador xo‘jaliklar g‘alla topshirishga qiynalib qolishdi. Shunday sharoitda O‘zbekiston XKS tomonidan 1941-yil 18-sentyabr kuni “O‘zbekiston SSR kolxozchilariga davlatga g‘alla o‘rniga go‘sht va jun topshirishlariga ruxsat berish to‘g‘risida”gi 1260-sonli qarorni qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq, respublika bo‘yicha g‘allaga ega bo‘lmagan kolxozlarga g‘alla o‘rniga go‘sht va jun topshirishlariga ruxsat berildi. Surxondaryo oblasti uchun 1 sentner jun 300 kg g‘allaga va 1 sentner go‘sht 2000 kg g‘allaga tenglashtirib qo‘yildi[3].

Oziq-ovqat taqchilligi kuchayib borgach, O‘zbekiston XKS ning 1941-yil 27-dekabrdagi 1982-sonli qarori bilan non uchun kartochkalar joriy etildi. 1942-yil 5-yanvarida Surxondaryo oblispolkomi qabul qilgan 17-sonli qarorga asosan 1942-yil 10 yanvardan boshlab oblastning Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Sherobod va Sho‘rchi singari rayon va rayon markazlarida qishloq xo‘jaligiga aloqador bo‘lmagan aholiga kartochka asosida non sotish joriy etildi[4].

Belgilangan qoidaga ko‘ra, shahar aholisining ikkinchi kategoriyadagi ishchilari uchun o‘rnatilgan norma 500 gr non bo‘lib, u MTR, MTS, MTM, paxta zavodlari, elektrostansiyalar, paxta qabul qilish punktlari, tegirmonlar, yog‘och korxonalari, don tayyorlov va mahalliy qurilish ashyolarini ishlab chiqaruvchi ishchilarga berildi. Yuqorida qayd etilgan aholi punktlarining boshqa ishchi va xizmatchilari hamda boqimandalarga xizmatchilar normasi bo‘yicha 400 gr dan non berildi[5].

Aholiga tarqatilayotgan non me’yori vaziyatga qarab o‘zgarib turgan. 1942-yil yanvarida Surxondaryo aholisi ehtiyojlari uchun 2520 tonna un, 25 tonna yorma, 50 tonna em-xashak uchun don ajratildi[6]. Bu miqdor oldingi oylardagidan ancha ko‘p edi. Taqqoslash uchun: 1941-yil iyul oyida 1775 tonna un, 45,8 tonna yorma, em-xashakka 30 tonna don berildi[7]. 1941-yil avgustida esa 2250 tonna un, 50 tonna yorma, 30 tonna em-xashak uchun don tarqatilgan edi[8].

1944-yil 23-dekabrda Sherobod rayispolkomi tomonidan tasdiqlangan reja asosida o‘sha yilning dekabr oyida rayonda kartochka asosida non oluvchilar ro‘yxati va me’yorlari ko‘rsatib berildi. Unda 8777 kishiga 76116.7 kg non to‘g‘ri kelganligi qayd etildi. Hujjatda aholining 8 ta, ishchilarning esa, 4 ta kategoriya bo‘yicha non olganliklarini kuzatish mumkin[9].

Urush bo‘layotgan bir vaqtda aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash har qachongidan ham muhim bo‘lib qoldi. Shu sababdan mehnat normalarini o‘z vaqtida bajarayotgan kolxozchilarga tomorqa uchun yerlar ajratildi. To‘plangan g‘allani un qilish uchun har bir kolxozda tegirmon ishlab turdi[10].

Bundan tashqari, frontga ketgan ko‘p bolali qizil askar oilalari uchun yordam pullari ajratildi. Lekin ahvol baribir og‘ir edi. Ocharchilik misli ko‘rilmagan darajaga borib etdi. Shu yillarda eng qimmatli oziq-ovqat mahsuloti non edi. Hikmatullo Qarshiyevning ma’lumotiga ko‘ra, uning momosi Mayram Turdiyeva (1912 yilda tug‘ilgan) eri frontga ketganidan so‘ng ro‘zg‘or ishida qiynalib bolalari bilan Denovdagi Hazorbog‘ sovxoziga, otasi Turdi polvonning uyiga ketdi. O‘z oilasi va nevaralariga non olib kelish uchun Turdi polvon 1942-yilda qizi bilan Denov bozoriga bordi va bir bosh echkini sotib, uning puliga tegirmonda tortilgan 3 kg unni sotib oldi[11]. Ya’ni, 3 kg unning puli bir bosh echki narxiga teng bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

1942-yilda Donbass fashistlar tomonidan bosib olinishi bilan vohaga ko‘mir keltirilishi to‘xtab qoldi. Yoqilg‘i etishmovchiligi tufayli o‘rmon xo‘jaliklaridan o‘tin keltirish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Surxondaryo oblastining eng yirik o‘rmon massivlari Ko‘hitang tog‘ining g‘arbiy va markaziy qismlarida joylashganligi hisobga olinib, Sherobod rayoniga o‘z o‘zini yoqilg‘i bilan ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Shunga asosan, Sherobod rayispolkomi 1943-yil 29-yanvarda o‘tkazilgan yig‘ilishda qabul qilingan 35-sonli qarori bilan kolxozchilarning kuchi bilan o‘tin yetkazib berish rejasini tasdiqladi. Unga ko‘ra, Xatak va Xomkon qishloq kengashlari har biri 1500 kubdan, Poshxurd 800, Zarabog‘ va Kampirtepa 500 dan, jami 4800 metr kub o‘tin tayyorlab berishi lozim edi[12].

1943-yil 26-noyabrda Sherobod rayispolkomida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda qizil askar oilalariga o‘tin tayyorlashda yordam berish haqida qaror qabul qilindi. Unga ko‘ra, Kampirtepa qishloq soveti-150 metr kub, Poshxurd-200 metr kub, Zarabog‘-200 metr kub o‘tinni tayyorlab, Sherobod shahriga yetkazishi shart qilib qo‘yildi. Shu ishlarning bajarilishi ustidan nazorat to‘liq qishloq kengashlari raislari bo‘yniga yuklatildi. Bu ishdan bosh tortganlar javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirildilar[9].

Kolxoz a’zolari o‘z kuchlari bilan Tangidevon, Xomkon, Kampirtepa, Shalqon, Qizilolma va Zarautsoydagi archalarni kesishar, keyin esa Poshxurdsoy va Xataksoy orqali jo‘natishar edi. U vaqtlarda har ikkala soyning suvi ko‘p edi. Kesilgan archa soyga tashlangach, suv oqimi bo‘ylab Sherobod shahriga qadar yetib kelar edi[10].

Ammo, erkaklarning tobora ko‘proq frontga jo‘nab ketishlari, mehnat safarbarligi, ocharchilik va yuqumli kasalliklar o‘tin tayyorlash rejasini barbod qildi. Xatak va Xomkon qishloq kengashlari archa o‘tinini yetkazish rejasini bor-yo‘g‘i 200 metr kubga bajarishgan edi, xolos. Vaziyat og‘irlashgach, o‘tin tayyorlash masalasi Surxondaryo rahbariyati tomonidan nazorat ostiga olindi. O‘tin tayyorlash bo‘yicha oblispolkomning 1944-yil 23-iyuldagi 218-raqamli qaror ham chiqarildi. Ana shu qaror ijrosini ta’minlash yuzasidan Sherobod rayispolkomi 1944-yil 13-avgustida 133-sonli qarorni qabul qildi. Unda o‘tin tayyorlash uchun rayondagi muayyan ishi bo‘lmagan barcha kishilar jalb etilishi, hamma korxona va tashkilotlar o‘tin uchun safarbar etilishi, o‘tin bilan birinchi navbatda maktablar, bolalar bog‘chalari, kasalxonalar, bolalar uyi, urush nogironlari va qizil askar oilalarini ta’minlash belgilangan edi[12].

Xalqning fidokorona mehnati tufayligina Sherobod rayoni 1944-1945-yillarga mo‘ljallangan o‘tinni g‘amlab, qahraton qish mavsumidan chiqib ketishga muvaffaq bo‘ldi.

Urush yillari O‘zbekiston frontning asosiy sihatgohlaridan biriga aylandi. Bu davrda O‘zbekistonda jami 113 ta harbiy gospital faoliyat yuritdi. Termiz shahridagi “Pravda” gazetasi nomidagi 2-sonli maktab uchun 1936-yilda qurilgan 2 qavatli yangi binosida 1264-raqamli harbiy gospital tashkil etildi. Gospital tashkil etilishi munosabati bilan qo‘shimcha qurilish-montaj ishlarini olib borishga to‘g‘ri keldi. Chunonchi, 1941-yil 2-sentyabrda gospitalning oshxona, oziq-ovqat bo‘limi va o‘likxona uchun ichki va tashqi suv oqova qurilishiga 3879 so‘m 69 tiyin, oshxona, suv

saqlagich va o‘likxonaga ichki va tashqi suv quvurini yotqizish uchun 4305 so‘m 29 tiyin, “Pravda-Bolalar uyi” maktabining ta’miri uchun 8094 so‘m 55 tiyin, oshxona, o‘likxona va omborxona uchun qo‘shimcha qurilishlarga 6463 so‘m 66 tiyin, Oktyabr ko‘chasidagi 28-30 uylarda joylashgan maktab binolarini bolalar uyi, gospitalning kabinetlari, apteka va xizmat qiluvchi personal uchun yotoqxona remonti hamda elektr jihozlarini olish uchun 5236 so‘m 12 tiyin ajratildi[11].

Xulosa sifatida aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida og‘ir turmush sharoiti va mashaqqatli mehnat oqibatida Surxondaryo oblasti aholisi katta aziyat chekdi. Minglab insonlar hayotdan ko‘z yumdi, ko‘plab oilalar og‘ir sinovlarga duch keldi. Shunga qaramay, ajdodlarimiz bunday yuksak darajadagi qiyinchiliklar oldida qaddi bukilmadi. Aksincha, azob-uqubatlar xalqimizning irodasini yanada metindek tobladi. Fashizmga nisbatan nafrat kuchayib, bu tuyg‘u buyuk g‘alabani ta’minlashda hamda insoniyat boshiga tushgan fashizm balosini yo‘qotishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 287-varaq.
2. Sherobod tuman davlat arxivi. 42-fond, 1-ro‘yxat, 363-ish, 252-varaq.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro‘yxat, 3-ish, 302-varaq.
4. Sherobod tuman davlat arxivi. 42-fond, 1-ro‘yxat, 368-ish, 369-varaq.
5. Dala yozuvlari. Termiz shahri, 2020-yil yanvar.
6. Sherobod tuman davlat arxivi. 42-fond, 1-ro‘yxat, 371-ish, 295-varaq.
7. Sherobod tuman davlat arxivi. 42-fond, 1-ro‘yxat, 371-ish, 40-varaq.
8. Dala yozuvlari. Muzrabod tumani, Yangier qishlog‘i, 2020-yil yanvar.
9. Sherobod tuman davlat arxivi. 42-fond, 1-ro‘yxat, 368-ish, 28-varaq.
10. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro‘yxat, 28-ish, 14, 34-varaqlar.
11. Dala yozuvlari. Termiz shahri, 2020-yil fevral.
12. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro‘yxat, 28-ish, 98-102-varaqlar.

UO’K 745.092:682.3(575.15)

QASHQADARYO VILOYATIDA HUNARMANDCHILIK RIVOJIDA ZARGARLIK SOHASINING TUTGAN O’RNI VA AHAMIYATI (STATISTIK TAHLIL VA HUDUDIY TENDENSIYALAR MISOLIDA)

F.M.To’xtamisheva, PhD, katta o’qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi
M.Z.Fayzullayeva, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya*. Maqolada Qashqadaryo viloyatida keng tarqalgan zargarlik tarixi va mahalliy manbalar hamda statistik ma’lumotlar asosida bugungi kundagi hudud madaniyati va iqtisodiy hayotidagi o‘rni tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar*: soch popuklar, , burunbuloq, bilaguzuk, zebigardon, xapovand va bargak.*

Аннотация*. В статье рассматривается многовековая традиция ювелирного искусства в Кашкадарьинской области и на основе местных источников и статистических данных проводится глубокий анализ её современного значения в культурной и экономической жизни региона*

Ключевые слова: *волосные подвески, носовое кольцо, браслет, ожерелье, хапованд (традиционное украшение) и баргак (листовидное украшение).*

Abstract*. The article examines the long-standing tradition of jewelry-making in the Kashkadarya region and, drawing on local sources and statistical data, provides an in-depth analysis of its contemporary significance in the cultural and economic life of the area.*

Keywords: *hair pendants, nose ring, bracelet, necklace, xapovand (traditional ornament), and bargak (leaf-shaped ornament)*

O‘zbekiston mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlantirib kelmoqda. Hunarmandlar faoliyati nafaqat milliy merosni asrab-avaylashga, balki aholi bandligini oshirish, mahalliy ishlab chiqarishni tiklash va bozor iqtisodiyoti imkoniyatlaridan samarali foydalanishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-77-son “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida[1]”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 iyundagi PF-91-son “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [2]gi, farmonlari va hunarmandchilik faoliyatiga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalardan shu ko’rinib turadiki, hunarmandchilik mamlakat iqtisodiyoti va milliy qiyofasini jahonga namoyish qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hunarmandchilikda eng ko'p taraqqiy etgan hunarlardan biri bu- qimmatbaho metallarga ishlov berish ya’ni zargarlik hisoblanadi. XIX asrda Qashqadaryo vohasining Qarshi hamda Shahrisabz hududlarida zargarlik hunari bilan shug'ulanuvchi zargarlar bozor bilan saroy ahli uchun mahsulot ishlab chiqarganlar. Zargarlar oltin, kumush bilan jez qotishmalaridan turli xil zeb-ziynatlar va qimmatbaho buyumlar yasashgan va ularga nozik did bilan nafis badiiy ishlov berganlar. Shuningdek zargarlar turli metal va qimmatbaho toshlar yordamida xilma-xil zeb-ziynat buyumlarini-ziraklar, soch popuklar, bargak, tillagosh, tumor, burunbuloq, bilaguzuk kabi taqinchoqlar yasaganlar. XIX asrda boshqa hunarmand ustalar kabi zargarlarning ham maxsus mahallalari va guzarlari mavjud edi. Misol uchun, qarshilik zargarlar asosan eski shaharning atrofida, shuningdek, Xaram-Saroy, Boylar guzarlari va boshqa guzarlarda joylashgandi.[3] Shahrisabzda esa zargarlar asosan Boloxauz, Mardon-Xauz hamda Kunduzak mahallalarida yashaganliklari haqida ma’lumot mavjud. XIX asrda Shahrisabz tumani zargarlari yurtimizning boshqa hududlaridagi zargarlar singari bir necha mutaxassisliklarga bo’linib faoliyat ko'rsatganlar. Bular: uzuksozlar, ziraksozlar hamda boshqa xil taqinchoqlar yasovchilar edi.[4]

Bu davrda, Qashqadaryo hunarmandchiligida murakkab ish ayollar tillaqoshi, bargak va zebigardon, xapovand yasash bo'lgan desak xato bo’lmaydi. Ular avval misdan, keyinchalik kumushdan va oltindan yasalgan bo'lib, nozik san'at asarlari hisoblanardi. Zebigardon va xapovand ayollar taqinchoqlari ichida eng ko'p mehnat talab qiladigan buyumlardir. Ular ayollarning ko’ylaklari ustidan ko'kraklarining yon qismiga taqilgan. Zebigardon, xapovand va bargaklarning kopgina qismida dur munchoglar qadalgan, yuqori qismidagi ilgak va maxsus zanjir orqali esa kiyimga birlashtirilgan. Zargarlar tomonidan yasalgan va xalq amaliy san'ati namunalaridan yana biri ayollarning kumush bilakuzuklari edi. Bilakuzuklar ham hunarmand zargarlarning iste'dodi tufayli ayollar uchun qimmati bezak turlaridan biri edi. Bilakuziklar turli xil material buyumlardan tayyorlangan. O'rta hol ayollar ko'pincha kumushdan, badavlat xonadon ayollari esa oltin, oddiy xonadon ayollari esa mis yoki temir aralashmasidan tayyorlangan bilakuzuklarni sotib olishgan. Mazkur davrga oid Shahrisabz muzeyida saqlanayotgan bilakuzuklar kumushdan yasalgan bo'lib, aylana qismida, sirtida o'ymakor gullar bezak sifatida ishlatilgan.[5] Aylana shaklni bir-biriga tutashgan joyida ozgina bo’sh yer qoldirilib, bir-biriga jipslashtirilmagan edi. Chunki bilakuzuk ana shu joyidan taqilgan. Shunday bilakuzuklar qarshilik zargarlar tomonidan ham yasalgan. Qashqadaryo viloyatidagi muzeylarda uchraydigan kumush bilakuzuklar 3 xil ko’rinishda uchratish mumkin. Qizil, sariq rangdagi bilakuzuklar shu davrda Rossiya, Tatariston, Xitoy va Sharqiy Turkistonda xaridorligi Qashqadaryo viloyatining shu sohada mashhurligini isbotidir.

So‘nggi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning o‘zida respublika bo‘yicha 22100 nafar hunarmand ro‘yxatdan o‘tgan.[6] Bu ko‘rsatkich hunarmandchilikning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani, ularning soni va sifat ko‘rsatkichlari barqaror rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Qashqadaryo viloyatining hunarmandchilik bo‘yicha holatini kuzatsak, Qashqadaryo viloyati milliy hunar turlari eng qadimdan shakllangan hududlardan biridir. 2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, viloyatda 1427 nafar hunarmand faoliyat yuritmoqda. Hududda kulolchilik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, pichoqchilik, gilamdo‘zlik, kashtachilik, makrame, charm buyumlar tayyorlash va boshqa ko‘plab yo‘nalishlar keng rivojlangan. Ayni paytda Shahrisabz, Qarshi, Kitob, Yakkabog‘ va Chiroqchi tumanlari hunarmandchilik an’analari bilan alohida ajralib turadi. Shahrisabz shahrida tashkil etilgan hunarmandlar maskani viloyat ustalari uchun mahsulotlarini namoyish qilish, bozorga chiqish va amaliy ko‘nikmalar almashinuvini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

2025-yil Qashqadaryo viloyati “Hunarmand” uyushmasidan olingan ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida 2018-yildan 2025-yilgacha 8088 usta va hunarmandlar turli xil an’anaviy va zamonaviy yo’nalishlar bo’yicha uyushma ro’yxatidan o’tgan.[7] Yuqoridagi hunarmandchilik sohasining qiyosiy tahliliga qaraydigan bo’lsak, Qashqadaryo viloyatida 2025-yilgacha 184 ta zargar uyushmaning doimiy ro’yxatida turadi va bu zargarlikning boshqa sohalar kabi salmoqli o’rin egallashini anglatadi. Uyushmadan olingan ma’lumotlarga ko’ra, Qarshi shahrida 57 nafar zargar ro’yxatdan o’tgan, ammo hududlar kesimida ayrim tumanlarda bu ko’rsatgich o’rta darajadan ham pasayib ketgan. Masalan Dehqonobod tumanida 3 nafar, G’uzor tumani 4 nafar, Qarshi tumanida 2 nafar va Mirishkor tumanida 1 nafar usta zargarlar ro’yxatdan o’tgan.

Bugungi kunda hunarmandlar uchun zamonaviy ustaxona infratuzilmasining yetishmasligi, onlayn savdo platformalarida faoliyatning cheklanganligi, xomashyo tan narxining balandligi va boshqa kabi muammolarni bartaraf qilish uchun bir qator ishlar olib borilmoqda. Masalan, Viloyat hokimliklari tomonidan hunarmandchilik maskanlari sonini oshirish, hunarmandlar uchun soliq va kredit imtiyozlarini kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan milliy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, yoshlar uchun bepul o‘quv kurslari va sertifikatlashtirish jarayonlarini kengaytirish, “Qashqadaryo brendi” ostida an’anaviy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish va boshqa istiqbolli vazifalar yorqin dalil bo’la oladi. Shu maqsadda, 2018-yil 28-fevral kuni viloyatimizning Shahrisabz shahridagi ochilgan hunarmandchilik maskanida faoliyat yuritayotgan hunarmandlardan soliq olinmasligi quvonarli hol.[8]

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik iqtisodiyotning rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, hududning madaniy merosi, tarixiy an’analari va demografik salohiyati bilan chambarchas bog‘liq. 2025-yil statistik ma’lumotlari viloyatda hunarmandlar soni, faol yo‘nalishlar va ustoz-shogird tizimining jadal rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Hunarmandchilikda zargarlik sohasi nafaqat iqtisodiy faollikni oshirmoqda, balki mahalliy aholi bandligi, yoshlar mehnat bozoriga kirib kelishi va milliy qadriyatlarning avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlamoqda desak tog’ri bo’ladi.



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida ro'yxatdan o'tgan zargarlarning hududlar bo'yicha taqsimoti.[9]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Электрон манба:https://lex.uz/docs/5807559 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent, 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-77-son.

2. Электрон манба:https://lex.uz/docs/6490321 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent, 2023 yil 12 iyundagi PF-91-son.

3. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Ташкент, 1958. – 123 с.

4. Ming yillar merosi, Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010. – 102-bet.

5. Shahrisabz muzeyi, “Zargarlik buyumlari” bo’limi, bilakuzuk eksponati.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “Hududlar bo‘yicha hunarmandlar soni”, 2025-yil ma’lumotlari.

7. Muallif kuzatuvi. Muallif kuzatuvlari. Qashqadaryo viloyati hunarmandlar “Uyushma”si mutaxassisi. Shaxsiy suhbat. 21.11.2025.

8. Kun.uz. (2018, 28 fevral). Shahrisabzda Qashqadaryo viloyatidagi yagona hunarmandlar maskani ishga tushdi. https://kun.uz/70962593

9. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan jadval.

10. Samadova N. Qashqadaryoda hunarmandchilik tarixi. – worldlyjournals.com, 2025.

11. Zargarlik — Uzbekistan akademik portali. – uzbekacademy.uz, 2024.

UO’K 908

O‘ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTORLARGA BERILGAN IMTIYOZLAR VA ULARNING HUQUQLARINING HIMOYA QILINISHI TARIXI (2000-2010)

A.Turg‘unboyev, dots., Iqtisodiyot va pedagogika universiteti nodavlat ta’lim muassasasi Samarqand kampusi, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 2000–2010 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investorlarga yaratilgan huquqiy, iqtisodiy va institutsional imtiyozlar tizimi hamda ularning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Xorijiy investorlar, investitsiya imtiyozlari, huquqiy himoya, investitsion siyosat, iqtisodiy islohotlar, O‘zbekiston.*

Аннотация. *В статье анализируется процесс формирования системы правовых, экономических и институциональных льгот для иностранных инвесторов в Республике Узбекистан в 2000–2010 годах, а также механизмы защиты их прав.*

Ключевые слова: *Иностранные инвесторы, инвестиционные льготы, правовая защита, инвестиционная политика, экономические реформы, Узбекистан.*

Abstract. *This article analyzes the development of legal, economic, and institutional incentives provided to foreign investors in the Republic of Uzbekistan during the period 2000–2010, as well as the mechanisms established to protect their rights.*

Key words: *Foreign investors, investment incentives, legal protection, investment policy, economic reforms, Uzbekistan.*

Kirish. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq jalb etish, xalqaro andozalarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada huquqiy himoya tizimi tobora mustahkamlanmoqda.

Qulay investitsion muhit turli qonuniy hujjatlarning qabul qilinishi natijasida o‘zining huquqiy asosiga ega bo‘ldi. Bu qonuniy hujjatlarga “Xorijiy investorlar huquqlarini kafolatlash va himoyalash tartiblari to‘g‘risida” gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet el investitsiyasi to‘g‘risida” gi “Xorijiy investitsiya ishtirokidagikorxonalarning qo‘shimcha imtiyozlari to‘g‘risida”, “Eksportbob mahsulotlar ishlab chiqaradigan xorijy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi farmonlarini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

Vazirlar mahkamasining 2002-yil 13-noyabr №390-sonli qaroriga asosan xorijiy investorlar 2003-yil 1-yanvaridan va 2007-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda quyidagi imtiyozlarga ega bo‘lishdi:

Iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab chiqarishdan olgan foydaning belgilangan qiymatining 20%ini to‘lashi;

Bolalar assortimentidagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar daromad soliqlarning belgilanganmiqdorining 7%ini to‘lashi;

Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mayda va mikrofirmalar belgilangan yagona soliqning 25%i miqdorini to‘lash;

Jismoniy kuch hisobiga iste’mol mollari ishlab chiqaruvchi korxonalar daromad solig‘i va yagona soliqdan ozod etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2003-yil 2-mayda qabul qilingan “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori mamlakatimizga xorijiy investitsiyaning jalb qilinishida sezilarli qadamlardan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi “To‘g‘ridan- to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlarda to‘g‘risida”gi farmoni sohada xususiy himoya tiziminng yaratilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

2007-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki tarmoq va tarmoqlar aro sanoat korporatsiyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni e’lon qilindi. Bu hujjat sohaning strukturasining huquqiy asosda mustahkamlanishi yo‘lida xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 20-iyuldagi “2007-2010-yillarda xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb ilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida mamlakatimizda davlat mulkini xorijiy investorlarga faol jalb qilish chora-tdbirlari to‘g‘risidagi qarorida mamlakatimizda davlat mulkini xorijiy investorlarga sotish borasida huquqiy tizimni yanada rivojlantirish yo‘lida yanada muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarni qo‘llab-quvvatlash ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni eksport qilinuvchi korxonalarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlashda ularni qo‘llab-quvvatlashni aniq chora-tadbirlari belgilab berildi.

2008-2009-yillarning dastlabki choragi davomida adliya organlari tomonidan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 600 ga yaqin korxonalarning murojati ko‘rib chiqilgan. Natijada davlat va nazorat qiluvchi organlarga qonun buzilishlarni bartaraf etish bo‘yicha 371 taqdimnoma tegishli idoralarning noqonuniy qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida 153ta ko‘rsatma kirtilgan. Qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslar ogohlantirildi. Mazkur chora-tadbirlar natijasida noqonuniy qabul qilingan 45 ta qarorning bekor qilinishi tufayli xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar huquqiy himoyasini ta’minlash masadida sudlarga 1775 ta da’vo arizasi kiritildi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning huquqlarini buzgan 337 nafar mansabdor shaxsga nisbatan intizomiy jazo qo‘llanildi. Ulardan 19 nafari egallab turgan lavozimidan ozod etilgan bo‘lsa, 68 nafari ma’muriy javobgarlikka tortildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksportbob mahsulotlar ishlab chiqaradigan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmonlarini farmonida xorijiy investorlarning mavjud huquqlarini agarda investitsiya sohasidagi siyosatda ozgarishlar bo‘ladigan yilda 10 yil davomida himoya qilinishii kafolatlaydi.

Prezidentimizning “To‘g‘ridan- to‘g‘ri xususiy investitsiyalrni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni xorijiy investorlar uchun ishonchli himoya vazifasini bajarish mexanizmining ishlab chiqilishi omili bo‘ldi.

2005-yil 1-iyuldan boshlab mamlakatimizda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyaning jalb qilishi natijasidan tashkil qilingan korxonalar asosiy faolitay yo‘nalishi bo‘yicha daromad solig‘idan, mol-mulk solig‘idan, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun to‘lanadigan soliqdan, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliqdan, yo‘l fondi uchun olinadigan to‘lovlardan ozod etilishdi.

2008-yilning 1-anvaridan e’tiboran chet ellik investorlarga mamlakatimizda ishlab chiqarish ehtiyoji uchun olib kiritilayotgan mol-mulklarga agar korxona ustav kapitalida xorijiy investrning ulushi 33 foizdan yuqori bo‘lsa bojxona to‘lovlaridan ozod etilishi belgilandi.

2008-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 1.7mlrd. AQSH dollari xorijiy investitsiya jalb etildi. Bu 2007-yildagidan 46 foizga ko‘pdir. Investitsiyaning 74 foizi to‘g‘ridan-to‘gri xorijiy investitsiyadir.

2008-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot real sektorini korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni chiqdi. Bu va boshqa farmon va qarorlar mamlakatimizda yurtimizda investitsion muhitni yaxshiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va xalqaro standartlarga mos bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha izchil

siyosat olib bordi. 2000–2010 yillar mobaynida xorijiy investorlar uchun yaratilgan huquqiy, iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlarning bosqichma-bosqich takomillashuvi investitsion muhitning sifat jihatidan tub o‘zgarishiga olib keldi. Qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlanishi va himoya qilinishini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘ldi.

Xususan, “Xorijiy investorlar huquqlarini kafolatlash va himoya qilish tartiblari to‘g‘risida”gi qonun, “Chet el investitsiyasi to‘g‘risida”gi farmonlar, “Eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaradigan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qarorlar xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar uchun huquqiy himoyaning mustahkam asosini yaratdi. Shuningdek, soliq, bojxona, moliyaviy va ma’muriy imtiyozlarning keng joriy etilishi – ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, korxonalar likvidligini oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va investitsion loyihalarning barqarorligini ta’minlashga xizmat qildi. Bu davrda berilgan imtiyozlar tarmoqlar va investitsiya hajmiga qarab differensial tarzda belgilangan bo‘lib, bu yondashuv investitsion dasturlarning samaradorligini oshirdi.

Davlat tomonidan qabul qilingan qaror va dasturlar – xususan, 2007–2010-yillarda xususiylashtirish jarayonini chuqurlashtirish, mahalliylashtirish dasturini rivojlantirish, eksportchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar – iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiya qilishga kuchli turtki berdi. Adliya organlari tomonidan xorijiy investorlar murojaatlarini tizimli ko‘rib chiqish, qonunbuzilishlarni bartaraf etish, noqonuniy qarorlarni bekor qilish, mansabdor shaxslar javobgarligini belgilash kabi mexanizmlar samarali huquqiy himoya tizimini shakllantirdi. Mazkur jarayon investorlar ishonchini oshirdi, mamlakatdagi investitsion muhitning barqarorligini ta’minladi.

Shu bilan birga, xorijiy investorlar uchun yaratilgan soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari, daromad va mol-mulk solig‘idan ozod etish, imtiyozli kreditlar berish, ishlab chiqarishga olib kirilayotgan asbob-uskunalar uchun bojxona to‘lovlarini bekor qilish kabi chora-tadbirlar iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirdi. Natijada 2008-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 1,7 mlrd. AQSH dollariga yetib, avvalgi yilga nisbatan 46% ga o‘sdi va uning 74%ini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etdi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining jadal o‘sishida investitsiyaviy omilning muhim strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda xorijiy investorlarga yaratilgan imtiyozlar tizimi, huquqiy kafolatlar, soliq va bojxona yengilliklari, huquqiy himoya mexanizmlarining takomillashuvi investitsion muhitni sezilarli darajada yaxshiladi. Qonunchilikda investor huquqlarining kafolatlanishi, ularning manfaatlarini 10 yil davomida o‘zgarmas holda himoya qilish tizimi, davlat tomonidan ishlab chiqarish, eksport va mahalliylashtirish jarayonlarini rag‘batlantirish bo‘yicha qabul qilingan farmon va dasturlar mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

2. “Xorijiy investorlar huquqlarini kafolatlash va himoya qilish tartiblari to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent: Adolat, 1998 (keyingi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).

3. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet el investitsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2003.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. – Toshkent, 2005.

6. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13-noyabrdagi 390-son qarori “Xorijiy investorlarga beriladigan soliq va bojxona imtiyozlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2002.

7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

8. Qo‘chqorov X., Ubaydullayev H. Xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2009.

UO’K: 655.41

DAVLAT NASHRIYOTLARINING TASHKIL TOPISHI (1917–1941 YILLAR)

M.A.Turopova, magistrant, Oriental universiteti, Toshkent
S.B.Shadmonova, prof., Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, Toshkent
S.Q.Yusupov, PhD, O’zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti, Toshkent

Annotatsiya. *1917-yildan keyin sobiq Rossiya imperiyasi hududida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar Turkiston o‘lkasida ham matbuot va nashriyot ishlariga keskin ta’sir ko‘rsatdi. Sovet hokimiyati o‘rnatilishi bilan respublika miqyosida nashr etiladigan kitob, gazeta va jurnallarni davlat nazorati ostida bir markazdan boshqarish zaruriyati tug‘ildi. Bu jarayon O‘zbekistonda davlat nashriyot tizimining tashkil topishi va rivojlanishiga asos soldi. O‘zbekistonda 1917–1941 yillar oralig‘ida nashriyot faoliyatini shakllantirish, uni siyosiy, ma'rifiy va ilmiy jihatdan takomillashtirish jarayonlari sovet davridagi siyosiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.*

Kalit so‘zlar: *nashriyot, matbuot, sovet siyosati, madaniyat, targ‘ibot, markazlashuv, bosmaxona.*

Аннотация. *Политические изменения, произошедшие на территории бывшей Российской империи после 1917 года, оказали резкое влияние на печать и издательское дело Туркестанского края. С установлением Советской власти возникла необходимость централизованного управления изданием книг, газет и журналов на республиканском уровне под государственным контролем. Этот процесс заложил основу для формирования и развития государственной издательской системы Узбекистана. Процессы становления и совершенствования издательского дела в Узбекистане в 1917–1941 годах, его политического, образовательного и научного развития были тесно связаны с политическими изменениями советской эпохи.*

Ключевые слова: *издательское дело, пресса, советская политика, культура, пропаганда, централизация, типография.*

Abstract. *The political changes that took place in the territory of the former Russian Empire after 1917 had a dramatic impact on the press and publishing industry of the Turkestan region. With the establishment of Soviet power, there was a need for centralized management of the publication of books, newspapers and magazines at the republican level under state control. This process laid the foundation for the formation and development of the state publishing system of Uzbekistan. The processes of formation and improvement of publishing in Uzbekistan in 1917-1941, its political, educational and scientific development were closely linked to the political changes of the Soviet era.*

Keywords: *publishing, press, Soviet policy, culture, propaganda, centralization, printing house.*

Kirish. XX asr boshlarida O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan tub o‘zgarishlar natijasida ilm-fan, madaniyat va matbuot sohalarida ham sezilarli yangilanishlar yuz berdi. 1917 yilgi inqilobdan so‘ng, yangi tuzumning mafkuraviy ehtiyojlarini ta’minlash hamda xalqni savodli qilish, milliy madaniyatni rivojlantirish maqsadida nashriyot ishlarini davlat nazorati ostida tashkil etish zaruriyati tug‘ildi. Shu davrdan boshlab O‘zbekistonda davlat nashriyotlarining shakllanishi va rivojlanish jarayoni boshlangan.

Adabiyotlar tahlili.1917 yilgi inqilobdan keyin sobiq Turkiston hududida yangi sovet nashriyotlarini tashkil etish ishlari boshlandi. Avvaliga mavjud xususiy matbaalar davlat tasarrufiga olindi va ular siyosiy targ‘ibot vositasi sifatida qayta yo‘naltirildi.

1918 yilda Turkiston Xalq Komissarlari Soveti huzurida Matbuot ishlari bo‘limi tuzildi. Shu yildan boshlab siyosiy risolalar, inqilobiy chaqiriqlar, savodsizlikni tugatish uchun o‘quv qo‘llanmalari muntazam chop etila boshlandi.

1920 yilda Toshkentda Davlat nashriyoti (Gosizdat) tashkil qilinib, turli milliy tillarda, jumladan o‘zbek tilida ham asarlar nashr etila boshladi.

Bu davr nashriyotlarining asosiy vazifasi — xalq orasida savodxonlikni oshirish, kommunistik mafkurani targ‘ib qilish va turli darsliklarni tayyorlash edi.

1918-yil 27-mayda Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti huzurida Turkiston davlat nashriyoti tashkil etildi. Bu nashriyot dastlab Toshkent shahrida ish boshladi. Uning asosiy vazifalari:

1.Sovet hokimiyatining farmon va qarorlarini aholiga yetkazish;

2.Savodxonlikni oshirish uchun o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash;

3.Marksizm-leninizm g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi adabiyotlarni nashr etish;

4.Mahalliy tillarda gazeta va kitoblar chop etishni yo‘lga qo‘yish.

Dastlabki yillarda texnik baza juda sust bo‘lib, bosmaxonalar eski qo‘lda ishlovchi stanoklar bilan ishlagan. 1920-yillar boshida Germaniya va Rossiyadan yangi poligrafik jihozlar keltirildi.

Tadqiqot metodologiyasi.1924-yilda O‘zbekiston SSR tuzilgach, Turkiston davlat nashriyoti negizida O‘zbekiston davlat nashriyoti tashkil qilindi. U o‘z faoliyatini respublika miqyosida kengaytirib, Toshkentdan tashqari Samarqand, Buxoro va Farg‘onada filiallar ochdi. Bu davrda nashriyot:

O‘quv adabiyotlari – maktablar uchun “O‘qish kitobi”, “Yangi alfavit”, matematika, tarix va tabiiyot darsliklarini chop etdi;

Ilmiy-ommabop adabiyotlar – qishloq xo‘jaligi, sanoat va texnika bo‘yicha qo‘llanmalar tayyorladi;

Badiiy asarlar – Cho‘lpon, Fitrat, Hamza, Oybek kabi yozuvchilarning asarlarini nashr qildi;

Gazeta-jurnal bosmaxonasi sifatida “Qizil O‘zbekiston”, “Maorif va o‘qituvchi”, “Mushtum” kabi nashrlarni chop etdi.

Davlat nashriyoti 1930-yillarda savodsizlikni tugatish kampaniyasida muhim rol o‘ynadi. Yangi o‘zbek alifbosiga (lotin yozuviga) o‘tish jarayonida yuzlab alifbe, imlo lug‘ati va o‘quv qo‘llanmalari bosib chiqarildi. Shuningdek, adabiyot va san’at asarlarini mahalliy tillardan rus tiliga va aksincha tarjima qilish ishlari ham yo‘lga qo‘yildi.

1930-yillarda siyosiy tazyiqlar kuchayishi bilan nashriyot faoliyati qat’iy nazorat ostiga olindi. Senzura boshqaruvi (Glavlit) barcha nashrlar mazmunini tekshirardi. “Millatchilik” yoki “sovet mafkurasiga zid” deb topilgan ko‘plab asarlar chop etilmay qolgan, ayrim yozuvchilar esa qatag‘on qilingan.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi arafasida davlat nashriyoti mudofaa mavzusidagi plakat, varaqa, qo‘llanmalar va jangovar chaqiriqlarni tezkor bosishda faol qatnashdi. Qisqa muddat ichida ko‘plab siyosiy-ma’rifiy risolalar, front orti uchun yo‘riqnoma va qo‘llanmalar nashr etildi.

O‘zbekistondagi birinchi bosmaxona 1868-yilda Toshkentda tashkil topgan.Jadidlar harakati davrida bosma matbuot rivojlandi: gazetalar, jurnallar, darsliklar chop etila boshlandi.

Keyinchalik, jadidlar harakati davrida (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida) bosma matbuot tez sur’atlar bilan rivojlana boshladi. Jadidlar yangi fta’lim-tarbiya, dunyoqarash va ijtimoiy yangilanish tarafdorlari bo‘lib, matbuot orqali o‘z g‘oyalarini keng yoyishga harakat qilishdi. Shu sababli:

- Gazetalar va jurnallar chiqdi,
- O‘quv darsliklari va badiiy asarlar nashr etila boshlandi,
- Aholi orasida savodxonlik darajasi ortdi.

Bu bosqich O‘zbek matbuotining poydevorini tashkil etdi va keyinchalik davlat nashriyot tizimining shakllanishiga zamin yaratdi.

O‘zbek Davlat Noshriyotining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat edi:

O‘quv darsliklarini tayyorlash va nashr qilish, Ilmiy-ma’rifiy adabiyotlar chop etish, Siyosiy-ideologik targ‘ibot materiallarini tarqatish, Adabiy va badiiy asarlarni nashr etish.

O‘zbekistonda davlat nashriyotining vujudga kelishi va rivojlanishi 1917 yilgi Oktyabr inqilobidan so‘ng boshlangan bo‘lib, bu jarayon mamlakatdagi siyosiy o‘zgarishlar va sovet mafkurasining yuzaga kelishi bilan chambarchas bog‘liq edi. Sovet hukumati hokimiyatni qo‘lga olgach, o‘z mafkurasini aholi orasida tarqatish, uning g‘oyaviy ustunligini ta'minlash uchun ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, nashriyotlar faoliyatiga katta ahamiyat berdi. O‘zbekistonda davlat nashriyotining tashkil etilishi ana shu jarayonlar ichida muhim o‘rin egallaydi. [1, – B.43.]

1917–1920-yillar davrida Turkistonda matbuot bo‘limlari tashkil etilib, ular asosida 1920-yilda ilk davlat nashriyoti tashkil qilindi. Bu nashriyot avvalo Turkiston xalq komissarlari kengashi qoshidagi matbuot bo‘limi sifatida ish boshlagan. Uning asosiy vazifasi sovet hukumati siyosati va g‘oyalarini targ‘ib qilish, partiya va davlat organlarining ko‘rsatmalarini ommaga yetkazish edi. Nashriyot avvallari Turkiston xalq komissarlari kengashi qoshidagi Matbuot bo‘limi sifatida faoliyat yuritgan. 1924-yilda O‘zbekiston SSR tashkil topgach, nashriyot ham mustaqil tarzda ish yuritadigan idoraga aylantirildi. [2, – B.10.]

Tahlil va natijalar. Davlat nashriyoti turli yo‘nalishlarda faoliyat yuritdi. Ularning asosiy vazifalari quyidagilar edi:

- Sovet hukumati siyosatini targ‘ib qiluvchi partiyaviy adabiyotlarni nashr etish;
- Gazeta va jurnallar chiqarish (masalan, “Qizil O‘zbekiston”, “Yosh Leninchi”);
- O‘quvchi va talabalar uchun darsliklar tayyorlash;
- Ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlarni chop etish.

Davlat nashriyoti faoliyati avvalo partiyaviy adabiyotlar, gazeta va jurnallar, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy-ommabop va badiiy asarlarni bosib chiqarishga qaratilgan edi. 1930-yillarda nashriyot faoliyati tobora markazlashdi, senzura tizimi kuchaytirildi va har qanday material partiya mafkurasiga mos kelishi talab etildi.

O‘sha davrda "Qizil O‘zbekiston", "Yosh Leninchi", "Mehnat Tufayli" kabi gazetalar va ilmiy-ommabop jurnallar, shuningdek, o‘zbek va rus tillaridagi darsliklar davlat nashriyoti tomonidan chop etilgan. Bu nashrlar orqali sovet mafkurasi keng targ‘ib etildi.

Sovet hukumati nashriyotni faqat ma'lumot tarqatish vositasi sifatida emas, balki aholining ongi va dunyoqarashini shakllantirish vositasi sifatida ham ko‘rdi. Shunday qilib, nashriyot faoliyati qat'iy ideologik nazoratga olindi. Ayrim yozuvchilar va olimlarning asarlari bosilmasligi yoki tahrir qilinishi, hatto ta'qib qilinishi kuzatilgan. [3, – B.25.]

Oktabr to‘ntarishidan so‘ng, bosmaxonalar musodara qilinib, davlat ixtiyoriga o‘tkazildi. 1918-yil Turkiston MIK huzurida Milliy ishlar xalq komissariyatida va Matbuot byurosida nashriyot bo‘limlari tuzilib, mahalliy tilda siyosiy adabiyotlar nashr etila boshladi. Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligining nashriyot bo‘limi darsliklar chiqarishga harakat qildi. Shu davrda boshqa turli idoralar ham oz miqdorda bosma mahsulotlar chiqarardi. Kitoblar Turkiston matbuot markaziy boshqarmasi („Turksentropechat“) tomonidan bepul tarqatilardi. 1920-yil martda Turkiston MIK Turkiston davlat nashriyoti (Turkdavnashr) ta’sis etilgan ilk kitob nashriyoti bo‘lib, unga o‘lkadagi barcha nashr ishlarini birlashtirish, qog‘oz taqsimoti va bosmaxona jihozlarini nazorat etib, rahbarlik qilish vazifalari yuklandi. Fuqarolar urushi tamom bo‘lib, harbiy intervensiya tugatilgandan keyin barcha nashr ishlari yangi iqtisodiy siyosatga muvofiq qayta qurildi. XKS ning 1921-yil 28-noyabrdagi qarori bilan nashrlar pulli bo‘lib, kitob savdosi joriy qilindi. Nashriyot va poligrafiya korxonalari xo‘jalik hisobiga o‘tdi. 1923-yilda Turkdavnashr O‘rta Osiyo nashriyoti deb atala boshladi. Bu nashriyot 1921-yildan 1924-yilgacha 1184 nomda 3 mln.dan ortiq nusxada kitob nashr etdi. Turkistonda nashriyot ishini yo‘lga qo‘yishda I. I. Geyer, G‘ulom Hasan Orifjonov, Is’hoqjon Ibrat, Abdurahmon Sayyoh Sodiqov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va b. salmoqli hissa qo‘shdilar.

O‘rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishidan so‘ng (1925) O‘rta Osiyo davlat nashriyoti negizida O‘zbekiston davlat nashriyoti – O‘zdavnashr (hozirgi „O‘zbekiston“ nashriyoti) tashkil topdi. 1925-yil O‘zbekistonda 334 nomda 1,5 mln.dan ortiq tirajda kitob nashr etildi. [4, – B.18.]

30-yillar nashriyot ishida keskin burilish davri bo‘ldi. Nashriyotlar mahsulotlarining g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishda partiyaviylik hukmronligi mustahkamlandi. Marksizm-leninizm asarlarini o‘zbek tilida chiqarish maqsadida O‘zbekiston K.P MK huzurida Partiya nashriyoti (O‘zpartnashr) tashkil etildi. 30-yillarning 2-yarmida tegishli xalq komissarlari va tashkilotlarining ixtisoslashgan tarmoq nashriyotlari barpo etildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi arafasida davlat nashriyoti mudofaa mavzusidagi plakat, varaqa, qo‘llanmalar va jangovar chaqiriqlarni tezkor bosishda faol qatnashdi. Qisqa muddat ichida ko‘plab siyosiy-ma’rifiy risolalar, front orti uchun yo‘riqnoma va qo‘llanmalar nashr etildi.

1917–1941-yillarda O‘zbekistonda davlat nashriyotining tashkil etilishi va rivojlanishi sovet siyosiy va ideologik maqsadlariga xizmat qilgan. Nashriyot madaniyat va ta'lim sohalarida ma'lum ijobiy natijalarga erishgan bo‘lsa-da, uning faoliyati asosan partiya mafkurasi va markaziy senzura talablariga mos ravishda yo‘naltirilgan edi.

Xulosa.1917–1941 yillarda O‘zbekistonda davlat nashriyotlarining shakllanishi va rivojlanishi respublika madaniyat va ma’rifat hayotida muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrda nashriyotlar - savodsizlikni tugatishda, milliy adabiyot va ilm-fanni rivojlantirishda, sovet mafkurasini yoyishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi.

Davlat nashriyotlarining tashkil topishi va faoliyati keyingi davrda O‘zbekiston matbaa va nashriyot sohasining mustahkam poydevorini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Аҳмедов, Ҳ. *Ўзбекистон матбуот тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари).* – Тошкент: Фан, 1974.
2. Баҳромов, М. *Матбуот ва маърифат (1917–1941 йиллар).* – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
3. Қуронов, Д. *Ўзбек адабиёти тарихи. 2-жилд.* – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
4. *Ўзбекистонда матбуот ва нашриёт ишлари тарихи: 1917–1941.* – Тошкент: Шарқ, 1999.
5. Зуфаров, А. *Ўзбек матбуоти тарихи очерклари.* – Тошкент: Фан, 1985.
6. Karimov, A. *History of Publishing in Uzbekistan (1917–1941).* – Tashkent: Universitet nashriyoti, 2010.
7. *Совет Ўзбекистонда маданий қурилиш (1925–1941 йиллар).* – Тошкент: ЎзМЕ нашриёти, 1986.
8. To‘laganov, S. *O‘zbek kitob nashr etish tarixi.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2005.
9. *Ўзбекистон миллий энциклопедияси.* – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2001–2005.
10. Юсупов, Н. *Матбуот ва жамият: тарих ва тараққиёт.* – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.

UO’K 94(519.3)“1961”

PAK CHON XI (SAMUEL UNDONG) HOKIMIYATGA KELISHI ARAFASIDA KOREYA RESPUBLIKASINING IJTIMOIY-SIYOSIY AHVOLI

X.R. Urunov, PhD, mustaqil izlanuvchi, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Sharqiy Osiyodagi kech sanoatlashtirish haqidagi ilmiy adabiyotlar ko‘pincha, milliy davlat tomonidan qo'llaniladigan siyosatning iqtisodiy va siyosiy ratsionalliklariga qaratilgan. Biroq, adabiyotlar iqtisodiy siyosat va ushbu siyosat ta'sirida bo'lgan odamlar o'rtasidagi moslik ushbu siyosatlarning muvaffaqiyati uchun ham muhimligini e'tibordan chetda qoldiradi. Adabiyotdagi ushbu bo'shliqni bartaraf etish uchun ushbu maqolada hukumat fuqarolarning xatti-harakatlarini kundalik ish va hayot sharoitlarida qanday o'zgartirishga uringani, toki ularning xatti-harakatlari sanoatlashtirishga yo'naltirilgan siyosatlarga ko'proq mos kelishi ko'rib chiqiladi. Aniqrog'i, ushbu davlatning yarim fuqarolik va yarim byurokratik tashkilot yaratish orqali fuqarolari ustidan ta'sirini oshirish uchun qanday qilib o'zini kengaytirganini ko'rib chiqamiz.*

Kalit so‘zlar*: Janubiy Koreya, partiya, prezident, sanoat, liberal, demokratiya, BMT, Li Sin Man, AQSH, SAMSUNG, korpooratsiya, shimol, ijtimoiy, hukumat, davlat, partiya, eksport.*

Аннотация. *Научная литература о поздней индустриализации в Восточной Азии, как правило, сосредоточена на экономической и политической рациональности государственной политики. Однако при этом часто упускается из виду тот факт, что соответствие между экономической политикой и людьми, находящимися под её воздействием, также имеет важное значение для успешной реализации данных политик. С целью восполнения этого пробела в научной литературе в данной статье рассматривается, каким образом государство стремилось изменить поведение граждан в условиях повседневной трудовой и жизненной практики, чтобы оно в большей степени соответствовало политике, ориентированной на индустриализацию. В частности, анализируется, каким образом государство расширяло своё влияние на граждан посредством создания полу-гражданских и полу-бюрократических организаций.*

Ключевые слова: *Южная Корея, партия, президент, промышленность, либерализм, демократия, ООН, Ли Сын Ман, США, Samsung, корпорация, Север, социальный, правительство, государство, партия, экспорт.*

Abstract. *The academic literature on late industrialization in East Asia has often focused on the economic and political rationalities of policies implemented by the nation-state. However, the literature neglects to consider the fact that the fit between economic policies and the people affected by those policies is also crucial to the success of those policies. To fill this gap in the literature, this article examines how the government attempted to change the behavior of citizens in everyday work and life situations so that their behavior was more consistent with policies aimed at industrialization. Specifically, we examine how the state expanded its influence over its citizens by creating a semi-civilian, semi-bureaucratic organization.*

Key words*: South Korea, party, president, industry, liberal, democracy, UN, Lee Sin-man, USA, SAMSUNG, corporation, North, social, government, state, party, export.*

Dunyoda mavjud davlatlarning zamonaviy qiyofa kasb etishida XX asrning ikkita yirik harbiy-siyosiy ziddiyati – Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarining ahamiyati katta bo‘ldi. Negaki, har ikkala urushdan so‘ng dunyo siyosiy xaritasida yangi davlatlar paydo bo‘lishi barobarida dunyoning ijtimoiy -iqtisodiy, madaniy qiyofasi ham sezilarli o‘zgarishlar yasadi. Siyosiy ustqurmalar, tizimlarning ayrimlari barbod bo‘ldi, ba‘zi bir davlatlarda hokimiyat tepasida totalitar boshqaruv barham topgan bo‘lsa, ba‘zi birlarida liberal islohotchilar keldi, yangi siyosiy tushunchalar paydo bo‘ldi.

1950-1953-yillardagi Koreya urushi har ikkala davlatni ham holdan toydirdi. Mamlakatlarning har ikkalasining ham iqtisodiy hayoti izdan chiqdi. Aholining ijtimoiy ahvoli og‘irlashdi. Bu esa XX asrning 60-yillarida davlat tepasida turgan siyosiy kuchlarning almashinuvi, boshqaruvning liberal tarafdori bo‘lgan yangi tartibotning qaror topishi bilan izohlanadi.

XX asrning 50-yillarining oxiri Koreya Respublikasi siyosiy hayotida alg‘ov-dalg‘ovli yillar boshlanishi bilan izohlanadi. Mamlakatning birinchi prezidenti Li Sin Man davrida (1948-1960) avtoritarizm, iqtisodiy hayotning yanada yomonlashuvi, umumiy korrupsiya va demokratik erkinliklarning poymol bo‘lishi, oddiy xalq ahvolining hayotida hech qanday o‘zgarishsiz bo‘lgan davr bilan xarakterlanadi. Prezident Li Sin Man tomonidan unga va davlat boshqaruvida muxolifatda bo‘lgan barchaga nisbatan ommaviy kurash avj oldi. 1952-yilning may oyida prezident buyrug‘i bilan parlamentning muxolifatdagi 500 dan ortiq a‘zosi aslida mavjud bo‘lmagan “xalqaro kommunistik partiya” tomonidan moliyaviy yordam olganlikda ayblanib qamoqqa olindi.

1958-yilning yanvarida muxolifatdagi “Taraqqiyot” (“Chinbodan”) partiyasi rahbarlari qamoqqa olindi, partiyaning o‘zi yopildi. Li Sin Manning raqibi 1956-yilgi saylovlarda “KXDR foydasiga ayg‘oqchilikda” ayblanib qamoqqa olindi. Jamiyatda aholi orasida hukumatga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘lib, noroziliklar kuchaydi. Prezident saylovining qalbakilashtirilishi 1960-yil 15-martda Masana shahrida namoyishlarga olib keladi. Bu norozilik harakatlari tez orada poytaxt ko‘chalarida ham boshlanib, harakatning eng yuqori cho‘qqisi 1960-yil 19-aprelda Seuldagi chiqishlar bo‘ldi. Unda harakatning asosiy harakatlantiruvchi aholi qatlami bu talabalar bo‘ldi. Natijada bu harakatlardan cho‘chigan prezident Li Sin Man iste’fo berib, AQSHga qochib ketishi bilan tugagan.

1960-yil 29-iyuldagi parlament saylovi natijalariga ko‘ra, hokimiyat tepasiga muxolifatdagi Demokratik partiya keldi. Avgust oyiga kelib esa, Yun Bo Son Prezident etib saylandi, bosh vazir esa Chan Men bo‘ldi. Yangi hukumat ham vaziyatni barqarorlashtirolmadi. Uning faoliyati doimiy qarama-qarshiliklar, talabalar namoyishi bilan o‘tdi.

Aprel inqilobidan keyin Koreya Respublikasida rejali iqtisodiyoti va hatto sotsializm tarafdori bo‘lgan ko‘plab yangi siyosiy partiyalar paydo bo‘ldi. Shunday qilib, 1960-yil 21-mayda Koreya ijtimoiy partiyasi (Hanguk sahvedan) tashkil etildi, 1960-yil 17-iyunda esa Ijtimoiy xalq partiyasi (Sahve minchjung dan) tashkil etildi. Ijtimoiy xalq partiyasining dasturida Koreyani umumiy saylovlar orqali birlashtirish, bu saylovlar BMT kuzatuvida o‘tkazilishi zarurligi va rejali iqtisodiyotga o‘tish zarurati haqida so‘z borardi.

1961-yil bahoridagi voqealar, Ikkinchi Respublikaning qisqa tarixiga yakun yasagan, zamonaviy tarixshunoslikda ushbu inqilob turlicha, ba'zan juda qarama-qarshi tarzda ta'riflanadi.1960-1970-yillarda rasmiy Janubiy Koreya tarixshunosligida bu voqealar harbiy inqilob yoki hatto qon to‘kmagan harbiy inqilob deb atalgan. Qarshilik, shuningdek, 1980-yillardagi rasmiy

Janubiy Koreya tarixshunosligi 1961-yil bahoridagi voqealarni harbiy to‘ntarish deb atagan, ba'zi nashrlar esa yangi hokimiyatni harbiy fashizm sifatida baholagan.

1961-yil martda hukumat Shimol bilan aloqalarni taqiqlash va erkinlikni cheklashga qaratilgan ikkita qonun – “Vaqtinchalik favqulodda antikommunistik qonun qonun” va “Namoyishlar ustidan nazorat to‘g‘risidagi Qonun” ni qabul qilish yangi namoyishlarni keltirib chiqardi.

1961-yil 16-mayda mamlakatda harbiy to‘ntarish bo‘lib o‘tdi, natijada hokimiyat tepasiga general Pak Chon Xi keldi. Hukumat egallanib olingach harbiy guruh parlamentning har ikkala palatasini va siyosiy partiyalarni tarqatib yubordi, namoyishlar va mitinglar o‘tkazishni taqiqladi, ko‘plab gazeta va jurnallar yopildi. 1962-yil dekabrda yangi konstitutsiya qabul qilindi. 1963-yil oktabrdagi saylovlarda Pak Chon Xi prezident etib saylandi va bu lavozimni 1979-yilgacha egallab turdi. 1967-va 1971-yillarda bo‘lib o‘tgan saylovlarda qayta saylandi. Sovet tarixshunosligida Pak Chon Xi hokimiyati harbiy xunta deb atalgan, u davlat to‘ntarishi orqali hokimiyatga kelgan. Yangi Rossiya tarixshunosligida Pak Chon Xining tarixiy roli haqida pozitiv baholar berish tendensiyalari sezilmoqda.

Pak Chon Xi davri qarama qarshi harakterga ega bo‘lgan. Bir tomondan koreys iqtisodiy mo‘jizasiga olib kelgan modernizatsiyalash o‘tkazildi. 5 yillik rivojlanish dasturini ishlab chiqqan iqtisodiy rejalashtirish Byurosi tuzildi. Mamlakat iqtisodini rivojlantirish uchun chet-el investitsiyalar kirib kela boshladi. Samsung, Xyonde, DEU, Laki Goldstar (LG) kabi iqtisodiy hayotda yirik sanoat korporatsiyalarining o‘sishi uchun sharoit yaratildi. Iqtisodiy rivojlanish strategiyasining asosiy maqsadi birinchi navbatda mamlakat sanoatini rivojlantirish va koreys mahsulotlarini chet el bozorlariga chiqarish ya’ni eksport hajmini oshirish etib belgilandi. Agar 1960-yilda Janubiy Koreya eksporti hajmi 33 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 1979-yilga kelib bu ko‘rsatkich 15 mlrd. AQSH dollariga yetdi.

XX asrning 60-70-yillari Janubiy Koreya tarixida alohida ahamiyat kasb etdi. O‘zida dastlab avtoritar tuzumning belgilarini ko‘rsatgan tuzum keyinchalik davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishida alohida taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatdiki, bu yo‘l hozirgi kungacha dunyo davlatlari uchun andoza vazifasini o‘tab kelmoqda. Bugungi davrda ekologik muammolar, davlatlardagi urbanizatsiya jarayonlari hamda ,,yashil makon’’ yaratish dasturlari barcha mamlakat hukumatlari uchun dolzarb vazifalaridan biri albatta. Ushbu jarayonning Janubiy Koreya Respublikasida XX asrning 60-yillarining oxirida va 70-yillarida amalga oshirilgani tahsinga loyiq. Zero, prezident Pak Chon Xee boshchiligidagi hukumatning ushbu ,,yashil makon’’ ,,yangi qishloq’’ kabi hukumat dasturlari mamlakatni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli siyosatning bir isboti xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xan V. S. Koreya tarixi. Toshkent, “Baktria”, 2013.

2. Курбанов С.О., История Кореи с древности до начала XXI в. Изд. Санкт-Петербургского Университета, 2018.

3. История Кореи. (Новое прочтение). Под ред. А.В. Торкунова и др. М.: Московский государственный институт международных отношений (Университет); “Российская политическая энциклопедия” (РОССПЭН), 2003.

4. Тихонов В. М., Кан Мангиль. История Кореи. В 2-х томах. М. “Наталис”, 2011.

5. Jung Won Sonn∗ and Dong-Wan Gimm. South Korea’s Saemaul (New Village) movement: an organisational technology for the production of developmentalist subjects.

6. Canadian Journal of Development Studies Revue canadienne d’e´tudes du de´veloppement, 2013

7. http:// Ziyonet.uz

UO’K 913.2(586.5):2

O‘ZBEKISTON ZIYORATGOHLARI: QADIMGI TARIX, YANGICHA MAZMUN

S.O.Vaxidov, tayanch doktorant, Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada ziyorat turizmi fenomeni, uning tarixiy xususiyatlari va qadimgi ziyoratgohlar, ularning paydo bo‘lish bosqichlari borasida qisqacha ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning qadimiy ziyoratgohlari, ularning tarixiy shakllanish jarayonlari, hozirgi ijtimoiy holatidan kelib chiqib ushbu ziyoratgohlarning turizm sohasidagi ahamiyatini o‘rganish muhim vazifa hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Tarix, O'zbekiston, ziyoratgoh, turizm, ansambl, Buxoro, Tarixi mullazoda, Movarounnahr, Marg'ilon, Toshkent.*

Аннотация. *В статье кратко рассматривается феномен паломнического туризма, его исторические особенности, древние места паломничества и этапы их становления. Также рассматривается важная задача изучения значения древних мест паломничества Узбекистана в сфере туризма с учетом исторических процессов их формирования и современной общественной ситуации.*

Ключевые слова: *История, Узбекистан, место паломничества, туризм, ансамбль, Бухара, История муллазода, Мавераннахр, Маргилан, Ташкент.*

Abstract. *The article provides brief information about the phenomenon of pilgrimage tourism, its historical features and ancient shrines, the stages of their emergence. Also, it is an important task to study the ancient shrines of Uzbekistan, their historical formation processes, the current social situation, and the significance of these shrines in the field of tourism.*

Keywords: *History, Uzbekistan, shrine, tourism, ensemble, Bukhara, Historical Mullazoda, Movarunnahr, Margilan, Tashkent.*

Bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar, xususan, O'zbekistonda ham turizm sohasi va ziyorat turizmi jadal rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ushbu soha bilan bog'liq amaliy ishlar oxirgi yillarda misli ko'rilmagan darajada jadallashmoqda. Oxirgi yillarda turli yo'nalishlar orasida diniy mazmundagi muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish bilan bog'liq ma'naviy-ma'rifiy sayohatlar – ziyorat turizmi ham alohida e'tibor qozonmoqda. Aslini olganda, ziyorat turizmi insoniyat tarixidagi sayohatning eng qadimiy ko'rinishlaridan biri sanaladi. Musulmonlar hayotida esa ushbu hodisa hamisha alohida o'rin tutgan. Ziyorat turizmi xalqlarni o'zaro yaqinlashtiradi va tom ma'nodagi insonparvarlik, diniy bag'rikenglik tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi. Markaziy Osiyo va xususan O'zbekistonda qadim zamonlardan buyon yirik ulamolar va avliyolar nomi bilan bog'liq qadamjolarni ziyorat qilish milliy-diniy an'analardan biri bo'lib kelgani barchaga ma'lum. Shuning uchun ham O'zbekiston zaminida joylashgan bunday ziyoratgohlarning soni benihoya ko'pdir.

Yurtimizning islom sivilizasiyasidagi yuksak maqomini belgilaydigan omillarning eng asosiylaridan biri Markaziy Osiyodagi birinchi va ikkinchi Renessans davrida Movarounnahrda paydo bo'lgan va samarali faoliyat yuritgan ilmiy-madaniy markazlardir. Ularning geografik joylashuvi bugungi O'zbekiston va uning ayrim qo'shni davlatlar bilan tutashgan sarhadlarini o'z ichiga olgan. Bunday markazlar qatoriga Buxoro, Samarqand, Nasaf, Kesh, Termiz, Xiva, Ustrushana (Jizzax vohasi), Shosh (Toshkent) hamda Axsikent, Marg'ilon, Qo'qon, Qubo (Quva), Xo'jand, Kosonsoy, Chust, O'zgand va O'sh hududlarida faoliyat ko'rsatgan segmentlarni o'zida mujassam etgan Farg'ona vodiysi ilmiy-madaniy markazlarini kiritish mumkin. Bunday markazlarning shuhrati chet ellarga ham keng tarqalgani tufayli xorij ma'rifatparvarlari ham ularga kelib, o'z ilmini oshirishga intilgan [2]. Misol tariqasida, ulardan biri buyuk matematik olim va mashhur adib Umar Xayyom Samarqand madrasalaridan birida to'rt yil tahsil olgan. U o'zining "Risola fil-barohin a'lo masoil al-jabr val-muqobala" ("Algebra va tenglamalar bo'yicha masalalarning isbotlari haqida risola") asarini Samarqanddagi o'qishi davrida yozib, shahar bosh qozisiga bag'ishlagani ma'lum. Boz ustiga, keyinchalik Buxoroga borib, u yerda ham ilmini chuqurlashtirgan. Yuqorida zikr etilgan markazlardan yetishib chiqqan allomalarning dafn etilgan joylari, ko'pincha, omma tomonidan e'zozlanadigan ziyoratgohlarga aylangan [1].

Islom dini rivojiga benazir hissa qo'shgan allomalar nomi bilan bog'liq bunday qadamjolar butun musulmon dunyosi tomonidan ham yuksak e'zozga sazovor bo'lgan. Barchaga ma'lum sabablar tufayli uzoq muddat qarovsiz qolib ketgan, hatto, xarobaga aylangan yurtimizdagi muqaddas qadamjolarning shon-shavkati va qadr-qimmati mustaqillik yillarida jadal sur'atlar bilan tiklanib bormoqda. Bugungi kunda yurtimizda buyuk muhaddislar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy, ulug' ilohiyotchi-mutakallimlar Imom Moturidiy, Nasafiylar, benazir faqihlar Burhoniddin Marg'inoniy, Qaffol Shoshiy, tasavvuf peshvolari Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband,

Xo‘ja Ahrori Valiy va boshqa ko‘plab aziz avliyolarning xoki poklari yotgan yoki ularning tabarruk nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar talaygina [2].

“Tarixi mullazoda” asarida Ahmad ibn Mahmudning din ulamolari muhitida tarbiya topganligi, chuqur diniy va dunyoviy ilmlarni egallaganligi, so‘fiylik tariqati ahlidan bo‘lganligi uning ijodida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, musulmon ziyoratchilari, shuningdek, tarix va tasavvufga qiziquvchilar orasida “Tarixi Mullozoda dar zikri mozoroti Buxoro” (Buxoro mozorlari haqida Mullozodaning tarix kitobi) asari mashhur bo‘lgan. Buxoro shahri va uning atroflarida dafn etilgan ulug‘ va mashhur kishilar – din ulamolari, tasavvuf shayxlari, turli soha olimlari, ijodkorlar, hukmdorlar va boshqalarning qabrlari joylashgan o‘rni, shuningdek, ularning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ushbu asarni yaratishdan asosiy maqsad kishilarni mazkur shaxslarning qabrlarini ziyorat qilish orqali ularning izidan borishga, ta’limotlariga ergashishga chorlashdan iborat bo‘lgan. Odatda, qisqacha qilib “Tarixi Mullozoda” (Mullozodaning tarix kitobi) deb eslatiladigan bu asar muallifning tariqatdagi piri – Xoja Muhammad Porsoning vafotidan, ya’ni 1420-yildan keyin yozilgan “Muin ul-fuqaro” asarining mantiqiy davomidir [1].

Yurtimizda yashab o‘tgan avliyolardan yana biri Burhoniddin Marg‘inoniy hazratlari hisoblanadi. Ma’lumotlarga qaraganda, Burhoniddin Marg‘inoniy milodiy 1197-yilda ikkinchi marta haj safariga otlanadi. Biroq, Samarqandni tark etishga ulgurmay og‘ir xastalikdan vafot etadi. “Samariya” asari muallifining yozishicha, bu hodisa hijriy 59-yil, zulhijja oyining 14 kunida, seshanbada (1197-yil 29-oktyabr) sodir bo‘lgan. Uni Chokardiza qabristoniga dafn etganlar. Mavlono Burhoniddinning qabri to‘g‘risida Abu Tohirxo‘ja jumladan shunday deydi: “Mavlono Burhoniddin Marg‘inoniyning mozori. Ul kishi “Hidoya” kitobining egasi bo‘lgan. Ushbu Burhoniddin Marg‘inoniyning qabri Chokardiza qabristonida, katta ko‘chaning kunbotari hovuzga o‘xshagan chuqurning yonidadirkim, shu katta yo‘l o‘sha hovuz orqali (sharqiy-shimolga qarab o‘tadi). Mavlono Burhoniddinning qabri o‘sha katta yo‘lning janub tarafida, pishiq g‘ishtdan qilingan baland sufadadir”[3].

Pur Siddiq ziyoratgohi haqida so‘z yuritar ekanmiz, “Pur” so‘zining ma’nosiga ham e’tibor berib o‘tish maqsadga muvofiq. Fors tilida “Pur” so‘zi “o‘g‘il” va “to‘la”, “ko‘p” ma’nosini anglatadi. Shu sababdan mozorga dafn etilgan ulug‘ zot haqida turli qarashlar mavjud bo‘lgan. Unga ko‘ra mozorga xalifa Abu Bakr Siddiq(r.a.)ning farzandlaridan biri dafn etilgan va shu sababdan mozor Pur Siddiq deb atalgan[4]. Biroq marg‘ilonlik keksalarning aytishlaricha, bu yerga Abu Bakr Siddiq (r.a.)ning nabirasi yoxud chevarasi dafn etilgan bo‘lsa kerak.

Shu o‘rinda Qo‘qon xoni Amir Umarxon (1810-1822) tomonidan Pur Siddiq mozoriga berilgan vaqfnomaga e’tiborimizni qarataylik.

Abulmuzaffar al-Mansur Sayyid Muhammad Umar Bahodirxon so‘zimiz. Ayni zamonda ulug‘ sayyidlar va qozilar va islom ulamolari va karamli shayxlar, amaldor va muboshirlar devon amirlari va sultonlik ishlarining mutasaddi amaldorlari va mutakaffillari, davlat ishini boshqaruvchilari va boshqa ulug‘lar va u yerlarda turuvchi va yashovchi aholiga, voqif va ogoh bo‘lib bilinglarki, chunonchi o‘tmishda o‘tgan sadoqatli sobitnishin xayrulbashar Hazrat Abu bakr Siddiq Akbarki, ushbu Kabutarxonada Puri Siddiq azizlar nomi bilan shuhrat topgan [5].

Shayx Xovandi Tohur (XIV asr), Yunusxon maqbarasi (XV asr), Qaldirg‘ochbiy maqbarasi (XVI asr) kabi qadamjolarni o‘zida birlashtirgan ansambl ham katta diniy-ma’rifiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Shayx Xovandi Tohur tasavvuf ilmining yirik namoyandalaridan biri, ota tomonidan xulafoi roshidunlarning ikkinchisi – Umar ibn Xattobga bog‘lanishi tufayli ham sayohatchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek, Shayx Xovandi Tohur maqbarasi Toshkentdagi eng qadimiy islomiy me’moriy yodgorliklardan biri hisoblanadi. Shayx Xovandi Tohur majmuasi tarkibiga kiradigan Yunusxon maqbarasiga (XV asr) dafn etilgan Yunusxon 1485-87-yillarda Toshkent hokimi bo‘lgan. U Zahiriddin Muhammad Boburning ona tarafidan bobosi ekani maqbaraga bo‘lgan qiziqishni yanada oshiradi. Oxirgi yillarda qaytadan bunyod etilgan Suzuk ota ansambli tarixan Ahmad Yassaviyning nabirasi Mustafoqul shaxsi bilan bog‘liq. Dastlab XVI asrda barpo etilgan ushbu maqbara O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-yil ko‘p qirrali diniy-ma’naviy va madaniy-ma’rifiy majmua shaklida qayta barpo etildi. Suzuk ota hunarmand va ustalarning piri sifatida mashhur bo‘lgani uchun ham ushbu ansambl an’anaviy

hunarmandchilik shaharchasi qiyofasini kasb etdi va ham mahalliy, ham xorijiy sayyohlarning sevimli go‘shalaridan biriga aylanib bormoqda.

Umumiy xulosa sifatida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanishi, ya’ni asrlar davomida shakllangan minglab ziyoratgohlarning sayyohlik maskanlariga aylanib borayotgani, bir tarafdan, diyorimizning islom sivilizasiyasi markazlaridan biri ekani bilan bog‘liq xalqaro imidjini yanada boyitsa, ikkinchi tomondan, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi orqali ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abu Tohirxoja Samarqandiy. Samariya (Samarqand mozorlari zikri) / So‘z boshi, fors tilidan tarjima, izohlar mualliflari: Sh.Vohidov, B.Aminov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009 – 146 b.

2. Muin ul-fuqaro, Ahmad ibn Mahmud Tarixi Mullozoda dar zikri mazoroti Buxoro / Fors tilidan tarjima, muqaddima, tadqiq, izohlar, ilovalar muallifi va nashrga tayyorlovchi: Komiljon Rahimov. – Toshkent: «Fan», 2019. – 216 b.

3. Мамраимов А. Великий Шелковый путь. Алматыкитап. 2013.

4. Муминов А.К. Кокандская версия исламизации Туркестана//Подвижники ислама. – Москва: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2003. – С. 151.

5. ЦГА. Узбекистан. Фонд №И-19 Оп.№ 1, Д. № 34739. № 12.

UO’K 908

MUSTAMLAKA BOSHQARUVI SHAROITIDA KADRLAR SIYOSATI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI

A.Xakimov, dots., Namangan Davlat Texnika Universiteti, Namangan

Annotatsiya. *Maqolada Rossiya imperiyasi va keyinchalik sovet hokimiyati davrida Turkistonda olib borilgan kadrlar siyosati yoritiladi. Unda yuqori boshqaruv lavozimlarining asosan markazdan kelgan shaxslarga berilgani, mahalliy kadrlarga esa ishonchsizlik bilan qaralgani tahlil qilinadi. Shuningdek, rus-tuzem maktablari, tatar muallimalari va sovet davridagi safarbarliklar orqali markaz manfaatlariga sodiq kadrlar tayyorlash jarayoni ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Turkiston o‘lkasi, mustamlaka boshqaruvi, kadrlar siyosati, ruslashtirish, general-gubernator, uyezd boshlig‘i, rus-tuzem maktablari, milliy kadrlar, ishonchsizlik siyosati.*

Аннотация. *В статье рассматривается кадровая политика, проводившаяся в Туркестане в период Российской империи и позднее в годы советской власти. Анализируется назначение ключевых административных должностей преимущественно присланным из центра чиновникам, а также недоверие, проявляемое к местным кадрам. Показано, каким образом через русско-туземные школы, татарских учительниц и советские мобилизации формировались лояльные центру специалисты.*

Ключевые слова: *Туркестанский край, колониальная администрация, кадровая политика, русификация, генерал-губернатор, уездный начальник, русско-туземные школы, местные кадры, политика недоверия.*

Abstract. *The article examines the personnel policy implemented in Turkestan during the Russian Empire and later under Soviet rule. It analyzes how key administrative positions were predominantly assigned to officials sent from the center, while local cadres were viewed with distrust. The study also highlights how Russian-native schools, Tatar female teachers, and Soviet-era mobilizations were used to train loyal personnel serving the interests of the central authority.*

Keywords: *Turkestan region, colonial administration, personnel policy, Russification, governor-general, uezd chief, Russian-native schools, local cadres, policy of distrust.*

Kirish. Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan egallanishi bilan bu hududda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirila boshlandi. Mustamlakachi ma’muriyat o‘z hukmronligini mustahkamlash va uni uzoq vaqt saqlab qolish maqsadida maxsus siyosat olib borgani bois, mahalliy aholini qaramlikda ushlab turish imperiya uchun muhim vazifaga aylandi. Shu yo‘nalishda ular avvalo boshqaruv tizimini qayta shakllantirishga alohida e’tibor qaratar edilar. O‘lkadagi siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda, asosiy davlat lavozimlari imperiya vakillari qo‘liga berilib, quyi boshqaruv bo‘g‘inlari mahalliy

mansabdorlar zimmasiga yuklatildi. Natijada harbiy, ma'muriy va sud hokimiyatini birlashtirgan mustamlakachi byurokratiya shakllandi.

Tadqiqot usullari. Rossiya imperiyasi mustamlakachilikning ilk yillaridan mahalliy boshqaruvga tayanib, o'lkaning obro'li vakillaridan foydalanganlar. Dastlab bunday siyosatni Orengburg general-gubernatori Kirijanoviskiy 1865 yilda Toshkent aholisiga nisbatan qo'llagan. Toshhent shahrining harbiy gubernatori Chernyayev qozikalon lavozimiga Hakimxo'ja ismli shaxsni tayinlaydi. U bu lavozimda Qo'qon xoni Sayid Muhammad Sulton davrida ham ishlagan edi[1]. Bu orqali mahalliy aholini tutib turish oson bo'lgan.

Natija va muhokama. Lekin Turkiston General-gubernatorligi tashkil etilgandan boshlab boshqaruv sohasini to'la ruslashtirish jarayoni boshlandi. 1867 yildan to 1917 yilga qadar Turkistonda podsho tomonidan tayinlangan 12 nafar general-gubernator almashdi. 1914-1916 yillar davomida podsho tomonidan anashu lavozimga tayinlanmagan general-gubernatorlar Fulug, Martson va Yerofev boshqardi. Harbiy gubernatorlar, qoida tariqasida O'rta Osiyo bo'ylab harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan Turkistonni zabt etishda alohida mahorat ko'rsatgan harbiylardan tayinlanardi. Turkiston o'lkasida Sirdaryo viloyatida N. N. Golovachyov, V. N. Trotiskiy, A. S. Galkin. Farg'ona viloyatidan 1876 yildan M. D. Skobelov[2], Samarqand viloyatida A. M. Yarimovich, M. P. Fedorev va boshqalar harbiy gubernator lavozimida faoliyat olib borganlar. O'lkada viloyat, uyezd boshliqlari imperiya armiyasining shtab-kapitanidan ta polkovnigi unvoniga ega bo'lgan ofitserlar bo'lishgan. Uyezd boshlig'i lavozimiga zarur kadrlar imperiyaning Sankt-Peterburg, Moskva, Minsk, Samara, Penza va boshqa ichki guberniyalaridan dvoryan tabaqaga mansub kishilar olib kelinib tayinlanardi.

Turkiston o'lkasini boshqarishdagi Volostlarda imkon darajada mahalliy kadrlardan foydalanilgan. Lekin, Volost boshliqlari Uyezd boshliqlarini buyuruqlarini o'g'ishmay bajarishga majbur edilar. Uyezdlar boshliqlari volost boshqaruvchilarini tayinlash va ishdan bo'shatish vakolatlaridan keng foydalanganlar. Andijon uyezdidagi 20 volost boshqaruvchisidan 15 nafari, Namangan uyezdida 31 tadan 17 nafari tayinlovga ko'ra ishlagan. Ko'ramizki, uyezd amaldorlari mahalliy ma'muriyatni "saylab qo'yish asoslari"ni to'la soxtalashtirib, har bir masalani o'zlari hohlaganchalik amalga oshirganlar[3]. Bu holat mahalliy kadrlarga nisbatan past nazar bilan qaralganidan dalolat beradi. Bunday jarayonlar markazdan kelgan kadrlar o'rtasida mansabni suestimol qilinishi va korupsiyani avj olishiga zamin yaratgan.

Boshqaruv sohasidagi mahalliy kadrlarni kamsitilishi holatini 1877 yilda tashkil etigan Toshkent shahar Dumasining tarkibida ham ko'rish mumkin. Duma a'zolari soni 72 kishidan iborat bo'lgan bo'lib, shulardan Toshkentning xristian bo'lmagan, faqat mahaliy aholining uchdan bir qismidan ortiq bo'lmagan tub aholi vakillaridan, qolgan ikkidan uch qismi shaharning "yangi" qismidan rus millatiga mansub kishilardan tashkil topishi shart edi[2]. Duma yigilishlari mahalliy millat vakillari uchun tushunarsiz rus tilida bo'lardi. Bu holat Dumadagi mahalliy aholi vakillarining fikrlari unchalik ahamiyatga ega emasligidan dalolat beradi.

Mustamlaka boshqaruv tizimida kadrlar yetishmasligi sababli maorif sohasida isloxot olib borib rus-tuzem maktablarini tashkil qilish orqali bu muommoni hal etishni asosiy ustuvor vazifa qilib qo'yildi. Sodiq fuqorolar faqatgina erkaklarda iborat bo'lmay, ayollarni ham bu jarayonga jalb etish ustuvor vazifa sifatida qaraldi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad imperiya manfaatlariga "sadoqat" ruhini shakllantirish, hamda hukumat tarafdorlarini ko'paytirishdan iborat edi. Shunday maqsadlarda turli yo'nalishdagi qizlar maktablari tashkil etildi. Mazkur maktablarga mahalliy millat ayollarini jalb etishda hukumat tomonidan tili, dini va madaniyati bir-biriga yaqin bo'lgan tatar ayollardan vositachi sifatida foydalanildi. Ana shu maqsadlarda 1861 yilda Sirdaryo viloyatining Kazalinsk uyezdida tatar muallima boshchiligida qizlar maktabi ochildi[4]. 1884 yili V. Nalivkin rus-tuzem maktabi loyihasini tuzdi. Shu yili Toshkenda birinchi rus-tuzem maktabi tashkil etildi.

Sovetlar davrida tatar kadrlaridan foydalanish jarayoni davom etdi. Tatar ayollarining mahalliy va rus tilini bilishlari bolsheviklarga o'z maqsadlarini amalga oshirishda qo'l kelgan edi. 1919 yil boshidagi ma'lumotga ko'ra, Turkistonning uyez va shaharlarida ko'plab tatar muallimalari faoliyat ko'rsatganlar. Jumladan Yangi Buhoroda O. Qo'chqorova, Samarqandda G. Subhonqulova, Qarmoqchi uyezdida F. Badriddinova, Kattaqo'rg'onda M. Sayfulina, Qo'qon uyezdida M. Kashayeva, kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Sovetlar tatarlardan o'z go'yalarini mahalliy

millat vakillariga targ'ib qilishda foydalanganlar va bu orqali o'zlari uchun zahira kadrlar tayyorlab borganlar.

1919 yil 8 oktabrda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) qoshidagi Turkiston ishlari bo'yicha komissiyani tashkil etilishi ham kadrlar moammosi yechimida katta rol o'ynadi. Turkkomissiyaning Sh. Z. Eliava boshchiligidagi a'zolari Turkistonga kelishidan avval hamma tashkiliy masalalarni Samara guberniyasida turib hal qildilar. Xususan Simbirsk, Samara, Qozon, Ufa va boshqa guberniyalaridan Turkkomissiya tarkibiga kerakli kadrlar safarbar qilindi. Safarbar qilinganlar orasida Vasileviskiy, Aleksandrov, Asileviskiy, Markgraf va boshqalar bor edi.

1920 yil 20 sentyabridan 1 noyabrgacha Rossiyaning markaziy guberniyalaridan 201 kishi Turkistonga sovet hokimyatini mustahkamlash uchun safarbar qilindi. Ular asosan Turkiston, Buhoro, Xorazm respublikalaridagi partiya va sovet organlariga yuborilgan.

1920 yil aprelda Toshkentda o'lka sovetlarining V syezdida Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. Turkiston respublikasi qonun chiqaruvchi organi – Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tutilib, uning a'zolar soni 36 ta qilib belgilandi. Takibga mahalliy millat vakillaridan 9 nafari kiritildi halos. F. I. Kolesov boshchiligida tuzilgan Xalq komissarlik sovetida ham 16 a'zodan 3 nafari mahalliy vakillardan ekanligi milliy kadrlarga past nazar bilan qaraganligidan va ularga ishonmaslikdan dalolat beradi.

Mahalliy millat vakillaridan xalq manfaatlarini hisobga olib siyosat olib borgan Turkiston Avtonom Respublikasida faoliyat olib borgan mahalliy kadrlardan Turor Risqilovni, Abdulla Rahimboyev, I. Xidiraliyevlarni keltirish mumkin[8]. Lekin ularning faoliyati markaz tomonidan doimiy tarzda nazorat qilib borilgan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkin Turkistonda Rossiya imperiyasi davrida ham, sovet hokimyati o'rnatilgandan so'ng ham bu yerda islohotlarni amalga oshirishda o'zlari manfaatlariga sodiqlik bilan hizmat qiladigan kadrlardan foydalanishga katta e'tibor qaratishgan. Turkiston o'lkasiga markazdan doimiy ravishda kadrlar kelib turgan. Biroq ular markaz topshiriqlarini "quloq qoqmay" so'zsiz bajarishdan nariga o'tmaganlar. Bunday kadrlar asosan markaz tomonidan Rossiyaning markaziy guberniyalaridan yuborilgan. TASSR, BXSR, XXSRning boshqarishda mahalliy kadrlardan ham foydalanilgan bo'lsada, ularni faoliyatini nazorat qilib turadigan vakillar tayinlanardi. Bunday vakillar milliy rahbarlarning faoliyatini nazorat qilib doimiy tarzda markazga hisobotlar topshirib turishgan. Bu holatdan shuni aytish mumkinki milliy kadrlarga ishonmaslik, ulardan hadiksirash va ularni nazar-pisand qilmaslik holatlari mavjud bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Насретдинова Д. Туркистон маданий ҳаётида татар аёллари. – T:Yangi nashr, 2015.

2. Расулов А. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабати. – T:Университет, 2005.

3. Исмоилова Ж. XX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг "яанги шаҳар" қисми тарихи. – Т.: Фан ва технология, 2004.

4. Sultonov F., Bozorboyev F. O'zbekiston hukumdorlari (t.f.d.prof. Alimova D. tahriri ostida). – T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.

UO'K 614.2:94(47+57)

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA FRONT ORTIDAGI TIBBIY YORDAM TIZIMI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

B.Xasanov, PhD, University of Business and Science, Andijon

Annotasiya. *Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston SSRda tibbiyot institutlarida kadrlar tayyorlash masalasi, qisqa kurslarda tibbiyot xodimlarini tayyorlash, Namangan viloyatidagi sog'liqni saqlash tizimining faoliyati, respublika va viloyat aholisi orasida toshmali terlama, bezgak kasalliklarining tarqalishi.*

Kalit so'zlar: *Namangan viloyati, Sog'liqni saqlash, xirurg, epidemiolog, travmatolog, qisqa kurslar.*

Аннотация. *В статье рассмотрено функционирование системы здравоохранения Наманганской области в годы Второй мировой войны, распространение сыпи и малярии среди населения республики и области, вопрос подготовки кадров в медицинских учреждениях*

Узбекской ССР, подготовка медицинских кадров на краткосрочных курсах, а также потребность населения в лекарствах.

Ключевые слова: *Наманганская область, Здравоохранение, хирург, эпидемиолог, травматолог, краткосрочные курсы.*

Abstract. *The article examines the functioning of the healthcare system of the Namangan region during the Second World War, the spread of rashes and malaria among the population of the republic and the region, the issue of training personnel in medical institutions of the Uzbek SSR, training of medical personnel in short-term courses, as well as the population's need for medicines.*

Key words: *Namangan region, Health care, surgeon, epidemiologist, traumatologist, short-term courses, outpatient clinic.*

Kirish: Urushning ilk kunlaridan boshlab sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishda front ehtiyojlari birinchi o‘ringa qo‘yildi. Tibbiyot xodimlariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi tufayli zudlik bilan soha mutaxassislarini tayyorlashga harakat qilindi. O‘zbekiston KP(b) Markaziy komitetining byurosi va Xalq komissarlar sovetining 1941-yil 8-iyuldagi qaroriga ko‘ra kichik meditsina xodimlarini tayyorlash to‘g‘risidagi vazifa qo‘yildi. Ya’ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda muddati 3 oydan 6 oygacha bo‘lgan meditsina xodimlarini tayyorlash qisqa kurslari ochish zarur edi. Bu masala 1941-yil 8-avgustda Namangan viloyat partiya komiteti byurosida ham muhokama qilindi. Qaror asosida viloyatda qisqa kurslarda (avgust oyida) 75 nafar meditsina hamshirasi, 148 sanitar-posbon, 131 nafar qizlar radio operatori kasbiga o‘qitildi. 1941-yil avgustida viloyatda 3148 kishi sanitariya mudofaasiga tayyor (GSO) degan znachokka norma topshirdi va 13 ming 500 kishi kimyoviy hujumga qarshi mudofaa kurslarida ta’lim oldi[1].

Respublika miqyosida olib borilgan chora-tadbirlar davomida 1941/1942-yillarda shifokorlar soni ancha ko‘paydi. Xususan, 1942-yil 1-yanvar holatiga respublikada 2561 nafar shifokor bo‘lgan bo‘lsa, 1944-yil 1-yanvarda ularning soni 4090 nafarga yetkazildi. O‘rta tibbiyot xodimlari esa, 1941-yil 1-yanvarda 10717 nafarni, 1944-yil 1-yanvarga kelib esa 10420 nafarni tashkil etgan. Qizil armiya tomonidan SSSRning ozod etilgan hududlariga shifokorlarning yuborilishi natijasida, ularning soni yanada kamaya boshladi. Xususan, 1943-yil O‘zbekistondan 628 nafar, 1944-yilning 1-yarim yilligida esa 350 nafar shifokor jo‘natildi[2]. 1944-yilda respublikada faoliyat yuritgan 4090 nafar shifokordan 219 nafarini o‘zbek, 1423 nafarini rus, 1865 nafarini yahudiy va 14 nafarini boshqa millat vakillari tashkil etgan[3]. Demak, shifokorlar orasida mahalliy aholi vakillari ozchilikni tashkil etgan.

Viloyatda 1941-yilda sog‘liqni saqlash tizimiga 10323000 so‘m ajratilgan. Shuningdek 746 o‘rinli 24 ta kasalxona, 46 ta ambulatoriya, 12 ta ayollar maslahatxonalari hamda 203 nafar shifokor va 570 nafar o‘rta tibbiyot xodimlar faoliyat olib borgan. 1941-yil qishloq tug‘ruqxonalarida 312 nafar ayol farzand ko‘rgan, umuman qishloq ayollaridan 1140 nafariga tibbiy akusherlik yordami ko‘rsatilgan[4]. 1941-yilda 210 o‘rinli Namangan shahar kasalxonasi viloyat kasalxonasiga aylantirildi va Namangan shahri hamda 9 ta tumanga xizmat ko‘rsata boshladi. Kasalxonada davolanish o‘rinlari 1942-yilda 250 taga yetkazildi[5]. 1944-yilga kelib esa viloyat sog‘liqni saqlash tizimida 35 ta qishloq shifokorlik uchastkalari, 90 ta feldsherlik va akusherlik uchastkalari va 28 ta kasalxona faoliyat yuritgan[6].

Bu davrda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun, tibbiy punktlar tarmog‘i ham kengayib bordi. Shuningdek, tibbiy brigadalar tashkil etilib, barcha shahar va tumanlarga jo‘natildi. Xususan, 1944-yilda har birida shifokor va 2 nafar hamshiradan iborat 25 ta tibbiy brigadalar tumanlarga jo‘natildi. Aholining dori-darmonga bo‘lgan ehtiyoji viloyatdagi 58 ta dorixonalar orqali ta’minlandi. Tibbiy xizmatni aholiga yanada yaqinlashtirish maqsadida, 1944-yilda 3 ta yangi kasalxona va tuberkulyoz sanatoriysi tashkil etildi va 11 ta ayollar va bolalar maslahatxonalarida bemorlar qabuli ko‘paytirildi. O‘z navbatida, sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag‘lar ham ko‘payib bordi. Jumladan, 1941-yilda tizimga 10320000 so‘m ajratilgan bo‘lsa, 1944-yilda 80 foizga ko‘payib 18542000 so‘mga yetkazildi. Viloyat tibbiyot xodimlarining soni ham asta-sekin ko‘payib bordi. 1941-yilda viloyatda 203 nafar shifokor, 570 nafar o‘rta tibbiyot xodimlari faoliyat olib borgan bo‘lsa, 1944-yilga kelib shifokorlar soni 204 nafarga, o‘rta tibbiyot xodimlari soni esa 897 nafarga yetdi. 1945-yilda viloyatda 916 o‘rinli 4 ta shahar va 22 ta qishloq kasalxonalari, 3 ta budjet va 15 ta kolxoz

tug‘ruqxonalari, 57 ta ambulatoriya, 78 ta feldsherlik ambulatoriyalari, 5 ta bezgak stansiyalari, 14 ta sanitar-epidemiologik stansiyalar va 16000 o‘rinli 33 ta budjet bolalar yaslilari mavjud edi[7].

Shu o‘rinda qayd etish joizki, viloyatda sog‘liqni saqlash tizimining o‘sishi bilan birgalikda bir qator muammolar ham to‘planib qolgan. Jumladan, aksariyat hollarda kasalxonalar sovuq bo‘lib, isitish uchun yetarli yoqilg‘i zaxirasiga ega emasdi, kasalxona binolari kapital ta’mirga muhtoj holatga kelib qolgan, bemorlarni ovqatlantirish ham talab darajasida bo‘lmagan. Urush yillarida aholini dori-darmon bilan ta’minlash masalasiga ham e’tibor kuchaytirildi. 1941-yilda aholi uchun 194400 ta retsept berilgan bo‘lsa, 1942-yilda 240000 ta, 1944-yilda 220500 ta retsept berildi. Umuman olganda, Namangan viloyati aholisiga 11 ta dorixona va 58 ta dorixona punktlari xizmat ko‘rsatib, urush yillarida 6600000 so‘mlik dori-darmon berildi. Lekin aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun tibbiyot xodimlari soni yetarli bo‘lmagan. Shaharlarda ajratilgan 147 shifokor shtat birligida 60 nafar, qishloqlarda 130 shtat birligida 78 nafar shifokorlar faoliyat olib borgan hamda 749 nafar o‘rta tibbiyot xodimlari shtat birligida esa 250 nafar xodim faoliyat ko‘rsatgan. Bundan ko‘rinadiki, tibbiyot xodimlari soni belgilanganidan kam bo‘lgan va ular ko‘proq ishlashlariga to‘g‘ri kelgan. Viloyatda kadrlar yetishmovchiligi muammosini hal etish uchun birinchi marta mahalliy aholi vakillari uchun feldsher-akusherlik tibbiyot maktabi tashkil etildi[8]. Kasalxonalar uchun hamshiralar tayyorlash ishlarida ham uzilishlar kuzatildi. Masalan, 1942-yilda rejadagi 120 nafar o‘rniga 74 nafar hamshira tayyorlangan bo‘lsa, 1943-yilda esa 180 nafar o‘rniga 30 nafar hamshira tayyorlandi. 1943/1944-o‘quv yili uchun ham rejadagi 180 nafar o‘rniga 46 nafar o‘quvchi yig‘ilgan xolos. Buning asosiy sababi, mahalliy aholining hamshiralar tayyorlash kurslariga umuman kelmasligida edi. Xususan, 1942-1943-yillarda o‘qitilgan hamshiralar orasida birorta ham mahalliy millat vakilalari yo‘q edi[9]. Butun urush davomida viloyatda 158 nafar ayollar tibbiy hamshiralik kurslarida o‘qitildi[10]. Buning asosiy sabablaridan biri mahalliy ayol-qizlarni milliy urf-odat va an’analariga sodiqligi, ayol kishining hamshira sifatida ya’ni turli xil bemorlarga xizmat ko‘rsatishlariga tayyor emasligi hamda ayollarning aksariyati uy-ro‘zg‘or ishlariga va ishlab chiqarish sohalariga jalb etilishi edi.

Viloyatda urush nogironlari uchun xizmat ko‘rsatuvchi fizioterapevtik kabinetlar umuman bo‘lmagan. Namangan viloyatida sog‘liqni saqlash tizimi 1938-yil holatida qolib ketgan edi. Masalan, Chust tumanida 45 ming nafar aholiga atigi 2 ta shifokorlik uchastkasi mavjud bo‘lib, xizmat ko‘rsatish radiusi 25 kilometrga yetgan. Bu aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatilishini qiyinlashtirgan. Viloyatning boshqa tumanlarida ham ahvol shunday bo‘lgan. Ammo, muammoni hal etish uchun tibbiy xodimlar yetarli emasdi. Tibbiy xodimlarning yetishmasligi aholiga tibbiy-sanitar xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga keskin salbiy ta’sir o‘tkazgan. Misol uchun Kosonsoy, Uychi, Norin, To‘raqo‘rg‘on va Namangan tumanlarida sanitar shifokorlar umuman bo‘lmagan, Namangan sanitar-epidemiologik stansiyasida shifokor o‘rnida feldsher faoliyat olib borgan. Barcha tumanlarda tropik stansiyalarda malyariolog shifokorlar o‘rniga o‘rta tibbiyot xodimlari ishlagan. Viloyatda faqatgina bir nafar malyariolog shifokor bo‘lib, viloyat Tropik stansiyasini u boshqargan[11]. Viloyatda 5 ta qishloq shifokorlik uchastkalarida ham umuman shifokorlar bo‘lmagan. Shuningdek, viloyatda okulist, nevropatolog, shifokor-laborantlar ham faoliyat yuritmagan va dori-darmon vositalari ham yetarli bo‘lmagan. 1944-yilda qishloq tug‘ruqxonalarida 312 nafar, shahar tug‘ruqxonalarida 403 nafar ayollar farzand ko‘rgan. Shuningdek 1944-yilda shaharlarda 1168 nafar, qishloqlarda 1286 nafar ayollar hech qanday tibbiy yordamsiz ko‘zi yorigan.Tibbiyot sohasidagi bunday holat respublikada turli yuqumli kasalliklarni avj olishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekiston uchun endemik kasalliklar – gripp, qizamiq, bezgak va boshqalar qatorida turli yuqumli kasalliklar ham tarqaldi. Ayniqsa, odatda urush va ocharchilik davrida keng tarqaladigan hamda “urush yoki ocharchilik terlamasi” deb nomlanadigan toshmali terlama epidemiyasi xavfli tus oldi. Namangan viloyatida toshmali terlamadan birinchi kasallanish holati 1941-yil oktyabr oyida qayd etildi va 14-oktyabrda Namangan shahriga Stalingraddan ko‘chirib keltirilgan oilaning bir nafar a’zosida toshmali terlama aniqlandi. 19-oktyabrda oilaning yana uch nafar a’zosi kasallandi. Kasallik viloyat bo‘yicha tarqalib, 1941-yil noyabrda 82 holatda toshmali terlama qayd etilib, ulardan 78 nafari (45 nafari ko‘chib kelganlar) Namangan shahri hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ushbu ko‘rsatkich 1942-yil yanvar oyida 953 nafarga yetdi. Kasallanganlarning asosiy qismi,

ya'ni 470 nafari Namangan shahri hissasiga to‘g‘ri kelgan edi. Bunga umumiy yashash joylarining sanitariya va xo‘jalik talablariga javob bermaganligi ham sabab bo‘lgan. Toshmali terlamadan kasallanish holati 1942-yil yanvar oyida har 10000 nafar aholiga nisbatan Namangan shahrida 45 kishini, Kosonsoyda 25, Uchqo‘rg‘onda 15, To‘raqo‘rg‘onda 14, Popda 12, Chustda 10, Uychida 8, Yangiqo‘rg‘onda 7, Namanganda 4,5 va Norin tumanida esa 4 kishiga to‘g‘ri kelgan edi. 1942-yilda viloyatda aniqlangan infeksion kasalliklari tahliliga ko‘ra, aholi orasida eng ko‘p tarqalgan kasallik toshmali terlama (3241 holat) hissasiga to‘g‘ri keladi. Keyingi o‘rinda esa dezinteriya 1147 holatda va uchinchi o‘rinda ichterlama 770 holatda aniqlangan. Bolalar orasida esa ko‘kyo‘tal (523 holatda), zaharli dispepsiya (387), qizamiq (405), difteriya (103), meningit (20) va boshqa kasalliklar tarqalgan[12].

Xulosa: Urush yillarida Namangan viloyati sog‘liqni saqlash tizimida bir qator o‘zgarishlar amalga oshirilib, gospitallar evakuatsiya qilindi. Viloyatdagi tibbiyot xodimlari yaralangan jangchilarni frontga qayta safarbar etish va mehnatga qaytarishda faollik ko‘rsatishi barobarida, bu davrdagi ijtimoiy muammolar negizida vujudga kelgan holat, qishloq xo‘jalik xodimlarining yozgi va kuzgi ishlar vaqtida dalada oylab yurishi, oddiygina sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilinmasligi, dalada hammomlarning yo‘qligi, yuvinib kelish uchun uyiga jo‘natmaslik natijasida kolxozchilar orasida turli yuqumli kasalliklar tarqala boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Пўлатов И. Улуғ ватан уруши ғалабасига Ўзбекистон меҳнаткашларнинг қўшган ҳиссаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1967. – Б. 47.
2. O‘z MA, R.837-fond, 32-ro‘yxat, 4569-yig‘ma jild, 38-varaq.
3. O‘z MA, R.837-fond, 32-ro‘yxat, 4569-yig‘ma jild, 39-varaq.
4. Namangan VDA, 111-fond, 1-ro‘yxat, 17a-yig‘ma jild, 247-varaq.
5. Namangan VDA, 796-fond, 1-ro‘yxat, 49-yig‘ma jild, 8-varaq.
6. Namangan VDA, 111-fond, 1-ro‘yxat, 17a-yig‘ma jild, 301-varaq.
7. Namangan VDA, 111-fond, 1-ro‘yxat, 17a-yig‘ma jild, 302-varaq.
8. Namangan VDA, 111-fond, 1-ro‘yxat, 17a-yig‘ma jild, 270-varaq.
9. O‘z MA, R.837-fond, 32-ro‘yxat, 3929-yig‘ma jild, 79-varaq.
10. Namangan VDA, 12-fond, 1-ro‘yxat, 171-yig‘ma jild, 1-varaq.
11. O‘z MA, R.837-fond, 32-ro‘yxat, 4569-yig‘ma jild, 19-varaq.
12. O‘z MA, R.837-fond, 32-ro‘yxat, 4569-yig‘ma jild, 20-varaq.

UO'K 94(55)«105/1205»:355.4(498)

SALJUQIYLAR VA VIZANTIYA MUNOSABATLARI TARIXIDA MIRIOKEFALON JANGINING AHAMIYATI XUSUSIDA

D.N.Xidirova, magistrant, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Maqola XI-XII asrlarda Saljuqiylar davlati va Vizantiya imperiyasi o‘rtasidagi munosabatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi hamda ushbu jarayonlarning Miriokefalon jangi (1176-y.) bilan yakuniy keskinlashuviga qadar sodir bo‘lgan voqealar tahlil qilinadi. Miriokefalon jangi Vizantiya imperiyasi tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo‘lib, tarixchilar shundan keyin bu davlat o‘zining jahon imperiyasi sifatidagi mavqeyini yo‘qota boshlaganligini ta'kidlashadi. Maqolada raqiblarning jang oldi qo‘llagan taktik usullariga e'tibor qaratilib, jangda g‘alabani ta'minlagan omillar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Saljuqiylar, Vizantiya, yunonlar, Kichik Osiyo, jang taktikasi, harbiy yurishlar, strategiya*

Аннотация. *В статье анализируется постепенное развитие отношений между Сельджукским государством и Византийской империей в XI–XII веках и события, предшествовавшие окончательному обострению этих процессов в битве при Мириокефалоне (1176 г.). Битва при Мириокефалоне – одно из важнейших событий в истории Византийской империи, после которого историки отмечают, что это государство стало терять позиции мировой империи. В статье рассматриваются тактические приёмы, применявшиеся противниками перед битвой, и анализируются факторы, обеспечившие победу в ней.*

Ключевые слова: *Сельджуки, Византия, греки, Малая Азия, тактика боя, военные походы, стратегия.*

Abstract. *The article analyzes the gradual development of relations between the Seljuk state and the Byzantine Empire in the 11th-12th centuries and the events that occurred before the final escalation of these processes with the Battle of Myriocephalon (1176). The Battle of Myriocephalon is one of the most important events in the history of the Byzantine Empire, after which historians note that this state began to lose its position as a world empire. The article focuses on the tactical methods used by the opponents before the battle and analyzes the factors that ensured victory in the battle.*

Keywords: *Seljuks, Byzantium, Greeks, Asia Minor, battle tactics, military campaigns, strategy.*

Kirish. Rim imperiyasining vorisi sifatida ko‘riladigan Sharqiy Rim imperiyasi – Vizantiya XI asrga kelganda oldingi “oltin davri”ni yo‘qotgan bo‘lsada, hamon qudratli imperiya sifatida e’tirofida edi. Imperiya inqirozini va tarix sahnasidan butunlay ketishining ildizi davlat sarhadlarining katta qismi o‘rin egallagan Kichik Osiyoga sharqdan, saljuqiylarning kirib kelishi bilan bog‘liqdir. Saljuquylar mintaqada Vizantiyani davlat sifatida tugatishga muvaffaq bo‘lmasada, ammo o‘zi bilan hisoblashishga va ko‘plab hududlarini berishga majbur etadigan darajagacha erishdi. Bunga bir qancha yirik janglarda Vizantiyaning qaqshatqich mag‘lubiyatga uchrashishi sabab bo‘ldi.

Vizantiya-saljuqiylar munosabatlari tarixi harbiy to‘qnashuvlar kulminatsiyasi sifatida ikkita yirik jang alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Bularning birinchisi 1071-yil 26-avgustda Saljuqiy sulton Alp Arslon tomonidan olib borilgan Manzikert jangi hisoblansa, ikkinchisi shubhasiz 1176-yil sentabrdagi Miriokefalondagi to‘qnashuv hisoblanadi. Birinchi jangda saljuqiylar mutloq ustunlikni namoyish etib, imperatorni asirga tushirishga va Kichik Osiyoda o‘rnashib olishga muvaffaq bo‘ldi. Tez orada Saljuqiylar davlatida boshlanib ketgan ichki siyosiy inqiroz natijasida Kichik Osiyodagi aynan Vizantiyadan tortib olingan yerlarda Rum (Konya) sultonligi (1077-1308) tashkil topadi. Ikkinchi yirik janglardan biri bo‘lgan Miriokefalonda jangda Vizantiya bilan aynan Kichik Osiyodagi Rum sultonligi to‘qnash kelgan edi. E’tiborli tomoni shundaki, Vizantiyani bu paytda nisbatan qudratli bo‘lgan Manuil I Komnin (1143-1180) idora etar edi. U janggacha Vizantiyani Bolqonda, Janubiy Italiyada ham boshqa siyosiy kuchlarni hisoblashishga majbur etadigan darajagacha ko‘targan edi. Bir so‘z bilan aytganda Miriokefalon jangigacha Vizantiya qo‘shinini boshlab tushgan imperator kuch va qudrat borasida raqibdan ustun mavqeida edi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqolada tarixiy tahlil va qiyosiy metod qo‘llanilib, turkiyalik tarixchilari orasida Yusuf Ayonuning “Saljuqiylar va Vizantiya” asarini alohida e’tirof etish kerak. Lekin asosiy muammo bo‘lgan jangning sodir bo‘lgan manzili aniq keltirilmagan. Abdulhaluk Chayning “Miriokefalon” asarida esa asosan Rumning saljuqiy sultoni Qilich Arslon II (1155-1192) va Vizantiya imperatori Manuil I Komnin (1143-1180) o‘rtasidagi qarama-qarshilik o‘rin olgan bo‘lib, bu jangga ikki tomonning tayyorgarligi, xususan jangdagi g‘alabaga Saljuqiylar qo‘mondonlari tomonidan erishilgan yuqori darajadagi strategik fikrlash va rejalashtirish ochib berilgan. Muallif o‘z asarida alohida to‘xtalgan fikrlar nafaqat jang va harbiy tayyorgarlikka xususan, muallif jangni quruq tarixiy fakt sifatida emas, balki xalqning taqdiri**,** vatanparvarlik**,** jasorat**,** sabr, mardlik singari qadriyatlar bilan bog‘lab talqin qiladi.

Natijalar va muhokama. Tarixiy tadqiqotlarga ko‘ra, 1174-yil oxiri yoki 1175- yil boshida Vizantiya imperatori Manuil I Komnin (1143-1180) 1162-yilgi shartnomaga asosan Vizantiyaga berilishi va'da qilingan shaharlarni egallashga tayyorgarlik ko‘rishni boshladi. Buni eshitgan Qilich Arslon II elchilar orqali imperatorga bu shaharlarni Vizantiyaga topshirish niyati yo‘qligini ma’lum qiladi. Shartnomaga bilan shaharni olishiga ko‘zi yetmagan Manuil I Komnin Kichik Osiyoga 6000 dan ortiq askardan iborat qo‘shin yuboradi. Biroq, Qilich Arslon II hali egallab olmagan shaharlarni vizantiyaliklardan himoya qilishini va shu bilan ularning Saljuqiylarga ixtiyoriy ravishda taslim bo‘lishini ta'minlashini aytdi. Natijada, Vizantiya qo‘shini hech narsaga erisha olmagan holda Konstantinopolga qaytadi [1,164].

Manuil I maqsadga erishish uchun ortga chekinmaydi, aksincha Rum sultonligiga qarshi yana qo‘shin yuboradi. Oldingi safargidan ko‘proq bo‘lgan bu qo‘shinning kirib kelishi ortidan Rum qo‘shini katta to‘qnashuvgacha bormay chekinadi. Bunday fursatni qo‘ldan boy berishni istamagan vizantiyaliklar bir qancha manzillarni qaytarib olishga erishdi. Dorilayyon istehkomlarini qurib

bo‘lgach, Manuil I Saljuqiylarga qarshi yurishi paytida o‘tadigan yo‘lidagi yana bir muhim tanyach nuqta Sublayonni qayta qurdi va Konstantinopolga qaytishdan oldin u yerga garnizon joylashtirdi.

B.M.Zaporojesning ma’lumotiga ko‘ra, Saljuqiylar davlatini yo‘q qilish uchun imperator Manuil I Komnin ulkan qo‘shin tuzganligini, unga Vizantiya qo‘shinlaridan tashqari, franklar, serblar va pecheneglar askarlari ham kirganligini ta’kidlaydi. Bu qo‘shin Malazgirt jangi paytida Vizantiya imperatori bo‘lgan Roman IV Diogenning qo‘shiniga teng edi [2, 285].

1176-yil boshida Qilich Arslon II yana bir bor Konstantinopolga elchilar yuborib, yurishga tayyorgarlik ko‘rayotgan Manuil I ni rejasidan qaytarishga harakat qiladi. Lekin o‘z qudratining cho‘qqisida bo‘lgan Manuil I Komnin uchun rejasidan qaytish mag‘lubiyat bilan barobar edi. Har ikki tomon ham qattiq to‘qnashuvga tayyorgarlik ko‘ra boshladi.

Miriokefalon jangi haqida o‘sha davr musulmon manbalarida juda kam ma'lumot mavjud. Biroq, Lotin, Suriya va ayniqsa Vizantiya manbalarida jang haqida batafsil ma'lumotlarni berib o‘tilgan. Ta’kidlash kerakki, bu manbalarda ham jangning borishi va yakuni aniq tasvirlangani holda, jang sodir bo‘lgan manzil aniq ifoda etilmagan. Miriokefalon jangi 1176-yil 17-sentabrda bo‘lganligi va barcha manbalarda qo‘shin Rindakosda to‘planib, Konyaga qarab harakat qilgani aytiladi[3,14].

Tarixchi olim V.M.Ramsay jang Xoyran ko‘lining shimoli-sharqidagi Kumdanli tekisligi bo‘lganini ta'kidlaydi. Ramsay Xoyran ko‘lidan shimolga Yalvachga boradigan yo‘lda joylashgan Tzibritze dovoni Vizantiya qo‘shinlari pistirmaga uchragan dovon bo‘lgan deb hisoblaydi [1,347]. Chunki jang tavsifini bergan asosiy manbalarda qandaydir dovon tilga olib kelingan. Turkiyalik tarixchi Faridun Dirimtekin bo‘lsa bu firkni inkor etadi: “Agar jang Xoyran ko‘lining shimolida bo‘lganida, Vizantiya qo‘shini taxminan 80-90 km yurgan va yo‘l bo‘ylab Tatarli shahridan o‘tgan bo‘lar edi. Biroq, manbalarda Vizantiya qo‘shinining Homadan keyin yurishi haqida hech qanday ma'lumot yo‘q [5, 115]”. Yana bir tadqiqotchilar guruhi jang Konyadan 10 kilometr g‘arbda joylashgan Agirsak darasida bo‘lib o‘tganini ta'kidlasalar [6,126], M.Abdulhaluk Choyning so‘zlariga ko‘ra, Miriokefalon jangi Yalvach tekisligida bo‘lib o‘tgan. Manbalardagi ma'lumotlarni sinchiklab o‘rgangan Choy keyinchalik jang bo‘lgan mintaqaga borgan va dala tadqiqotlari natijasida Saljuqiylar Sulton tog‘laridan Yalvach va Kumdanli tekisliklariga tushadigan to‘rtta dovonning eng qulayi bo‘lgan Karamikbeli dovonida Vizantiya qo‘shinini pistirmaga olganini ma’lumot o‘rnida qayd etadi [7,76].

Jangda tomonlarning qo‘shin nisbatan ham tadqiqotchilar o‘rtasida hamon bahslarga sabab bo‘lib kelayotgan masalalardan biridir. Vizantiya armiyasining o‘q-dorilari va yuklari 3000 dan ortiq aravalar bilan tashilgani aytiladi. Bu qo‘shin tarkibida ko‘plab aravalar va yuk tashuvchi hayvonlar borligidan dalolat beradi. Vizantiya imperiyasi keng ko‘lamli hujum kampaniyasini boshlagan X asr oxirlarida yozilgan harbiy taktika haqida muallifi noma’lum kitobida keltirilishicha, qo‘shinda harbiy yo‘llarni yaxshi biladigan dukatorlar deb nomlanuvchi zobitlar bo‘lgan bo‘lishi kerak. Bu zobitlar Vizantiya qo‘shiniga dushman hududini talon-taroj qilish va egallab olish uchun rahbarlik qilishgan. Dukatorlar mintaqani yaxshi bilganliklari sababli, ular imperatorga ushbu shartlarning barchasini hisobga olgan holda qaysi yo‘nalishlarni tanlash kerakligi haqida maslahat berishgan bo‘lar edi [8,126].

Jang tarixi haqida ma’lumot beruvchi asarlarda 35000, 25000 nafar qo‘shin soni ko‘rsatilgan. Boshqa tadqiqotlarda Vizantiya dala armiyasi taxminan 40 000 askarni tashkil qilganligi aytiladi [9,233]. Vizantiya o‘sha davrda o‘ziga tobe bo‘lgan boshqa hududlardan askarlar yollash imkoniyatiga egaligini hisobga olgan holda, armiyaning sonini taxminan 60000–70000 askar bo‘lgan degan xulosa beradi. Yana barcha manbalardagi umumiy xulosa son jihatidan ustunlik Vizantiya tomonida bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Lekin bizningcha, jang oldidan qo‘shin soni emas, balki boshqa omillar mahorabaning taqdirini belgilab bergan edi. Bular:

- Vizantiya qo‘shini tarkibining xilma-xilligi va asosan ikki xil toifadagi (o‘troq hamda ko‘chmanchi) askarlardan iboratligi;

- Strategik maqsadning xato tanlanilishi, ya’ni Manuil I qanday bo‘lmasin, Rum sultonligi markazi Konyani qo‘lga kiritishni ko‘zladi, bunda boshqa mayda detallarni e’tiborga olmadi;

- Hududning nisbatan notanishligi, ya'ni qo'shinning katta qismi birinchi marta Kichik Osiyoning bu sarhadlarigacha yetib kelayotgan edi;

- Vaqtning hisobini olishdagi muammolar, ya'ni Konyani qo'lga kiritishni ko'zlagan Vizantiya qo'shini shiddatli harakatga e'tibor berdi, mahalliy iqlimiy omillarni hisobga olmadi. Natijada jang oldidan boshlangan qum bo'roni ularning zarariga ishladi.

Lekin jangni tasvirlagan manbalarda vizantiyaliklar Miriokefalonda saljuqiylarga munosib qarshilik ko'rsatganligini va qattiy kurashganligi aytiladi. Jang sodir bo'layotgan hududning saljuqiylarga yaxshi tanishligi bir tomondan, ikkinchi tomondan Vizantiya oliy qo'mondonligining strategik xatolari ko'p sonli askardan iborat bo'lgan dushmanni pistirmaga tushirish imkonini berdi. O'z-o'zidan ayonki dasht sharoitida pistirmalardan unumli foydalanish borasida mahoratli bo'lgan saljuqiylar qulay fursatni qo'ldan boy bermaydi va jangdagi muvaffaqiyatni o'z taraflariga og'dirishadi.

Xulosa: Miriokefalondagi mag'lubiyatdan so'ng, Vizantiya imperiyasi Anatoliyada saljuqiylarning keyingi hujumlarini to'xtata olmaydigan holatga tushib qoldi. Jangning yana bir natijasi shu bo'ldiki, Vizantiya bundan buyon Anatoliya hududlariga da'vo qilishdan voz kechdi. Egallangan hududlar saljuquylar yurishlari bilan kirib kelgan turkiy xalqlarning "yangi vatani"ga aylana boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yusuf Ayönü, Selçuklular ve Bizans, Türk Tarih Kurumu, Ankara 2014,

2. Запорожес В.М. Роль тюрок-сельджуков в исторических процессах на Ближнем и Среднем Востоке в XI – начале XIV века. – М.. 2017.

3. . Three Byzantine Military Treatises. –Washington D.C. 1985.

4. M.Ceylan ve Eskikurt. Kûfi Çayı Boğazı nın Doğal ve Tarihi Coğrafyası//Marmara Coğrafya Dergisi, C.1/S.3, 2001

5. Dirimtekin. Konya ve Düzbd (1146-1176). – İstanbul, 1944.

6. M.Said Polat. Türkiye Selçuklularında Askerî Teşkilat (1071-1243) // Türklük Araştırmaları Dergisi, 17 (Bahar 2005).

7. Çay Abdulhaluk. Myriokefalon. – Anqara,1984.

8. Murat Keçiş. Miryokefalon Savaşı'nda Bizans Ordusunun Stratejisi The Strategy of the Byzantine Army in The Battle of Myriokephalon // Isparta Bölgesinin Tarihi Coğrafyası ve Myriokephalon Savaşı Sempozyumu (19-20 Haziran 2014)

9.Osman Turan. Selçuklular Zamanında Türkiye. – İstanbul: Ötüken Neşriyat, 2004.

UO'K 930.1

XVIII–XIX ASRLARDA QASHQADARYO VOHASIDA ADABIY JARAYONLAR VA ADIBLAR FAOLIYATI

A.O.Xo'jayorov, PhD, Turon universiteti, Qarshi

Annotatsiya*. Mazkur maqolada XVIII–XIX asrlarda Qashqadaryo vohasida shakllangan madaniy-ma'naviy muhit, badiiy adabiyot va ilm-fan rivoji tahlil etiladi. Tadqiqotda asosan, Qarshida yetishib chiqqan shoirlar, olimlar va adiblarning ijodi, ularning siyosiy beqarorlik, ta'qib va istilolar sharoitidagi faoliyati yoritilgan. Xususan, Lomeiy Nasafiy, Saidxoja Nasafiy, Nurmuhammad Nasafiy, Salohiy, Xayoliy, Hofiz Ro'ziboy Oxund singari ijodkorlarning adabiy merosi tarixiy-manbaviy asosda tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar*: Qarshi shahri, Qashqa vohasi, adabiy muhit, XVIII–XIX asrlar, Nasafiylar, o'zbek mumtoz adabiyoti, tazkira, badiiy meros.*

Аннотация*. В статье рассматривается культурно-литературная среда города Карши и Кашкадарьинского оазиса в XVIII–XIX веках. Анализируется деятельность поэтов, ученых и мыслителей, сформировавших духовную жизнь региона в условиях политических потрясений, репрессий и внешних вторжений. Особое внимание уделяется творческому наследию Ломеи Насафий, Саидходжи Насафий, Нурмухаммада Насафий, Салохи, Хаёлий и Хафиза Рузибоя Охунда.*

Ключевые слова*: город Карши, Кашкадарьинский оазис, литературная среда, XVIII–XIX века, Насафий, узбекская классическая литература, тазкира, культурное наследие.*

Abstract. *This article examines the cultural and literary environment of Karshi city and the Kashkadarya oasis during the 18th–19th centuries. It analyzes the intellectual and artistic activities of poets and scholars who shaped the region's spiritual life amid political instability, repression, and foreign invasions. Special attention is given to the literary heritage of figures such as Lomei Nasafi, Saidkhoja Nasafi, Nurmuhammad Nasafi, Salohi, Khayoliy, and Hafiz Ruziboy Okhund.*

Keywords*: Karshi, Kashkadarya oasis, literary environment, 18th–19th centuries, Nasafi scholars, classical Uzbek literature, tazkira, cultural heritage.*

Qarshi madaniy hayotining asosiy qirrasini badiiy ijodiyot tashkil etgan. Qashqa vohasida, uning Qarshi va Shahrisabz kabi madaniyat o'choqlaridan XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr birinchi yarimlarida ko'plab shoirlar, olimlar, san'atkorlar, xattotlar yetishib chiqqanlar. Buxoroda hokimiyat Subxonqulixon qo'liga o'tgandan so'ng, u nafaqat akasi Abdulazizxonga yaqin saroy ayonlarini, shu bilan birga, olimlar, shoirlarni ham quvg'un ostiga oladi. Bunday qismat yuz (juz) urug'idan chiqqan taniqli shoir Turdi Farog'iyni ham chetlab o'tmagan. Haqgo'y shoirlardan Ne'matullo Samarqandiy, Shokir Buxoriy, Hoji Sobir, Mullo Zarif, Shamimi Buxoriy, Majnun Buxoriy va Niyozbek Matlablarga ijod qilish ta'qiqlab qo'yiladi. Ularga boshqa hunar bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. Manbalar Subxonqulixon hukm surgan yillarda ta'qib va tazyiq tufayli 20 dan ortiq qarshilik, buxorolik, samarqandlik shoirlar darveshlik yo'liga kiradi, tarki vatan qilishga majbur bo'ladi. Shunday qismat Lomeiy Nasafiy chekiga ham tushadi.

Fanning turli yo'nalishlari bo'yicha, tarix va adabiyot sohasida ayniqsa ko'plab asarlar yaratilgan. Qarshi shahrida XIX asrda madaniy va ma'naviy hayotida o'ziga xos o'rin tutgan ko'pgina olimlar, shoirlar, muarrixlar yetishib chiqqan. Bu o'rinda «Tuhfat al-xoniy» asarining mualliflaridan biri domullo Olimbek Nasafiy, «Mo'jaz al-qonun»ni yozgan Alouddin Ali al Qarshiy, «Rasoil al-vusul» ijodkori Ibrohim bin Hakim al-Keshiy, «Devoni Ozar» sohibi mullo Abdulholiq Ozar an-Nasafiy, «Devoni Nasim» ni orasta etgan Xoja Amir Nasim Nasafiy, «Sharh al-xomat» asari asari bilan tanilgan Komil bin Kamol Nasafiylar nomini alohida iftixor bilan tilga olish lozim bo'ladi [1].

XVII asr oxirlari va XVIII asr boshlarida yashagan Lomeiy Nasafiy taniqli shoir va tarjimon bo'lgan. Uning hayoti uch joyda: Qarshida, Buxoroda va umrining oxiri Hindistonda kechadi. Lomeiy Nasafiy uz davrining mashhur shoiri, hamyurti Sayido Nasafiyning zamondoshi bo'lgan. U Buxoroda Abdulazizxon hukm surgan yillarda (1680) saroy shoirlaridan bo'lgan. Abdulazizxon shoirlarga rahnamolik qilishda ajralib turgan. Uning saroyida o'sha vaqtlarda Turdi Farog'iy, Sayido Nasafiylar ham katta hurmatta noil bo'lganlar. Hokimiyat Subxonqulixon qo'liga o'tgach, ko'pgina saroy ayonlari qatori shoir va san'atkorlar ham saroydan quviladi. Lomeiy Nasafiy Hindistonga, Boburiylar huzuriga yo'l oladi. Avrangzeb (1658-1707) hukmronligi yillarida saroyga yo'l topib, katta obro'-e'tibor qozonadi [2]. Lomeiy Nasafiy turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan. Uning «Ibratnoma», «Sharaf ul-inson» singari asarlari saqlanib qolgan.

Qarshi shahri sharq dunyosida madaniy markazlardan biri sifatida ham tanilgan bo'lib, bu shaharda tavallud topgan va samarali faoliyat yuritgan mashhur allomalar, taniqli qomusiy olimlar, muarrix, tilshunos, fiqhshunoslar va fanlarning boshqa sohalaridagi namoyondalarining o'rni salmoqli bo'lgan. Lomeiy Nasafiy ijodi yetarli darajada o'rganilgan emas. Shoirning adabiy merosi namunalari Sankt-Peterburgdagi M.YE.Saltikov Shchedrin nomli kutubxona jamg'armasida saqlanadi [3]. Lomeiy Nasafiy hur fikrli, adolatpesha ijodkor bo'lgan. U o'z asarlarida yaxshilik, odamiylik g'oyalarini targ'ib qilgan.

1740 yilda Eron podshohi Nodirshoh Afshor yurtimizga bostirib kelgan edi. Bu davrda shaharlarda madaniyat va adabiy hayot tanazzulga yuz tutib, shoirlar, olimlar qismati yanada ayanchliroq bo'lgan. Nodirshoh yurishidan oldin, 1737 yilda uning o'g'li Rizoquli Qarshiga hujum qilib, uni talon taroj etgan edi. Mana shunday davrda Saidxoja Nasafiy yashab ijod etadi. Saidxoja Nasafiy haqida ma'lumot beruvchi yagona manba qarshilik tazkiranavis olim Nurmuhammad Nasafiyning «Mazxar ul-musannifin» asaridir. Saidxojaning tug'ilgan yili ma'lum emas. Lekin, shoirning vafot etgan yili aniq [4], Saidxoja Eron podshohi Nodirshoh Afshorning o'g'li Rizoquli katta qirg'in-baryut yurish qilib, Qarshiga bosib kelganidan bir hafta o'tgach, ya'ni 1737 yilda vafot etadi.

Nurmuhammad Nasafiy XVIII asrning o‘rtalarida yashab ijod etgan Qarshilik olim va shoir. Uning “Mazhar ul-musannifin” (Adiblar bayonida) asarida Buhoro honligi hududida yashab ijod qilgan, jumladan qarshilik va kosonlik adiblar hayoti va ijodi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan [5].

Nurmuhammad Nasafiy muarrix va adabiyotshunos olimdir. Bu ikki qirra uning asarida to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi. Muhammad Amin bin Nurmuhammad Nasafiy «Mazxar ul-musannifin» da tazkirachilikning Alisher Navoiy asoslagan va uyg‘unlashtirgan an’analarini izchillik bilan davom ettiradi. O‘ziga zamondosh shoirlar va adiblar ijodiga to‘g‘ri, halol baho berishga intiladi. Asar garchi tarixiy voqealar bayoniga bag‘ishlangan bo‘lsada, unda tazkira asarlariga xos xususiyatlar ham mujassam. Chunki tarixiy voqea-hodisalar bayon etilar ekan, biron-bir munosabat bilan muallif o‘ziga zamondosh bo‘lgan shoirlar, olimlar, musanniflar haqida fikr yuritadi, ularning ijodiga ta’rif beradi.

«Mazxar ul-musannifin» 1759 yilda yozilgan bo‘lib, tugallanmay qolgan. Asarning qamrov doirasi ancha katta. Nurmuhammad Nasafiy o‘ziga zamondosh bo‘lgan qarshilik, shahrisabzlik, samarqandlik, buxorolik bir qancha shoirlar haqida ma’lumot beradi. Tarixiy-tazkiraviy asarda zikr etilgan shoirlar haqidagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Nurmuhammad Nasafiy yashagan XVIII asr o‘rtalarida badiiy adabiyotda bir-biriga g‘oyaviy zid bo‘lgan ikki adabiy oqim mavjud bo‘lgan.

Nurmuhammad Nasafiy Qarshi shahrida yashab ijod qilgan. U o‘z asari «Mazxar ul-musannifin» da, asosan, E’joz, Mulla Muxammad Ra’noiy, Mulla Muxammad Amin Foxir, Said Roqim Samarqandiy, Mirzo Mas’um Kosoniy, Mirzo Afzal Munshiy, Muxammad Muso, Saidxoja Nasafiy singari qarshilik, samarqandlik, buxorolik shoirlar xaqida muxtasar ma’lumotlar beradi. Asar tarixiy talqinda bo‘lganligi uchun ham, unda shoirlar va ularning yozgan asarlarining ko‘p o‘rinda nomlarigina sanab o‘tiladi [6].

Nurmuhammad Nasafiy o‘ziga zamondosh shoirlar, olimlar haqida fikr yuritar ekan, ularga berilgan ta’rifdan muallifning kim tomonida ekanligi aniq sezilib turadi. Masalan, u shoirlarning jamiyatdagi o‘rniga alohida baho berib, hunar ahliga, kosib-shoirlarga aloxida extirom bilan qaraydi. Mavlono Abdulning qog‘ozfurushlik qilishi, Rizoiyning kotiblik bilan mashg‘ul bo‘lishi, Shavqiyni o‘q yasovchi usta ekanligi, Ra’noiyning oxundligi hurmat bilan zikr etiladi.

Qarshi shahrining hozirgi mahallalaridan biri Xoja Xiyol deb ataladi. Shu mahallada XIX asrning birinchi yarmi o‘rtalarida shoir Xayoliy dunyoga keladi. Shoir Xayoliy hayoti va ijodiyoti haqida ma’lumotlar saqlanib qolmagan. Undan birgina qo‘lyozma devon yetib kelgan. Devonning muqovasi, boshlanish sahifalari va xotimasi yo‘q, sahifalar raqamlanmagan va devondagi varaqlar 300 betdan oshiqroq [7]. Devonda g‘azallar asosiy janr hisoblanadi. Shoirning ayrim g‘azal va muxammaslarida uchraydigan tarixlarga qarab fikr qilinsa, Xayoliyning XIX asr birinchi choragi oxirlarida tug‘ilgan va Chor Rossiyasi Buxoro amirligiga qarshi urush harakatlarini boshlagan 60-yillar oxirlarida faoliyat olib borgan [8].

Devonning asosiy mavzusi ishq muhabbat va rus tajovuziga qarshi vatanparvarlik ruhini talqin etishga qaratilgan. Chor Rossiyasining Buxoro amirligiga qarshi O‘ratepa, Jizzaxdan boshlangan bosqini tarixi Xayoliy ijodida o‘z aksini topadi. Buxoro amirligining vassallik maqomiga tushib qolishi, amir Muzaffarning o‘g‘li, Qarshi va G‘uzor bekliklarida «Katta To‘ra» deb nom chiqargan shahzoda Abdulmalikning 1867 yilda Qarshi shahriga kelishi voqealariga bag‘ishlangan she’rlar Xayoliyning mamlakatda yuz berayotgan voqea-hodisalarni hushyorlik bilan kuzatib borganidan dalolat beradi [9].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Равшанов.П. Қарши Тарихи. Тошкент – 2006. – Б.539.

2. Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б.40 – 41.

3. Равшанов П. Адабий саҳифалар. – Б. 88 – 89.

4. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-том. – Тошкент, 1978. – Б. 150.

5. Исмоилов Н., Бўриев О. Қарши – Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри. – Қарши, 2006. – Б. 118.

6. Равшанов П. Қарши Тарихи. – Тошкент, 2006. – Б. 548.

7. Равшанов О. Кўнглимда минг турлик орим бор. – Тошкент: «Ёзувчи», 1997.

8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. 1-ж. – Т., 2000. – Б. 110 – 114.

9. Равшанов П. Қарши Тарихи. – Тошкент, 2006. – Б. 612.

UO'K 908

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTI

S. Xushmatova, o'qituvchi, Qarshi Davlat Universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mustaqillik davrida madaniyat va san'at sohasida tubdan o'zgarishlar yuz berdi, shuningdek madaniy sohaning huquqiy asosi yaratildi. O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi madaniy hayoti – mamlakatning yangilanish, o'zlikni anglash, milliy tiklanish va modernizatsiya jarayonlarida asosiy tayanch bo'lgan sohalardan biridir.*

Kalit so'zlar: *Madaniyat, modernizatsiya, san'at, teatr, kino, mafkura, renessans.*

Аннотация. *В период независимости произошли коренные изменения в сфере культуры и искусства, была создана правовая база сферы культуры. Культурная жизнь Узбекистана после обретения независимости является одним из основных столпов процессов обновления, самосознания, национального возрождения и модернизации страны.*

Ключевые слова: *Культура, модернизация, искусство, театр, кино, идеология, возрождение.*

Abstract. *During the period of independence, fundamental changes took place in the field of culture and art, and the legal framework of the cultural sphere was created. The cultural life of Uzbekistan after independence is one of the main pillars of the country's processes of renewal, self-awareness, national revival and modernization.*

Key words: *Culture, modernization, art, theater, cinema, ideology, Renaissance.*

Mustaqillik yillarida ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlarida bo'lganidek madaniy hayotda ham tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Shaklan ham, mazmunan ham milliy madaniyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek, mamlakatimizda madaniyat va san'at sohalari istiqlol davrida milliy qadriyatlar va zamonaviy tendetsiyalarga asoslangan holda rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganiga hali ko'p vaqt bo'lmaganligiga qaramasdan xalqimizning ma'naviyati, madaniyati, san'ati, milliy qadriyatlariga alohida e'tibor bilan qaraldi. Zero, O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov: "Ma'naviyat sohasidagi eng asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rni va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillaridagi boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir"[1] deb ta'kidlagan edi.

Mustaqillik davrida yurtimizda bu borada talaygina ishlar amalga oshirildi. Avvalo sohaning huquqiy asosi yaratildi. Qolaversa, bu sohalarning rivojlanishi uchun hukumatimiz tomonidan qulay shart-sharoitlar yaratilib berildi. Mustaqilligimiz qo'lga kiritilganligiga mana 34 yildan ortiq vaqt o'tdi. O'tgan bu davrda madaniyat va san'at sohasida yuz bergan o'zgarishlar, yangiliklar endilikda tarixiy jihatdan baho berishga muhtojdir. Chunki o'tgan davrda respublikamizda amalga oshirilgan ishlarning ahamiyati ularning tarixiy jihatdan tadqiq etish lozimligini belgilaydi.

Madaniyat va san'at har doim biror bir davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganlik darajasini ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda madaniyat va san'atning rivojlanish taraqqiyotini tarixiy jihatdan tadqiq etish o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bu masala mavzuning dolzarbligi qilib olindi. Mazkur mavzuni o'rganishda avvalo, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning bir qator asarlari va so'zlagan nutqlariga murojat qilib, unda tarixiy jarayonlarga berilgan baholar, xususan bugungi O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy ahvoli, ma'naviy – madaniy hayoti haqidagi fikrlari va mustaqillik yillari tarixiy xotirani tiklash, millat, jamiyat, o'sib kelayotgan avlod hayotining ma'naviy asoslarini mustahkamlash yo'lidagi ko'rsatmalari va ularni amalga oshirish lozimligi va ahamiyati xususida berilgan oqilona fikr mulohazalari ishning asosiy manbaviy asosni va adabiyotlarini tashkil etdi.

Alohida ta'kidlash lozimki, mustaqillik eng avvalo xalqimizning qo'lidagi kishanlarni yechib tashladi. Ma'naviy ma'rifiy sohadagi qullik, o'z madaniy siyosatini o'zi belgilashi huquqidan mahrum bo'lish, qaysi xalq millat bo'lishidan qat'iy nazar uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mafkuraviy taraqqiyotiga to'siqdir. "Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar, - degan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, - o'z yo'liga. Ularni hal etish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklash, ularga munosib voris bo'lish-bundan og'ir va sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda"[2].

Istiqlol tufayli jamiyatimizda sodir bo'layotgan siyosiy, iktisodiy, madaniy o'zgarishlar teatr san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmokda. Xususan, madaniyat sohasiniing rivojlanishiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq hukmatimiz tomonidan e'tbor qaratildi. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish va uning faoliyatini yaxshilash tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 9-martdagi PF–360-son Farmoni e'lon qilindi. Keyinchalik 2004-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3491-sonli farmoni[3] e'lon qilinganidan so'ng madaniyat va sport sohasini boshqarish va tashkil etish tizimi tubdan o'zgartirildi. Ushbu farmonda madaniyat va sportni rivojlantirish muammolarini kompleks tarzda hal etish, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan boy va barkamol shaxslarni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish, sog'lom turmush tarzi va sportga muhabbat tuyg'usini singdirish, aholining madaniy va estetik talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, shuningdek madaniyat va sport sohasini boshqarishni takomillashtirish, bu sohada davlat siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish darajasini ko'tarish maqsadi belgilandi.Shuningdek, ushbu farmonga asosan "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 455-sonli Qarori va "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Vazirlar Mahkamasining 96-sonli Qarori e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davrida "Uchinchi Renessans" g'oyasi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida madaniyat, fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi asosida yangi uyg'onish davrini yaratish maqsad qilib qo'yildi. Aynan so'nggi yillarda m**adaniy merosni to'la qayta tiklash uchun bir qancha dasturlar amalga oshirildi.** Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlar YUNESCO bilan hamkorlikda restavratsiya qilindi. **Kitobxonlikni rivojlantirish siyosati olib borildi.** 2017–2024 yillar davomida "Kitob mahsulotlarini targ'ib qilish", "Zamonaviy axborot-kutubxona tizimi" kabi loyihalar amalga oshirildi. Shu bilan birga bu davrda **"Yangi O'zbekiston" konsepsiyasida madaniyatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi.** Madaniyat vazirligi faoliyati qayta tashkil etildi, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari ishlab chiqildi.Bu dasturlar natijasida madaniy hayotning barcha tarmoqlarida modernizatsiya jarayoni jadal davom etdi.

O'tgan qisqa davrda milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlarni tiklash, borasida milliy tarimizni yanada boyitish maqsadida, xalqimiz o'rtasida turli targ'ibot va tashviqot ishlari olib borildi. Shuningdek, nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabrdagi "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'qrisida"gi qarori bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Dasturda belgilangan vazifalarni sifatli va samarali amalga oshirilishini ta'minlashga muhim e'tibor qaratildi. Dasturda belgilangan vazifalar asosida madaniy meros obidalari hamda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishtirish maqsadida yoshlarni tarixiy obidalar, muzey va ko'rgazma zallariga sayohatlari tashkil etildi. "Muqaddas ajdodlarimiz ilmiy merosini o'rganamiz" rukni ostida ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy, badiiy madaniy meroslarini o'rganish qamda asrab-avaylash borasida amalga oshirilgan ishlarni aks ettiruvchi hujjatli filmlar va video materiallar asosida yurtimizning har bir alloma mutafakkirlar merosining beqiyosligi g'oyasini yoshlar ongiga singdirib borildi.

Mustaqillik davrida san'at, adabiyot va madaniyat siyosati ham yaxshi olib borildi. Jumladan, san'at va adabiyot jamiyatning ruhiy-ma'naviy ko'zgusi sifatida mustaqillik yillarida sezilarli ravishda rivojlandi. **Adabiyotda esa** Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Xurshid Davron, Omon Matjon kabi ijodkorlar milliy uyg'onish g'oyalarini aks ettirdilar. Mustaqillikni madh etuvchi she'riy va epik asarlar maydonga keldi. **Tasviriy san'atda esa** Milliy an'analar va zamonaviy yo'nalishlar uyg'unlashdi; rassomlar maktabi kengaydi. **Musiqa san'atida e**strada, maqom, folklor yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha davlat qo'llab-quvvatladi. 2018-yildan "Maqom festivali", "Bakhshi Art" kabi xalqaro tadbirlar yo'lga qo'yildi.Bu jarayonlar O'zbekistonning madaniy qiyofasini yangilanishiga zamin yaratdi. **Madaniy merosni asrash va tiklash islohotlari shu bilan yakunlanib qolmadi.** O'zbekiston jahon tamaddunining muhim markazi sifatida ulkan moddiy va nomoddiy merosga ega. Mustaqillik davridagi yirik ishlar: 800 dan ortiq tarixiy obidalar restavratsiya qilindi; 4 ta shaharning tarixiy markazi YUNESCO ro'yxatiga kiritildi; Milliy arxiv fondi modernizatsiya qilindi; "Meros" davlat dasturi qabul qilindi.Madaniy merosga bo'lgan yondashuv sovet davridagi ideologik cheklovlardan to'liq voz kechdi va ilmiy xolislik tamoyiliariga asoslandi. Mustaqillik yillarida madaniyat muassasalari tubdan modernizatsiya qilindi.

Xullas, mustaqillik yillarida respublikamizda teatr, kino va musiqa san'atida yuz bergan rivojlanishlarni bu borada hukumatimiz tomonidan olib borilgan islohatlar, jamiyatda yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlarning inikosi deb qabul qilish mumkin. Bulardan kelib chiqib mustaqillik sharoitida bu sohalarni rivojlantirish uchun ko'p ishlar amalga oshirilganligini va yuqorida ta'kidlangan ko'plab yutiqlar qo'lga kiritilganligini ta'kidlagan holda sohada xali o'z yechimini topmagan bir qator muammo va kamchiliklar mavjudligini ham qayd etib o'tish lozim. Ammo shu kungacha olib borilgan ishlarning jo'shqinligi va bu borada erishilgan natijalarga asoslangan holda biz ushbu muammolar yaqin kelajakda o'z yechimini topa olishini ishonch bilan ta'kidlashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов. И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008. –Б. 15.
2. Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. I жилд. –Т.; 1996. –Б 202.
3. "Ўзбекистон Республикаси Маданият ва спорт ишлари вазирлигини ташкил этиш тўғрисида"ги ПФ-3491-сонли Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 38-39-сон, 422-модда. // www.Lex.uz

UO'K 908

BUXORONING BUYUK IPAK YO'LIDAGI O'RNI VA SAVDO MADANIYATI

Z.E.Yuldosheva, magistrant, Osiyo Xalqaro Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Buxoro Amirligining XVIII asr oxiri - XX asr boshlaridagi bozor tizimini transregional iqtisodiy aloqalar va Yevroosiyo tarixi doirasida o'rganadi. Sharq va G'arbni bog'lovchi chorrahada joylashgan Buxoro Hindiston, Xitoy, Eron, Rossiya va Markaziy Osiyo o'rtasida tovarlar almashinuvida muhim tranzit va qayta taqsimlash markazi vazifasini bajargan. Maqolada tarixiy-iqtisodiy tahlil, ijtimoiy antropologiya va manbashunoslikni o'zida mujassam etgan multidisiplinar yondashuv qo'llaniladi.*

Kalit so'zlar: *Buxoro Amirligi, bozor tizimi, transregional savdo, Yevroosiyo iqtisodiyoti, savdo infratuzilmasi, ijtimoiy tabaqalanish, iqtisodiy integratsiya.*

Аннотация. *В статье рассматривается рыночная система Бухарского эмирата конца XVIII — начала XX веков в контексте трансрегиональных экономических связей и истории Евразии. Расположенная на перекрёстке Востока и Запада, Бухара выполняла функции важного транзитного и перераспределительного центра в товарообмене между Индией, Китаем, Ираном, Россией и регионами Центральной Азии. В исследовании применяется междисциплинарный подход, сочетающий историко-экономический анализ, социальную антропологию и источниковедение.*

Ключевые слова: *Бухарский эмират, рыночная система, трансрегиональная торговля, евразийская экономика, торговая инфраструктура, социальная стратификация, экономическая интеграция.*

Abstract. *This article examines the market system of the Bukhara Emirate from the late eighteenth to the early twentieth centuries within the framework of transregional economic relations and Eurasian history. Situated at the crossroads of East and West, Bukhara functioned as a significant transit and redistribution hub in the exchange of goods between India, China, Iran, Russia, and Central Asia. The study employs a multidisciplinary approach that integrates historical-economic analysis, social anthropology, and source studies.*

Keywords: *Bukhara Emirate, market system, transregional trade, Eurasian economy, trade infrastructure, social stratification, economic integration.*

Kirish. Buyuk Ipak yo‘li jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan tarixiy savdo va madaniy aloqalar tizimi hisoblanadi. Ushbu yo‘l orqali Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat tovarlar, balki ilm-fan, madaniyat, din va urf-odatlar almashinuvi amalga oshgan. Markaziy Osiyo, xususan Buxoro shahri Buyuk Ipak yo‘lining muhim chorrahalaridan biri bo‘lib, o‘zining qulay geografik joylashuvi va rivojlangan savdo infratuzilmasi bilan ajralib turgan. XVIII asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlariga qadar Buxoro amirligining bozor tizimini o‘rganish Yevroosiyo tarixiy jarayonlari va transregional iqtisodiy aloqalar doirasida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Sharq va G‘arbni bog‘lovchi asosiy quruqlik savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan Buxoro o‘zining qulay geografik mavqei tufayli nafaqat tranzit markazi, balki Hindiston, Xitoy, Eron, Rossiya imperiyasi hamda Markaziy Osiyoning turli hududlari o‘rtasida muomalada bo‘lgan tovarlarni qayta taqsimlovchi muhim markaz sifatida ham faoliyat yuritgan. Mazkur sharoitda Buxoro amirligi hududidagi bozor infratuzilmasini tanqidiy tahlil qilish o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini anglash, shuningdek, mahalliy bozorlarning kengroq global iqtisodiy tizimlarga qanday qo‘shilgani va ular bilan qanday o‘zaro aloqada bo‘lganini aniqlash imkonini beradi. Bunday tadqiqot mahalliy iqtisodiy tarix doirasidan chiqib, an’anaviy (pre-modern) bozorlarning global savdo jarayonlariga integratsiyalashuvi masalasiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar majmuasiga muhim hissa qo‘shadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi mavjud tarixshunoslikda mazkur masala bo‘yicha kompleks tadqiqotlarning kamligi, shuningdek, Sharqning an’anaviy shahar markazlari iqtisodiy hayotining asosiy mexanizmlarini chuqur o‘rganish zarurati bilan belgilanadi. Avvalgi tadqiqotlar asosan Buxoro tarixining siyosiy yoki diniy jihatlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa-da, uning iqtisodiy asosi, xususan bozorlar faoliyati yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois mazkur ishda bozor maydonlarining hududiy joylashuvi, tovar turlari bo‘yicha ixtisoslashgan bozorlar, narx belgilash mexanizmlari hamda savdo jarayonida ishtirok etgan turli ijtimoiy va kasbiy guruhlarning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, savdoni tartibga solish va nazorat qilish shakllarini o‘z ichiga olgan institutsional mexanizmlar ham o‘rganiladi. Tadqiqotda ichki savdo bilan xalqaro tovar ayirboshlash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratilib, savdo jarayonida muhim rol o‘ynagan vositachi tuzilmalar — savdogar uyushmalari (tujjorxonalar), rasmiy tarozibonlar, karvonboshi va davlat tomonidan tayinlangan nazoratchilar faoliyati tahlil etiladi. Ushbu tarmoqlar va ularning institutsional asoslarini yoritish orqali Buxoro bozor tizimining mahalliy iqtisodiy harakatlantiruvchi kuch sifatidagi hamda qit’alararo savdo almashinuvidagi muhim bo‘g‘in sifatidagi o‘rni ochib beriladi.

Mazkur tadqiqot arxiv hujjatlari, sayyohlar va musofirlarning qaydlari, ma’muriy hujjatlar kabi birlamchi manbalar, shuningdek iqtisodiy tarix va tarixiy geografiya sohasidagi zamonaviy ilmiy ishlarga tayanadi. Bu esa tadqiqotni mustahkam akademik an’analarga asoslagan holda Markaziy Osiyo iqtisodiy tarixiga doir yangi ilmiy qarashlarni ilgari surish imkonini beradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot tarixiy-iqtisodiy tahlil, ijtimoiy antropologiya va manbashunoslikni uyg‘unlashtirgan ko‘p tarmoqli metodologik yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot Buxoro amirligi doirasidagi bozor tizimi va uning dinamikasini har tomonlama anglash maqsadida sifat va miqdoriy usullardan birgalikda foydalanadi. Mazkur yondashuvning markazida tarixiy yilnomalar, diplomatik yozishmalar va sayohatnomalarni tanqidiy tahlil qilish turadi; ular kontent-tahlil metodlari asosida o‘rganiladi. Ushbu manbalar narxlar dinamikasi, tovar aylanishi hajmi hamda savdo balansi tarkibini o‘rganishga qaratilgan miqdoriy tahlillar bilan to‘ldiriladi, bu esa vaqt davomida iqtisodiy jarayonlarni tizimli ravishda qayta tiklash imkonini beradi.

Metodologik yondashuvning muhim jihatlaridan biri bozorlar joylashuvining makoniy xaritalanishi, bozorlarning tipologik tasnifi, savdo-logistika yo‘llarini rekonstruksiya qilish hamda savdoning mavsumiy xususiyatlarini tadqiq etishdan iboratdir. Ushbu unsurlar bozor infratuzilmasining ma’muriy va iqtisodiy sharoitlar doirasida qanday faoliyat yuritganini, shuningdek ichki va tashqi omillar ta’sirida qanday moslashganini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday murakkab va ko‘p qatlamli tahlil Amirlikning savdo arxitekturasini yanada nozik va chuqur talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqot manbaviy tarixshunoslikni empirik iqtisodiy ma’lumotlar bilan uyg‘unlashtirgan fanlararo tahliliy modelga asoslanadi. Ushbu integrativ strategiya Buxoro bozor tizimini Xiva, Qo‘qon, Eron va Rossiya imperiyasidagi zamondosh savdo modellari bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Bunday qiyosiy yondashuv orqali mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotning umumiy jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, Markaziy Osiyoning zamonaviydan oldingi davr bozor tizimlarining rivojlanishi haqidagi kengroq ilmiy munozaralarga hissa qo‘shiladi.

Mazkur tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri savdogarlar tabaqasining tuzilishi, savdo sohasidagi kasbiy tabaqalanish hamda bozor barqarorligini ta’minlashda hunarmandlarning tutgan o‘rnini tahlil qilishdir. Bu jihatlar faqat iqtisodiy vazifalar sifatida emas, balki Amirlikning siyosiy va madaniy tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy institutlar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Shu bilan birga, hozirgi ilmiy adabiyotlarda ayrim muhim masalalar yetarli darajada yoritilmaganini ta’kidlash lozim. Bular qatoriga bozor institutlarining faoliyati, savdoning mavsumiy ritmlari, siyosiy o‘zgarishlarning tijorat faoliyatiga ta’siri hamda savdo munosabatlarini tartibga solish va rivojlantirishda gildiyalar, savdogar oilalar va ma’muriy nazoratchilar kabi ijtimoiy guruhlarning roli kiradi. Ushbu tadqiqot ana shu bo‘shliqlarni turli xil birlamchi manbalarga tayangan holda va iqtisodiy antropologiya hamda mintaqaviy tarixdagi so‘nggi ilmiy yutuqlarni hisobga olgan holda to‘ldirishni maqsad qiladi.

Mazkur metodologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali tadqiqot nafaqat Buxoro tarixshunosligiga hissa qo‘shadi, balki uning bozor tizimi dinamikasini global iqtisodiy tarix va savdo antropologiyasi doirasidagi kengroq ilmiy muhokamalar kontekstida yoritadi.

Buxoroning geografik va strategik ahamiyati nihoyatda katta bo‘lib, qadimdan Markaziy Osiyoning muhim savdo markazlaridan biri bo‘lgan. Shahar Buyuk Ipak yo‘lining bir nechta tarmoqlari kesishgan hududda joylashgan bo‘lib, Xitoy, Hindiston, Eron, Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlarini bog‘lovchi karvon yo‘llari orqali faol savdo olib borilgan. Ushbu qulay joylashuv Buxoroning iqtisodiy rivojiga, shuningdek, xalqaro savdo aloqalarining mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Buxoroda savdo yo‘llari va karvonlar tizimi o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Buxorodan o‘tgan karvon yo‘llari Samarqand, Xiva, Marv, Balx va Toshkent yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘langan. Karvonlar ipak, ziravorlar, qimmatbaho toshlar, hunarmandchilik buyumlari, qog‘oz va metall mahsulotlarini tashigan. Buxoroda karvonsaroylar tarmog‘i rivojlangan bo‘lib, ular savdogarlar uchun qulay sharoit yaratgan.

Buxoro savdo madaniyati o‘ziga xos tizimga ega bo‘lgan. Shaharda maxsus ixtisoslashgan bozorlar faoliyat yuritgan: zargarlik, ipakchilik, misgarlik va kulolchilik mahsulotlari alohida savdo rastalarida sotilgan. Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon va Toqi Sarrofon kabi tarixiy savdo inshootlari Buxoro savdo madaniyatining yorqin namunasidir. Savdo jarayonlarida halollik, o‘lchov va tarozining aniqligi muhim axloqiy mezon sifatida qaralgan.

Buyuk Ipak yo‘li orqali Buxoroga turli xalqlarning madaniy ta’siri kirib kelgan. Savdo nafaqat iqtisodiy, balki madaniy integratsiyani ham ta’minlagan. Natijada Buxoro ilm-fan, diniy ta’limotlar va me’morchilik rivojlangan markazga aylangan. Savdogarlar orqali yangi g‘oyalar, til unsurlari va urf-odatlar tarqalgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro Buyuk Ipak yo‘lidagi muhim savdo markazi sifatida nafaqat iqtisodiy, balki madaniy taraqqiyotga ham katta hissa qo‘shgan. Savdo yo‘llari va savdo madaniyatining rivoji shaharni Sharq sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biriga aylantirgan. Ushbu tarixiy tajriba bugungi kunda ham Buxoroning turizm va madaniy merosini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bartold V.V. Turkiston tarixining madaniy hayoti. -Toshkent: Fan, 1990.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Asqarov A. O'zbekiston tarixi.- Toshkent: O'qituvchi, 2015.
4. Mavlonov O. Buyuk Ipak yo'li va Markaziy Osiyo. - Toshkent: Akademiya, 2012.
5. UNESCO. The Silk Roads: A New History of the World. - Paris, 2010.

UO'K 908

MUSTAQILLIKDAN KEYINGI O'ZBEKISTON TARIXIDA SIYOSIY MODERNIZATSIYA

Z.U. Yusupov, dots., Namangan Davlat Texnika Universiteti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustaqillikdan keyingi O'zbekiston tarixida siyosiy modernizatsiya jarayonlari, ularning bosqichlari va davlat boshqaruvi tizimidagi asosiy islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda demokratik institutlarning shakllanishi, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, konstitutsiyaviy islohotlar, davlat hokimiyati tarmoqlarining takomillashuvi hamda ochiq tashqi siyosat modelining mustahkamlanishi yoritiladi. Shuningdek, siyosiy modernizatsiyaning jamiyat hayotiga ta'siri, inson huquqlari kafolatlari va davlat boshqaruvida raqamlashtirish jarayonining ahamiyati ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Maqola O'zbekistonning siyosiy taraqqiyotini izchil tahlil qilish va kelajak strategiyasini belgilashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Siyosiy modernizatsiya, demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi, konstitutsiyaviy tuzum, siyosiy tizim, O'zbekiston, mustaqillik davri.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются процессы политической модернизации в Узбекистане в постсоветский период, анализируются основные этапы реформ государственного управления. Особое внимание уделено формированию демократических институтов, развитию гражданского общества, конституционным преобразованиям, совершенствованию системы разделения властей и укреплению модели открытой внешней политики. Также изучается влияние политической модернизации на общественную жизнь, обеспечение прав человека и роль цифровизации в государственном управлении. Исследование имеет значительную научную ценность для анализа политического развития Узбекистана и определения его дальнейших стратегических yo'nalishlari.*

Ключевые слова: *Политическая модернизация, демократические реформы, гражданское общество, государственное управление, конституционные изменения, политическая система, Узбекистан, период независимости.*

Abstract. *This article examines the processes of political modernization in Uzbekistan during the post-independence period, focusing on major reforms in the system of governance. It analyzes the formation of democratic institutions, the development of civil society, constitutional reforms, improvements in the separation of powers, and the consolidation of an open foreign policy model. The study also explores the impact of political modernization on societal life, human rights protection, and the growing role of digitalization in public administration. The research provides significant academic insights into Uzbekistan's political development and contributes to defining its future strategic directions.*

Keywords: *Political modernization, democratic reforms, civil society, public administration, constitutional reforms, political system, Uzbekistan, post-independence period.*

Kirish. Mustaqillik O'zbekiston tarixida yangi davrni boshlab berdi va mamlakatning siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotida tub o'zgarishlar uchun mustahkam zamin yaratdi. 1991-yilda davlat suverenitetining qo'lga kiritilishi natijasida O'zbekiston oldida demokratik jamiyat barpo etish, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan taraqqiyot yo'lini tanlash va milliy davlatchilikni modernizatsiya qilish kabi tarixiy vazifalar yuzaga keldi.

Siyosiy modernizatsiya jarayoni O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Dastlabki bosqichlarda davlat barqarorligini ta'minlash, mustahkam boshqaruv tizimini shakllantirish, konstitutsiyaviy asoslarni yaratish hamda ichki siyosatda izchillikni ta'minlash ustuvor vazifaga aylandi. 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat hokimiyatining

tashkil etilishi, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi, demokratik boshqaruv tamoyillarining hayotga tatbiq etilishi uchun asos bo‘ldi.

Keyingi bosqichda siyosiy modernizatsiya jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan holda, demokratiyaning institutsional asoslarini mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirish va saylov tizimini isloh qilish kabi yo‘nalishlarda davom etdi. Ayniqsa, 2016-yildan boshlab Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekistonda keng ko‘lamli siyosiy va ma’muriy islohotlar boshlandi.

Asosiy qism. Mustaqillikdan keyingi O‘zbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlari ko‘p bosqichli, izchil va keng ko‘lamli islohotlar bilan kechdi. Bu jarayonning boshlanishi 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mamlakat yangi siyosiy ijtimoiy tuzumga o‘tish davriga qadam qo‘ydi. Mustaqillik O‘zbekiston oldida yangi tarixiy vazifalarni – milliy davlatchilikni tiklash, demokratik siyosiy tizimni shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni qo‘ydi. Shu bilan birga, siyosiy modernizatsiya jarayoni davlat barqarorligini saqlash, jamiyatda ijtimoiy totuvlikni ta’minlash, milliy manfaatlarni ko‘zlab yangi tashqi siyosat yo‘nalishlarini belgilash kabi muhim ustuvor vazifalarni ham qamrab oldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida siyosiy modernizatsiyaning eng muhim yo‘nalishi mustahkam davlat boshqaruv tizimini shakllantirish, demokratik institutlar uchun konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratish va siyosiy barqarorlikni ta’minlash bo‘ldi. 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi siyosiy modernizatsiya jarayonida tub burilish yasadi. Konstitutsiya davlat hokimiyatining taqsimlanishi, sud-huquq tizimi, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi, davlatning ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosati kabi demokratik tamoyillarni mustahkamlab berdi. Shu tariqa, mamlakatda siyosiy modernizatsiyaning huquqiy poydevori yaratildi.

Siyosiy tizimning shakllanishi jarayonida O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tamoyillari joriy qilindi. Siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinib, ularning parlament va mahalliy kengashlardagi ishtiroki bosqichma-bosqich kengaydi. Biroq ushbu jarayon asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilgani sababli siyosiy maydonda barqarorlik, ijtimoiy totuvlik va davlatning bir butunligi saqlab qolindi. Bu esa o‘tish davrida siyosiy tizimni keskin o‘zgarishlardan asrab, izchil rivojlanish uchun muhit yaratdi.

Mustaqillikning dastlabki davrida siyosiy modernizatsiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida davlat boshqaruvi tizimini qayta tashkil etish, yangi institutlarni shakllantirish va ma’muriy boshqaruvni modernizatsiya qilish belgilangan edi. Vazirliklar va idoralarning qayta tashkil etilishi, ularning funksiyalarini optimallashtirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini qayta ko‘rib chiqish kabi o‘zgarishlar davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan edi. Mahalla institutining davlat boshqaruvidagi o‘rnini mustahkamlash, uni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida rivojlantirish ham siyosiy modernizatsiyaning muhim jihatlaridan bo‘ldi.

2016-yildan boshlab siyosiy modernizatsiya tamomila yangi bosqichga ko‘tarildi. Yangi siyosiy yo‘nalish – “xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyiliga asoslanib, ochiqlik, oshkoralik va fuqarolar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot mexanizmlari joriy qilindi. Davlat xizmatchilarining mas’uliyati oshirildi, ularning faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati kuchaydi. Prezident, parlament va hukumat o‘rtasidagi vakolatlar qayta taqsimlandi, Oliy Majlisning nazorat funksiyasi kuchaytirildi. Siyosiy institutlarning faoliyatini takomillashtirish maqsadida saylov tizimi isloh qilindi, saylov kodeksi qabul qilindi va saylovlarning oshkoraligi, raqobatbardoshligi ta’minlandi.

Shu tarzda, O‘zbekistonda mustaqillikdan keyingi siyosiy modernizatsiya jarayoni tarixiy jarayon sifatida izchil, puxta o‘ylangan va ijtimoiy-siyosiy vaziyatga mos ravishda amalga oshirildi. Bu jarayon davlat boshqaruvi tizimining takomillashuvi, demokratik institutlarning mustahkamlanishi, inson huquqlari va erkinliklarining himoya qilinishi hamda ochiq tashqi siyosat yuritilishi bilan tavsiflanadi. O‘zbekiston bugungi kunda modernizatsiya jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, siyosiy tizimni takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida izchil harakatni davom ettirmoqda. Shu bois siyosiy modernizatsiya O‘zbekistonning mustaqillikdan

keyingi taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida ilmiy tahlil qilishga muhtoj dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Mustaqillikdan keyingi O‘zbekiston tarixida amalga oshirilgan siyosiy modernizatsiya jarayonlari mamlakatning yangi davrdagi taraqqiyot yo‘lini belgilab beruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Umuman olganda, mustaqillikdan keyingi siyosiy modernizatsiya O‘zbekistonni barqaror demokratik taraqqiyot, ochiq jamiyat va kuchli fuqarolik institutlari sari yetaklayotgan strategik jarayon sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar kelajakda davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, jamiyatda siyosiy madaniyatni rivojlantirish hamda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, so‘nggi tahriri.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari (1991–2024 yillar). – Prezident.uz rasmiy hujjatlar to‘plami.

3. Mirziyoyev Sh.M. *Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak*. – Toshkent, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

5. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi 2017–2021”. – Toshkent, 2017.

6. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026”. – Toshkent, 2022.

7. Abdug‘aniyev A. *O‘zbekiston siyosiy tizimi: taraqqiyot bosqichlari va islohotlar*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

УЎК 39(555.3):599.69

ҚОРАҚАЛПОҚЛАРНИНГ КУНДАЛИКЛИ ТУРМУШ ҲАЁТИДА ОТЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ҲАҚИДА МАЪЛУМОТЛАР

А.Н. Аметов, Қорақалпоқ давлат университети, Нукус

Аннотация. *Ушбу мақолада эрта даврлардан бошлаб халқимиз тарихи билан чамбарчас боғлиқ бўлган от миллий ўйинлари турлари, юртимиздан чиққан айрим машҳур чавандозлар ва уларнинг тажриба усуллари, отларнинг халқимиз турмуш тарихидаги ўрни, от ўйинларининг келиб чиқиш тарихи, халқимизнинг турмушида отларга боғлиқ бир неча минг йиллардан буён шу кунгача етиб келган ва унутилиб бораётган миллий урф-одат, анъаналар, от миллий ўйинларининг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти, қорақалпоқларнинг кундалик турмушида отларга эътибор, отларга кўрсатилган тарбия, от ўйинларининг келиб чиқиш тарихи, от ўйинларининг совет давридаги ўрганилиши, отларнинг халқимиз турмуш тарзидаги туган ўрни ҳақида тарихий этнографик характердаги қимматли маълумотлар берилган.*

Калит сўзлар: *Ўзбекистон Республикаси, қорақалпоқлар, от ўйинлари, аргумоқ от, тулпор, қорабайир, халқ достонлари, кўпкари, йўлга чопиш, пойга турлари, бия, сайис, чавандоз.*

Аннотация. *В данной статье представлены ценные сведения историко-этнографического характера о видах национальных конных игр, тесно связанных с историей нашего народа с древних времен, некоторых известных наездниках, происходящих из нашей страны, и их методах тренировки, роли лошадей в истории быта нашего народа, истории происхождения конных игр, национальных обычаях и традициях, связанных с лошадьми, которые сохранились на протяжении нескольких тысячелетий и постепенно забываются, значении национальных конных игр в воспитании молодежи, отношении к лошадям в повседневной жизни каракалпаков, уходе за лошадьми, истории происхождения конных игр, изучении конных игр в советский период, неразрывной связи лошадей с образом жизни нашего народа.*

Ключевые слова: *Республика Узбекистан, каракалпаки, конные игры, аргамак, тулпар, карабаир, народные эпосы, кокпар, скачки по дороге, виды скачек, кобыла, коневод, наездник.*

Abstract. *This article provides valuable historical and ethnographic information on various aspects of horse culture among our people, including: types of traditional horse games that have been*

closely linked to our history since ancient times; notable horsemen from our land and their training methods; the role of horses in our people's way of life; the origins of horse games; national customs and traditions related to horses that have persisted for thousands of years but are now being forgotten; the importance of traditional horse games in youth education; the significance of horses in the daily life of Karakalpaks; horse rearing practices; the historical development of horse games; the study of horse games during the Soviet period; and the integral place of horses in our people's lifestyle.

Keywords: *Republic of Uzbekistan, Karakalpaks, horse games, arghumoq horse, tulpor, karabair, folk epics, kopkari, long-distance racing, types of races, mare, horse trainer, horseman.*

Қорақалпоқлар ҳам бошқа халқлардаги каби қадимдан отга қизуқувчанг халқ бўлганлиги сабабли, уларни ўстириб кўпайтириш ва фойдаланишни яхши йўлга қўйган. Отларни ҳар ким ҳам боқиб етиштиришни эплай олмаган. Айниқса от билан боғлиқ халқ ўйинларида қатнашадиган отларнинг алоҳида боғлами бўлган. Бу касб билан шуғулланадиган махсус одамлар халқимиз орасидан кўплаб етишиб чиққан. Уларни сайислар деб атаган. Шунинг учун ҳам отбоқар ва чавандозларнинг хизмати бир-бири билан чамбарчас боғлиқ, уларнинг машаққатли меҳнатларини ўрганиш орқали халқимизга етказсак ва уни кенг тарғибот ишларини олиб борсак, келажак ёшларимизни ҳам отларга ва уларни парваришлаб тўй, байрамларда чопиб юрган отбоқар ва чавандозларимизга ҳам катта ҳурмат билан қараган бўламиз. Чунки уларда халқимиз тарихининг катта бир бўлаги бор.

Қорақалпоқ халқи қадимдан жанубий Орол бўйларида истиқомат қилиб деҳқончилик билан бирга чорвачилик, овчилик, балиқчилик ва бошқа касблар билан шуғулланган. Чорвачилик билан асосан кўл атрофлари, Қизилқум ва Устюрт текислигида яшаган халқлар шуғулланган. Чорвадорларнинг асосий куч воситаси отлар ҳисобланган. Чорвадорлар бир жойдан иккинчи жойга кўчганда, молларни яйловларга боқишда асосан отлар катта роль ўйнаган.

Деҳқончилик билан шуғулланган халқнинг ҳам асосан хўжалик ишларида, деҳқончилигида, транспорт ишларида куч воситаси сифатида отлардан фойдаланган. Катта эътибор берадиган масалаларнинг бири қорақалпоқ халқида қанча достон бўлса барчасида деярли отнинг образи куйланади. Отларнинг достондаги куйланиши ҳам ижобий қилиб кўрсатилади. Масалан Едиге достонидаги мана бу сўзларда бекорга айтилмаган.

Онаси шамолдан туғилган
Сув тулпордан бўлган
Шамол биядан туғилган
Буғирчин эди Оқча от [2, 41-42].

Булар отнинг қушдай учишини таърифлаш учун фойдаланилган метафоралар, лекин "сув тулпор" сўзи, отнинг қўлтиғи остидаги қанотлари ҳақидаги маълумотлар кишини ўйлантиради. Отлар табиатнинг ажойиб инъоми бўлиб, ғайрат ва шижоат, улуғворлик ва матонатни ўзида мужассам этган. Чопиб бораётган отларни шамол ёки қуёшга ўхшатиш ҳам бекорга эмас. Ҳатто одамлар учишга қодир бўлган қанотли отлар борлигига ишонган. Бундай учқур отлар ва сув отлари ҳақидаги фикрлар дунё ва Ўрта Осиёнинг барча халқларининг тарихий эпосларида ҳам учрайди [1, 45].

Юнонларнинг Гомер яратган Одессия эпосида ҳам Одиссейнинг номи сув тулпоридан пайдо бўлган деб берилади. Демак сув айғирлари билан қир бияларининг қўшилишидан тулпор отни туғдириш усули дунё халқларида қадимги даврлардан бери борлиги маълум [1, 46].

Яқин ўтмишимизда ҳам республикамизнинг ҳудудларидан ҳам номи тиллардан-тилларга афсона бўлиб айтилиб юрган арғумоқ отлар етишиб чиққан. Бу отлар тўй томошаларда, байрам саилларида қурга йиғилганларга томоша бериб халқнинг кўнглини хушлаган.

Шунинг учун ҳам бизнинг ота-боболаримиз ҳақида сўз юритилганда отлар ҳақида гап боради. Бунга мисол қадимги даврлардаги ёзма манбаларда Бақтрия, Сўғдиёна ва Хоразмликларнинг нариги томонида "Шамолдек эсиб чопиб юрган отлиқ кўчманчи турлар"

саклар жойлашганлиги ҳақида айтилади. Форс манбаларида турлар-саклар деб аталади, юнон муаллифларининг асарларида эса турлар-скифлар деб аталиб, кўчманчи чорвадорларнинг скифлар номи кўпчилик илмий адабиётларда қабул қилинган [6, 335].

Сакларнинг отда юриш маҳорати ҳақида, айниқса аёл-қизларда яхши ўрганилганлиги ҳақида кўплаб тарихчилар маълумотлар беради. Юнон тарихчиси Эфор (милоддан аввалги 405-330 йиллар) сакларни адолатли кўчманчилардан чиққан, ўлжа, бойликка берилмайди, бир-бирига адолатли муносабатда бўлади, эркаклар ва аёллар ўртасида тўлиқ тенглик бўлган, аёллар жангларда эркаклар билан бир қаторда қатнашган, аёллар камондан яхши отишни билган, улар буни отда туриб орқага қараб турган ҳолда ҳам бажара олган - деб ёзса, юнон сайёҳи Дионисий Периэгит саклар ҳақида: "Сўғдиёна ортида, Яксарт (Сирдарё) оқими бўйлаб ўқ отади, ўқи зое кетмайдиган, дунёдаги энг моҳир камончи саклар яшайди," - деб ёзган эди. Шу орқали аёл-қизлар эркаклар билан бирга Ватан ҳимояси ишида жанг олиб бориш усулларини ҳам яхши ўзлаштирганлигини кўришимиз мумкин [5].

Шу шамолдек учқур отларни миниб чопиб кўчиб юрган халқ қорақалпоқларнинг ота-боболари эканлиги маълум. Бугунги кунда халқ орасида катта шуҳрат ва обрўга эришиб учқур, чопқир, шунқор шамолдек эсадиган, тулпор, арғумоқ, бедов от деб аталиб юрган отлар кўпчиликни ташкил этади. Арғумоқ отлар бизнинг яқин кунларимизгача ҳозирги кунимизда ҳам халқимиз орасида етиштирилиб чиқяпти. Бундай отлар ҳақиқий эгасининг қўлига тушмаса умр бўйи фақат миниш ёки кўлик от аталиб, бўлмаса қанчадан-қанчаси молхоналарда гўшт бўлиб кетмоқда. Бунга мисол тариқасида 1950 йиллари Хўжайли туманидаги "Қатеп" колхозининг мол семиртириш базасига Республикамизнинг барча жойларидан гўшт комбинатига сўйиш учун мол, йилқиларни оёғидан ҳайдаб келиб, навбати келган кунгача ёйиб боқиладиган эди. Кунларнинг кунида бу ерга сур байтал билан ғунон сўйиладиган куни яқинлашган сари тинмай кишнаб ўзларини қўярга жой тополмай бош сақлаб қочмаганига ҳайрон қолибди. Туш пайтида, қоннинг бад ҳиди бурун ёрган ҳовлига ҳайдаб борса остонасига оёқ тирайди. Туриб-туриб бир пайтлари уч пахса баланд девордан кетма-кет "учиб" сакраб ўтиб, денгиз томонга қочса изидан машинали қувган. Жониворлар бир-биридан ажралмай, қўш-оёқлаб йўл билан чопа беради. Изидан тушганлар қоронғига қолмай кўз ёзиб қолишдан қўрқиб, милтиқ билан отади. Жон ерига ўқ теккан отларни ҳалоллаш учун бўғзига пичоқ солиб туриб, қўлтиғида қўл сиғадиган тешикни, ундан жўжанинг темир қанотидек бир нарсанинг пириллаб турганини кўрган [7, 87].

Советлар тузумнинг манзилини сўрамасдан барча нарса давлатники деган шиор билан ўта учқур арғумоқ отларнинг қанчадан-қанчаси гўшт комбинатларида гўштга айланиб кетди, бўлмаса айримлари колхоз ишларида, деҳқончиликда фойдаланилди. Совет тузуми даврида уйида от, мол, қўй-эчки боқишга шахсий қилиб боқишга тақиқ қўйилганлиги сабабли қанчадан-қанча зотдор отларимиздан айрилдик. Лекин шунга қарамасдан от ишқибоз халқимиз ўзида бор имкониятлардан тўғри фойдаланган ҳолда қўлда бор отларни яхшилаб парваришлаб, тарбиялаб, парвариш қилиб арғумоқ отлар қаторига киритиб келган.

Аввалги йиллари Тўк тоғининг этагида қора кўлнинг бўйида "Жалбир тўри" деган тулпор чиқиб, 17 йил юрт орасида чопибди. Унинг Жалбир тўри деб аталиши пешонасида туғма латта ялпираб турадиган бўлган, шундан жалбир тўри аталибди. Ялбар тўрининг чопишини кўрган одамлар 1990 йил охиригача умр кўрганлиги халқ орасида айтилиб келмоқда. Халқ орасида сўнгги йилларда "Тумарли," "Беклар бекининг тарлони," Хива хони пойгаси синовга олган "Кўк от," 1960 йилларда "Қула қашқа," каби ўта чопқир тулпар отлар етишиб чиққан. 1960 йиллари Аспантой томонидан "Жўллибой қашқа," Шарап махсумнинг "Кўк ёл" оти, "Изен қашқа"дай чопқир тулпорларнинг тенги бўлмаган [9,28].

Оғиздан-оғизга ўтиб келаётган гапларга қараганда 1920-1930 йиллари денгиз қирғоқлари ҳувиллаган Устюртда "Тарпан" деб ном олган ёввойи, дум ёли тикка ўсган соатига 100 чақиримни кўрдим, билдим демайдиган асов йилқиларнинг ўзгача бир зоти туркум-туркуми билан яйилиб юрган. Кўрган билган одамларнинг таърифлашича "Тарпан" ларнинг аъзолари сом темирдан қуйиб қўйгандек беўхшов, чиройлиликдан битиб қолган экан. Тарпанлар ёввойи йилқи бўлганлиги учун ногаҳон қўлга тушса ҳам "бош" ўрганмай кетган. Денгиз бўйлаб

йилқиларнинг четидан чопқир тулпор бўлиши Тарпанларнинг таъсири деб тушунганимиз ҳақиқатга бироз мос келади. Югурук тулпар отлар ҳақида "Қумайтози" афсоналари алоҳида ўринга эга. Ўта югурук қанотзотга: "Осмондан худо олмаса, ердан қумой този етмаса тўрт оёғини тенг босган қилқуйруқ чақ қилмас [6,87].

Отлардаги меҳр-муҳаббат, инсонларга хос туйғуларга эга бўлишини кўрсатадиган асарлар ёзувчиларимиз томонидан ёзилган. Уларнинг қаторида қорақалпоқ адабиётининг ривожланишига салмоқли ҳисса қўшган машҳур ёзувчи Гулайша Есемуратованинг "Жийрен" қиссаси ҳисобланади [3,95-96].

Отларнинг ҳаётдаги ўрни илмий ва бадиий адабиётларда илгари жуда кам тасвирлангани маълум. "Жийрон" қиссаси орқали отнинг инсонга қандай даражада эътиборли дўст эканлигини кўрамиз. Ёзувчи Гулойша опа Есемуратованинг "Жийрон" қиссасида отни ҳар томонлама ижобий ва таъсирли қилиб кўрсатиб беради. Асарга эътибор бериб ўқиган ҳар бир инсон, отдаги яхши фазилатларни англайди.

От билан боғлиқ илмий адабиётларда кўрсатилган фикрларнинг бири мисолларда кўрсатилган кўпкари ўйини ҳақидаги кўринишларни тарихчи олимлар Х. Есбергенов ва Т. Атамуратовнинг биргаликда 1975 йили рус тилида нашр этилган "Традиции и их преобразование в городском быту Каракалпаков" номли китобидан кўриш мумкин. Ушбу илмий китобда олимларнинг кўрсатиб ўтганидек халқимизнинг тарихида катта мафкуравий ва иқтисодий йўқотиш олиб келган тўйлардан бири "Бурнашев тўйи" деб аталиб, у 1932 йили Чимбой шаҳрида бўлиб ўтиб ўзининг характери бўйича Бурнашев тўйи иқтисодий ва сиёсий характерга эга бўлиб, у ҳақида халқ ҳозиргача эсида сақлаб келмоқда. Бу тўй 1930 йиллардаги таъқиб ҳаракатларига қарамасдан пахтачилик тарбияси вақтида ўтказилиб, тўйга бир қанча одамлар, шу жумладан чавандозлар йиғилиб, ўтказилган кўпкари ўйини вақтида бир қанча гектар ердаги пахта далаларини вайрон қилиб кетган. Шу туфайли кўплаб одамлар қамоққа олинади [4,33-35].

Бу тўй ҳақида Эркин Қорақалпоғистон газетасида чоп этилган мақолада қисқача маълумотлар бериб ўтилган [10]. 1932 йилнинг август ойи бўлса керак. Чимбой тумани молия бўлими инспектори Ахмедий Бурнашевнинг тўйи жуда катта дабдаба билан ўтди. Асқарбойнинг боғидаги катта ҳовузнинг бўйига оқ ўтовлар тикилди, чор тарафдан меҳмонлар келди. Улар-Тошҳовузнинг туркманлари, Устюртни яйлаган адайлар, Хоразмнинг ўзбеклари, хуллас тўйлаб келганларнинг ҳисоби йўқ эди. Кутими зўр бўлди. Бахшиси Қаражон, жирови Ерполат кепа.

От чопиши эртасига эрталабки салқин билан бошланди. Йўлга отлар Чимбой-Эшонқалъа оралиғига юборилди, кўпкари "Аршан кабир"да ўтди. Барча бало шу кўприкдан бошланди. Туман раҳбарлари, айниқса, райкомнинг ташкилий бўлимининг бошлиғи Шиникул Аманбаев шу ҳудуддаги машҳур чавандозлар - чаққонли Жуманазар девни, Тажимурат тайпоқни, кўнчили Қудиёр калди, қозоёқли Эсжон чавандозни ва буни бошқариб, 40-50 отлиқ йиққан эди. Бош соврини-туя, солимга бир ёшли ужоқ қўйилган [10].

Қорақалпоғистонда давлат даражасидаги от спортининг тарихи ўтган асрдан бошланади. Шундан бери бир неча ўн йиллар давомида отлар спортга оммавий жалб этиб келинмоқда. Уларнинг миллий спорт турлари ривожидаги хизмати катта. Қорақалпоғистонда от спорти ўтган асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб ривожлана бошлади. 1960 йилда Тўрткўл туманида биринчи от спорти клуби ташкил этилади. 1965 йили от спорти клуби Нукус туманининг "Нукус" хўжалиги ҳудудига кўчириб келтирилди. "Қизкеткен" каналининг бўйидан клуб учун майдон ажратилиб, отхоналар қурилди, от сейисланадиган майдончалар қилинди. Спортнинг бу турини алоҳида йўлга қўйиш учун етарли шароитлар яратилди, бироқ Республикамизда от спортини мукаммал биладиган мутахассисларнинг, малакали мураббийларнинг етишмаслиги сезилиб турди. Шунинг учун шундай пайдо бўлган масалаларни ҳал этиш учун 1978 йили Ўзбекистон Республикаси жисмоний тарбия ва спорт бўйича Давлат Қўмитасининг йўлланмаси билан Қорақалпоғистонга юборилган Владимир Тимофеэвич Киреэв ўлкамизга келиши биланоқ ишга енг шимариб киришди [8].

Орадан кўп вақт ўтмай от спорти бўйича Ўзбекистон миқёсидаги мусобақаларга Қорақалпоғистонлик чавандозлар ҳам қатнаша бошлади. Бу ўлкамизда ташкил этилган биринчи от спортига ихтисослашган клуб эди. Бу клуб бир неча йиллар фаолият юритиб, кўплаб натижаларга эришди. Лекин бу 2003 йилда ташкил этилган Қорақалпоғистон йилқичилик от спорти ва улоқ кўпкари федерацияси даражасидаги кенг қамровли федерация эмас эди.

Хулоса қилиб айтганда, собиқ иттифоқ даврида халқимиз турмушида катта ўрни бор отларга боғлиқ илмий тадқиқот ишлари олиб борилмаган. Шунга қарамасдан халқимизнинг кундалик турмушида транспорт, чорвачиликда ва қишлоқ хўжалигида куч кўлик, отлар қатнашадиган миллий ўйинларда, отнинг инсон йўлдоши сифатида қадимги даврлардан бошлаб ҳар томонлама катта аҳамиятга эга эканлиги кўрсатилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Баҳадырова С. Қарақалпақ қандай халық. Т., 2017
2. Едиге дәстаны//Қарақалпақ фольклоры. 9-13-томлар. Т.2009.
3. Есемуратова Г. Жийрен. Нөкис. 1985.
4. Есбергенов Х., Атамуратов Т. Традиции и их преобразование в городском быту Каракалпаков. Нукус. 1975.
5. Қудияров А. «Ҳаслы нашар демең бизди, ағалар»// «Еркин Қарақалпақстан» газетасы. 8-март 2003-жыл.
6. Мамбетуллаев М., Төребеков М., Юсупов О. Қарқалпакқстан тарийхы Нөкис. 2010.
7. Өтеўлиев Ө. Алым көк. Нөкис. 2004.
8. Сатаев А. «Жылқы десе жанын берип»// «Еркин Қарақалпақстан» газетасы 2009-жыл 26-февраль.
9. Сейтаев Б. Шабандозлар. Н 2009.
10. Халмуратов А., Ҳәр елдиң өз «дәў»и болғанға не жетсин ?! «Еркин Қарақалпақстан» газетасы. 17-июль 2008-жыл. №86. (18612)

УЎТ:74.165

УМАР ҚУРБОНИЙ МЕРОСИНИНГ ТАРИХИЙ АҲАМИЯТИ

С.Ҳ.Ғанжаров, магистрант, Tashkent International University of Education, Tashkent

Аннотация*. Мазкур мақолада Хоразм матбаачилиги, матбуоти тарихини ўрганишда Умар Қурбоний меросининг илмий, тарихий аҳамияти ёритилган. Шу билан бирга Умар Қурбонийнинг Хоразмдаги тарихий жараёнлардаги иштироки, ҳаёти ва фаолияти ҳам ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *Матбаачилик, матбуот, Хоразм, Хива, газета, архив, мерос, тарих, китоб, шеър, адабиёт.*

Аннотация*. На этой статье и говорится об истории хорезмской прессе, о печати, и о наследии оставленным Умара Курбани с научной и исторической стороны. Вместе с этим здесь говорится о его участии, деятельности во всех сферах исторической развитии Хорезма, в культуре и в истории в том числе.*

Ключевые слова: *типография, пресса, Хорезм, Хива, газета, архив, наследие, история, книга, поэзия, литература.*

Abstract. *This article highlights the scholarly and historical significance of Umar Qurboniy's legacy in studying the history of printing and the press in Khorezm. It also sheds light on Umar Qurboniy's life, activities, and his participation in historical processes in Khorezm.*

Keywords: *Printing, press, Khorezm, Khiva, newspaper, archive, heritage, history, book, poetry, literature.*

Жамиятдаги ҳар бир соҳанинг ўзига хос тарихи, маълум бир касбга асос солиниши, шаклланиши ва ривожланиш босқичлари борки, бу жараённи ўрганиш, тадқиқ, тарғиб қилиш катта аҳамиятга эга. Негаки, Ватан тарихини ўрганиш, ўтмишдаги жараёнларни таҳлил этиш, ундан бугун ва келажак учун холис, ҳаққоний хулоса чиқаришда бу сингари соҳаларга бағишланган китоблар ҳам мозий саҳифаларининг тўлиқ бўлишига хизмат қилади. Негаки япон файласуф адиби Р.Акутагава "тарих саҳифалари йиритилган китобга ўхшайди" дея

ёзганди. Акутагава таъкидлаган йиртилган тарих китобини бутун, яхлит ҳолда ўқиш учун ҳам жамиятдаги маълум барча соҳалар тарихи тадқиқ қилиниши лозим.

Маълумки, бугун гарчи интернет ривожланган, турли ижтимоий тармоқлар, сайтлар оммалашган даврда телевидение, радионинг ҳам ўзига хос ўрни бўлганидек, матбуотнинг ҳам мухлислари мавжуд. Қолаверса, матбуот нашрлари мушоҳада, мулоҳазаларни батафсил ёзиш, жараёнларни тафсилотлар билан бериш учун ҳам қулай. Бутун дунёдаги сингари республикамизда ҳам матбуот нашрларининг сайти, ижтимоий тармоқларда саҳифалари мавжудлиги, газета-журналлар ҳам тезкор замонга мослашгани, тарғиботни йўлга қўйганлигининг далолатидир.

Маълумки, матбуотни матбаачиликсиз тасаввур қилиш қийин. Ўрта Осиёда матбаачиликка асос солинган ҳудуд эса Хоразм бўлиб, биринчи ўзбек матбаачиси Отажон Абдолов бўлгани тарихий ҳақиқат.

Хоразм матбаачилиги ва матбуоти Отажон Абдолов чоп этдирган "Инқилоб қуёши" газетасининг вилоятда сақланаётган энг дастлабки сонлари фақат 1936 йилга оиддир. Бироқ Хива шаҳридаги Умар Қурбоний авлодларида эса Отажон Абдолов чоп этдирган почта конвертлари, матбаахонада босилган расмий ҳужжатлар, "Инқилоб қуёши" газетасининг 1920 йилдан бошлаб турли сонлари, вилоят ва республиканинг турли туманларида нашр этилган вақтли матбуот тахламлари ноёб мерос сифатида авайлаб сақланмоқда.

Негаки, Умар Қурбоний ҳам Хоразмнинг маърифатпарвари шоири ҳамда Отажон Абдолов матбаахонасида фаолият кўрсатган ижодкор бўлган. Шунингдек у Хоразмнинг турли ҳудудларида театр, газеталар ташкил этилишига ўз ҳиссасини қўшган актёр, драматург, шоир ва матбаачи сифатида тарихда қолган.

"Умар Қурбонийнинг асли келиб чиқиши Хонқанинг Сарапоён қишлоғидан бўлиб, 1903 йилда туғилган эди. Умар Қурбоний номи билан тарихда қолган маърифатпарвар шахснинг отаси ҳунарманд мисгар, онаси эса уй хизматида бўлган.

Маълумки 20 аср бошлари, айниқса 1920 йилдан кейинги давр ғоятда алғов-долғовдан иборат бўлиб, Хоразмда кўплаб жараёнлар халқ, жамият турмушида фожиали акс этди. 1920 йилда Хива хонлиги тугатилгиб, Хоразм халқ республикасига асос солинган бўлса, 1924 йилда республика ҳам тугатилди ва Хоразм округига асос солинди.

Умарнинг отаси 1919 йилда вафот этган ва бу пайтда у атиги 16 ёшда эди. Шу пайтгача у 7-8 йил давомида эски мактабда, сўнгра Хонқадаги жадид мактабида таҳсил олганди.Умар Қурбонийнинг жадид мактабидаги таҳсили унинг ҳаётида бурилиш, сийратидаги ижодкорлигини юзага чиқариш имкони бўлди. Айнан ана шу янги усул мактаби давридан у шеърлар ёза бошлади. Бироқ у пайтда Хоразмда матбуот бўлмагани боис, шеърларини чоп этдираолмас, фақатгина мактабдаги ўқитувчиларига кўрсатиб, улардан маслаҳат оларди"(1).

Табиийки оила боқувчисининг вафот этиши, қолаверса ҳаётнинг оғирлиги уни рўзғорни тебратишга мажбур қилди. Натижада у ота касби-мисгарликни давом қилдирди. 1921 йилда 18 ёшли Умар Қурбонов Хивага келади ва Бекжон Раҳмон ташкил қилган Хива халқ университетига ўқишга киради. "Инқилоб қуёши" газетасининг фаол мухбирларидан бири сифатида матбуотда ўз ижод намуналари билан қатнаша бошлайди.

"Инқилоб қуёши" таҳририятида Бекжон Раҳмон, Афзал Тоҳиров, Марям Султонмуродовалар билан ҳамкорлик қилади.Улардан устоз сифатида ижод сирларини ўрганади. Ана шу билан бирга Отажон Абдаловнинг матбаахонасидаги нашр ишларида ҳам иштирок қилади. Шу тарзда матбаачиликга, адабиётга, журналистикага бўлган ихлоси янада ошади.

Табиийки давр фарзанди сифатида ана шу замон жараёнларида иштирок қилади. Ҳаттоки 1924 йилдаги Хива қамалида иштирок қилади. Шу билан бирга деворий газеталар чиқариш, уларга мақолалар ёзиш, ҳаваскор санъаткорлар билан концертлар ташкил этиш, матбаачиликни ривожлантириш ишларига бош бўлади.

"1925 йилда Бекжон Раҳмон Хоразм округ халқ таълими бошқармаси бошлиғи сифатида, бир гуруҳ ёшларни Москва, Ленинград, Боку, Тошкент шаҳарларига ўқишга юборишга бошчилик қилади. Шу тариқа Хоразмлик бир гуруҳ ёшлар, шулар қаторида Полёз Абдуллаев,

ҳамда Умар Қурбонов ҳам Боку шаҳрига ўқишга юборилади. Бироқ ўзгача иқлим, денгиз бўйидаги салқин, нам ҳаволи шаҳарда ўқишни тамомлаш жазирама ўлкадан келган Умаржонга насиб қилмади. Негаки тез-тез хасталаниш сабаб у врачлар маслаҳатига кўра Хоразмга кетишга мажбур бўлади.

Умаржон Қурбонов Хоразмга келгач, давр давъати ва ўзининг шижоати асосида ёшлар ташкилотида фаолиятини давом этдиради. Болалар ва ёшларни мактабларга жалб этиш, маданий-маърифий тадбирларни ташкил қилиш, иқтидорли ёшларни адабиёт, санъат, матбуот, матбаа соҳаларига жалб этишга бош бўлади. Ҳаттоки Хўжайли шаҳридаги мактабда ишлаётган жадид ижодкор Ҳамза Ҳакимзода билан ҳамкорлик қилади" (2).

Сўнгра Гурлан туманида мактаб, кутубхона, клуб, деворий газета, ҳаваскорлар тўгараги ташкил этишга маъсул бўлиб фаолият кўрсатади. Кейин эса Хивага келиб "Инқилоб қуёши" газетасида адабий ходим бўлиб ўз ижодий парвозини давом этдиради.Бу пайтга келиб туманларда ҳам газеталар нашр этишга эҳтиёж пайдо бўлганди. Ана шу зарурат сабаб Хонқада "Қурилиш", Гурланда "Колхоз тили", Қаршида "Социализм алангаси", Ғузорда "Ғаллачи", Янгиариқда "Ленин йўли", Хивада "Коммунизмга" газеталарини ташкил этиш, ва уларда адабий ходим, масъул котиб сифатида фаолият кўрсатади.Шу билан бирга туманларда ташкил этилган колхоз театрларида адабий эмакдош, режиссёр сифатида ўз иқтидорини намоён этади.

"1933 йилда Тошкентда нашр этилаётган "Маданий инқилоб" газетасига ишга таклиф қилинади.Шу билан бирга " Муштум" журнали билан ҳам ҳамкорлик қилади. Айнан ўзидаги иқтидор, шижоат боис, яратган шеърлари, мақолалари, пьесалари билан шу даврда Умар Қурбоний номи билан довруқ таратади.

Маълумки, 1940 йилда туманлардаги барча колхоз театрлари Хивадаги вилоят театрларига бирлаштирилади ва чин маънодаги профессионал санъаткорлардан ташкил топган Хоразм театри шакллантирилади. Умар Қурбоний айнан ана шу ташкилий ишга маъсул бўлди ва ўз хотираларида бу даврдаги қийинчиликларни ҳам қоғозга туширганди: " театр учун саҳна, мавзуга оид декорация, кийимлар, бутафория буюмлари, мусиқа асбоблари, овоз кучайтиргич, рассомлик ишларига эҳтиёж сезилади.Айнан ана шуларсиз театр шаклланмайди ва шулар бўлмаса санъатсеварларни театрга жалб қилиб бўлмайди. Давр қийинчиликлари боис, театрга керакли зарур нарсаларни ўз уйимиздан олиб келардик" (3),

Давр қийинчиликлари, қолаверса зарурат боис, Умар Қурбоний театр бадиий раҳбари, актёр, рассом, саҳна устаси сингари вазифаларни ҳам ўзи қилишнинг уддасидан чиқади. Негаки ҳаёт тажрибаси, турмуш ташвишлари ва табиийки ҳамма нарсани ўзи эплаб бажаришдек уддабуронлик сабаб, Умар Қурбонийда профессионаллик шаклланганди. Маълумки, 1920 йилгача театр ташкил этилмаган. Халқ сайллари, оммавий байрамлар, тўйларда иқтидорли санъаткорлар масхарабозлик шаклидаги томошаларни кўрсатиб келган ва бу санъат тури кейин, ҳозир ҳам давом этган, этмоқда.

Аммо театр драматургия, режиссёра, актёр ва бошқа шу сингари саҳнага оид профессионаллардан ташкил топадиган санъат тури эди.Табиийки бунга инсонларни кўниктириш, қолаверса халқнинг қизиқишини ошириш учун санъаткорлар тинимсиз ишлашган. Ҳаттоки, Умар Қурбоний ҳам кўплаб ролларни профессионал даражада ижро қилган. Яъни Бокуда таҳсил олган Умар Қурбонийда Кавказнинг профессионал театрига ҳавас уйғонганди. "Аршин мол олон" пьесасининг матнини ҳам Бокудан олиб келганидан, уни Хоразмда саҳналаштириш, Вали ролини ижро этиш ҳам, Умар Қурбоний зиммасига тушди.Бу тақдимотни эса у қойилмақом қилиб уддалади ва санъаткорлар айнан унинг раҳбарлиги, ташкилотчилиги, маҳорати боис халқ меҳрини қозонди.

"Умар Қурбоний ана шундай серқирра иқтидор эгаси бўлгани боис, саҳналаштирилган драмалар, ташкил қилган матбуот нашрлари ва давр даъвати боис маданий-маърифий ишлардан ортиб, ўзидан бой ижодий мерос қолдирди. Умар Қурбонийнинг ижод намуналари 3 та шеърий тўплам ҳолида нашр этилган. Жами бўлиб эса шеърлари сони 590 та бўлиб, 12 минг 570 сатрдан иборат" (4).

Афсуски, иқтидорли ижодкор ва маърифатпарвар шахс Умар Қурбоний хасталик боис 1958 йилда бевақт вафот этди.Умар қурбонийнинг мероси Хоразм тарихидаги жараёнларни,

хусусан матбаачилик, матбуот ,адабиёт ва драматургия соҳаларини тадқиқ қилишда муҳим илмий аҳамиятга эга ноёб манбаа ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Зуҳур Қурбоновнинг хотиралар дафтаридан.№ 2.Хива шаҳари 2010 йил.

2. У.Бекмуҳаммад, С.Самандар "Матбаачилик асосчиси ва жадид маърифатпарвари", "Дурдона" нашриёти, Бухоро-2025 йил, 34-бет.

3. У.Бекмуҳаммад, С.Самандар "Хоразм матбаачилиги ва матбуоти тарихи", "Дурдона" нашриёти, Бухоро-2025 йил, 98 бет.

4. Умар Қурбоний мероси. Хива шаҳари, З.Қурбоновнинг шахсий архиви.№ 18 дафтар.

УДК 930.1

ҚАРШИ ЧЎЛИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИДА ДЕМОГРАФИК ЎЗГАРИШЛАР ВА АҲОЛИ МИГРАЦИЯСИ (ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

И.Р. Қултўраев, таянч докторант, Қарши Давлат Университети, Қарши

Аннотация. *Мазкур мақолада Қашқадарё вилояти, хусусан Қарши чўлини ўзлаштириш жараёнида амалга оширилган ижтимоий-иқтисодий сиёсат, суғориш лойиҳалари ва уларнинг демографик жараёнлар, айниқса аҳоли миграциясига кўрсатган таъсири илмий таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *Қарши чўли, Қашқадарё вилояти, суғориш, янги ерларни ўзлаштириш, аҳоли миграцияси, меҳнат ресурслари, демографик жараёнлар.*

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ социально-экономической политики, реализованной в процессе освоения Каршинской степи в Кашкадарьинской области, ирригационных проектов и их влияния на демографические процессы, в особенности на миграцию населения.*

Ключевые слова: *Каршинская степь, Кашкадарьинская область, ирригация, освоение новых земель, миграция населения, трудовые ресурсы, демографические процессы.*

Abstract. *This article provides a scholarly analysis of the socio-economic policies implemented in the process of developing the Qarshi steppe in the Kashkadarya region, irrigation projects, and their impact on demographic processes, particularly population migration.*

Key words: *Qarshi steppe, Kashkadarya region, irrigation, development of new lands, population migration, labor resources, demographic processes.*

Кириш. XX асрнинг иккинчи ярмида Ўзбекистон ҳудудида амалга оширилган йирик мелиорация ва ирригация лойиҳалари иқтисодий ривожланиш билан бир қаторда ижтимоий-демографик ўзгаришларни ҳам келтириб чиқарди. Шу жараёнда Қарши чўлини ўзлаштириш алоҳида аҳамият касб этиб, у қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини кенгайтириш, янги иш ўринлари яратиш ва аҳоли жойлашув тизимини қайта шакллантиришга хизмат қилди. Янги ерларни ўзлаштириш аҳолини кўчириш сиёсати, меҳнат ресурсларини жалб этиш ҳамда миграция жараёнларини фаоллаштириш билан чамбарчас боғлиқ бўлди. Мазкур мақоланинг мақсади — Қашқадарё вилоятида Қарши чўлини ўзлаштириш жараёнининг демографик оқибатларини, айниқса миграция жараёнларини илмий таҳлил қилишдан иборат.

Адабиётлар таҳлили: Мавзуга оид илмий тадқиқотлар асосан тарихий-демографик ва иқтисодий йўналишда олиб борилган. Б.Н. Ризаевнинг тадқиқотида 1950–1970 йилларда Ўзбекистонда янги ерларни ўзлаштириш жараёнида аҳолини кўчириш сиёсати комплекс тарихий таҳлил қилинган бўлиб, унда Қарши чўли мисолида меҳнат ресурсларини жалб этиш механизмлари ёритилган [1]. Статистик йилномалар ва демографик тўпламлар эса аҳоли сони, таркиби ва миграция кўрсаткичларини таҳлил қилишда асосий манба вазифасини бажаради [2], [7], [8], [9], [11], [12].

Н. Хамраев ва И. Халиков асарларида Қарши чўлини суғориш ва ўзлаштиришнинг техник ҳамда иқтисодий жиҳатлари атрофлича ёритилиб, мелиорация ишларининг ҳудуд ривожига таъсири кўрсатиб берилган [3], [4]. М. Абдуллаев ҳамда Т.Ф. Ғоипова ишларида эса меҳнат ресурсларидан фойдаланиш, аҳоли жойлашуви ва ижтимоий омилларга эътибор

қаратилган [5], [6]. Ушбу адабиётлар умумий жиҳатдан мавзуни ёритган бўлса-да, 1989 йилдаги миграция жараёнларини комплекс таҳлил қилишни талаб этувчи масалалар мавжуд.

Методология: Тадқиқотда тарихий-таҳлилий ва статистик усуллар қўлланилди. Архив ва нашр этилган статистик манбалар, хусусан, демографик йилномалар маълумотлари асосида аҳоли сони ва миграция кўрсаткичлари таққослама таҳлил қилинди. Шунингдек, тизимли ёндашув асосида суғориш ва ерларни ўзлаштириш лойиҳаларининг демографик жараёнларга таъсири баҳоланди. Манбаларда келтирилган рақамли маълумотлар бир-бири билан солиштирилиб, миграциянинг ҳудудий, республика ичидаги ва ташқи йўналишлари аниқланди.

Таҳлил ва натижалар: Қарши чўлини ўзлаштириш жараёни иқтисодий ва демографик омилларнинг ўзаро боғлиқлигида амалга оширилган комплекс сиёсат сифатида намоён бўлади. Аввало, янги суғориладиган ерларни ишга тушириш учун етарли меҳнат ресурсларини шакллантириш зарурати аҳолини кўчириш сиёсатини фаоллаштирди. Бу жараёнда республика ҳудудларидан, шунингдек, Қашқадарё вилоятининг ўзидаги аҳоли зич жойлашган ҳамда ер ресурслари чекланган туманлардан ишчи кучи жалб этилди. Хусусан, Китоб, Шаҳрисабз, Чироқчи, Яккабоғ, Қамаши, Деҳқонобод, Ғузор, Қарши, Ульянов ва Косон туманлари меҳнат ресурсларини етказиб берувчи асосий ҳудудлар сифатида белгиланди. Бунда аҳолини мажбурий кўчириш сиёсати «ихтиёрий» кўчиб келиш шаклида намоён этилган бўлиб, амалда миграциянинг ички, ташқи ва вилоятлараро турлари, шунингдек, режали, ташкилий ва ихтиёрий шакллари кенг қўлланилган. Режадан ташқари кўчиб келган аҳолига нисбатан эса «бетартиб» ва «ўзбошимча» атамалари ишлатилган[1, б-31].

Қашқадарё вилоятида аҳоли сонининг ўсиши ҳам мазкур жараёнлар билан бевосита боғлиқ бўлган. 1939 йилда вилоят аҳолиси 460 минг кишини ташкил этган бўлса, шундан 41 минги шаҳар аҳолиси эди. 1959 йилга келиб аҳоли сони 560 минг нафарга етган, шаҳар аҳолиси эса 67 минг кишини ташкил қилган. 1970 йилда умумий аҳоли сони 802 минг нафарга, шаҳар аҳолиси эса 133 минг кишига етган. Айниқса, Қарши шаҳри аҳолисининг жадал ўсиши кузатилиб, у 1939 йилда 23 минг, 1959 йилда 33 минг, 1970 йилда эса 71 минг нафарни ташкил этган[2, б-15]. Бу ҳолат чўлни ўзлаштириш билан боғлиқ саноат ва қишлоқ хўжалиги инфратузилмасининг ривожланиши натижасида шаҳарлашув жараёни тезлашганини кўрсатади.

XX асрнинг 50-йилларидан бошлаб Қарши воҳасида йирик суғориш иншоотларини барпо этиш ва қўриқ ерларни ўзлаштириш ишлари жадал суръатларда амалга оширилди. Қарши текислигида тахминан 720 минг гектар ер суғоришга яроқли деб баҳоланиб, шундан 63 минг гектарида эски ирригация тармоқлари мавжуд эди. Чўлни суғориш учун Амударёдан сув олиш масаласи 1954 йилдан бошлаб илмий-лойиҳа асосида ўрганилди. «Средазгипроводхлопок» институти бош муҳандис С.А. Буюков раҳбарлигида «Амударё ҳавзасидаги сув-ер ресурсларидан фойдаланишнинг умумий лойиҳаси»ни ишлаб чиқди. Лойиҳада Келиф участкасидан сув олувчи, узунлиги 155 км бўлган Аму–Бухоро канали ҳамда 185 км ли Қарши магистрал канали (ҚМК)ни қуриш режалаштирилди. Ушбу канал орқали Қашқадарё қуйи оқимидаги суғориладиган ерларни сув билан таъминлаш кўзда тутилган[3, б-46].

Лойиҳавий таҳлиллар натижасида ҚМКни Қизилойоқ участкасидан Амударёга энг қисқа йўналиш бўйлаб ўтказиш таклиф этилди. Вақтинчалик сув олиш иншооти ва насос станцияси қуриш орқали чўлни ўзлаштиришни тезлаштириш мақсад қилинди. Кейинчалик ҚМКни Аму–Бухоро каналига улаш режалаштирилган бўлиб, бу молиявий харажатларни камайтириш имконини берган. Шу билан бирга, Қизилойоқ участкасидан Қарши ва Қорақум каналларига сув берувчи доимий тўғон гидроэлектр мажмуасини қуриш масаласи ҳам кўриб чиқилган. 1962 йил июнь ойида O‘zCCP Мелиорация ва сув хўжалиги вазирлиги томонидан техник ҳисобот тасдиқланди ва суғоришнинг дастлабки босқичи учун лойиҳа ишлари бошланди[3, б-46].

Қарши чўлини ўзлаштириш сиёсати умумиттифоқ даражасидаги қарорлар билан ҳам мустаҳкамланди. 1961 йилда бўлиб ўтган КПСС XXII съездида чўл ҳудудларида миллионлаб

гектар янги ерларни суғориш ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини кенгайтириш устувор вазифа сифатида белгиланди. Шу асосда 1963 йил 16 апрелда Қарши чўлида қўриқ ерларни ўзлаштириш ва суғориш бўйича 55-сонли қарор қабул қилиниб, махсус ҳудудий бошқарма ташкил этилди. У мазкур лойиҳанинг асосий ижрочи тузилмаси ҳисобланган[4, б-46]. 1963 йил 26 февралда эса ССР Давлат режа қўмитасининг Давлат эксперт комиссияси томонидан ишларини 1975 йилгача якунлаш мақсадга мувофиқ деб топилди[5, б-6]. Шу тариқа, 1963 йил 1 августда қабул қилинган 431-сонли қарор Қарши чўлини комплекс тарзда ўзлаштиришга ҳуқуқий асос яратди ва республикада қўриқ ерларни ўзлаштириш тажрибасининг ўзига хос намунаси сифатида намоён бўлди.

Ўзлаштириш ишлари натижасида вилоятнинг демографик таркиби ҳам ўзгарди. 1979 йилда Қашқадарё вилояти аҳолиси 1 млн 124 минг нафарга етган бўлиб, шундан ўзбеклар 975 минг, тожиклар 55 минг, руслар 33,5 минг, татарлар 26,3 минг ва туркманлар 12,5 минг кишини ташкил этган[6, б-5]. Кейинги йилларда ҳам миграция жараёнлари давом этиб, 1989 йилги маълумотларга кўра, вилоятга жами 12 минг 178 нафар киши кўчиб келган, уларнинг 7 894 нафари шаҳар, 4 284 нафари қишлоқ жойлардан бўлган[7, б-532]. Бу кўрсаткичлар Қарши чўлини ўзлаштириш жараёни нафақат иқтисодий, балки ижтимоий-демографик жиҳатдан ҳам вилоят тараққиётида муҳим ўрин тутганини кўрсатади.

1989 йилда Қашқадарё вилоятида кечган миграция жараёнлари ҳудудда аҳоли ҳаракатининг нисбатан барқарор ва мувозанатли тус олганини кўрсатади. Мазкур йилда 1000 кишига нисбатан 29 нафар аҳоли вилоятга кўчиб келган бўлса, 28 нафар киши ҳудудни тарк этган. Натижада соф миграция ўсиши 1000 кишига нисбатан атиги 1 кишини ташкил этган. Бу кўрсаткич вилоятда миграция орқали аҳоли сонининг сезиларли ўзгаришга учрамаганини англатади. Миграция самарадорлиги коэффициентининг 1,9 % даражасида бўлиши эса келган ва кетганлар ўртасида деярли тенглик мавжуд бўлганини, яъни миграция жараёни ҳудуд демографик ўсишига жиддий таъсир кўрсатмаганини тасдиқлайди. Шунингдек, 1000 нафар келган аҳолига 963 нафар кетган аҳоли тўғри келиши Қашқадарё вилоятида миграция мувозанати асосан сақланганини кўрсатади[7, б-540].

Мазкур демографик ҳолатни вилоятнинг узоқ йиллар давомида шаклланган иқтисодий ва инфратузилмавий ривожланиш жараёнларидан ажратган ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Хусусан, Қарши чўлини ўзлаштириш ва суғориш билан боғлиқ йирик лойиҳалар ҳудудга аҳолини жалб қилишнинг асосий омилларидан бири бўлиб хизмат қилган. Бу борада 1967 йил апрель ойида СССР Сув хўжалиги вазирлиги томонидан «Средазгипроводхлопок» институтига Қарши чўлининг биринчи навбати, яъни Қашқадарё дарёсининг чап соҳилидаги ерларни ўзлаштириш ва суғориш бўйича комплекс лойиҳа тайёрлаш топширилгани муҳим аҳамият касб этган. Лойиҳа Т.А. Смирнова ва В.И. Антонов раҳбарлигидаги мутахассислар гуруҳи томонидан ишлаб чиқилиб, 1967 йилда тасдиқланган. Ушбу лойиҳа чўл ҳудудларини хўжалик айланмасига киритиш, ишлаб чиқариш қувватларини кенгайтириш ва аҳолини иш билан таъминлашни кўзда тутган бўлиб, кейинги ўн йилликларда миграция жараёнларига бевосита таъсир кўрсатган[8, б-116].

1989 йилда Қашқадарё вилояти шаҳар пунктларига йўналган миграция оқимлари таркибий жиҳатдан таҳлил қилинганда, уларнинг асосий қисми ички манбалар ҳисобига шаклланган аён бўлади. Жами 9383 нафар киши shahar пунктларига кўчиб келган бўлиб, уларнинг 7309 нафари республика ичидаги ҳудудлар ҳиссасига тўғри келган. Шу жумладан, 2074 нафари вилоят ичидаги туман ва шаҳарлардан, 2795 нафари эса Ўзбекистоннинг бошқа вилоятларидан келган. Республика ичидаги мигрантларнинг умумий улуши 77 % ни ташкил этиб, шундан 60 % вилоят ичидаги, 17 % бошқа вилоятлар ҳиссасига тўғри келган. Республика ташқарисидан келганлар улуши эса 23 % ни ташкил этган. Бу маълумотлар Қашқадарё вилояти shaharларига аҳоли кўчиб келишида асосий манба ички, айниқса маҳаллий миграция эканини кўрсатади. Республика ташқарисидан келганлар улушининг нисбатан паст бўлиши эса вилоят shaharларининг асосан ички ижтимоий-иқтисодий алоқалар доирасида шаклланган миграция марказлари эканини тасдиқлайди[9, б-547].

Шу билан бирга, 1989 йилда Қашқадарё вилояти шаһар пунктларидан кўчиб кетган аҳоли таркиби ҳам миграция жараёнларининг ўзига хос хусусиятларини намоён этади. Жами 6444 нафар киши шаһар пунктларини тарк этган бўлиб, уларнинг 3986 нафари вилоят ичида қолган, яъни ички ҳудудий кўчишни амалга оширган. 2458 нафар аҳоли бошқа вилоятларга кўчиб кетган. Айни пайтда, маълумотларга кўра, 5286 нафар киши республика чегарасидан ташқарига чиққан[9, б-554]. Бу ҳолат вилоятдан ташқари йўналган миграция оқимларининг ҳам мавжудлигини кўрсатса-да, умумий ҳисобда келган ва кетганлар нисбати деярли тенг бўлиб қолган.

Умуман олганда, 1989 йилда Қашқадарё вилоятидаги миграция жараёнлари нисбатан барқарор, ички ҳудудий ва республика ичидаги оқимлар устун бўлган ҳолда кечган. Бу эса вилоятда олдинги йилларда амалга оширилган йирик мелиорация ва қишлоқ хўжалиги лойиҳалари, хусусан Қарши чўлини ўзлаштириш сиёсати натижасида шаклланган ижтимоий-иқтисодий маконнинг муайян даражада тўйинган ҳолатга келганини кўрсатади.

Хулоса. Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, Қарши чўлини ўзлаштириш жараёни Қашқадарё вилоятида иқтисодий ўсиш билан бир қаторда аҳоли жойлашуви ва миграция жараёнларига ҳам сезиларли таъсир кўрсатган. 1989 йилда вилоятда миграция кўрсаткичларининг деярли мувозанатли бўлиши ҳудудга келган ва кетган аҳоли сонининг бир-бирига яқин эканини тасдиқлайди. Миграция оқимларида асосан ички, яъни вилоят ичидаги ва республика ичидаги ҳаракат устун бўлиб, республика ташқарисидан келганлар улуши нисбатан паст бўлган. Бу ҳолат Қашқадарё вилоятида шаклланган ижтимоий-иқтисодий маконнинг маълум даражада барқарорлашганини кўрсатади. Умуман олганда, Қарши чўлини ўзлаштириш сиёсати нафақат қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини кенгайтирган, балки вилоятнинг демографик ривожланиш йўналишларини ҳам белгилаб берган муҳим омил сифатида баҳоланади.

ФОЙДАЛАНИЛАЁТГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ризаев Б. Н. Ўзбекистонда 1950–1970 йиллари янги ерларни ўзлаштириш жараёнида аҳолини кўчириш сиёсати: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. — Бухоро, 2020. — Б. 31.

2. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1969 г.: Статистический ежегодник. — Тошкент: «Узбекистан», 1970. — 336 с.

3. Хамраев Н., Халиков И. Орошение и освоение Каршинской степи. — Ташкент: «Узбекистан», 1981. — С. 46.

4. Абдуллаев М. Қарши чўли қаҳрамонлари. — Тошкент: «Ўзбекистон», 1980. — Б. 6.

5. Ғоипова Т. Ф. Қарши чўлида меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш (Фан ҳақида суҳбатлар). — Тошкент: «Ўзбекистон», 1984. — Б. 5.

6. Численность и состав населения СССР: По данным Всесоюзной переписи населения 1979 г.: Статистический сборник / ЦСУ СССР. — Москва: Финансы и статистика, 1984. — 366 с.

7. Демографический ежегодник. 1990 / Госкомстат СССР. — Москва: Финансы и статистика, 1990. — С. 532.

8. Тошев Х. Дарёлар туташган диёр. — Қарши: «Насаф», 2020. — Б. 116.

9. Демографический ежегодник. 1990 / Госкомстат СССР. - Москва: Финансы и статистика, 1990. - 639 с.

УЎК 929:39(555.2)

ҚЎНҒИРОТ СУЛОЛАСИГА МАНСУБ ХИВА ХОНЛАРИНИНГ КУНДАЛИК ОДАТИЙ МАШҒУЛОТЛАРИ

Ш.С. Матякубов, катта илмий ходим, Хоразм Маъмун академияси, Хива

Аннотация. *Мақолада муаллиф Қўнғирот сулоласига мансуб Хива хонларининг кундалик одатий машғулотлари ҳақида маълумотлар беради.*

Калит сўзлар: *Хоразм, Хива, Қўнғиротлар сулоласи, хон қабули,Саййид Муҳаммадхон,Муҳаммад Аминхон,Эрон, Исмоил Мирпанжий, Ризоқулихон Ҳидоят,сарой.*

Аннотация. *В статье автор проводит сведения о повседневной жизни хивинских ханов Кунградской династии.*

Ключевые слова: *Хорезм, Хива, Династия Кунградов,приём хана, Саййид Мухаммедхан Мухаммед Аминхан,Иран,Исмаил Мирпанжий,Ризокулихан Хидоят,дворец.*

Abstract. *In the article, the author provides information about the daily life of the Khiva khans of the Kungrad dynasty.*

Keywords: *Khorezm, Khiva, Kungrad Dynasty, reception of the khan, Sayyid Muhammad Khan Muhammad Amin Khan, Iran, Ismail Mirpanji, Rizokulikhan Khidoyat, palace.*

Хоразмда XVI-асрнинг охири XVII-аср бошларига келиб ўзбек хонларининг ҳукмронлиги мустаҳкамланиб, мамлакатнинг иқтисодий-ижтимоий ва сиёсий ҳаёти Амударё ўзанининг Каспийдан Орол денгизи томон ўзгариши натижасида жанубга силжиши,хонлик маркази ҳисобланган Хива шаҳрининг сезиларли равишда ривожланишига олиб келди Хивада Чингизий хонлардан ҳисобланган Арабмуҳаммадхон давридан бошлаб , Қўнғиротлар сулоласи хонларини ҳам ҳисобга олганда элликдан ошиқ хонлар ҳукмдорлик қилган. Хонларнинг одатий бир куни қандай ўтганлиги ва уларнинг кундалик машғулотлари кўпчилик олимларни, элчилар ва сайёҳларни ҳатто асирликда бўлганларни ҳам қизиқтириб келган. Улар хонликда бошидан ўтказган ва ўзларини кўзлари билан кўрган-кечирган воқеот ва ҳодисотларни шаҳсий ҳисоботларида, қайднома ва саёҳатномаларида, кундаликлари шунингдек эсдаликларида ёзиб қолдирганлар. Қуйида биз XIX асрнинг иккинчи ярмида яшаб ўтган Қўнғирот сулоласи айрим хонларининг одатий бир кундаги машғулотлари ҳақида сўз юритамиз.

Хон ўзининг яқинлари билан Ичан-қалъа ичкарисида жойлашган Аркда яшаган. Одатда, эрталаблари нонушта маҳалида хон хузурига мударрислар таклиф этилганлар. Улар хон олдида шариат қонун қоидалари ва баъзи диний масалалар тўғрисида фикр юритганлар. Агар хон мудрай бошласа мударрис чиқиб кетган. Бу эрталабки ором вақти бўлиб икки-уч соатга чўзилган. Хон уйғонганидан кейин вазир ва бошқалар саломга кирган, саломга кирувчилар аниқ шаҳслар эмас эди. Ким хоҳласа ўша одам кира олган. Хон мартабали кишиларга ўтиришга изн берган, бошқа тоифадаги кишилар хон ҳузурида салом бериб, қоидага кўра фотиҳа ўқиб қайтиб кетганлар. Агарда бирор киши ҳадя олиб келса хон уни очиқ чеҳра билан қабул қилган. Масалан, биров ўн дона олма келтиради, бошқа биров бир барра қўзичоқ. Хонга нимаики келтирилса айб саналмаган. Шундан кейин хон ҳукмдор сифатида ўз вазифасини бажаришга киришган. Давлат аҳамиятига молик муҳим масалалар, сиёсат билан шуғулланилган, сўнгра тушлик овқат тортилган. Хон саройида ҳукмдорнинг шон-шавкат аломати ҳисобланган бир қанча хизматкор ва малайлар бўлган.

Сарой ишчилари мутасаддиларидан бири Дастурхончи бўлиб унинг вазифаси хон олдида ёзиладиган дастурхонга қараш, овқат маҳалида ҳозир бўлиб туриш ва бошқа хизматкорларни бажараётган юмушларини назоратда сақлаш бўлган. Дастурхончи хон жума кунлари масжиди Жомеъга борганида хамроҳ бўлган. Ҳукмдор олдига дастурхон ёзиб таом тортган. Унга мансаб белгиси сифатида дастлаб қилич беришган. Хон саройида иккита дастурхончи бўлиб, бири йигирма, иккинчиси ўн беш тилло иш ҳақи олганлар. Ундан кейинги ўринда махрам турган. Унинг вазифаси хоннинг шахсий мулозимига ўхшаш бўлсада, аслида махфий кенгашчисидир. Махрамлар хонга яқин кишилар саналиб, ҳатто унинг оромхонасига кириш ҳуқуқига эга бўлганлар. Ошпаз овқат пиширган, ош мехтар овқат тортган. Ош мехтар хон ошхонасининг бошлиғи бўлиб, овқат сифатини назорат қилган. Тушлик пайтида ҳозир бўлган хизматкор, малайлар хоннинг теварагида тавозе билан тикка турганлар.

Хивада асирликда бўлган Эронлик ҳарбий Исмоил Мирпанжийнинг ёзиб қолдиришича "Ҳевақда овқатга кўпинча зиғир ва пахта ёғи ишлатилади. Хон ва катта амалдорлар думба ва кунжу ёғидан қилинган таомларни тановул қилишади, мол ва қўй ёғини ширчойга солишади. Паловни қобулий деб атайдилар. Хон ва амалдорлар ҳар ойда бир, икки мартадан кўп қобулий емайдилар ва кўпроқ от ёки мол гўштидан пиширилган қайнатма шўрвани ҳуш кўрадилар"[1].

Тушлик таом бўлгандан кейин баъзи бир махрамлар ўтирмоққа ва хон билан шахмат ўйнамоққа таклиф қилинган.

Эронлик Исмоил Мирпанжий ўзининг эсдаликларида: "Хоннинг ғайриодатий қилиқларидан бири шуки, унинг ўзи чилим чекмайди. Маҳрам деб аталувчи хизматчи чилимни яхши чекиб тутунини коса тўлгандан сўнг тутунини чиқармасдан хоннинг рўпарасига келиб ўтиради ва чилимнинг найини унинг оғзига тутади. Чилимнинг орқа томонида бир тешиги борки, ўша жойни маҳкам тутиб ташқарига чиқмаслиги учун бармоғи билан беркитиб туради. Сўнгра ўша тешикка лабини қўйиб пуфлайди, хон ҳазратлари ҳамма тутунни оғзига тўлдириб, кейин нафас чиқаради. Буни мен хон ҳузурида бўлганимда, яъни саломга кирганимда бир неча бор кузатганман" [2] деб маълумот беради. Пешин намозини адо қилганидан кейин хон ташқарига чиқиб баланд айвонда ўтириб халқнинг арзини тинглаган. Хивага Саййид Муҳаммадхон даврида 1863 йилда сайёҳ сифатида келган Венгриялик тилшунос олим Армени Вамбери хон қабули тўғрисида шундай ёзади: "Арзга аҳолининг барча табақаси қабул қилинади. Арзга келган хотин,эркак, болалар ҳар хил кийимда ҳатто ярим яланғоч ҳолда бўлса ҳам хон олдига битта-биттадан киритилади. Кирган киши хоннинг ёнига яқин бориб, ўзини бемалол тутиб, арзини айтади. Хонга эътироз билдиради, ҳатто баъзан хоннинг бир имо-ишораси билан жаллод қўлига тушишини билса ҳам хон ҳазратлари билан баҳслашиб қолади"[3]. (Муаллиф изоҳи: бу ерда гап Хива хони Саййид Муҳаммадхон қабули ҳақида кетмоқда)

Хоннинг бир кунлик ҳаражатлари ҳақида манбааларда қуйидагича маълумотлар берилган: "Хоннинг шахсан ўзи минадиган уч-тўртта оти ва битта хачири бор. Бир нечта хос навкарлари хон хизматида туради. Ошхонасинииг кеча-ю кундузги бир кунлик харажати жуда оз микдорда сарфланади. Хон овкат танлаб ўтирмайди, нима пиширилса, шунга қаноат қилаверади, ортикча дағдағаси йўқ. Хон от гўшти ейишга жуда ўч. Айниқса, сафар чоғида от гўшти тановул қилишни доимий одатига айлантирган. Айтишларича, от гўшти эркаклар белига қувват бўлиб, жинсий қувватини ҳам оширар экан"[4].

Яна шу ҳақда қуйидаги маълумотлар берилади: "Хон хазратнинг овқатлари хам асосан от гўштидан тайёрланади. Хон отнинг дуркуни ва нафсини ейди. Каерда от ёки ёбу сўйсалар, уларнинг дуркуни ва нафси ул жанобники. Хеч кимнинг ейишга хаққи йўқ. Фақат хон хазратлари учун йиғиб келтирилади. Хон уларни ўз қўли билан тозалайди, майдалайди ва пишириб ейди. Бу унинг энг яхши ва тансик таомидир"[5]. (Муаллиф изоҳи: бу ерда гап Хива хони Оллоқулихон ҳақида кетмоқда)

1851йилда Эрон ҳукмдори Носириддиншоҳ Қожор томонидан Хива хони Муҳаммад Аминхон ҳузурига иккала қўшни мамлакатларнинг ўртасидаги дўстона муносабатларни барқарорлаштириш, эронлик асир, тутқин ва қулларни озод этиб, ўз юртига қайтариш учун музокаралар олиб бориш мақсадида Эрон давлати номидан Ризоқулихон Ҳидоят элчилик йўсини билан Хивага келади. Ризоқулихон Ҳидоят ўзининг Хивада кўрган-кечирганлари тўғрисида ёзган "Сафаратномайи Хоразм" асарида Хива хони қабули тўғрисида қуйидаги маълумотларни ёзиб қолдиради: "Аҳолининг бой табақасими ёки қуйи қатлам аҳолисиданми фарқи йўқ, кимнинг хонга арзи бўлса исталган кун ҳеч қаршиликсиз хон ҳазратлари ҳузурига бориб, арзини айта олган.Агар арзгўй масаласи дунёвий масала бўлса, хоннинг ўзи ҳукм чиқарган, агар шаръиятга таалуқли масала бўлса, қозикалонга ҳавола қиладилар. Закотдан ташқари хеч кимсадан бирон нарса ундирилмайди, молига тегмайдилар. Закотни мулкнинг қиркдан бири тарзида оладилар.Олди-сотди муомаласи, солиқ каби соҳаларда зўрлик ишлатилмайди."[6].

Хонга аср намози вақтини келиши бу толиқтирадиган ва чўзиладиган арз тинглаш маросимига хотима беради. Намоздан сўнг хон от миниб, шаҳар ташқарисига сайр қилади. Хон саройдан ташқарига чиққанида кўк мовут чапон кийади, либос кийиш жиҳатидан бошқа одамлардан унчалик фарқ қилмаган яъни хон кийинишида ўзгача зеб бермайди, фақат бош кийимида қимматбаҳо жиғаси бўлган. Отлиқ юрганида отнинг думига ялтироқ кумуш безаклар тақилади. Хоннинг саройдан чиқиб келишини сурнайчи ва карнайчи ҳалойиққа маълум қилади. Отга миниш олдидан уч марта сурнай, отга миниши билан бир бора карнай чалганлар. Оллоқулихон даврида элчи сифатида Хивага келган эронлик

Муҳаммад Алихон Ғафур ўзининг "Хоразм сафари кундаликларида" деб номланган асарида: "Хоннинг отга миниш ва тушиш пайтида карнай чалинган"[7] деб маълумот ёзиб қолдирган.

Хон саройида шотир- хоннинг шахсий тан соқчиси, ташқарида юрганида отнинг жиловини ушлаб юрган. Ҳалойиқ хонни кўрганда салом берса худайчи хон учун алик олган. Хон кун ботиш олдидан албатта сайрдан қайтиб, саройда бўлиши керак эди, чунки намозшом намозини хон ўз сарой аҳллари билан бирга ўқиган, сўнгра кечки овқатни тановул қилади. Кечки овқатда хон ўз яқинлари билан бирга ёлғиз қолган. Шуниси аҳамиятлики Хива хонлари ичкиликни кам ичганлар, лекин хоннинг қариндош уруғлари ва амалдорлар керагидан ортиқ ичар эдилар. Кечки овқатдан кейин ашулачилар, созандалар ёки қизиқчилар келиб ўз санъатларидан билан хон ва унинг яқинларини кайфиятини кўтариб, вақтини чоғ ва кўнглини хушнуд этганлар. Икки соатлардан кейин хон базмни тарк этган. Ёз пайтлари кечқурунлари хон кичик ўғиллари ва набиралари билан боғ сайр қилган, ўз қўллари билан уларга гуллар, мевалар узиб берган. Хива ҳукмдорининг бир куни шу билан тугайди. Москвада 1875 йилда Е.Желябужский томонидан чоп этилган "Очерки и завоевание Хивы" китобида хоннинг сафарга чиқишини қуйидагича тасвирлаган: "Хон сафарга чиққанида уни амалдорлар ва яқинлари кузатиб борганлар.Анжоми олтин ва кумушдан ишланган отининг икки қулоғи ўртасидаги учи қуббали қалпоқ от ёлидан тўқилган.Эгарига қилич ва икки ёнига икки тўппонча осиб қўйилган.Хоннинг байрамда бошига кийадиган телпаги ярими оқ ярими қора рангли қўзи терисидан челак шаклида қилиб тикилган"[8].

Хулоса қилиб айтганда Қўнғиротлар сулоласига мансуб Хива хонларининг кундалик машғулотлари одатий бўлиб,хон фақат сафар ёки шикорга чиққанида шунингдек уруш ҳаракатлари олиб борилганда, қамал ёки химоя ҳолатларида алоҳида тартиб жорий этилган бўлиши мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Исмоил Мирванжий. Асирликдаги хотиралар. Урганч. "Хоразм"нашриёти. 1997 йил.
2.Ўша жойда
3. Вамбери.А . Очерки Средней Азии.-Москва.1868.-С.86.
4. Ризоқулихон Ҳидоят. Сафарномайи Хоразм.Тош."Янги аср авлоди" 2009.
Б.160.
5. Муҳаммад Алихон Ғофур.Хоразм сафари кундаликлари.Тош."Янги аср авлоди"2009.Б.23.
6. Ризоқулихон Ҳидоят. Сафарномайи Хоразм.Тош."Янги аср авлоди" 2009.Б.160.
7. Муҳаммад Алихон Ғофур.Хоразм сафари кундаликлари.Тош."Янги аср авлоди"2009.Б.24.
8.Желябужский.Е.Очерки и завоевание Хивы.М.1875.-С.65.

УДК 930.25(555.4):569.1

КОМПЛЕКСНЫЙ ЗООАРХЕОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОСТЕОЛОГИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ, ПОЛУЧЕННЫХ ПРИ РАСКОПКАХ ПАМЯТНИКА БИБИОНА–ЧУСТ В ПРЕДЕЛАХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Г.Р.Мирзалиева, с.н.с, Национальный центр археологии АН РУз, Ташкент

Аннотация. *Мақолада 2023 йилда Бибиона–Чуст ёдгорлигида археологик қазишмалар давомида топилган ҳайвон суяк қолдиқларининг зооархеологик таҳлили натижалари келтирилган. Тадқиқот биоархеология лабораториясида амалга оширилган. Асосий эътибор суякларнинг тур таркибини аниқлаш, уларнинг анатомик тақсимоти ва қазишма майдони бўйича концентрациясини ўрганишга қаратилган. Археолог Баратов С. Р. томонидан тўпланган материаллар майда қорамол суякларининг устунлигини ва чорвачиликнинг асосий хўжалик соҳаси сифатида ривожланганлигини кўрсатади. Тадқиқотда маҳаллий ва хорижий олимлар томонидан ишлаб чиқилган остеологик аниқлаш усуллари қўлланилган.*

Калит сўзлар: *археозоология, Бибиона–Чуст, остеологик таҳлил, чорвачилик, Фарғона водийси.*

Аннотация. *В статье представлены результаты зооархеологического анализа костных остатков животных, обнаруженных при археологических раскопках памятника Бибиона–Чуст в 2023 году. Исследование проводилось в лаборатории «Биоархеология».*

Основное внимание уделено определению видового состава костей, их анатомическому распределению и концентрации по участкам раскопа. Материалы, собранные археологом Баратовым С. Р., свидетельствуют о доминировании остатков мелкого рогатого скота и развитии овцеводства как ведущей отрасли хозяйства. Применялись методы остеологической идентификации, разработанные отечественными и зарубежными специалистами.

Ключевые слова: *археозоология, Бибиона–Чуст, остеологический анализ, животноводство, Ферганская долина.*

Abstract. *The article presents the results of the zooarchaeological analysis of animal bone remains discovered during the 2023 excavations at the Bibiona–Chust site. The study was carried out at the Bioarchaeology Laboratory. The focus is on determining the species composition of the bones, their anatomical distribution, and spatial concentration within the excavation area. The materials collected by archaeologist S. R. Baratov indicate the dominance of small cattle remains and the development of sheep breeding as a leading branch of the ancient economy. Osteological identification methods developed by both domestic and foreign researchers were applied.*

Keywords: *zooarchaeology, Bibiona–Chust, osteological analysis, animal husbandry, Fergana Valley.*

Введение (Актуальность). Археозоология — это междисциплинарная наука, изучающая останки животных, найденные при археологических раскопках, с целью реконструкции взаимоотношений между человеком и животным миром в прошлом. Данное направление возникло на стыке археологии, зоологии, экологии и этнографии. Основная задача археозоологии — определить видовую принадлежность костей, возраст, пол, а также установить способы использования животных древними людьми [5;8].

Археозоология тесно связана с другими науками — археоботаникой, геоархеологией, палеоэкологией. В комплексе эти дисциплины позволяют создать целостную картину прошлого, понять, как древний человек взаимодействовал с природой. Например, сочетание анализа костей животных и пыльцевого анализа растений помогает восстановить структуру древних агроэкосистем [8].

Археозоология играет ключевую роль в понимании хозяйственно-экономической деятельности древних обществ. По костным останкам можно судить о типе хозяйства, уровне развития скотоводства, охоты, рыболовства, а также о процессах доместикации животных [9]. Например, анализ костей домашних животных позволяет установить, какие виды впервые были одомашнены и как происходила их адаптация к жизни рядом с человеком. Так, исследования Г. Клайна и К. Круз-Урибэ показали, что возраст животных, погибших на поселениях, может свидетельствовать о мясном или молочном направлении скотоводства [4].

Таким образом, археозоология — это не просто вспомогательная дисциплина археологии, а самостоятельная область знания, дающая ключ к пониманию экономических, культурных и экологических процессов древности. Её значение постоянно возрастает благодаря внедрению новых лабораторных и цифровых технологий анализа остеологических материалов.

Изучение остатков костей животных с археологических памятников Средней Азии имеет важное значение для реконструкции древних форм хозяйственной деятельности, рациона, природной среды и уровня развития животноводства. Памятник Бибиона–Чуст, расположенный в Ферганской долине, представляет собой один из ключевых объектов позднего бронзового – раннего железного веков. Его материалы позволяют выявить структуру стада и особенности животноводства населения региона [1; 2; 3].

Цель и задачи исследования. Цель: определить видовой состав костей животных и их распределение по анатомическим элементам и раскопочным участкам для реконструкции особенностей хозяйства населения памятника Бибиона–Чуст.

Задачи исследования:

1. Определить соотношение видов домашних животных.

2. Проанализировать анатомическое распределение костей.

3. Изучить пространственное распределение костей по квадратам раскопа.

4. Сделать выводы о хозяйственной направленности животноводства.

Материалы и методика. В работе использованы материалы археологических раскопок, проведённых в 2023 году под руководством археолога Баратова С. Р. В общей сложности проанализировано 1201 костный фрагмент. Лабораторная обработка и анализ были выполнены в лаборатории «Биоархеология». Видовая принадлежность костей животных определялась с использованием сравнительных определительных атласов домашних и диких животных [4; 5; 6]

При анализе применялись методические подходы, предложенные Р. Г. Клайном и К. Круз-Уриб (1984) [7], а также отечественными археозоологами — Л. А. Шагирбаевым [1], А. К. Каспаровым [2], В. П. Бутягиным [3].

Результаты и обсуждение



Рис. 1. Соотношение костей мелкого и крупного рогатого скота (Бибиона –Чуст 2023 г.)

Кости мелкого рогатого скота (овцы и козы) составляют 82,3 % от общего количества находок, тогда как крупный рогатый скот — лишь 17,7 %. Такое соотношение отражает ведущую роль овцеводства в хозяйственной системе населения Ферганской долины в рассматриваемый период. Преобладание мелкого скота указывает на развитую традицию кочевого и полуоседлого пастушества [1; 3].



Рис. 2. Распределение костей по анатомическим частям (всего 777 экз.)

Наибольшее количество костей приходится на рёбра (125 экз.), зубы (85 экз.) и неопределённые фрагменты (465 экз.). Наименьшее количество отмечено среди тазовых, пяточных костей и челюстей. Такая структура костного материала указывает на то, что основная его часть связана с переработкой туш и бытовыми отходами, а не с погребальными обрядами или ритуальными действиями [4].



Рис. 3. Концентрация костей по квадратам раскопа

Наибольшая концентрация костей зафиксирована в квадратах 2А (188 экз.) и 7А (103 экз.). Это может свидетельствовать о наличии локальных хозяйственных зон, связанных с разделкой туш животных или приготовлением пищи. В остальных квадратах количество костей значительно меньше, что указывает на неоднородность распределения бытовых отходов [2; 5].

Выводы

1. В общем количестве костных находок (1201 экз.) доминируют останки мелкого рогатого скота, что подтверждает развитие овцеводства как основной отрасли хозяйства.

2. Преобладание рёбер и фрагментированных костей свидетельствует об активной мясной переработке животных.

3. Концентрация костей в отдельных квадратах указывает на наличие хозяйственных зон.

4. Полученные данные согласуются с выводами ведущих исследователей по методике остеологического анализа [1; 2; 7].

Благодарности. Автор выражает признательность археологу Баратову С. Р. за предоставленные материалы и помощь в проведении исследований.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Шагирбаев Л. А. Зооархеологические исследования на территории Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1989. – 156 с.

2. Каспаров А. К. Скотоводство и охота в эпоху неолита и палеометалла в Южном Туркменистане. – Ашхабад: Ылым, 1972. – 215 с.

3. Бутягин В. П. Археозоология: Учебное пособие. – Москва: Наука, 1990. – 180 с.

4. Klein, R. G., Cruz-Uribe, K. The analysis of animal bones from archaeological sites. – Chicago: University of Chicago Press, 1984. – 266 p.

5. Davis, S. J. M. The Archaeology of Animals. – London: Routledge, 1987. – 200 p.

6. Boessneck, J. Osteological differences between sheep and goat. – In: Science in Archaeology. – London: Thames and Hudson, 1969. – P. 331–358.

7. Payne, S. Methods in the analysis of animal bones from archaeological sites. – Oxford: BAR, 1973. – 76 p.

8. Reitz, E.J.; Wing, E.S. Zooarchaeology. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 535 p.

9. Clutton-Brock, J. Domesticated Animals from Early Times. – London: British Museum (Natural History), 1981. – 208 p.

УЎК 910.4:929Поло

"ШАРҚОНА МУЪЖИЗАЛАР КАШФИЁТЧИ"СИ

С.Наврузов, доц., тар.ф.н., Маъмун университети, Хива

Аннотация. *Мақолада ўрта аср Европасининг буюк сайёҳи, савдогар Марко Полонинг, Венециядан Осиё бўйлаб саёҳати давомида Шарқ оламининг ўзига хослиги, айниқса, мўғуллар ҳукмидаги Хитой ва хитойликларнинг "кашфиётчилиги" борасида фикр юритилади.*

Калит сўзлар: *ўрта аср, Европа, Марко Поло, Венеция, Хитой*

Аннотация. *В статье речъ идёт о великом путешественнике средневековой Европы Венецианского торговца Марко Поло, который странствуя по Азиатско му континенту*

рассказывает своеобразие Восточного мира и за одно описывает изобретательности китайцев.

Ключевые слова: *Средневековье, Европа, Марко Поло, Венеция, Китай*

Abstract. *The article discusses the uniqueness of the Eastern world during the journey of the great medieval European traveler Marco Polo from Venice across Asia, especially regarding China under Mongol rule and the "discoveries" of the Chinese*

Key words: *Middle Ages, Europe, Marco Polo, Venice, China*

Ўрта асрлар тарихи ва маданиятида араб сайёҳ ва географларидан кейин чуқур из қолдирган буюк зот Венециялик савдогар Марко Полодир. У ўз сафар йўлини Венециядан бошларкан, узоқ Хитойгача бўлган катта масофа Кичик Осиё, форслар мамлакатию Афғонистон, Помир, Қашқар, уйғурлар эли Ёрканд ва Гоби чўли орқали, ватанига қайтаркан, Суматра, Цейлон, Ҳиндистон ва Шарқий Африкани кечиб ўтганди.

Сайёҳ хотираларида салиб юришларига доир илк маьлумотлар сифатида Константинопол билан боғлик воқеалар, ажабланарли тарзда ифодаланган. Маьлумки, Марко Поло ўз саёҳати давомида деярли 6 йилини ўрта аср Европасининг айнан ушбу афсонавий масканида ўтказди ва шул боис Венециялик абжир бу тижоратчининг Константинопол ҳақидаги маьлумотлари китобхон диққат эътиборини бамайлихотир шаҳарнинг муьжизакор масканларига тортади. Денгиз гаванига туташ қирғоқ бўйида император Юстинианнинг тик қомати акс этган ҳайкалда қўлини шарққа, араблар юртига қаратган ҳолати кузатувчида қўрқув даҳшат акс эттиргандай ҳолат намоён қилади. Константинопол ҳақидаги салиб юришларига доир қизиқарли тарихий маьлумотларни Навваралик Рабби Вениамин ўз хотираларида ёзиб қолдирган.

”Константинопол шаҳридаги сарой биносидаг кумушдан қилинган кошинлар муқаддас бу даргоҳни янада сеҳрлироқ кўрсатарди. Ҳукмдор Мануил ўзи учун денгиз бўйида ҳашаматли бир сарой бино қилдиргандики, унинг деворлари ҳам соф олтиндан қопланган эди. Деворда тасвирланган барча қадимги дунё урушлари, шунингдек подшо Мануил олиб борган урушлар ва жанг эпизодлари ҳам акс этарди. Айниқса, саройда ҳукмдор супаси диққатга сазовор бўлиб, тахти тилла ва қиммат баҳо тошлар билан қопланган. Сарой деворларида пойтахт Константинополга ҳар йилги солиқ тўловларини олиб келаётган Греция карвони моҳирона тасвирланганди”.

Солиқ моллари қаторида ипакдан тайёрланган газламалар ҳамда турли туман матолар мавжуд эди. Шунингдек тасвирларда пойтахтда бир кунда савдо аҳлидан олинадиган пул йиғимлари 20000 флорин яъни, 100000 тилла(франк ҳажмида кўрсатилган)деган сўзлар ёзилган.

Тарихий жараёнларни кузатарканмиз, XIII- аср арафасида католик черкови Францияда аҳолини тўртинчи салиб юришига даьват қила бошлангани аён бўлади. Бу юришни Рим папаси Иннокентий III ҳар томонлама қўллаб қувватлаганди. Айни даврда бундай ҳолат Венеция ва венецияликлар учун кўпдан кутилган омадли имконият сифатида, Византия империясининг сиёсий зулм ва иқтисодий кишанларидан биратўла қутилиш ҳамда Константинопол билан алоқаларни узишга шароит туғдирарди. Шу сабабдан ҳам Франциялик салибчи, Константинопол талончилигининг фаол қатнашчиси рицар Робер Де Клари ўз хотираларида ”Константинопол ниҳоятда мол мулкка бой шаҳар, зеби зийнат мўл бўлиб сочилиб ётибди”деб ёзганди. Маълумки, учинчи салиб юришлари Европада ғарб билан Византия муносабатларини ниҳоят даражада кескинлаштирди. Шу боис Рим папаси салиб юришини эндиликда Мисрга қараб йўллатганди. Бундай қалтис шароитда Рим папаси Ғарбий Европа давлатлари билан Византия оралиғида қарама қаршиликларни юзага келтирар экан, диний эмас балки, сиёсий ва иқтисодий манфаатлар қалқиб юзага чиққанди. Айнан шундай вазият туфайли Францияда салиб ҳаракати етакчилари 1200 йилнинг ёзида ҳарбий қўшин ва юриш қатнашчиларини денгиздан ўтказиб қўйишни ҳарбий ва денгиз юксак бўлган Венецияга мурожаат қилишган.

Бундай манфаатли шартномани жон дилдан қабул қилар экан, Венеция дожжи(ҳоким), 1201- йили Энрико Дондоло ҳеч бир қаршиликсиз ҳужжатга қўл қўйганди. Ҳужжатда кўрсатилишича Венеция бу юришда қатнашаркан,яна қўшимча тарзда 4500 рицар, 9000 қуролланган жангчи ва 20000 сарбозни 85000 кумуш марка пул эвазига денгиздан ўтказиб беришни бўйнига олган эди.

Шундай қилиб, Венеция ҳам салибчиларга қўшилиб, Византия юришида қатнашиш имкониятига эга бўлди. Константинопол, 1203- йил ёз мавсуми. Византия ҳарбий денгиз кучлари ожизлашиб, мамлакат иқтисодий жиҳатдан инқирозли жараёнларни бошидан кечирмоқда эди. Ғарбдан келган ёвуз куч, рицарлару сон саноқсиз салибчилар, шарқ ва ғарб оламининг безаги бўлмиш Константинополга ёпирилиб киришди. Шаҳар аҳолиси ҳақиқатан ҳам ҳимоясиз, деярли имкониятсиз қолганди. Шу боис ҳам уни шафқатсизларча, айтиш мумкинки вахшийларча талашди."Бундай ачинарли, беаёв босқинчилик жаҳон тарихида кузатилмаган", деб ёзганди яхудий тарихчиси Романин.

"Бунақа бешафқатлик, уятсизларча виждонсизликдан, талончиликдан инсоният, ақл заковоти номус ор қиларди! Ҳечкимга шафқат қилинмади. Саройлар, уй ҳовлилар, ибодатхонаю, авлиёлардан ҳатто қабрхоналаргача бекаму кўст таланди. Айниқса, жиннiларча ҳушини йўқотган маст аласт салибчилар, бебаҳо София ибодатхонасида талончилик қилишди. Мастлик ва маишатга берилган салибчилар ёвузларча Константинопол кўчаларида аёлларга вахшиёна ҳужум қилиб, зўравонлик билан ялонғоч тарзда рақс тушишга мажбур қилишган.

Саньат буюмлари, кутубхоналар минглаб китоблар билан ўт, аланга ичида қолганди. Венецияликларнинг ёвузларча ҳаракати оқибатида, Константинополдан олиб кетилган тўртта бронзадан ясалган отлар ҳайкали, ҳозиргача Венецияда муқаддас Марк ибодатхонасида унга бир безак сифатида сақланмоқда. Шундай қилиб машҳур сайёҳнинг фақатгина Шарқу Ғарбнинг бемисли кўприги ҳисобланган ўрта аср Константинополи ҳақидаги қизиқарли маьлумотларида акс этган, беандиша салибчиларнинг вахшиёна қилмишлари католик черковининг чирик иллати мисли намоён бўлганди.

Ўрта аср Европасининг машҳур сайёҳи сифатида танилган Марко Поло, асли Италиялик бўлиб, Венециянинг Риальто оролида 1254 йили туғилган. Шаҳарнинг республика тарзида маьлум тартиб, қонун ва қоидалари мавжуд. Унинг оиласи, ота онаси ва қариндошлари дворянлар табақасига мансуб бўлиб, дворянлар эса, ҳақиқий венециялик ҳисобланар, шу боис савдо сотиқ билан шуғулланиши ва ўзига хусусий уй қуришга ҳақли эди. Марко Поло ҳақидаги маьлумотларда кўрсатилишича, унга оиласида болалигидан дворянлик одоб, аҳлоқ қоидаларини ўзлаштирганлиги айтилади. Жумладан, жасоратлилик ўқ ёй отишни ўрганиши, ўзгалар билан суҳбатга кирмаслиги, душманга сир бермаслиги муҳим қоидалардан бири эди. Чунки, қўшни Генуя, Венециянинг азалий ва ашаддий душмани. Венеция дунёнинг қадимий маданий шаҳарларидан ҳисобланарди. У денгиз мамлакати. Демак у яна минглаб қайиқлар ва улкан кемалар мамлакати. Антик дунё географи Страбон ўз замонидаёқ қадимий венетлар юртини кезганди. Сайёҳ сифатида буюк географ "бу юртни бутунлигича каналлар ва кўприклар боғлаётгандай"дея таьрифлаганди. Венеция ҳақида дунёнинг кўплаган тилларида китоблар ёзилган. Буюк трагик, инглиз ёзувчиси Уильям Шекспир ўзининг икки драмасини венецияликлар билан боғларкан, савдогар Венеция фуқароси яхудий Шейлок образи ҳамда Венеция фуқароси генерал Отелло, мавританиялик араб образлари мисолида намоён бўлади. Географ Страбон замонидан бизни бир ярим минг йиллик тарихий давр ажратиб туради. Венеция шаҳар сифатида ойлар, йиллар ва асрлар узра ўсиб, кенгайиб борди. Мисли антик демократия меросхўри сифатида Венеция, қадимий айём сайланиб бошқарилади. Шаҳарликлар сайлаган "дож" бошқаруви деярлик умрбод ҳукм суриб келди. Венециянинг бошқарув тизимидаги тарихий маълумотлар тадқиқодчи диққатини беҳос ўзига тортади. Сайланган ҳоким "дож"ларнинг дастлабки давридан 29 нафарининг 4 нафари кўзи кўр бўлиб кўролмасдан қолган, 4 нафари эса, ҳокимиятдан қувиб ҳайдалган, 3 нафар дож эса, қатл этилган. Сўнгги бошқарувчилардан эса, 5 нафари ҳокимиятдан ўзлари воз кечишган. Ҳар доим нотинч бу шаҳарда, кема ва қайиқларда сузиб юрувчи аҳолиси, фақат ош тузи, темир, шиша ва жун газламалар сотиш билан кун кечираркан, ҳар доим бойиб борганди. Венецияликлар

денгизлар оша сузар эканлар, ҳарбир дуч келган портми, шаҳарми, Миср, Қора денгиз бўйларими, ёки Грек шаҳарларими, фақат туз билан савдо қилишган. Савдо сотиқни якунлар экан, венецияликлар, ватанига қайтишда кемалари албатта, ғалла, балиқ, кўн, тери ва жун, кўплаб қуллар билан тўлатилган бўларди. Денгиз шаҳри сифатида Венециянинг ноқ ўртасида, грек усталари қуриб битказган муқаддас Марк ибодатхонаси, ягона илоҳий майдон сифатида атрофлари гулзор ва дарахтлар ўстирилиб, шаҳарга бебаҳо табиий гўзаллик бағишларди. Қадимги Римнинг эрамиздан олдинги V- асрида иллирий қабилаларидан тарқалган Венетлар Адриатиқа қирғоқларига келиб жойлашгандилар. Венеция ўрнидаги қадимги балиқчилар қўрғони 451 йилда ўз атрофида 118 оролни бирлаштирган. Денгиз юзасидаги бу ороллар мамлакатида фақатгина " Риальто" ўз номини буюк сайёҳ, элчи, кашфиётчи географ ва дунё тижоратчиси бўлмиш Марко Поло ватани сифатида шон шуҳратга бурканган. Оролнинг қирғоқ бўйида сув узра ёғоч устунга тахтадан бино қилинган иморат, савдогар жаноб Никкола ва Маффеоларга тегишли. Бу хонадонда оиланинг кундалик ҳаёти учун зарур мебеллар, сандиқ, қутию қутичалар, ётар- турар анжомлари бўлмиш каравот ва кўрпа- тўшаклар тахланганча бир чеккадан жой олганди. Ёғоч тахтадан қурилган иморат ҳардоим яшаш учун хатарли. Уйга ёндош ҳовлида омбор ва ошхона мавжуд. Шунингдек ҳовлида сув қудуғи ҳам бор. Никкола, Маффео ва Марко Пололар Шарқ мамлакатлари узра савдогарчиликка кетишганди. Константинополда деярлик олти йил савдо сотиқ қилгач, савдо карвонини Қримга буришган. Қрим ҳақидаги маьлумотларда "Салхат" қўрғони(эски Қрим) пойтахт шаҳар бўлиб, XIII- асрга тегишли. Аҳолиси асосан татарлар, аланлар, руслар, арманлар, грек ва италияликлардан иборат. Шаҳарда замонасининг ажойиб иморатлари мавжуд. Жумладан, Ботухон саройи 1252- йили, Миср султони Бейбарс мамлук томонидан бино этилган 1288- йилги мачит, 1314- йили Ўзбекхон қурдирган мачитлар замонасининг буюк иморатларидандир. Бахча сарой XV- аср охирига келиб, Қрим хонлигининг пойтахтига айлангач,Қадимги марказ Салхат шаҳридан эндиликда фақат харобалар қолганди холос. Шарққа йўл олган, Венеция савдогарлари ўз карвонини қаторасига уч нафар туялар тортган араваларда олиб юригандилар. Қрим ерларидагина савдогарлар қирқдан зиёд қалъа ва қўрғонларни кечиб ўтишган. Шарққа юз тутган Венецияликлар узоқ йўлни қуйидагича чамалашганди. Дон бўйларидан Беркахон пойтахти Сарой қалъасигача, ҳўкиз араваларда юрилса, карвон учун 25 кунлик (масофа)йўлдир. У ердан яна саккиз кунлик йўл юрилгач, Амударё бўйидаги Хоразм пойтахтигача ўттиз қирқ кунлик йўл, Хоразм мамлакати пойтахтидан Туркистон Кулжасигача масофа карвон учун қирқ беш кунлик йўл деб белгилашганди, савдогарлар. Лекин, масофани ва йўл харажатларини ҳисоб китоб қилишган бу савдогарлар ҳозирча мўғуллар "соясидаги" хитойга бориш фикрини кейинга суришди. Савдогар оға ини Пололар сафар йўлида карвонни Буюк Волга томон буришди. Лекин бу масканлар руслар юртида талон торож этилган, вайрона аҳволда эди. Волга бўйида Олтин Ўрда хони қароргоҳи жойлашганди. Мўғулларга қарам рус князларигина ўлпон тўлашарди. Хонлик худудлари Хоразмгача бориб, Амударё билангина чегараланарди. Рус худудида мўғуллар тутган тартиб қоидаларни ўзлаштириб олган Венециялик савдогарлар қиру чўлдами, сувга ювинмас, чўмилмасди ҳам. Мўғул ясоқлари талабларини бузган ҳарбир киши қаттиқ, шафқатсиз жазоланарди. Лекин мўғуллар ҳам, маҳаллий аҳоли ҳам, Венецияликларга ҳурмат эьтиборли бўлиши ажабланарли эди. Айниқса Берка хон қабули эсда қоларли ҳолатда кечганди. Хоннинг юз пешанаси кенг ва семиз кўринаркан, бети сап сариқ бўлиб, қопқора сочлари орқага қайтариб таралганди. Суҳбат чоғида асосан савдо моллари, қимматбаҳо тошлар ҳақида гап кетди. Беркахон савдогарлар кўрсатган молларнинг барчасини оларкан, ҳақига мўмай пул берди. Беркахон саройи ва пойтахтда савлогарларни ҳайратлантирган ҳолатларни эслаганларида аввало, Миср элчиси билан учрашув ва Миср халифасининг хон Беркага ҳадя қилган совғаларининг турли туманлиги эсда қоларли ҳолатлардан эди. Дамашқ ҳарбий қуролларидан қилич, совут, темир шлем ва найзалар қуролсозликнинг сўнгги намуналари эди. Араб отлари, Нумидия туялари, филлар, Мисрдан келтирилган эшаклар ҳамда Африқа жирафаси, аёзли рус қиш фаслига чидаши амри маҳол эди. Венецияликларни мўғулларнинг Волга сарҳадларидаги турмуш тарзида асал виноси ва унга қимиз аралаштириб

ичишлари, ҳамда оқ қайин дарахти шарбатини истьемол қилишлиги, ҳаммомга эркаклар билан аёлларнинг биргаликда ювинишлари лекин, қайин дарахти новдалари билан ҳарбири ўз танасини тозалашлари италиялик савдогарларни ажаблантирганди. Оға ини савдогарлар деярли бир йил давомида Волга соҳилларида Берка хон меҳмони сифатида ҳукмдор эьтиборида қолиб кетгандилар. Лекин, Волга бўйларида ҳам нотинч эди. Ниҳоят Венецияликлар савдо карвони тизгинини қадимий, шон шуҳратга бой шарқ машьали Бухорога буришганди. Рус баланд пастликлари ю, чўлу биёбонларни деярли 18 кун давомида босиб ўтган савдо карвони, Каспий ва Оролни ёқалаб ўтаркан, бирин кетин Қадимий қальалар узра Бухорога кириб келди. Бухорода шу кунларда улуғ хон Хубилай элчилари ҳам меҳмондўстликда эди. Бухоро бозорини таьрифлар экан албатта, аҳоли гавжум лекин, олди сотдидаги турли туман моллар айниқса, хитой чиннилари бозорчи кўзини қамаштирарди. Шунингдек ипак газламалари турининг рангбаранглиги ҳайратланарли эди. Кузатувчи назарида бутун Бухоро аҳли фақат савдо сотиқ билан яшаётгандай кўринарди. Бухороликлар қаторида деярли бутун Шарқ дунёси намоён бўларкан, ҳиндилар, эронликлар, татарлару хитойликлар, ёхудийдан мўғулларгача барча барчани учратиш мумкин. Венецияликларни Бухорода ҳукмдор саройига меҳмондорчиликка таклиф қилишди. Хубилай хон элчилари билан биргаликда бўлиш ва сарайдаги учрашувлар, Марко Полони янги манзил Хитойга ундади. Сайёҳнинг қандай тарзда Хитойга бориб қолганлиги ҳақида деярли маьлумотлар йўқ. Лекин, Хитой ва хитойликлар ҳақидаги кўз кўриб, қулоқ эшитмаган ҳайратланарли маьлумотлар, мисли мудроқ Европани ганггитгандай ҳаёжонга соларди. Бухородан то узоқ хитойгача масофани савдогарлар қирқ кун давомида босиб ўтишди. Хубилай хон қароргоҳи ўн олти миль узунликдаги девор билан ўралган турли нақшлар билан безатилган сарой. Саройни турли ўсимликлар, ранг баранг гуллар ва дарахтлар орасида беҳавотир ўтлаб юрган кийику кулонлар,антилопа ва ўйнақлаб юрган маймунларни жамлаган катта боғ ўраб турарди. Хубилайхон Хонбалиқда ҳукмдорлик тахтига 1256- йили ўтирганди. Лекин, бу даврда Хитой буткул истило қилинмаган, мўғул татарлари Хитойнинг фақатгина денгиз соҳилларинигина ишғол қилишганди. Лекин динсиз, эьтиқодсиз татар нўйёнларининг оёқлари, от эгаридан узилмаганди ҳали. Хитой чўли ва биёбонларида минглаб чорвадор мўғулларнинг пода қувиб юриши давом этмоқда эди. Венецияликларни Хубилай хон ўз сарой ида ҳурмат ва эьтибор ила кутиб олди. Ҳукмдор қароргоҳида дунёнинг турли бурчакларидан турли динга эьтиқод қилувчи хрестианлар, яҳудийлар, эроний форслар, ҳиндилару, афғонлару татарларгача савдо иши билан келган ёки сайёҳларни учратиш мумкин. Таькидлаш жоизки, XIII ва XIV- асрлар мўғуллар учун давлатнинг маъмурий аппаратидан хитойликларни қувғин қилиш жараёни сифатида кечди. Маъмуриятдаги давлат мансаблари ва лавозимлар эндиликда чет элликларга ишониб топшириларди. Шу жумладан, ғайратли ва топқир мухожир Марко Поло ҳам шулардан бириси эди. Мамлакат бошқарувидаги элчилик хизмати ҳамда махсус топшириқларни адо этганди. Хитойни бежиз янгиликлар ва муъжизалар мамлакати дейилмаган. Хитойликлар газетани ҳам илк бор яратишган. Ҳарфлар танланмаган балки, уни ёғочдан кесиб олинган. Махсус тахта ёғочи изланиб топилган. Кесиб тайёрланган ҳарфларни йиғиб газета ва календар ал манах нашр этилган. Алманах бу йил “тақвими “дир. Бу “тақвим”да “бахтли никоҳ” кунлари, қуёш ва ойнинг чиқиш ва ботиш муддати кабилар кўрсатиларди. Пойтахт Хонбалиқда фаннинг турли хил соҳалари вакиллари фаолияткўрсатган. Европаликлар учун Марко Полонинг деярли ҳарбир сўзи ям, суҳбати ҳам янгилик эди. У хитойда кўрган эшитганларини сўзларкан, тингловчи учун ҳайратланарли ,ажабланарли туюларди. Хитойнинг сирли қора тоши, фақат тоғдан қазиб олинади, худди руда мисли лекин, қип қизил чўғ мисли ёнаркан, ўзидан катта иссиқлиқ тарқатади. Эшитган, ҳамсуҳбат бўлганлар кулишарди, деярлик ишонишмасди. Лекин, бу ўтнинг чўғи, унинг узоқ сақланиши, уни кўрмаган киши учун, албатта ишонарсиз туюларди. Кундалик савдо сотиқ, олди сотдида мис, кумуш ва олтин(тилло) пул ишлатган европалик, хитойликларнинг қулай қогоз пули ҳақида илк бор эшитаркан, албатта бундай ҳол мисли тушдаги ҳолатга ўхшарди. Дунё сафарини якунлаган сайёҳ, ниҳоят она юртига қайтиб келганди. Оила аъзоларига ва яқинларига мол мулкидан мерос тақсимларкан, черков монахи ва нотариуси Жованни

Жустинони уйига таклиф қилиб, васиятномаларни рўйхат қилдирди. Сўнгра ўзининг кўрган билганларини, хотиралар тарзида ёздирди. Тарихий маълумотларда сайёҳ хотиралар дебочасини илк бор Венецияда элчилик вазифасини бажараётган франциялик рицар Тибо де Сепуалиги жанобларига совға қилганлиги айтилади. Китобни францияда қўлдан қўлга кўчиришган. Бир неча бор китоб кўчириб ёзилган. Китоб материали ҳатто эртаклар тарзида, бошқа бировлар эса, уни тарихий роман сифатида кўчириб ёзганлиги аён. Марко Поло хотиралари анча кейинроқ географлар қўлига тушганди. Саёҳатдан деярли икки юз йил ўтгач, Марко Поло таржимай ҳоли яратилган. Унинг муаллифи Венециялик географ Рамузино бўлиб, у венеция шаҳар ўнлик кенгаши котиби сифатида, сайёҳ китобини француз тилидан италянчага таржима қиларкан ўзининг "Денгиз ва қуруқликлар оша саёҳат" тўпламига киритган эди. Айтишларича Португалиялик шоҳзода 1426- йили Венецияда Марко Поло китобини узоқ мамлакатларга олиб кетиш учун саёҳати олдидан излаб юрганмиш. Буюк географик кашфиётлар замонида XV асрда Марко Полонинг "Улуғ ҳоқон ҳақида"ги китоби шу даражада машҳур эдики,ундаги воқеа, ҳодисалар мисли ҳужжатлашгандек ҳис қилинарди. Генуялик Колумб, Марко Поло китобини ўқиб чиқаркан,океанни кесиб ўтгач, Африкага кирмасдан ҳам Осиё қирғоқларига чиқиш мумкинлигига ўзида ишонч ҳосил қилаолганди. Маълумки, 1492- йил 8 август куни учта каравелла денгиз тубидан оғир якорини кўтаргани ҳамон, ғарб томон сузиб кетганди. Колумб кемаси 12 октябр эрта тонгда Сан Салвадор оролига етиб келганди. Кема янги дунёга етиб келаркан,капитан столида йўл кўрсатгич карта, компас билан бирга Марко Поло китоби ҳам очиб ўқилган бетида турганди. Саёҳати давомида дунёнинг катта қисмини ўз кўзи билан кўриб чиқаркан Марко Поло, гувоҳ сифатида кўрган, эшитиб билган воқеа, ҳодисалар инсониятнинг тарихий билими сифатида бугунги цивилизациялашган авлодни сўзсиз сайёҳга боғларкан, унга йирик кашфиётчи сифатида боқаркан,инсоният яратган маданиятда дунё халқларининг барчасининг маълум ҳиссалари англашилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Джон Мандевиль.Путешествие Марко Поло.М 2012
2. Дреж Ж. Марко Поло и шёлковый путь.м. 2006.
3.Губер П. "Хождение на Восток Марко Поло,прозванного миллионщиком".М.1929.
4.Френсис Вуд.Был ли Марко Поло в Китае.м.1996.
5.Вилли Майнек.Удивительные приключения Марко Поло.м.1993.
6.Пронин Валентин.Жизнь Марко Поло.м. 1993.
7.Шкловский Виктор.Земли разведчик.м.1969.
8. Лоуренс Бергрин.Марко Поло от Венеций до Ксанаду.м.2023.

УЎК 902 (575.141)

МАРКАЗИЙ СУҒД ҚИШЛОҚ МАКОНЛАРИНИ СУҒОРМА ДЕҲҚОНЧИЛИК ВОҲАЛАРИ БЎЙИЧА ЖОЙЛАШУВ ДИНАМИКАСИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Ҳ.Ў.Раҳманов, кич.и.х, Самарқанд археология институти, Самарқанд

Аннотация. *Мазкур мақолада Марказий Суғд ҳудудида қадимги даврлардан то илк ўрта асрларгача бўлган қишлоқ маконларининг суғорма деҳқончилик воҳалари бўйича жойлашув динамикаси таҳлил қилинди. Археологик маълумотлар, тарихий ёзма манбалар, канал ва шоҳ ариқ ўзанлар бўйлаб ўтказилган тадқиқотлар асосида воҳалардаги аҳоли пунктларининг шаклланиши, ривожланиши ва вақт ўтиши билан қайта тақсимланишига таъсир этган омиллар аниқланади.*

Калит сўзлар: *Юқори Булунғур ирригация воҳаси, Туятортар, Мирзаариқ, Оқтепа ариғи, Марказий Суғд, қишлоқ маконлари, суғорма деҳқончилик, жойлашув динамикаси, суғориш тизимлари, тарихий ландшафт, ижтимоий-иқтисодий тараққиёт, археологик тадқиқотлар.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается динамика распеределения сельских поселений в пределах орошаемых сельскохозяйственных оазисов Центрального Согда с древности до средневекового периода. Опирясь на археологические данные, исторические*

письменные источники и геоморфологические исследования, автор выявляет ключевые факторы, повлиявшие на формирование, развитие и последующее перераспределение поселений.

Ключевые слова: *Верхнебулунгурский ирригационный оазис, Туятортар, Мирзаарык, арык Октепа, Центральный Согд, сельские поселения, орошаемое земледелие, динамика размещения, ирригационные системы, исторический ландшафт, социально-экономическое развитие, археологические исследования.*

Abstract. *This article examines the dynamics of rural settlement distribution within the irrigated agricultural oases of Central Sogd from antiquity to the medieval period. Drawing on archaeological evidence, historical written sources, and geomorphological research, the study identifies the key factors influencing the formation, development, and subsequent redistribution of settlements.*

Keywords: *Upper Bulungur irrigation oasis, Tuyatortar, Mirzaariq, Oqtepa canal, Central Sogd, rural settlements, irrigated agricultural, settlement dynamics, irrigation systems, historical landscape, socio-economic, development, archaeological research*

Сунъий суғориш тизимларини пайдо бўлиши ва ривожланиши масалалари инсоният умум тарихи билан чамбарчас боғланган ҳолда ўрганишни тақазо қиладиган илмий муаммодир. Айни пайтда Ўрта Осиё сунъий суғориш хўжалиги тарихини худди шу нуқтаи назардан ўрганиш қонуният тусини олган. Лекин, сунъий суғориш масалалари катта географик минтақа Ўрта Осиё, хусусан Ўзбекистон тарихи, археологияси фанида изчиллик билан ўрганилмоқда деган фикрдан йироқмиз [15].

Ўрта Осиё маданий ўлкаларида суғорма деҳқончилик хўжалиги ўрганилиши турли воҳаларда турлича даражададир. Хусусан, Оролбўйи, Хоразм, Фарғона ва Қашқадарё воҳаларида бу мавзуда ўтказилган комплекс тадқиқотлар асосида изчил ва анча мукаммал илмий натижалар олинган бўлса, Фарғона, Уструшона ва Суғд ўлкаларида тадқиқотлар етарлича ўрганилмаган[21, 10, 14, 18].

Зарафшон дарёси ҳақида Ибн Ҳавқалнинг маълумотларига кўра, "сув тоғлар орасидан оқиб чиқиб Бунжикатга, кейин эса ""Тўғон боши" маъносини англатадиган Варағсар номли ерга етиб боради ва шу жойдан Самарқанд ариқлари ажралиб чиқади. Шарқий қисмидаги ариқлар эса Варағсар қаршисида Ғубор номли ердан бош олиб, айнан шу ерда тоғлар иккига айрилиб, экин экиш ва ариқ ўтказиш мумкин бўлган ерлар бошланади. Ғубор ариғидан Наҳр Иштихан, Наҳр ас-Синовоб ва Наҳр Бузможан ариқлари оқиб чиқади", деган маълумотларга дуч келамиз [12].

Воҳанинг шимоли-шарқий қисмида жойлашган археологик ёдгорликларни ўрганиш ва улар билан ўзаро боғлиқ бўлган суғориш ишлари тўғрисида М.Х. Исомиддинов, Х.Г. Ахунбабаев, С. Анарбаев, М.Ҳ. Пардаев, С.С. Суюновларнинг илмий ишлари бизга маълум [13, 6, 1, 19].

Ўрта Зарафшон воҳасининг ўнг ҳудуди ерларини суғорадиган асосий Булунғур ариғи бўлиб, унинг номланиши тўғрисида бир қанча маълумотлар бор. Жумладан, Булунғур номи (мўғилча "булуғор" сўзидан олинган бўлиб) – лойқа сув сўзи билан боғлиқ бўлиши мумкин. Ушбу номнинг келиб чиқиши мўғилларнинг Ўрта Осиёга бостириб киранидан кейин ҳам сақланиб қолган, буни канал бошида жойлашган "Мўғол" қишлоғи номи ҳам тасдиқлайди [13].

Бошқа тадқиқотчилар эса Булунғурни Баронгар мўғил қўшинидаги ўнг қаноти дейилса, А.Р.Муҳамаджонов эса канал номи туркийча "Бурунгор" – ўнг томондан чиқувчи канал сўзидан келиб чиққан деган фикрни билдиради [7, 13].

Булунғур тумани адир қисмида Аҳтамбулоқ, Қарабчибулоқ, Мирзабулоқ ва бошқа кичик сув манбаларига эга бўлган булоқлар мавжуд бўлиб, бундан ташқари воҳа ҳудудидан Булунғур, Бот-Бот, Оқ-тепа каби йирик суғориш каналлари ва Янгибеш, Қораарик, Оқарик, Четарик сунъий суғориш тармоқлари оқиб ўтади.

Булунғур ҳудудида олиб борилган археологик изланишлар ҳам аҳолини сўнгги палеолит давридан бошлаб яшаганликларини кўрсатади [3].

Туманда антик ва илк ўрта асрлардан бошлаб ўтроқлашган аҳоли сонининг кўпайиши, кичик сунъий суғориш тармоқларини бунёд бўлиши, суғориладиган ер майдонларини ортиши, туманда минг-минглаб аҳоли истиқомат қиладиган янги манзилгоҳлар, марказлашган қишлоқ маконлари ва шаҳарларнинг бунёд бўлишига олиб келади [16]. (2-3-расмлар).

Зарафшон дарёсининг ўнг қисмидан бош олган Булунғур канали асосий сув ўзани бўлиб, ундан бир қанча кичик воҳа ариқлари ажралиб чиқади. Жумладан, Оқтепа, Оқариқ, Янгибеш, Қораариқ, Четариқ, Қорасув, Полвонариқ, Туятортар каби йирик оқар сув ариқлари ҳисобланган суғориш тармоқлари оқиб ўтади [4].

Оқтепа микроирригация суғориш воҳаси. Оқтепа (ариқ) суний суғориш тармоғи Чўянчитепа ёдгорлигидан 300 м жануби-ғарбда, Мўғол қишлоғининг марказидан Булунғур йирик суғориш тармоғидан бош олади. Оқтепа ариғининг умумий узунлиги 31 км га яқин бўлиб, ўртача сув оқими секундига 8 $м^3$ га тенг. Изланишлар давомида Оқтепа (ариқ) сунъий суғориш тармоғига яқин Оқтепа шаҳар харобаси ва унга яқин бир неча ёдгорликлар қайд этилди [8]. Ушбу Суғориш воҳасининг йирик ёдгорлиги Оқтепа ёдгорлиги ҳисобланади.

Оқтепа. Ушбу ёдгорлик Булунғур туманидаги Мингчинор маҳалласининг жанубий-ғарбий қисмида жойлашган. Оқтепа харобасининг умумий майдони ҳозирда сақланиб қолган қисми 10 га.ни ташкил қилади. Ёдгорлик тўғри бурчакли, арк, шаҳристон қисмидан иборат. Жануби-шарқ қисмида иккита катта тўғри бурчакли тепалик бўлиб, биринчиси 1 га.ни, иккинчиси 0,64 га, баландлиги 10 м.ни ташкил этади. Шарқий қисмида арк билан бирлашиб кетган баландлиги 20 м, таг асоси билан 0,35 га.ни ташкил қилади. Ёдгорликнинг шаҳристон қисми арки аълони жануби-шарқ ва шимоли-ғарб томондан ўраб туради. Ёдгорлик мил. авв. III – мил. XV асрлар билан даврлаштирилган [17].

Ушбу кичик ирригация воҳасида Метантепа-1, 2, 3, 4, Нурободтепа-1-2, Баландтепа, Очомойлитепа, Дунётепа, Ўроқлитепа, Нурофшонтепа, Оққовунтепа-1, 2, 3 илк ўрта аср ёдгорликлари қайд этилди.

Тадқиқотлар натижасига кўра Оқтепа кичик ирригация воҳасида илк суғорма деҳқончилик билан шуғулланиш ишлари Оқтепа шаҳар атрофида мил. авв. III асрда пайдо бўла бошлаган. Воҳада ўрганилган ёдгорликларнинг асосий қисми илк ўрта асрларга оид бўлиб, улар Оқтепа сунъий суғориш тармоғи (ариқ) га яқин жойлашганлиги аниқланди.

Оқтепа ирригация суғориш воҳасида 18 та археологик ёдгорликлар қайд этилди. Ушбу ёдгорликларнинг 7 таси антик даврга оид бўлиб, аксарият антик давр ёдгорликлари ўрнида илк ўрта асрлар даври ёдгорликлари қад кўтарганлиги аниқланди. V-VIII асрларга оид 17 та ёдгорлик қайд этилди.

Бу сунъий суғориш тармоқлари ҳисобидан воҳада ўзлаштирилган ер майдонлари V-VIII асрларда тахминан 7-10 минг гектарга яқин бўлган деган хулосага келинди.

Янгибеш микро ирригация суғориш воҳаси. Янгибеш сунъий суғориш ариғи Янгиқишлоқ қишлоғига яқин жойдан ўтган бўлиб, сувни Мирзаариқдан олади. Унинг сув манбаи Зарафшон дарёсининг ёни бўйлаб давом этган ҳолда, Элобод маҳалласи ҳудудидан ўнг томонга қараб алоҳида ирмоққа ажралиб чиқади. Ҳудди шу жойда Янгибеш сунъий суғориш тармоғининг эски ўзани сақланиб қолган. Ҳозирда Янгибеш ариғининг узунлиги 25 км га яқин бўлиб, унинг ўртача сув оқими секундига 4-5 $м^3$ га яқин. Тадқиқотлар давомида Янгибеш (ариқ) сунъий суғориш тармоғига яқин бўлган бир неча яқин жойлашган археологик ёдгорликлар қайд этилди.

Ушбу ўрганилган ёдгорликлар билан бир қаторда Янгибеш кичик ирригация воҳасида антик даврга оид 9 та, илк ўрта асрлар даврига оид 10 та Оломонтепа, Чорбоғтепа, Қирқаҳмадтепа-1, Пойгатепа, Эронитепа, ёдгорликлари қайд этилди.

Тадқиқотлар натижасига кўра Янгибеш кичик ирригация воҳасида ўрганилган археологик ёдгорликларнинг кўп қисми сўнгги антик ва илк ўрта асрлар даврига оид бўлиб, улар асосан Янгибеш сунъий суғориш тармоғи (ариқ) дан сув олганлиги аниқланди.

Бу кичик ирригация воҳасида дастлабки илк суғорма деҳқончилик билан боғлиқ ишлар мил. авв. III-II асрларда пайдо бўла бошлаган деган хулосага келинди. Аниқланган

ёдгорликларнинг кам сонли қисми мил. авв. III-II, аксарият қисми милодий III-VIII асрларга оиддир.

Воҳада ирригация ишларининг ривожланиши эса милодий V-VIII асрларга тўғри келади. Айнан шу даврда воҳада суғориладиган ер майдонлари бир неча марта ортган. Бизга юқоридаги тадқиқотлардан маълумки воҳада қайд этилган ёдгорликларнинг 80 % V-VIII асрларга оиддир. Шу даврда Янгибеш сунъий суғориш тармоқ (ариқ) лари ҳисобидан ўзлаштирилган ер майдонлари тахминан 6-8 минг гектарга яқин бўлган.

Туятортар микро ирригация суғориш воҳаси. Туятортар канали сувини Зарафшон дарёсининг ўнг томонидан тахминан 3 км пастроқда жойлашган, Янгиқишлоқ ҳудудидаги Булунғур канали (ариғи) дан олади. Туятортар канали (ариқ) қадимдан асосан Жиззах воҳасининг экин ер майдонларини сув билан таъминлаб келган.

Туятортар канали тўғрисида дастлабки маълумотлар археолог Я. Ғуломов тадқиқотларида қайд қилинган. Унда таъкидланишича "Биз суғориш тарихи устида ишлаб юрган мутахассислар Ўрта Осиёдаги сунъий каналлар ичида Туятортар каналидай меҳнати оғир, суви кам, ўзи жарликлардан иборат канални кўрмаганмиз" [11].

1997-йилда Самарқанд археология институти олимлари томонидан Эски Туятортар канали бўйлаб олиб борилган археологик тадқиқотлари натижасига кўра Туятортар каналини милоднинг бошларида, Фармонтепа яқинида Зарафшон дарёсининг ўнг қирғоғидан қазиб чиқарилганлиги, сўнгра милодий VII-VIII, XI-XII, XIV-XV асрларда канал қайтадан ҳашар йўли билан бир неча марта қазилганлиги ва унда таъмирлаш ишлари олиб борилганлиги айтилган [20].

Дастлабки ўтказилган тадқиқотлар натижасига кўра Туятортар кичик ирригация воҳасида ўрганилган археологик ёдгорликлар антик ва ўрта асрлар даврга оид эканлиги айтилган. Аниқланган ёдгорликлар асосан Туятортар канали сув манбаига яқин жойлашганлиги ва ундан сув олгани қайд этилган.

Сўнгги қидирув тадқиқотлари натижасида Туятортар канали атрофида бир неча ёдгорликлар қайд этилди.

Сўнгги тадқиқотлар натижасида Туятортар канали атрофида бир неча ёдгорликлар қайд этилди ва ундан бош олган сунъий суғориш тармоғининг эски ўзани сақланиб қолганлиги аниқланди.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки Туятортар кичик ирригация воҳасида ўрганилган археологик ёдгорликлар антик ва илк ўрта асрларга оид бўлиб, улар асосан Туятортар суғориш тармоғи (канал) га яқин жойда жойлашган. Бу кичик ирригация воҳасида илк суғорма деҳқончилик милодий III- IV асрларда пайдо бўлган. Чунки воҳада ўрганилган ёдгорликлар асосини сўнгги антик ёдгорликлари ташкил этади.

Мирзаариқ кичик ирригация воҳаси. Зарафшон дарёсининг ўнг қирғоғидан бош олган Булунғур канали воҳанинг асосий сув манбаи ҳисобланади. Каналдан бир қанча йирик суғориш тармоқларига эга бўлган сунъий ариқлар ажралиб чиқади.

Булунғур каналидан асосий бош олиб чиқадиган йирик суғориш тармоқларидан бири катта сув манбаига эга бўлган Мирзаариқдир. Мирзаариқ суғориш тармоғининг узунлиги 40 км га яқин бўлиб, ғарб томонга қараб оқади. Мирзаариқнинг ўртача сув оқими секундига 8-10 $м^3$ га тенг. Ушбу суғориш воҳасида М.Х. Исомиддинов томонидан 15 дан ортиқ антик даврга оид ёдгориклар аниқланган [13]. 2019 йилда ўтказилган тадқиқотлар давомида Мирзаариқ (ариқ) сунъий суғориш тармоғига яқин бўлган ҳудудда 40 та археологик ёдгорлик қайд этилди.

Бундан ташқари Мирзаариқ кичик ирригация воҳасида 30 та антик ва илк ўрта асрлар даврига оид археологик ёдгорликлар қайд этилди.

Хулоса қилиб айтганда Мирзаариқ кичик ирригация воҳасида илк суғорма деҳқончилик милодий I-II асрларда пайдо бўла бошлаган, ирригация ишларининг ривожланиши эса милодий III-IV ҳамда V-VIII асрларга тўғри келади. Айнан шу даврда воҳада суғориладиган ер майдонлари бир неча марта кўпайган деб айтиш мумкин. Мирзаариқ ариғидан бош олган

сунъий суғориш тармоқлари орқали ўзлаштирилган ер майдонлари тахминан 10-15 минг гектарга яқин бўлган деб хулоса чиқаришимиз мумкин.

Юқори Булунғур ирригация воҳаси. Зарафшон дарёсидан бош олган Булунғур (ариқ) канали Марказий Суғднинг шимоли-шарқий ҳудудларининг асосий сув манбаси ҳисобланиб, бу йирик сунъий суғориш тармоғи Равотхўжа сув айирғич тўғонидан алоҳида ажралиб чиқади. Ўзининг сув манбаи билан Зарафшон дарёсининг шимоли-шарқий ҳудудларини сув билан таминлаб ҳозирги Самарқанд вилояти Пойариқ туманининг Болта қишлоғи яқинида Оқдарёга қуйилади [13].

Олиб борилган тадқиқотлар давомида Юқори Булунғур ирригация воҳасида ҳам бир неча археологик ёдгорликлар қайд этилди. Ушбу Суғориш воҳасининг йирик ёдгорлиги Галатепа ёдгорлиги ҳисобланади.

Галатепа. ёдгорлиги Булунғур каналининг юқори ўнг қирғоғида жойлашган. Унинг умумий майдони 20 га. тенг, марказида иккита алоҳида иморат қолдиқлари жойлашган бўлиб, биринчисининг кўриниши тўғритўртбурчак, ўлчами 75х100 м, баландлиги 18 м.га тенг. Ундан 15 м жанубда, иккинчи иморат ҳаробаси жойлашган. Унга кириш эшиги жануб томондан иккита қўриқчи минора постлар орқали кўтарма (пандус) ёрдамида кирилган. Ушбу қалъанинг кўриниши тўғритўртбурчак, ўлчамлари 90х100 м, баландлиги 20 м.ни ташкил этади. Унинг юқори қисмидан териб олинган кулоллик идишлари асосида даврий санаси V-XII асрлар билан даврланди. Марказий иккита иморатлар атрофини шарқий қисмидан ташқари қолган барча томонини яхлит ҳолда, "П" шаклида уч томондан рабод қисми ўраб туради. Унинг ўлчами 330х60 м, баландлиги 7 м атрофида. Рабод қисмида аҳоли томонидан уй қурилиш ва экинзорга айлантирилганлиги боис асл кўринишини йўқотган [9].

Тадқиқотлар натижасида Юқори Булунғур ирригация воҳасида антик ва илк ўрта асрларга доир бўлган 10 та ёдгорлик аниқланди. Аниқланган ёдгорликларнинг аксарият қисми айнан Булунғур сунъий суғориш канали атрофида жойлашганлиги кузатилди.

Воҳада суғориладиган ер майдонлари антик ва илк ўрта асрларда деярли бир хил ривожланишда бўлган деган фикрга келдик. Бундай дейишимизга асосий сабаб ўрганилган ёдгорликларнинг деярли ҳаммасида антик ва илк ўрта асрлар даври кузатилди. Булунғур канали (ариқ) дан бош олган сунъий суғориш тармоқлари орқали ўзлаштирилган ер майдонлари тахминан 5-10 минг гектарга яқин бўлган.

Қуйи Булунғур ирригация воҳаси. Булунғур канали (ариғи) нинг қуйи оқимида 9 та антик, 99 та илк ўрта асрлар даврига оид ёдгорликлар аниқланди.

Ушбу ёдгорликларнинг бош шаҳри Мингтепа шаҳар харобаси бўлиб, унинг майдони 35 гектарни ташкил этади. Илк ўрта асрлар ёдгорликларининг асосий қисми Мингтепа шаҳар харобаси атрофида жамланганлиги кузатилди.

Изланишлардан чиқиб шуни айтиш мумкинки, Қуйи Булунғур ирригация воҳасида ўрганилган археологик ёдгорликларнинг бир қисми антик даврга оид бўлиб, улар асосан Булунғур каналининг қуйи ўзанларидан бош олган сунъий суғориш тармоқларига яқин жойлашганлиги аниқланди.

Қуйи Булунғур ирригация воҳасида илк суғорма деҳқончилик мил. авв. III- II асрларда пайдо бўла бошлаган. Чунки воҳада ўрганилган илк антик ёдгорликларининг асосий қисми қуйи Булунғур сунъий суғориш тармоқлари бўйлаб жойлашган. Воҳада аниқланган аксарият илк ўрта аср ёдгорликлари юқорида кўрсатилган илк антик даври ёдгорликлари атрофида жамланганлиги аниқланди.

Ушбу микроирригация воҳасининг йирик ёдгорлиги Мингтепа ёдгорлиги 40 га.ни ташкил қилади. Мингтепа шаҳар ҳаробаси Афросиёбдан 19 км шимолда, Қорамўйин маҳалласининг шимоли-ғарбида Зарафшон терассасида, Булунғур каналининг ўрта оқимида жойлашган [2]. Ёдгорлик уч қисмдан-арк, шаҳристон ва рабоддан иборат йирик ёдгорлик бўлиб, марказида томчисимон шаклда, 125х125 м, баландлиги 20 м бўлган арки жойлашган. Унга кириш шарқ томондан иккала ёнида иккита қўриқчи "пост" миноралари орқали кўтарма (пандус) ёрдамида кирилганлигини рельефидан пайқаш мумкин.

Шаҳристон аркнинг шимоли-шарқида тўғритўртбурчак шаклда, томонлари 400х200 м, баландлиги 8 м га тенг. Ёдгорликнинг шимол ва жануб томонларидан эни 10 м, баландлиги 4-6 м, узунлиги 190 м, бўлган мудофаа девори билан ўраб олинган. Жанубий мудофаа девори, аркнинг ғарбий қисмида жойлашган работ қисмига улашиб кетган. Ушбу девор қолдиқлари шаҳар мудофаасининг муҳим ажралмас элементи ҳисобланади. Шаҳарни 4 та дарвозаси бўлганлигини рельефидан пайқаш мумкин [6].

Ёдгорлик V-XII асрлар билан даврланган, VII-VIII асрларда ривожланишнинг чўққисига етади. Унинг шимоли-шарқий қисмида 103 та илк ўрта асрларга оид ҳовлили уйлар, алоҳида зодогонларнинг ёзги қароргоҳлари, атрофи мустаҳкамланмаган оддий деҳқон уйлари, мавсумий турар-жойлар жойлашган [5].

Қуйи Булунғур ирригация воҳасида ҳам ирригация ишларининг ривожланиши милодий V-VIII асрларга тўғри келади. Чунки айнан шу даврда воҳада суғориладиган ер майдонлари бир неча баробар ортган деб тўлиқ айтиш мумкин. Масалан илк ўрта асрлар ёдгорликларининг кўп қисми Булунғур сунъий суғориш тармоқлари бўйлаб жойлашганлиги кузатилди.

Сўнгги тадқиқотлар натижаси Булунғур каналининг қуйи ўзанларидан бош олган сунъий суғориш тармоқлари ҳисобидан ўзлаштирилган ер майдонлари тахминан 20-25 минг гектарга яқин бўлганлигини кўрсатади.

Шундай қилиб ушбу юқоридаги изланишлар ҳақида қуйидагича хулоса қилишимиз мумкин.

1. Зарафшон воҳасининг шимоли-шарқий ҳудудида жойлашган археологик ёдгорликларнинг ривожланиши билан ўзаро бўғлиқ бўлган суғорилиш тарихини ўрганиш ишлари 6 та Оқтепа, Янгибеш, Туятортар, Мирзаариқ, Юқори ва Қуйи Булунғур кичик ирригация воҳалари асосида олиб борилди.

2. Оқтепа, Янгибеш, Туятортар, Мирзаариқ, Юқори ва Қуйи Булунғур кичик ирригация воҳаларида ўтказилган изланишлар натижасида 200 дан ортиқ археологик ёдгорликлар қайд этилди.

3. Ирригация воҳаларида аниқланган шаҳарлар ва уларнинг атрофи ҳамда улар билан бир вақтда ривожланишда бўлган қишлоқ маконларида илк суғорма деҳқончилик ишлари мил. авв. III-II асрларда пайдо бўлганлиги аниқланди.

4. Мавжуд ирригация воҳаларида сунъий суғориш ишларининг ривожланиши милодий III-IV, V-VIII асрларга тўғри келганлиги аниқланди. Ушбу даврга келиб воҳада суғориладиган ер майдонлари бир неча баробар ортганлигини сўнгги антик ва илк ўрта асрлар ёдгорликларининг ҳудудий жойлашганлигини кўрсатади.

6. Сўнгги тадқиқотлар натижасига кўра Оқтепа, Янгибеш, Туятортар, Мирзаариқ, Булунғур ариқлари (каналлар) ва улардан бош олган сунъий суғориш тармоқлари ҳисобига Зарафшон дарёсининг шимоли-шарқий ҳудудларида ўзлаштирилган ер майдонларини тахминан 80-90 минг гектарга яқин бўлган дейишимиз мумкин.

7. Марказий Суғд қишлоқ маконлари тарихий жиҳатдан суғорма деҳқончилик билан чамбарчас боғлиқ. Ушбу ҳудудда қишлоқлар асосан суғориш каналлари атрофида жойлашган бўлиб, аграр имкониятларга қараб шаклланган. Вақт ўтиши билан сув ресурсларидан фойдаланиш усуллари такомиллашган, янги ариқлар қазилган ва экин майдонлари кенгайтирилган. Суғориш тизимларининг ривожланиши қишлоқларнинг доимий ривожланишига туртки бўлиб, уларнинг демографик ва иқтисодий динамикасини белгилаган.

Марказий Суғд ҳудудида қишлоқ маконларнинг суғорма деҳқончилик воҳалари бўйича жойлашуви тарихий жараён давомида табиий-географик шароитлар, суғориш тизимлари ривожи ва ижтимоий-иқтисодий омиллар таъсирида шаклланган. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, қадимги даврлардан бошлаб воҳа марказида йирик суғориш иншоотлари ва ариқ тармоқларига яқин ҳудудлар аҳолининг асосий яшаш масканлари сифатида танланган. Бу жойлашув тизими аҳоли зичлиги, қишлоқ хўжалиги ҳосилдорлиги ва савдо йўлларига чиқиш имкониятлари билан чамбарчас боғлиқ бўлган. Илк ўрта асрларда ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар, табиий офатлар ва суғориш тизимларидаги издан чиқишлар қишлоқ маконларининг ирригация тизимлари бўйлаб қайта тақсимланишига олиб келган. Шу боис

Марказий Суғдда қишлоқ маконларининг жойлашув динамикаси нафақат табиий ресурслар, балки маданий сиёсий омиллар билан ҳам белгиланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Анарбаев С. Туятортар канали қурилиши тарихи / Археологлар ҳикоя қилади. – Тошкент, 1974. 23-45 бетлар.

2. Атаходжаев А. Х., Кубаев С. Ш. О проведении археологических раскопок на памятнике Мингтепа в Джамбайском районе Самаркандской области в 2014 году // Архив Института археологии АН РУз. Ф.4, О.1, Д.170. 2015. С. 2.

3. Ахунбабаев Х. Г. Археологическое изучение Булунгурского района в 1979-1980 гг // ИМКУ. Вып. 18. Тошкент, 1983. С 156.

4. Ахунбабаев Х.Г. О полевых археологических исследованиях в Булунгурском районе Самаркандской области1985 г // Архив Института археологии АН РУз. Ф.4, О.1, Д.148. 1986. С. 1.

5. Ахунбабаев Х.Г.Археологическая исследования по составлению "Свода памятников археологии" Каттакурганского, Иштиханского и Джамбайского районов Самаркандской области году // Архив Института археологии АН РУз. Ф.4, О.1, Д.166. Самарканд, 1987. С. 71.

6. Ахунбабаев Х.Г. Древний Кабуданжакент (к вопросу локализации, генезиса и этапов развития раннефеодальных владений и средневековых рустаков самаркандского Согда) // Археология Средней Азии Тезисы докладов / Ташкент. 1990. С. 26-28.

7. Бартольд. Сочинения / Том III. "Наука". Москва 1965. С. 193.

8. Бердимурадов А. Э., Суюнов С.С., Раҳмонов Ҳ.Ў., Асланов А. П / Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги I том / Самарқанд вилояти 6-қисм Жомбой тумани Самарқанд, 2020. 5 бет;

9. Бердимурадов А.Э., Суюнов С.С., Раҳмонов Ҳ.Ў / Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги / I том Самарқанд вилояти 5-қисм Булунғур тумани. Самарқанд, 2018. 93-бет.

10. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней / Ташкент, 1957. С. 97-114.

11. Гулямов Я. Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане // «Известия АН УзССР», №2. Ташкент, 1955. С. 36-39.

12. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард // Камолиддин Ш.С таржимаси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. Тошкент 2011. 58 бет.

13. Истахрий. «КИТАБ АЛ-МАСАЛИК ВАЛ-МАМАЛИК» // Йўллар ва ўлкалар китоби. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашрёти Тошкент 2019. 221 бет.

14. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. / Ташкент, 2002. С. 15-30.

15. Латынин Б.А. Вопросы истории ирригации древней Ферганы // КСИИМК / Вып. 64. Москва, 1956. С. 16-27.

16. Пардаев М.Ҳ., Ғофуров Ж. И / Уструшонанинг илк ўрта аср қашлоқ маконлари (ёзма ва археология манбалари асосида) / Тошкент, 2016. 168 бет.

17. Раҳмонов Ҳ.Ў., Суюнов С.С. Булунғур туманининг суғорилиш тарихидан // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси № 7. Хива, 2020. 108 бет.

18. Сулаймонов Р.Х. Древний Нахшаб / 2000. С. 12-14.

19. Суюнов С.С. Туятортар канали-Жиззах воҳасининг асосий сув манбаларидан бири // Марказий Осиё халқларининг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий тарихи, моддий ва маънавий маданияти (қадимги даврдан ҳозирги кунгача) / Самарқанд, 2023. 66-69 бет.

20. Суюнов С.С. Шимоли-ғарбий Уструшонанинг суғорилиш тарихи (V-XVI асрлар, археологик матриаллар асосида) // тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд, 1999. 29-31 б.

21. Толстов С.П. Об использовании данных исторических наук для практики народного хозяйства, - "Земли древнего орошения и переспективы их сельскохозяйственного использования" / М., "Наука", 1969. С. 19.

УЎК 94(555.3)

ЖАНУБИЙ ОРОЛ БЎЙИ ШАҲАРЛАРИ ТАРИХШУНОСЛИГИ
(Совет даври тарихшунослиги)

Ж.Е.Тореniязов, доц.в.б., Қорақалпоқ давлат университети, Нукус
Б.П.Тайрова, магистрант, Қорақалпоқ давлат университети, Нукус

Аннотация. *Ушбу мақолада Жанубий Орол бўйи шаҳарлари тарихшунослиги бўйича манбалар тарихи, айниқса энг муҳим ҳисобланган Совет даври тарихшунослиги ўз аксини топган.*

Калит сўзлар: *Манба, О.А.Сухарева, Совет даври, тарихшунослик, Жанубий Орол бўйлари, К.Нурмуҳамедов, П.П.Иванов, Д.М.Логинов, А.А.Гнеденко, Н.А.Баскаков, С.Е.Малов, К.Убайдуллаев, Т.Низамитдинов, С.П.Толстов, В.В. Андрианов, Камалов С.*

Аннотация. *В данной статье отражена история источников по историографии городов Южного Приаралья, особенно важнейшей советской историографии.*

Ключевые слова: *Источник, О.А.Сухарева, Советский период, историография, Южное Приаралье, К.Нурмухамедов, П.П.Иванов, Д.М.Логинов, А.А.Гнеденко, Н.А.Баскаков, С.Е.Малов, К.Убайдуллаев, Т.Низамитдинов, С.П.Толстов, В.В. Андрианов, Камалов С.*

Abstract. *This article reflects the history of sources on the historiography of the cities of the Southern Aral Sea region, especially the most important Soviet historiography.*

Keywords: *Source, O.A. Sukhareva, Soviet period, historiography, Southern Aral Sea Region, K. Nurmukhamedov, P.P. Ivanov, D.M. Loginov, A.A. Gnedenko, N.A. Baskakov, S.E. Malov, K. Ubaydullayev, T. Nizamitdinov, S.P. Tolstov, V.V. Andrianov, Kamalov S.*

Кириш. Ўрта Осиё минтақасидаги шаҳарлар тарихига оид бир қанча тадқиқотлар олиб борилган.

О.А.Сухарева таъкидлаб ўтганидек: «Шаҳарларнинг ривожланиши ва шаҳар ҳаёти жамият тарихининг, унинг ишлаб чиқариш кучлари ва ишлаб чиқариш муносабатлари, моддий ва маънавий маданиятининг аҳамиятли томонларидан бири. Фақат шаҳар ва қишлоқ хўжалигининг ўзаро алоқасидан, жамиятни зарур яшаш воситалари билан таъминлашда бир-бирини тўлдириб, уни олдинга силжитиш учун кучлар яратилади. Шунинг учун шаҳарларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши тарихи, уларнинг турли даврларда тутган ўрни муаммоси тарих фанида энг долзарб масалалардан бири ҳисобланади»[1.7].

О.Г.Большаков, А.М.Беленицкий, И.В.Бентович[2.], асарларида шаҳар муаммоси, унинг пайдо бўлиш тарихи, ички тузилмаси, ривожланиш динамикаси, ўрта асрлар давридаги жамиятнинг урбанизация муаммоси кўриб чиқилган.

«Жилище народов Средней Азии и Казахстана» ҳаммуаллифлар асари XVIII-XX асрлар давомида минтақанинг шаҳарлари ва овуллари тарихини ўз ичига олган бўлиб, шаҳар ва овул аҳоли пунктлар ва турар жойларнинг турлари ва жойлашувини ўрганади[3.].

«Позднефеодальный город Средней Азии» тўплами шаҳар тарихини ўрганиш соҳасида тарих фанининг долзарб муаммоларига бағишланган; уламоларнинг шаҳар ҳаётида тутган мавқеси тўғрисида, шаҳар аҳолисининг ҳунармадчилик фаолияти тўғрисида, XVI-XIX аср ўрталарида шаҳар маданияти ҳақида ҳикоя қилади. Ушбу масалаларнинг барчаси кенг кўламда ёзма манбалар асосида кўриб чиқилган[4].

Асосий қисм

Совет даври тарихшунослиги. Совет даври тадқиқотчиларининг асарларида Жанубий Орол бўйи шаҳарлари тарихига доир муҳим маълумотлар келтирилган. Булар орасида тадқиқотчилар П.П. Иванов[5], С.П.Толстов[6], Т.А.Жданко[7], В.В.Андрианов[8] ва бошқаларнинг фундаментал асарлари алоҳида ўрин тутади.

Қорақалпоқ халқи маданияти ва тарихини ўрганишда собиқ Иттифоқ доирасида 1933 йили ташкил қилинган конференция дастлабки қадамлардан бири бўлди. Конференцияда олимлардан К.Нурмуҳамедов, П.П.Иванов, Д.М.Логинов, А.А.Гнеденко, Н.А.Баскаков, С.Е.Малов, К.Убайдуллаев, Т.Низамитдинов, шунингдек, Ленинград шаҳрида таълим олаётган қорақалпоғистонлик талабалар ва бошқа вакиллар иштирок этади. Қорақалпоқлар тарихи ва адабиёти тарихига тегишли манбаларни ўрганишда А.Н.Пономаревнинг хизматлари ғоят катта бўлди. А.Н.Пономарев, Н.Н.Палмов билан биргаликда Россия империяси газета, журнал ва илмий адабиётларида нашрдан чиқарилган XVII-XIX асрлардаги қорақалпоқларнинг тарихи ва маданиятига оид қўлёзма манбаларни жамлайди ва уларни тўплам ҳолида тизимлаштирилган кўринишда «Материалы по истории Каракалпаки» номи билан нашрдан чиқаради[9.145-287].

Шарқшунослик институти олими, профессор П.П.Иванов 1933 йилги конференцияда «Материалы к изучению история Каракалпаков» номли мақоласи билан иштирок этади[10.178-199]. Унда XVIII асрдаги рус-қорақалпоқлар муносабатлари тарихи ёритилган.

Москвалик архившунос олим А.М.Бирзенинг XVIII асрдаги қорақалпоқларнинг тарихи, хўжалиги ва маданиятига оид Россия империяси архив манбаларини ўрганишдаги хизматлари

беқиёс. У Россия Ташқи ишлар вазирлиги архив фондларидаги маълумотлар асосида «Қорақалпоқлар иши» номли архив ҳужжатлари тўпламини нашрдан чиқаради[11.91]. Бу тўпламда архив ҳужжатлари асосида 1722-1742 йиллардаги қорақалпоқ халқининг сиёсий ва иқтисодий тарихига тегишли маълумотлар акс эттирилган.

С.П.Толстов раҳбарлигидаги Хоразм археологик ва этнографик экспедициясида иштирок этган тадқиқотчилар қорақалпоқлар тарихини ўрганишга улкан ҳисса қўшади. 1945 йилда ушбу экспедиция доирасида профессор Т.А.Жданко раҳбарлигида махсус гуруҳ тузилиб, қорақалпоқ халқи этнографиясининг ўрганилиши муҳим аҳамият касб этади. 1945-1948 йилларда бу гуруҳ Хоразм воҳасида қурилган ва у ердаги XVII-XIX асрлар архитектурасини ўрганган[12.460-466]. 1948 йилда у Ақ яқиш (Айдос қалъа), Ўринбой қалъа, Мехтер-қалъа, истеҳком қўрғонлар (ҳовли), Ўраз оталиқ, Авез оталиқ ўрганилган[12.474].

В.В.Андрианов Шимолий Хоразмда қорақалпоқларнинг этник жойлашуви ва шаҳарларини ўрганишда катта ҳисса қўшди. Унинг илмий меҳнатлари Жанубий Оролбўйидаги шаҳарларнинг тараққиёти тарихи, ижтимоий-иқтисодий томонидан акс эттирилади. Муаллиф Чимбой шаҳри 9 волостли савдо маркази бўлганлигини таъкидлайди. Куз кунлари Чимбой бозорига 2 мингга яқин одам келади. Бозорнинг товар айланмаси 30 минг рублгача етади. Шаҳарда 80 га яқин дўкон бор. 100 га яқин баққол, 10 та новвойхона, 10 та сут маҳсулотларини сотадиган ва бошқалар мавжуд. Чимбой беда уруғлари, пахта ва чорвачилик маҳсулотларининг чакана сотиш маркази бўлган. Чимбой харидорлари йирик Европа фирмаларининг агентлари билан алоқада бўлган. Қорақалпоғистоннинг яна бир муҳим маркази 1874 йилда ташкил этилган Петро-Александровск шаҳри эди. Петро Александровск Амударё бўлимининг маъмурий маркази эди. Қорақалпоғистоннинг шаҳар марказлари, Чимбой, Петро-Александровск, Шўрохон, Қўнғирот ва бошқа шаҳарлар Оренбург, Тошкент, Оқ-Мачит (Қизил ўрда), Чоржўй орқали карвон йўллари ва сув йўлларида умумрус бозори билан алоқа ўрнатган[13.43-45].

И. Жаббаровнинг диссертация иши Хоразм оазиси шаҳарлари тарихини ўз ичига олади. Унда ҳунармандчиликнинг барча турлари, вилоят ҳунармандлари – шаҳар аҳолиси фаолияти акс эттирилган[14].

К.Л.Задихина XVII-XVIII асрларга оид маълумотлар ва маҳаллий манбалар асосида Хоразмнинг шимолида, яъни қуйи Амударё ҳудудидаги ороллиқлар тарихини ўрганади[15.324-325]. XVII-XVIII асрларда «Орол эгалиги»нинг Қўнғирот, Шахтемир шаҳарлари тўғрисида маълумотлар беради.

Жанубий Оролбўйи шаҳарлари тарихига Я.Ғ.Ғуломов[16] тўхталиб ўтади ва улкан манбалар асосида Хоразм воҳаси шаҳарларининг юзага келиш тарихини қадимий даврлардан бошлаб XX асрнинг 50 йилларигача очиб беради. Мазкур китобда Хоразм воҳаси шаҳарлари, шунингдек, Жанубий Оролбўйи ҳудудларида шаҳарларнинг ривожланиш эволюцияси берилган. Кердер, Шахтемир тўғрисида, Чимбой шаҳри, Хўжайли ва бошқаларни маҳаллийлаштириш муаммоларига тўхталиб ўтилган.

1958-1959 йилларда В.Н.Ягодин ва А.В.Гудкова раҳбарлигидаги археологик гуруҳ Амударё дельтасининг шимолий бўлимида ишлаган ва у ерда қорақалпоқ қўрғонларини ўрганган[17.248-273].

Муаллифлар Амударёнинг ўнг қирғоғида жойлашган бир қанча қўрғон-шаҳарларда тадқиқот ишларини олиб боради. Ушбу қўрғонларнинг ичида Дори (Дары) қалъа ва Кўкча-шаҳарлар тўғрисида батафсил маълумот берилган.

О.А.Сухарева ва Н.О.Турсунов асарларида XIX аср XX аср бошларида минтақанинг турли ҳудудларидаги аҳоли пунктларининг тузилиши ва структураси тўғрисида тўпланган маълумотларни бирлаштириш ва системалаштиришга уринишган. Улар ўзларининг мақолаларида шаҳар, шаҳарча, савдо ўринлари ва турли аҳоли пунктларини тафовутлаш критерияларини белгилаб беради. Муаллифлар шаҳарлар: Хива, Қўнғирот, Янги Урганч, Хазорасп, Чимбойни Хива хонлигининг қишлоқ-хўжалиги воситаларини ишлаб чиқариш марказларидан бири деб ҳисоблайди[18.193].

Қорақалпоқлар тарихини ўрганишда академик С.Камаловнинг хизматлари алоҳида муҳим ўрин тутади. Унинг раҳбарлигида Оренгбург шаҳар архивларидаги қорақалпоқлар тарихига тегишли ҳужжатларни ўрганиш мақсадида илмий экспедиция ташкил этилади[19.84-85]. Экспедиция таркибида илмий ходимлардан Ҳусниддин Ҳамидов, Бийбайша Кетебаева ва бошқа ходимлар иштирок этишди.

Академик С.К.Камаловнинг тадқиқотларига кўра «XVII асрда қорақалпоқлар Сирдарёнинг ўрта ва қуйи оқимлари ҳудудида яшаган. Сўнг улар жанубий-ғарбий томонга силжиши ва кўчманчи ўзбеклар билан бирга Хоразмнинг шимолига жойлашиб, мустақил турда Орол эгалиги деб номланган давлат ташкил этади. XVII асрдан XIX асргача бўлган ёзма манбаларда бу эгалик Хива ва Бухоро хонликлари билан бирга бир қаторда тилга олинади, бу эса уни алоҳида кўриб чиқишга имконият яратади. Қўнғирот ва Шахтемир шаҳарлари асосий марказлар бўлган ва шимолий Қорақалпоғистонни, Амударё дельтасини ўз ичига олган»[20.113-122], деб кўрсатади.

С.Камаловнинг «Каракалпаки в XVIII-XIX веках» номли асари қорақалпоқ халқи тарихига оид асарлардан бири ҳисобланади[21.328]. Муаллиф XVII-XIX асрлардаги рус элчилари, давлат намоёндалари, тарихчилар асарлари, махсус адабиётлар, газета-журналлар, Оренбург, Астрахан, Москва ва Санкт-Петербург шаҳарларидаги архив ҳужжатлари, Тошкент шаҳридаги Туркистон генерал-губернаторлиги архив ҳужжатлари сингари кўплаб манбалардан фойдаланган. Уларни таҳлил этиш асосида тарихий воқеаларга бой фундаментал асар яратилган. Асарда қорақалпоқларнинг XVIII-XIX асрлардаги Жанубий Оролбўйи шаҳарлари Қўнғирот, Чимбой, Хўжайли, Манғит қалъа, Оқ қалъа, Айдос қалъа, Эрназар қалъа в.ҳ. шаҳарлар таъкидлаб ўтилади. Айниқса, Хива хони Муҳаммад Рахимхон томонидан 1811 йили қорақалпоқларнинг Хива хонлиги таркибига қўшиб олиниши, 1827 йилги Ойдўстбий, 1855-1856 йиллардаги Эрназар Олакўз, 1858-1859 йиллардаги Муҳаммад Пана исёнлари, 1873 йилги Россия империяси томонидан Хива хонлигининг истило қилиниши, 1874 йилдан қорақалпоқларнинг маъмурий жиҳатдан икки қисмга ажралиши ва бошқа ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий тарихига оид аҳамиятли воқеалар акс этган.

С.Камаловнинг йирик илмий ишларидан бири Ж.Уббиниязов ва А.Қошановлар билан ҳаммуаллифликда ёзилган асари ҳисобланади[22.]. Бу асарда XVII-XX асрлар оралиғидаги қорақалпоқларнинг подшо Россияси халқлари, қозоқлар ва Ўрта Осиё хонликлари билан сиёсий алоқалари, хўжалик ҳаёти, ижтимоий соҳадаги ўзгаришлар, маънавий ҳаёт ва жамоатчилик фикрлари ва бошқа соҳалар тўғрисида маълумотлар берилади.

Т.Г.Тухтаметовнинг илмий ишлари ҳам алоҳида эътиборга лойиқ[23.], унда муаллиф янги архив ҳужжатлари асосида Жанубий Оролбўйи шаҳарларининг мустамлака даврдаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ҳолатини очиб беради.

М.К.Нурмухамедов, Т.А.Жданко, С.К.Камаловлар билан ҳаммуаллифликдаги «Каракалпаки» китобида Хўжайли, Қўнғирот, Чимбой, Манғит, Қипчоқ ва Шўрохон шаҳарларининг савдо-сотиқдаги ўрни кўрсатиб берилган[24].

Р.Қосбергенов қорақалпоқ халқининг тарихини ўрганишда рус манбаларидан кенг фойдаланган олимлардан биридир. Унинг «Қорақалпоқларнинг Россияга қўшилиши»[25] асарида XIX-XX аср бошидаги қорақалпоқ халқининг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ҳаёти ва Россия империяси билан алоқалари тарихи ёритилади.

Р.Қосбергеновнинг «XIX асрнинг охири XX асрнинг бошидаги Қорақалпоқ халқининг маданияти ва ҳаёти» асарида қорақалпоқларнинг моддий ва маънавий маданияти, хўжалик ва ҳаётига доир қимматли маълумотлар билан биргаликда савдо-сотиқнинг ривожланиши натижасида шаҳарларнинг ва ундаги бозорларнинг тараққиёти тўғрисида маълумотлар берилади.

Унинг асарида Чимбой, Эшонқалъа, Кўнчиқалъа, Давқора, Назархан, Нукус қалъа, Шўрча қалъа ва Сартой қалъалар таъкидлаб ўтилади[26.18]. Шунингдек, унинг илмий ишлари собиқ Иттифоқ давридаги коммунистик идеология сиёсати таъсирида ёзилишига қарамай қорақалпоқ-рус муносабатларига ва қорақалпоқ халқи маданиятига алоқадар аҳамиятли тарихий манбалар берилган.

Хива хонлиги шаҳарларининг шаҳар маданияти А.С.Содиқовнинг мақоласида кўриб чиқилган[27].

О.Жалилов[28.64-65] ишида Хива хонлари архив ҳужжатларини таҳлил этиш асосида Чимбой ва Қўнғирот қорақалпоқ ва қозоқларнинг маъмурий марказлари бўлганлиги кўрсатилган. Хўжайли ва Нукус, Хива ва қўшни хонликлар ўртасида, шунингдек, Россия билан савдонинг ривожланиши улкан аҳамиятга эга бўлган марказлари эди. Масалан, Чимбойда катта карвонсарой ва 150 га яқин дўкон, Қўнғиротда 350 та, Хўжайлида 150 та дўкон бор эди. Бундан ташқари, муаллиф солиқларни йиғиш вақтида шаҳар ва қўрғонлар, ҳокимларнинг турли даражалари, шунингдек, вазирлар, девонбеги ва маҳрамлар томонидан назорат қилинганлигини таъкидлаб ўтади.

Қорақалпоғистон халқларининг қишлоқ хўжалигидаги аграр масалалар тарихини ўрганишда Қ.Сарибаев катта ҳажмдаги илмий-фаолият олиб борган. У XIX аср охири ва XX аср бошидаги қорақалпоқларнинг сунъий суғориш тизими, ер-сув муносабатлари ва қишлоқ хўжалигига алоқадор масалалар тарихига тўхталиб ўтади. Асарда суғориш иншоатлари бўйида жойлашган шаҳарлар ҳақида маълумотлар учрайди[29].

О.Юсупов Жанубий Оролбўйининг шаҳарлари тўғрисида тадқиқотлар олиб борган тарихчилардан саналади. Унинг тадқиқотларининг дастлабки даврларида Амударёнинг қуйи ҳудудидаги қўрғон шаҳарлар ўрганилиб, хулосалар мақола ҳолида газета ва журналларда эълон қилинди[30.79-81]. Унинг қорақалпоқ халқининг XVIII-XIX асрлардаги Жонибек ботир, Маман ботир, Мурод Шайих Азийз бобо, Қоразбек бий оталиқ, Хожамурат бий, Тўрамурод сўфи сингари тарихий шахсларнинг сиёсий фаолиятини акс эттирувчи асарида улар яшаган шаҳарлар тўғрисида маълумотлар берилган[31]. Қорақалпоқларнинг XVIII-XIX асрлардаги сиёсий тарихи ушбу тарихий шахслар фаолияти билан алоқадор ҳолатда ёритилган. Асарда Орол денгизи, Сирдарё ва қуйи Амударё бўйларида истиқомат қилувчи қорақалпоқларнинг географик жойлашуви ва чегаралари, Жонибек ботир, Маман ботирга ўхшаган қорақалпоқ элчилари, қорақалпоқлар тарихи ўрганилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Сухарева.О.А. Позднефеодальний город Бухара конце XIX - начало XX века. Тошкент, АН УзССР, 1962
2. Большаков О.Г., Беленицкий А.М., Бентович И.В. Средневековый город средней Азии. Л. 1973
3. Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – Тошкент, 1982.
4. «Позднефеодальный город Средней Азии». – Т., Фан, 1990.
5. Иванов П.П. Материалы по истории Каракалпаки // СЭ. Сборник статьей. IV.М-Л., 1940; Унинг: Архив Хивинских Ханов XIX в. – Л., 1940.
6. Толстов.С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция (1945-1948 гг)-Труды ХАЭЭ. том I, Древний Хорезм. – Москва.,1948; По следам древние Хорезмской цивилизации. – Москва.,1948.; "По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва, 1962.
7. Жданко Т.А. Этнографическая разведка в Чимбайском районе Кара- Калпакской АССР \\ КСИЭ. Т. II. 1947; Очерки исторической географии каракалпаков (Родо-племенная структура и расселение в X1X - начале XX в.) // Труды Института этнографии АН СССР. Новая серия. Москва-Ленинград, 1950. Т. IX.; Каракалпаки Хорезмского оазиса. -«Труды ХЭЭ». Т.I. – М., 1952.
8. Андрианов Б.В. Ак-джагиз. ТХЭЭ. Том 1. – М., 1952; Андрианов Б.В. Этническия территория каракалпаков в северном Хорезме (XVIII-XIX вв.). Материалы и мсследования по этнографии каракалпаков. ТХАЭЭ. т.III. – Москва, 1958.
9. Материалы по истории каракалпаков. М-Л. 1935. – Б.145-278.
10. Иванов П.П. Материалы по изучению истории каракалпаков. Сборник: Каракалпакия. – Л.: 1934.
11. Бирзе А.М. К историй каракалпаков XVIII в. // Красный Архив. – М.: 1938. №6 (91).
12. Жданко Т.А. Каракалпаки Хорезмского оазиса. -«Труды ХЭЭ», т.I. – М.,1952.
13. Андрианов В.В. Экономическое развитие Кара-Калпакии в колониальный период. Фундаментальная биб-ка ККОАНРУз. 1959,
14. Джаббарова И. Городское ремесло узбеков Хорезма в конце XIX –начало XX веков. (Историко-этнографический очерк.).АКД., М.,1954.
15. Задыхина К.Л. Узбеки дельты Амударьи//Труды Хорезмской археолого- этнографической экспедиции. Том.1. – М.: Изд. АНССР. 1952.
16. Гулямов Я. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Тошкент, 1959.
17. Гудкова А. В., Ягодин В. Н. «Археологические исследования в правобережной части приаральской дельти Амударьи в 1958–1959 гг. [Археологические исследования на правом берегу Аральской дельты Амударьи в 1958–1959 гг.] ", Москва, 1963;

18. Сухарева.О.А. Позднефеодальный город Бухара в конце XIX-начала XX века. Тошкент: АН Уз ССР, 1962

19. Тилеўмуратов М. XVIII-XIX әсирлер тарийхын изертлеўде С.Камаловтың мийнетлери // Вестник ККО АНРУз. – Нукус. 1994. №3.

20. Камалов С. К., «К вопросу о формировании каракалпакского народа», Вестник ККФ АН УзССР, № 4, 1997

21. Камалов С. Каракалпаки в XVIII-XIX веках. – Тошкент. Фан, 1968

22. Камалов С., Уббиниязов Ж., Кощанов А. Из истории взаимоотношений каракалпаков с другими народами Средней Азии и Казахстана в XVII-начале XX вв. – Тошкент. 1988

23. Тухтаметов Т.Г. Амударьинский отдель (Социально-экономическое и политическое значение для Хорезмского оазиса). Нукус, 1977,Россия и Хива в конце XIX начало XX века. – Москва., 1969.

24. Нурмухаммедов М.К, Жданко Т.А, Камалов С.К. Каракалпакии. - Тошкент. Фан, 1971

25. Косбергенов Р. Қарақалпақлардың Россияға қосылыўы. – Нөкис. 1972.

26. Қосбергенов Р.К. XIX әсирдиң ақыры XX әсирдиң басындағы Қарақалпақ халқының мәденияты ҳәм турмысы. – Нөкис. 1974

27. Садиков А.С. Города Хивинского ханства в конце XIX – начале XX вв., в кн; Материалы по истории и археологии Узбекистана. Научние Труды Тошкент.ГУ. Вып. 441. – Тошкент, 1973.

28. Жалилов О. XIX-XX аср бошларидаги қорақалпоқ тарихидан (Хива давлат ҳужжатлари асосида). Тошкент: Фан, 1986

29. Сарибаев К. История орошения Каракалпакстана Нукус. «Каракалпакстан» 1995

30. Юсупов О.Ж. Жаңа қала// ӨзССР ҚҚФ «Хабаршысы» 1983. №3, Ақ қала. -Әмўдәрья. 1987, №7

31. Юсупов О.Ж. Жәнибек батир Маман батир Мурад Шайих әзийз баба, Қоразбек бий аталық. – Нөкис. 1993

УДК 7.033:75.046.3(575.15)

ИСКУССТВО КНИЖНОГО ОФОРМЛЕНИЯ В ЭПОХУ ТЕМУРИДОВ

А.Э.Юсупов, ст.преподаватель, Андижанский государственный университет, Андижан

Annotatsiya. *Maqola Amir Temur va Temuriylar davrida qo'lyozma kitobning badiiy bezagi san'ati rivojiga bag'ishlangan. Unda xattotlik, ornament va muqova an'analari, Samarqand va Herat ustalarining faoliyati, kitob madaniyati shakllanishining o'ziga xos jihatlari hamda uning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni yoritiladi. Qo'lyozma kitobning mintaqaning muhim madaniy merosi sifatidagi ahamiyati ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *Temuriylar, xattotlik, qo'lyozma kitob, ornament, miniatyura, Samarqand, kitob san'ati.*

Аннотация. *Статья посвящена развитию искусства художественного оформления рукописной книги в эпоху Амира Темура и Темуридов. Рассматриваются традиции каллиграфии, орнамента и переплёта, деятельность мастеров Самарканда и Герата, особенности формирования книжной культуры и её роль в духовной жизни общества. Показано значение рукописной книги как важнейшего культурного наследия региона.*

Ключевые слова: *Темуриды, каллиграфия, рукописная книга, орнамент, миниатюра, Самарканд, книжное искусство.*

Abstract. *The article is devoted to the development of the art of manuscript book design during the era of Amir Temur and the Temurids. It examines the traditions of calligraphy, ornamentation, and bookbinding, the work of masters from Samarkand and Herat, the specifics of the formation of book culture, and its role in the spiritual life of society. The importance of the manuscript book as a significant cultural heritage of the region is highlighted.*

Keywords: *Temurids, calligraphy, manuscript book, ornament, miniature, Samarkand, book art.*

Сложный процесс становления и развития человеческой культуры рождения книги — вначале рукописей, а затем печатной, сыграло, пожалуй, не меньшую роль, чем появление орудий материальной культуры. Возникнув в разные исторические периоды у различных веков была основным аккумулятором всех видов человеческого значения и важнейшим инструментом его распространения. Книга — духовное завещание одного поколения другому,

произведение искусства и архитектурно и пространственно осмысленный объект. В ней все: формат, шрифт, оформление подчинено единой цели – глубоко отразить содержание, идею произведения, создать целостное образное впечатление.

Даже в годы упадка искусства рукописной книги, на закате ее былого величия в народе сохранялось идущее из глубины веков бережное и трогательное отношение к книге, почитание и поклонение ей[3, С. 22-30]. В этот период высокого уровня развития достигли сферы искусства, науки, образования, архитектуры и другие направления человеческой деятельности, что оказало непосредственное влияние на развитие всей мировой культуры[4, С. 81].

Создание рукописной книги, ставшее объектом художественного творчества, тесно было связано с появлением бумаги. Только темуридский период внес определенные новшества в ее декоративное убранство. Значительную роль в этом сыграли мастера из Самарканда и Герата, где на рубеже XIV—XV вв. в книжное искусство ценилось особенно высоко[1, С. 27].

Художественное оформление рукописных книг было относительно скромным и непритязательным. Распространенным элементом оформления служил *унван* в начале книги, выполнявшийся в красках в половину, треть или четверть страницы перед текстом (на оборотной стороне первого листа); преобладали цвета синий, красный, золотой и зеленый; форма *унвана*— в виде купола (овального, полукруглого) или прямоугольная, поле его расчерчивалось и обрамлялось. Изредка *унван* исполнялся в развернутый лист или повторялся дважды. Отмечаются единичные случаи появления унван в середине рукописи или в начале каждого тома большого сочинения. Обычно унван был без надписей, но иногда в него вписывалось название сочинения.

В роскошных экземплярах книг, выполнявшихся по прямому заказу или для подношения султану (амиру, сановнику), первую страницу украшали миниатюрой, цветными рамками и орнаментом, на ней писали имя заказчика и владельца, а иногда и имя мастера (переписчика-оформителя) с добавлением благопожеланий, названия сочинения и имени автора. Под стать первой могла быть украшена и оформлена вторая страница, далее уже шли обрамленные страницы. Чаще и роскошнее других украшали рукописи Корана.

Способность художественного оформления рукописных книг жить вне времени, впитывая в себя мудрость веков, отражая ее, выражая представления людей о красоте и внося ее в жизнь, способность быть понятым вне узкой привязанности к определенному месту и времени объясняет его многовековую жизнь, на протяжении которой новые поколения находили в нем источник идейных и эстетических ценностей. Идея оформления рукописи зарождалась и формировалась в мастерских художников в тесном творческом контакте мастеров всех отраслей книжного искусства — *хаттота (каллиграфа) наккоша (орнаменталиста), музаххиба (позолотчика), рассома (художника) и саххоба (переплетчика).*

В создание рукописной книги свою лепту вносили представители разных художественных профессий, однако главным «режиссером», обдумывавшим ее оформление до мельчайших деталей, оставался каллиграф, перед которым стояла задача, как и перед многими поколениями его предшественников, удовлетворить вкусу восточного читателя, доставить эстетическое наслаждение не только содержанием произведения, но и безупречным искусством каллиграфа — это соразмерность букв и сочетание их элементов, гармония линий. Неслучайно восточные поэты тонкие, изогнутые начертания «алифов» и «лямов» сравнивали со стройным и изящным станом девушки. Искусство каллиграфа, помимо природного таланта, требовало огромного терпения, трудолюбия и постоянного совершенствования, ведь на создание высокохудожественной рукописи уходило много времени — не дни и не месяцы, а годы.

«Точность, осведомленность в письме, добротность руки, терпение в труде и совершенство письменного снаряжения, если из этих пяти в одном произойдет недостаток — не получится пользы, хоть старайся сто лет», — так писал о нелегком труде каллиграфов замечательный мастер этого древнего искусства Мир Али.

Своего наивысшего взлета рукописная книга достигла в период Темуридов, когда, помимо иллюстрирования миниатюрами, создавались рукописи, характер стиля, тип

оформления и даже формат которых определялись прежде всего их содержанием и назначением. Исключение составляли, в силу религиозного запрета, Коран, богословская литература, и большинство философских трудов, которые не иллюстрировали.

На средневековом Востоке рукописная продукция была огромной по масштабу, а содержание рукописной книги отличалось большим разнообразием. Внушительная тематика и количество свободно циркулировавших на книжном рынке списков несомненно, отражали интересы и потребности различных сословий и социальных групп тогдашнего общества, свидетельствовали не только о культурном уровне общества, но и о его грамотности и образованности[5, С. 312].

Самарканд эпохи Темуридов оставался одним из главных центров производства писчей бумаги на Востоке. Сочинения, составленные при Амире Темуре и его потомках в Мавераннахре, как правило, написаны на самаркандской бумаге. Так, на ней выполнено сочинение Шараф ад-Дина Али Иазди «Зафарнаме», хранящееся в Институте востоковедения АН Узбекистана под инв. № 4472.

Среди художественных рукописей периода Темуридов, кроме иллюстрированных миниатюрами, есть множество книг, созданных каллиграфами и оформленных орнаменталистами.

Как и другие виды искусства эпохи Амира Темура, художественная рукопись развивалась на основе творческого освоения лучших традиций мастеров предшествующих веков. Так, в общественных и частных библиотеках древнего Самарканда, Герата, Бухары, Тебриза XIV—XV вв. хранилось немало изящно оформленных и иллюстрированных списков, переписанных в XIII—XIV вв. Художественные достоинства рукописей не определялись наличием миниатюры: некоторые оформленные миниатюрами рукописи по своим художественным достоинствам стояли гораздо ниже, рукописей без них, и наоборот.

Для придворных библиотек Амира Темура, Шахруха, Мирзо Улугбека, Байсункара, Султана Хусайна постоянно приобретались драгоценные рукописи в основном за большие деньги. В большинстве случаев оценивались художественные достоинства уже готового произведения и мастеров вознаграждали по заслугам.

Строгими орнаментальными изображениями иллюстрировались, например, Коран, богословская литература и философские труды. Ярко, красочно оформлялись рукописи сочинений многих выдающихся представителей науки и культуры Центральной Азии.

В противоположность миниатюре, сфера использования которой была ограничена, орнамент применялся во всей духовной и светской литературе.

Каллиграфические фрагменты Султана Али Мешхеди, Мир Али Херави Мир Имада и других роскошно оформлялись художниками-орнаменталистами и ценились гораздо выше, чем некоторые превосходные миниатюры.

«Царь каллиграфов» Султан Али Мешхеди, основоположник гератской школы миниатюрной живописи Камал ад-Дин Бехзад и знаменитый мастер книжного орнамента наккаш Мавляна Йари стали наставниками сотен мастеров, работавших над созданием шедевров художественной рукописи. Каждая рукопись, подготовленная ими или под их руководством, отличалась своей неповторимостью.

Qaysi qushning ovozi tasvirlangan?

3.Matn asosida tasvir chizing:

O‘rmon manzarasini o‘z tasavvuringizga ko‘ra chizing.

4.Tuyg‘ularni tahlil qilish:

Matn qanday kayfiyat uyg‘otadi? U qanday hissiyotlar bilan yozilgan deb o‘ylaysiz?

5.Matnni badiiy jihatdan davom ettiring: Matnning keyingi qismini tasavvuringizda davom ettirib, 3-4 jumladan iborat kichik matn yozing.

6.Qiyosiy tahlil: Shu kabi o‘zbek adabiyotida tabiat tasvirlangan asarlarni eslab, qiyoslang.

Har bir termin va birikmaning soha ichidagi real qo‘llanishi, misollar yordamida ko‘rsatib o‘tilishi talabalarning terminlarni nafaqat yodlab olish, balki amalda qo‘llash imkoniyatini oshiradi. O‘quvchilarga terminlar va birikmalardan foydalanib mustaqil yoki kichik guruhlarda ishlash yaxshi samara beradi. Bu faoliyat tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘zaro fikr almashishga rag‘batlantiradi. Mavzu bo‘yicha qisqa test, insho yoki taqdimotlar yordamida o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va xatolarni tuzatish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu tarzda o‘tilgan mavzu o‘zbek tilini o‘rganayotgan, ayniqsa, rus tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilar uchun terminologik bilimlarni chuqurlashtirish, til ko‘nikmalarini mustahkamlash va soha lug‘atlarining samarali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Natijada dars jarayoni faol va interaktiv bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishi ortadi, mustaqil fikrlashlari rivojlanadi hamda ta’lim sifatida sezilarli darajada yaxshilanadi. Dars jarayonida tarqatma materiallardan foydalanish termin va birikmalarning mazmuni mustahkamlanadi. Tilshunoslikdagi murakkab tushunchalar osonroq qabul qilinadi. O‘quvchilar terminlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadi. Mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalar rivojlanadi. Quyidagi topshiriqlar mavzuni mustahkamlash uchun ayni muddao.

Do‘stlik

Do‘stlik – bu insonlar o‘rtasidagi eng yorqin va samimiy munosabatdir. Har bir insonning hech bo‘lmasa bitta sodiq do‘sti bo‘lishi kerak. Ko‘pincha, biz, do‘stlarimiz ko‘p , deb adashamiz. Do‘stlikning mustahkamligi qiyinchilikda bilinadi. Haqiqiy do‘st faqat amalda emas, so‘z bilan ham yordam bera oladi. Do‘stlik ko‘pincha vaqt va masofa bilan sinovdan o‘tadi. Do‘stlik mavjud bo‘lgan joyda eng og‘ir ishlar ham osonlashadi. Do‘stlar birga bo‘lganda, har qanday ish yengil bo‘ladi. Do‘stlikda insonning sodiqlik, halollik, ochiqlik, mas’uliyat va sadoqat kabi fazilatlari namoyon bo‘ladi.

Matnni tushunishni tekshirish uchun savollar:

Do‘stlik nima deb ta’riflanadi?
Nega har bir insonning kamida bitta sodiq do‘sti bo‘lishi kerak?
Do‘stlik qanday sinovlardan o‘tadi?
Do‘stlikda qaysi insoniy sifatlar namoyon bo‘ladi?

Matndagi quyidagi so‘zlarning ma’nosini izohlang:

sodiq
adashmoq
mustahkamlik
yordam berish
sinov

Matndan toping va yozing:

Do‘stlik qaysi vaziyatlarda eng ko‘p qadrlanadi?
Do‘stlar birga bo‘lganda nima sodir bo‘ladi?
Do‘stlikda qanday xislatlar ko‘rsatilgan?

Tarqatma materiallardan foydalanishning afzalliklari:

O‘quvchilarni faollashtiradi – darsda faollik oshadi, har bir o‘quvchi o‘z ishi bilan shug‘ullanadi.

Shaxsiy yondashuv imkonini beradi – har bir o‘quvchining bilim darajasiga qarab alohida material berish mumkin.

Mustaqil fikrlashni shakllantiradi – javobni kitobdan emas, o‘z tafakkuri orqali topishga o‘rganadi.

Vaqtdan unumli foydalaniladi – dars mobaynida bir nechta mashq va topshiriqni bajarish imkoniyati tug‘iladi.

Darsni jonlantiradi – vizual materiallar (jadvallar, rasmlar, sxemalar) darsni qiziqarli qiladi.

Nazoratni osonlashtiradi – o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimini yozma ishlari orqali tez tahlil qiladi.Tarqatma materiallar o‘zbek tilini o‘rganishni qanday osonlashtiradi.Talabalarning faolligi, qiziqishi qanday o‘zgaradi.

Xulosa qilib aytganda, rus tilida ta’lim olayotgan guruhlarda o‘zbek tilini samarali o‘qitishda tarqatma materiallar vositasida soha lug‘atlari va terminologiyani o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan didaktik yondashuv amaliy jihatdan o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Tarqatma materiallar orqali taqdim etilgan izohli tushunchalar, kontekstual misollar, matnlar asosida tuzilgan savol-javoblar, tahliliy mashqlar va ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarni til tizimi va uning real qo‘llanilishiga chuqurroq singdiradi. Bu yondashuv o‘zbek tilini o‘rganishda integrativ metodikani amalga oshirish, o‘quvchilarning til kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish, mustaqil fikrlash va amaliy qo‘llashga tayyor holga keltirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Muhitdinova X.S., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili. (darslik) – Toshkent, 2012. – 288 b.

2.Normatova SH., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik) – Toshkent, 2014. – 92 b.

3.D.Bazarova, F.Rajabova, M.Aliqulova. O‘zbek tili. (Uslubiy qo‘llanma.) Qarshi. Intellekt. 2024.–172 b.

4. M.Hamroyev, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva. Ona tili (darslik). Toshkent: TDPU. 2008.

5. Ne’matov X., G‘ulomov A., Ziyodova T. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. T.1996.-110 b.

6.Bazarova, D. Ta’lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda “o‘zbek tilida so‘z tarkibi” mavzusini o‘rgatish tajribasidan. O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta’lim nazariyasi va amaliyoti, 1(01), 88-90.

UO’K 37.02:378.147(586.5)

“TABIIY FANLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI” MAVZUSINI KEYS-STADI TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TUSHUNTIRISH

X.O‘. Bekchanov, b.f.d., Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch
Z.B. Isayeva, o‘qituvchi-stajyor, Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tabiiy fanlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, ularning ilmiy tafakkur va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan. “Tabiiy fanlarning shakllanishi va rivojlanishi” mavzusini Keys-stadi asosida tushuntirish metodikasi ishlab chiqilib, amaliy tajribalar asosida sinovdan o‘tkazilgan. Olingan natijalar Keys-stadi texnologiyasi talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *Tabiiy fanlar, shakllanish va rivojlanish, Keys-stadi texnologiyasi, ta’lim samaradorligi, ilmiy tafakkur, metodika, mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, pedagogik tajriba.*

Аннотация. *В данной статье анализируются этапы становления и развития естественных наук, их значение в научном мышлении и развитии общества. Методика объяснения темы “Становление и развитие естественных наук” была разработана на основе Кейс-стади и апробирована на основе практического опыта. Полученные результаты показали, что технология Кейс-стади является эффективным инструментом развития у студентов самостоятельного мышления, аналитического подхода и коммуникативных навыков.*

Ключевые слова: *Естественные науки, становление и развитие, технология Кейс-стади, эффективность образования, научное мышление, методология, самостоятельное мышление, аналитический подход, педагогический опыт.*

Abstract. *This article analyzes the stages of formation and development of natural sciences, their importance in scientific thinking and development of society. Methodology for explaining the topic “Formation and development of natural sciences” was developed on the basis of Case-study and tested on the basis of practical experiences. The obtained results showed that Case-study*

technology is an effective tool for developing students' independent thinking, analytical approach and communication skills.

Key words: *Natural sciences, formation and development, Case-study technology, educational efficiency, scientific thinking, methodology, independent thinking, analytical approach, pedagogical experience.*

Kirish. Insoniyat tarixida tabiatni o‘rganish har doim muhim o‘rin tutgan. Tabiat bilan bevosita munosabatda bo‘lgan qadimgi odamlar uning sirlarini bilishga, qonuniyatlarini tushunishga intilib kelganlar. Dastlabki davrlarda odamlar yomg‘ir, chaqmoq, shamol va boshqa hodisalarni ilohiy kuchlar bilan bog‘lashgan. Biroq asta-sekin kuzatish, tajriba va tafakkur orqali tabiat hodisalarini ilmiy asosda izohlash boshlandi.

Bugungi kunda tabiiy fanlar - biologiya, fizika, kimyo, geologiya, geografiya, astronomiya, ekologiya va boshqa yo‘nalishlar jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ilm-fan taraqqiyoti texnologiya, tibbiyot, energetika va kosmik tadqiqotlarda yangi ufqlarni ochmoqda.

Ta’lim sohasida esa asosiy vazifa talabalarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularda mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir [5]. Shu boisdan Keys-stadi (Case-study) texnologiyasi bugungi ta’lim metodlarida muhim o‘rin tutmoqda.

Metodologiya. Tadqiqot obyekti sifatida “Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi” fanining o‘quv jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti - “Tabiiy fanlarning shakllanishi va rivojlanishi” mavzusini Keys-stadi texnologiyasi asosida tushuntirish.

Tadqiqotda nazariy tahlil (ilmiy adabiyotlarni o‘rganish), kuzatish va pedagogik tajriba, Keys-stadi texnologiyasi asosida keys ishlab chiqish, taqqoslash va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Maqolada tabiiy fanlarning shakllanishi va rivojlanishini tushuntirish uchun Keys-stadi texnologiyasi asosida maxsus keyslar ishlab chiqildi va ularning samaradorligi talabalar ishtirokida sinovdan o‘tkazildi.

Nazariy usullar yordamida tabiiy fanlarning shakllanishi va rivojlanishiga oid adabiyotlar tahlil qilindi (Arastu, Ibn Sino, Nyuton, Darvin, Mendel va boshqalar), shuningdek, Keys-stadi texnologiyasining mohiyati, ta’limdagi o‘rni va afzalliklari o‘rganildi [3,4].

Amaliy usullardan foydalanib “Tabiiy fanlarning shakllanishi va rivojlanishi” mavzusida maxsus keyslar ishlab chiqildi va Keys-stadi asosida dars o‘tkazildi. Talabalarning bilim va ko‘nikmalari nazorat ishlari, testlar va suhbatlar orqali o‘rganildi.

Taqqoslash usuli orqali an’anaviy o‘qitish va Keys-stadi asosidagi o‘qitish samaradorligi solishtirildi.

Keyslar mazmuni quyidagilardan iborat:

Keys 1: Qadimgi odamlar tabiat hodisalarini miflar orqali tushuntirishgan. Bu jarayon keyinchalik ilmiy tafakkur rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

Keys 2: Ibn Sino, Arastu, Nyuton, Darvin kabi olimlar fan rivojida tub burilish yasagan. Qaysi olimning ishi tabiiy fanlarga eng katta ta’sir qilgan deb o‘ylaysiz?

Keys 3: Zamonaviy davrda tabiiy fanlar - genetika, ekologiya, kosmik tadqiqotlar, nanobiotexnologiya hayotimizni qanday o‘zgartirmoqda?

Keys-stadi bir nechta bosqichlardan iborat [4]:

1. Muammoni tushunish bosqichida Keys matni o‘qiladi.
2. Tahlil qilish bosqichida guruhlar sabab-oqibatlarni aniqlashadi.
3. Yechim topish bosqichida Talabalar fikr bildiradilar.
4. Bahs-munozara bosqichida guruhlar natijalari taqqoslanadi.
5. Refleksiya bosqichida esa o‘qituvchi fikrlarni umumlashtiradi.

Natijalar. Tajriba ikki guruhda olib borildi: nazorat guruhi – an’anaviy metod asosida va tajriba guruhi – Keys-stadi asosida.

Nazorat guruhida 50 % talabalar faol bo‘lgan bo‘lsa, tajriba guruhida 85 % gacha faollik kuzatildi (1-jadval, 1-2-diagrammlar).

1-jadval

Nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlari

Guruh	Faollik (%)	Bilim o‘sishi (%)
Nazorat	50	5
Tajriba	85	30



1-diagramma. Nazorat va tajriba guruhlarida faollik darajasi

Nazorat guruhida ko‘plab javoblar o‘qituvchi bergan ma’lumotni qayta aytishga qaratilgan. Tajriba guruhida talabalar yangi g‘oyalar, mustaqil fikrlar bildirdi.

Keyslarni tahlil qilishda tajriba guruhidagi talabalar real hayotiy misollar keltirib, o‘z hududiga oid ekologik muammolarni hal qilish yo‘llarini taklif etdilar.

Keys asosida o‘tilgan mavzu materiallari test va suhbatlarda yuqori ko‘rsatkich berdi.



2-diagramma. Nazorat va tajriba guruhlarida bilim o‘sishi

Statistik natijaga ko‘ra, tajriba guruhi talabalari bilim ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 25–30 % ga yaxshiladi. Talabalarning darsga qiziqishi sezilarli darajada oshdi.

Muhokama. Tabiiy fanlarning shakllanish jarayonini uch asosiy bosqichga bo‘lish mumkin:

1) *Qadimgi davrlar (mifologik tafakkur bosqichi).* Odamlar tabiat hodisalarini tushuntirish uchun mif va afsonalardan foydalangan. Bu davrda ilmiy kuzatishlar juda sodda bo‘lsa-da, keyinchalik ilmiy tafakkur shakllanishiga zamin yaratdi.

2) *O‘rta asrlar va Uyg‘onish davri (ilmiy tafakkur shakllanishi).* Ibn Sino, Beruniy, Forobiy kabi allomalar tabiiy fanlarni tizimlashtirishga harakat qildilar [1,2]. Yevropada Kopernik, Galileo va Nyuton ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqdi.

3) Zamonaviy davr (XX–XXI asr). Genetika, kvant mexanikasi, ekologiya, kosmik tadqiqotlar kabi yo‘nalishlar jadal rivojlandi. Nanotexnologiya, biotexnologiya, sun’iy intellekt va kosmik muhandislik tabiiy fanlarning amaliy qo‘llanishini kengaytirdi.

Keys-stadi metodining samaradorligi shundaki, u talabalarni faqat tayyor bilimni o‘zlashtirishga emas, balki mustaqil tahlil va qaror qabul qilish jarayoniga jalb qiladi. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy afzalliklari:

Motivatsiyani kuchaytiradi. Talabalar mavzuni hayotiy vaziyat bilan bog‘lab ko‘rganlari sababli darsga qiziqishi oshadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Keysdagi muammoni tahlil qilish talabalarni sabab-oqibatni izlashga majbur qiladi.

Ijodkorlikni rag‘batlantiradi. Talabalar yangi g‘oyalar va takliflar ishlab chiqishga intiladi.

Jamoaviy ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Guruhlararo bahs va muhokama orqali hamkorlik rivojlanadi.

Bilimning barqarorligini ta’minlaydi. Keys asosida o‘rganilgan mavzular uzoq muddat xotirada saqlanadi.

An’anaviy metodlar ko‘proq ma’ruza, eslab qolish, qayta aytishga asoslanadi. Talaba passiv tinglovchi rolida bo‘lishadi. Keys-stadi metodi qo‘llanilganda talaba faol ishtirokchi bo‘lib, vaziyatni o‘rganadi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi.

Shu bois Keys-stadi texnologiyasini tabiiy fanlarni o‘qitishda keng joriy etish, ayniqsa murakkab nazariy mavzularni hayotiy vaziyatlar orqali tushuntirishda juda samarali hisoblanadi.

Xulosa. Tabiiy fanlarning shakllanishi va rivojlanishini Keys-stadi asosida tushuntirish nafaqat bilim berish, balki ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibn Sino. *Kitob ash-shifo*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2000.
2. Beruniy A. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1968.
3. Abdullayev Yo. va boshqalar. *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Jalolov J. *Keys-stadi texnologiyasi ta’limda*. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi” (2019–2030).

UO’K 37.016:811.111

TIL O‘QITISHDA SO‘Z BOYLIGINI MUSTAHKAMLASHNING INNOVATSION USULLARI

H.Z.Bekkulova, o’qituvchi, Samarqand davlat pedagogika instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so'z boyligini o'rganishni passiv faoliyatdan faol, qiziqarli va ravon nutqni rivojlantirish tajribasiga aylantiradigan yangi, tadqiqotga asoslangan usullar o'rganiladi. Shuningdek, unda til o'rganuvchilarda mustaqil fikrlash, kommunikativ kompetensiya va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda ushbu yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi.*

***Kalit so`zlar:*** *Kontekstual o'rganish, hamkorlikda o'rganish, ko'p sensorli lug'at o`rganish, shaxsiylashtirilgan o'rganish .*

Аннотация. *В этой статье рассматриваются новые, основанные на исследованиях методы, которые превращают изучение лексики из пассивного занятия в активный, увлекательный и развивающий беглость речи опыт. Также анализируется эффективность этих подходов в развитии самостоятельного мышления, коммуникативной компетентности и навыков говорения у изучающих язык.*

Ключевые слова: *контекстное обучение, совместное обучение, мультисенсорное изучение лексики, персонализированное обучение.*

Abstract. *This article explores new, research-based methods that transform vocabulary learning from a passive activity into an active, engaging, and fluency-building experience. It also analyzes the effectiveness of these approaches in developing independent thinking, communicative competence, and speaking skills in language learners.*

Keywords: *contextual learning, collaborative learning, multisensory vocabulary learning, personalized learning.*

Kirish. So‘z boyligi haqiqiy muloqot uchun juda muhim, ammo til o`rganuvchilarni shunchaki alohida so‘zlarni yodlab olishdan,ravon gapirishga o‘tishda so`zlarni ishonch bilan qo`llashga yordam berish, chet tilini o‘qitishda katta muammo bo‘lib qolmoqda. Yodlash va takrorlash kabi an’anaviy usullar o‘quvchilarga so‘zlarni vaqtincha yodlashga yordam bersada,real hayotdagi

vaziyatlarda chuqur tushunish uchun yetarli emas. O'qituvchilar uzoq muddatli so'z boyligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydigan va chinakam kommunikativ kompetentsiyani rivojlantiradigan innovatsion strategiyalarni tobora ko'proq izlamoqdalar.

Asosiy qism. So'z boyligi hajmining umumiy til qobiliyatini belgilab beruvchi omil sifatida muhimligi ta'kidlangan va til o`rganuvchilar matnlarni tushunish, murakkab g'oyalarni ifoda etish va kommunikativ qobiliyatga erishish uchun yetarlicha so'z boyligiga muhtojligi ta'kidlangan. Nation (2001), Schmitt (2010), Laufer (1997) va Webb (2008) kabi olimlar so'z boyligi o'qish, yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalarining asosini tashkil qiladi va shuning uchun tilni ravon va ishonch bilan ishlatish uchun zarur deb ta'kidlashadi. An'anaviy lug'atni o'rgatish asosan yodlab olish, tarjima qilish va takroriy mashqlarga asoslangan edi. Bunday usullar qisqa muddatli eslab qolishga yordam berishi mumkin bo'lsa-da, ko'plab tadqiqotlar bu usul uzoq muddatli eslab qolish yoki moslashuvchanlikda va kommunikativ so'zlardan foydalanishda o'z cheklovlariga egaligini aniqladi. Tadqiqotlar kengayib borishi bilan olimlar o'quvchilarga haqiqiy sharoitlarda lug'at bilan tanishish imkonini beradigan yanada mazmunli, kontekstga asoslangan yondashuvlarni qo'llab-quvvatlaydilar. Bu yondashuvlar kontekstual o'rganish nazariyalariga mos keladi, ular mazmunli nutq orqali o'rganilgan so'zlar osonroq eslab qolinadi va ishlatiladi degan fikrni bildiradi. Lug'atni mustahkamlashning eng samarali usullaridan biri yangi so'zlarni mazmunli va haqiqiy kontekstlarda taqdim etishdir.

Metodlar. Til o`rganuvchilar kontekstda so'zlarga duch kelganda, ularning ma'nosini anglash, nuanslarni tushunish va so'z ishlatilishini aniq eslab qolish ehtimoli ko'proq. Kontekstual o'rganish, shuningdek, tabiiy tilni o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa o'quvchilarga passiv tanib olishdan mazmunli ishlab chiqarishga o'tishga yordam beradi.

a)Kontekstual o'rganish usullari:

- Lug'at qayta-qayta uchraydigan hikoyalar, maqolalar yoki mavzu bo'limlaridan foydalanish.
- (Mavzu bo`limlari: Food items: fruits, vegetables, meats, beverages
  - Cooking verbs: chop, boil, fry, bake, mix
  - Expressions: “I am hungry,” “Let’s make a recipe,” “What ingredients do we need?”)
- Vaziyatga asoslangan rolli o'yinlarni ishlab chiqish (masalan, ovqat buyurtma qilish, sayohatni rejalashtirish).
- Rasmiy ta'riflarni olishdan oldin talabalarni kontekstga asoslangan so'zlarning ma'nosini taxmin qilishga undash.Passiv yodlash o'rniga faol fikrlashni rag'batlantiradi.O'quvchilarga yangi so'zlarni kontekst bilan bog'lashga yordam beradi.O'qishni tushunish va so'zlarni eslab qolishni yaxshilaydi.
- Tinglash va o'qish: Talabalar pazandalik shousidan parcha tinglashadi yoki maqsadli tilda oddiy retsept o'qiydilar.
- Gapirish: Talabalar restoran dialogini yoki pazandalik shousidan parchani sahnalashtirishadi.
- Yozish: Talabalar o'rganayotgan so'z boyligidan foydalanib, retsept yoki xarid ro'yxatini tuzadilar.
- Loyiha: Guruhlar maqsadli tilda so'zlashiladigan mamlakatning an'anaviy taomi haqida plakat yoki raqamli taqdimot yaratadilar.
- O'yinlar: Lug'at bingosi, so'zlarni moslashtirish yoki so`zlarni eslab qolish o'yinlari

b)Ko'p sensorli lug'at o`rganish usuli

- Rasmlar, diagrammalar, aqliy xaritalar va ranglarni kodlash(color-coding) kabi vizual qo'llab-quvvatlashlar
- Imo-ishora asosida o'rganish (TPR), so'z stantsiyalari(word stations) yoki harakatga asoslangan o'yinlar kabi kinestetik mashg'ulotlar
- O'quvchilar audio kliplar, qo'shiqlar yoki dialoglarda berilgan so'zlarni aniqlaydigan tinglash vazifalari
- O'quvchilarni shunchaki tarjimalar o'rniga shaxsiylashtirilgan misollar yaratishga undaydigan yozish mashqlari

Texnologiya yordamida so'z boyligini kengaytirish

c)Texnologiya yordamida so'z boyligini kengaytirish usullari:

- So'z boyligini rivojlantirish ilovalari (fleshkartalar, intervalli takrorlash, so'z boyligi bo'yicha viktorinalar)
- Hamkorlikdagi yozish va tengdoshlarning fikr-mulohazalari uchun platformalar
- Kahoot, Quizlet yoki raqamli qochish xonalari kabi vositalardan foydalangan holda interaktiv o'yinlar yoki viktorinalar
- Talabalar yangi so'z boyligidan ijodiy foydalanadigan raqamli hikoya qilish loyihalari
- Texnologiyalardan foydalanish orqali o'qituvchilar talabalarning mustaqilligini ham rivojlantiradilar, bu esa o'quvchilarga o'z so'z boyliklarini boshqarish imkoniyatini beradi.

d)Hamkorlikda o'rganish usuli,

- Bo'shliqlarni to'ldirish mashqlari, munozaralar yoki muammolarni hal qilish vazifalari kabi juftlik va guruhli topshiriqlar
- Talabalar bir-biriga notanish so'zlarni o'rgatadigan so'z boyligi doiralari
- Maqsadli so'z boyligidan maqsadli foydalanishni talab qiladigan guruhli loyihalar
- Yangi mavzuga oid so'z boyligidan foydalangan holda sinf muhokamalari yoki Sokrat seminarlari

e)Shaxsiylashtirilgan o'rganish usuli

- Talabalar uchun o'zlari qiziqqan mavzularga asoslangan so'z boyligini tanlash imkoniyatlari
- Talabalar o'z hikoyalariga yangi so'zlarni kiritadigan jurnallar yoki mulohazalar
- O'rganilayotgan so'z boyligidan foydalangan holda she'rlar, sahna ko'rinishlari, komikslar yoki ijtimoiy tarmoq uslubidagi postlar kabi ijodiy faoliyatlar

Natijalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'rganish jarayonida bir nechta sezgi organlarini ishlatganda, lug'atni eslab qolish yaxshilanadi. Ko'p sensorli usullar o'quvchilarga turli xil usullar bilan eshitish, ko'rish, gapirish, yozish orqali mashq qilish imkonini beradi va ularga so'zlarni yaxshiroq tushunishga va ularni uzoqroq eslab qolishga yordam beradi.

Raqamli vositalar, ayniqsa, raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi o'quvchilar uchun so'z boyligini rivojlantirish uchun innovatsion imkoniyatlarni taqdim etadi. Texnologiya interaktiv, shaxsiylashtirilgan va o'yinga o'xshash tajribalarni taqdim etadi, bu esa motivatsiyani oshiradi va darsdan tashqari tizimli mashq qilishni rag'batlantiradi. Hamkorlikdagi o'rganish talabalarni mazmunli muloqotda yangi so'z boyligidan faol foydalanishga undaydi. Talabalar so'z ma'nolarini muhokama qilganda, tushunchalarni tengdoshlariga tushuntirganda yoki muammolarni hal qilish uchun birgalikda ishlaganda, ular so'z boyligini tabiiy ravishda haqiqiy usullar bilan mustahkamlaydilar Talabalar so'zlar shaxsiy ma'noga ega bo'lganda yoki ularning qiziqishlari va tajribalari bilan bog'liq bo'lganda so'z boyligini samaraliroq eslab qoladilar. Shaxsiylashtirish talabalarni so'z boyligini ma'no bilan to'ldirishda faol ishtirok etishga undaydi. Shaxsiylashtirilgan o'rganish so'z boyligini esda qolarli qiladi va talabalarga maqsadli tilda o'zlarining individual uslublarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Lug‘at boyligi muvaffaqiyatli til o‘rganishning asosi bo‘lib, barcha til ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Yangi so‘zlar mazmunli kontekstda va samarali strategiyalar orqali o‘rgatilganda ko‘proq o‘zlashtiriladi. Mavzuga asoslangan bo‘limlar, rang kodlash, lug‘at stansiyalari, raqamli qochish xonalari va Sokratik seminarlar kabi usullar o‘quvchilarni faol jalb qilib, so‘zlarni ishonchli qo‘llashga yordam beradi. Turli metodlarni uyg‘unlashtirish orqali o‘qituvchilar chuqurroq tushunish, eslab qolish va til o‘rganish jarayonini qiziqarli qilishlari mumkin.

REFERENCES:

1.Blachowicz, C.L.Z. & Fisher, P. (2004) Building vocabulary in remedial settings: Focus on word relatedness. Perspectives, 30, 1. The International Dyslexia Association.

2. Laufer, B. (1997). *The lexical threshold revisited: Lexical text coverage, learners' vocabulary size and reading comprehension.* (Often cited; see studies on lexical coverage and reading comprehension.)

3.Nam J. Effective Strategies for Teaching Vocabulary in the ESL Classroom tesl Canada journal/revue tesl du canada 127 vol. 28, no 1, winter 2010

4. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge.

5.Schmitt, Norbert. "Understanding Vocabulary Acquisition, Instruction, and Assessment: A Research Agenda." *Language Teaching*, vol. 52, no. 2, 2019

6.Scott, J.A. & Nagy, W.E. (2003). Developing word consciousness. Research to Practice, New York: Guilford Publications

7.Stahl, S.A. (2003) How words are learned incrementally over multiple exposures. American Educator, Spring 2003.

8.Stahl, S.A. (2004). Vocabulary learning and the child with learning disabilities. Perspectives, 30, 1. The International Dyslexia Association.

9.Texas Center for Reading and Language Arts (2002). Teacher reading academy. Austin, TX: University of Texas at Austin and the Texas Education Agency.

10. Webb, S. (2008). *Receptive and productive vocabulary sizes of L2 learners. Studies in Second Language Acquisition, 30*(1), 79–95.

UO'K 37.01:37.02

TA'LIM - TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING MUHIM OMILLARI

G.O'.Bekmuradova, o'qituvchi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xafvsizlik va mudofaa universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada bugungi kunda ta'lim - tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning muhim omili sifatida ta'lim-tarbiya jarayoniga yuqori intellektual texnologiyalar, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida yoshlarni tarbiyash, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lida murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga oid fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *XXI asr ta'limi, konseptual g'oya, ta'lim - tarbiya jarayoni, pedagogik texnologiyalar, ta'limni demokratlashtirish, ong mahsuli, ong darajasi, tafakkur, ustuvor omillar, ko'nikmalar.*

Аннотация. *В статье представлены идеи внедрения высоких интеллектуальных технологий в образовательный процесс как важного фактора эффективной организации образовательного процесса сегодня, решения сложных и масштабных задач в духе национальных и общечеловеческих ценностей, модернизации нашей страны и построения современного демократического общества в духе созидания нового государства, решения сложных и масштабных проблем.*

Ключевые слова: *образование XXI века, концептуальная идея, образовательный процесс, педагогические технологии, демократизация образования, продукт сознания, уровень сознания, мышление, приоритетные факторы, умения.*

Abstract. *The article presents ideas on the introduction of high intellectual technologies into the educational process as an important factor in the effective organization of the educational process today, the solution of complex and large-scale tasks in the spirit of national and universal values, the modernization of our country and the construction of a modern democratic society in the spirit of building a new state, the solution of complex and wide-ranging problems.*

Keywords: *21st century education, conceptual idea, educational process, pedagogical technologies, democratization of education, product of consciousness, level of consciousness, thinking, priority factors, skills*

Globallashuv davrida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom etmoqda. Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari – maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o'z samarasini bermoqda.

Sivilizatsiya rivojlangan sari insoniyat tafakkurida texnokratik yondashuv yaqqol ko'zga tashlandi va gumanistik g'oyalarning himoyaga muhtojligi sezilmoqda. Globallashuv tufayli inson

koinot va tabiat bilan yaxlit ekanini yanada kuchliroq his etdi. Dunyo hamjamiyatini qiynab turgan global muammolar sifatida ochlik, qashshoqlik, chuchuk suv tanqisligi, pandemik kasalliklar bilan birga ma'naviy xatarlar – gumanizm, tolerantlik, ijtimoiy intellektning susaygani, insonlar bilan o'zaro munosabatda hurmat, kengfe'llik, kechirimlilik, sabr, oqibat tuyg'ularining yo'qola boshlagani tilga olinmoqda.

YuNESKOning "XXI asr ta'limi" bo'yicha xalqaro qo'mitasi dasturida insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalar qatorida ***birgalikda yashashni o'rganish*** hamda ***shaxs sifatida noyob, yagona, takrorlanmas bo'lishni o'rganish*** kabilar alohida ta'kidlab o'tilgani bejiz emas.

Uchinchi mingyillikning ijtimoiy-madaniy voqeligi – *globallashuv, informatizatsiya, fan-texnika taraqqiyoti, insoniyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishga intilishi, fuqarolik jamiyatlarining tarkib topishi* – ta'lim-tarbiya metodologiyasini o'zgartirishni, yangicha estetik dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etdi.

Ta'lim - tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning muhim sifatida: *sohada faoliyat olib boruvchi mutaxassislarning siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy, pedagogik bilimlarini oshirish; ularning professional ko'nikmalarini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish; "Milliy iftixor, yurtga sadoqat va jasorat" konseptual g'oyani hayotga tatbiq etish; tarixiy meros va an'anaviy milliy qadriyatlar muammolari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirish; giyohvandlika qarshi kurash, sog'lom turmush tarzini yuritish asoslarini ta'lim oluvchilar orasida manzilli targ'ib etish* kabi omillarni ustuvor omillar sifatida qayd etish mumkin.

Hozirgi kunlarda ta'lim jarayonlarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda olib borilishi eng asosiy talablardan biridir.

Ta'limni demokratlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, ijodkorlikni rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilganlik, hamkorlik, faollashtirish, dasturlash, aniq maqsadlar qo'yish, jadallashtirish, tanlash imkoniyatining mavjudligi kabi ustuvor yo'nalishlar aynan Davlat standarti talab etgan samarali o'quv jarayoniga kafolat bo'ladi. [1]. O'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchi va ta'lim oluvchining teng huquqligini ta'limni demokratlashtirish orqali amalga oshiriladi. O'z fikrini himoya etish, munozarada faol ishtirok etish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, topshiriqlarni mustaqil bajarish kabi mustaqil faoliyat orqali tanqidiy fikrlashning yuksak daraga ko'tarilishga turtki bo'ladi.

Smart ta'lim texnologiyalaridan unumli, o'z o'rnida foydalanish to'g'ri qarorlar qabul qila olish, zaruriy hayotiy ko'nikmalarni egallash, yangi g'oyalarni yaratish, faol mushohada pozitsiyasini shakllantirish, axborotlarni qabul qilish va ajrata olish, o'z xatti-harakatlari, qarorlari uchun javobgarlik hissi, shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, altruizm, dunyoviy muammolarni anglash, abstrakt, ijodiy, mantiqiy tasavvurni kengaytirish, yangi va turlicha nuqtai nazarlarga nisbatan ochiq va sezgir bo'lish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, sog'lom fikr yuritish, murakkab qarorlarni tanlash va qabul qilish, muloqot va hamkorlik qilish, so'zlash va yozish orqali fikr va mulohazalarni aniq va ta'sirchan ifodalash, turli jamoalar bilan samarali ishlash qobiliyatini namoyon qilish, umumiy maqsadni amalga oshirish yo'lida murosaga kelish uchun moslashuvchanlik va tolerantlikni namoyon qilish, hamkorlikda ish yuritish uchun jamoaviy mas'uliyatni o'z bo'yniga ola bilish, axborotni samarali va amaliy yo'llar orqali qo'lga kiritish, axborotga tanqidiy va xolis baho berish, mavjud masala yoki muammoni hal qilishda axborotdan aniq va ijodkorona foydalanish, axborotni qo'lga kiritish va undan foydalanishga doir bo'lgan axloqiy-huquqiy masalalar haqida tushunchaga ega bo'lish, moslashuvchanlik va ko'nikuvchanlik,turli rollar va mas'uliyatlarga moslashish, noaniq, mavhum va o'zgaruvchan vaziyatlarda samarali ishlash, shaxsiy g'oya va tashabbuslarini namoyon qilish, taym-menejment, vaqtdan samarali foydalanish va berilgan vaqt doirasida ish hajmini bajarishga ulgurish, madaniyatlararo ko'nikmalar, peshqadamlik (liderlik) va mas'uliyat, umumiy maqsadni bajarish yo'lida boshqalarning kuchli tomonlaridan foydalanish, to'g'rilik va ijobiy xulqni namoyon qilish, atrofdagilarning manfaatini nazarda tutib mas'uliyat bilan ish tutish kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalarini shaklllantirishga hizmat qiladi.

X-XV asrda o'zining jahonga yuksak darajadagi ilmiy- ma'rifiy salohiyatini namoyish qilgan, Al Buxoriy, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk daholarni

yetishtirgan davlatchiligimiz [2] bugun ilm-fan, taraqqiyot olamida yuqory pog‘onalarga ko‘tarilmoqda.

Yoshlarni voyaga yetkazish zamonaviy demokratik jamiyat-yangi huquqiy davlat qurishning muhim omili hisoblanadi. Yoshlarni voyaga yetkazish orqali yangi avlod kadrlari shakllanadi, buni biz unutmasligimiz darkor. O‘z-o‘zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan [3], mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo‘lida murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarni tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Haqiqatdan ham ota-bobolarimiz qadimda bebaho boylik bo‘lmish ilmu - ma’rifat, ta’lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilishgan. Albatta, ta’lim-tarbiya ong mahsuli, u ong darajasi va rivojini belgilaydigan, ya’ni yangi insonni shakllantiradigan hamda boyitadigan eng muhim omildir [4].

Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega komil insonlar etib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim. Bu esa, ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Yangi inson tarbiyasida ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Bu haqda fikr yuritganda, Abdulla Avloniyning “tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot, – yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlarini eslash o‘rinli [6]. Bu hikmatli ibora asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy farzand tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, tarbiya jarayonini uch qismga bo‘lgan: *badan tarbiyasi; fikr tarbiyasi; axloq tarbiyasi;*

Avloniy badan tarbiyasini birinchi o‘ringa qo‘ygani bejiz emas, zero: “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o‘qimoq, o‘qitmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir. Sog‘lom badanga ega bo‘lmog‘an insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Maishatimizni rohatda bo‘lmog‘i jasadimizning sog‘lom bo‘lmog‘iga bog‘liqdir… [7]. Avvalo, ta’lim mussasalarida o‘quv-tarbiya ishlarini hozirgi zamon talablari asosida yo‘lga qo‘yish, maqsadni ro‘yobga chiqarish yo‘lida sog‘lom, ahil izlanuvchan va tashabbuskor intellekti yuqori pedagoglar oilasini barpo etish, o‘qituvchining ixtirochiligiga, ijodkorligiga keng imkoniyatlar ochib, bu yo‘lda ota-onalar, jamoat tashkilotlari bilan faol munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, kutubxona faoliyatini rivojlantirish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning mustaqil mutolaa qilish, ayniqsa, tarixga oid kitoblarni ko‘proq o‘qish, o‘rganishni odat tusiga kiritishga alohida e’tibor berish lozim. Ta’lim mazmunini ta’minlashda ijodkor o‘qituvchi pedagogik mahoratining asosiy sifatlari quyidagi shartlarga javob berishi lozim: o‘quvchilarga ta’sir o‘tkaza olish, ijodkorlik, talabchanlik, shaxsiy namuna ko‘rsata bilish; o‘qituvchidan talab qilinadigan jihatlar: ta’lim oluvchiga do‘stona yondoshuv; ilmiy salohiyatga ega bo‘lish, ota-onalar ishonchini qozonish, obro‘-e’tiborga ega bo‘lish,talabchanlik, mehribonlik, darsni kuzatish va tahlil qila bilish, adolatli baholash; zarur holatlarda tanqid qila olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana bilish, o‘z metodikasiga ega bo‘lish; o‘qituvchiga xos shaxsiy sifatlar: tashkilotchilik, kasbiy ishchanlik, kommunikativlik, vazminlik, har qanday vaziyatda o‘zini qo‘lga olish, kasbiy mahurat, bunyodkorlik, maslahatgo‘ylik, adolatlilik; o‘qituvchining ish uslubi ko‘zda tutilgan maqsadlarga mos ravishda tegishli pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanishga asoslangan bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, insonni voyaga yetkazishda ta’lim – axloqli, odobli shaxsga hunar o‘rgatish, bilim berishdir. Abu Nasr Forobiy ta’lim to‘g‘risida to‘xtalib, ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deb ko‘rsatgan edi. O‘qituvchi yoshlar qalbidagi ichki, botiniy, yashirin dunyosini boyitadi. Yoshlarning ichki, botiniy dunyosi esa gavhar to‘la tubsiz dengiz singaridir. Bu dengiz – agar ustozning amaliy usuli qanchalik zo‘r bo‘lsa, shunchalik gavhar bilan to‘lib boradi va o‘quvchilar ichki dunyosi ham boy bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 2020. – 20-29-b.

2. Abdullayev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. – Toshkent, Ma'naviyat, 1999. – 104 b.
3. Amir Temur o'gitlari / Tuzuvchilar: B. Ahmedov, A. Aminov. – Toshkent, Navro'z, 1992. – 64 b.
4. Ahloq-odobga oid hadis namunalari. – Toshkent, Fan, 1990. – 172 b.

UO'K 37.02

INGLIZ TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'RGATISH: LINGVOKULTURAL YONDASHUVNING AHAMIYATI, USULLARI VA AMALIY QO'LLANILISHI

F. Boysariyeva, katta o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda lingvokultural yondashuvning ahamiyatini o'rganadi. U lingvakultura tushunchasi, uning nazariy asoslari va ESL o'quvchilarida kommunikativ kompetensiya va madaniy bilimlarni oshirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *lingvokultural yondashuv, ESL, madaniy kompetensiya, madaniyat, til o'qitish, metodologiya, kommunikativ kompetensiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение лингвокультурного подхода в обучении английскому языку как второму языку. Анализируется понятие лингвокультуры, его теоретические основы, а также роль данного подхода в развитии коммуникативной компетенции и культурных знаний у учащихся, изучающих английский язык как иностранный (ESL).*

Ключевые слова: *лингвокультурный подход, ESL, культурная компетенция, культура, обучение языку, методология, коммуникативная компетенция.*

Abstract. *This article examines the significance of the linguocultural approach in teaching English as a second language. It analyzes the concept of linguoculture, its theoretical foundations, and its role in enhancing communicative competence and cultural awareness among ESL learners.*

Key words: *linguocultural approach, ESL, cultural competence, culture, language teaching, methodology, communicative competence.*

Bugungi globalizatsiyalashgan dunyoda ingliz tiliga bo'lgan yuqori talab ko'plab madaniyatlar va kontekstlarda muloqot qilishda muhim ko'nikma sifatida qaraladi. Biroq, ikkinchi tilni o'rganish faqatgina so'z boyligini va grammatikani o'rganishdan ko'ra ko'proqni anglatadi. Tilni qo'llashda madaniy kontekstlarni tushunish zarur. Ana shunda lingvokultural yondashuv ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Lingvokultural yondashuv lingvistik ko'nikmalarni madaniy bilimlar bilan birlashtiradi, bu esa o'quvchilarga tilni nafaqat tushunishga, balki uning madaniy nozikliklari bilan muloqot qilishga yordam beradi.Til madaniyatning ajralmas qismidir; har bir til uning gapiruvchilarining dunyoqarashi, qadriyatlari va an'analarini aks ettiradi. Lingvokultural yondashuv til o'rganish madaniy kontekstlardan ajratilmasligi kerak degan g'oyaga asoslanadi. Madaniy elementlarni til ta'limiga kiritish orqali o'quvchilar nafaqat tilni, balki uni gapiruvchi odamlarning madaniyatini chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar.Ushbu maqolada lingvokultural yondashuvning nazariy asoslari, ESL ta'limidagi ahamiyati va amaliy usullari haqida so'z boradi.

Lingvokultural yondashuv: tushuncha va nazariy asoslar. Lingvakultura tushunchasi til va madaniyatning bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini bildiradi. Til faqat muloqot vositasi emas; u madaniy qadriyatlar, amaliyotlar va fikrlash tarzlarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, tilni to'liq tushunish uchun, uning gapiruvchilarining madaniyatini ham tushunish zarur. Bu ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda juda muhimdir, chunki o'quvchilar faqatgina ingliz tilida muloqot qilishni o'rganishlari bilan cheklanmasdan, tilning madaniy kontekstini ham tushunishlari kerak.

Y.N. Karaulov (1987): Karaulov tilni shaxsning madaniy identifikatsiyasining va dunyoqarashining aks sadosi sifatida ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, til "madaniy portret" sifatida gapiruvchining nafaqat lingvistik xususiyatlarini, balki ijtimoiy qadriyatlar va madaniy amaliyotlarini ham namoyon etadi. ESL ta'limi orqali lingvokultural nuqtai nazardan o'qitish o'quvchilarga tilni madaniyatga oyna sifatida ko'rishga yordam beradi, bu esa ularning til va xulq-atvorni qanday shakllantirayotganini tushunishga yordam beradi.

V.V. Vorobyov (1997): Vorobyovning asari til va madaniyatning birligi haqida. U til va madaniyatning ajralmasligini ta'kidlaydi va bu birlashish lingvokultural yondashuvning til o‘qitishdagi asosini tashkil qiladi. ESL ta'limida bu shuni anglatadiki, til o‘qitish madaniy kontekstlar va normalarni o‘z ichiga olishi kerak, chunki bu madaniy va real dunyo sharoitlarida samarali muloqot qilish uchun zarurdir.

C. Kramsch (1998): Kramsch til o‘qitishni madaniy kontekstlarni hisobga olmadan to‘liq samarali bo‘lmasligini ta'kidlaydi. Kramschning fikricha, til o‘rganish madaniy qadriyatlar va ijtimoiy amaliyotlarni o‘rganishni o‘z ichiga olishi kerak. U, shuningdek, o‘quvchilarga madaniy farqlarni tushunish va turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish imkonini beradigan madaniy kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Lingvokultural yondashuv ushbu nazariyalar asosida, til o‘rganishning madaniy tushuncha bilan chambarchas bog‘langanligini ta'kidlaydi. Madaniy elementlarni ESL ta'limiga kiritish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga tilni va uning madaniy kontekstdagi foydalanishlarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Muloqot faqat so‘zlar va iboralarni o‘zlashtirishdan iborat emas; bu madaniy kontekstni tushunishni talab qiladi. Madaniy farqlar, xulq-atvor va kutishlar sababli ko‘plab xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Madaniy ta'limni ESL darslariga kiritish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga madaniy belgilarni to‘g‘ri talqin qilish va ularga mos ravishda javob berish imkoniyatini yaratadilar. Bu samarali muloqotni rivojlantirishga va madaniy farqlardan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Madaniy kompetensiya turli madaniy fonlarga ega odamlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini bildiradi. ESL ta'limida madaniy kompetensiya o‘quvchilarni global miqyosda tilni ishlatishga tayyorlash uchun zarurdir. Lingvokultural yondashuv orqali o‘quvchilar til o‘rganayotgan mamlakatlarning madaniy amaliyotlarini, e'tiqodlarini va qadriyatlarini o‘rganishga chaqiriladi. Bu ularning madaniyatning tilga qanday ta'sir qilishini tushunishlariga yordam beradi va turli madaniy muhitlarga moslashish qobiliyatini oshiradi.

Til o‘rganuvchilari ko‘pincha o‘z ko‘nikmalarini real hayotda qo‘llashda qiynalishadi. Lingvokultural yondashuv bu bo‘shliqni bartaraf etishga yordam beradi, chunki o‘quvchilar madaniy jihatdan boy kontekstlarda tilni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Misol uchun, o‘quvchilar faqatgina lug‘at va grammatika o‘rganish bilan cheklanmay, ingliz tilida ish muzokaralari olib borish yoki ijtimoiy tadbirlarga qatnashish kabi madaniy jihatdan muhim vaziyatlarda tilni qanday qo‘llashni o‘rganadilar.

Tilni madaniyat bilan birga o‘rgatish o‘quvchilarga madaniy sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradi. Ingliz tilini gapiruvchi jamiyatlarning normalari, qadriyatlari va xulq-atvorini tushunib, o‘quvchilar madaniy farqlarga hurmat bilan qarashni va stereotiplardan qochishni o‘rganadilar. Bu bugungi ko‘p madaniy dunyoda, tinch yashash va hamkorlik qilish uchun juda muhimdir.

Lingvokultural yondashuvni ESL ta'limiga kiritishning asosiy yo‘llaridan biri madaniy mavzularni o‘quv dasturiga joylashtirishdir. Misol uchun, o‘qituvchilar ingliz tilida gapiruvchi mamlakatlarning milliy bayramlari, an'analari, taomlari va odatlari haqida darslar o‘tkazishlari mumkin. AQShda Thanksgiving, Buyuk Britaniyada Yangi yil bayrami yoki Angliyada "choy vaqti" an'anasi kabi mavzular o‘quvchilarga madaniy amaliyotlar va qadriyatlar haqida yanada chuqurroq tushuncha beradi.

Haqiqiy materiallar, masalan, filmlar, TV ko‘rsatuvlari, yangiliklar maqolalari va reklama materiallari tilni kontekstda o‘rgatishda juda yaxshi resurslardir. Bu materiallar o‘quvchilarga tilni haqiqiy sharoitda, tilni ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan ishlatilayotgan shaklda eshitish imkoniyatini beradi.

Rollarni o‘ynash o‘quvchilarga tilni madaniy jihatdan mos vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga turli madaniy sharoitlarda muloqot qilishni o‘rgatadigan sahnalarni yaratishlari mumkin. Masalan, o‘quvchilar restoranda ovqat buyurtma qilish, ijtimoiy tadbirda suhbat qilish yoki ish intervyusida qatnashish kabi faoliyatlarda qatnashishlari mumkin.

O‘quvchilarga o‘z madaniyatlarini ingliz tilida gapiruvchi mamlakatlarning madaniyatlari bilan taqqoslashni rag‘batlantirish madaniy muloqot va tushunishni rivojlantiradi. Masalan, o‘qituvchilar

o‘quvchilardan o‘z madaniyatlari va ingliz tilida gapiruvchi mamlakatlarning salomlashish, ovqatlanish odatlari yoki oilaviy an'analari haqida gapirishni so‘rashlari mumkin.

Loyiha asosidagi o‘rganish til va madaniyatni birlashtirish uchun juda yaxshi usuldir. O‘quvchilar ingliz tilida gapiruvchi madaniyatlarning turli jihatlarini o‘rganish orqali loyihalar ustida ishlashlari mumkin. Misol uchun, "Britaniya musiqa tarixiga" yoki "Amerika bayramlari va an'analari" kabi mavzularni o‘rganish orqali o‘quvchilar nutq, izlanish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatishda lingvokultural yondashuv til va madaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun kompleks va samarali usulni taqdim etadi. Madaniy tushunishni ESL ta'limiga kiritish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv nafaqat tilni o‘rganishni kuchaytiradi, balki madaniy kompetensiyani ham oshiradi, bu esa talabalarga madaniy farqlarga moslashish va ularni hurmat qilishda yordam beradi.

-Har bir ESL darsining barcha qismlariga madaniy darslarni kiritish, lug‘at va suhbat amaliyotidan boshlanish.

-*Haqiqiy materiallardan foydalanib, o‘quvchilarga real sharoitdagi til va* madaniy kontekstlarni o‘rgatish.

-Rollarni o‘ynash va simulyatsiya faoliyatlarini amalga oshirish, tilni madaniy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatish.

-Ingliz tilida gapiruvchi mamlakatlarning madaniyati bilan o‘z madaniyatingizni taqqoslash va muhokama qilishni rag‘batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Karaulov, Y.N. Rus tili va lingvistik shaxs. Moskva: Nauka, 1987.
2. Vorobyov, V.V. Lingvistika va madaniyat. Moskva: Prosveshchenie, 1997.
3. Kramsch, C. Til va madaniyat. Oksford: Oksford universiteti nashri, 1998.
4. Aminov, B. Lingvokultural yondashuv: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: Uqituvchi, 2005.
5. Winer, M. Pedagogika va madaniyat. Sankt-Peterburg: Rech, 2011.

UDC: 371.335:81’243

VIDEO MATERIALS AS A TOOL FOR IMPROVING SPEAKING COMPETENCE IN MULTILINGUAL EFL SETTINGS

N.D.Daniyarova, teacher, Samarqand Regional Academic Lyceum under Tashkent State University of Law, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot video materiallarning ko‘p tilli EFL sharoitida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini o‘rganadi. To‘rt haftalik sifatli tadqiqotda tojik, koreys, rus, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida so‘zlashuvchi o‘rta darajadagi 13 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Kommunikativ kompetensiya nazariyasi, kirish gipotezasi, interaksionistik yondashuvlar va multimedia tamoyillariga tayangan holda, tadqiqot haqiqiy videolarning talaffuz, ravonlik, nutqiy kompetensiya va pragmatik xabardorlikka ta’sirini tahlil qildi. Kuzatuvlar, jurnallar va intervyular videodarslar o‘quvchilar faolligini oshirganini, xavotirni kamaytirganini va tabiiy prosodik hamda pragmatik xususiyatlarni osonroq o‘zlashtirishga yordam berganini ko‘rsatdi. Ishtirokchilar ritm, intonatsiya, urg‘u, lug‘at boyligi va suhbat strategiyalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishdilar.*

Kalit so'zlar: *videoga asoslangan ta’lim; nutq kompetensiyasi; ko‘p tilli EFL o‘quvchilari; kommunikativ kompetensiya; suprasegmentallar; autentik materiallar.*

Аннотация. *В исследовании рассматривается влияние видеоматериалов на развитие разговорной компетенции в многоязычной EFL-среде. В четырёхнедельном качественном исследовании участвовали тринадцать учащихся среднего уровня из таджикских, корейских, русских, узбекских и каракалпакских групп. На основе теории коммуникативной компетентности, гипотезы входного воздействия и мультимедийного обучения анализировалось, как аутентичные видео влияют на произношение, беглость, дискурсивные навыки и прагматическую осведомлённость. Данные наблюдений, дневников и интервью показали, что видео повышают вовлечённость, снижают тревожность и обеспечивают*

доступ к естественным просодическим и прагматическим особенностям речи. Учащиеся продемонстрировали заметный прогресс в ритме, интонации, ударении, словарном запасе и стратегиях общения.

Ключевые слова: *обучение на основе видео; разговорная компетенция; многоязычные EFL-обучающиеся; развитие произношения; коммуникативная компетенция; надсегментарные элементы; аутентичные материалы.*

Abstract. *This study explores how video materials enhance speaking competence in multilingual EFL settings. Thirteen intermediate learners from Tajik, Korean, Russian, Uzbek, and Karakalpak backgrounds took part in a four-week qualitative investigation. Drawing on communicative competence theory, the input hypothesis, interactionist approaches, and multimedia learning principles, the study examined how authentic videos improve pronunciation, fluency, discourse skills, and pragmatic awareness. Observations, journals, and interviews showed that video-based instruction increased engagement, lowered anxiety, and offered rich exposure to natural prosodic and pragmatic features. Learners demonstrated notable gains in rhythm, intonation, stress, vocabulary, and conversational strategies.*

Keywords: *video instruction; speaking competence; multilingual EFL learners; pronunciation; suprasegmentals; authentic materials*

Introduction. Speaking in a foreign language requires linguistic knowledge, sociocultural awareness, and the ability to process and produce language in real time. These demands are intensified in multilingual settings where learners—such as Tajik, Korean, Russian, Uzbek, and Karakalpak speakers—bring diverse phonological and communicative backgrounds that shape how they perceive and produce English. Modern language teaching emphasizes communicative competence, including grammatical, sociolinguistic, discourse, and strategic skills (Canale & Swain, 1980). Such competence develops through rich, comprehensible input (Krashen, 1985) and opportunities to negotiate meaning during interaction (Long, 1983). Video materials support these principles by offering multimodal input that combines visual and auditory information, reducing cognitive load and deepening comprehension (Mayer, 2001). Authentic videos expose learners to natural speech features such as intonation, stress, pausing, gestures, and body language. Burns (1998) highlights the need for authentic communicative tasks in speaking instruction, and Richards (2008) stresses the value of genuine spoken texts. Pronunciation research also supports video use, as prosodic features—including rhythm, stress, and intonation—are acquired more effectively through exposure to real speech (Celce-Murcia et al., 1996). Suprasegmentals are central to intelligibility, and Levis and Grant (2003) emphasize integrating them within meaningful communication.

Methods. A descriptive qualitative design was employed to investigate learners' experiences with video-based speaking instruction. Thirteen learners aged 16–18, representing Tajik, Korean, Russian, Uzbek, and Karakalpak backgrounds, all at an intermediate English level, participated in the four-week study. Data were gathered through classroom observations, reflective journals, and semi-structured interviews. Lessons used short video clips including interviews, vlogs, film scenes, and informational videos. Each lesson began with a brief pre-viewing activity, followed by one or more viewings of the video and speaking tasks such as retelling, summarizing, shadowing, role-play, or expressing opinions. These tasks reflected the idea of pushed output, encouraging learners to produce language beyond their usual level (Swain, 1995). Observations focused on fluency, hesitation, pronunciation, discourse markers, and engagement, while journals and interviews provided insights into learners' perceptions, challenges, and progress.

Results. Learners showed a clear increase in motivation and participation during video-based lessons, often describing the materials as more engaging and authentic than textbooks—an effect supported by Harmer's (2015) view of real-world content as motivational. The visual cues in videos also reduced anxiety by helping learners interpret meaning through gestures and expressions. Pronunciation improvement was one of the strongest outcomes: repeated exposure and shadowing helped students imitate natural intonation, rhythm, and stress, supporting Celce-Murcia et al.'s (1996) emphasis on contextualized suprasegmental instruction and confirming the importance of prosody

highlighted by Levis and Grant (2003). Learners noted that observing how speakers "move their voice" improved clarity.

Fluency likewise improved, with learners producing longer and smoother stretches of speech, reflecting the benefits of multimodal input described by Mayer (2001). Students also adopted discourse markers and pragmatic expressions from the videos, such as "actually," "you know," and "on the other hand," features identified by Burns (1998) as central to conversational competence. Listening and speaking became increasingly interconnected, as learners found it easier to speak after understanding video content, aligning with views on the reciprocal nature of input and output (Krashen, 1985; Long, 1983).

Despite these gains, difficulties with rapid speech, unfamiliar accents, slang, and idiomatic expressions persisted, consistent with Thornbury's (2005) discussion of the cognitive demands involved in spontaneous speaking.

Discussion. The findings show that video materials are highly effective for developing speaking competence in multilingual EFL contexts. Learners' increased engagement supports the view that authentic materials boost motivation and participation (Richards, 2008). Improvements in pronunciation reflect the importance of contextualized suprasegmental instruction (Celce-Murcia et al., 1996), and learners' use of discourse markers and pragmatic strategies supports Burns' (1998) argument that authentic input strengthens communicative competence. Video-based instruction also aligns with interactionist theories by providing input that learners can negotiate and convert into meaningful output (Long, 1983; Swain, 1995). The multimodal support helps learners manage challenges such as unfamiliar accents and fast speech, though these difficulties highlight the need for scaffolding through repeated viewing, explanation of idioms, and guided focus on complex segments. These supports enable learners to gradually adapt to the demands of authentic spoken English.

Conclusion. This study shows that video materials greatly enhance speaking competence in multilingual EFL contexts. Learners demonstrated clear gains in pronunciation, fluency, discourse skills, and confidence, supported by exposure to natural speech and pragmatic features not present in textbooks. Although challenges such as fast speech and unfamiliar accents persisted, the overall impact of video-based instruction was highly positive. With proper scaffolding, videos can become a key element of speaking instruction, providing both linguistic input and contextual support. Their strong alignment with major language acquisition theories underscores their value for modern EFL classrooms.

REFERENCES:

1. Burns, A. (1998). Teaching speaking. *Annual Review of Applied Linguistics, 18*, 102–123. https://doi.org/10.1017/S0267190500003528

2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics, 1*(1), 1–47. https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1

3. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Goodwin, J. M. (1996). *Teaching pronunciation: A reference for teachers of English to speakers of other languages*. Cambridge University Press.

5. Krashen, S. D. (1985). *The input hypothesis: Issues and implications*. Longman.

6. Levis, J. M., & Grant, L. (2003). Integrating pronunciation into ESL/EFL classrooms. *TESOL Journal, 12*(2), 13–19.

7. Long, M. H. (1983). Native speaker/non-native speaker conversation and the negotiation of comprehensible input. *Applied Linguistics, 4*(2), 126–141. https://doi.org/10.1093/applin/4.2.126

UDC 372.881.111.1

ADVANTAGES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE CAPABILITIES IN TEACHING ENGLISH

E.Q.Djumaniyozova, senior teacher, Tashkent architecture and civil engineering university, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning asosiy afzalliklari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt asosidagi vositalar ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv materiallarini adaptiv tarzda taqdim etish hamda baholash jarayonini avtomatlashtirish imkonini*

beradi. Shuningdek, SI texnologiyalarining kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash va o'qitish samaradorligini oshirishdagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, ingliz tilini o'qitish, raqamli ta'lim, adaptiv o'qitish, kommunikativ kompetensiya, ta'lim texnologiyalari, individuallashtirilgan ta'lim.*

Аннотация. *В статье анализируются основные преимущества использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) в обучении английскому языку. Инструменты, основанные на ИИ, позволяют индивидуализировать образовательный процесс, развивать языковые навыки обучающихся, адаптивно представлять учебные материалы и автоматизировать процессы оценивания. Также рассматривается роль ИИ в формировании коммуникативной компетенции, поддержке самостоятельного обучения и повышении эффективности преподавания английского языка.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, обучение английскому языку, цифровое образование, адаптивное обучение, коммуникативная компетенция, образовательные технологии, индивидуализированное обучение.*

Abstract. *This article analyzes the key advantages of using artificial intelligence (AI) technologies in teaching English. AI-based tools enable the personalization of the learning process, the development of learners' language skills, adaptive delivery of educational content, and automation of assessment procedures. In addition, the study highlights the role of artificial intelligence in fostering communicative competence, supporting autonomous learning, and enhancing the overall effectiveness of English language teaching.*

Keywords: *artificial intelligence, English language teaching, digital education, adaptive learning, communicative competence, educational technologies, personalized learning.*

The rapid development of Artificial Intelligence (AI) technologies has significantly transformed various spheres of human activity, including education. In recent years, AI has become an integral component of foreign language teaching, particularly in the process of teaching English, offering innovative tools and approaches that enhance the effectiveness of learning and teaching. The integration of AI into English language education reflects the global shift toward digitalization, personalization, and learner-centered pedagogical models.

Traditional methods of teaching English often face challenges related to limited individualization, insufficient feedback, and the difficulty of addressing diverse learners' needs within a single classroom. Artificial intelligence provides solutions to these challenges by enabling adaptive learning environments, personalized content delivery, automated assessment, and real-time feedback. AI-powered applications such as intelligent tutoring systems, chatbots, speech recognition tools, and learning analytics platforms allow learners to practice language skills autonomously while receiving immediate and data-driven support.

Moreover, the use of AI in English language teaching contributes to the development of key communicative skills, including speaking, listening, reading, and writing. Technologies based on natural language processing (NLP) and machine learning facilitate authentic interaction, pronunciation analysis, grammar correction, and vocabulary expansion. These tools not only increase learners' motivation and engagement but also promote self-regulated learning and critical thinking skills.

From a pedagogical perspective, artificial intelligence supports teachers by automating routine tasks such as grading, progress tracking, and diagnostic assessment, thereby allowing educators to focus more on creative, interactive, and communicative aspects of instruction. At the same time, AI-driven systems enable continuous monitoring of learners' progress and provide valuable insights into learning outcomes, strengths, and areas requiring improvement.

Therefore, studying the advantages of using artificial intelligence in teaching English is of great relevance in the context of modern education. This research aims to explore the pedagogical potential of AI technologies in English language teaching, identify their key benefits, and analyze their role in improving the quality, efficiency, and accessibility of language education in a rapidly evolving digital learning environment.

The integration of Artificial Intelligence (AI) into English language teaching has attracted increasing scholarly attention in recent years. Researchers emphasize that AI technologies significantly transform traditional pedagogical approaches by shifting the focus from teacher-centered instruction to learner-centered and data-driven education.

According to **Holmes, Bialik, and Fadel (2019)**, AI in education enables adaptive learning environments in which instructional content, pace, and difficulty are automatically adjusted based on learners' individual needs and performance. In English language teaching, this adaptability allows learners to receive personalized grammar explanations, vocabulary practice, and pronunciation feedback, which enhances learning efficiency and learner autonomy.

From a communicative perspective, **Chapelle (2020)** highlights that AI-based tools such as chatbots, virtual tutors, and speech recognition systems support meaningful language interaction outside the classroom. These tools create low-anxiety environments where learners can practice speaking and writing without fear of negative evaluation, which is especially beneficial for developing communicative competence in English.

Furthermore, **Godwin-Jones (2018)** argues that AI-driven language learning applications contribute to the development of metacognitive skills by providing immediate feedback, learning analytics, and progress tracking. Such features help learners reflect on their strengths and weaknesses, set learning goals, and monitor their own progress, thereby fostering self-regulated learning in English acquisition.

In the context of assessment, **Luckin et al. (2016)** note that automated assessment systems powered by AI can efficiently evaluate language skills, including grammar usage, lexical richness, and pronunciation accuracy. While these systems do not fully replace human teachers, they reduce teachers' workload and allow educators to focus more on higher-order pedagogical tasks such as critical thinking, creativity, and intercultural communication.

However, several scholars also point out potential limitations. **Selwyn (2019)** cautions that excessive reliance on AI technologies may reduce human interaction, which remains a crucial element of language learning. He stresses the importance of maintaining a pedagogical balance where AI serves as a supportive tool rather than a substitute for the teacher's professional judgment and emotional engagement.

Overall, scholarly discourse suggests that AI offers substantial advantages in teaching English, including personalization, increased learner engagement, enhanced feedback mechanisms, and efficient assessment. Nevertheless, researchers agree that the successful implementation of AI in English language education depends on pedagogically sound integration, ethical considerations, and teachers' digital competence.

The rapid development of artificial intelligence technologies has significantly transformed the methodology of English language teaching, offering innovative approaches to language acquisition and instruction. This study has demonstrated that the integration of AI into English language education enhances the effectiveness of teaching by providing personalized learning trajectories, adaptive content delivery, and real-time feedback tailored to learners' individual needs and proficiency levels.

Artificial intelligence tools contribute to the development of core language skills—reading, writing, listening, and speaking—by enabling data-driven instruction, automated assessment, and interactive learning environments. AI-based platforms support communicative competence by simulating authentic language situations, facilitating learner autonomy, and encouraging continuous engagement through intelligent tutoring systems and conversational agents. Moreover, the use of AI fosters critical thinking, problem-solving, and metacognitive skills, which are essential components of modern language education.

From a pedagogical perspective, artificial intelligence does not replace the teacher but rather complements and enhances the teacher's role. AI assists educators in monitoring learners' progress, identifying learning gaps, and designing targeted instructional strategies. However, the effective implementation of AI in English language teaching requires methodological awareness, digital

literacy, and ethical considerations, particularly regarding data privacy, academic integrity, and the preservation of human-centered education.

In conclusion, artificial intelligence represents a powerful pedagogical resource that, when applied systematically and responsibly, can significantly improve the quality, accessibility, and efficiency of English language teaching. Future research should focus on developing balanced AI-assisted models that integrate technological innovation with humanistic and communicative principles of language education.

REFERENCES:

1. Cook, G. *Discourse of Advertising.* – London: Routledge, 2001. – 256 p.

2. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 260 p.

3. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 196 p.

4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., Forcier, L. B. *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education.* – London: Pearson Education, 2016. – 210 p.

5. Warschauer, M., Healey, D. Computers and language learning: An overview // *Language Learning & Technology.* – 1998. – Vol. 2, No. 1. – P. 57–71.

UO'K 613:004(586.5)

SOG'LOM TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

A.B.Ernazarov, Ma'naviat ishlari bo'icha prorektor, ISFT instituti Samarqand filiali, Samarqand

Annotatsiya. *Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va uni yaxshilash, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish, oilaviy salomatlikni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish va ularga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni kengaytirish, shuningdek, chaqaloqlar va bolalar o'limining oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. talabalarni jismoniy faoliyatga jalb qilish, ularni sog'lom ovqatlanish va turmush tarziga o'rgatish orqali salomatlikni mustahkamlash mumkin. Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida aholi uchun zaruriy tibbiy yordamni taqdim etishda yangicha yondashuvlar qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Xususan, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda, sog'liqni saqlashning har bir sohasida sifatni oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi zarur.*

Kalit so'zlar: *Sog'lom turmush tarzi, mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish, sog'lom ovqatlanish, aholi.*

Аннотация. *Пропаганда и совершенствование здорового образа жизни, укрепление материально-технической базы медицинских учреждений, поддержка и укрепление здоровья семьи, охрана материнства и детства и расширение предоставления им качественных медицинских услуг, а также реализация комплексных мер, направленных на профилактику младенческой и детской смертности. Укрепление здоровья населения возможно путем вовлечения студентов в физическую активность, обучения их здоровому питанию и образу жизни. В современной системе здравоохранения важно использовать новые подходы к обеспечению населения необходимой медицинской помощью. В частности, необходимо разрабатывать и внедрять стратегии, направленные на повышение качества каждого направления здравоохранения, особенно в части пропаганды здорового образа жизни.*

Ключевые слова: *Здоровый образ жизни, укрепление, охрана материнства и детства, здоровое питание, население.*

Abstract. *Promoting and improving a healthy lifestyle, strengthening the material and technical base of medical institutions, supporting and strengthening family health, protecting motherhood and childhood and expanding the provision of quality medical services to them, as well as implementing comprehensive measures aimed at preventing infant and child mortality. Health can be strengthened by involving students in physical activity, teaching them healthy eating and lifestyle habits. In a modern healthcare system, it is important to use new approaches to providing the population with*

the necessary medical care. In particular, it is necessary to develop and implement strategies aimed at improving the quality of each area of healthcare, especially in promoting a healthy lifestyle.

Keywords: *Healthy lifestyle, strengthening, protection of motherhood and childhood, healthy nutrition, population.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida sog‘liqni saqlash sohasini modernizatsiya qilish, aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmatlar sifatini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiyada shoshilinch tibbiy yordam tizimini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, oilaviy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash, onalik va bolalikni himoya qilish kabi muhim vazifalar o‘z ifodasini topgan.

Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimini yaratishda aholining salomatligini mustahkamlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, xususan, sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, shoshilinch tibbiy yordam samaradorligini ta’minlash, zamonaviy texnologiyalar asosida sog‘liqni saqlash dasturlarini amaliyotga joriy etish hamda oilaviy salomatlikni mustahkamlash orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikka erishish muhim vazifalardan biridir.

Adabiyotlar sharhi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish borasida qabul qilgan strategik hujjatlar, xususan, Harakatlar strategiyasi va “Sog‘lom avlod” davlat dasturi sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bu hujjatlarda ta’lim muassasalarining aholining sog‘lig‘ini mustahkamlashdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Zamonaviy adabiyotlarda sog‘lom turmush tarzining ta’lim sohasida qo‘llanilishiga oid turli innovatsion yondashuvlar mavjud. Jumladan, talabalarning jismoniy faolligini oshirish, ularni sog‘lom ovqatlanishga o‘rgatish, stressni boshqarish bo‘yicha psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish kabi metodlar samarali ekani tadqiqotlar bilan asoslab berilgan. Bu borada M.I. Jorayev ekologik tarbiya va ekologik tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo‘lsa, D.R. Karimov sog‘lom ovqatlanishning gigiyenik va psixologik omillarini chuqur tahlil qilgan. O.T. Sadykovning qishloq maktablarida ekologik ta’limni takomillashtirish bo‘yicha bergan takliflari ham zamonaviy ta’lim jarayonlarida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan ilg‘or tajribalardan biridir [1].

O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom avlodni tarbiyalash masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini 2020-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatda ham ko‘rish mumkin. Prezident Sh. Mirziyoyev sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sportni ommalashtirish, jismoniy tarbiya orqali yoshlarni har tomonlama rivojlantirish zarurligini ta’kidlagan. Bu esa ta’lim muassasalarining sog‘lomlashtirish jarayonidagi mas’uliyatini yanada oshiradi.

Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun ta’lim tizimi zimmasiga nafaqat intellektual, balki ma’naviy-axloqiy va jismoniy rivojlangan yoshlarni tarbiyalash vazifasini yuklaydi. Shuning uchun ta’lim jarayonida salomatlikni asrashga yo‘naltirilgan yondashuvlar, sog‘lom turmush tarziga oid bilimlar, sport va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samarali tashkil etilishi bo‘lajak mutaxassislarning barkamol avlod sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlarda qayd etilishicha, har bir davrda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib kelgan. Chunki jamiyatning barqaror rivojlanishi, mehnat unumdorligi, ijtimoiy farovonlik va milliy salohiyat avvalo sog‘lom avlod bilan bog‘liq. Shu bois ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki yoshlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularda sog‘lom hayot tamoyillarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni keng qo‘llashi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasi metodologik nuqtai nazardan ko‘plab fanlar — pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot va ekologiya kesishgan nuqtada o‘rganiladi. Bu yo‘nalishning nazariy asoslari qadimgi manbalardan boshlab zamonaviy ilmiy tadqiqotlargacha izchil rivojlanib kelgan bo‘lib, inson hayoti va sog‘lig‘ini saqlash jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili sifatida qaralgan. Tarixiy manbalarda sog‘liqni

saqlashga tahdid soluvchi obyektiv va subyektiv omillarni tasniflash, ularga qarshi kurash choralari hamda jamiyatning salomatlikni mustahkamlashdagi birlashgan harakatlari zarurligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Metodologik asoslar orasida, avvalo, sog‘lom turmush tarzi konsepsiyasi turadi. U ekologik xavfsizlik, gigiyenik talablarga rioya qilish, jismoniy faollikni tartibga solish, to‘g‘ri ovqatlanish, ruhiy muvozanat va zararli odatlardan voz kechish kabi tarkibiy qismlardan iborat. V.N. Chumakovning ilmiy qarashlari ham ushbu metodologik tamoyillarning amaliy ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, talabalarda muntazam jismoniy mashg‘ulotlar, balanslangan ovqatlanish, stressni boshqarish va zararli odatlardan voz kechish ko‘nikmalarini shakllantirish ularning umumiy hayot sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi [2].

Empirik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini tadqiq etishga doir ilmiy izlanishlar faollashgan. S.Q. Davlatov, N.A. Qodirov, M.A. Sidiqov va L.T. Mirzayevlarning ishlarida talabalarda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari empirik dalillar asosida yoritilgan. Ularning tadqiqot natijalari ta’lim muassasalarida sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilishning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchining ijtimoiy muhitga moslashuvi, motivatsiya darajasi, tarbiyaviy ishlarning tizimliligi va pedagogning kasbiy kompetentsiyasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, empirik kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, talabalarning sog‘lom turmush tarziga amal qilmasligining asosiy sabablari orasida gigiyena bo‘yicha yetarli bilimning yo‘qligi, nosog‘lom ijtimoiy muhit, jismoniy faollikning yetishmasligi va noto‘g‘ri ovqatlanish odatlari yetakchi o‘rin tutadi. Bu esa tadqiqotlarda ko‘rsatib o‘tilganidek, sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha tushuntirish ishlari, treninglar, amaliy mashg‘ulotlar va motivatsion dasturlarni kuchaytirishni talab qiladi.

Metodologik va empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom avlodni tarbiyalash jarayoni nafaqat sog‘liqni saqlashning umumiy vazifasi, balki ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralishi kerak. Sog‘lom hayot tamoyillarini o‘rgatuvchi dasturlarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish jamiyatning madaniy, iqtisodiy va demografik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda, tarixiy tajriba va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning uyg‘unlashuvi bugungi kunda sog‘lom turmush tarzi konsepsiyasini takomillashtirish uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilmoqda [3].

Natijalar. O‘zbekiston pedagoglari va xorijiy olimlarining ilmiy qarashlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayoni ko‘p qirrali, tizimli va ilmiy asoslangan faoliyatni talab qiladi. Mahalliy pedagoglar — D.I. Abdurahmonov, S.M. Karamov, M.T. Azimov va Z.G. Qodirovlar umumiy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan metodlarni takomillashtirish, ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilish zarurligini alohida ta’kidlaydilar. Ularning ilmiy izlanishlari ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tizimi muntazam, maqsadli va ilmiy asoslangan yondashuvlar bilan boyitilishi lozimligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Y.V. Shcherbakov va T.V. Orlovalar sog‘lom kun tartibi modelini ishlab chiqib, talabalarda sog‘lom turmush tarziga oid ko‘nikmalarni shakllantirishda kundalik faoliyatning to‘g‘ri rejalashtirilishi asosiy omil ekanini asoslab beradilar. Ular taklif etgan modelda doimiy uyqu tartibi, jismoniy faollik, sog‘lom ovqatlanish, tashqi muhitda faol harakatlar, muntazam o‘qish, shaxsiy rivojlanish, stressni boshqarish va dam olish kabi elementlar ajralmas tarkibiy qismlar sifatida tavsiflanadi. Bu model sog‘lom turmush tarzining nazariy asoslari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, talaba yoshlarning kundalik hayotini optimallashtirishga xizmat qiladi [4].

Sog‘lom turmush tarzining fiziologik asoslari bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ham mazkur mavzuning ilmiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. XIX asr oxirida G. Zakharin va G. Ged tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar jismoniy faoliyatning teri hamda ichki organlar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab fiziologik o‘zgarishlarni keltirib chiqarishini ilmiy jihatdan ko‘rsatib berdi. Ularning xulosalariga ko‘ra, jismoniy mashqlar vaqtida mushaklarning qizishi, elastikligining ortishi, yurak urish tezligining kuchayishi, qon aylanishining faollashuvi, nafas olish chuqurligining oshishi, teri osti tomirlarining kengayishi va ovqat hazm qilish jarayonining sekinlashuvi tabiiy fiziologik reaksiya hisoblanadi. Mazkur o‘zgarishlar inson organizmining uyg‘un faoliyat ko‘rsatishini ta'minlab, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlovchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [5].

Sog‘lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan sog‘lom ovqatlanish masalasi bo‘yicha ham ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. A.I. Fedorov va N.S. Morozovlarning tadqiqotlari ovqatlanish jarayonida gigiyenik talablarga qat’iy amal qilishning organizm faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslab berdi. Ularning fikricha, ovqatlanish madaniyati nafaqat kasalliklarning oldini oladi, balki insonning umumiy ish qobiliyatini va psixologik holatini yaxshilaydi. Yuqoridagi ilmiy manbalar va tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish faqatgina tibbiy yoki fiziologik jarayon emas, balki pedagogik, psixologik, sotsiologik va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘p tarmoqli jarayondir. Ta’lim muassasalari bu jarayonda asosiy yetakchi subyekt bo‘lib, talaba yoshlarni sog‘lom hayot tamoyillariga o‘rgatish, ularda mas’uliyatli hayotiy pozitsiyani shakllantirish, jismoniy, ma’naviy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Xulosa. Sog‘lom hayot tarzini shakllantirish jarayonida atrof-muhitning tozaligi va uning muhofazasi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Talabalarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish esa nafaqat ularning shaxsiy salomatligini mustahkamlash, balki jamiyatning barqaror ekologik rivojlanishini ta’minlash uchun ham zarurdir. M.I. Jorayev, D.R. Karimov, O.T. Sadykov va R.M. G‘afurov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari talabalarda ekotarbiya, ekologik mas’uliyat va tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish sog‘lom turmush tarzining ajralmas tarkibiy qismi ekanini ko‘rsatadi. Shu bois, ekologik ta’limning ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilishi va zamonaviy metodlar asosida takomillashtirilishi yosh avlod salomatligi va jamiyatning ekologik farovonligi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Sog‘lom avlod g‘oyasi” haqida qaror. Tashkent, 2021, № 123.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. “Sog‘lom avlodni tarbiyalash va salomatlikni muhofaza qilish” farmoni. Tashkent, 2020, № 45.
3. Pirogova G.A., “Sog‘lom turmush tarzi”, 2020, sahifa 45.
4. Qodirov, M. “Sog‘lom turmush tarzi va ta’lim”. Andijon, 2022.
5. Rahmonov, S. “Yoshlar va sog‘lom turmush tarzi”. Farg‘ona, 2023.
6. Rahmonov, S. “Fiziologik ehtiyojlar va salomatlik”. Farg‘ona, 2023.
7. Sodiqova T., & Umarova, R. (2023). O‘smir qizlar tarbiyasi. Tashkent: Sog‘lom avlod, 110-125.
8. Normuradova Nasiba “The importance of the latin language in medical education and innovative teaching methods” Finland, Helsinki international scientific online conference "Sustainability of education socio-economic science theory". Part 30 June 7th colletions of scientific works Helsinki 2025.
9. Mattiyeva Feruza “Zamonaviy lingvodidaktik metodlar asosida tarjima qilish ko‘nikmalarini takomillashtirish” Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 9-son.

UO’K 378.02:37.091.314.

CHET TILI O‘QITISHDA REAL HAYOTIY VAZIYATGA ASOSLANGAN KOMMUNIKATIV YONDASHUV (REAL-WORLD COMMUNICATION APPROACH)

L.I.Ibroximova, katta o‘qituvchi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqola chet tili o‘qitishda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan kommunikativ yondashuvning ahamiyatini yoritadi. Tadqiqot jarayonida ushbu yondashuvning ta’lim jarayoniga ta’siri empirik usullar bilan baholandi va an’anaviy o‘qitish modeli bilan solishtirildi. Natijalar o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalari, tilni amaliy qo‘llash darajasi va kommunikativ faolligi sezilarli oshganini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ yondashuv, real hayotiy vaziyat, chet tili o‘qitish, til amaliyoti, interaktiv metod, muloqot kompetensiyasi.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается значимость коммуникативного подхода, основанного на реальных жизненных ситуациях, в процессе обучения иностранному языку. В ходе исследования воздействие данного метода на учебный процесс было оценено с использованием эмпирических средств и сопоставлено с традиционной моделью преподавания. Результаты показали, что у обучающихся заметно повысились навыки общения, уровень практического использования языка и коммуникативная активность.*

Ключевые слова: *коммуникативный подход, реальные жизненные ситуации, обучение иностранному языку, языковая практика, интерактивный метод, коммуникативная компетентность.*

Abstract. *This article explores the significance of the real-world communication approach in foreign language teaching. The study evaluates the impact of this method on the learning process using empirical tools and compares it with the traditional instructional model. The findings indicate that students’ communication skills, practical language use and overall communicative activity improved significantly as a result of applying this approach.*

Keywords: *communicative approach, real-life context, foreign language teaching, language practice, interactive method, communication competence.*

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida chet tilini bilish shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy ehtiyoj sifatida qaralmoqda. Xalqaro iqtisodiy aloqalar, akademik mobillik, raqamli muloqot va migratsiya jarayonlari chet tilini bilishni zamonaviy inson kompetensiyasining ajralmas qismiga aylantirdi. Shu sababli, ta’lim tizimida chet tilini o‘qitish bo‘yicha yondashuvlar doimiy ravishda takomillashib borayotgan bo‘lib, ayniqsa kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan metodlar e’tibor markaziga chiqmoqda.

An’anaviy grammatikaga yo‘naltirilgan yondashuv ko‘pincha o‘quvchilarning tilni real vaziyatda qo‘llay olmasligi bilan natijalanadi. Bunday holatda o‘quvchi qoidalarni bilsa ham, ularni tabiiy muloqotda qo‘llashda qiynaladi. Natijada til bilish nazariy bilim darajasida qoladi, lekin kommunikativ vazifalarni bajarish uchun yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli, zamonaviy ta’lim chet tilini faqat bilim sifatida emas, balki kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rgatishga intilmoqda.

Yangi metodlardan biri – Real-World Communication Approach bo‘lib, u o‘quvchilarning tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashiga asoslanadi. Bu yondashuvda o‘quvchi biladigan tilini sun’iy mashqlar orqali emas, balki intervyu, muloqot topshiriqlari, ijtimoiy vaziyatlar simulyatsiyasi, rolli o‘yinlar va amaliy kommunikativ senariylar orqali mustahkamlaydi.

Mazkur yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish tamoyillariga tayangan holda sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatika, nutq madaniyati, mos vaziyatda til birliklarini tanlay olish qobiliyati va muloqot strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda nazariy bilim yetarli emas, balki o‘quvchi tilni real vaziyatda ishlata olishi, muloqot vazifalarini bajarishi va tilni hayotiy jarayonning faol elementi sifatida qo‘llay olishi zarur.

Metodologiya. Tadqiqot kvazieksperimental dizayn asosida tashkil etildi. Jarayon davomida ikki guruh ishtirok etdi: real hayotiy kommunikativ yondashuv asosida o‘qitilgan eksperimental guruh va an’anaviy grammatika-translation modeli asosida o‘qigan nazorat guruhi.

Tadqiqotda 2024-yil davomida 36 nafar talaba qatnashdi. Eksperimental guruhda o‘qitish jarayoni rolli o‘yinlar, muloqot topshiriqlari, debatlar, muammoli vaziyatlar, intervyu va real senariylarga asoslangan mashqlar orqali olib borildi. Nazorat guruhida esa mashqlar asosan tarjima, grammatika tahlili va matn takrorlashga yo‘naltirildi.

Tadqiqot uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bir nechta metodlar orqali yig‘ildi. Avvalo, o‘quvchilarning dastlabki va yakuniy bilim darajasini aniqlash maqsadida pre-test va post-test o‘tkazildi. Ushbu testlar IELTS Speaking band descriptors mezonlari asosida baholandi, bu esa natijalarni aniq, obyektiv va xalqaro standartlarga asoslangan holda tahlil qilish imkonini berdi.

Talabalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabati va motivatsiya darajasini baholash uchun Likertning besh ballik shkalasiga tayangan maxsus so‘rovnoma ishlab chiqildi. Bu so‘rovnoma yordamida o‘quvchilarning o‘qitish modeli haqidagi fikrlari, psixologik tayyorgarligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi o‘lchandi.

Bundan tashqari, dars jarayonidagi faol ishtirok, muloqot, tashabbuskorlik, topshiriqlarni bajarish sifati va tilni qo‘llash dinamikasini baholash maqsadida kuzatuv varaqasi qo‘llanildi. Bu kuzatuv natijalari eksperimental jarayonning real dars sharoitidagi o‘zgarishlarini aniqlashga yordam berdi.

Qo‘shimcha ravishda, talabalar bilan qisqa yarim-strukturaviy intervyu o‘tkazildi. Bu bosqich o‘quvchilarning subyektiv tajribalarini, yondashuvning kuchli va zaif tomonlari haqidagi fikrlarini, shuningdek o‘quv jarayonida duch kelgan qiyinchiliklarini chuqurroq o‘rganishga xizmat qildi.

Olingan barcha ma’lumotlar SPSS statistik dasturida qayta ishlanib, o‘zgarishlar Studentning T-test usuli orqali taqqoslandi. Bu esa natijalar tasodifiy emas, balki metodik ta’sir natijasi ekanini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari kommunikativ yondashuv o‘quvchilarning nutq faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatdi. Eksperimental guruhda post-test natijalari o‘rtacha 32 foizga oshdi. Nutq ravonligi, lug‘aviy boylik, vaziyatga mos til birliklarini tanlash va muloqot strategiyalaridan foydalanish ko‘rsatkichlarida aniq o‘sish kuzatildi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra:

Ko‘rsatkich	Ijobiy fikr bildirganlar (%)
O‘qitish jarayoniga qiziqish oshgani	88%
Tilni real vaziyatda qo‘llash imkoniyati bergani	92%
O‘ziga bo‘lgan ishonch oshgani	75%
Jamoadagi muloqot ko‘nikmalarining rivojlangani	81%

Kuzatuv natijalari ham eksperimental guruhda talabalar faolroq muloqotga kirishgani, savollar bergani, gapirishdan qo‘rqmaganini ko‘rsatdi.

Munozara. Olingan natijalar real hayotiy vaziyatlarga asoslangan kommunikativ yondashuvning chet tili o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi. Ushbu metod o‘quvchilarni passiv bilim qabul qiluvchilardan faol ishtirokchi va tilni real muloqot vositasi sifatida qo‘llaydigan subyektlarga aylantirdi. Real kommunikativ topshiriqlar, rolli o‘yinlar, juftlik va guruh mashqlari hamda muammoli vaziyatlarga asoslangan faoliyat tili nazariy bilim emas, balki kommunikativ tajriba sifatida shakllanishiga imkon berdi. Bu natija ta’lim jarayonining kommunikativ kompetensiya markaziga ko‘chirilganini ko‘rsatadi.

Mazkur yondashuvning samaradorligi Vygotskiyning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bilan uyg‘unlashadi. Unga ko‘ra, til ijtimoiy muhitda muloqot orqali egallanadi, ya’ni o‘quvchi muloqot jarayonida til elementlarini faol ravishda qo‘llaydi va shu orqali ularni o‘zlashtiradi. Shuningdek, Krashenning Input Hypothesis modeli ham mazkur yondashuvga nazariy asos bo‘la oladi. Modelga ko‘ra, til samarali o‘zlashtirilishi uchun ta’lim jarayoni o‘quvchining mavjud saviya darajasidan bir pog‘ona yuqori bo‘lgan tushunarli kirish (comprehensible input) taqdim etilishi zarur. Tadqiqot jarayonida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashqlar aynan shunday sharoitni yaratgani kuzatildi.

Yondashuvning yana bir kuchli jihati shundaki, o‘quvchilar grammatik qoidalarni sun’iy ravishda o‘rganmaydi, aksincha, muloqot jarayonida ularni tabiiy nutq oqimida sezmasdan egallaydi. Bu esa tilni “qoidadan amaliyotga” emas, “amaliyotdan qoidaga” tamoyili asosida o‘rganishga olib keladi, bu tilni jonli va funksional o‘zlashtirishga yordam beradi.

Biroq, tadqiqot jarayonida ba’zi cheklovlar ham aniqlandi. Jumladan, boshlang‘ich bosqichdagi ayrim o‘quvchilar muloqotga kirishishdan tortindilar, chunki ular xatodan qo‘rqish, talaffuz bo‘yicha ishonchsizlik yoki lug‘at boyligi yetishmasligini sezishdi. Shuningdek, kommunikativ mashg‘ulotlarning yuqori samaradorligi ularni tashkillashtirish uchun ko‘p vaqt talabliligini ko‘rsatdi. Bunday darslarni olib borish uchun o‘qituvchi motivator, fasilitator va moderator sifatida faol ishtirok etishi zarur bo‘lgan, shu sababli metoddan samarali foydalanish yuqori darajada metodik tayyorgarlikni talab qiladi.

Yana bir muhim omil – mos o‘quv materiallarining mavjudligi va o‘quvchilarning o‘zaro ishlash madaniyati. Bu metod ko‘proq faol muloqotga, tanqidiy va ijodiy fikrlashga asoslangan bo‘lgani uchun, an’anaviy darsga o‘rgangan talabalarda dastlabki bosqichda moslashish jarayoni sekin kechishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kommunikativ yondashuv samarali ekanini ko‘rsatgani bilan birga, uni muvaffaqiyatli tatbiq qilish uchun metodika, materiallar, vaqt resursi va o‘qituvchilar malakasi muhim omil ekanini ham namoyon qildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari chet tilini o‘qitishda real hayotiy vaziyatga asoslangan kommunikativ yondashuv samarali metod ekanini tasdiqladi. Anglash, gapirish, muloqotga kirishish va tilni amaliy qo‘llash kabi ko‘nikmalar o‘quvchilar orasida sezilarli darajada yaxshilangan bo‘lib, bu yondashuvning an’anaviy grammatik-tarjima metodiga nisbatan ustun ekanini ko‘rsatdi. Talabalar o‘quv jarayonida tilni nazariy bilim sifatida emas, balki real kommunikatsiya vositasi sifatida qabul qilganlari bois, ularning nutq faolligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va kommunikativ xulq-atvori mustahkamlandi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida kuzatilgan ko‘rsatkichlar ushbu metodning o‘quvchilarning amaliy fikrlash, ijtimoiy muloqotga kirishish va vaziyatga mos til birliklarini tanlash salohiyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Yondashuv o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, dars jarayonini faol va mazmunli muloqotga asoslangan formatga aylantirdi. Bu esa zamonaviy til o‘qitish talablariga, xususan CEFR standarti bo‘yicha kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish maqsadlariga mos keladi.

Shu bilan birga, mazkur metodni samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, mos o‘quv materiallarining mavjudligi va dars jarayonida interaktiv vositalardan foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha sharoitlar zarurligi kuzatildi. Ba’zi o‘quvchilar uchun boshlang‘ich bosqichda muloqotga kirishish qiyinchilik tug‘dirgani holda, bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash strategiyalari bu muammoni bartaraf etishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari real hayotiy vaziyatga asoslangan kommunikativ yondashuv chet tilini o‘rgatish jarayonini tabiiy, interaktiv, maqsadga yo‘naltirilgan va foydali shaklga aylantirishini ko‘rsatdi. Kelgusida ushbu metodni yanada kengroq eksperimental guruhlarda sinovdan o‘tkazish, uni raqamli ta’lim texnologiyalari bilan integratsiya qilish hamda o‘qituvchilar malakasini oshirish orqali metodning ta’lim tizimidagi amaliy ahamiyatini kuchaytirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Richards, J. C., Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

2. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Longman.

UO’K 37.013:398.2

XALQ OG‘ZAKI IJODINING PEDAGOGIKA FANI TARAQQIYOTIGA TA’SIRI

Sh.D.Jabborov, o‘qituvchi, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofa universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘rta Osiyoda pedogogika fanining bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li haqida so‘z boradi. Bir necha ming yillikda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayotida pedogogikaning tutgan o‘rni, fan haqida xalq og‘zaki ijodi orqali etib kelgan ma’lumotlar ham maqoladan o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar*: xalq og‘zaki ijodi, xususiy mulk, monogam, kohinlar, yo‘lboshchilar, oqsoqollar, piktografik yozuv, ierogliflar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается путь развития науки педагогики в Центральной Азии. Также обсуждается роль педагогики в социальной жизни народов Центральной Азии на протяжении нескольких тысячелетий, а также информация о науке, дошедшая до нас через народную литературу.*

Ключевые слова: *народная литература, частная собственность, моногамия, прорицатели, проводники, старейшины, пиктографическое письмо, иероглифы.*

Abstract. *This article discusses the development path of the science of pedagogy in Central Asia. The article also discusses the role of pedagogy in the social life of the peoples of Central Asia over several millennia, information about the science that has come down to us through folk oral literature.*

Keywords: *oral folklore, private property, monogamy, priests, leaders, elders, pictographic writing, hieroglyphs.*

1. Abu Homid G‘azzoliy. “Ayyuhal valad” asarining o‘zbek tilidagi tarjimasi (qayta nashr). – T.: Movarounnahr, 2005.

2. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy. “Ihyou ulumid-din” (Din ilmlarini jonlantirish). Ilm kitobi. Birinchi kitob. – T.: Movarounnahr, 2005.
3. Mahmudov F. Islom axloqi va tarbiya. – T.: Sharq, 2011.
4. Abdurahmonov A. Abu Homid G‘azzoliy va uning axloqiy qarashlari. – T.: O‘zbekiston, 2015.
5. Aliyev M. Islom falsafasi va tarbiyaning asosiy prinsiplari. – T.: Fan, 2013.
6. Yuldashev S. G‘azzoliy va uning diniy axloqiy g‘oyalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2018.
7. Zarifov N. G‘azzoliy tarbiya tizimi va uning zamonaviy ta'limga ta'siri. – T.: Yurt, 2020.
8. Xudoyqulov A. G‘azzoliy va uning tarbiya haqidagi tamoyillari. – T.: O‘zbekiston, 2019.

UO’K 37.016:821.161.1

TIL VA ADABIYOT TA’LIMIDAGI IS’HOQXON IBRAT ASARLARINING AHAMIYATI

Yo.R. Masharipova, talaba, Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yetuk o‘zbek jadidlaridan biri Is’hoqxon Ibratning o‘zbek tilshunosligiga qo‘shgan hissasi yoritib beriladi. Shuningdek, olimning ushbu sohadagi asarlari tahlil etiladi. Mutafakkirning “Lug‘ati sitta al-sina” nomli ko‘p tilli lug‘ati va “Jome’ ul-xutut” asarlari alohida e’tibor bilan tahlil qilinadi. Maqolada mazkur asarlarning yaratilish sabablari, ularning mazmun-mohiyati, tarixiy va ilmiy ahamiyati, shuningdek, mustamlaka sharoitida yaratishdagi mashaqqatlar haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Is’hoqxon Ibrat, o‘zbek tilshunosligi, lesikografiya, yozuvlar tarixi, “Lug‘ati sitta al-sina”, “Jome’ ul-xutut”, arab alifbosi, ko‘p tilli lug‘at.*

Аннотация. *В данной статье освещается вклад одного из выдающихся узбекских джадидов — Исхоккона Ибрата — в развитие узбекского языкознания. Также анализируются научные труды ученого в этой области. Особое внимание уделяется многоязычному словарю «Лугати ситта ал-слина» и труду «Джоме уль-хутут». В статье рассматриваются причины создания этих произведений, их содержание, историческое и научное значение, а также трудности, с которыми столкнулся автор при их написании в условиях колониального режима.*

Ключевые слова:*Исхоккон Ибрат, узбекское языкознание, лексикография, история письменности, «Лугати ситта ал-сина», «Джоме уль-хутут», арабский алфавит, многоязычный словарь.*

Abstract. *This article highlights the contribution of one of the prominent Uzbek Jadids, Is’hoqxon Ibrat, to the development of Uzbek linguistics. It also analyzes the scholar’s works in this field. Special attention is given to his multilingual dictionary “Lug‘ati sitta al-sina” and the scientific work “Jome’ ul-xutut.” The article explores the reasons behind the creation of these works, their content, historical and scientific significance, as well as the challenges the author faced while writing them under colonial rule.*

Keywords:*Is’hoqxon Ibrat, Uzbek linguistics, lexicography, history of writing systems, Lug‘ati sitta al-sina, Jome’ ul-xutut, Arabic alphabet, multilingual dictionary.*

Barchamizga ma’lumki, jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda paydo bo‘lib, 90-yillarda O‘rta Osiyoda, xususan, Turkistonda jadallik bilan yoyildi. Ushbu harakat namoyondalarining bosh maqsadi albatta, xalqni ilm-ma’rifatga yo‘naltirish edi. Bu yo‘lda ular faqatgina yangi maktablar ochish bilan kifoyalanmay ushbu maktablar uchun turli darsliklar ham yaratdilar. Yaratilgan darsliklar bilan bir qatorda o‘zbek adabiyotining oltin fondidan joy olgan turli janrlardagi asarlar va tilimizning rivoji yo‘lida tuzilgan lug‘atlar ham mavjuddir.

Jadidlarning o‘zbek tiliga qo‘shgan xissalari haqida gap ketar ekan, avvalo, 1862-yil Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan Is’hoqxon To‘ra Ibratni aytib o‘tish lozim. Tarixdan barchamizga ma’lumki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus-tuzem maktablarining faqat shaharlarda emas, yirikroq qishloqlarda ham tashkil etilishi mahalliy aholining G‘arb tillariga, ayniqsa, rus tiliga bo‘lgan ehtiyoji va qiziqishni kuchaytirdi. Shunday maktablardan biri To‘raqo‘rg‘onda ham ochilib, unga homiylik qilish vazifasi Is’hoqxon Ibratga topshirildi. Ko‘plab mamlakatlarda ilm talabida bo‘lgan Is’hoqxon Ibrat 20 ga yaqin Sharq va G‘arb tillarini o‘zlashtirdi. Shu sababli aholiga yordam berish maqsadida 6 tilning lug‘ati – “Lug‘ati sitta al-sina”ni yaratishga

kirishdi. Bu lug‘at arabcha, forscha, hindcha, turkcha, sartcha (o‘zbekcha) va ruscha so‘zlardan tarkib topgan. Lug‘at 53 bet, 2 qismdan iborat bo‘lib, mingdan ortiq so‘zlarni o‘z ichiga oladi va bu so‘zlarning tarjimasi arab, rus, fors, hind va turk tillarida berib boriladi. Asarning birinchi qismi alifbo tartibida tuzilgani sabab har bir harfga alohida kichik boblar ajratilgan.

Mutafakkir mazkur asarini yaratar ekan, birinchi navbatda, rus tiliga qiziquvchi o‘zbeklarni ko‘zda tutdi. Bu hol kitobning titul varag‘iga bitilgan so‘zlardanoq ko‘zga tashlanadi. Muallif aholinig asosiy qismi – krill yozuvini bilmaydigan o‘zbeklarga qulay bo‘lishi uchun ruscha so‘zlarni ham arab yozuvi bilan beradi. Ma’lumki, rus va Yevropa so‘zlarining talaffuzi nuqtayi nazaridan ularni arab imlosida ifodalash ancha murakkab ish, lekin Is’hoqxon bu murakkablikni muvaffaqiyatli hal qildi.[1.21b] Ibratning bu asari XIX asrning 90-yillarida yozib tugatilganiga qaramay, biroz kechikib, ya’ni 1901-yilda Toshkentda V.I.Lenin bosmaxonasida nashr etildi. Bu kechikishga sabab esa o‘sha davrda Chor ma’murlari tomonidan mahalliy mualliflarga nisbatan o‘rnatilgan ta’qib va qattiq nazorat edi. Asar kichik muqaddima bilan boshlanib, unda ushbu asar uchun turli davlatlarga sayohat davomida ma’lumotlar to‘plangani va yoshlarga “bir nishon” qoldirish muallifning asl maqsadi ekani ta’kidlab o‘tiladi. Lug‘at rus-tili maxsus predmet sifatida o‘tilishiga ruxsat berilgan maktablarda darslik va qo‘llanma sifatida foydalanildi. Turkiy xalqlarni ruslashtirish siyosati olib borilayotgan davr mobaynida mazkur asarni arab alifbosida yaratilishi mustamlakachilarning bu harakatlariga zid edi. Lekin shunday bo‘lsa-da, Is’hoqxon To‘ra Ibrat bu ishni juda katta bosim va tayziqlar ostida bajarishga erishdi. Ta’kidlash joizki, Is’hoqxon Ibrat faqatgina milliy uyg‘onish davrida lug‘at yaratgan ilk jadid emas, balki o‘zbek leksikografiyasida ko‘p tilli lug‘atlar yaratishni boshlab bergan mutafakkir ham edi.

Adabiyotshunos Begali Qosimovning asarlari haqida quyidagi fikrlarni uchratishimiz mumkin: “Lug‘atning muhim ahamiyati shundaki, shu yerli aholi uchun tushunarli bo‘lgan arab yozuvida yaratilgan.Bu haqida asarning qo'lyozma nusxasi bilan tanishgan gazeta tahririyati xodimlaridan biri quyidagilarni yozgan edi: “...Rusiya lug‘atlarini musulmoniya huruflari ilan yozmoq xo‘b qiyin va dushvor uchun ul ruscha yozilgon iboralarni ko‘broq tag‘yir berildi va mazkur “Sitta al-sina” degan janob qozining ixtiro qilg‘on kitoblari bizning Turkiston viloyatimizdagi sartiyalardan shuncha til bilib bul tariqa kitob va lug‘at tasnif qilgan odam yoq edi.”[2.118b]

Adibning “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) nomli ilmiy asar yaratdi. Ushbu majmuada yozuvlarning eng qadimiysi bo‘lgan piktografik yozuvdan tortib to XX asrda ham foydalanilgan yozuvlarning tarixiy taraqqiyot bosqichlari ko‘rsatib berilgan. 132 betdan iborat asar 1912-yil olimning asos slogan “Matbaai Is’hoqiya” da nashr qilingan. Asarning yozilish tarixi va maqsadi haqida muallifning o‘zi aytgan quyidagi gaplardan bilib olishimiz mumkin: “Bul xatlarni boqiy va tariq qarori muddao bo‘lib va ham millatimizga yagona bir tarix qoldirmoq qasdinda va ham olama bir asar qoldirmoq niyat etub, bu misra mujibi

Asardurki olamg‘a o‘lg‘ay nishon,

Kishi beasardur ketar benishon –

mazmunicha botadvin aylab, royi soqib, arbobi xasm va arbobi fazlu kamollarg‘a manzur qilib, millatga nishon qoldirib ham millatimiz lisoni turkiy uchun umumiy turkiy ilan sartiya xalqini naf olmoqi muddao bo‘lib,adabiy milliyona qilmay, ravshan turkiy qilindi.”[3.6-7b] Keltirilgan gaplardan anglash mumkinki, Ibrat turkiy tilda so‘zlashuvchi aholini tilshunoslikning ushbu sohasida bilimini oshirish, ularga naf keltirish, shu bilan birga o‘zidan nishon qoldirish maqsadida yozgan.

“Jome’ ul-xutut”ni o‘qir ekanmiz Is’hoqxon Ibratning tilshunoslik sohasida chuqur ilmga ega ekanligini bevosita guvohi bo‘lamiz. Muallif yozuvlarning eng ibtidoiysi – piktografik yozuvdan keyin paydo bo‘lgan qadimiy yozuvlar: yahudiy, suriya, arab, yunon, finikiya, fors, slavyan, sanksrit va boshqa 40 dan ortiq yozuvlarning etimologiyasi, taraqqiyoti haqida ma’lumot beradi. Majmuani yaratish davomida olim arab mamlakatlarining eng qadimiy xalqlaridan biri bo‘lgan finkiya xalqi yozuvlarini o‘rganib, mazkur bitiklarni to‘g‘ri o‘qishga harakat qiladi. Ayrim tadqiqotchilarning ma’lumotlariga qaraganda Is’hoqxon o‘zi yashab turgan davrdan qariyb 2000 yil avval finikiya xalqlari tomonidan yaratilgan va o‘sha zamonda foydalanilgan yozuv yodgorliklarini Kipr orolidagi g‘orlardan topadi va ularni o‘z asarida namuna sifatida keltiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, “Jome’ ul-xutut”ni yozish uchun juda katta tadqiqot va izlanishlar olib borgan. Bu izlanishlar natijasida olim

tovush-harf yozuv tizimi ilk marta finikiya xalqlari tomonidan yaratilgan hamda boshqa barcha yozuvlarning yaralish asosi bo‘lib xizmat qilgan degan ilmiy xulosaga kelgan.

“Jome’ ul-xutut” dunyoda mashhur bo‘lgan 41 xil yozuv sistemasi haqida, shu jamladan, arab xatining suls, rayhon, zulf, humoyun, turra kabi shakllari haqida ma’lumot beradi va shu bilan birga, unda husnixat san’atiga oid fikrlarni bildiradi. Ibrat ushbu asarida rus tili bilan bir qatorda ingliz, fransuz, nemis, lotin kabi chet tillarini o‘rganish ilm-fan va madaniyatni egallashda katta rol o‘ynashini ham alohida ta’kidlaydi.[4.127b]

Yuqoridagi asarlarning, xususan, “Lug‘ati sitta al-sina”ning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak shuni ta’kidlash joizki, mazkur asar hozirda O‘zbekistonda yoshlarning chet tillarini o‘rganishi bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning tarixiy ildizi deb atash mumkin. Chunki Ibratning asari zamonaviy ta’lim tizimida ilgari surilayotgan ko‘p tillilik, millatlararo muloqot va global tafakkurni shakllantirish g‘oyalariga uyg‘un keladi. Sir emaski, chet tillarini bilish yosh avlodga jahon minbarlarida o‘z davlati nomini yanada kengroq yoyish imkonini beradi. Bu esa mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy jihatdan rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda millat oydinlarining hayoti va ijodiy faoliyatini chuqur o‘rganish muhim masalalardan biriga aylandi va bu jarayonda yuqorida tahlil qilingan Is’hoqxon To‘ra Ibratning nurli umr yo‘li ham chetlab o‘tilmadi. Buni isboti sifatida Nurboy Jabborovning quyidagi gaplarini keltirish mumkin: “Muhataram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning taklif va tashabbusi bilan Namangan shahrida vodiyda yagona bo‘lgan “Ibrat” muassasasining bunyod etilgani ham buni tasdiqlaydi. Majmua xiyobon, muzey,chet tillarini o‘rganish maktabi kabi ma’rifiy muassasalarni o‘z ichiga olgani ko‘p tillarni bilgan, jahonning aksar xalqlari yozuvidan xabardor bo‘lgan adib ruhiga, ayniqsa, har jihatdan muvofiq.”[5.4b]

Xulosa qilib aytganda, Is’hoqxon Ibrat jadidchilik harakatining mohiyatini amaliyotda ko‘rsatgan siymolardan biridir. Uning asarlari orqali biz bir millatning uyg‘onish, anglash va rivoji yo‘lidagi dadil qadamini ko‘ramiz. Tarix shuni ko‘rsatadiki, o‘zidan nishon qoldirgan inson – abadiyat sari odimlagan insondir. Is’hoqxon To‘ra Ibrat ana shunday abadiyatga daxldor siymolardan biridir. “Lug‘ati sitta al-sina” lug‘atini yaratganida u nafaqat tarjima ishini bajargan, balki o‘zbek xalqining dunyo tillariga ochiladigan eshigini ochgan. “Jome’ ul-xutut” asari esa uni faqat leksikograf emas, balki, tarixshunos, hattoki madaniyat targ‘ibotchisi sifatida namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dolimov.U, Jadidlar. Is’hoqxon To‘ra Ibrat. – T.: “Yoshlar nashriyot uyi” 2022. 162
2. Qosimov.B, Yusupov.Sh, Dolimov.U, Rizayev.Sh, Ahmedov.S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: “Ma’naviyat” 2004. 296
3. Is’hoqxon To‘ra Ibrat. Jome’ ul-xutut.
4. Dolimov.U, Qosimov.B. Ma’rifat darg‘alari. – T.: “O‘qituvchi” 1990. 172
5. Dolimov.U, Jabborov.N. Jadid adabiyoti namoyondalari. Is’hoqxon Ibrat. – “Zabardat media” 2022. 210

UO’K 37.02

IJTIMOIY-PEDAGOGIK FIKRLAR NEGIZIDA TALABALARNING MA’NAVIY - AXLOQIY KAMOLOTINI TA’MINLASHGA QARATILGAN YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI

N.M.Matkarimova, magistrant, Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashning nazariy asoslari, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi aks etgan maqsad va vazifalar, shuningdek, ushbu jarayonni amaliyotga tatbiq qilishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi. Shu orqali talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan innovatsion-pedagogik yondashuvlar va ularning ijtimoiy natijadorligi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar:*bilim, axloq, innavatsiaya, ta’lim, O‘zbekiston, globallashuv, taraqqiyot, strategiya.*

Аннотация*. В данной статье анализируются теоретические основы обеспечения духовно-нравственного развития учащихся на основе социально-педагогических идей, цели и задачи, отраженные в Стратегии развития нового Узбекистана, а также эффективные*

пути реализации этого процесса на практике. Посредством этого на научной основе рассматриваются инновационные педагогические подходы, направленные на всестороннее развитие личности учащегося, их социальная эффективность.
Ключевые слова: *знания, этика, инновации, образование, Узбекистан, глобализация, развитие, стратегия.*
Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations of ensuring the spiritual and moral development of students based on socio-pedagogical ideas, the goals and objectives reflected in the Development Strategy of New Uzbekistan, as well as effective ways to implement this process in practice. Through this, innovative pedagogical approaches aimed at the comprehensive development of the student's personality and their social effectiveness are considered on a scientific basis.*
Keywords: *knowledge, ethics, innovation, education, Uzbekistan, globalization, development, strategy.*

Bugungi globallashuv sharoitida har bir mamlakat o‘z taraqqiyot strategiyasini xalqning ma’naviy yuksalishi va ijtimoiy qadriyatlar asosida belgilashga intilmoqda. Xususan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy yo‘nalishdagi islohotlarni, balki inson kapitalini rivojlantirish, ayniqsa yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashni o‘zining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilab bergan. Bu esa pedagogik fikr va amaliyotda talabaning shaxs sifatida shakllanishi, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli, ijtimoiy faol, ma’naviy yetuk inson bo‘lib voyaga yetishini ta'minlash zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda.Ma’lumki, har qanday taraqqiyotning markazida inson turadi. Insonning esa barkamol shaxs sifatida kamol topishi – u olgan tarbiya va ta’lim sifati, ijtimoiy muhit, shuningdek, u egallagan qadriyatlar tizimiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy-pedagogik fikrlar va ilg‘or yondashuvlar zamonaviy talabaning ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish,Yangi O‘zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi.Bu borada bir fikrni alohida ta’kidlash joiz O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalari oldiga qo‘yilayotgan dolzarb vazifalardan biri — bu talabalarda mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirish, ularni vatanparvarlik, halollik, mehr-oqibat, adolat kabi yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan beshta ustuvor yo‘nalishdan biri aynan inson qadrini ulug‘lash va xalq manfaatlariga xizmat qilish tamoyiliga asoslangan bo‘lib, bu yondashuv ta’lim tizimiga ham tubdan yondashishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy olami va axloqiy qarashlarini mustahkamlash, ularning milliy g‘ururini uyg‘otish, zamonaviy dunyoqarashga ega shaxslarni tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy-pedagogik fikrlar har bir jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida insonni tarbiyalash, uni ijtimoiy hayotga tayyorlash va ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllantirish jarayonida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu fikrlar — pedagogik g‘oyalar, ta’lim-tarbiyaning maqsad va vositalari, shuningdek, shaxsni ijtimoiylashtirishga oid nazariy qarashlar majmuasidir. Ular jamiyatdagi mafkuraviy o‘zgarishlar, ma’naviy qadriyatlar va madaniy an’analar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, O‘rta Osiyoning buyuk allomalari — Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida inson tarbiyasining mohiyatiga alohida urg‘u berishgan. Masalan, Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida insonning ma’naviy yetukligi va axloqiy kamoloti jamiyat farovonligi uchun hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlagan. Alisher Navoiy esa o‘z g‘azallari va nasriy asarlarida inson axloqi, adolat, fidoyilik, vafo, sabr kabi fazilatlarni targ‘ib qilgan.

Sovet davrida esa ijtimoiy-pedagogik fikrlar ideologik nazorat ostida bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, ijtimoiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etgan. Mustaqillikdan so‘ng, ijtimoiy-pedagogik fikrlar tubdan yangilandi va milliy qadriyatlar, diniy-madaniy meros bilan uyg‘unlashgan holda yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunda esa bu fikrlar Yangi O‘zbekiston

taraqqiyot strategiyasi doirasida zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ta’lim usullari va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida boyitilmoqda.

Ijtimoiy-pedagogik fikrlarning zamonaviy talqini talabaning nafaqat bilim olishiga, balki uning ijtimoiy ongini, axloqiy pozitsiyasini, milliy o‘zligiga sadoqatini shakllantirishga qaratilgan. Bunda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning ichki dunyosini anglay oladigan, unga yo‘l ko‘rsata oladigan, axloqiy namuna bo‘la oladigan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-pedagogik fikrlar tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, ular zamonaviy taraqqiyot jarayonida yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Bu fikrlar yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashda, ularni vatanparvarlik, insonparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlar asosida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy jamiyatda inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, ayniqsa, yosh avlodni yuksak axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalash davlat taraqqiyotining eng muhim sharti sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — bu yoshlarda kuchli ma’naviy immunitetni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Bunday yondashuv nafaqat yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishiga, balki jamiyatda sog‘lom muhitni ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya — bu kishilik jamiyati taraqqiyotida uzviy ahamiyatga ega bo‘lgan, insonni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. U o‘z ichiga quyidagi komponentlarni oladi:

- **Axloqiy qadriyatlar tizimi**: Halollik, adolat, mehr-oqibat, vatanparvarlik, hurmat va mas’uliyat hissi;
- **Milliy-ma’naviy merosga munosabat**: O‘z tarixiga, tiliga, urf-odatlariga sadoqat;
- **Shaxsiy namunaviylik**: O‘qituvchi va kattalarning ijtimoiy axloqiy o‘rnak bo‘lishi;
- **Ijtimoiy faoliyat**: Talabani jamoatchilik ishlariga jalb etish orqali ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, ma’naviy-axloqiy tarbiya o‘ziga xos yondashuvlarni talab qiladi. Bunda interfaol metodlar, masalan, muammoli vaziyatlar, axloqiy dilemmalar, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o‘yinlar va munozaralardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradi, balki ularni hayotda qo‘llash, mustaqil fikr yuritish va to‘g‘ri qaror qabul qilish malakasiga ega bo‘ladilar.

Talabalarning ma’naviy-axloqiy kamoloti faqat auditoriya mashg‘ulotlarida emas, balki kampus hayotida, ijtimoiy faoliyatda, madaniy tadbirlar va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali shakllanadi. Bu jarayonlarda talabalar o‘zlari uchun muhim bo‘lgan qadriyatlarni o‘zlashtirib boradilar. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va ommaviy madaniyatning kuchli ta’siri mavjud bo‘lgan sharoitda, ma’naviy tarbiya yoshlarni zararli g‘oyalardan himoya qilishda muhim vositaga aylanadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bu borada muhim ustuvor yo‘nalishlarni belgilab bergan: maktab va oliy ta’lim tizimini isloh qilish, pedagoglar salohiyatini oshirish, darslik va metodikalar orqali ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni sifatli tashkil etish, shuningdek, yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislarning professional tayyorgarligini kuchaytirish kabi masalalar ayni shu maqsadga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: *“Yangi O‘zbekistonning eng katta boyligi bu — ma’naviyatli, bilimli, vatanparvar yoshlaridir.”* Bu fikr bugungi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning naqadar dolzarb va strategik ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

2022-yil 28-yanvarda “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 60-sonli Prezident farmoni qabul qilindi, **Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi – 2022–2026 yillar uchun Harakatlar rejasi** mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini tubdan yangilash, eng muhimi esa inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan davlat siyosatining yangi bosqichi bo‘ldi. Ushbu strategiyada belgilangan 100 ta ustuvor maqsad ichida **inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamoloti, ta’lim tizimini zamonaviylashtirish** kabi yo‘nalishlar markaziy o‘rinni egallaydi.

Yoshlar – bu har qanday jamiyatning tayanchi va kelajagi. Shu boisdan ham Yangi O‘zbekiston taraqqiyot konsepsiyasida yoshlar bilan ishlash masalasi chuqur o‘rganilib, ularning ma’naviy

immunitetini kuchaytirish, sog‘lom dunyoqarash va barqaror qadriyatlar tizimini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida ilgari surilgan. Aynan shu maqsadda quyidagi yo‘nalishlarda muhim chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgan:

- **Ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish**: o‘quv dasturlariga ma’naviyat, vatanparvarlik, shaxsiy rivojlanish, axloqiy tarbiya bilan bog‘liq modul va fanlar kiritilmoqda;
- **Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish**: madaniyat markazlari, sport inshootlari, teatr va san’at maktablari faoliyati kengaytirilmoqda;
- **Axborot xavfsizligini ta’minlash**: yoshlarni zararli g‘oya va yot mafkuralardan himoya qilish uchun axborot sohasida monitoring va profilaktik ishlar kuchaytirilmoqda;
- **Pedagogik salohiyatni oshirish**: o‘qituvchilarning ma’naviy-ma’rifiy salohiyati, kommunikativ madaniyati, psixologik tayyorgarligi ustida tizimli ish olib borilmoqda.

E’tirof etilgan islohotlar jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, yoshlarning ichki dunyosini mustahkamlash va ularni ijtimoiy jihatdan faol shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida “Ma’naviyat soatlari”, “Ma’naviyat klublari”, “Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot guruhlari” faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, iqtidorli talabalar o‘rtasida tanlovlar, ma’naviy tadbirlar, targ‘ibot loyihalari o‘tkazilishi — amaliy natijalarga olib kelmoqda.

Yana bir e’tiborli jihat — Strategiyada yoshlarning tashabbuslari, ularning fikrini eshitish, muammolarini hal qilish, ularga ishonch bildirish davlat siyosatining asosi sifatida belgilangani. Bu orqali yoshlarda o‘ziga ishonch, fuqarolik mas’uliyati, Vatanga daxldorlik tuyg‘usi kuchaymoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yosh avlodimizda mustahkam ma’naviy poydevor bo‘lmasa, taraqqiyot bo‘lmaydi. Biz ertangi kun uchun ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashimiz kerak.”

Shu jihatdan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi — bu faqat hujjat emas, balki yoshlar bilan ishlashning amaliy dasturi, ularning ma’naviy-axloqiy rivoji uchun zamonaviy pedagogik mexanizmlar majmuidir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida an’anaviy pedagogik usullarni zamonaviy, innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’kidlanganidek, ta’lim tizimini raqamlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika, interfaol metodlar va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanish talabalarning ma’naviy kamolotini ta’minlashda samarali vosita sifatida qaralmoqda.Talabalarning ma’naviy-axloqiy kamolatini ta’minlashda bir qancha zamonaviy yondashuvlar nihoyatda ahamiyatli. Jumladan,

1.Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi talabaning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va axloqiy pozitsiyasini hisobga olgan holda tarbiyalashga asoslanadi. Bu yondashuvda o‘qituvchi faqat bilim manbai emas, balki mentor, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi sifatida faol ishtirok etadi. Talabaning ichki dunyosini anglash, uning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash asosiy maqsadga aylanadi.

2. Interfaol va innovatsion metodlar.

Ma’naviy tarbiyani samarali tashkil etish uchun muammoli ta’lim, muhokama va debatlar, simulyatsiya o‘yinlari, ijtimoiy loyihalar va treninglar kabi metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu metodlar talabalarni faol fikrlashga, o‘z fikrlarini ifodalashga, axloqiy dilemma va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

3. Raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari

Bugungi kunda yoshlar axborot maydonida ko‘p vaqt sarflaydi. Shu bois, pedagogika sohasida raqamli vositalardan foydalanish zarurati ortmoqda. Onlayn ma’ruzalar, vebinarlar, interaktiv platformalar, virtual ma’naviy-ma’rifiy kurslar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibot ishlarini olib borish yoshlarning ma’naviy o‘sishida muhim ahamiyatga ega.

4. Madaniy va sport tadbirlarini tashkil etish

Talabalarni madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlariga jalb qilish ularning jamoaviy faoliyatga integratsiyasini ta’minlaydi, do‘stlik, hurmat, halollik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, milliy an’analar, urf-odatlar, san’at orqali ma’naviy merosni anglash va qadrlash imkonini yaratadi.

Yuqoridagi yondashuvlar orqali talabalar o‘zaro hamkorlikda ishlashni o‘rganadi, ijtimoiy mas’uliyatni anglaydi, vatanparvarlik tuyg‘usi kuchayadi. Bu esa ularning nafaqat professional, balki ma’naviy-axloqiy barkamol shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash masalasi bugungi kunda mamlakatimiz uchun eng dolzarb vazifalardan biridir. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi yosh avlodning ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashga, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularning jamiyatdagi faolligini oshirishga katta e’tibor qaratmoqda.Ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar yoshlarni nafaqat bilim bilan ta’minlash, balki ularning ichki dunyosini rivojlantirish, axloqiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashni ham o‘z ichiga oladi. Shu maqsadda innovatsion metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, raqamli texnologiyalar, madaniy va sport tadbirlari keng qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, pedagoglar malakasini oshirish va yoshlarni samarali qo‘llab-quvvatlash orqali ma’naviy-axloqiy kamolotga erishish mumkin. Bu esa mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti, fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligi va milliy birdamligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo‘ladi.Shunday qilib, talabalarning ma’naviy-axloqiy kamoloti nafaqat shaxsiy rivojlanishining, balki Yangi O‘zbekistonning ravnaq topishining poydevori hisoblanadi. Bu yo‘lda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-pedagogik ishlar va davlat siyosati mamlakatimizni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi — 2022–2026 yillar uchun Harakatlar rejasi” to‘g‘risidagi qarori, 2022-yil 28-yanvar.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi: ma’naviyat va ta’lim. Toshkent, 2023.
3. Forobiy Abu Nasr. “Fozil odamlar shahri”. Tarjimai hol va tahlillar. Toshkent, 2020.
4. Alisher Navoiy. “Xamsa”. Toshkent, 2019.
5. Nazarov S. Ijtimoiy-pedagogik fikrlar va yoshlarning ma’naviy tarbiyasi. Pedagogika jurnali, 2021, №3.
6. Islomova D. Talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida innovatsion metodlar. Ilmiy tadqiqotlar to‘plami, Toshkent, 2024.
7. Karimov A. Zamonaviy ta’lim va ma’naviyat: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2022.
8. Xalqaro ta’lim tashkilotlari (UNESCO, UNICEF) ma’naviy tarbiya bo‘yicha hisobotlari, 2023.

UO’K 37.013.6:821.161.1

O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASHDA HIKOYALARNING AHAMIYATI

U.M.Maxmudova, talaba, Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan milliylikni yoshlarga nasriy asarlar orqali o‘rgatish masalasi “Voy, onajonim” hikoyasi talqinida ko‘rib chiqiladi. Ushbu hikoyada keltirilgan qadriyat, urf-odat, an’analarimiz haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Hikoya, qadriyat, obraz, nasriy, she’riy, hunar, epik janr.*

Аннотация. *В данной статье мы рассмотрим тему наших национальных ценностей в прозаических произведениях через интерпретацию рассказа «Горе, мать моя». В рассказе рассматриваются наши ценности, традиции и национальность.*

Ключевые слова: *История, ценность, образ, проза, поэзия, ремесло, эпический жанр.*

Abstract. *In this article, we will examine the theme of our national values in prose works through the interpretation of the story "Woe, my mother." This story discusses our values, traditions, and nationality.*

Keywords: *Story, value, image, prose, poetry, craft, epic genre.*

Insoniyat paydo bo‘lgan davrdan boshlablab u bilan birgalikda adabiyot ham paydo bo‘lgan. San’at, adabiyot insoning ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi. Adabiyot so‘ziga turli hil ta’riflarni berishimiz mumkin. Xususan “Adabiyot – o‘qish uchun mo‘ljallab yozilgan asarlar jami. Adabiyot –madaniyat shakllaridan biri. Adabiyot - semiotik faoliyat. Adabiyot – san’atning yozma ko‘rinishi. Adabiyot – insonning o‘zini ifodalash vositasi. Adabiyot – ijtimoiy ong shakli. Adabiyot - nutqiy faoliyat turi. Adabiyot – so‘z san’ati” [1.24b.] kabi o‘xshatishlar mavjud. Adabiyot

orqali inson dunyoni tasavvurida tasvirlay oladi. Badiiy asarlar orqali esa aynan asarning zamonidagi voqea-hodisalarni his etadi. Asar o‘qir ekan asar yozilgan zamon bilan hamnafas vaqt o‘tkazadi. Hoh u nasriy asar bo‘lsin, hoh u she’riy asar bo‘lsin. Nasriy shaklda yozilgan tarixiy, ilmiy, badiiy asarlarimiz juda ko‘p.

Aynan badiiy adabiyotning kichik epik janri, hayot hodisalari ixcham ifoda etadigan hikoya ham nasriy usulda yoziladi. Hikoya boshqa adabiy janrlardan o‘zining ixchamligi bilan ajrab turadi. Hikoyada aynan bir insoning taqdiri yoritib beriladi. Shuning uchun ham o‘quvchilar uchun hikoyalarni mutolaa qilish va bir xulosaga kelish mushkul emas. Har bir nasriy asarda jumladan, hikoyalarda ham milliy qadriyatlarning ifodalanishiga alohida etibor beriladi. Chunki milliy qadriyatlarimiz bizning o‘zligimiz hisoblanadi. Bugungi kunda milliy qadriyatlarimizni yosh avlodga o‘rgatish, o‘qitish biz pedagoglarning zimmasidagi vazifa. Yuqoridagi mavzuda yozilgan hikoyalar bizning adabiyotimizda juda ham ko‘p. Jumladan O‘zbekiston xalq yozuvchisi bo‘lgan Tohir Malikning ham ushbu yo‘sinda yozilgan hikoyalari talaygina. Ushbu maqolada biz Tohir Malikning “Voy, Onajonim” hikoyasidagi milliy qadriyatlarning qay yo‘sinda ifodalanganligini tahlil qilamiz.

Bugungi ko‘rib chiqadigan hikoyamizning ham bosh qahramoni – ona. Hikoya “Onangdan bosh tovlama, oshmasin dardi, Hayot toji erur oyog‘in gardi...”-, [2.3b.] degan jumlalar bilan boshlanadi. Hikoyada bir mushtipar onaning boshidan kechirganlari tasvirlanadi.

Bilamizki bizning o‘zbek qadriyatlarimizda “Yigit kishiga qirq hunar oz”, “Hunarli kishi hor bo‘lmas” degan maqollar juda ham ko‘p. Bugungi Yangi O‘zbekistonda ham hunar o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Aynan yozuvchi Tohir Malik ham quyidagi jumla orqali o‘sha davrda ham hunar o‘rganish qay darajada, qay maqomda ekanligini ta’kidlab o‘tgan. “Yaxshi hunar egallarining martabasi ham baland bo‘ladi”, [2.16b]- deganlaridek onaning ikkinchi farzandi Zokir hunar yo‘lini tanladi.

Bugungi kunda bizning kiynish uslubimiz milliyligimizni anlatganidek, o‘sha davrdagi qizlarning ham hayosi ustidagi kiymiga, boshidagi ro‘moliga qarab belgilanishi ushbu hikoyada ham keltirilgan. Hikoyada kelining tasvirlanish yana bir bor o‘sha davrdagi qadriyatlarimizga yaqqol namuna bo‘ladi. “Yengsiz kalta ko‘ylakda, boshyalang... Xuddi bu hovliga adashib kirib qolgan begonaday...”. [2.17b.]

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiga nazar soladigan bo‘lsak to‘y marosimlarining turli hududlarda turlicha ko‘rinishda bo‘lishini bilib olamiz. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ham to‘y marosimlarining yaqqol namunalari keltirilgan. “Alpomish” dostonida “Xaloyiqlarni, elatiyalarni to‘yga xabar qildi. Shu to‘yga barcha xaloyiqlar yig‘ildi”.[4.14b.] Xuddi shunga o‘xshash na’munani “Kuntug‘mish” dostonida ham ko‘rishimiz mumkin. “Kuntug‘mish to‘ra qirq kun, qirq tun to‘y berib, to‘yi tamom bo‘ladigan kuni jamiy arkon davlatni yig‘ib Xolmo‘minni Zangarga podshoh qildi”.[5.263b.] To‘y marosimida aytiladigan “Yor-yor” ning ham ko‘plab versiyalariga duch kelamiz. Hikoya yozilgan vaqtlarda to‘y marosimlarini zo‘r qilib o‘tkazish urf bo‘lgan. Hikoyadagi ushbu nutqda ham milliy qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan to‘y marosimini an’analarga sodiq qolgan holda o‘tkazish o‘zbek xonadonida muhimligini ko‘rishimiz mumkin. “Bu hovlida yor-yor aytilmadi, gulxan yoqilmadi, hofizlar ovozi jaranglamadi. Kuyov kelinni ostonada kutib olib, ko‘tarib olmadi, yoshlarning qiyqiriqlari ostida go‘shangaga kirmadi...”.[2.18b]

Bizning sharq adabiyoti g‘arb adabiyotidan farq qiladi. Bizning qadriyatlarimizda qon-qarindoshlik, aka-ukalik, opa-singillik mavzulari yuqori o‘rinlarda turadi. Oilada tarbiya shunday singdiriladi. “Jigarlar ozgina xafalashib yurishib, keyin baribir yaqinlashib ketasizlar. Jigardan jigarni uzib bo‘lmaydi…” [3.15b.] Ushbu jumlalarda ham qon-qondoshlik bizning fitratimizga singib ketganligini anglashimiz mumkin. Hikoyada ham garchi Zokir kelinoyisi onasini xafa qilganiga yo‘l qo‘ygani uchun akasi bilan janjal qilsa ham bo‘lar edi. Lekin bunga onasi bergan tarbiya yo‘l qo‘ymadi. “U mushtipar onasi uchun, uning har bir tomchi ko‘z yoshi uchun daryo-daryo yurak qoni talab qilsa ham arzirdi. Lekin qarshisida – jigari, o‘sha mushtiparning arjumand farzandi ” [2.22b] Hikoyada keltirilgan ushbu jumla orqali aka-ukalik maqomining qay darajadaligini bilish mumkin.

Bizning yana bir go‘zal qadriyatlarimizdan biri bu - qo‘shnichilik. “Qo‘shnichilik – bir chinni idish kabi, darz ketsa, izi qoladi. Shu sababli yaxshi qo‘shnichilik munosabatini e’zozlagan ma’qul” [3.139b.] deganlaridek hikoyada qo‘shnichilik qadriyatiga ham alohida urg‘u berilgan. “Aybingiz

yo‘qligiga hammamiz ishongan edik, xayriyat, oqlashibdi" [2.30b.] Birgina jumla orqali bu qadriyatimiz ham juda yaxshi ifodalangan.

Olamdan o‘tgan insonlarning vasiyatlarini amalga oshirish ham bizning milliy qadriyatlarimizdan biridir. Vasiyatni amalga oshirish kerakligini biz bolalik paytimizdan ko‘plab ertaklarda o‘qiganmiz. Bunga misol qilib " Uch og‘a ini botirlar" ertagini aytishimiz mumkin. Aynan ushbu ertakda ham ota o‘g‘illariga 3 ta narsani vasiyat qiladi. "To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz". [6.17b.] Hikoya bosh obrazi bo‘lgan ona olamdan o‘tadi. "…onam go‘rida tinch yotsin desangiz, onagizdan qolgan qarindoshlar bilan uzilib ketmang…" [2.33] Ushbu nasihatlar bizga qadim zamonlardan beri meros bo‘lib kelmoqda. Zokir ham onasining so‘ngi istagini amalga oshirish uchun akasining oldiga boradi. Lekin akasi ayolining so‘zidan chiqmagan holatda ukasi bilan ko‘rishmaydi. Ukasi ham shu kecha og‘ir jarohatlanib olamdan o‘tadi. Yozuvchi ushbu asari orqali kitobxonga aka-uka o‘rtasiga begona inson kirib, ularning munosabatlariga aralashishining qanday oqibatlarga olib kelishini mohirlik bilan yetkazib bergan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkunki, bunday hikoyalar bizga hayotning asl mohiyatini, qadriyatlarimizni anglashda yordam beradi. Har bir nasriy asarda milliy qadriyatlarimizga alohida e'tibor beriladi. Milliy qadriyatlarimiz ulug‘lanadi. Yuqorida tahlil qilgan hikoyamizda ham qadriyatlarimiz o‘zgacha talqinda yetkazib beriladi. O‘quvchiga ilm bilan birga hunar o‘rganishi kerakligi, qarindoshchilik rishtalarini mustahkamlashi taeskari tasvir tarzida ifodlab berilganligi mohirona ifodalangan. Bu hikoyaning yana bir e'tiborli jihati, undagi Ona obrazi va uning o‘zbekona soddalik va mehr uyg‘unligidagi tasviridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov. D. Adabiyotshunoslik nazaryasi asoslari. Toshkent: Inovatsiya-ziyo, 2020. – 310b
2. Tohir. Malik. Voy, onajonim. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 232b
3. Tohir.Malik. Husni xulq. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa uyi, 2016. – 143b
4. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. Alpomish. Toshkent: Sharq nashriyot – matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. – 397b
5. O‘zbek xalq ijodi. Kuntug‘mish. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – 135b
6. Q. Yo‘ldoshev, S. Qambarova, D. To‘xliyeva, N. Yusufjonova, O. Olimjonov. Adabiyot 5-sinf I qism. Toshken: Novda Edutainment, 2024. – 97b

UDC 378.147:811.111

MODERN EDUCATIONAL METHODS APPLIED IN TEACHING ENGLISH AS A STRUCTURED SYSTEM FOR INDIVIDUALS PURSUING STUDIES OR CAREERS IN ECONOMICS

N.Kh.Mirqodirova, Foundation Doctoral Student, Tashkent State University of Economics, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada iqtisodiyot sohasida tahsil olayotgan yoki ushbu yo‘nalishda kariyera qilayotgan shaxslar uchun ingliz tilini tuzilgan tizim sifatida o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy ta'lim usullari bo‘yicha fikr va mulohazalar yoritiladi. Tobora ko‘proq o‘zaro bog‘lanib borayotgan dunyoda ingliz tilidan samarali foydalanish iqtisodiyot sohasi talabalari va mutaxassislari uchun muhim kompetensiyaga aylanmoqda. Moliyaviy faoliyat, savdo, akademik tadqiqotlar va siyosiy munozaralarning global tili sifatida ingliz tili nafaqat muloqot vositasi, balki iqtisodiy bilimlardan foydalanish, ularni talqin qilish va amaliyotga tatbiq etishda xizmat qiluvchi tuzilgan analitik tizim hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta'lim usullari, ingliz tilini o‘qitish, iqtisodiyot mutaxassislari, o‘qitish metodikasi, maxsus ingliz tili.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются мнения и размышления о современных образовательных методах, применяемых при обучении английскому языку как структурированной системе для лиц, занимающихся изучением экономики или строящих карьеру в этой сфере. В условиях всё более взаимосвязанного мира способность эффективно использовать английский язык становится ключевой компетенцией для студентов и специалистов в области экономики. Как глобальный язык финансов, торговли, академических*

исследований и политических дискуссий, английский язык функционирует не только как средство общения, но и как структурированная аналитическая система, через которую осуществляется доступ к экономическим знаниям, их интерпретация и применение.

Ключевые слова: *современные образовательные методы, обучение английскому языку, специалисты в области экономики, языковая подготовка, методика преподавания, специализированный английский.*

Abstract. *This article discusses opinions and reflections on modern educational methods used in teaching english as a structured system for individuals engaged in studying or pursuing a career in economics. In an increasingly interconnected world, the ability to use English effectively has become a core competency for students and professionals in economics. As the global language of finance, trade, academic research, and policy debate, english functions not merely as a means of communication but as a structured analytical system through which economic knowledge is accessed, interpreted, and applied.*

Key words: *modern educational methods, english language teaching, economics professionals, language instruction, teaching methodology, specialized english.*

Introduction: Modern educational methods in english-language instruction must accommodate the intellectual demands of economics while supporting the practical communication needs of learners preparing for international academic and professional environments. Contemporary approaches to english for economics emphasize an integrated model combining linguistic accuracy, domain-specific discourse, and real-world application. These methods move beyond traditional grammar-translation techniques and draw on innovations in applied linguistics, cognitive science, and digital learning technologies. They support learners in developing a skill set that includes not only general proficiency but also specialized competencies such as interpreting economic texts, presenting analytical arguments, and participating in professional discussions. One of the most influential methods in modern English education for economics is CLIL merges the teaching of subject matter with language acquisition, enabling learners to absorb economic concepts and English simultaneously. For example, students may study topics such as supply-and-demand dynamics, monetary policy, or market structures through English-language materials. The value of CLIL lies in its authenticity. Because learners grapple with real content, they acquire vocabulary, syntactic structures, and discourse patterns contextualized within economic analysis. This makes CLIL ideal for students preparing for university courses taught in English or for professionals who must handle English-language economic reports, policy briefs, and data summaries. Moreover, CLIL promotes higher-order thinking skills - evaluation, synthesis, and problem-solving which align with the analytical nature of economics. As a result, learners become not only more proficient in English but also more capable of expressing complex economic arguments with precision and clarity. Another common method is task-based language training. Task-based language training constructs classes around meaningful tasks instead of separated language points. In the context of economics, tasks may include preparing an executive summary of market analysis, preparing a presentation on economic indicators, or discussing the terms of a hypothetical investment proposal. Task-based language training reflects real professional practices and helps develop communicative competence in scenarios that students may encounter. The method encourages interaction, collaboration and problem solving, allowing students to apply english in dynamic settings. For economy-oriented education, also enhances domain-specific functional language, such as representing trends, making forecasts, comparing datasets, or basing economic decisions. Through repeated task cycles, students master the linguistic and cognitive routines necessary in economic communication. Corpus linguistics has significantly influenced modern language teaching, especially in specialized domains like economics. Corpus-based instruction uses large datasets of real english academic articles, financial news, business reports, policy documents to demonstrate how language functions in authentic economic contexts. Teachers can design activities where learners analyze patterns in vocabulary, collocations, sentence structures, and discourse markers typical of economics. For example, corpora may reveal high-frequency phrases such as *"market volatility increased due to", "the data suggest a correlation*

between", or *"policy intervention aims to stabilize"*. By studying language patterns derived from real usage, learners gain:

- a reliable understanding of professional register;
- improved accuracy in academic writing;
- familiarity with conventional economic phrasing;
- the ability to distinguish between general English and specialized terminology.

Corpus methods equip learners with the linguistic intuition needed to produce polished essays, reports, and presentations aligned with global economic communication standards. Project-based learning situates english acquisition within long-term, multidisciplinary projects that demand sustained inquiry and language use. Project-based learn is especially valuable in economics, where projects can simulate genuine economic research and decision-making. Typical projects might include:

- conducting a country risk analysis;
- designing a business expansion plan;
- evaluating a fiscal policy proposal;
- examining the economic impacts of an emerging technology.

Project based learning integrates reading, writing, speaking, and listening tasks, while also requiring learners to conduct research, gather data, prepare written documents, and present findings orally. Because the projects rely heavily on english as the working language, learners develop a holistic command of the language as an analytical and communicative tool. Additionally, project-based learning nurtures transferable skills such as teamwork, critical thinking, and strategic planning central competencies for future economists. Digital tools have dramatically reshaped how english is taught and learned in economics-focused programs. Technology-enhanced language learning incorporates apps, online platforms, learning management systems, immersive learning environments. Some examples include:

- simulation software for virtual trading or policy modeling, requiring learners to describe data and outcomes in english;
- interactive dashboards that teach vocabulary and grammar through real economic datasets;
- virtual debate platforms where learners engage in policy discussions;
- automated speech recognition tools that help refine pronunciation of technical terminology.

These technologies promote autonomous learning, enabling students to practice english outside the classroom while strengthening their understanding of economic content. Given the practical needs of economics students and professionals, many institutions offer specialized workshops in academic writing, presentation skills, and professional communication**.** These workshops often focus on genres central to economics, such as:

- policy briefs;
- research papers;
- business reports;
- economic forecasts;
- conference-style presentations.

Workshops emphasize genre structures, argumentation techniques, and the conventions of evidence-based economic writing. They also train learners to interpret charts, graphs, and statistical outputs skills vital for conveying economic ideas accurately in english. Fluency in communication has also been reported to play an important role in the student's perception of the teacher. Teachers who speak english as their native language and have good oratory skills are usually rated as good teachers, teachers with english as a second language, on the other hand, are judged as good teachers not by the overall effectiveness of their teaching, but only by their rigor. Teachers with english as a second language in introductory economics received a student rating that was on average lower than other teachers. This rating does not depend on the quality of training.eachers with english as a second language, on the other hand, are judged as good teachers not by the overall effectiveness of their teach.

Conclusion. Modern educational methods for teaching English to individuals engaged in economics reflect a shift toward integrated, authentic, and technology-driven learning. Approaches such as, corpus-based instruction, project-based learning, and digital-enhanced environments recognize that english functions as both a communication medium and a structured analytical system within economic study and practice. By situating language learning within real-world tasks, professional discourse, and interdisciplinary inquiry, these methods prepare learners not only for academic success but also for active participation in global economic conversations. For students and professionals alike, mastering english through these modern approaches provides access to international scholarship, career mobility, and the ability to contribute meaningfully to the economic challenges and innovations shaping today's world.

REFERENCES:

1. H.Nabiyev, M.Ahmedova. Economic statistics. Textbook. - T.: N 47" innovative development publishing-printing house", 2021 – 310.

2. Kabylov Shabbylov Sh. R. Theory of economics:textbook -T.:Uz Academy of the Republic of HIV,11 p.

3. Ismailova Zukhra Koraboyevna, Makhsudov Polatjon Makhsudovich, Ergashev Oybek Karimovich, Matkarimov Kamoliddin Zhuraboyevich "Methodology for teaching special Sciences" (tutorial) Tashkent-2018. 116 p.

4. Abdullaevna, N. S. Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), (2020). 186-192.

5. Pirnazarova, N. X. (2024). *Language Learner Profiles and Krashen's Hypotheses.* Ta'limning Zamonaviy Transformatsiyasi, 10(1), 16-19. https://pedagoglar.org/03/article/view/4470

6. Pirnazarova, N. X. (2025). The power of gamification: transforming education into an engaging experience. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, *4*(8), 444-445. https://doi.org/10.55640/

UO'K 37.02

TALABALARDA JISMONIY FAOLLIK VA AKADEMIK MUVAFFAQIYAT O'RTASIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK BOG'LIQLIK

X.R.Mirzabayev, katta o'qituvchi, Namangan Davlat Texnika Universiteti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarda jismoniy faollik va akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik bog'liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqotda jismoniy faoliyatning stressni kamaytirish, motivatsiyani oshirish, konsentratsiya va ijtimoiy integratsiya kabi omillar orqali akademik natijalarga ta'siri o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, muntazam jismoniy faollik talabalarda akademik muvaffaqiyatni oshirish va ijtimoiy-psixologik barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *jismoniy faollik, akademik muvaffaqiyat, talaba, ijtimoiy-psixologik bog'liqlik, motivatsiya, stress, konsentratsiya.*

Аннотация. *В статье анализируется социально-психологическая взаимосвязь между физической активностью студентов и их академической успеваемостью. Исследуется влияние физической активности на снижение стресса, повышение мотивации, концентрацию и социальную интеграцию студентов. Результаты показывают, что регулярная физическая активность способствует улучшению академических показателей и укреплению социально-психологической устойчивости студентов.*

Ключевые слова: *физическая активность, академическая успеваемость, студент, социально-психологическая взаимосвязь, мотивация, стресс, концентрация.*

Abstract. *This article examines the socio-psychological relationship between students' physical activity and their academic performance. The study explores how physical activity affects stress reduction, motivation, concentration, and social integration, influencing academic outcomes. The results indicate that regular physical activity helps improve students' academic performance and strengthen socio-psychological resilience.*

Keywords: *physical activity, academic performance, student, socio-psychological relationship, motivation, stress, concentration.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida talabalarni nafaqat akademik bilim bilan, balki ijtimoiy-psixologik barqarorlik va sog'lom turmush tarziga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega.

Talabalar orasida jismoniy faollik ularning sog‘lig‘i, stressga chidamliligi, motivatsiyasi va umumiy akademik natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, jismoniy faoliyat va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish oliy ta’lim jarayonida samarali pedagogik strategiyalar ishlab chiqish uchun muhimdir.

Jismoniy faollik talabalarda konsentratsiya, xotira, muammoni hal qilish qobiliyati va guruh bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, muntazam sport mashg‘ulotlari stressni kamaytiradi, ruhiy holatni yaxshilaydi va talabalarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Natijada, talabalar akademik jarayonda yanada samarali ishlashga va o‘z maqsadlariga erishishga qodir bo‘ladilar.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – talabalarda jismoniy faollik darajasi va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik bog‘liqlikni aniqlash va uning pedagogik ahamiyatini tadqiq qilishdir. Tadqiqot davomida talabalar orasida jismoniy mashg‘ulotlar orqali motivatsiya, konsentratsiya, stressga chidamlilik va ijtimoiy integratsiya kabi omillarning akademik natijalarga ta’siri o‘rganiladi. Shu bilan birga, maqola oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy faolligini oshirish va ularning akademik muvaffaqiyatini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Asosiy qism. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy faolligi ularning akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullangan talabalar konsentratsiya, xotira va muammoni hal qilish qobiliyatlarida sezilarli darajada yaxshilanishni ko‘rsatadilar. Shu bilan birga, jismoniy faollik stressni kamaytiradi va ruhiy barqarorlikni oshiradi, bu esa talabalarning akademik jarayonda yanada samarali ishlashini ta’minlaydi.

Jismoniy faollikning talabalarga ijtimoiy-psixologik ta’siri keng qamrovli bo‘lib, ularning ijtimoiy integratsiyasi va guruh ichidagi faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, sport mashg‘ulotlari va jamoaviy o‘yinlar talabalarda hamkorlik, kommunikatsiya va tashabbus ko‘rsatish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar talabalarga akademik va ijtimoiy muhitda o‘zini samarali tutishga imkon yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy faoliyat motivatsiyani oshirishga ham xizmat qiladi. Muntazam mashg‘ulotlar talabalarda o‘z maqsadlariga erishish, vaqtni boshqarish va topshiriqlarni samarali bajarish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish va mas’uliyatni his qilish qobiliyatini mustahkamlaydi, bu esa akademik natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari talabalar o‘rtasida ijtimoiy kooperatsiyani rivojlantiradi. Guruhli mashg‘ulotlar va jamoaviy o‘yinlar talabalarni birgalikda ishlash, qaror qabul qilish va bir-birini rag‘batlantirishga o‘rgatadi. Bu esa nafaqat sport maydonida, balki akademik guruh loyihalari va boshqa ijtimoiy faoliyatlarda ham qo‘llaniladi. Talabalar o‘zaro hamkorlik va jamoaviy mas’uliyatni his qilish orqali liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradilar, bu ularning shaxsiy va akademik rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Stressni kamaytirish jihatidan, jismoniy faoliyat talabalarning ruhiy holatini barqarorlashtirishga yordam beradi. O‘quv yuklamasi va imtihon bosimi ostida bo‘lgan talabalar sport bilan shug‘ullanish orqali kayfiyatini yaxshilaydi, bezovtalikni kamaytiradi va o‘zini ijtimoiy jihatdan faol his qiladi. Bu esa akademik jarayonda diqqatni jamlash, topshiriqlarni to‘liq bajarish va samarali o‘qish imkonini oshiradi.

Shuningdek, jismoniy faollik talabalar orasida ijtimoiy kooperatsiyani rivojlantiradi. Guruh mashg‘ulotlari va sport musobaqalarida talabalar birgalikda harakat qilish, qaror qabul qilish va bir-birini rag‘batlantirish tajribasini oladilar. Natijada, talabalarda ijtimoiy-psixologik barqarorlik oshadi, yetakchilik va liderlik qobiliyatlari rivojlanadi, bu esa akademik va ijtimoiy faoliyatda qo‘llaniladi.

Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy faollik va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganish talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, stressni kamaytirish, motivatsiyani oshirish va ijtimoiy-psixologik rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, universitetlarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va ularni talabalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi bilan uyg‘unlashtirish pedagogik jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, universitet pedagogik jarayonida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va ularni talabalarning akademik faoliyati bilan uyg‘unlashtirish oliy ta’lim

maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar muntazam jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullangan taqdirda nafaqat sog‘lom, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan barqaror va akademik muvaffaqiyatga intiluvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Shu bilan birga, jismoniy faollik talabalarda o‘z-o‘zini baholash va shaxsiy rivojlanish hissini oshiradi. Sport mashg‘ulotlaridagi muvaffaqiyatlar talabalarga o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi, bu esa ularni akademik va ijtimoiy faoliyatga yanada faol jalb qiladi. Shu tarzda, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari talabalarda ijtimoiy-psixologik barqarorlik, motivatsiya va yetakchilik ko‘nikmalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantiradigan muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasalarida talabalarda jismoniy faollik va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik bog‘liqlikni chuqur o‘rganish talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, stressni kamaytirish, motivatsiyani oshirish va akademik natijalarni yaxshilash bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu sababli, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini pedagogik jarayon bilan uyg‘unlashtirish va talabalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga doimiy e’tibor qaratish oliy ta’limning samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarda jismoniy faollik va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy mashg‘ulotlar talabalar konsentratsiyasi, motivatsiyasi, stressga chidamliligi va muammoni hal qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, sport va jamoaviy mashg‘ulotlar talabalarda ijtimoiy integratsiya, hamkorlik va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, bu esa akademik jarayonda samarali ishlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari nafaqat talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, balki ularni ijtimoiy-psixologik jihatdan barqaror va faol shaxs sifatida rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, universitetlarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va ularni akademik faoliyat bilan uyg‘unlashtirish talabalarning umumiy rivojlanishi va muvaffaqiyatini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Bailey, R. *Physical Education and Academic Performance in Higher Education*. – London: Routledge, 2019.

2. Chen, S., & Wang, Y. *The Impact of Physical Activity on Students’ Cognitive and Academic Outcomes*. – New York: Springer, 2020.

3. Karimov, B. *Talabalarda jismoniy faollik va ijtimoiy-psixologik rivojlanish: ilmiy tadqiqotlar*. – Toshkent: Universitet nashri, 2020.

4. Баев, А. *Физическая активность и учебная успеваемость студентов*. – Москва: Просвещение, 2018.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. *Universitetlarda jismoniy tarbiya darslari bo‘yicha metodik qo‘llanma*, Toshkent, 2021.

6. Иванова, Т. *Влияние физической культуры на социальную и академическую активность студентов*. – Санкт-Петербург: Питер, 2019.

UO’K 37.02

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIGA MONTESSORI METODIKASINI O'RGATISHNING AHAMIYATI

Sh.I.Muratova, katta o’qituvchi, katta o‘qituvchi, Osiyo texnologiyalari universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy ishda maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun Mariya Montessori metodikasini o‘rgatishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Montessori metodikasi — bu bolaning tabiiy rivojlanishiga hurmat asosida qurilgan, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik tizim bo‘lib, uni maktabgacha ta’limga tayyorlayotgan talabalar chuqur o‘zlashtirishi zarurdir.*

Kalit so’zlar: *muhit, kosmik zona, til zonasi, matematik zona, haqiqiy hayot maydoni, sensor rivojlanish zonasi. Montessori metodikasi, bola markazli ta’lim, rivojlantiruvchi muhit, bolaning tabiiy rivojlanishi, pedagogik innovatsi, Montessori nazariyasini o‘zlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim”*

Аннотация*. В данной научной работе раскрываются теоретические и практические аспекты изучения методики Марии Монтессори студентами, обучающимися по направлению дошкольного образования. Методика Монтессори представляет собой личностно-*

ориентированную педагогическую систему, основанную на уважении к естественному развитию ребенка, освоение которой является необходимым условием профессиональной подготовки будущих специалистов дошкольного образования.

***Ключевые слова**: развивающая среда, космическая зона, языковая зона, математическая зона, зона практической жизни, зона сенсорного развития, методика Монтессори, личностно-ориентированное обучение, ребенокоцентрированное образование, естественное развитие ребенка, педагогические инновации, освоение теории Монтессори.*

***Abstract**. This scientific study highlights the theoretical and practical significance of teaching the Maria Montessori methodology to students majoring in preschool education. The Montessori method is a child-centered and learner-oriented pedagogical system based on respect for a child's natural development. Mastering this methodology is an essential component in the professional training of future preschool education specialists.*

***Keywords**: learning environment, cosmic area, language area, mathematical area, practical life area, sensory development area, Montessori methodology, child-centered education, learner-oriented approach, natural child development, pedagogical innovation, mastery of Montessori theory.*

Montessori metodikasi — bu bolaning erkinlikda o‘zini namoyon etishiga yo‘l ochadigan, ularni mustaqil fikrlashga, tartibli faoliyat yuritishga undaydigan pedagogik tizimdir. Mariya Montessori bu tizimni ishlab chiqishda bolalarning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga tayanadi. Uning fikricha, har bir bola o‘zining individual rivojlanish ritmiga ega bo‘lib, unga sun’iy to‘siqlar qo‘yilmasligi kerak. Montessori muhitida bolalar o‘zlariga mos o‘yinchoq yoki vositalarni tanlaydi, ularni qanday ishlatishni o‘zlari hal qiladi va natijada o‘z harakatlarini boshqarish, diqqatni jamlash, yakuniy natijaga intilish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Montessori muhitida bolalar o‘zlariga mos o‘yinchoq yoki vositalarni tanlaydi, ularni qanday ishlatishni o‘zlari hal qiladi va natijada o‘z harakatlarini boshqarish, diqqatni jamlash, yakuniy natijaga intilish kabi ko‘nikmalarni egallaydi.

Bolalarni ko‘pincha ikki toifaga — iqtidorli va iqtidorsizga bo‘lishadi. Ayrimlar buni qoida deb ham biladi. Biroq Montessori xonim har qaysi bolada qandaydir iste’dod, iqtidor va o‘rganishga ishtiyoq bo‘lishiga astoydil ishongan. “Bolalar biz kattalarga ajoyib saboq beradi — aqlimizni rivojlantirish va muayyan shaklga solish uchun qo‘llarimizni ishlatishimiz shart ekan”, deydi u.

Montessori xonim pedagogika eng avval his-tuyg‘uni rivojlantirishi zarur degan qoidaga suyangan. Ehtimol, ayni shu qarashi sabab ta’lim sistemasida inqilob yasay olgandir. U tuzgan darsliklarning bari o‘yin va harakatli mashg‘ulot orqali bola hissiyotini tashqariga chiqarishga moslashtirilgan. O‘qituvchilarga ham kitobni shunchaki zerikarli ohangda o‘qish, bilgan-ko‘rganini quruq gap, bayon bilan emas, o‘yin va taqdimotlar orqali ko‘rsatish, o‘rgatish talab etilgan. Oradan yetti yilcha o‘tgach, nihoyat butun dunyoga Montessori metodi sirlarini ochib berguvchi va boshqalarni ruhlantiruvchi dastlabki kitob yoziladi. Montessori metodining eng afzal taraflaridan biri — bolaning turli qoliplarga solinmasligidir. Sinf xonasi, maktabdagi emin-erkinlik bolajonni darslarda faol bo‘lishga ruhlantirgan, amaliy mashg‘ulotlarga bajonidil sho‘ng‘ishga undagan va eng muhimi, bola bevosita o‘zini o‘zi tarbiyalay olgan. Kimgadir tartibsiz va nazoratsiz tuyulgan maktabu uslub vaqti kelib mevasini beradi. Maktabdagi darslar har kuni 9:00 da boshlanib, 16:00 gacha davom etgan.

Mariya Montessorining usuli bolalarning yaratuvchanlik va kashfiyot jarayonlarini engillashtirishga yordam beradigan kalitlardan iborat. Ushbu kalitlar ularga tabiiy ravishda rivojlanishiga yordam beradi va avtonomiyalarini rag'batlantiradi. Bu, ayniqsa, 3 yoshgacha juda muhimdir, chunki bu komponentlar yanada muhim rol o'ynaydi.

Montessori usuli bolalar kimligi haqida o'ylash usuli sifatida tasvirlangan. Falsafa sifatida u har bir bolaning o'ziga xos individualligini ta'kidlaydi. Montessori bolalarning qadr-qimmati va ahamiyatiga ishondi. Montessori amaliyotida an'anaviy ta'lim tizimlarida qo'llaniladigan me'yorlar va standartlar bilan taqqoslash tavsiya etilmaydi. Buning o'rniga, Montessori tarafdorlari bolalar hech qanday cheklovlarsiz yoki tanqidsiz muvaffaqiyat qozonishi va o'rganishi kerak deb hisoblaydilar.

Montessori xulq-atvor uchun mukofotlar va jazolar bolalar va odamlarning ichki munosabatiga putur yetkazadi, deb hisoblardi.

Ta'lim usuli sifatida Montessori metodining asosiy maqsadi har bir bolaning ehtiyojlari, iste'dodlari va o'ziga xos individualligiga qaratiladi. Montessori amaliyotchilarining fikricha, bolalar o'z xohishlariga ko'ra bajargan ishlarini yaxshi o'rganadilar. Montessori usuli ta'kidlagan qo'shimcha muhim ko'nikmalar-bu mustaqillikdir.

Rivojlanish muhiti - Montessori tizimining eng muhim elementi. Busiz u tizim sifatida ishlay olmaydi. Tayyorlangan muhit bolaga kattalar nazoratisiz bosqichmabosqich rivojlanish va mustaqil bo'lish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Montessori M. *Il bambino in famiglia* (Bola oilada) — Rim, 1936.
2. Montessori M. *Il metodo della pedagogia scientifica applicato all'educazione infantile nelle Case dei Bambini* — 1909.
3. Montessori M. *Absorbent Mind* — 1949 (inglizcha tarjimasi).
4. Juraev R. X., Nishonova S. R. Pedagogika**.** – T.: "Fan va texnologiya", 2020.
5. Mamarasulova S. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi**.** – T.: "Ilm Ziyo", 2021.
6. Xusanboeva M. A. Innovatsion pedagog texnologiyalar. – T.: "Yangi asr avlodi", 2019.
7. Tadjibaeva M. A. Didaktika**.** – T.: "Iqtisodiyot", 2018.
8. G'ofurova M. B. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2022
9. Karimova D. "Montessori metodining maktabgacha ta'limdagi o'rni" // *Pedagogik ta'lim* jurnali, 2023, №1.
10. Qodirova N. "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida Montessori metodining ahamiyati" // *O'zMU ilmiy axboroti*, 2022.
11. www.montessori.org – Xalqaro Montessori uyushmasi rasmiy sayti
12. www.montessoriguide.org – Montessori o'qituvchilar uchun qo'llanma

UO'K 37.01:378.147:81(586.5)

CHET TIL PEDAGOGLARINING GRANT LOYIHALARI BILAN ISHLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

A.Ya.Nurmuratov, dots., Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada chet til pedagoglarining grant loyihalari bilan ishlash malakasini (grant kompetensiyasini) nazariy jihatdan tahlil qilish va amaliy jihatlari bo'yicha kengaytirilgan tavsiyalar berish maqsad qilingan. Maqolada kompetensiya kontseptsiyasining kasbiy ta'lim kontekstidagi o'rni, bilim, ko'nikma, motivatsion va shaxsiy komponentlarning mohiyati, grant tsikli bo'yicha talab qilinadigan amaliy malakalar va monitoring-tahlil mexanizmlari batafsil ochib berilgan. Shuningdek, xalqaro amaliyot (Erasmus+, Fulbright, DAAD va boshq.) misollarida grantlar pedagogik faoliyatni qanday boyitishi muhokama qilinib, O'zbekiston sharoitidagi aniqlangan muammolar (ma'lumot yetishmasligi, yozma akademik ko'nikmalarning sustligi, moliyaviy savodxonlik va mentorlik tizimi yo'qligi) tahlil qilingan va ularni bartaraf etish bo'yicha strategik va amaliy chora-tadbirlar taklif etilgan. Tadqiqot natijalari grant kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirish orqali chet til pedagoglarining kasbiy salohiyatini kuchaytirish, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro hamkorlik maydonida samarali ishtirok etish mumkinligini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *grant kompetensiyasi, chet til pedagogi, loyiha yozish, byudjet rejalashtirish, monitoring va baholash, akademik yozuv, xalqaro hamkorlik.*

Аннотация. *Целью данной статьи является теоретический анализ компетентности преподавателей иностранных языков в работе с грантовыми проектами (грантовой компетентности) и предоставление расширенных рекомендаций по ее практическим аспектам. В статье подробно рассматривается роль понятия компетентности в контексте профессионального образования, сущность знаний, навыков, мотивационного и личностного компонентов, практические навыки, необходимые для грантового цикла, а также механизмы мониторинга и анализа. Также рассматривается, как гранты обогащают педагогическую деятельность на примерах международной практики (Erasmus+, Fulbright, DAAD и др.), анализируются выявленные проблемы в условиях Узбекистана (дефицит информации, низкий уровень письменных академических навыков, отсутствие финансовой грамотности и системы наставничества) и предлагаются стратегические и практические меры по их*

устранению. Результаты исследования подтверждают, что посредством системного развития грантовой компетентности можно укрепить профессиональный потенциал преподавателей иностранных языков, повысить качество образования и эффективно участвовать в сфере международного сотрудничества.

Ключевые слова: *грантовая компетентность, преподаватель иностранного языка, проектное написание, бюджетное планирование, мониторинг и оценка, академическое письмо, международное сотрудничество.*

Abstract. *This article aims to theoretically analyze the competence of foreign language teachers to work with grant projects (grant competence) and provide expanded recommendations on its practical aspects. The article describes in detail the role of the concept of competence in the context of professional education, the essence of knowledge, skills, motivational and personal components, practical skills required for the grant cycle, and monitoring and analysis mechanisms. It also discusses how grants enrich pedagogical activities using examples of international practice (Erasmus+, Fulbright, DAAD, etc.), analyzes the identified problems in the conditions of Uzbekistan (lack of information, poor written academic skills, lack of financial literacy and mentoring system), and proposes strategic and practical measures to eliminate them. The results of the study confirm that through the systematic development of grant competence, it is possible to strengthen the professional potential of foreign language teachers, improve the quality of education, and effectively participate in the field of international cooperation.*

Keywords: *grant competence, foreign language teacher, project writing, budget planning, monitoring and evaluation, academic writing, international cooperation.*

Kirish. Globalizatsiya, digital transformatsiya va ta'lim sohasidagi xalqaro integratsiya jarayonlari chet til pedagoglaridan an'anaviy o‘qituvchilik vazifalaridan tashqari yangi kasbiy vazifalarni — grantlar va loyihalar bilan ishlash, xalqaro ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va innovatsion metodlarni tatbiq etish kabi ko‘nikmalarni talab qilmoqda. Grantlar nafaqat moliyaviy resurs manbai, balki ta'lim jarayonini modernizatsiyalash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ta'lim faoliyatida xalqaro tajriba almashishni rag‘batlantiruvchi strategik instrumentdir. Shu nuqtai nazardan, chet til pedagoglarining grant loyihalari bilan ishlash malakasini tizimli ravishda shakllantirish va baholash ta'lim siyosati va kadrlar tayyorlash dasturlari darajasida ustuvor yo‘nalishga aylanishi lozim. Maqola ushbu ehtiyojni nazariy asoslar va amaliy takliflar orqali qondirishga yo‘naltirilgan.

Nazariy asoslar va grant kompetensiyasining komponentlari

Kompetensiya yondashuvi kasbiy ta'lim va kadrlar malakasini baholashda keng qo‘llaniladi: u shaxsning muayyan faoliyat turini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, munosabat va shaxsiy xususiyatlar majmuasini anglatuvchi integrativ tushunchadir. Grant kompetensiyasi mazmunan shu yondashuv doirasida tushunilishi lozim — ya'ni chet til pedagogi uchun bu granulalangan, o‘lchanadigan va rivojlantiriladigan kasbiy xususiyatlar to‘plamidir. Mazkur kompetensiya to‘rt asosiy komponentdan iboratligi tavsiya etiladi va har biri o‘z-o‘zidan keng nazariy va amaliy yo‘nalishni ifodalaydi.

Birinchi — bilim komponenti: pedagog xalqaro va milliy grant dasturlari (ularning taqdim etish mexanizmi, asosiy shartlari, baholash mezonlari), loyihalash tamoyillari, loyiha boshqaruvi asoslari hamda ilmiy-etik normalar bo‘yicha yetarli nazariy bilimga ega bo‘lishi lozim. Bu bilimlar grant g‘oyasini tanlashdan tortib, ariza vaqtida donor talablariga mos hujjat tayyorlashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda asos bo‘ladi.

Ikkinchi — ko‘nikma komponenti: loyiha yozish texnologiyasi (muammo va kontekst tahlili, maqsadlar va natijalarni formulalash, faoliyat rejasini tuzish), metodologik asoslash qobiliyati, monitoring va baholash rejasini ishlab chiqish, aniq va ishonchli byudjet tuzish va hisob-kitoblarni keltirish, yakuniy hisobotlarni akademik va moliyaviy jihatdan to‘g‘ri shakllantirish kabi amaliy salohiyatni o‘z ichiga oladi. Bu komponent ayni paytda kommunikativ ko‘nikmalar — taqdimot, muhokama va himoya ko‘nikmalarini ham qamrab oladi.

Uchinchi — motivatsion komponent: pedagogning grantlarda ishtirok etishga ichki motivatsiyasi — kasbiy rivojlanish istagi, ilmiy tadqiqotlarni olib borish, xalqaro maydonda o‘z o‘rnini topish va ta’lim jarayonini yaxshilashga qiziqish kabi omillar grant faoliyatining doimiyligini ta’minlaydi. Motivatsiya bo‘lmasa, nazariy bilim va texnik ko‘nikmalar ham samarali qo‘llanilmay qolishi mumkin.

To‘rtinchi — shaxsiy sifatlar va kommunikativ jihatlar: ijodkorlik, tashabbuskorlik, mas’uliyat, muammolarni hal etish qobiliyati, jamoada ishlash va intermadaniy muloqot salohiyati grant loyihalarida muvaffaqiyatning asosiy prediktorlari hisoblanadi. Grantlar ko‘pincha jamoaviy ish bo‘lgani uchun liderlik va hamkorlik shaxsiy xususiyatlari ham kompetensiyaning ajralmas elementi bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlar grant kompetensiyasini pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tezlashtiruvchi va xalqaro hamkorlikni mustahkamlovchi vosita sifatida baholaydi (Phillipson, 2009; Little, 2018).

Grant loyihalari bilan ishlashning amaliy jihatlari: bosqichlar, texnikalar va talablar

Grant tsiklini samarali boshqarish pedagogdan tizimli va metodik yondashuvni talab qiladi. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish bosqichi — muammoni ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilish, maqsad va asosiy natijalarni aniqlash, maqsadli guruh va kutilayotgan ta’sirni belgilashni o‘z ichiga oladi; bu bosqichda kontekst tahlili va adabiyotlar sharhi mustahkam nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish bosqichida esa loyiha tavsifi, ish rejasi, metodologik yondashuv, monitoring va baholash tizimi (indikatorlar, o‘lchash vositalari), risklar tahlili va barqarorlik strategiyasi hamda yo‘naltirilgan natijalarning ilgarilanishi uchun zarur bo‘lgan qadamlar aniq ko‘rsatilishi kerak. Moliyaviy rejalashtirish — ro‘yobga chiqarish nuqtai nazaridan asosiy va ko‘pincha eng murakkab elementlardan biri bo‘lib, pedagog byudjetni realistik, donor talablariga mos va loyiha maqsadlariga yo‘naltirilgan tarzda tuya olishi lozim.

Ariza topshirish va himoya qilish jarayoni esa nafaqat hujjatlar sifatini, balki prezentatsion va himoya ko‘nikmalarini ham talab qiladi: bu yerda loyiha ustasi o‘z g‘oyasini aniq, ishonchli va argumentlangan tarzda taqdim eta olishi, komissiya savollariga asosli javob bera olishi kerak. Loyihaning amalga oshirilishi bosqichida monitoring, oraliq va yakuniy hisobotlar, audit talablariga rioya qilish va natijalarni tarqatish (disseminatsiya) muhimdir; bu jarayonlar loyiha samaradorligini va donor ishonchini ta’minlaydi. Barcha bosqichlarda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ilmiy ma’lumotlar bazalari, xalqaro platformalar bilan ishlash qobiliyati katta ustunlik beradi.

Maxsus e’tibor — akademik ingliz tili va ilmiy yozuv madaniyatiga qaratilishi lozim. Xalqaro grantlarning aksariyati ingliz tilida ariza topshirilishini talab qiladi; bu esa pedagoglardan nafaqat so‘z boyligi, balki ilmiy mantiq, maqola va grant matnini strukturaviy yozish, ilovalar va bibliografiyani to‘g‘ri shakllantirish kabi yuqori darajadagi yozma ko‘nikmalarni talab etadi.

Xalqaro tajriba: grantlarning pedagogik taraqqiyotga ta’siri

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, targ‘ibot va grant dasturlari orqali pedagoglarning professional o‘sishi ancha tezlashadi. Erasmus+ dasturi Evropa universitetlari va maktablari orasida hamkorlik va o‘qituvchilar almashinuvini rag‘batlantirib, metodik inovatsiyalarni tarqatish uchun kuchli platforma yaratdi; Fulbright dasturi esa ko‘pchilik mamlakatlarda o‘qituvchilarning chet el tajribasini oshirish va ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishda asosiy vosita bo‘ldi; DAAD kabi tashkilotlar esa ilmiy izlanish va doktorantura hamda hamkorlik proyektlarini moliyalashtirish orqali yuqori malakali pedagoglar tayyorlashga hissa qo‘shmoqda. Bu tajribalar grantlar yordamida olingan bilim va texnikalar dars jarayoniga bevosita tatbiq etilishi, o‘quv-uslubiy materiallarning yangilanishi va o‘qituvchi hamjamiyatining xalqaro darajada rivojlanishiga olib kelishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston amaliyoti: muammolar va taklif etilayotgan yechimlar

O‘zbekistonda grant faoliyati so‘nggi yillarda kengayib bordi va “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” kabi hujjatlar grantlar orqali xalqaro integratsiyani rag‘batlantirishni maqsad qilmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda bir necha tizimli muammolar uchraydi: pedagoglar orasida grantlar haqidagi ma’lumotlar tizimli ravishda tarqatilmaydi, loyiha yozish bo‘yicha amaliy treninglar etarli emas, akademik ingliz tilida yozma ko‘nikmalar past va moliyaviy boshqaruv bo‘yicha tajriba yetishmaydi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi

kompleks chora-tadbirlar tavsiya etiladi: pedagogik oliy ta'lim yo'nalishlariga va malaka oshirish kurslariga "grant yozish va loyiha boshqaruvi" modullarini joriy etish; oliy ta'lim muassasalari va hududiy metodika markazlarida muntazam treninglar va amaliy laboratoriyalar tashkil etish; grant tajribasiga ega o'qituvchilarni mentor sifatida jalb qilish va amaliy case-study lar asosida ko'nikma shakllantirish; milliy darajada grant imkoniyatlari va muvaffaqiyatli proyektlar bazasini yaratish hamda pedagoglarni moliyaviy savodxonlik bo'yicha short-course lar bilan ta'minlash. Bundan tashqari, universitetlar darajasida kichik "seed" grantlar ajratish orqali pedagoglarga amaliy tajriba to'plash imkoniyatini berish va muvaffaqiyatli loyihalarni keng ommalashtirish tavsiya etiladi.

Tavsiyalar: o'quv-modul va baholash mexanizmi (qisqacha kontur)

Grant kompetensiyasini rivojlantirish uchun tavsiya etiladigan o'quv-modul quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'lishi kerak: 1) Grant tizimlari va donorlar: nazariy kirish; 2) Loyiha dizayni va logframe/SMART maqsadlar; 3) Budjet va moliyaviy boshqaruv; 4) Monitoring va baholash (indikatorlar va o'lchov vositalari); 5) Akademik yozuv va ariza tayyorlash (ingliz tilida); 6) Taqdimot va himoya; 7) Diskseminatsiya va barqarorlik strategiyalari. Har bir modul uchun o'quv natijalari aniq belgilanishi, amaliy mashg'ulotlar (workshop, case-study), mentorlik va yakuniy loyiha (mini-ariza) bo'yicha baholash o'tkazilishi lozim. Baholash mezonlari sifatida: ariza sifati (rubrika asosida), byudjet to'g'riligi, himoya ko'nikmalari va qatnashuvchilar o'zini o'zi baholash natijalari qo'llaniladi.

Xulosa. Grant kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirish chet til pedagoglarining kasbiy salohiyatini keskin oshirish, ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tez joriy etish va xalqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Nazariy va amaliy komponentlarni birgalikda rivojlantirish, akademik yozuv va moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish, shuningdek mentorlik va amaliy treninglarni yo'lga qo'yish orqali O'zbekiston sharoitida chet til pedagoglarining grant loyihalarida muvaffaqiyat qozonish darajasi oshirilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining barqaror yaxshilanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Little, D. (2018). Language Teacher Development through International Grants. Cambridge: Cambridge University Press.

2. Phillipson, R. (2009). Linguistic Imperialism Continued. New York: Routledge.

3. Xasanboev, J. (2021). Ta'lim grantlari va ilmiy loyihalarda ishtirok etishning metodik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (PF–5847). Toshkent, 2019.

5. European Commission. (2022). Erasmus+ Programme Guide. Brussels.

6. Fulbright Program. (2021). Annual Report. Washington D.C.

7. DAAD. (2020). Scholarship Database and Guidelines. Bonn.

UO'K 37.014.5:159.95.015

O'QUVCHILAR LUG'AT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISHNING FIZIOLOGIK ASOSLARI

O.B.Qayumova, o'qituvchi, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'quvchilarning lug'at boyligini o'zlashtirish jarayoni faqat lingvistik yoki pedagogik hodisa emas, balki fiziologik jihatdan ham murakkab hodisa ekanligini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Faol muloqot va tizimli takrorlash kabi metodik yondashuvlar miyaning til tizimini yuqori darajada optimallashtirib, lug'atni faol xotiraga o'tkazishda neyrofiziologik jihatdan samarali hioblanadi.*

Kalit so'zlar: *Verneke markazi, Broka markazi, maktab davri, faol muloqot, sintaktik birliklar, tayyorlov davri, lingvistik muammo, nutq markazi*

Аннотация. *Данная статья посвящена научному обоснованию того, что процесс усвоения словарного запаса учащимися является не только лингвистическим или педагогическим, но и физиологически сложным явлением. В работе утверждается, что такие методические подходы, как активное общение и систематическое повторение,*

нейрофизиологически эффективны для оптимизации языковой системы мозга и переноса лексики в активную (продуктивную) память.

Ключевые слова: *Центр Вернике, Центр Брока, школьный период, активное общение, синтаксические единицы, подготовительный период, лингвистическая проблема, речевой центр*

Abstract. *This article aims to scientifically substantiate that the process of students' vocabulary acquisition is not merely a linguistic or pedagogical phenomenon, but also a physiologically complex one. Methodological approaches such as active communication and systematic repetition are considered neurophysiologically effective in optimizing the brain's language system and transferring vocabulary to active memory.*

Keywords: *Wernicke's Area, Broca's Area, school period, active communication, preparatory period, syntactic units, language barrier, language center*

Kirish. Lug‘at boyligini o‘zlashtirish va ifodalash jarayonlari bosh miyaning maxsus til sohalari orqali amalga oshiriladi. Miyadagi Verneke markazi tilni qayta ishlashning asosiy reseptiv markazi hisoblanadi. Bu markaz yordamida odam so‘zlash vaqtida tovushning past balandligini tartibga solib turadi [1:76]. Tilni tushunish va so‘zning ma’nosi bilan tegishli kognitiv tushunchalarni bog‘lashga xizmat qiladi. Shuningdek, eshitilgan yoki o‘qilgan so‘zning semantik tahlilini amalga oshiradi. Lug‘at boyligining sifatini va so‘zning barcha ma’nolarini tushunilishini ta’minlaydi. Broka markazi chap yarim sharning pastki peshona pushtasida joylashgan bo‘lib, nutqning strukturaviy jihatlarini boshqaradi. So‘zni passiv lug‘atdan faol lug‘atga o‘tkazishga yordam beradi va uni gap tuzilishiga to‘g‘ri kiritishni boshqaradi. Angular Gyrus ya’ni Burchak Pushtasi miyaning pastki tepa va chakka qismlari chegarasida joylashgan bo‘lib, axborotlarni integratsiyalashga xizmat qiladi. [2:23]. Ko‘rish, eshitish va tushuncha kabi turli sezgi ma’lumotlarini bog‘laydi hamda yaxlit leksik birlik hosil bo‘lishini ta’minlaydi. Arcuate Fasciculus sensor nutq markazi bo‘lib Broka va Vernekeni bog‘lab turadi [2:47]. U lug‘atni tez eslash va tushunchani nutqqa kiritish tezligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bolaning so‘z boyligi go‘dakligidan kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqining to‘g‘ri shakllanishi atrofdagilarning nutqiga, nutqiy tajribaga, to‘g‘ri nutq muhiti hamda ta’lim-tarbiyaga bog‘liq hisoblanadi. Tadqiqotchilar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha ko‘rsatadilar, ularni har xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar. Xususan, G.L. Rozengrad boladagi nutq rivojlanish davrini ikkiga ajratadi:

1) tayyorlov davri ya’ni 2 yoshgacha;

2) nutqning mustaqil shakllanish davri;

Maktabgacha bo‘lgan davrda bolalar dastlab oson talaffuz qilinadigan tovushlarni o‘rganib, shundan keyin ulardan avval oson so‘zlarni yaratishni boshlashadi. A. N. Leontev esa bola nutqining shakllanishini to‘rtta davrga ajratib ko‘rsatadi. Bular quyidagilar;

1) tayyorgarlik davri;

2) bog‘chagacha bo‘lgan davr;

3) maktabgacha bo‘lgan davr;

4) maktab davri;

R. Yakobson esa nutqning rivojlanish jarayonida tovushlarni tanlash bevosita tilning tabiatiga bog‘liqligini va muammoni haqiqiy lingvistik muammo deb hisoblaydi. Maktab davrida bolalarning lug‘at boyligining rivojlanishi oldingi davrlardagiga nisbatan ongli ravishda ro‘y beradi. Bu davrda bolalar tovushlar analizi, nutqning grammatik qonuniyatlarni egallaydilar. Shuningdek, nutqning yangi turi yozma nutq ham endi yetakchi rol o‘ynay boshlaydi. Yozma so‘zning harakat analizatori 7 yoshda paydo bo‘ladi [1:77]. Grammatik tuzilishlar ham murakkablashib boradi hamda ular o‘zlarining nutqida murakkab gaplarni tuzishga yordam beradigan bog‘lovchilarni ham ishlata boshlaydilar. Bu jarayon bolaning tafakkur qilishi kengayib, murakkablashib borayotganligini va bu nutqda o‘z ifodasini topayotganligini ko‘rsatadi. Bola nutqining va so‘z boyligining rivojlanish jarayoni o‘z vaqtida to‘g‘ri kechishi uchun maxsus sharoitlar zarurdir. Buning uchun:

– bola ruhiy va jismonan sog‘lom;

– yetarli darajadagi aqliy qobiliyatga;
– yaxshi eshitishi va ko‘rishi;
– yetarli darajada ruhiy harakatchanlikka;
– gaplashish ehtiyojiga;
– to‘g‘ri nutq muhitiga ega bo‘lishi lozim.

Lug‘at boyligi yetarli bo‘lgan, nutqi yaxshi rivojlangan, sog‘lom bolalar maktabda o‘qishning dastlabki bosqichidayoq muvaffaqiyatga erishishi aniqlangan. I.Dubinskiy, M.Antropova. S.Yefremova fikriga ko‘ra, maktabda o‘qish uchun yetarli darajada tayyor bo‘lmaslik bola organizmining umumiy rivojlanishdan orqada qolgani bilan emas, balki uning tana a’zolari va ulardagi tizimlarning yetarli darajada yetilmaganligi hamda o‘quv jarayonida ularning ancha zo‘riqishi bilan ifodalanadi. Bolalarning ruhiy, jismoniy jihatdan maktabga yetarlicha tayyorlanmaganligi ko‘pincha salomatligida ro‘y bergan o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘ladi. Xususan, nutqning rivojlanishida eshitishning ham ishtiroki juda zarur. Agar bolaning tili chiqquniga qadar eshitish a’zolari buzilgan bo‘lsa, unda gapirish bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun, bolalar nutqi, ulardagi o‘zgarishlar doim nazoratda bo‘lishi lozim. Bolalar tomonidan ayrim nutqli tovushlar yoki ularning kombinatsiyalari atrofdagilar tomonidan aytiladigan so‘zlar singari bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi qo‘zg‘atuvchi signallar kabi ta’sir ko‘rsatganidan boshlab gapirish boshlanadi. Bunday holat bolalarning 1 yoshning oxirida va 2 yoshning boshida yuz beradi va shu paytdan boshlab nutq signallar signali bo‘lib qoladi. Bolaning tilining erta chiqish reaksiyasi voyaga yetgan odamlar bilan aloqasining o‘rnatilishi emotsional bog‘lanishlarni qo‘llab quvvatlanishini ta’minlaydi. Bolalar bir yoshlik paytida 6-10 tagacha oddiy so‘zlarni ayta oladigan bo‘ladi. Aytiladigan so‘zlarning rivojlanishi uchun harakat analizatorlarining ishtiroki muhim hisoblanadi. Bolaning umumiy harakatchanligining chegaralanishi uning gapirish funksiyasining rivojlanishiga va bolaning barcha ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. 2 yoshdan bolalarda nutqning kuchli rivojlanishi boshlanadi va bola tomonidan tilning grammatik tuzilishini o‘zlashtirilishi boshlanadi. Predmetlarning ta’sirini anglash ularning mulohazasini so‘z bilan idrok qilishnining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ikki yoshga kelib esa bolalarning so‘z lug‘atida 300 ga yaqin so‘z bo‘lib, shundan nutqning ega qismi 63 foizni, fe’llar 23 foizni, nutqning boshqa qismlari 14 foizni tashkil qiladi. Bu davrda bog‘lovchilar va boshqa murakkab birikmalardan foydalanmaydi.

Tadqiqot metadologiyasi. Bolada nutqining normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o‘zlashtirib olishiga, tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurini kengaytirishga hamda uning so‘z boyligi oshishiga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, nutqning rivojlanishi lug‘at boyligining va tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. So‘z boyligi yetarli bo‘lmagan bolalarning og‘zaki nutqida kamchiliklar uchragani kabi, yozma nutqida ham bir qator kamchiliklar uchraydi. A.Kussmaul, O.Berkan va boshqalar o‘qish va yozuvdagi kamchiliklarni nutq faoliyatida mustaqil kamchilik sifatida o‘rganishgan. O‘quvchilar nutq unsurlarini yaxshi o‘zlashtirishi uchun alohida jumlalarni, to‘liq matnlarni tushuna olishi hamda yarata olishi kerak bo‘ladi. Buning uchun darsliklarda berilgan matnlarda grammatikaning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish va namoyon qilishni osonlashtirish uchun maxsus ishlab chiqiladi. Matnlarda o‘quvchi duch keladigan murakkab sintaktik birliklar va notanish so‘zlar ularning matnni tushuna olmasligiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchining notanish so‘zlarni bolaga tushuntirishi, unga izoh berishi ulardagi lug‘at boyligining ortishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, matn tanlayotganda o‘quvchilarga o‘zzlari tushunishda qiyinchilik tug‘dirmaydigan matnlarni tanlash lozim. Biroq, matn tarkibida o‘quvchi uchun yangi so‘zlar ham bo‘lishi kerak. O‘quvchilarda lug‘at boyligining oshishi ularda kechadigan fiziologik jarayonlar va ularning yoshi bilan ham bog‘liq. Ulardagi sezgi va nutq organlarining qay darajada yaxshi rivojlanganligi tinglab tushunish, o‘qish, yozish, so‘zlash kompetensiyalariga ta’sir ko‘rsatadi. Nunan tinglash jarayonida o‘quvchi eshitayotgan har bir so‘ziga diqqatini qaratishini ta’kidlaydi. Shu sababli, dars mashg‘ulotlari davomida bu jarayon e’tibordan chetda qolmasligi zarur. Kafferty tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun o‘quvchilar haftada bir yoki ikki marta turli hikoyalarni eshitishlari kerakligini aytadi [3:109]. O‘quvchilarni audio matn orqali berilgan fikr va ma’lumotlarni tushunishga o‘rgatish tinglab tushunishning asosiy maqsadlaridan biridir. Eshitib tushunish jarayonida qo‘llaniladigan matnlar ham muhim ahamiyatga ega sanaladi. Chunki matnlar

tinglovchilarga kerakli tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi va o‘quvchilarning lisoniy qobiliyatlarini yaxshi shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, “Videofilm asosida tashkil qilingan har qanday ijodiy-amaliy ish o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga, o‘z mustaqil fikr “mahsul”ini hayotga tatbiq etishiga yaqin yordam beradi” [5:93]. Tinglab tushunish singari o‘qib tushunish ham bolalarda so‘z boyligini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sanaladi. O‘qib tushunish, matnni qayta ishlash, uning ma’nosini tushunish o‘quvchi allaqachon bilgan narsalar bilan integratsiya qilish qobiliyati orqali amalga oshiriladi. Nunan o‘qishni dinamik jarayon deb hisoblaydi. Matn elementlari matndan tashqari boshqa omillar bilan o‘zaro ta’sir qilish orqali yuzaga chiqishini aytadi. Samarali o‘qib tushunish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarga quyidagilar kiradi:

–so‘zlarning ma’nosini bilish;

–nutq kontekstidan so‘zning ma’nosini tushunish qobiliyati;

–matnning asosiy fikrini aniqlash, matndan xulosa chiqarish qobiliyati;

– matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish qobiliyati;

–matnda qo‘llanilgan adabiy vositalarni topish;

–matndan o‘quvchiga notanish bo‘lgan so‘zlarni lug‘at qilib yozish va uning ma’nosini izohli lug‘atlardan foydalanib bilib olish

O‘quvchi matnda berilgan so‘zlarni tushunmasa, matndan ma’noni tushuna olmaydi yoki tuza olmaydi. Shuningdek, o‘quvchi o‘zi o‘qigan so‘zlarni tushunmasa, u butun matnni tushunmaydi. So‘z boyligi yetarli bo‘lgan bolada esa bu muammo kuzatilishining ehtimoli kam bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. So‘z boyligi har kuni suhbat, o‘qish, to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatmalar va hayotiy tajribalar orqali oshib boradi. K.Ushinskiy ona tilini barcha aqliy taraqqiyotning asosi, barcha bilimlar xazinasi, deb ta’kidlagan. Shuning uchun ham bolalarda nutqning o‘z vaqtida rivojlanishiga yordam berish, uning sofligi va to‘g‘riligiga e’tibor qaratish lozim. Grammatikani o‘rganish davrida bolaning tovushlar va so‘zlarni to‘g‘ri, toza talaffuz qilishi ayniqsa muhimdir, chunki yozma nutq og‘zaki nutq asosida shakllanadi va nutqdagi kamchiliklar e’tiborsiz qoldirilsa, bu holat muloqot jarayonida muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Og‘zaki so‘zlashning eshituv analizatorini o‘zagi bola hayotining birinchi yilida takomillashadi. 4 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar suhbatlarda qanchalik ko‘p ishtirok etsa, ular til vazifalarini bajarishda miyaning til sohalarida faolligi katta o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Faol muloqot lug‘atni o‘zlashtirishda eng samarali vosita hisoblanadi, chunki u miyaning til markazlarini bir vaqtning o‘zida ishga soladi. Bu jarayonda o‘quvchi nafaqat so‘zlarni qabul qiladi, balki ularni qayta ishlab faoliyati davomida qo‘llaydi. Shuningdek, yangi so‘zlarni o‘zlashtirish va ulardan unumli foydalanish uchun tizimli takrorlash ham fiziologik jihatdan zarurdir. Chunki so‘zning turli kontekstda faol qo‘llanilishi unga tegishli neyron aloqalarni qayta faollashtiradi.

Xulosa. Fiziologik nuqtai nazardan, lug‘at boyligini rivojlantirish faqat ma’lumotni yig‘ish emas, balki neyron tarmoqlarni ham qayta tuzish jarayonidir. Shuning uchun so‘z boyligini rivojlantirishda foydalaniladigan usul va metodlar nafaqat inson ongining produktiv faoliyatini hamda integrativ mexanizmlarini faollashtirishi, balki bosqichma-bosqich kuchaytirish orqali neyron aloqalarni mustahkamlashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mavlanova S.A. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari (uslubiy qo‘llanma). Namangan, 2020. –76 b.

2. Д.М.Мамадалиев, У.М.Асадуллаев, М.Балдончини Бош мия функционал муҳим марказлари клиник-топографик нейроанатомияси, диагностикаси ва жарроҳлиги (Монография). “Chinor fayzi baland” nashriyoti, – Toshkent, 2024. – 23 b.

3. Nunan D. Language teaching methodology: a textbook for teachers. 1991.

4. Kafferty. Learning vocabulary in another language. – 109 p.

5. Alavutdinova N. Ona tili darsliklarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi: Ped. fan. nomz. …diss. – T.: 2008. – 93 b.

6. Mamatkulov D. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi. – T.: 2017-y.

7. Sodiqov Q., Aripova S., Shaxmurova G. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2009-yil.

UO’K 37.02

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA G‘OYAVIY TA’LIMNING ROLI

O‘.G‘.Qudratov,dots., Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. *Maqolada mustaqil O‘zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik va fuqarolik ruhida tarbiyalashda g‘oyaviy ta’limning roli tahlil qilinadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-ideologik ta’lim vositalari orqali yoshlarning milliy ongini shakllantirish, Vatanga sadoqat, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy-faolligini rivojlantirish masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar, vatanparvarlik, g‘oyaviy ta’lim, fuqarolik mas’uliyati, ma’naviy tarbiya, oliy ta’lim, ijtimoiy-faollik*

Аннотация. *В статье анализируется роль идеологического образования в воспитании молодежи в духе патриотизма и гражданственности в независимом Узбекистане. Рассматриваются вопросы формирования национального сознания, преданности Родине, гражданской ответственности и социальной активности молодежи посредством образовательных и воспитательных процессов.*

Ключевые слова: *Молодёжь, патриотизм, идеологическое образование, гражданская ответственность, духовное воспитание, высшее образование, социальная активность*

Abstract. *The article examines the role of ideological education in fostering patriotism and civic consciousness among youth in independent Uzbekistan. It highlights the importance of shaping national awareness, loyalty to the homeland, civic responsibility, and social activity through educational and upbringing processes.*

Keywords: *Youth, patriotism, ideological education, civic responsibility, moral education, higher education, social activity*

Kirish. Mustaqil O‘zbekistonda yoshlarni tarbiyalashda vatanparvarlik va fuqarolik tuyg‘usini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ta’lim-tarbiya tizimida nafaqat fan va bilim, balki ma’naviy-ideologik ta’lim (g‘oyaviy ta’lim) orqali yoshlarning milliy ongini, Vatanga sadoqat, fuqarolik mas’uliyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat kabi ruhiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish muhimdir. G‘oyaviy ta’lim orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhi, jamiyatga sadoqat, fuqarolik faoliyati ruhida tarbiyalash imkoniyatlari va samarasi masalasi bugungi kun talabidir.

Masalaning dolzarbligi shundaki, global informasiya oqimlari, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy pluralizm yoshlar ongiga salbiy va qarama-qarshi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday sharoitda g‘oyaviy ta’lim va tarbiya tizimini mustahkamlash, yoshlarni ma’naviy-axloqiy, fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, g‘oyaviy ta’lim va ma’naviy-ideologik vositalar orqali yoshlarni vatanparvarlik va fuqarolik ruhida tarbiyalashning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlarini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Metod va manbalar tahlili. Ushbu masalaning metodologik asoslari sifatida pedagogik, sotsiologik va huquqiy manbalar, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlari hamda mavjud ilmiy maqolalar tahliliga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir [7]. Shu jihatdan yoshlar zamonaviy dunyoqarashining shakllantirilishi ta’lim-tarbiyaga bevosita bog‘liq ekanligi ayon bo‘lmoqda. Mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy-mafkuraviy negizlari tubdan o‘zgardi. Buni yoshlar dastlab qanday qabul qiladi? Ularning bunga tayyorgarlik darajasi qanday edi? Chunki mamlakatdagi bozor iqtisodi bilan bog‘liq yangicha tartibotlar va qadriyatlar ularning ongi va tafakkuri, qarashlarining tubdan o‘zgarishiga asos yaratdi. Ularning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasi ham o‘zgarishi tabiiy ehtiyojga aylandi [9].

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish ko‘p jihatdan kelajagimiz egalari bo‘lmish yoshlarning qanchalik zamonaviy bilimlarni to‘liq egallashi, turli xil vayronkor g‘oyalarga qarshi ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy immunitetning hosil qilinishi va albatta

mas'uliyat va daxldorlik tuyg'ularining shakllanganligiga bog'liqdir. Chunki, hozirgi globallashuv davrida ogohlik va umumdavlat manfaatlari uchun o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritish davr talabiga aylangan. Ta'lim-tarbiya jarayonida esa "oila-maktab-mahalla" konsepsiyasi mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglash darkor. Avvalo zamonaviy yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi oiladan shakllantiriladi. Jamoada, mahallada milliy qadriyatlar ruhida rivojlantiriladi, ta'lim muassasalarida esa yanada mustahkamlanadi.

2018-yil 23-fevraldagi hukumat qarori bilan qabul qilingan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi: mamlakatda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi [8]. Ushbu konsepsiya doirasida ta'lim muassasalari, davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda mahalla va oilalar hamkorligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 -yil 29-iyundagi 267-sonli "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi vazifalarni bugungi kun tartibi dolzarbliklari sharoitida qayta baholash imkonini beradi. Mazkur qaror bilan 2023–2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi qabul qilindi. Qarorda Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyat ekanligi ta'kidlanadi [4].

Ilmiy adabiyotlarda ta'lim jarayoni faqatgina fan va bilim berish emas, balki shaxsning ma'naviy va ideologik jihatdan shakllanishi sifatida ham qaraladi. Masalan, tahlillarda ta'lim keng ma'noda shaxsning ijtimoiy, madaniy va fuqarolik hayotiga tayyorlash vositasi sifatida ko'riladi [1]. Shuningdek, g'oyaviy va ma'naviy ta'lim yoshlarda o'zlikni anglash, milliy qadriyatlar, tarixiy-madaniy merosga hurmat, umumiy insiyosiy fazilatlarni shakllantirishda muhimligi qayd etiladi [2]. Yana bir tadqiqot natijalariga ko'ra, g'oyaviy ta'lim va ideologik tarbiya yoshlarda sotsio-ma'naviy "imij" shakllantirishda muhimdir [5].

Shuningdek, pedagogik tashabbus sifatida yoshlar uchun g'oyaviy do'stlik va ma'naviy immunitet yaratishga qaratilgan metodlar (masalan, tarixiy-madaniy tadbirlar, ma'naviy va fuqarolik mavzularida suhbatlar, yoshlar faoliyati) tavsiya etilgan [3].

Ijtimoiy va huquqiy qadriyatlarning yoshlar ongini shakllantirishdagi roli nomli tadqiqotda muallif 18-29 yoshdagi 1200 respondent o'rtasida so'rov o'tkazgan. So'rov natijasida huquqiy qadriyatlar yoshlarning siyosiy va fuqarolik faolligini taxminan 28 % ga oshirishi, ijtimoiy qadriyatlar esa oilaviy barqarorlik va jamiyatdagi ishonch darajasini 35 % mustahkamlashi aniqlangan [6]. Bu natija shuni ko'rsatadiki g'oyaviy-ma'naviy va huquqiy-sotsiologik qadriyatlarni tizimli ravishda tarbiyalash yoshlar ongida fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Shunday qilib, mavjud empirik tadqiqatlar ko'rsatadiki ijtimoiy–huquqiy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasiga integratsiya qilish va fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish yoshlar orasida vatanparvarlik, fuqarolik ongini kengaytirish va ijtimoiy faollikni rag'batlantirishda samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, g'oyaviy ta'lim yoshlarni nafaqat bilimli balki ma'naviy va fuqarolik jihatdan mustahkam shaxs sifatida tarbiyalashda hal qiluvchi omildir. Davlat tomonidan qabul qilingan konsepsiyalar va qonunchilik bazasi mavjudligi bu yo'nalishning barqaror va tizimli rivojlanishini ta'minlaydi. Ammo, ilmiy tahlillardan ko'rinib turibdiki, faqat qonunchilik va deklarativ hujjatlar yetarli emas. Ta'lim muassasalari, oila, mahalla va jamoat tashkilotlari ham faol jalb etilishi pedagogik va amaliy metodologiyalar chuqurlashtirilishi, g'oyaviy-ma'naviy ishlar sifat jihatidan takomillashtirilishi, yoshlarni jalb etish mexanizmlari samarali bo'lishi zarur. Shuningdek, globalizm, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivoji sharoitida yoshlar ongiga salbiy ta'sir qiluvchi hodisalar ham mavjud. Shu sababli g'oyaviy ta'lim va ma'naviy tarbiya yoshlarni milliy va umumiy qadriyatlar asosida sog'lom dunyoqarash bilan yo'llantirishda muhim omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Begmatova N. (2025). Educating students on the basis of national values. International Journal of Political Sciences and Economics, 1(1), 158–161. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/ijpse/article/view/84906
2. Boqiev Farhod Esonovich. (2025). Conceptual Basis Of Educating Patriotic Youth In The General Secondary Education System. European International Journal of Pedagogics, 5(09), 26–28.
3. Alinazarov N.Military-patriotic education of student youth on the basis of combat and labour traditions of the people and armed forces of Uzbekistan.// https://sirpublishers.org/index.php/jomb/article/view/774
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 -yil 29-iyundagi 267-son “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. Kasimova Z. The Role Of Spiritual And Ideological Education In Shaping The Socio-Spiritual Image Of Unorganized Youth. //Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 2022, 4, 56-61.
6. Varisova B. Ijtimoiy va huquqiy qadriyatlarning yoshlar ongini shakllantirishdagi roli //ILM FAN XABARNOMASI Vol. 10 No. 1 (2025). – P.2361-2364.
7. Каримов И. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.Т.6. – Т.Ўзбекистон. – Б.326.
8. Ўзбекистонда “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш Концепцияси” жорий этилди// https://kun.uz/kr/36098989?utm_source
9. Эргашев И. Замондош ёшлар қиёфаси// Ахборот асрида таълим-тарбия.– Тошкент: Akademnashr, 2012. – 6 б.

UO’K 37.02

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

B.B.Saparov, dots., Alfraganus universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari va interaktiv ta’lim modellarining afzalliklari hamda mavjud pedagogik muammolar uchun innovatsion yechimlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, innovatsion pedagogika, ijtimoiy-gumanitar fanlar, ta’lim texnologiyalari, interaktiv o‘qitish.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования технологий искусственного интеллекта в процессе преподавания социально-гуманитарных наук. Также рассматриваются преимущества образовательных платформ на основе ИИ, автоматизированных аналитических систем и интерактивных моделей обучения, а также предлагаются инновационные решения актуальных педагогических проблем.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, цифровое образование, инновационная педагогика, социально-гуманитарные науки, образовательные технологии, интерактивное обучение.*

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of using artificial intelligence technologies in teaching social and humanitarian sciences. The study also explores the advantages of AI-based learning platforms, automated analytical systems, and interactive instructional models, offering innovative solutions to contemporary pedagogical challenges.*

Keywords: *artificial intelligence, digital education, innovative pedagogy, social and humanitarian sciences, educational technologies, interactive learning.*

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ilm-fan va ta’lim tizimida tub metodologik o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, nafaqat texnik va tabiiy fanlar, balki ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan falsafani o‘qitish jarayonida ham yangi nazariy va amaliy imkoniyatlarni ochib bermoqda. SI vositalarining ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, adaptiv va refleksiv model asosida tashkil etish, talabalarning tanqidiy tafakkuri, mantiqiy tahlil qilish qobiliyati hamda ijodiy va konseptual fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy ta’lim paradigmasi doirasida sun’iy intellektning falsafiy ta’limga tatbiqi an’anaviy didaktik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni, epistemologik va metodologik asoslarni yangicha

talqin etishni taqozo etadi. Falsafani o‘qitishda SI texnologiyalaridan foydalanish talabalarga murakkab ontologik, gnoseologik, aksiologik va antropologik muammolarni raqamli muhitda modellashtirish, falsafiy matnlarni semantik va diskursiv tahlil qilish, tarixiy-falsafiy jarayonlarni virtual rekonstruksiya qilish hamda nazariy konsepsiyalarni interaktiv tarzda o‘zlashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalar falsafiy bilimlarni o‘zlashtirishda adaptiv ta’lim mexanizmlarini joriy etib, talabaning individual intellektual darajasi, kognitiv uslubi va refleksiv ehtiyojlariga mos o‘quv trajektoriyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. SI yordamida falsafiy kategoriyalar, tushunchalar va nazariy yondashuvlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliklarni vizuallashtirish, muammoli vaziyatlar asosida bahs-munozaralarni simulyatsiya qilish hamda talabalarning mustaqil falsafiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari falsafa o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, intellektual tahlil vositalari, plagiatni aniqlash dasturlari, muloqotchi agentlar va raqamli yordamchilar pedagogik jarayonning samaradorligi va shaffofligini oshiradi. Bu vositalar o‘qituvchiga ta’lim jarayonini monitoring qilish, talabalarning kognitiv faolligini tahlil etish hamda o‘quv mazmunini takomillashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining falsafani o‘qitish jarayoniga tatbiqi ta’limning innovatsion, integrativ va transdisiplinar modelini shakllantirishga xizmat qilib, talabalarning mustaqil fikrlashi, ratsional tahlil qilish, konseptual sintez va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal kirib kelishi ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘qitilishida innovatsion metodologik yondashuvlarni shakllantirdi. Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, SI ta’lim tizimi uchun nafaqat texnik vosita, balki kognitiv va pedagogik jarayonlarni tubdan o‘zgartiruvchi omil sifatida qaralmoqda.

Avvalo, E. Brynjolfsson va A. McAfee SI texnologiyalarining inson faoliyatini “kengaytiruvchi kuch” sifatida talqin qilib[1], sun’iy intellekt ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabaning imkoniyatlarini kengaytirishini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, adaptiv o‘quv platformalari talabalarning individual o‘quv trayektoriyasini shakllantiradi, bu esa ijtimoiy-gumanitar fanlarda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi.

J. Luckin sun’iy intellektning “intellektual sheriklik” modeli ta’limni yangi bosqichga olib chiqayotganini qayd etadi. Uning tadqiqotlarida SI talabaning bilim darajasini diagnostika qilish, xatolar tahlilini amalga oshirish va o‘quv materiallarini moslashtirish imkoniyatiga ega ekanligi alohida ko‘rsatib o‘tiladi[2]. Bu yondashuv ayniqsa tarix, falsafa, sotsiologiya kabi fanlarda mantiqiy fikrlash va analitik tahlilni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda SI qo‘llanilishining psixopedagogik jihatlari H. Holmes tomonidan keng yoritilgan. U sun’iy intellekt yordamida talabaning motivatsiyasi va ishtirok darajasini oshirish, o‘quv jarayonidagi kognitiv yukni boshqarish, shuningdek, refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beruvchi modellarni tavsiflaydi[3]. Uning fikricha, SI vositalari o‘qituvchi faoliyatini to‘liq almashtirmaydi, balki pedagogning diagnostik va tahliliy faoliyatini samarali qo‘llab-quvvatlaydi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar inson va jamiyatni o‘rganishga qaratilganligi sababli, SI vositalaridan foydalanishda inson qadri, shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi va pedagogik javobgarlik tamoyillari muhim o‘rinni egallaydi.

Raqamli ta’limning amaliy samaradorligini o‘rgangan M. Petersen esa SI asosidagi ta’lim platformalari (Coursera, EdX, Khan Academy, Google Classroom AI integratsiyasi) o‘quv jarayonida interaktivlikni kuchaytirishini, talaba–o‘qituvchi–o‘quv kontenti o‘rtasida dinamik o‘zaro aloqani yaratishini ko‘rsatadi[4].

Mahalliy tadqiqotchilar qatorida A. Nishonov SI texnologiyalaridan foydalanishning O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun metodik imkoniyatlarini ko‘rsatgan bo‘lib, SI ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda:

- o‘quv materiallarini moslashtirish,

- baholash jarayonini avtomatlashtirish,
- talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish,
- ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish [5] kabi afzalliklarga ega ekanini asoslab bergan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimining ob’ektiv zaruriyatiga aylandi. Adabiyotlar tahlili, amaliy tajribalar va nazariy manbalar shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari ta’lim jarayonining metodik, pedagogik va psixologik asoslarini tubdan yangilash imkoniyatiga ega. SI vositalari o‘quv jarayonini individuallashtirish, talabaning intellektual salohiyatini aniqlash, uning o‘zlashtirish darajasini avtomatik tahlil qilish hamda o‘qituvchi faoliyatini optimallashtirish kabi vazifalarni samarali bajaradi.

Sun’iy intellektning afzalliklari, xususan, adaptiv ta’lim, interaktiv simulyatsiyalar, virtual o‘quv muhitlari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va aqliy qo‘llab-quvvatlovchi platformalar ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitilishida sifat jihatdan yangi bosqichni shakllantirmoqda. Bu jarayon talabalarda tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv, ijodiy tafakkur va media-savodxonlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, SI texnologiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir qator muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Jumladan, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, algoritmik adolat, texnologik qaramlik, plagiat xavfi va o‘qituvchilar malakasini doimiy yangilab borish zaruriyati masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa sun’iy intellektdan foydalanishda etik yondashuv, boshqaruv mexanizmlari, psixologik tayyorgarlik va me’yoriy hujjatlarni takomillashtirishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitilishida innovatsion yondashuvlar, yangi pedagogik modellar, samaradorlik va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Kelgusida SI asosida ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, pedagoglar malakasini oshirish va raqamli ekotizimni rivojlantirish Yangi O‘zbekiston ta’lim strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida davom etishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2018). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.

2. Luckin, R. (2019). *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education in the 21st Century*. UCL Institute of Education Press.

3. Holmes, W. (2021). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Routledge.

4. Petersen, M. (2020). “Digital Learning Platforms and Artificial Intelligence in Higher Education.” *Journal of Educational Technology*, 15(4), 112–128.

5. Nishonov, A. (2023). *Sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish metodlari*. Toshkent: Fan va texnologiya.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son farmoni (2022). *Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent.

UO’K 37.02

TALABALARNING THINKING VA PROBLEM-SOLVING KO‘NIKMALARINI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

X.U.Saydullayeva, dots., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim texnologiyalari talabalarda tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslari va metodik imkoniyatlari, shuningdek, o‘quv jarayonida yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan usullar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim texnologiyalari, critical thinking, problem-solving, integratsiyalashgan ta’lim, cognition, project-based learning, task-based learning, fan va til integratsiyasi, metakognitsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль образовательных технологий в формировании у студентов навыков критического мышления и решения проблем. Рассматриваются теоретические основы и методические возможности образовательных*

технологий, а также методы, способствующие развитию когнитивных компетенций высокого уровня в учебном процессе.

Ключевые слова: *образовательные технологии, критическое мышление, решение проблем, интегрированное обучение, когнитивные процессы, проектное обучение, обучение на основе задач, интеграция науки и языка, метапознание.*

Abstract. *This article analyzes the role of educational technologies in the formation of critical thinking and problem-solving skills in students. The theoretical foundations and methodological possibilities of educational technologies, as well as methods that contribute to the development of high-level cognitive competencies in the educational process, are highlighted.*

Keywords: *educational technologies, critical thinking, problem-solving, integrated learning, cognition, project-based learning, task-based learning, integration of science and language, metacognition.*

Zamonaviy ta'limda talabalarni mustaqil fikrlay oladigan, mantiqiy tahlil qila oladigan va real hayotdagi muammolarga samarali yechim topa oladigan shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bunda, ayniqsa, o'quv jarayonida chet tilini o'rganish va mazmunli bilim olishni birlashtirgan Ta'lim texnologiyalari samarali hisoblanadi. Ta'lim texnologiyalari dastlab Yevropa ta'lim muassasalarida shakllanib, keyinchalik butun dunyo maktablarida keng tarqaldi.

Ta'lim texnologiyalari - fan mazmunini chet tili orqali o'qitishga asoslangan metod bo'lib, talabalarning fanga oid bilimlarini boyitish, chet tilida muloqot qilish kompetensiyasini rivojlantirish hamda tahliliy, ijodiy va mantiqiy fikrlash jarayonlarini faollashtirishga xizmat qiladi. Koyl modeli asosida ta'lim texnologiyalari to'rtta asosiy komponentga (Mazmun, Kommunikatsiya, Bilish, Madaniyat) tayangan holda o'quvchilar tafakkurini chuqurlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim texnologiyalari darslarida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari bir necha yo'nalishda rivojlantiriladi. Avvalo, chet tili orqali mazmunli ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayoni mantiqiy va yuqori darajadagi tafakkurni talab qiladi. Bundan tashqari, HOTS tipidagi savollar (Nega? Bundan qanday xulosa chiqarish mumkin? Agar sharoit o'zgarsa, natija qanday bo'ladi?) talabalarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi. Mashg'ulotlarda foydalaniladigan autentik materiallar - ilmiy maqolalarning qismlari, infografikalar, xaritalar, tajriba natijalari ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini kuchaytiradi. Venn diagrammasi, intellekt-xarita, T-diagramma kabi grafik organayzerlar yordamida talabalar ma'lumotlarni tizimlashtirish, asosiy g'oyalarni ajratish va xulosa chiqarishni o'rganadilar.

Umuman olganda, Ta'lim texnologiyalari nafaqat til o'rganishga, balki chuqur fikrlash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish kabi muhim kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Ta'lim texnologiyalari o'quvchilarda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Vazifalarga asoslangan ta'lim tamoyillari asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar real hayotga yaqinlashtirilgan muammolar yechimini topishga undaydi. Bunday topshiriqlar o'quvchilardan muammoni tahlil qilishni, yechimning turli variantlarini ishlab chiqishni va ulardan eng maqbulini tanlashni talab qiladi.

Fanlararo yondashuv murakkab va ko'p qirrali vaziyatlarni o'rganish imkonini beradi. Iqlim o'zgarishi yoki iste'molchilar huquqi kabi mavzularni ko'rib chiqishda talaba biologiya, geografiya, matematika, iqtisodiyot va boshqa fanlardan olingan bilimlarni integratsiyalash orqali keng qamrovli fikrlashni rivojlantiradi. Bu jarayon o'quvchilarning amaliy muammolarni hal qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Guruh loyihalarida ishtirok etish o'quvchilarda mas'uliyatni taqsimlash, nizolarni konstruktiv hal qilish, dalillash va tezkor qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada ular nafaqat individual, balki ijtimoiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar.

Refleksiya jarayoni o'quvchilarga o'z faoliyatlari va fikrlash jarayonlarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni anglash va kelajakda yanada samarali yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Shunday qilib, metakognitiv ko'nikmalar rivojlanadi va o'quvchi muammolarni ongli ravishda hal qilishni o'rganadi.

1-jadval

Amaliy metodlar va faoliyatlar

Metod	Maqsad	Rivojlantiradigan ko‘nikma
Case study	Real vaziyatni tahlil qilish	Problem-solving, critical thinking
Project-based learning	Muammoni amaliy yechish	Tadqiqot, kreativ fikrlash
Debate	Dalillash va fikrni himoya qilish	Critical thinking, kommunikatsiya
Role-play	Hayotiy vaziyatni jonlantirish	Muammoni hal qilish, til ko‘nikmalari
Think–Pair–Share	O‘y-fikrni shakllantirish	Mantiqiy fikrlash, hamkorlik
Graphic organizers	Axborotni tartiblash	Tahlil, mantiqiy strukturasi

Ta’lim texnologiyalari zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shadigan eng samarali pedagogik usullardan biri sifatida tan olingan. Ushbu metod nafaqat chet tilini o‘qitish jarayonini takomillashtiradi, balki o‘quvchilarni global kompetensiyalar, mustaqil fikrlash va murakkab vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Ta’lim texnologiyalarining asosiy afzalligi fan mazmunini til bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilar tafakkurini ko‘p qirrali rivojlantirishdir. Ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarni yuqori darajadagi kognitiv faoliyatga jalb etadi. Bu jarayonda ular murakkab ma’lumotlarni tahlil qilish, turli manbalar bilan ishlash, faktlar asosida xulosa chiqarish, fikrlarni mantiqiy asoslash, muqobil yechimlarni taklif qilish va ularni qiyosiy baholash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Umuman olganda, Ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarni ilmiy-tahliliy fikrlashga, ijodiy yechimlarni topishga, samarali muloqotga, madaniy hamkorlikka va global dunyo talablariga javob berishga yo‘naltiradi. Ushbu metod yordamida ta’lim olgan o‘quvchilar mustaqil fikrlaydigan, murakkab muammolarni hal qila oladigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mehnat bozorida raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press. https://www.cambridge.org

2. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. (2008). Uncovering CLIL. Macmillan Education. https://www.macmillanenglish.com

3. Snow, M. A. (2014). Content-Based Instruction. Oxford University Press. https://www.oup.com

4. Bentley, K. (2010). The TKT Course: CLIL Module. Cambridge University Press.

5. Richards, J. C. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2015.

6. Utkirovna, S. K. (2025). The Challenges and Features of CLIL Implementation in Teaching English of Mining Terminology. American Journal of Education and Evaluation Studies, 2(3), 42–45. Retrieved from https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/1235

7. Gilmore, A. “Authentic materials and authenticity in foreign language learning.” Language Teaching, 40(2), 2007.

8. Saydullaeva, K. (2021). The importance of innovative technologies in the development of mining students’ lexical competence. Current research journal of pedagogics, 2(12), 143-148.

UDC 37.02

HOW METAPHORS INFLUENCE PUBLIC OPINION IN NEWS AND SOCIAL MEDIA

Z.M. Sobirova, dots., Fergana State University, Fergana

Sh.E. Jurayeva, Master’s degree student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Metaforalar jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi kuchli lingvistik vositalardir. Ushbu tadqiqot siyosiy, ekologik va ijtimoiy kontekstlarda metaforik ifodalarning ommaviy axborot vositalari orqali qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi.*

Kalit so’zlar: *metafora, freyming, jamoatchilik fikri, media nutqi, mafkura*

Аннотация. *Метафоры являются мощным языковым инструментом, формирующим общественное мнение, особенно в новостях и социальных сетях. В исследовании рассматривается метафорическое фреймирование в политическом, экологическом и социальном контексте.*

Ключевые слова: *метафора, фрейминг, общественное мнение, медиадискурс, идеология*

Abstract. *Metaphors are powerful linguistic tools that shape public perception, especially in news and social media. This study examines metaphorical framing in political, environmental, and*

social contexts, showing how metaphors guide interpretation, evoke empathy, and reinforce ideological narratives across different media platforms.
Key words: *metaphor, framing, public opinion, media discourse, ideology*

Introduction. Metaphors are core cognitive structures that help people understand new or complex information by linking it to familiar concepts. In news and social media, they operate as hidden framing tools that shape how the public interprets events, individuals, and policies. As Atmawijaya [1, p. 274] notes, metaphors in political discourse serve not just rhetorical but strategic purposes, guiding public reasoning and emotional engagement. In today's fast-paced information environment, metaphors function as cognitive shortcuts that simplify complexity, trigger emotional responses, and steer audiences toward particular ideological interpretations. Therefore, analyzing metaphor use across both traditional journalism and digital platforms is crucial for understanding how public opinion is constructed and influenced.

Methodology. This article is grounded in a review of recent studies on metaphor use in news and social media, drawing from critical metaphor analysis, cognitive linguistics, and media framing research. Notable contributions include Komatsubara's work on pandemic metaphors, Mao et al.'s analysis of weather disaster reporting, and Sengupta et al.'s study of political editorial framing. Combining qualitative and computational approaches, the review highlights how metaphors influence emotional engagement, ideological interpretation, and narrative framing across different languages and media contexts, emphasizing their key role in shaping public perception.

Results. Metaphors play a crucial role in media framing by turning abstract issues into familiar narratives. Song [4, p. 676] emphasizes that journalism relies on metaphors to make the intangible visible. Describing economic decline as a "storm" or "earthquake" evokes uncontrollable disaster imagery, reducing perceived accountability. Similarly, portraying politics as a "battlefield" frames governance as competition between winners and losers, shaping public views of responsibility and morality.

In political communication, metaphors also legitimize actions and construct ideological narratives. Atmawijaya [1, p. 278] shows that phrases like "war on corruption" or "defending democracy" transform policies into moral missions that mobilize emotions while concealing agendas. Such framing invokes patriotism and righteousness, labels opponents as "enemies" or "threats", and polarizes discourse by limiting acceptable viewpoints.

In environmental and scientific reporting, metaphors shape perceptions of human responsibility toward nature. Mao et al. [7, p. 7398] show that expressions such as "nature's revenge", "climate war", or "Mother Earth's warning" evoke empathy and guilt, encouraging public support for eco-friendly policies. At the same time, they may oversimplify scientific complexity by replacing factual understanding with symbolic dramatization, revealing a tension between awareness and sensationalism.

Health and pandemic coverage further demonstrates the behavioral impact of metaphors. Komatsubara [2, p. 284] found that the "war against the virus" framing during COVID-19 generated solidarity and justified emergency state measures, yet also fueled fear, stigmatization, and psychological fatigue. Thus, metaphors unify collective action but may reinforce fear-based interpretations.

In the digital era, social media amplifies metaphorical influence through virality. Ja'afaru and Asemah [5, p. 29] note that metaphors in memes, hashtags, and viral posts spread ideological messages faster than factual arguments. Labels describing refugees as a "flood" or "wave" evoke danger and promote xenophobic attitudes. As these metaphors circulate, they solidify into cognitive frames that shape perception unconsciously, turning everyday communication into a form of collective persuasion.

Editorial journalism shows how metaphors can manipulate public opinion. Sengupta et al. [3, p. 3624] reveal that political editorials use metaphorical framing to guide emotions and legitimize certain viewpoints. Calling protests "chaos" or "awakening" reshapes perceptions of legitimacy and morality, and repeated exposure aligns audiences with a publication's ideology.

In conflict reporting, metaphors have even stronger global effects. Iqbal and Farukh [6, p. 2564883] demonstrate that terms like "defense", "terror", and "occupation" in Israel–Palestine coverage assign moral status, fueling empathy for one side and hostility toward the other. Thus, metaphors operate as ideological tools that polarize audiences, justify violence, and influence collective emotions.

Discussion. Across all studies reviewed, a consistent pattern emerges: metaphors serve as both cognitive frames and ideological instruments. They bridge emotion and reason, allowing media institutions to construct persuasive realities that align with political, economic, or cultural interests. As communication becomes faster and more image-driven, metaphorical expressions simplify complexity and sustain attention but also risk distorting objectivity. The cognitive power of metaphors lies in their ability to make abstract issues tangible, yet this same power can be weaponized to manipulate perception and direct emotional energy toward predetermined conclusions.

In social media contexts, metaphors operate as cultural codes that reinforce identity and belonging. Repetition through memes, comments, and shared posts transforms metaphors into collective beliefs. Over time, users cease to question their validity, internalizing them as common sense. This mechanism illustrates how language structures ideology invisibly, embedding bias in everyday communication. The ethical implications are significant: journalists, educators, and digital creators must be aware of the manipulative potential of metaphors and promote critical literacy to help audiences decode symbolic persuasion and resist emotional manipulation.

Conclusion. Metaphors are essential to cognition: they simplify complexity, evoke emotion, and structure how we understand reality. In the media, they also persuade, frame issues, and convey ideological meanings. The reviewed studies show that metaphors shape narratives of conflict, crisis, and change in political, environmental, and health reporting, influencing public interpretation and sentiment.

Thus, recognizing metaphorical framing is vital. Awareness of how metaphors encode ideology helps prevent manipulation and supports informed media consumption, which should be strengthened through educational and media literacy initiatives.

For Uzbekistan, where journalism and digital communication are rapidly evolving, such awareness is especially important. Promoting responsible language use and critical media education can prevent emotional manipulation, enhance transparency, and support an informed, analytical public. Building this form of media literacy will contribute to democratic communication and align national media practices with global ethical standards.

REFERENCES:

1. Atmawijaya, T. D. (2025). The strategic use of metaphor in political discourse: Critical Metaphor Analysis. Russian Journal of Linguistics, 29(2), 272-295.

2. Komatsubara, T. (2024). Framing and metaphor in media discourse: Multi-Layered metaphorical framings of the covid-19 pandemic in newspaper articles. In The Routledge Handbook of Language and Mind Engineering (pp. 274-292). Routledge.

3. Sengupta, M., El Baff, R., Alshomary, M., & Wachsmuth, H. (2024, June). Analyzing the use of metaphors in news editorials for political framing. In Proceedings of the 2024 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies (Volume 1: Long Papers) (pp. 3621-3631).

4. Song, Q. (2024). Framing in media and communication studies: A bibliometric analysis. Insight-News Media, 7(1), 674-674.

5. Ja'afaru, S. G., & Asemah, E. S. (2024). How social media shape public opinion through propaganda and the spread of disinformation. Communication and Media Dynamics, 26-41.

6. Iqbal, S., & Farukh, A. (2025). Framing narratives: media representation of metaphors and ideologies in Israel-Palestine conflict. Cogent Arts & Humanities, 12(1), 2564883.

7. Mao, R., Lin, Q., Liu, Q., Mengaldo, G., & Cambria, E. (2024, January). Understanding public perception towards weather disasters through the lens of metaphor. In Proceedings of IJCAI (pp. 7394-7402).

UO'K 37.02

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINING IJTIMOIY FAOLLIK VA LIDERLIK QOBILIYATLARIGA TA'SIRI

Q.R.Sotvoldiyev, dots., Namangan davlat texnika universiteti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining talabalar ijtimoiy faolligi va liderlik qobiliyatlarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Jismoniy faoliyatning talabalar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va liderlik xususiyatlarini oshirishga ta'siri ilmiy asosda o'rganiladi. Tadqiqot natijalari, universitetda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini yanada samarali tashkil etish va yoshlarni ijtimoiy faol, yetakchi shaxs sifatida tarbiyalashga imkon yaratadi.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, oliy ta'lim, ijtimoiy faollik, liderlik, talabalar, jamoaviy ko'nikmalar, ta'lim jarayoni.*

Аннотация. *В статье анализируется влияние занятий физической культурой в высших учебных заведениях на социальную активность студентов и развитие лидерских качеств. Исследуется, как физическая активность способствует укреплению социальных связей, формированию навыков командной работы и развитию лидерских способностей студентов. Результаты исследования позволяют оптимизировать организацию занятий физкультурой в университетах и способствуют воспитанию социально активной и инициативной молодежи.*

Ключевые слова: *физическая культура, высшее образование, социальная активность, лидерство, студенты, командная работа, образовательный процесс.*

Abstract. *This article examines the impact of physical education classes in higher education institutions on students' social activity and leadership skills. The study explores how physical activity strengthens social connections, develops teamwork abilities, and enhances leadership qualities among students. The findings provide insights for improving the organization of physical education in universities and fostering socially active and leadership-oriented youth.*

Keywords: *physical education, higher education, social activity, leadership, students, teamwork, educational process.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida talabalarni nafaqat akademik bilim bilan, balki ijtimoiy faollik va yetakchilik qobiliyatlari bilan ham rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bu jarayonda nafaqat sog'liqni mustahkamlash, balki talabalar orasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, jamoaviy ishlashni o'rgatish va liderlik xususiyatlarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qaraladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy faolligi – ular jamoat ishlarida, guruh va fakultet tadbirlarida faol ishtirok etishi, muammolarni hal qilishda tashabbuskorligi bilan o'lchanadi. Liderlik qobiliyatlari esa talabaning boshqa talabalarni boshqarish, jamoani birlashtirish va maqsad sari yetaklash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, ayniqsa sport turlari va guruhli o'yinlar, ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun tabiiy platforma yaratadi.

Shuningdek, jismoniy faoliyat talabalar orasida o'zaro ishonch, hamkorlik va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Mashg'ulotlar davomida talabalar birgalikda maqsad sari harakat qilgan holda, qaror qabul qilish, strategik fikrlash va tashabbus ko'rsatish kabi liderlik xususiyatlarini amalda rivojlantiradilar. Shu bois, oliy ta'limda jismoniy tarbiya nafaqat salomatlikni yaxshilash, balki talabalarda ijtimoiy faollik va yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining talabalar ijtimoiy faolligi va liderlik qobiliyatlariga ta'siri tahlil qilinadi, uning samarali tashkil etish usullari va oliy ta'lim jarayonidagi o'rni ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi – universitet talabalari orasida ijtimoiy faollik va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligini aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Asosiy qism. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari talabalar salomatligini mustahkamlash bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy faollik va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda

muhim ahamiyatga ega. Talabalar jismoniy mashg‘ulotlar davomida nafaqat individual sport ko‘nikmalarini egallaydi, balki jamoaviy ishlash, qaror qabul qilish, tashabbus ko‘rsatish va boshqalarni yetaklash kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Masalan, guruhli sport turlari va o‘yin mashg‘ulotlarida talabalar birgalikda maqsad sari harakat qilib, o‘zaro muvofiqlik, ishonch va hamkorlikni mustahkamlashni o‘rganadilar.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining ijtimoiy faollikka ta’siri birinchi navbatda talabalarni tashabbuskor, faol va jamiyatga moslashuvchan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Talabalar sport tadbirlarida, musobaqalarda va jamoaviy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish orqali liderlik xususiyatlarini amaliy ravishda rivojlantiradilar. Bu esa ularga o‘z fikrini erkin ifodalash, guruh a’zolarini boshqarish va murakkab vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini beradi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari talabalarda stressni kamaytirish va ruhiy barqarorlikni oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Universitet hayoti ko‘pincha o‘quv yuklamasi, imtihonlar va ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, talabalar orasida psixologik bosimni keltirib chiqaradi. Jismoniy faoliyat, ayniqsa sport mashg‘ulotlari, endorfin ishlab chiqarishni oshiradi va shunday qilib talabalarni ijtimoiy va emotsional jihatdan faol holatga keltiradi. Shu tariqa, talabalar jismoniy faoliyat orqali o‘zini jamiyatga moslashgan, tashabbuskor va yetakchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Ushbu mashg‘ulotlar talabalar orasida ijtimoiy kooperatsiyani rivojlantiradi. Jamoaviy sport turlari va guruh mashg‘ulotlarida talabalar o‘zaro hamkorlik, vazifalarni taqsimlash, bir-birini rag‘batlantirish va muammolarni birgalikda hal qilish tajribasini oladilar. Natijada, talabalarda liderlik qobiliyatlari nafaqat sport sohasida, balki akademik va ijtimoiy faoliyatda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan darajada rivojlanadi.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ijtimoiy faollikni oshirish bilan bir qatorda, talabalar orasida madaniy va etik qadriyatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Sport tadbirlari, musobaqalar va universitet ichidagi jamoaviy faoliyat talabalar orasida hurmat, adolat, mas’uliyat va mas’uliyatni rivojlantiradi. Bu xususiyatlar, o‘z navbatida, talabalarni nafaqat yetakchi shaxs, balki jamiyatga foydali va faol fuqaro sifatida tarbiyalaydi.

Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligi talabalarning ijtimoiy faolligi va liderlik qobiliyatlarini oshirishda ularning motivatsiyasi, qat’iyati va faol ishtirokiga bog‘liq. Mashg‘ulotlar davomida talabalarni rag‘batlantirish, individual va guruh yutuqlarini e’tirof etish, shuningdek, musobaqalar va turnirlar tashkil etish talabalarda tashabbus va yetakchilikni yanada rivojlantiradi.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari talabalarning ijtimoiy faollik va liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Ular talabalarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini oshirish, stressga chidamlilikni mustahkamlash va yetakchilik xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shu tariqa, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari nafaqat talabalar salomatligi, balki ularning ijtimoiy va psixologik rivojlanishi uchun ham zarur vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari talabalar salomatligini mustahkamlash bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy faollik va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Mashg‘ulotlar davomida talabalar jamoaviy ishlash, qaror qabul qilish, tashabbus ko‘rsatish va boshqalarni yetaklash ko‘nikmalarini egallaydilar. Guruhli sport turlari va o‘yin mashg‘ulotlari talabalarni birgalikda maqsad sari harakat qilishga o‘rgatadi, shu bilan birga ijtimoiy integratsiya, hamkorlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari talabalarni nafaqat sog‘lom, balki faol, tashabbuskor va yetakchi shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Ularning ijtimoiy faolligi oshadi, guruh ichidagi roli mustahkamlanadi va etakchilik qobiliyatlari amaliy tajriba orqali rivojlanadi. Shuningdek, jismoniy faoliyat stressni kamaytirish, ruhiy barqarorlikni oshirish va talabalarni jamiyatga moslashuvchan shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va ularni talabalar ijtimoiy faolligi hamda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish universitet pedagogik jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Баев, А. *Физическая культура и социальная активность студентов*. – Москва: Просвещение, 2018.
2. Иванова, Т. *Лидерские качества и спортивная деятельность в высших учебных заведениях*. – Санкт-Петербург: Питер, 2019.
3. Karimov, B. *Talabalar ijtimoiy faolligi va jismoniy tarbiya: ilmiy tadqiqotlar*. – Toshkent: Universitet nashri, 2020.
4. Bailey, R. *Physical Education and Social Development in Higher Education*. – London: Routledge, 2019.
5. Chen, S., & Wang, Y. *Impact of Physical Activity on Leadership and Teamwork Skills among University Students*. – New York: Springer, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. *Universitetlarda jismoniy tarbiya darslari bo'yicha metodik qo'llanma*, Toshkent, 2021.

UO'K 372.46:502/504

ONA TILI FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

S.Temirova, tayanch doktorant, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon

Annotatsiya. *Maqolada ona tili fanini o'qitishda ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy yo'llari tahlil qilingan. Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, UNESCOning ESD kompetensiyalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot dizaynga asoslangan yondashuvga tayangan holda o'quvchilarning ekologik tafakkuri, nutq madaniyati, tanqidiy fikrlashi hamda ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantiruvchi CLIL ssenariylari, autentik matnlar, debatlar va kriterial baholash modellarining samaradorligi ko'rsatib berilgan. Natijalar o'qituvchilarning metodik amaliyotida sifat o'zgarishlarini, o'quvchilarda esa ekologik savodxonlik va til kompetensiyalarining uyg'un rivojlanishini tasdiqlaydi. Maqolada mavjud cheklovlar va kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari ham yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik madaniyat, ona tili ta'limi, CLIL, barqaror rivojlanish, ekologik kompetensiyalar, kriterial baholash, dizaynga asoslangan tadqiqot.*

Аннотация. *В статье анализируются теоретические основы и практические подходы формирования экологической культуры учащихся на уроках родного языка. Обоснована необходимость интеграции целей устойчивого развития и компетенций UNESCO ESD в образовательный процесс. Используя дизайн-ориентированную методологию, автор демонстрирует эффективность CLIL-сценариев, аутентичных текстов, дискуссий и критериального оценивания в развитии экологического мышления, речевой культуры, критического анализа и социальной ответственности школьников. Полученные результаты отражают положительные изменения в педагогической практике и рост экологической грамотности учащихся. Также рассмотрены ограничения исследования и предложены направления дальнейших разработок.*

Ключевые слова: *экологическая культура, обучение родному языку, CLIL, устойчивое развитие, экологические компетенции, критериальное оценивание, дизайн-ориентированное исследование.*

Abstract. *The article examines the theoretical foundations and practical approaches to fostering environmental culture among students in native-language instruction. The author substantiates the integration of Sustainable Development Goals and UNESCO ESD competencies into the language education process. Applying a design-based research methodology, the study demonstrates the effectiveness of CLIL scenarios, authentic texts, debates, and criterion-referenced assessment tools in developing students' environmental thinking, academic language skills, critical reasoning, and social responsibility. The results indicate notable improvements in teachers' instructional practices and the holistic growth of students' ecological literacy. The article also highlights limitations and outlines directions for future research.*

Keywords: *environmental culture, native language education, CLIL, sustainable development, ESD competencies, criterion-referenced assessment, design-based research.*

Kirish. Barqaror rivojlanish kun tartibi ta’lim tizimi oldiga yangi maqsad va vazifalarni qo‘yadi: o‘quvchilar nafaqat ekologik muammolarni tushunishlari, balki ularni til vositasida anglash, mulohaza qilish va ijtimoiy harakatga tayyor bo‘lish kompetensiyalarini egallashlari lozim. Bu jarayonda ona tili fanining o‘rni alohida: til — ma’no yaratish, qadriyatlar singdirish va tafakkurni shakllantirish vositasidir. Shu bois, ona tili darslari ekologik madaniyatni shakllantirish uchun kuchli platforma hozirlaydi: ekologik mavzudagi matnlarni tahlil qilish, savol-javob va debatlar, ijodiy yozish va til bo‘g‘inlariga doir mashqlar orqali o‘quvchida ekologik tafakkur, ekologik etika va mas’uliyat hissi rivojlanadi [1], [2].

Ekologik madaniyat tushunchasi ko‘p qirrali: u bilim (ekotizimlar, resurslar, ifloslanish), munosabat (qadriyatlar, empatiya, asosli xavotir), va xulq-atvor (kundalik ekologik amaliyotlar) komponentlaridan tashkil topadi. UNESCOning Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives hujjati umumiy kompetensiyalar qatorida systems thinking, anticipatory competence, normative competence, collaboration va critical thinkingni belgilaydi; ularning barchasi til orqali konstruktiv muloqot va ma’no qura olish bilan bevosita bog‘liq [1]. Demak, ona tili ta’limining maqsad va mazmunini ekologik kompetensiyalar bilan integratsiya qilish pedagogik va ijtimoiy jihatdan asoslidir. Bu jarayon 2030 Agendaning ta’limga doir maqsadlari (SDG 4.7) bilan hamohang [2].

Metodlar. Tadqiqot metodologiyasi dizaynga asoslangan tadqiqot (design-based research) tamoyillariga suyanadi: 1) nazariya va amaliyotni bog‘lash; 2) real dars muhitida interaktiv qo‘llanish; 3) o‘qituvchi va tadqiqotchining hamkorlikdagi refleksiyasi; 4) natijaga ko‘ra modelni takomillashtirish. Quyidagi metodlar majmuasi ishlatildi:

- Dastur va darslik tahlili: amaldagi ona tili dasturlari va darsliklarida ekologik mavzular ulushi, leksik- grammatik material bilan uzviyligi kontent-tahlil asosida baholandi [1].

CLIL asosida ssenariylar ishlab chiqish: dars ssenariylari ekologik mazmun (masalan, chiqindilarni saralash, suv tejamkorligi, bio rang-baranglik) va til maqsadlarini (leksik maydonlar, matn turi, dalillash nutqi) integratsiya qiladi [5].

- Sotsiomadaniy yondashuv: o‘quvchining rivojlantiruvchi usullar: jamoaviy o‘qish, juftlikda ishlash [3].

-so‘rov va kuzatuv natijalari: o‘qituvchi va o‘quvchi refleksiyalari, dars kuzatuv protokollari, yozma ishlar namunalari yig‘ildi.

- Kriterial baholash: ekologik madaniyat indikatorlari (bilim, munosabat, xulq-atvor) va til kompetensiyalari bo‘yicha analitik rubrikalar yaratildi [1], [6].

Dars dizaynida quyidagi didaktik elementlar asosiy o‘rin tutdi:

- Ma’no yaratuvchi autentik matnlar: ilmiy-ommabop maqola parchalari, infografikalar, intervyu va ocherklar (mahalliy kontekstni inobatga olgan holda).

- Hujjatli janrlar: murojaatnoma, muhokama maktubi, nuqtayi nazar esselari — dalil va xulosa qurish mashqlari.

- Leksik-semantik maydonlar: “resurs”, “ifloslanish”, “barqarorlik”, “mas'uliyat”, “qayta ishlash” kabi sohalovchi sözlar bilan ishlash.

- Dialogik strategiyalar: debat, “galereya aylanuvi”, “fishbowl”, tadqiqot savollari.

Natijalar. Interaktiv qo‘llanish natijasida quyidagi sifat ko‘rsatkichlari kuzatildi:

1) Til kompetensiyalarida o‘sish. Ekologik mazmunli matnlar asosida o‘quvchilarning akademik lug‘ati kengaydi: abstrakt tushunchalar (masalan, “barqaror iste’mol”, “tabiat kapitali”)ni kontekstda qo‘llash, dalillash, nutqida holat va sabab-oqibat bog‘lovchilarni vazifali ishlatish ko‘nikmalari mustahkamlandi [5], [7]. Yozma ishlarida janr talablariga rioya qilish, manbadan iqtibos keltirish va manbaga tayanayotganini til qurilishida to‘g‘ri ifoda etishga intilish sezildi.

2) Ekologik savodxonlikda integrativ o‘sish. UNESCO tavsiya etgan kompetensiyalarnieng kamida uchtasi — systems thinking, collaboration, critical thinking — mashg‘ulotlarda kuzatuvdan o‘tdi: o‘quvchilar ekologik muammolar sabab-oqibat zanjirini tuzish, manfaatdor tomonlar qarashini solishtirish va yechim variantlarini baholashda faol bo‘ldi [1].

3) Munosabat va xulq-atvor indikatorlari. Oilaviy va maktab loyihalari (masalan, qog‘oz tejash rejasi, sinf sathi “suv hisobi” tajribasi)ga qo‘shilish motivatsiyasi oshdi. Yozma refleksiyalarda

empatiya, mas’uliyat, “kichik qadam” strategiyasi (“kamaytirish–qayta ishlash–qayta foydalanish”) tilda ifoda etildi [6], [7].

4) O‘qituvchi amaliyotida o‘zgarish. O‘qituvchilar CLIL rejalashtirish jadvali (mazmun maqsadlari × til maqsadlari × baholash mezonlari)ni o‘z faniga moslashtirishni boshladi; formativ baholash vositalari (tarqatmalar, tezkor refleksiya kartochkalari) qo‘llandi [5].

Muhokama. Olingan natijalar til va mazmun integratsiyasi hisobidan yuzaga kelgan o‘quv sinergiyasini ko‘rsatadi. CLIL bilanishlash til maqsadlarini aniqlash (leksik- grammatik konstruksiyalar, janr xususiyatlari) va ekologik mazmun bilan bog‘lash imkonini beradi. Bunda sotsiomadaniy yondashuv o‘quvchining kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi: Vigotskiy ta’kidlaganidek, yuqori psixik funksiyalar ijtimoiy hamkorlik va til vositasida ichkilashadi [3]. Buni darsdagi birgalikdagi jadval tuzish, rolli bahslar va “o‘qituvchi–o‘quvchi” hamkorligi yaqqol namoyon etadi.

Dyuining mashhur fikri bor: “Education is not preparation for life; education is life itself” [4]. Muallif sifatida bu iqtibosni ikki jihatdan muhim, deb hisoblayman: birinchi, ekologik madaniyatni keyingi hayot uchun emas, aynan bugungi o‘quv amaliyotining o‘zagi sifatida talqin qilishga undaydi; ikkinchi, til darsini “hayotning o‘zi”ga yaqinlashtiradigan haqiqiy vazifalar (jamoa bilan ishlash, ommaviy axborot uchun qisqa maqola, mahalliy muammoga yechim taklifi)ni markazga qo‘yadi. Shunday vazifalar o‘quvchini faqat til nazariyalari emas, mazmun va qadriyatlar olami bilan bevosita muloqotga kiritadi [4], [7].

Tilburyning ta’kidlashicha, barqarorlik uchun ta’lim an’anaviy axborot uzatishdan tashqari, qiymatlar, ishtirok va transformatsiyaga yo‘nalishi lozim [6]. Ona tili darsi buni amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydigan qulay maydon: dialogik muhitda dalillash, raqamli va vizual matnlarni tanqidiy o‘qish, nutq etikasi va axborot madaniyati bilan birga ekologik etikani ham o‘rgatadi.

Sterling ta’limni “re-visioning” qilishni taklif etadi: bunda o‘quv jarayoni o‘zaro bog‘liq tizimlar asosida qayta dizayn qilinadi, o‘rganishning maqsadi esa shunchaki “o‘rganish uchun o‘rganish” emas, balki o‘zgarish yaratish uchun o‘rganish bo‘lishi lozim [7]. Ushbu yondashuv til ta’limidagi janrlar tizimini ham qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Xususan, ekologik hisobot, siyosiy tavsiyanoma, ilmiy-ommabop sharh kabi amaliy ahamiyatga ega janrlarni muntazam o‘rgatish ta’limning transformativ maqsadiga xizmat qiladi.

Biroq bir qator cheklovlar mavjud. Birinchidan, o‘qituvchilarning CLIL bo‘yicha metodik tayyorgarligi yetarli bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatda qisqa ssenariylar banklarini yaratish, hamkorlikda dars o‘tish amaliyotini yo‘lga qo‘yish hamda masofaviy tajriba almashuv platformalarini rivojlantirish muhimdir [5]. Ikkinchidan, baholash masalasi dolzarbligicha qolmoqda: ekologik madaniyat ko‘rsatkichlarini oddiy testlar bilan baholab bo‘lmaydi, buning uchun criteria-referenced (mezonlarga asoslangan) batafsil rubrikalar ishlab chiqilishi zarur [1]. Uchinchidan, manba yetishmovchiligi muammosi mavjud. Bu ehtiyojni qoplash uchun mahalliy kontekstga mos, yosh xususiyatlariga muvofiq ekologik matnlar korpusini yaratish talab etiladi. Korpus til darajasiga ko‘ra segmentlangan, janriy jihatdan rang-barang bo‘lgan va interfaol multimedia elementlari bilan boyitilgan bo‘lishi kerak.

Xulosa. Maqola ona tili darsida ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy yo‘l-yo‘riqlarini bayon etdi. Til — ma’no, qadriyat va xulq-atvorni integratsiya qila oladigan ta’limiy vosita sifatida barqaror rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Quyidagi amaliy qadamlar tavsiya etiladi:

- Dars rejalashtirish xaritasi: (mazmun maqsadlari × til maqsadlari × faoliyat × baholash mezonlari) shaklida har bir dars uchun qisqa reja yozish.

- Didaktik korpus: 5–9-sinflar uchun ekologik mavzudagi tushuntiruv-maqola, intervyu, qo‘llanma/chek-listdan kamida 10 tadan matn tayyorlash; har bir matn bilan lug‘at kartasi, savollar, o‘z-o‘zini baholash varag‘i.

- Dialogik o‘qish: “savol so‘rash—javob qilish—qayta so‘rash” sikllarini joriy qilish; debat formatida pozitsiya-dalil-xulosa tuzilmasini o‘rgatish.

- Kriterial baholash: ekologik madaniyat indikatorlari (bilim, munosabat, xulq) uchun 4 darajali rubrika; til uchun janr-spetsifik indikatorlar (tezis aniqligi, dalil sifati, bog‘lovchilar, uslub).

- Uchrashuv va xizmat o‘rganish (service learning): mahalliy maktab loyihalari (masalan, qog‘oz tejash kampaniyasi)ni yozma va og‘zaki kommunikatsiya vazifalari bilan bog‘lash.

- O‘qituvchi uchun mikro-ta'lim modullari: CLIL kirish kursi, rubrika tuzish, autentik matnlarga ishlov berish, debatni fasilitatsiya qilish.

Chegaralar va kelgusidagi ishlar

Bu yondashuvni keng ko‘lamda joriy etish uchun o‘qituvchilarning kasbiy hamkorligini mustahkamlash, raqamli resurslar platformasini ishga tushirish va darsliklar ichida ekologik mazmunni tizimli integratsiya qilish lozim. Kelgusidagi tadqiqotlar: 1) uzoq muddatli ta'sirni o‘lchash (ko‘nikmalarning barqarorligi), 2) baholashning ishonchliligi va haqqoniyligini psixometrik tekshirish, 3) turli ijtimoiy-iqtisodiy kontekstlarda modelning adaptatsiyasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: UNESCO, 2017. — 62 bet.

2. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations, 2015. — 41 bet.

3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 176 bet.

4. Dewey, John. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938. — 96 bet.

5. Coyle, Do; Hood, Philip; Marsh, David. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. — 184 bet.

6. Tilbury, Daniella. Environmental education for sustainability: Defining the new focus of environmental education in the 1990s. Environmental Education Research, 1995, 1(2), 195–212 bet.

7. Sterling, Stephen. Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change. Totnes: Green Books, 2001. — 96 bet.

UO'K 37.02

PROFESSIONAL INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA VAZIFAGA ASOSLANGAN O‘QITISH (TASK-BASED LEARNING) NING SAMARADORLIGI

D.S.Usmonova, PhD, dots., Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona
S.S.Mo‘minova, magistrant, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Ushbu maqola professional ingliz tilini o‘rgatishda Vazifaga Asoslangan O‘qitish (Task-Based Learning — TBLT) metodining samaradorligini ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qiladi. TBLT modeli real kommunikativ vazifalar, professional kontekstga mos topshiriqlar va talabalarning faol ishtirokiga asoslanadi. Tadqiqotda texnik, iqtisodiy va gumanitar yo‘nalish talabalari bilan olib borilgan dars jarayonlari kuzatilib, TBLTning kasbiy leksika, og‘zaki nutq, muammoli vaziyatni hal qilish ko‘nikmalari va jamoaviy muloqotni rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *professional ingliz tili, TBLT, vazifaga asoslangan o‘qitish, kommunikativ kompetensiya, ESP, kasbiy muloqot.*

Аннотация. *В статье рассматривается эффективность обучения профессиональному английскому языку на основе выполнения задач (Task-Based Learning — TBLT). Подход TBLT предполагает использование реальных коммуникативных заданий, профессионально ориентированных ситуаций и активного участия студентов. В исследовании проанализированы занятия, проведённые со студентами технических, экономических и гуманитарных направлений, что позволило выявить влияние TBLT на развитие профессиональной лексики, устной речи, навыков решения проблем и командной коммуникации.*

Ключевые слова: *профессиональный английский язык, TBLT, обучение на основе задач, коммуникативная компетенция, ESP, профессиональная коммуникация.*

Abstract. *This article examines the effectiveness of Task-Based Learning (TBLT) in teaching Professional English. TBLT emphasizes real communicative tasks, professionally oriented activities, and active student engagement. The study includes observations of TBLT-based lessons conducted with students from technical, economic, and humanities fields. Results demonstrate that TBLT*

significantly improves domain-specific vocabulary acquisition, oral communication skills, problem-solving abilities, and teamwork-based interaction within professional contexts.

Keywords: *professional English, TBLT, task-based learning, communicative competence, ESP, professional communication.*

Kirish. Global mehnat bozorida ingliz tilining mavqei, ayniqsa professional muloqotda, nihoyatda ortib bormoqda. Texnologiya, muhandislik, biznes, tibbiyot, axborot texnologiyalari kabi sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar kundalik ish jarayonida xalqaro hamkorlar bilan yozishmalar olib boradi, loyiha taqdimotlari qiladi, muzokaralar olib boradi va texnik hujjatlar bilan ishlaydi. Bunday sharoitda ingliz tilidagi samarali kommunikatsiya ko‘nikmasi nafaqat qo‘shimcha ustunlik, balki kasbiy zaruriyatga aylanmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy til ta'limi konsepsiyalari tilni «qoida va lug‘atlar majmuasi» sifatida emas, balki «haqiqiy kommunikativ faoliyat vositasi» sifatida ko‘rishni taklif etadi. Ayniqsa, kasbiy ingliz tili (ESP) ta'limi til o‘rganuvchini kasbiy kontekstga moslashtirilgan vaziyatlar orqali tayyorlashi zarur.

Task-Based Learning (TBLT) — kommunikativ yondashuvning zamonaviy shakli bo‘lib, o‘quvchilarning tilni real kommunikativ maqsadlarda qo‘llashini rag‘batlantiradi. Bu usul, ayniqsa kasbiy ingliz tili (ESP) darslarida samarali bo‘lib, talabalarni haqiqiy mehnat muhitiga yaqinlashtiradi

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi bir nechta o‘zaro to‘ldiruvchi yondashuvlarga tayandi. Ularning uyg‘un qo‘llanilishi o‘quv jarayonidagi real o‘zgarishlarni chuqurroq tahlil qilish va TBLTning haqiqiy samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Avvalo, tadqiqot aralash tadqiqot dizayniga (mixed-methods) asoslandi, bu esa miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda talabalar va o‘qituvchilarning sifat jihatidagi tajriba va mulohazalarini ham hisobga olishga imkon berdi.

Tadqiqot davomida dars jarayonlari tizimli ravishda kuzatildi. Kuzatuvlar nafaqat talabalar faoliyatini qayd etishga, balki ularning vazifa jarayonida qanday til birliklaridan foydalanishi, qanday strategiyalarni qo‘llashi va muammoli vaziyatlarni qanday hal qilishi kabi jarayonlarni aniqlashga yordam berdi. O‘qituvchining refleksiv kundaliklari esa o‘qitish jarayonida yuzaga kelgan muammolar, talabalar faolligi, darsning kommunikativ dinamikasi va TBLT topshiriqlarining real samaradorligi haqida muhim ma'lumotlar taqdim etdi.

Talabalar bilan o‘tkazilgan yarim strukturaviy suhbatlar TBLTning psixologik va motivatsion ta'sirini yoritdi. Suhbatlar orqali aniqlanishicha, vazifa asosidagi o‘qitish talabalarni erkin fikr bildirishga, kasbiy mavzularda muloqot qilishga va o‘z fikrini bahona izlamasdan ochiq ifodalashga undagan.

Eksperimental mashg‘ulotlar 4 haftalik TBLT dasturi asosida tashkil etildi. Har bir haftada talabalar “pre-task → task cycle → post-task” modeli asosida ishladilar. Pre-task bosqichida talabalarga kasbiy kontekstga mos materiallar — diagrammalar, texnik tavsiflar, qisqa videolar yoki muammoli vaziyatlar taqdim etildi. Task cycle jarayonida talabalar real kasbiy vaziyatlarga yaqin bo‘lgan topshiriqlarni bajarishdi: jamoada muammoni hal qilish, mijoz bilan muzokara simulyatsiyasi, loyiha taqdimoti, rol o‘ynash kabi topshiriqlar shular jumlasidan. Post-task esa talabalarning nutqiy faoliyatini umumlashtirish, grammatik va leksik birliklarni tahlil qilish va dars jarayonidagi xatolar ustida ishlashga yo‘naltirildi. Ishtirokchilar sifatida texnik va iqtisodiy yo‘nalishlarda ta'lim olayotgan 56 nafar talaba jalb etildi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar TBLTning kasbiy ingliz tili o‘qitishdagi samaradorligini bir nechta yo‘nalishlarda yaqqol namoyon etdi.. Ular vazifalarni bajarish davomida ingliz tilidan ko‘proq foydalanishga moyil bo‘lib, o‘z fikrini aniq formulalash, kasbiy tushunchalarni izohlash va muloqotda faol ishtirok etish qobiliyatini namoyon etdilar. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, TBLT asosidagi mashg‘ulotlarda ishtirok etgan talabalar muammoli vaziyatlarni hal qilishda ham yuqori faollik ko‘rsatgan. Ular topshiriq davomida jamoada mas'uliyatni taqsimlash, takliflarni asoslash, qarorlarni himoya qilish kabi jarayonlarda ancha ishonchli harakat qildilar.

Muhokama. Olingan natijalar TBLTning o‘qitish jarayoniga bir nechta ijobiy pedagogik mexanizmlar orqali ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Eng muhim jihatlardan biri — talabalar nutqini erkinlashtirish va muloqotga psixologik tayyorlikni oshirishdir. Topshiriqlar talabalarning tashabbus

ko‘rsatishiga, turli nutq strategiyalarini sinab ko‘rishiga, xatolardan qo‘rqmasdan tajriba qilishiga imkon yaratdi. Shuningdek, TBLT modelining samaradorligi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikatsiya shaklining o‘zgarishida ham ko‘rindi. O‘qituvchi nazorat qiluvchi subyekt emas, balki jarayonni yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va fikr almashish muhitini yaratuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ldi. Bunday yondashuv talabalarda mustaqillik, mas’uliyat va tashabbuskorlikni kuchaytiradi.

Albatta, TBLT har doim ham soddalik bilan qo‘llaniladigan model emas. Uning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchidan puxta tayyorgarlik, topshiriqlarni to‘g‘ri tanlash va darsning har bir bosqichini izchil rejalashtirish talab etiladi. Shu bilan birga, TBLTning natijalari shuni ko‘rsatadiki, uning qo‘llanishi an’anaviy metodlardan ko‘ra ko‘proq o‘zlashtirish, faollik va kasbiy muloqotga tayyorlikni ta’minlaydi. Ushbu muloqotning umumiy xulosasi shundaki, TBLT modeli kasbga yo’naltirilgan til o’qitish ta’limida amaliy kommunikatsiya, kasbiy fikrlash va real vazifalar orqali bilimlarni mustahkamlash uchun eng samarali didaktik yondashuvlardan biri sanaladi Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, talabalar vazifalar jarayonida motivatsiya jihatidan ham ancha faol bo‘ldi.

Biroq TBLTning cheklovlari ham mavjud:

- o‘qituvchidan yuqori darajadagi tayyorgarlik talab etiladi,
- barcha topshiriqlar kasbiy kontekstga mos bo‘lishi shart,
- vaqtni ko‘proq talab qiladi.

Shunga qaramay, TBLT modeli kasbiy ingliz tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda an’anaviy metodlardan ustun ekanini isbotladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan natija va tahlillar TBLTning kasbiy ingliz tilini o’qitish ta’limida o‘ziga xos va kuchli didaktik imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Vazifaga asoslangan o‘qitish jarayoni talabalarni sun’iy mashqlar orqali emas, balki real kasbiy muloqotga yaqinlashgan topshiriqlar orqali faol nutqiy muhitga olib kiradi. Aynan shuning uchun talabalar o‘zlarining nutqiy faolligi, texnik terminlarni o‘zlashtirish darajasi, fikrni mantiqiy ifodalash qobiliyati va jamoada ishlash ko‘nikmalari bo‘yicha sezilarli o‘sish namoyon qildilar.

Tadqiqot davomida kuzatilgan o‘zgarishlar TBLTning uch asosiy afzalligini yaqqol ko‘rsatdi: birinchidan, u talabaning kommunikativ ehtiyojini uyg‘otadi va nutqiy jarayonni tabiiy muhitga yaqinlashtiradi; ikkinchidan, kasbiy kontekstga mos topshiriqlar orqali talabaning tilni amaliy qo‘llash motivatsiyasini kuchaytiradi; uchinchidan, jamoaviy topshiriqlar orqali talabalar o‘zaro muvofiqlashuv, kelishuvga erishish va kasbiy muloqot strategiyalarini o‘zlashtiradi.

TBLTning o‘qitishdagi samarasini yanada oshirish uchun o‘qituvchidan puxta rejalashtirish, kontekstga mos topshiriqlar ishlab chiqish va o‘quv jarayonining har bir bosqichini aniq maqsadga yo‘naltirish talab etiladi.

Demak, TBLT — kasbga yo’naltirilgan ingliz tili o‘qitishning eng zamonaviy, samarali va amaliy jihatdan asosli yondashuvlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ellis, R. Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford University Press, 2003.
2. Willis, J. A Framework for Task-Based Learning. Longman, 1996.
3. Long, M. Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching. Wiley-Blackwell, 2015.
4. Richards, J. C. & Rodgers, T. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
5. Skehan, P. Tasks in Second Language Learning. Cambridge University Press, 1998.
6. Carless, D. The Implementation of Task-Based Teaching in Primary Schools. ELT Journal, 2007.

UO’K 37.01:371.1(575)

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA PEDAGOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA’MINLASH VA ULARNING IJTIMOIY MAQOMINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

A.X. Vaisov, PhD, dots., Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi, Xiva

Annotatsiya. *Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning qarorlari ijrosi*

tahliliga bag'ishlangan. Unda o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini oshirish hamda ta'lim sifatini ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalar yoritilgan.

Kalit so'zlar:*Ta'lim islohotlari, o'qituvchilar imtiyozlari, kasbiy ta'lim, ta'lim sifati, pedagog kadrlar, malaka oshirish, yoshlar bandligi, maktabgacha ta'lim*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу широкомасштабных реформ, направленных на развитие системы образования в Республике Узбекистан, в частности, выполнению постановлений Президента. В ней освещаются приоритетные задачи по повышению социально-экономического статуса учителей и наставников и обеспечению качества образования.*

Ключевые слова: *Реформы образования, льготы для учителей, профессиональное образование, качество образования, педагогические кадры, повышение квалификации, занятость молодежи, дошкольное образование,*

Abstract. *This article analyzes the large-scale reforms aimed at developing the education system in the Republic of Uzbekistan, focusing on the execution of Presidential decrees. It highlights the priority tasks of increasing the socio-economic status of teachers and mentors and ensuring the quality of education.*

Keywords: *Education reforms, teacher privileges, vocational education, quality of education, pedagogical staff, professional development, youth employment, Preschool education*

Kirish: Ta'lim tizimining rivojlanishi har qanday davlatning strategik ustuvorligi hisoblanib, mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar zaminida inson kapitalini rivojlantirish markaziy o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy maqsadi — Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdir. Bu ulug'vor maqsadga erishishda ta'lim tizimi, xususan, uning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan pedagog kadrlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Muallimning obro'yi oshsa — maktabning obro'yi oshadi, maktabning obro'yi oshsa — ilmning, ta'lim va tarbiyaning qadri oshadi".

Yangi O'zbekiston sharoitida o'qituvchilarning kasbiy o'sishi eski "qolip"dagi malaka oshirish tizimidan tubdan farq qiladi. Bugungi kunda asosiy e'tibor quyidagi yo'nalishlarga qaratilmoqda:

Pedagoglarning har 5 yilda emas, balki "hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida doimiy o'z ustida ishlashi uchun raqamli platformalar (masalan, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" platformasi) joriy etildi. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'z fanini, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, sun'iy intellekt vositalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qila olishi talab etilmoqda. Ilg'or xorijiy davlatlarning (Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya) ta'lim metodikalarini o'zlashtirish va milliy dasturlarga moslashtirish jarayoni jadallashdi. Pedagoglarning toifasini belgilashda endilikda inson omili kamaytirilib, shaffof va adolatli baholash tizimi yo'lga qo'yildi. Bu esa o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga motivatsiya qilmoqda.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son hamda 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarorlari uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan fundamental qadamlar bo'ldi. Biroq, ta'limga yo'naltirilgan ulkan moliyaviy resurslarga va ko'plab imtiyozlarga qaramay, Prezident tomonidan ta'kidlanganidek, "Qamrov oshdi, lekin sifat bo'yicha qiladigan ishlarimiz ko'p" degan tanqidiy yondashuv islohotlarning amaliy natijalarini ilmiy jihatdan tahlil qilishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini transformatsiya qilishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini, xususan, o'qituvchi maqomini oshirish va ta'lim sifatini ta'minlash borasidagi mexanizmlarni tizimli tahlil qilishdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

Ta'lim sohasiga yo'naltirilgan moliyaviy sarmoyalarning (so'nggi 7-8 yilda 6 karra o'sish) hajmi va uning natijalarga ta'sirini statistik tahlil qilish.

O‘qituvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga qaratilgan ipoteka, ta’lim va kredit imtiyozlarining samaradorligini o‘rganish.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimidagi (zinama-zina, formal bo‘lmagan kurslar) yangiliklarning amaliy jihatlarini muhokama qilish.

Ta’lim sifati, yoshlar bandligi va maktabgacha ta’lim qamrovi borasidagi miqdoriy yutuqlar hamda ularni takomillashtirish lozim bo‘lgan muammoli jihatlarni aniqlash.

O‘zbekiston ta’lim tizimidagi transformatsiyani bir nechta (ijtimoiy, moliyaviy, pedagogik) aspektlarni qamrab olgan holda kompleks va tizimli tahlil qilinadi. Ayniqsa, eng so‘nggi hukumat qarorlari va rasmiy raqamlar asosida tizimdagi miqdoriy o‘sish va sifatni ta’minlash o‘rtasidagi nomutanosiblik (Prezident iqtiboslari orqali ifodalangan) masalasiga e’tibor qaratiladi. Ushbu tahlil sohadagi amaliy muammolarni hal qilish va islohotlarni yanada samarali davom ettirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

“Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi esa sohada bu borada katta o‘zgarish yasadi. Mazkur Qonun bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari va ijtimoiy kafolatlari mustahkamlandi. Majburiy mehnatga qo‘yilgan cheklovlar, o‘qituvchilarni obodonlashtirish, qishloq xo‘jaligi va boshqa profilga xos bo‘lmagan ishlarga jalb qilish qat’iyan taqiqlandi. Qog‘ozbozlikni qisqartirish hamda pedagoglardan talab qilinadigan hisobotlar va hujjatlar soni keskin kamaytirildi, jarayonlar raqamlashtirildi. Bugungi kunda pedagoglarni moddiy rag‘batlantirish va ularning oylik maoshlari bosqichma-bosqich oshirilib, malaka toifasiga qarab ustamalar to‘lash tizimi ham takomillashtirildi. Pedagoglar uchun ipoteka kreditlari va iste'mol kreditlari bo‘yicha imtiyozli shartlarning joriy etilishi, imtiyozli kreditlar va uy-joy masalalarining ijobiy o‘zgarishlaridandir.

Davlat tibbiyot muassasalarida profilaktik ko‘rikdan bepul o‘tish va sanatoriy-kurortlarda davolanish uchun imtiyozlar, pedagoglarning farzandlarini bog‘chaga qabul qilishda yoki oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishda ma’lum imtiyozlar ham sohada erishilgan muhum masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili: Ta’lim tizimini isloh qilish va o‘qituvchi kasbining ijtimoiy maqomini oshirish masalalari xalqaro miqyosda ham, milliy darajada ham ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markazida turadi. Xalqaro tajribani o‘rganish, xususan, PISA (The Programme for International Student Assessment) testlarida yuqori natijalarni ko‘rsatgan mamlakatlarning tajribasi (masalan, Finlyandiya, Singapur), ta’lim tizimining muvaffaqiyati bevosita pedagog kadrlar sifati va ularga berilgan ijtimoiy e'tibor bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’lim sohasiga oid strategik bayonotlari, jumladan, “O‘qituvchi va murabbiylik kasbini jamiyatimizdagi eng muhim va obro‘li kasbga aylantirish bo‘yicha boshlagan ishlarimiz izchil davom ettiriladi” degan konsepsiya asosiy nazariy-metodologik zamin sifatida qabul qilindi. Ushbu bayonotlar ta’lim tizimidagi yangilanishlarning nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy-axloqiy ahamiyatga egaligini ta’kidlaydi.

Akmeologiya kamolot yoki balog‘at psixologiyasini bildiruvchi tushuncha sifatida N.A.Ribnikov tomonidan kiritilgan bo‘lib, akmeologiyaning fan sifatida yanada rivojlanishi A.A.Bodalevning asarlari bilan bog‘liq [1].

A.K.Markovaning fikriga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tayyorlik darajasi bilan kasbni egallash yo‘llari o‘rtasida bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olish muhimligini aytib o‘tgan [2].

Muhokama: Ta’lim islohotlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida, asosiy e’tibor so‘nggi 7-8 yilda 6 karra o‘sish, tizimga ajratilgan moliyaviy sarmoyalar va bevosita pedagog kadrlar siyosatiga qaratilgan islohotlar, va o‘qituvchilar maqomini kuchaytirishdagi mexanizmlar samaradorligi muhokamaning markaziy qismini tashkil etadi.

Ta’lim sohasida ishlovchilar uchun joriy etilgan ijtimoiy imtiyozlar (ipoteka kreditlari bo‘yicha 25% qoplash, 30% to‘lov-kontrakt chegirmasi, 10 mln so‘mgacha kompyuter krediti) o‘qituvchilik kasbini moddiy jihatdan rag‘batlantirishga qaratilgan muhim qadamdir.

Malaka oshirish tizimi transformatsiyasi masalalari Prezident ta’kidlaganidek, “Ta’limda sifat bo‘lishi uchun eng avvalo pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi bunga tayyor bo‘lishi

kerak." Bu fikr eski formal malaka oshirish tizimidan voz kechish va uni zinama-zina, amaliyotga yo'naltirilgan (trener – yetakchi o'qituvchi – umumiy jamoa targ'iboti) metodika bilan almashtirish zarurligini ko'rsatadi. Malaka oshirish tizimidagi bu o'zgarishlar ijobiy tendensiya bo'lishiga qaramay, amaliyotda pedagoglarning yangi metodikalarni to'liq o'zlashtirishi va ularni sinfda qo'llay olish darajasi savol ostida qolmoqda. Shuningdek, 38 mingdan ziyod maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud bo'lishiga qaramay, qamrov oshishi bilan birga sifatni saqlab qolish va bog'chalarni "ilk ko'nikmalarni shakllantiradigan maskanga" aylantirish — asosiy yechimini kutayotgan muammodir.

Natijalar: Olib borilgan tizimli tahlil O'zbekiston ta'lim tizimining transformatsiyasida erishilgan quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatadiki so'nggi 7-8 yilda ta'lim tizimiga ajratilgan xarajatlar 6 karra oshib, 378 trln so'mni tashkil etgan. 2025-yilning o'zida 162 trln so'm ajratish rejalashtirilgan. Rasmiy statistika [3, 4] Ijtimoiy himoya yuqori toifali o'qituvchilarga ipoteka dastlabki to'lovining 25%i qoplanishi va farzandlariga 30% ta'lim chegirmasi joriy etildi. PQ-321-sonli qaror pedagogik rivojlanish, eskirgan kurslar o'rniga amaliyotga yo'naltirilgan, zinama-zina malaka oshirish tizimi joriy etildi. . PQ-321-sonli qaror da Maktabgacha ta'lim tashkilotlar soni 38 mingdan oshib (7 ming davlat, 31 mingdan ziyod xususiy), qamrov sezilarli darajada kengaydi. Tahliliy ma'lumot yoshlarni qamrab olishTurizm oyliklari, volontyorlik, "Zakovat" kabi loyihalar orqali millionlab yoshlar qamrab olindi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston hayotida pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni ijtimoiy himoya qilish masalasi islohotlarning asosiy mezoni bo'lishikerak. Davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar o'qituvchilarning o'z kasbini sevib, fidoyilik bilan ishlashiga zamin yaratmoqda. Faqatgina yuksak salohiyatli va ijtimoiy himoyalangan pedagoglargina Yangi O'zbekistonning intellektual salohiyatini shakllantirishga qodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tillayeva G. Akmeologiya asoslari: o'quv qo'llanma / G.Tillayeva. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "Tafakkur Bo'stoni", 2014. -192 b.

2. Bodalev A.A. "Akmeologiya o'quv va ilmiy intizom sifatida", - M., 1993.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

4. Inoyatov M.X. O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini transformatsiyalash (Monografiya). "Sharq".2023.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5085999.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son Qarori. https://lex.uz/docs/-5239538

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-321-son Qarori. https://lex.uz/ru/docs/-6981085

UDC 37.018.43 : 004.8

EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF AI-POWERED SPEAKING TOOLS IN IMPROVING PRONUNCIATION AND FLUENCY

M.A.Xoliqova, o'qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda sun'iy intellektga asoslangan speaking vositalarining ingliz tilini o'rganayotgan talabalar talaffuzi va ravonligini rivojlantirishdagi samaradorligi o'rganildi. Metodlar bo'limida 6 hafta davomida AI-powered ilovalar va chatbotlar yordamida eksperimental mashg'ulotlar o'tkazilib, natijalar maxsus mezonlar asosida baholandi. Tadqiqot natijalari talaffuzdagi xatolar kamaygani va ravon nutq sezilarli yaxshilangani-ni ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar muhokamasida AI vositalarining an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekani va mustaqil o'rganishni kuchaytirishi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, talaffuz, ravonlik, AI speaking tools, til o'rgatish metodikasi, raqamli pedagogika.*

Abstract. *This study examined the effectiveness of AI-based speaking tools in improving pronunciation and fluency among English language learners. In the methods section, a six-week experimental training using AI-powered applications and chatbots was conducted, and the results*

were assessed based on specific criteria. The findings showed a reduction in pronunciation errors and a significant improvement in speaking fluency. The discussion confirmed that AI tools are more effective than traditional methods and enhance independent learning.

Keywords: *artificial intelligence, pronunciation, fluency, AI speaking tools, language teaching methodology, digital pedagogy.*

Аннотация. *В данном исследовании изучалась эффективность инструментов для развития устной речи на основе искусственного интеллекта в улучшении произношения и беглости речи у изучающих английский язык. В методической части были проведены шестинедельные экспериментальные занятия с использованием AI-приложений и чат-ботов, а результаты оценивались по специальным критериям. Результаты показали снижение произносительных ошибок и заметное улучшение беглости речи. Обсуждение подтвердило, что AI-инструменты более эффективны по сравнению с традиционными методами и способствуют развитию самостоятельного обучения.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, произношение, беглость речи, инструменты устной речи ИИ, методика обучения языкам, цифровая педагогика.*

Introduction. Pronunciation and fluency are key elements of communicative competence, yet many EFL learners struggle with accurate pronunciation, proper intonation, and fluent speech. These difficulties are often caused by limited exposure to authentic input, lack of feedback, and psychological factors such as anxiety and low confidence, which prevent learners from achieving effective oral communication.

Recent advances in artificial intelligence (AI) have created new opportunities in language learning. AI-powered speaking tools such as speech recognition systems, pronunciation analysis apps, and chatbots provide instant, personalized feedback and allow learners to practice independently without pressure. However, the specific impact of these tools on improving pronunciation and fluency has not been sufficiently studied.

Methods. Re Design: This study used a mixed-methods quasi-experimental design to examine the effectiveness of AI-powered speaking tools on EFL learners' pronunciation and fluency. Pre- and post-tests measured quantitative changes, while surveys and interviews explored learners' perceptions and engagement with AI-based practice.

Participants: Forty intermediate-level undergraduate EFL learners were purposively selected and randomly assigned to an experimental group (n = 20) using AI tools and a control group (n = 20) following traditional oral activities. Ethical guidelines and informed consent were observed.

Instruments:

1. AI-Powered Speaking Tools: Applications with ASR, pronunciation scoring, fluency tracking, and chatbot dialogues providing real-time corrective feedback.

2. Speaking Performance Rubric: Adapted from CEFR and IELTS, assessing pronunciation, fluency, intonation, and lexical-grammatical range.

3. Learner Perception Survey & Interviews: Likert-scale survey and semi-structured interviews capturing attitudes, motivation, and satisfaction.

Procedure: Over six weeks, the experimental group practiced with AI tools three times weekly (25–30 min per session) using drills, shadowing, timed speaking tasks, and chatbot dialogues. The control group continued traditional oral practice.

Data Analysis: Pre- and post-test scores were analyzed using paired- and independent-sample t-tests, with effect sizes calculated. Qualitative data were thematically coded to explore engagement, motivation, and perceived benefits. Integrating both data types enhanced the study's validity.

Literature review. Research on pronunciation and fluency development has evolved considerably over the past decades, with scholars emphasizing the centrality of spoken proficiency in communicative language learning. Traditional approaches to pronunciation instruction—such as phonetic drills, teacher modeling, and controlled practice—have been shown to be effective but limited in providing individualized, continuous feedback (Derwing & Munro, 2015). This limitation has encouraged researchers to explore technology-enhanced solutions capable of delivering more

consistent and personalized support.One major strand of literature focuses on computer-assisted language learning (CALL) and its contribution to oral skills. Studies indicate that digital tools can enhance pronunciation accuracy by offering visualized feedback on stress patterns, intonation contours, and segmental sounds (Levis, 2018). However, early CALL tools lacked adaptive intelligence and were restricted to fixed exercises, prompting the need for more dynamic and interactive systems.With the emergence of artificial intelligence, recent research highlights the transformative potential of AI-driven platforms in second language acquisition. AI-powered speaking tools integrating automated speech recognition (ASR) and machine learning algorithms can evaluate learners' speech in real time, detect phonological deviations, and provide immediate corrective suggestions (Li et al., 2022).

Despite these advancements, scholars note persistent gaps. Many studies focus on general language proficiency rather than specifically analyzing the dual impact of AI on both pronunciation and fluency. Moreover, existing research often lacks robust experimental designs or comparative analyses between AI-based and traditional pedagogical approaches. Another gap lies in understanding learners' perceptions of AI tools—particularly how motivational, psychological, and usability factors influence the effectiveness of AI-assisted practice.

Results. The analysis of quantitative and qualitative data revealed significant improvements in pronunciation and fluency among learners who used AI-powered speaking tools during the six-week intervention.

1. Pronunciation Accuracy:Pre-test scores indicated that both groups had comparable baseline proficiency ($p > .05$). Following the intervention, the experimental group exhibited a substantial improvement in pronunciation, with an average increase of 23%, compared to 8% in the control group. Paired-sample t-tests confirmed that the experimental group's gains were statistically significant ($p < .001$), whereas improvements in the control group were marginal ($p < .05$). Notable enhancements were observed in phoneme clarity, word stress, and intonation.

2. Fluency and Coherence:The experimental group also demonstrated significant gains in fluency, including increased speech rate, fewer hesitations, and smoother transitions between phrases. Average speech rate rose by 18 words per minute in the experimental group, compared to 5 words per minute in the control group. Independent-sample t-tests indicated a significant between-group difference at post-test ($p < .01$). Learners attributed these improvements to repetitive practice with AI chatbots, which promoted extended speech production and automaticity in responses.

3. Overall Oral Proficiency:When combining pronunciation and fluency measures, the experimental group achieved greater overall oral proficiency gains (27%) than the control group (10%). Inter-rater reliability was high ($r = 0.89$), confirming consistent evaluation across assessors. Qualitative feedback suggested that AI tools were intuitive, flexible, and allowed learners to practice independently, supporting both skill development and learner motivation.

Conclusion. The present study examined the effectiveness of AI-powered speaking tools on improving pronunciation and fluency among EFL learners over a six-week period. The results showed significant improvement in pronunciation accuracy, intonation, stress, and speech rate, with fewer hesitations and greater coherence.

Overall, the findings confirm that AI-based speaking tools provide valuable support alongside traditional instruction by offering personalized feedback and flexible practice. In conclusion, AI technologies represent an effective and innovative approach to enhancing learners' oral communication skills.

REFERENCES:

1. Derwing, T. M., & Munro, M. J. (2015). Pronunciation fundamentals: Evidence-based perspectives for L2 teaching and research. Amsterdam: John Benjamins Publishing.

2. Levis, J. M. (2018). Computer-assisted pronunciation training: Theoretical perspectives and practical applications. Language Teaching, 51(3), 343–367. https://doi.org/10.1017/S0261444817000268

3. Li, H., Zhang, X., & Wang, Y. (2022). Effects of AI-based pronunciation feedback on EFL learners' oral proficiency. Computer Assisted Language Learning, 35(4), 789–810. https://doi.org/10.1080/09588221.2021.1957123

4. Jenkins, J., & Park, H. (2021). Chatbots and oral fluency: The role of AI in second language speaking practice. ReCALL, 33(2), 145–164. https://doi.org/10.1017/S0958344021000045

5. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. Language Teaching, 31(2), 57–71. https://doi.org/10.1017/S0261444800012970
6. Baker, W., & Mackey, A. (2020). AI in language learning: Opportunities and challenges. London: Routledge.
7. Ellis, R. (2008). The study of second language acquisition (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.

UO'K 37.018.44:374.13:378.147(586.5)

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MILLIY VA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Sh.D.Xonbabayev, o'qituvchi, PhD, Qo'qon davlat universiteti, Qo'qon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va samaradorligi tahlil etilgan. Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qituvchilarni raqamli muhitda ishlashga o'rgatish, ularning kasbiy mahoratini oshirish va o'quvchilarda milliy hamda umummadaniy qadriyatlarni rivojlantirishning samarali yo'llari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak o'qituvchi, milliy kompetensiya, umummadaniy kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik samaradorlik, raqamli ta'lim.*

Аннотация*. В данной статье проанализированы педагогические возможности и эффективность использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в процессе формирования национальных и общекультурных компетенций у будущих учителей. В условиях современного образования на основе компетентностного подхода освещены вопросы обучения педагогов работе в цифровой среде, повышения их профессионального мастерства, а также эффективные пути развития у учащихся национальных и общекультурных ценностей.*

Ключевые слова*: будущий учитель, национальная компетенция, общекультурная компетенция, информационно-коммуникационные технологии, педагогическая эффективность, цифровое образование.*

Abstract*. This article analyzes the pedagogical potential and effectiveness of using information and communication technologies (ICT) in the process of forming national and general cultural competencies among future teachers. Within the framework of modern education and the competency-based approach, the study highlights the importance of training teachers to work in a digital environment, improving their professional skills, and identifying effective ways to foster national and general cultural values among students.*

Keywords*: future teacher, national competence, general cultural competence, information and communication technologies, pedagogical effectiveness, digital education.*

Kirish. Globalizatsiya va raqamli transformatsiya sharoitida ta'limning asosiy vazifasi — bo'lajak o'qituvchilarni raqobatbardosh, barkamol va milliy qadriyatlarga sodiq mutaxassis sifatida tayyorlashdir. Milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish bugun davlat siyosati darajasida dolzarb bo'lib, bu borada PF–6079 va PQ–4851 qarorlarida pedagogik ta'limni modernizatsiyalash, o'qituvchilarning AKT kompetensiyalarini rivojlantirish va raqamli muhit yaratish vazifalari belgilangan. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda PQ–5032 qarori ta'limni raqamlashtirish va masofaviy tizimlarni kengaytirishga qaratilgan. Xalqaro tajribada, jumladan UNESCOning "ICT Competency Framework for Teachers" hujjatida ham o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muhim yo'nalish sifatida qayd etilgan. Demak, AKTdan foydalanish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki davlat siyosati va xalqaro standartlarga uyg'unlikni ham ta'minlaydi.

Metodologiya. Ta'lim jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida markaziy o'rin tutadi. Milliy kompetensiyalar o'quvchilarda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy meros va an'analar asosida ma'naviy dunyoqarashni kengaytirishni ta'minlasa, umummadaniy kompetensiyalar esa dunyo madaniyati,

umuminsoniy qadriyatlar va tolerantlikni anglashga yo‘naltiriladi. Bu ikki kompetensiyaning uyg‘un rivojlanishi o‘quvchilarda milliy o‘zlik va global fuqarolik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvdan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki amaliy ko‘nikma va munosabatlarni ham shakllantira olishi lozim. Shuning uchun ta’lim jarayonida loyihaviy faoliyat, madaniy tadbirlar, dramatizatsiya, reflektiv yozuvlar va elektron portfellar kabi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Baholash esa ko‘p manbali yondashuv asosida rubrikalar, e-portfolio va o‘zaro baholash orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) mazkur jarayonda asosiy vositalardan biridir. Interaktiv taqdimotlar, onlayn kurslar, virtual muzeylar, raqamli kutubxonalar va xalqaro vebinarlar milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda keng imkoniyat yaratadi. Masalan, Google Arts & Culture platformasi orqali talabalar tarixiy obidalar bilan virtual tanishishi, Google Classroom yoki Moodle orqali madaniy loyihalarni amalga oshirishi, Zoom orqali esa xalqaro hamkorlik darslarini tashkil etishi mumkin.

AKT vositalarining afzalligi shundaki, ular ta’lim jarayonini interfaol va vizual shaklda olib borish, madaniy materiallarni keng auditoriyaga yetkazish, talabalarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarni raqamli savodxonlikka tayyorlash, infratuzilmani mustahkamlash va axborot xavfsizligini ta’minlash muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Pedagogik samaradorlik omillari. Bo‘lajak o‘qituvchilarni AKT asosida tayyorlashda pedagogik samaradorlikni ta’minlovchi omillar ta’lim jarayonini sifatli tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, innovatsion metodlar — masofaviy ta’lim, aralash ta’lim (“blended learning”) va gamifikatsiya talabalarda mustaqil bilim olish motivatsiyasini kuchaytirib, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijodiy fikrlashni rivojlantirish yo‘nalishida taqdimot, loyiha ishlari va elektron portfellardan foydalanish talabalarning mustaqil tahlil qilish, yangicha yondashuv ishlab chiqish hamda kasbiy tayyorgarligini tizimli ravishda namoyon etadi. Monitoring va baholash tizimining onlayn testlar, elektron reyting va virtual nazorat topshiriqlari asosida tashkil etilishi esa shaffoflik, tezkorlik va obyektivlikni ta’minlab, ta’lim sifati ustidan muntazam nazoratni kuchaytiradi. Demak, innovatsion metodlardan foydalanish, ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlash va shaffof baholash tizimlari bo‘lajak o‘qituvchilarni AKT asosida tayyorlash samaradorligini oshiruvchi asosiy pedagogik omillar hisoblanadi.

Natija. Bo‘lajak o‘qituvchilarni milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi bir qator amaliy yondashuvlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xususan, 3D turistik ilovalar orqali talabalar milliy merosni raqamli shaklda tadqiq etib, o‘zlashtirilgan bilimlarni pedagogik jarayonda zamonaviy uslubda yetkazish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Onlayn adabiyot va san’at darslari esa virtual kutubxonalar va xalqaro vebinarlar yordamida umumiy madaniy kompetensiyalarni shakllantirib, interkultural muloqot, tolerantlik va ijodiy fikrlashni kuchaytiradi. Shu bilan birga, virtual laboratoriyalar tarix, madaniyat va pedagogika fanlarining integratsiyasini ta’minlab, talabalarni ilmiy-tadqiqot va amaliy tajribaga tayyorlaydi. Umuman olganda, 3D modellashtirish, onlayn kurslar va virtual laboratoriyalar bo‘lajak pedagoglarni zamonaviy ta’lim muhitiga moslashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish hamda kasbiy tayyorgarlikni zamonaviy talablar darajasiga olib chiqishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchilarni milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishga tayyorlash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi bir qator ilmiy va amaliy jihatlar bilan asoslanadi. Avvalo, AKT vositalari ta’lim jarayonini faqatgina nazariy bilimlarni yetkazish vositasi sifatida emas, balki interaktiv, kreativ va kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlarni o‘quvchilarga singdirish, ularni tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalash hamda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish o‘qituvchidan keng qamrovli metodik yondashuvni talab qiladi. Shu jihatdan, 3D turistik ilovalar, onlayn adabiyot va san’at darslari, virtual laboratoriyalar kabi raqamli vositalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli, interfaol va

samarali qiladi. Bu jarayon bo‘lajak pedagoglarda o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ–637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent: Prezident qarorlari to‘plami, 2020-yil 5-oktabr, PF–6079-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Raqamli ta’lim resurslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent: VM qarorlari to‘plami, 2021-yil 19-aprel, 222-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent: VM qarorlari to‘plami, 2022-yil 6-aprel, 166-son.

5. Hasanboev J., Yo‘ldoshev J., To‘xtaxo‘jaeva M. va boshq. Pedagogika: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 420 b.

6. Axmedov M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020. – 356 b.

7. Usmonov B. Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2022. – 280 b.

8. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – 90 p.

9. European Commission. Key Competences for Lifelong Learning: European Reference Framework. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2019. – 27 p.

UDC 378:378.147:81’271:316.77

DEVELOPING PHILOLOGY STUDENTS' SOCIOCULTURAL COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION

N. Yakubova, PhD, *Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers****, National Research University,*** *Tashkent*

Annotatsiya. *ushbu tadqiqot kontekstga bog'liq pedagogik modelni taklif qilish va empirik baholash orqali oliy o'quv yurtlarida filologiya talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentsiyasini mustahkamlash zarurligini ko'rib chiqadi. Ijtimoiy-madaniy kompetentsiya turli madaniy kontekstlarda samarali talqin qilish, vositachilik qilish va o'zaro ta'sirni ta'minlaydigan kognitiv, ijtimoiy-emotsional va xulq-atvor qobiliyatlarining yaxlit to'plami sifatida kontseptsiyalanadi.*

Kalit so'zlar: *madaniyatlararo, (CLIL), ijtimoiy-madaniy, madaniyatlararo o'zaro ta'sir, usullar va baholash.*

Аннотация. *В данном исследовании рассматривается необходимость укрепления социокультурной компетентности студентов-филологов в высших учебных заведениях путем предложения и эмпирической оценки контекстно-зависимой педагогической модели. Социокультурная компетентность концептуализируется как интегрированный набор когнитивных, социально-эмоциональных и поведенческих способностей, которые обеспечивают эффективную интерпретацию, посредничество и взаимодействие в различных культурных контекстах.*

Ключевые слова: *межкультурное, (CLIL), социокультурное, кросс-культурное взаимодействие, методы и оценка.*

Abstract. *This study addresses the need to strengthen sociocultural competence among philology students in higher education by proposing and empirically evaluating a context-sensitive pedagogical model. Sociocultural competence is conceptualized as an integrated set of cognitive, socio-affective, and behavioral abilities that enable effective interpretation, mediation, and interaction across cultural contexts.*

Key words: *intercultural, (CLIL), sociocultural, cross-cultural interaction, methods, and assessment*

Introduction. In the context of increasing globalization and intensified intercultural contacts, philology education must go beyond traditional linguistic and literary knowledge. Modern philology graduates are expected to function effectively in diverse cultural environments, to interpret and mediate cultural meanings, and to participate in international academic and professional spaces.

Sociocultural competence — understood as an integrated set of knowledge, skills, attitudes, and strategies that enable appropriate and effective behavior across cultural contexts — is therefore a core outcome of higher education for philologists.

The relevance of this study is grounded in several contemporary trends: the internationalization of higher education; growing demands from employers and academic partners for graduates capable of intercultural communication; and the emergence of digital platforms that expand opportunities for cross-cultural interaction. Theoretical frameworks from intercultural communication (e.g., Byram's model), communicative language teaching, and content-and-language integrated learning (CLIL) provide a basis for conceptualizing sociocultural competence as multi-dimensional, combining cognitive, socio-affective and behavioural components.

The present research aims to design, implement, and evaluate a contextualized model for developing sociocultural competence among philology students in higher education. The study pursues a mixed-methods approach, combining theoretical analysis, curriculum design, pedagogical intervention, and empirical evaluation. Expected outcomes include a validated set of competence criteria, an educational module integrating project-based and digital intercultural tasks, and assessment tools for tracking competence development.

The practical significance of the research lies in producing teaching materials, learning activities, and assessment rubrics that can be integrated into philology curricula to enhance graduates' intercultural readiness. The study's novelty consists of combining communicative, project-based, and digital exchange methodologies into a coherent, context-sensitive model adaptable to national and institutional specifics.

Structure of the work: Chapter 1 reviews theoretical foundations and existing studies on sociocultural and intercultural competence. Chapter 2 presents the proposed model, learning module design, and pedagogical techniques. Chapter 3 describes the empirical study: implementation, data collection, and analysis. The conclusion summarizes findings, offers pedagogical recommendations, and suggests directions for further research.

Ready formulations

- **Problem:** Existing theoretical insights into intercultural competence are not consistently translated into systematic, context-sensitive pedagogical practices within philology programs, leaving graduates underprepared for culturally complex professional and academic environments.

- **Aim:** To develop and empirically validate a model for forming sociocultural competence in philology students in higher education.

- **Objectives:**

1) Theoretically define sociocultural competence for philology education.

2) Identify criteria and levels of competence;

3) Design an educational module and teacher guidelines;

4) Implement and evaluate the module in a higher education setting.

Suggested methods and assessment

- Pedagogical methods: communicative tasks, project-based learning, virtual intercultural exchanges, case studies, reflective journals, and role-plays.

- Data collection: pre-/post-tests, rubric-scored portfolios, student interviews, and teacher observations.

- Assessment criteria: cognitive knowledge of cultural systems, pragmatic and discourse strategies, socio-affective readiness (empathy, tolerance), and behavioural adaptivity; evaluate via analytic rubrics and mixed quantitative/qualitative analysis.

Methodology. The study employs a mixed-methods design combining quantitative and qualitative approaches (convergent parallel or explanatory sequential, specify per institution). This allows for measuring changes in students' sociocultural competence and explaining how and why these changes occur following pedagogical intervention. The research comprises three phases:

(1) instrument and module development with expert validation;

(2) pilot implementations in a philology course;

(3) outcome evaluation and qualitative analysis of participant experience.

Participants and sampling. Participants are undergraduate philology students (years 2–4) at a higher education institution. Aim for a pilot group of 30–60 students for quantitative analysis and 10–15 for in-depth qualitative study (interviews/focus groups). Use purposive sampling to select classes where the module can be integrated; include a control group (a comparable course without the module) if possible for comparative analysis.

Instruments and materials.

- Educational intervention: a modular teaching unit (4–8 weeks) integrating communicative tasks, project-based assignments, virtual intercultural exchanges, case studies, and reflective journals. Include the teacher's guide and student handouts.

- Pre- and post-test: a structured test measuring cognitive knowledge (cultural facts, norms), pragmatic/discourse strategies, and situational judgement items. Include Likert-scale self-assessment of socio-affective readiness (empathy, tolerance).

- Competence rubric: analytic rubric with criteria (Knowledge, Communicative Strategies, Socio-affective Orientation, Behavioural Adaptivity, Reflection) and 4 levels (low — basic — proficient — advanced).

- Portfolios: collection of students' project outputs, reflections and artefacts.

- **Procedure.**

1. Development and validation (4–6 weeks): literature-based design of module and instruments; seek feedback from 3–5 experts (philology, intercultural communication, pedagogy); revise materials.

2. Baseline data collection (week 0): administer pre-test, collect demographic data, initial self-assessments and expectations.

3. Intervention (4–8 weeks): deliver the module as part of the course. Ensure teacher training session (1–2 hours) on implementation and assessment.

4. Formative monitoring: collect reflective journals, interim observations and teacher notes.

5. Post-intervention data collection (week +1): administer post-test, collect portfolios, conduct semi-structured interviews (10–15 students) and teacher interviews; carry out classroom observations during intervention.

6. Follow-up (optional, after 8–12 weeks): retention check using selected measures.

Practical implementation notes.

- Teacher training is essential: provide a rubric walkthrough and sample scored artefacts.

- Time allocation: integrate module into existing course schedule or offer as an intensive mini-course.

- Digital tools: use platforms for virtual exchanges, e-portfolios, and synchronous/asynchronous tasks.

- Dissemination: prepare a concise teacher pack (lesson plans, assessment rubrics, sample tasks).

Example items (brief)

- Sample pre/posttest item (situational judgement): "A visiting researcher uses an informal greeting that you perceive as overly familiar. How would you respond? (choose and justify)". Score for pragmatic appropriateness and cultural interpretation.

- Rubric descriptor (Reflection): Level 1 — superficial description; Level 3 — critical comparison of cultural perspectives with evidence from experience; Level 4 — integrates theory and practice with proposals for adaptive communication strategies.

Expected outcomes.

- Empirical evidence of change in competence scores (with effect size estimates).

- Validated module and assessment instruments ready for wider implementation.

- Qualitative insights into effective pedagogical elements and student learning trajectories.

REFERENCES:

1. Deardorff, D. K. (Ed.). (2009). The SAGE Handbook of Intercultural Competence. SAGE.

2. Fantini, A. E. (2009). Assessing intercultural competence: Issues and tools. B D. K. Deardorff (Ed.), The SAGE Handbook of Intercultural Competence.

3. Liddicoat, A. J., & Scarino, A. (2013). Intercultural Language Teaching and Learning. Wiley-Blackwell.

4. O'Dowd, R. (2016). Online Intercultural Exchange: An Introduction. Routledge.

UO'K 378.147:81'25

TALABALARGA SOTSIOLINGVISTIK BIRLIKLARNI TARJIMA QILISHNI O'QITISH METODIKASI

M.V.Yo'ldosheva, tayanch doktorant, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sotsiolingvistik birliklarning xususiyatlari, tarjimonning sotsiolingvistik kompetensiyasi, asliyat matnida qo'llanilgan sotsiolingvistik birliklarni tarjima qilish usullari hamda ular yordamida tarjimaning sotsiolingvistik muammolarini bartaraf etishni talabalarga o'rgatishda qo'llanadigan interfaol metodlar hamda mashq va topshirishlar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar*: tarjima, sotsiolingvistik birlik, sotsiolingvistik kompetensiya, tarjima usuli, interfaol metod, mashq, topshiriq.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются характеристики социолингвистических единиц, социолингвистическая компетенция переводчика, методы перевода социолингвистических единиц, используемых в оригинальном тексте, а также интерактивные методы, упражнения и задания, используемые для обучения студентов преодолению социолингвистических проблем перевода с их помощью.*

Ключевые слова: *перевод, социолингвистическая единица, социолингвистическая компетенция, метод перевода, интерактивный метод, упражнение, задание.*

Abstract. *This article discusses the characteristics of sociolinguistic units, the sociolinguistic competence of the translator, the methods of translating sociolinguistic units used in the original text, and the interactive methods, exercises and assignments used to teach students how to overcome sociolinguistic problems of translation with their help.*

Keywords: *translation, sociolinguistic unit, sociolinguistic competence, translation method, interactive method, exercise, assignment.*

Kirish. Sotsiolingvistik birliklar bu jamiyat a'zolari tomonidan jinsiga, yoshiga, ijtimoiy mavqeiga va muloqot joyiga qarab qo'llaniladigan nutq birliklari hisoblanadi. Sotsiolingvistik birliklar jargonlar, professional leksik birliklar, argolar, slenglar, dialektlar, murojaat shakllari, nutqiy etiket birliklari, imo-ishoralar, mimikalarni o'z ichiga oladi. Odatda jargonlar, argolar, professional leksik birliklar, dialaektlar kabi sotsiolingvistik birliklarni tushunish, talqin qilish va qo'llash borasida ko'proq chalkashliklar yuzaga kelish mumkin.

Jargon bu ijtimoiy yoki kasbga oid bo'lgan leksik birliklar hisoblanib, barcha uchun birdek ma'lum atamalar hisoblanmaydi. Ushbu terminlarni ma'lum bir ijtimoiy guruh yoki kasb egalarigagina ma'lum bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Argolar esa ma'lum bir tor ijtimoiy guruhga tegishli bo'lib, ko'proq maxfiy holatlarni ifodalash, axborotni tashqariga yetkazmaslik uchun ishlatiluvchi terminlar hisoblanadi. Ko'proq ushbu terminlarni jinoyat olamida maxfiylikni yoki eksklyuzivlikni saqalash uchun qo'llaniladi. Masalan, argoga "razvetkachi" tushunchasini "qaychi" tarzida yoki politsiya xodimlariga nisbatan "hit", pulga nisbatan "loy" terminini qo'llanilishini misol bo'la oladi. Demak argo ham jargon kabi ma'lum bir tabaqa vakillarigagina tushunarli bo'lgan leksik birliklar hisoblanadi. Jargon va argolarni bir biridan farqi shundaki jargonlar asosan rasmiy holatlarda ya'ni ma'lum bir kasb vakillari yoki shu kabi ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanilsa, argo esa norasmiy holatda ya'ni ko'cha terminlari hisoblanadi.

Sleng esa ma'lum bir yosh doirasida yoki ijtimoiy tabaqa doirasida qo'llaniluvchi terminlardir. Masalan, yoshlar orasida "daxshat" salbiy ma'noni ifodalovchi termini "juda zo'r" kabi ijobiy ma'noda ishlatilishi, yoki turli nomlarni, jumladan, universitetni "univer" tarzida, internetni "net" shaklida qisqartirib qo'llanilishi slenglarga misol bo'la oladi.

Dialektlar esa leksik birliklarning leksik, grammatik, fonetik jihatdan o'zgarishi mumkin bo'lgan shevaga xos so'zlardir. Ular hududiy jihatdan joylashishiga qarab tilni variantlashuvi hisoblanib, ma'lum bir hududda yashovchi barcha insonlar uchun tushunarli bo'lgan tilning bir

ko'rinishi hisoblanadi. Masalan, Xorazimda eshikni "qapi" shaklida Farg'ona vodiysida narvonni "shoti" shaklida aytilishini misol sifartida aytish mumkin. Demak, jargon, argo, sleng va dialektlar bir biridan farq qiluvchi terminlar bo'lib ular quyidagicha xususiyatga ega.



1-rasm. Jargon, argo, sleng va dialektlarning o'ziga xos xususiyatlari

Murojaat shakllari esa ko'proq xalqalarning madaniyatiga aloqdor bo'ladi. Masalan, o'zbeklarda, turmush o'rtog'ini katta o'g'lining ismi bilan chaqirilishi, yoki "xo'jayin", "dadasi" deb murojaat qilinishi, inglizlarda esa turmush o'rtog'ini ismi bilan yoki "dear", "honey", "my love" kabi birliklar orqali ifodalanadi.

Natija va muhokamalar. Yuqoridagi sotsiolingvisik birliklarni misol tariqasida keltirish orqali aytishimiz mumkinki, har bir tilning o'z meyoriy qoidalari mavjud bo'lib, bir tildagi sotsiolingvistik birlik boshqa millatning nutqiy meyorlariga turli xil kontekstual holatlar sabab muvofiq bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ushbu masalada ikki til uchun ham muvofiq tarjima variantini berish borasida asosiy mas'uliyat tarjimonning zimmasiga tushadi. Ular asliyat va tarjima tillarini til meyorlarini o'rganib chiqqan holda, ikki til vakillari uchun ham tushunarli bo'lgan tarjima variantlarini keltirishlari ularning sotsiolingvistik kompetensiyalarini qay darajada takomillashganligini ko'rsatib beradi.

M. F. Ovchinnikova o'z tadqiqotida sotsiolingvistik kompetensiya haqida olimlarning fikrini o'rganib chiqqan holda unga quyidagicha ta'rifini keltirgan: "Sotsiolingvistok kompetensiya – shaxsning kommunikativ maqsadi, niyati, ijtimoiy maqomlarini, kommunikantlarning ro'llarini va sotsiolingvistik meyorga va o'ziga xos milliy munosabatlarga mos ravishda kommunikativ vaziyatni hisobga olgan holda nutq hatti-harakatlarini aloqa sharoitlariga mos ravishda tashkil etish qobiliyatidir" [1].

Sotsiolingvistik kompetensiya- madaniy, umumiy ijtimoiy qoida va normalar jamiyatda biz egalik qilgan narsa va obyektlarga qay tarzda ta'sir o'tkazishdan habardor bo'lish. Uning maqsadi talabalarning turli madaniyatlarida bir xil narsa, obyekt, subyekt va jarayonlarni ta'riflashda grammatik, sintaktik, stilistik birliklarni to'g'ri tushunish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat [2].

Sotsiolingvistik kompetensiya ham bir nechta komponentlardan tashkil topgan bo'lib, bo'lajak tarjimonlarda ushbu tarkibiy qismlarga oid bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish tarjimonning tarjima jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy lingvistik muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Tadqiqotchilarning ilmiy-izlanishlarida berilgan ijtimoiy-lingvistik kompetentsiya ta'riflari va xususiyatlaridan kelib chiqib O.Bobrikova tarjimonning ijtimoiy lingvistik kompetensiyaning 5 ta komponentdan tashil topishini aniqlagan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Sotsiolingvistik kompetensiyaning tarkibiy komponentlari

Aksiologik komponent chet tilida so'zlashuvchi insonlarga va ularning mavjud qadriyatlar tizimiga, ya'ni urf-odat, madaniyat va an'analariga hurmat va bag'rikenglikni shakllantirish hisoblanadi.

Lingvistik va madaniy komponentga o'z mamlakati va o'rganilayotgan til mamlakati tarixi, an'analari, madaniy qadriyatlari, voqeliklaridagi o'xshashlik va farqlarni topish va tushuntirish, shuningdek, madaniyatlar muloqotini tashkil qilishda shaxsning tayyorligini ham o'z ichiga oladi.

Til komponentiga hududiy dialektlar va sotsiolektlar maxsus nutq figuralari va ularning kontekstual ma'nosini tushunish, o'rganilayotgan til mamlakatida qabul qilingan nutq odob-axloq qoidalarini egallash, bundan tashqari, lingvistik vositalarni ma'lum aloqa sohasi, ijtimoiy mavqei va kommunikantning roli bilan bog'lash qobiliyati bilan xarakterlanadi.

Vaziyat-xulq-atvor komponentiga imo-ishoralar, mimikalar, fonatsiya xususiyatlari va ularning kontekstual ma'nosini tushunish kabi ijtimoiy jihatdan belgilangan noverbal vositalarni o'zlashtirish asosida o'z xatti-harakatlarini qurish qobiliyatidan iborat.

Baholash-motivatsiya komponentiga sotsiolingvistik kompetentsiyani bilish darajasini aniqlash nuqtai nazaridan o'z nutqini boshqarish, tahlil qilish va baholash qobiliyati bilan tavsiflashni o'z ichiga oladi [3].

Asliyat matnidagi sotsiolingvistik birliklarni tarjima matniga olib o'tishda bir qator tarjima usullaridan foydalanish mumkin. Tarjimon ikki til vakillari uchun ham sotsiolingvistik birliklarni muvofiq tarzda tarjima variantini berish uchun kalkalash, funksional ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, tasviriy ekvivalentlik, moslashtirish, tafsillash, transkripsiya va shu kabi tarjima usullaridan keng foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Funksional ekvivalentlik usulida asliyat tilidagi leksik birlik tarjima tilida huddi shu vazifada qo'llaniladigan birlik orqali ifodalanishi bo'lsa, madaniy ekvivalentlik esa asliyat tilidagi madaniy birlik tarjima tilida huddi shu mazmunni beruvchi boshqa bir madaniy birlik orqali ifodalanishidir. Misol tariqasida inglizlarda begonalarga nisbatan "janob" shaklida murojaat qilinsa, tarjima matniga "amaki" shaklida olib o'tilishi aynan madaniy ekvivalentlikka misol bo'la oladi. Transkripsiya usulida esa asliyat tilidagi til birligining talaffuziga ko'ra tarjima matniga olib o'tilishidir. Tafsillash usulida esa asliyat tilidagi leksik birlikni detallari bilan ifodalash bo'lsa, moslashtirish usulida esa ma'lum bir atamani barcha uchun tushunarli bo'lgan termin bilan almashtiriladi. Masalan, inglizlar uchun cricket, amerikaliklar uchun baseball shaklida berilishini olish mumkin [4].

Sotsiolingvistik birliklarni tarjima qilishda interfol metodlardan foydalanish tarjimon talabalarining lingvistik va ektralingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishga yordam beradi.

Semantik xarita interfaol metodi orqali talabalar notanish bo'lgan so'z va tushunchalarni o'rganishi mumkin. Ushbu metod orqali sotsiolingvisgik birliklardan biri professional jargonlarni o'rganishda foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi talabalarni ikki guruhga bo'lib, biror bir kasbga oid bo'lgan termini tuzib chiqishni ya'ni birinchi guruh uchun "meditsina" yo'nalishlarini topishni

ikkinchi guruhga esa ushbu sohada qo'llaniladigan texnik buyum nomlarini semantik xarita tarzida bayon etishni topshiriq qilib bersa bo'ladi. Ushbu metod orqali tarjimon talabalar kasbga oid bo'lgan o'zlari uchun notanish bo'lgan bir qator terminlarni o'rganib chiqishlariga yordam beradi.

Bundan tashqari, "Munozara vaqti (Buzz session)" interfaol metodi orqali talabalarni asliyat va tarjima tillaridagi sotsiolingvistik birliklarning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini bilib olish mumkin. Bunda talabalrni bir nechta guruhlarga bo'lib, ularga bir xil sotsiolingvistik birliklar ifodalangan matn beriladi. Har bir guruh o'zi tarjima qilgan variantini o'z fikr va mulohazalari bilan asoslab beradi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan kalkalash, funksional ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, tasviriy ekvivalentlik, moslashtirish, tafsillash, transkripsiya kabi tarjima transformatsiyalari asliyat matnidagi sotsiolingvistik birliklarni adekvat tarzida tarjima matniga olib o'tishga yordam beradi.

The other man was lying on the stone floor, covered with a coarse brown coat.

*- "Get up, **pig**! growled the first. "Don't sleep when I am hungry."*

*- "It's all one, **master**," said the pig, in a submissive manner, and not without cheerfulness; "I can wake when I will, I can sleep when I will. It's all the same."*

Ushbu parchada maxbusni o'zining sherigiga nisbatan kamsitib "pig" shaklida murojaat qilishi, yoki unga javoban o'sha "pig" maxbusni unga "master" shaklida yuzlanishi sotsiolingvistik birliklarga misol bo'la oladi. Ushbu murojaat shakllarini tarjima matniga mos ekvivalentini olib o'tish uchun tarjimon funksional ekvivalentlik tarjima usulidan foydalanishi mumkin. Ushbu usulda maxsus leksik birlikni tarjima matnida huddi shu vazifani bajaruvchi boshqa bir leksik birlik orqali ifodalanadi. Asliyat matnidagi "pig" o'zbek tilida "to'ng'iz" sotsiolingvistik birligi orqali ifodalansa auditoriyaga ham tushunarli bo'ladi. "Master" sotsiolingvistik birligini "xo'jayin", "mohir usta", "ustoz" kabi ma'nolari mavjud bo'lib, kontekstga qarab, o'zbek tiliga "xo'jayin" tarzida olib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilib, yuqoridagi asliyat matni tarjima matniga quyidagi shaklida olib o'tish ahamiyatli bo'lar edi:

Qo'ng'ir palto kiygan boshqa odam esa tosh polda yotar edi.

*- "Tur, **to'ng'iz**, men och paytimda uxlama" deb aytdi birinchisi.*

*- "Boshqa nima qilay, **xo'jayin**. Qiladigan ishim shu, yotaman, uxlayman, keyin yana uyg'onaman" deb g'amgin va itoatkorona javob berdi **to'ng'iz**.*

Demak sotsiolingvistik birliklarni bir nechta tarjima usullari orqali tarjima matniga olib o'tish mumkin ekan. Ushbu tarjima transformatsiyalarini tarjimon talabalariga o'qitishda "semantic xarita", "munozara vaqti" " Aqliy xujum" kabi interfaol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. ushbu metodlar orqali talabalarda tarjima usullarini sotsiolingvistik birliklar tarjimasida qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi ularda kasbiy va umumiy kompetensiyalarini takomillashishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Овчинникова М.Ф. Методика формирования социолингвистической компетенсии учашихсия средней обшеобразовательной школи (английский язик, филологический профил): Автореф. дис. … канд.пед.наук. – Йлан-Йде: 2008. – 24 с.

2. Chiesa D. L, Azizov U, Khan S, Nazmutdinova K, Tangirova K. Reconceptualizing Language Teaching: an inservice teacher education course in Uzbekistan. – Baktria Press, Tashkent – 2019, 210 p.

3. Бобрикова, О.С. Формирование социолингвистической компетенции будущих переводчиков. Тула - 2014 Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – 24 с.

4. Yo'ldoshev. U. R. "Talabalarga badiiy tarjimani o'qitishning lingvistik va metodik asoslari". Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. –Toshkent: 2024. – 256 b.

УЎК 373.2

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ЎРТА ГУРУХ БОЛАЛАРИНИ ХАЛҚ АМАЛИЙ БЕЗАК САНАТИ ОРҚАЛИ НАФОСАТ РУХДА ТАРБИЯЛАШ

У.С.Айтжанова, магистрант, Термиз давлат университети, Термиз
Х.Х.Хасанов, доц., Термиз давлат университети, Термиз

Аннотация. *Мақолада тасвирий фаолият нафосат тарбиясининг муҳим воситаларидан бири деб қаралади. Шунинг учун топшириқни тушунтиришда нарса ва*

ходисаларни тавсифлаш учун образли аниқ сўзларни танлаш лозим. Шундай қилинганда расм чизиш, лой ва пластилиндан нарса ясашни таклиф қилиш бола қалбида жўшқин ҳаяжон пайдо қилиши билан ҳам ўзига хосликка эга. Мана шу каби масалаларни мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланаётган болаларда ўтказилаётган машғулотларга киритиш ва шу машғулотлар давомида тушунтириш каби таълимий муаммолар ҳамда ўзига хос таълим-тарбиявий жиҳатлари учрайди деб мақолада ёритиб берилган.

Калит сўзлар: *амалий санъат буюмлари, жойпуш, кирпеч, зардевор, бўғжома, рўмоллар.нафосат тарбияси, халқ амалий безак санъати, миллий қадриятлар*

Аннотация. *В статье рассматривается изобразительная деятельность как одно из важных средств воспитания детей. Поэтому при объяснении задания необходимо подбирать образные и конкретные слова для описания предметов и явлений. При этом предложение рисовать, лепить из глины и пластилина уникально ещё и тем, что вызывает в детском сердце живой интерес. В статье освещаются педагогические проблемы и особенности воспитательного и образовательного аспекта включения этой тематики в занятия с детьми в дошкольных образовательных организациях и её объяснения на этих занятиях.*

Ключевые слова: *воспитание изысканности, народное декоративно-прикладное искусство, национальные ценности, предметы прикладного искусства, джойпуш, кирпеч, зардевор, божома, платки.*

Abstract. *This article examines visual arts as an important means of educating children. Therefore, when explaining a task, it's essential to select figurative and concrete words to describe objects and phenomena. Furthermore, the idea of drawing, sculpting, and modeling with clay and plasticine is unique in that it sparks a keen interest in children. The article explores the pedagogical challenges and specific aspects of incorporating and explaining this topic in preschool classes.*

Key words: *Cultivation of refinement, folk arts and crafts, national values, applied art objects, joypush, kirpech, zardevor, bozhoma, scarves.*

Мавзунинг долзарблиги. Таълим ва тарбияни инсон маънавий бойлигининг энг асоси сифатида қараш мумкин. Ҳақиқатан ҳам таълим-тарбияни, инсоннинг яшаш тарзи, муҳити, шароити ва давлат тизимини урф-одатларидан айрим ўрганиш мумкин эмас. Чунки, миллий қадриятлар, ўтмиш урф-одатлар, ёш-қариларнинг маданий-маънавий дунёси билан бирлашиб кетади. Ишнинг мураккаблашишига қараб хилма-хил рангларни ишлатиш фақат тарбиячи тавсияси билан қўлланилади. Шундай нақш чизиш машғулотларини муваффақиятли олиб боришда болаларни рангларни танлай билиш ва уйғунлаштиришга ўргатиш, уларга рангларни танлаб бўяш усулларини тўғри тушунтириш, бўёқлар билан ишлаш малакаларини мустахкамлаш катта ахамиятга эга. Шунингдек, мўйқаламдан тўғри фойдаланиш хам машғулотлар самарадорлигини таъминлайди. Кейинги машғулотларда болалар паргори нақши усулида соддароқ жамоавий композициянинг қисмларини бажаради. Машғулотларнинг бутун давомийлиги ўқув йилининг ярмини, январдан майгача бўлган вақтни эгаллайди. Охирги ишни болалар гуруҳ хонасини май ойига безатишадилар. Республикамизнинг ҳар бир вилоятида халқ амалий безак санъатининг хам ардоқли ҳам севимли турлари бор. Уларнинг айрим намуналаридан болалар билан ўтказиладиган машғулотларда фойдаланиш мумкин.

Ҳар қандай тарбиячи педагогика фанини ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан пухта ўрганиши лозим. Таълим-тарбиядан кўзланган вазифани, режалаштирилган мақсадни англаш ва улар тизимида янгибилимлар бериш болаларни тўғри тарбиялаш шарти ҳисобланади. Бунда тарбиячининг беғараз меҳнати, болаларни севиши ва уларга борлиғини бериши каби инсоний хислатлар тарбия самарадорлигини таъминлайди. Асрлар оша сайқалланиб келган ва ҳозирги амалий санъат буюмларининг барчаси мактабгача тарбия ёшидаги болалар учун ҳам тарбия воситасидир Шундай экан бу ёш болаларни эстетик тарбиясига ҳам асос бўлади.

Табиий лойдан ва пластилиндан ясалган халқ ўйинчоқлари болалар учун энг яқин ўйинчоқлардир. У болаларнинг лой ёки пластилиндан ясалган нарсаларда чизган расмларида ҳам ўз ифодасини топиши мумкин. Мураккаб бўлмаган мотивларни ёғочдаги сопол идишлардаги қутича ва бошқалардаги нақшларда топиш мумкин, мато тўқиш, кашта тикиш,

ўймакорлик, тўр тўқишдаги безаклар мураккаб, улардаги ранглар омухтаси бошқача бўлиб, улар энди оқ фонга эмас, балки рангли фонга нақш ишлашади.

Теварак-атроф, турмушда ишлатиладиган буюмлар бинолар, дарахтлар, машиналар биз ўрганиб қолган ранглар билан бўялган. Бўяш жараёнида болалар катта хилма-хилликка йўл қўядилар, уларни жарангдор, шўх ранглар, ёрқин ранглар қизиқтиради. Ҳамма вақт фақат анъанавий рангларга риоя қилишга болаларни мажбур қилмаслик керак; болалар чизган самолётлар, бинолар, шарлар, гуллар, ёрқин ва турли рангга бўялиши мумкин.

Адабиётлар шарҳи. Ёшларнинг нафосат тарбиясига қаратилган масалаларни биз санъатга доир жиҳатларни ўрганган олимлардан Абдурасулов С, Бойметов Б, Булатов С, Қосимов Қ, Махмудов М, Орипов Б, Файзулина Ҳ.М. Ҳасанов Р.Ҳ, Хакимов А. кабиларнинг илмий асарлари, мақола ва нашр ишларида ҳам кўрамиз Бу олимлар тасвирий ва амалий санъат воситасида ўқувчи ёшларни эстетик тарбиялашнинг турли метод, усул ва воситаларини келтириб ўтадилар. Шу каби тасвирий ва амалий санъатнинг эстетик йўналишлари билан рус олим, методистлари ҳам қизиқиб келган. Булардан В.С.Кузин, Н.Н.Растовцев, Б.Неминский, Н.Т.Шпикалова кабилар методик тарзда олий таълим, умумий ўрта таълим мактабларида тасвирий ва амалий санъатни ўқитиш масалалари билан шуғулланишган.

Натижалар ва мунозара. Тасвирий фаолият нафосат тарбиясининг муҳим воситаларидан бири деб қаралади. Шунинг учун топшириқни тушунтиришда нарса ва ходисаларни тавсифлаш учун образли аниқ сўзларни танлаш лозим. Шундай қилинганда расм чизиш, лой ва пластилиндан нарса ясашни таклиф қилиш бола қалбида жўшқин ҳаяжон пайдо қилиши билан ҳам ўзига хосликка эга. Мана шу каби масалаларни мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланаётган болаларда ўтказилаётган машғулотларга киритиш ва шу машғулотлар давомида тушунтириш каби таълимий муаммолар ҳамда ўзига хос таълим-тарбиявий жиҳатлари учрайди. Ўзбек усталари томонидан асил металлар, қимматбаҳ ва ярим қимматбахо тошлардан аҳолига мақбул шаклларда ясалган хозирги замон заргарлик буюмлари: узук, билакузук, зирак, зебигардонлар миллий анъаналарга мос бўлиб, Ўзбекистон ва дунё халқлари орасида машҳурдир. Ўзбекистон халқ анъаналари амалий санъатнинг энг севимли ҳамда қадимий турларидан бири бу ганчкорликдир.Амалий санъатнинг бу турида тошкентлик ва бухоролик усталар сермаҳсул меҳнат қилганлар. Деворларни меъморий декорацияси сифатида ўйма ганчкорлик билан қоплаш республикамизда кенг тарқалган. Кошиннинг бу турини тайёрлаш усули унчалик мураккаб эмас. Бунда материал сифатида ганчдан фойдаланилади. Девор аввал ганчхок билан суваб текисланади – бу ўзига хос грунтофкадир.

Тасвирий фаолиятда болаларнинг теварак-атрофдаги нарса ва ҳодисалар ҳақидаги билимлари мухим ахамиятга эга. Шунинг учун тарбиячи болалар билан олдинги гуруҳлардаги сингари табиат ва теварак-атрофдаги хаётни мунтазам кузатишни, буюмларни (уларнинг формалари, қисмлари, тузилиши ва ранглари) кўздан кечиришини йўлга қўяди. Педагог боланинг кузатувчанлигини рағбатлантириши, уларнинг диққатини об-ҳавога қараб, йил фасллари ва бошқа сабабларга кўра осмон, сув, ўсимликлар рангининг ўзгаришига жалб этиши керак.

Агар болалар лой ёки пластилиндан нарсалар ясайдиган бўлсалар шаклни аниқлаб олиш ва уни ҳар бир болага қўл билан ушлаб кўриш учун бериш, расм чизиш, рангли қоғозлардан аппликациялар ишлаш олдидан шаклни қўл, бармоқлар билан ушлаб кўриш, чизиқ йўналишини кўз билан кузатиш имконини, албатта, бериш ҳам керак, шу мақсадда ўйинчоқлар, кичик-кичик ҳайкалчалардан фойдаланиш яхши натижалар беради. Шуни ҳам унутмаслик керакки, бунинг учун битта, иккита шаклли композицияга эга бўлган, мазмунан болаларга тушунарли бўлиб борлиқ йўналишида фойдаланилган санъат намуналарини танлаш лозим.

Шундан кейин гул ўйиладиган юзага майин “гулганч” берилади. Ҳозирда қандил, наво, шип каби меъморчилик деталлари ганчдан тайёрланмоқда. Шунингдек, маданият саройлари, клублар, театр ва уй-жой биноларининг ички ва ташқи қисмини қуришда ганчкорликдан кенг фойдаланилмоқда.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки. Мактабгача таълимда Ўзбекистон халқ амалий безак санъатига доир кашта қилиб тикилган буюмлар сўзана, палак, гулкўрпа, жойпуш, кирпеч, зардевор, бўғжома, рўмоллар алоҳида каштачиликда ўрин эгаллайди ва ўзига хос кўринишларга эга. Каштачилик, меъморлик ва безак санъатининг бошқа турлари ганч ва ёғоч ўймакорлиги нақш солиш санъатларини тўлдириб боради. Инсоннинг турар жой ва бошқа майда рўзғор буюмларини тўла-тўкис безатишга ёрдам беради. У миллий кийимларда ҳам байрамларда ҳам кундалик кийиладиган кийимларда ҳам кенг тарқалган. Каштачилик халқ орасида чуқур илдиз отган баъзи одатлар билан боғлиқ бўлганлиги учун ҳам болаларга яқин, тушуниши осондир. Каштачиликнинг тарихига бир назар ташланса, кўп замонлардан бери расм бўлиши натижасида маҳаллий, бадиий услублар вужудга келган.

ФОЙДАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. 2017 йил 9 сентябрдаги "Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги ПҚ-3261-сонли қарори.

2. Сакулина Н.П Комарова Т.С. "Болалар боғчасида тасвирий фаолият", Тошкент, "Ўқитувчи", 1976

3. Саморукова П.Г. таҳрири остида. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни табиат билан таништириш", Тошкент, "Ўқитувчи", 1984.

4. Содиқова Н.Ўзбек миллий кийимлари, ХИХ – ХХ асрлар. Т. "Шарқ", 2003. – 159б.

5. Халезова Н.Б. ва бошқ. "Болалар боғчасида лой ва пластилиндан ўйинчоқлар ясаш", Т., "Ўқитувчи", 1991.

УЎК 37.016:744.4

МАКТАБГАЧА ТАЛИМ ТАШКИЛОТИ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ ЛОЙ ЁКИ ПЛАСТИЛИН БИЛАН ИШЛАШ ВА ИЖОДКОРЛИГИНИ ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ

Х.Н.Жўраев, магистрант, Термиз давлат университети, Термиз
Х.Х.Хасанов, доц., Термиз давлат университети, Термиз

Аннотация. *Мактабгача таълим ташкилотларида болаларни лойдан буюм ясаш билан таништириш жараёнида, аввало, унинг умумий хусусиятлари ҳақида элементар тушунчалар бериб ўтиш мақсадга мувофиқ. Лойдан буюм ясашнинг турлари ҳақидаги маълумотлар дастлабки сабоқлар сирасига киради деб мақола ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *Лойдан буюм ясаш, адабиётлар, рўзномалар ва ойномалар материалларини таҳлил қилиш, сўроқлаш, тасвирий-ижодий.*

Аннотация. *При знакомстве детей с глинолепкой в дошкольных образовательных учреждениях целесообразно сначала дать им базовые знания об общих особенностях этого вида лепки. В статье отмечается, что информация о видах лепки из глины включается в начальные занятия.*

Ключевые слова: *Изготовление предмета из глины, анализ материалов из литературы, газет и журналов, анкетирование, визуально-творческая деятельность.*

Abstract. *When introducing children to clay modeling in preschools, it's helpful to first provide them with basic knowledge about the general characteristics of this type of modeling. The article notes that information about the different types of clay modeling should be included in introductory lessons.*

Key words: *Making an object from clay, analyzing materials from literature, newspapers and magazines, questionnaires, visual and creative activities.*

Мавзунинг долзарблиги. Ўзбекистон Республикасининг мустақиллиги туфайли барча соҳаларда ҳар томонлама юксалиш юз бераётгани, туб ижтимоий-сиёсий ва маънвий ўзгаришлар умуминсоний қадриятлар тизимида янгиланиш, инсоннинг барча шахсий эҳтиёжлари, талаблари ва манфаатлари биринчи ўринга кўтарилаётгани, айниса ўсиб келаётган ёш авлоднинг маънавий-ахлоқий ва жисмоний имкониятлари янада ошаётгани бугунги кунда сир эмас. Республикамиз боғчаларида тасвирий фаолиятни ўқитиш методикасини такомиллаштириш ва шу соҳада тарбиячилар учун илмий тавсиялар ишлаб

